Karima Qosimova, Safo Matchonov,
Xolida G'ulomova, Sharofat Yo'ldosheva,
Sharofjon Sariyev

ONA TILI O'QITISH METODIKASI

Boshlang'ich ta'lim fakulteti
talabalari uchun darslik

O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tasdiqlagan

Toshkent
«NOSIR» nashriyoti
2009

www.ziyouz.com kutubxonasi

74.268.O'zb
Q 61

Mazkur darslikda boshlang'ich sinf ona tili o'qitish metodikasi kursining maqsad va vazifalari, bo'limlari: savod o'rgatish metodikasi, sinfda va sinfdan tashqari o'qish metodikasi, fonetika, gragika, grammatika, so'z yasalishi, imlo o'qitish metodikasi; va o'quvchilarning bog'lanishli nutqini o'stirish metodikasi ta'lim oldiga qo'yilgan zamonaviy talablar asosida bayon qilingan. Shu bilan birga, ilmiy-nazariy ma'lumotlarni amaliyotga tatbiq etish usullari yoritib berilgan.

Taqrizchilar: – pedagogika fanlari nomzodi
Ra'no Inog'omova
– pedagogika fanlari nomzodi
Muhabbat Abduraimova

Ona tili o'qitish metodikasi

Q 61 (Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabalari uchun darslik): K. Qosimova, S. Matchonov, X. G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva, Sh. Sariyev. – T.: «NOSHIR», – 2009. 352 b.

BBK 74.268.O'zb

ISBN 978-9943-353-11-4

© «NOSHIR» nashriyoti, 2009 y.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi fanining predmeti va vazifalari

Metod aslida yunoncha ***„metodos"*** so'zidan olingan bo'lib, ***„bilish va tadqiqot yo'li", „nazariya", „ta'limot"*** kabi ma'nolarni bildiradi[1]. Metodika *(yun. „methodike")* biror ishni bajarish, amalga oshirish, ado etish metodlarining, usullarining yig'indisi yoki o'qitish usullari haqidagi ta'limot[2] – ta'lim berish metodlari, yo'llari va vositalari haqidagi fandir.

Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi fanining predmeti o'quvchilarga o'zbek tilini o'rgatish yo'llari va vositalari, ona tilini egallash, ya'ni nutqni, o'qish va yozishni, grammatika va imloni o'zlashtirib olish to'g'risidagi ilmdir.

Metodika maktab oldiga qo'yilgan ta'lim va tarbiyaviy vazifalardan kelib chiqib, ona tilini o'rgatishning vazifalarini va mazmunini belgilaydi, ta'lim-tarbiya berish jarayonini tekshiradi, shu jarayonning qonuniyatlarini va ta'lim berish usullarining ilmiy asoslangan tizimini belgilaydi.

Metodika fani quyidagi masalalarni o'rganadi:

1. O'qitishning vazifalari va mazmunini aniqlaydi. *Nimani o'qitish kerak?* savoliga javob beradi, ya'ni boshlang'ich sinflar ona tili kursining dasturlarini, ta'lim mazmunini belgilab beradi, o'quvchilar uchun darsliklar va qo'llanmalar yaratib, ularni takomillashtirib, samaradorligi va muvofiqligini doimiy nazorat qilib boradi.

2. O'qitish metodlari, tamoyillari, usullari, dars va uning turlarini, o'quvchilar amaliy ishlari – mashqlar va yozma ishlarning izchil tizimini ishlab chiqadi, ya'ni *„Qanday o'qitish kerak?"* savoliga javob tayyorlab beradi.

3. O'quvchilarga ona tilidan bilim berish va ko'nikma hosil qilishda ilmiy nuqtai nazardan eng foydali shart-sharoitlar haqidagi masalalarni

[1] O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi.– T.: „O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2003.– 5-jild, 613-bet.

[2] O'zbek tilining izohli lug'ati.– T.: „O'ME" Davlat ilmiy nashriyoti 2006.– 2-jild, 582-bet.

www.ziyouz.com kutubxonasi

hal qiladi, ya'ni *„Nega xuddi mana shunday o'qitish kerak?"* savoliga javob tayyorlaydi. Eng foydali materiallarni, metodlarni o'rganadi, tanlangan metodlarni asoslaydi, tavsiyalarni eksperimental tekshiradi.

Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi yuqori sinflarda ona tili o'qitish metodikasining dastlabki bosqichi bo'lib, u tekshiradigan masalalarni boshlang'ich sinf o'quvchilariga tadbiqan (muvofiq ravishda) o'rgatadi. Shu bilan birga, boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasining o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Boshlang'ich sinflarda ona tilini o'qitish grammatika, imlo va unga bog'liq holda nutq o'stirish metodikasinigina emas, balki xat-savod o'rgatish, sinfda va sinfdan tashqari o'qish metodikalarini ham o'z ichiga oladi. Shulardan kelib chiqib, boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi fani quyidagi vazifalarni bajaradi:

a) boshlang'ich sinflarda ona tili kursining mazmuni, hajmi va mavjud tizimini, ya'ni kursning (xat-savod o'rgatish, o'qish, grammatika, imlo, nutq o'stirish va h.k.) dasturini belgilash va asoslash;

b) o'qish va yozuvdan bilim va ko'nikmalarning shakllanishi jarayonini hamda bu jarayonda o'quvchilar duch keladigan qiyinchiliklarni o'rganish, xatolarning sababini tahlil qilish, ularning oldini olish va to'g'rilashga yordam beradigan ish turlarini ishlab chiqish;

d) ona tilidan beriladigan o'quv materialini o'quvchilar aniq tushunishi va puxta o'zlashtirishiga, ularda olgan bilimlarini amaliyotda tatbiq eta olishga va o'quvchilarning umumiy taraqqiyotiga, ya'ni ularning zehnini, xotirasini, kuzatuvchanligini, yodda saqlashini, mantiqiy tafakkurini, ijodiy o'ylashini, nutqini o'stirishga yordam beradigan metod va vositalarni ishlab chiqish;

e) ona tilini o'rgatish bilan bog'liq holda maktablar oldiga qo'yilgan tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirish, o'quvchilarda axloqiy va estetik sifatlarni shakllantirish.

Ona tili o'qitish metodikasi ta'limning turli bosqichlarida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlaydi, o'qishning muvaffaqiyati va kamchiliklarini belgilaydi, sababini izlaydi, xato va kamchiliklarni bartaraf etish usullarini topadi.

Ona tili metodikasi ta'lim tizimining barcha bosqichlirida ona tilini o'qitishning izchillik va uzluksizligini ta'minlaydi. Maktabgacha tarbiya muassasasida, asosan, bolalarning nutqini o'stirish nazarda tutiladi. Boshlang'ich sinfda o'quvchilar nutqini o'stirishdan tashqari, ona tilidan elementar nazariy tushunchalarni amaliy o'zlashtirishlari ham nazarda tutiladi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi fani quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi:

1. **Savod o'rgatish metodikasi,** ya'ni elementar o'qish va yozishga o'rgatish. Bolalarga savod o'rgatish pedagogika fanidagina emas, balki ijtimoiy hayotda ham juda jiddiy masalalardan hisoblanadi. Chunki xalqning savodxonligi mustaqillik uchun, siyosiy onglilik uchun, madaniyat uchun kurash qurolidir. Mustaqil O'zbekiston Respublikamizda har bir kishining savodxon bo'lishiga alohida e'tibor berilmoqda. Prezidentimiz I.A.Karimov kelajak avlodning savodxon, yuksak ma'naviyat egasi bo'lib yetishishlari uchun g'amxo'rlik qilmoqdalar. Misol uchun, 1-sinfga qadam qo'ygan bolalarga barcha o'quv qurollarining sovg'a qilinishi, 2008-yilning „Yoshlar yili" deb atalib, shu nomli dasturning amalga oshirilishi va hokazo.

2. **O'qish metodikasi.** Boshlang'ich sinflarda o'qish predmetining vazifasi bolalarni to'g'ri, tez (me'yorida), ongli va ifodali o'qish malakalari bilan qurollantirish hisoblanadi.

3. **Grammatika, fonetika, so'z yasalishini o'rganish metodikasi.** Bu bo'lim elementar to'g'ri yozuvga va husnixatga o'rgatishni, grammatik tushunchalar, boshlang'ich imlo malakalarini shakllantirishni nazarda tutadi.

4. **Nutq o'stirish metodikasi.** Bu bo'lim boshlang'ich sinflarda alohida o'rin tutadi. Bolalar birinchi navbatda tilni, nutqni o'quv predmeti sifatida anglaydilar, ular xohlagan va qiziqarli narsalarnigina emas, balki zaruriy narsa va hodisalar haqida o'ylab, rejali nutq tuzish zarurligini ham tushuna boshlaydilar. Ular o'zining grafik shakli bilangina emas, balki leksikasi, sintaktik va morfologik shakli bilan ham og'zaki nutqdan farq qiladigan yozma nutqni ham egallaydilar. Metodika bolalar nutqini boyitishi, sintaktik va bog'lanishli nutqini o'stirishni ham ta'minlashi kerak. Shuni aytib o'tish kerakki, bog'lanishli nutq maktablarda alohida bo'lim sifatida o'rganilmaydi, u til fanining boshqa bo'limlari bilan bog'langan holda shakllantiriladi.

Ona tili o'qitish metodikasi fanining metodologik va ilmiy asoslari. Ona tili o'qitish metodikasining metodologik asosi borliqni bilish nazariyasidir. Bu fanning bosh vazifasi o'quvchilarning o'zbek tili lug'at boyligini to'liq o'zlashtirib olishlarini ta'minlashdir.

Ma'lumki, jamiyatda til kishilar o'rtasidagi aloqaning zaruriy vositasidir. Tilning aloqa vositasi sifatidagi ahamiyati uzluksiz ortib boradi. Til borliqni oqilona, mantiqiy bilish vositasidir. Til birliklari yordamidagina bilish jarayonida umumlashtirish, tushunchani muhokama va xulosa bilan bog'lash amalga oshadi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Til va nutq tafakkur bilan uzviy bog'lanadi. Tilni egallash va nutq o'stirish bilan o'quvchining fikrlash qobiliyati ham o'sib boradi.

Maktabning vazifasi tilni kishilar orasidagi munosabatning rivojlangan nozik quroliga aylantirish hisoblanadi.

Metodik fan sifatida ona tili o'qitish metodikasi boshlang'ich ta'lim standarti belgilab bergan vazifalarni amalga oshiradi, ya'ni tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish, erkin fikrlay olish, o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olish, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga oid metod va usullarni ishlab chiqadi.

Bilish nazariyasiga ko'ra analitik-sintetik ishlar yordamida til ustida kuzatishdan umumiy xulosa chiqarishga, nazariy ta'rif va qoidaga, shular asosida yana og'zaki va yozma tarzdagi nutqiy aloqaga, to'g'ri yozuv va to'g'ri talaffuzga o'tiladi. O'quvchilar jonli nutqiy aloqaga to'g'ri talaffuz va to'g'ri yozuvni elementar nazariy ma'lumotlar asosida amaliy egallash orqali kirishadilar. Ular til materiallarini kuzatish, tahlil qilish orqali elementar nazariy qoidalar chiqaradilar, o'rgangan va o'zlashtirilgan nazariy qoidalarni amaliyotga ongli ravishda tatbiq etadilar.

Maktabda ona tili o'qitish metodikasining bunday yo'nalishi haqiqatni bilish qonuniyatlariga ham, hozirgi zamon didaktikasi vazifalariga ham mos keladi.

„Ta'lim to'g'risida"gi qonunda ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari belgilab berildi:

– ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi;

– ta'limning uzluksizligi va izchilligi;

– umumiy o'rta, shuningdek, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limining majburiyligi;

– o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining yo'nalishini: akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyoriyligi;

– ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;

– davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;

– ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv;

– bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish;

– ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish[3].

[3] O'zbekiston Respublikasining „Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. //Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.– Toshkent: „Sharq",1997.– 20-bet.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Bu tamoyillar boshlang'ich ta'limda ona tili o'qitish metodikasining vazifalarini ham belgilab, aniqlashtirib beradi. Qonunda ta'kidlanganki, boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'lim olish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim va ko'nikma asoslarini shakllantirishga qaratilgan.

Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi fani o'z vazifalarini belgilab olishda ta'lim sohasidagi davlat hujjatlariga tayanadi. Keyingi yillarda mustaqillik sharofati bilan ta'limni tubdan isloh qilish davlat siyosatining asosiy yo'nalishiga aylandi. „Ta'lim to'g'risida"gi qonun va shu asosda yaratilgan „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" buning yorqin dalilidir.

„Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratish asosiy maqsad qilib olingan[4].

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog'liq bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishni nazarda tutadi.

Ona tili o'qitish metodikasi fani ham ta'lim jarayonini tashkil etish shakllarini va usullarini ishlab chiqishda yuqoridagi maqsadlar asosida ish yuritadi.

Umumiy o'rta ta'limning bir bosqichi bo'lgan boshlang'ich ta'lim 1–4-sinflarni o'z ichiga oladi. Milliy dasturda ta'kidlanganidek, bu bosqichda ta'limning yangicha tizimini va mazmunini shakllantirish uchun quyidagilar zarur:

– o'quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga muvofiq ravishda ta'limga tabaqalashtirilgan yondashuvni joriy etish;

– ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarini yaratish va o'quv-tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta'minlash va hokazo.

Milliy dasturda ta'lim tizimining yaxlit axborot makonini vujudga keltirish bo'yicha ta'kidlangan ko'rsatmalar, uzluksiz ta'limni ta'minlash borasidagi islohotlarni amaliyotga tatbiq etish boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi oldida turgan dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

---

[4] O'zbekiston Respublikasining „Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi". // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: „Sharq", 1997. 39-bet.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Ona tili o'qitish metodikasi psixologiya va pedagogika ma'lumotlariga ham tayanadi. Metodikaning masalalarini hal etishda pedagogik ilmlar ham yordam beradi. Shuning uchun ham psixologiya va pedagogika fanlari ham metodikaning metodologik asosi hisoblanadi.

Pedagogik psixologiya kishiga ta'lim va tarbiya berishning psixologik qonuniyatlarini o'rganishni o'z predmeti deb biladi. U o'quvchilarda tafakkurning shakllanishini tadqiq qiladi, aqliy faoliyat usullari va ko'nikmalarini o'zlashtirish jarayonini boshqarish masalalarini o'rganadi, o'qitish jarayonini amalga oshirishga, pedagog bilan o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga va o'quvchilar jamoasidagi munosabatlarga ta'sir qiluvchi psixologik omillarni, o'quvchilardagi individual-psixologik farqlarni, aqliy rivojlanishdan orqada qoluvchi bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlarining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlaydi. Bu bilan pedagogik psixologiya metodika faniga o'quv materialini tanlashda, boshlang'ich sinflarda ona tilining mazmuni va hajmini, o'quv materialini aniqlashda hamda ularni sinflar bo'yicha taqsimlashni muayyan izchillikda joylashtirishda yordam beradi. O'qitishning samarali usul va shakllarini belgilashga, o'quvchilar analitik-sintetik faoliyatining to'g'ri o'sishiga ko'maklashadi.

Metodika psixologiya fani ma'lumotlariga tayanib o'qitishda o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olib yondashish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ona tili o'qitish metodikasi psixolingvistika fani bilan ham uzviy bog'liqdir. Psixolingvistika metodikaga nutq haqida — fikrni bayon qilish turlarini belgilovchi omillar, „nutqni qabul qilish signallari" apparati, individual munosabatga va ommaviy aloqaga nutqiy ta'sirning foydasi haqida ma'lumot beradi. Bu ma'lumotlar metodik masalalarni hal qilish uchun, ayniqsa, bog'lanishli nutqni o'stirish metodikasi uchun juda muhimdir.

Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi didaktika bilan, ya'ni ta'limning umumiy nazariyasi bilan ham bog'lanadi. Metodika didaktika belgilab bergan qonuniyatlar, qoida va tamoyillarga asoslanadi. Didaktika tamoyillariga, ya'ni o'rganiladigan materialning ilmiyligi va muvofiqligi, til va materialni o'rgatish va mustahkamlashda ko'rgazmalilik, onglilik, bilim, ko'nikma va malakaning puxtaligi, doimiy takrorlash, o'quvchilar bilish faoliyatining faolligi, mustaqillik, o'qitishni hayot bilan, bolalarning qiziqishlari bilan bog'lab olib borishga rioya qilish maktabda o'qitiladigan barcha predmetlardan,

www.ziyouz.com kutubxonasi

shu jumladan, ona tilidan ham o'qish jarayonini tashkil qilishda juda zarurdir.

Ona tili metodikasi umumiy pedagogika bilan ham o'zaro bog'lanadi. Maktab ta'limidagi har bir o'quv predmeti, shu jumladan ona tili ham, faqat bilim berish, ko'nikma va malaka hosil qilish bilangina cheklanmay, bolaning ongini oshirishi va tarbiyalashi ham zarur. Haqiqatan ham, ona tili o'qitish jarayonida bolalarning dunyoqarashi shakllanadi, bilish qobiliyatlari o'sadi, ular aqliy, axloqiy, estetik tomondan rivojlanadi, xarakterida ma'lum ijobiy xususiyatlar yuzaga keladi, mehnat qilishga o'rganadi va hokazo.

Pedagogika fani bolalarni har tomonlama rivojlantirish va ularni tarbiyalash masalalarini ilmiy tomondan ishlab beradi. Ona tili o'qitish metodikasi pedagogika fani yangiliklariga, uning yuqorida qayd etilgan masalalarni ilmiy tomondan ishlab bergan ma'lumotlariga tayanadi.

Ona tili metodikasini umumiy pedagogika bilan bog'lash ayniqsa boshlang'ich sinflarda muhimdir. Kichik yoshdagi o'quvchilarning jamoaviy va shaxsiy o'quv faoliyatida zarur bo'lgan ko'p odat va ko'nikmalari hali tarbiyalanmagan bo'ladi. Tashkilotchilik, jamoa ishiga tez kirishish, e'tibor bilan eshitish, o'qish va yozish, faol va mustaqil ishlash, barcha ishlarni puxta va saranjom bajarish kabi ko'nikma va odatlar o'qituvchi va maktab tomonidan amalga oshiriladigan umumpedagogik tadbirlar tizimini tashkil etadi. Tarbiyaning bunga o'xshash nazariy va amaliy masalalarini pedagogika ishlab radi. O'qituvchi pedagogik talablarni amalga oshirsagina, ona tiliga gatishni ta'lim-tarbiya jihatidan foyda keltiradigan qilib uyushtira di.

Ona tili o'qitish metodikasi o'zbek tilining ma'lum qismini nazariy egallashni nazarda tutadi, shuning uchun ham *fonetika* va *fonologiya, leksikologiya* va *frazeologiya, so'z yasalishi* va *etimologiya, grammatika — morfologiya* va *sintaksis, stilistika,* shuningdek, *orfoepiya, grafika, orfografiya* kabi fanlar ona tili metodikasining muhim asosi hisoblanadi.

Fonetika va fonologiya grafika bilan bog'liq holda savod o'rgatish metodikasini ishlashda, elementar o'qish ko'nikmasini shakllantirishda asos bo'lib xizmat qiladi. Fonetika va grafikaning fonetik tamoyil asosida yoziladigan imlo qoidalarini o'zlashtirishda ham ahamiyati katta. Husnixat metodikasi grafika nazariyasiga tayanadi.

Leksikologiyani bilish maktabda lug'at ishi (ma'nodosh va zid ma'noli so'zlarga oid xilma-xil mashqlar o'tkazish, ko'p ma'noli

www.ziyouz.com kutubxonasi

so‘zlar, ularning ma’no bo‘yoqlari ustida ishlash) ni to‘g‘ri tashkil etish uchun juda muhimdir.

So‘zning tarkibi va so‘z yasalishini o‘rganishda metodikaga so‘z yasalishi, etimologiya, grammatika asos vazifasini bajaradi.

Morfologiya va sintaksis mavhum til hodisalarini shakllantirishni, til qurilishi haqida tushuncha hosil qilishni to‘g‘ri tashkil etishga, grammatik tushunchalardan to‘g‘ri yozuv masalalarini hal qilish uchun foydalanishga imkon beradi. Grammatikadan bilimi bo‘lmagan o‘quvchilarda imlo va punktuatsiyadan ko‘nikma va malakalarni shakllantirish mumkin emas. Grammatika o‘quvchilar nutqini o‘stirishda muhim o‘rin tutadi, chunki grammatika so‘z shakllarini to‘g‘ri tuzish, so‘z birikmasi tarkibidagi so‘zlarni o‘zaro to‘g‘ri bog‘lash va gapni to‘g‘ri tuzishga o‘rgatadi.

To‘g‘ri yozuvga o‘rgatish metodikasining rivojlanishida o‘zbek tili imlosi nazariyasini hisobga olish talab etiladi.

O‘qish metodikasi adabiyot nazariyasiga asoslanadi, chunki o‘quvchilar badiiy asarni amaliy tarzda tahlil qiladilar, ularga adabiyotshunoslikdan nazariy ma’lumot berilmaydi, ammo metodika adabiy asarning yaratilish qonuniyatlarini, ularning o‘quvchilarga ta’sirini, ayniqsa, adabiyotshunoslikka oid mavzulardan asarning g‘oyaviy mazmuni, uning mavzusi va sujeti, kompozitsiyasi, janri, tasviriy vositalarini hisobga olishi zarur.

Ona tili o‘qitish metodikasining tamoyillari

O‘quvchilarga ona tilini o‘rgatish, ularni tarbiyalash va har monlama rivojlantirish vazifasidan kelib chiqib, bilish nazariyasi asoslanib, barcha yaqin, o‘zaro bog‘liq fanlar tavsiyalariga asoslanib, ona tili o‘qitish metodikasi o‘z tamoyillarini ishlab chiqadi. Bu tamoyillar umumdidaktik tamoyillardan o‘zgacha bo‘lib, o‘qituvchi bilan o‘quvchi o‘rtasidagi o‘quv mehnatining yo‘nalishlarini belgilab beradi.

Ona tili o‘qitish tamoyillari quyidagilar:

1. Til materialiga, nutq organlarining o‘sishiga, nutq malakalarining to‘g‘ri rivojlanishiga e’tibor berish tamoyili. Nutq, til qonuniyatlariga, oz bo‘lsa-da, e’tibor bermaslik amaliy nutq faoliyatini egallashga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, fonetik ko‘nikmalarga yetarli e’tibor berilmasa, imloviy savodxonlikka putur yetadi. Bu ta’lim tamoyili tildan olib boriladigan mashg‘ulotlarda eshituv va ko‘ruv ko‘rsatmaliligini

www.ziyouz.com kutubxonasi

ta'minlashni va nutq organlarini mashq qildirishni (gapirib berish, ifodali o'qishni, ichida gapirishni) talab etadi.

2. Til ma'nolarini (leksik, grammatik, morfemik, sintaktik ma'nolarini) **tushunish tamoyili.** So'zni, morfemani, so'z birikmasini, gapni tushunish borliqdagi ma'lum voqea-hodisalar o'rtasidagi bog'lanishni aniqlash demakdir. Til ma'nolarini tushunish tamoyiliga amal qilishning sharti tilning hamma tomonlarini, tilga oid barcha fanlar (grammatika, leksika, fonetika, orfografiya, uslubiyat)ni o'zaro bog'langan holda o'rganish hisoblanadi. Masalan, morfologiyani sintaksisga tayangan holdagina o'rganish, o'zlashtirish mumkin. Sintaksisni o'rganishda esa morfologiyaga suyaniladi, orfografiya fonetika, grammatika, so'z yasalishiga suyanadi va hokazo. So'zni morfemik tahlil qilish uning ma'nosini tushunishga yordam beradi. Tilning hamma tomonlari bir-biri bilan o'zaro bog'langan bo'lib, o'qitishda buni albatta hisobga olish kerak.

3. Tilga sezgirlikni o'stirish tamoyili. Til – juda murakkab hodisa, uning tuzilishini, izchil tizimini fahmlab olmay turib, sal bo'lsa-da, uning qonuniyatlarini, o'xshashliklarini o'zlashtirmay turib, uni yodda saqlab bo'lmaydi. Bola gaplashish, o'qish, eshitish bilan til materiallarini yig'adi, uning qonunlarini o'zlashtiradi. Natijada kishida tilga sezgirlik (til hodisalarini tushunish) xususiyati shakllanadi.

4. Nutqning ifodaliligiga baho berish tamoyili. Bu tamoyil til hodisalarini tushunmay turib savodli yozish, nutq madaniyati vositalarining xabar berish vazifasini tushunish bilan bir qatorda, uning ifodaliligini (uslubga oid) tushunishni, mazmuninigina emas, balki so'z va nutq birliklarining, tilning boshqa badiiy-tasviriy vositalarining hissiy bo'yoqdorligini ham tushunishni ko'zda tutadi. Bu tamoyilga amal qilish uchun, birinchi navbatda, badiiy adabiyotlardan, shuningdek, tilning uslubiy xususiyatlari aniq ifodalangan boshqa matnlardan foydalanish talab etiladi. Bu esa matn mazmuni va uning o'ziga xos „noziklik"larini ham anglab yetishga yordam beradi.

5. Og'zaki nutqni yozma nutqdan oldin o'zlashtirish tamoyili. Bu tamoyil ham kishi nutqining rivojlanishiga ta'sir etadi va til o'qitish metodikasini tuzishda xizmat qiladi.

Metodika tamoyillari, didaktika tamoyillari kabi, o'qituvchi bilan o'quvchining maqsadga muvofiq faoliyatini belgilashga, ularning birgalikdagi ishlarida qulay yo'nalishni tanlashga yordam beradi, metodikaning fan sifatida nazariy asoslash elementlaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Ona tili o'qitish metodikasining tekshirish metodlari

Amaliy fanlar uchun amaliyot muhim rol o'ynaydi. Ona tili o'qitish metodikasi ham amaliy fanlar sirasiga kiradi. Har qanday amaliy xulosalar ishonarli bo'lishi, yuqori ilmiy darajada, ya'ni puxta va asosli bo'lishi lozim. Metodika tavsiyalarining ilmiy darajasi, nazariy tasdiqlanishi yuqori saviyada bo'lishi tekshirish metodlarining puxtaligiga ham bog'liq.

Tekshirish metodlari 2 xil:

1. Nazariy tekshirish metodlari. U quyidagi hollarda tatbiq etiladi:

a) biror hodisaning metodik asosini, unga bog'liq boshqa fanlarni o'rganish, qo'yilgan gipotezani asoslash, izlanishning asosiy yo'nalishini belgilashda;

b) masala tarixi, xorijiy maktab tajribalari va mavzuga doir adabiyotlarni o'rganish, tajribani tahlil qilish, masalaning isbotlanmagan va hal qilinmagan o'rinlarini aniqlash, ilgarigi tajriba bilan hozirgi ahvolni taqqoslash, hozirgi kun talabi bilan baholashda;

d) bir-biriga yaqin fanlar (psixologiya, lingvistika, sotsiologiya) ning tekshirish metodlarini, olimlarning tekshirish ishlari tajribasini o'rganish, qulay metodlarni tanlash, o'zining yangi eksperimental metodikasini yaratish, materiallarni tayyorlash maqsadida;

e) empirik tajriba yo'li bilan olingan materiallarni tahlil qilish va umumlashtirish, o'qituvchilarning ish tajribasini o'rganish, eksperiment natijasini tahlil qilish, amaliy tavsiyanomalarni shakllantirishda.

2. Empirik metod (tajribaga asoslangan metod). Bu metod quyidagi maqsadlarda qo'llanadi:

a) bu metod o'qituvchilarning ish tajribasini o'rganish, yangiliklarini tanlash, umumlashtirish, baholash va ommalashtirish, o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatining darajasini aniqlash;

b) o'quvchilarni o'qitish jarayonini maqsadga muvofiq kuzatish (dars, uning biror qismini, o'quvchilarning javobi, hikoyasini, yozma ishini tekshirish), o'qituvchi va o'quvchilarning faoliyatini so'rovnoma orqali tekshirish;

d) eksperiment (tajriba) metodidan foydalanish. Hozirgi kunda keng tarqalgan bu usulda deduktiv yo'ldan boriladi, ya'ni gipoteza qo'yiladi, mavzuga asosan eksperiment uchun material (o'quv materiali) tayyorlanadi. Eksperiment bir necha marta takrorlanadi, bir necha sinf va bir necha guruhlarda o'tkaziladi. Eksperimentda 2 ta sinf tanlanadi. Biri tajriba sinfi, ikkinchisi taqqoslash uchun tanlan-

www.ziyouz.com kutubxonasi

gan tekshiruv sinfi. Tajriba sinfida yangi metod, yangi darslik, yangi ishlanmadan foydalanilsa, tekshiruv sinfida amaldagi metod, darslik, ishlanmadan foydalaniladi. Ikkinchi marta sinflar almashtiriladi, bu chaprost deb nomlanadi. Har ikki holda ham natija yuqori bo'lsa, demak, ish usuli foydali sanaladi.

Eksperimental tekshirish o'z maqsadining kengligi bilan farqlanadi: ayrim metodik usullarni tekshirishda ommaviylik talab qilinmaydi, ammo yangi dastur, yangi darsliklarni tekshirishga butun tuman, viloyat jalb qilinadi.

Eksperiment vazifasiga ko'ra quyidagi hollarda o'tkaziladi:

1) yangi metod, yangi darslikning muvofiqligini tekshirishda;

2) metod yoki qo'llanmaning qay darajada foydaliligini tekshirishda;

3) metod yoki qo'llanmaning muvofiqligini va samaradorligini aniqlashda.

Eksperiment natijasini chiqarishda belgilangan baho me'yoriga amal qilinadi. Bunday me'yor aniq, barcha holatlar uchun ham bir xil bo'lishi lozim. Ona tili metodikasida yozma ishlarda yo'l qo'yilgan xatolar soni va xarakteri, ma'lum bir vaqtda o'qilgan yoki yozilgan so'zlar soni, og'zaki hikoya va yozma inshoning hajmi va izchilligi me'yoridan foydalaniladi.

Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi o'z predmeti va vazifalariga mos ravishda empirik tekshirish metodidan quyidagi ishlarda ham foydalanadi:

1. Ilg'or o'qituvchilar ish tajribasini umumlashtirishda. Buning uchun ilg'or o'qituvchilarning ish-tajribalari o'rganiladi, tahlil qilinadi, eng foydali jihatlari aniqlanadi va umumlashtiriladi. Bu metodika fani nazariy xulosalarining to'g'riligini tekshirishda asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi, bu fanni yangiliklar bilan boyitib boradi.

2. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi sohasidagi meros va yangiliklarni o'rganishda.

3. Ta'lim berishning u yoki bu usullari va vositalarining foydali ekanini tekshirishda.

4. Ona tilidan o'quvchilarning o'qishlari, yozuvi, mustaqil va ijodiy ishlari ustidan kuzatish olib borishda.

5. O'quvchilar ijodiy faoliyatining natijalarini og'zaki qayta hikoyalash, yozma ish kabi usullar yordamida tahlil qilishda.

Yuqoridagi tekshirish metodlari ushbu fanning davr talabidan kelib chiqib rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish tarixidan

O'zbek xalqi juda qadim zamonlardayoq ilm-fanga katta e'tibor bilan qaragan va uni rivojlantirishga harakat qilgan. Ibn Sino, Beruniy, al-Xorazmiy, Amir Temur, Ulug'bek va boshqa ko'plab allomalar ilm-fanni dunyoga tanitganlar. Ilm-ma'rifatga beqiyos hurmat bilan qaragan xalqimiz qanday qiyinchilik va to'siqlar bo'lmasin, o'z farzandlarining savodli bo'lishini orzu qilganlar, ularini yoshligidanoq maktabga o'qishga berganlar. Maktabdor domlalar o'z usullari va tajribalariga asoslanib bolalarga saboq berganlar.

Demak, O'zbekistonda o'qitishning o'ziga xos usullari mavjud bo'lgan va ular rivojlanib borgan. Bu jarayon silliq kechmagan, ba'zi xato va kamchiliklarga ham yo'l qo'yilgan. Chunonchi, XX asrning 20-yillarida maktabni rivojlantirishda juda jiddiy xatolarga yo'l qo'yildi. Kompleks dasturlarda ona tilini o'rganish tizimi buzildi: grammatik, orfografik ko'nikmalarga yetarli ahamiyat berilmadi. Savod o'rgatishda yaxlit so'z metodi tilning fonetik xususiyatlariga mos kelmadi, analitik-sintetik ishlar ta'minlanmadi, puxta, to'g'ri yozuv masalalari uchun zamin yaratilmadi.

Keyinchalik 1931-yil 5-sentabrda qabul qilingan „Boshlang'ich va o'rta maktab haqida"gi, 1932-yil 25-avgustda qabul qilingan „Boshlang'ich va o'rta maktab o'quv dasturlari rejimi haqida"gi qarorlar yuqoridagi kabi yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni bartaraf qilishda va o'quv mashg'ulotlari tizimini ishlab chiqishda maktabga va o'qituvchilarga yordam berdi. Tezlik bilan savod o'rgatishda analitik-sintetik tovush metodi qayta tiklandi. Grammatik, orfografik materiallarni izchil o'rgatishga, o'quvchilarning har tomonlama savodli bo'lib, madaniy nutqni egallashlariga katta ahamiyat berila boshlandi. O'quvchilar va o'qituvchining o'quv mehnatini tashkil etishning asosiy shakli bo'lgan dars metodikasi muvaffaqiyatli ishlana boshlandi.

O'tgan asrning 50—70-yillari mobaynida boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi sohasida anchagina qo'llanmalar yaratildi. Bu yillarda ona tili o'qitish metodikasi fan sifatida rivojlana boshladi, umumiy pedagogik, didaktik va psixologik xarakterdagi ilmiy tekshirishlarning natijalari ona tili o'qitish metodikasini takomillashtirish va yangi metodika yaratishga imkon berdi. O'zbek tilshunosligi sohasidagi muvaffaqiyatlar ham tilni o'zlashtirish jarayoniga va metodikaning rivojlanishiga jiddiy yordam ko'rsatdi. Xuddi shuningdek, bu fanning rivojlanishiga o'qituvchilarning ommaviy ish tajribalarini o'rganish, umumlashtirish katta ijobiy ta'sir ko'rsatdi. O'sha davrdagi jurnallarda o'nlab metodik maqolalar bosilib chiqdi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

1955-yildan boshlab pedagogika institutlari qoshida boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari tayyorlaydigan fakultetlar ochila boshlandi. Bu ham ona tili o'qitish metodikasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi, ya'ni boshlang'ich sinf o'qituvchilarining umumiy va maxsus tayyorgarlik darajasi o'sdi. Institutlar qoshidagi kafedralarda ishlovchi ilmiy xodimlar metodik masalalarni chuqur, ilmiy asosda hal qilishga harakat qildilar.

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq ona tili o'qitishga katta ahamiyat berila boshlandi. Bunda 1989-yil 21-oktabrda „O'zbek tiliga Davlat tili maqomini berish haqida"gi qaror alohida o'rin tutadi.

Ta'lim sohasidagi bu o'zgarishlar ona tili o'qitish metodikasida ham bir qator imkoniyatlarni yuzaga keltirdi. Bu yangiliklardan ko'plari maktablarda amaliyotga tatbiq qilinmoqda, ba'zilari hozircha sinovdan o'tkazilmoqda. Sinov davrida, birinchidan, o'quvchiga, uning darsdagi va darsdan tashqari vaqtdagi o'quv mehnatiga, u duch kelayotgan qiyinchiliklarga, ko'nikma-malakalarini va rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish metodikasiga ko'proq ahamiyat berilmoqda. Ikkinchidan, ta'lim jarayonida bolaning fikrlash qobiliyatini o'stirish, mustaqilligini va o'quv ishlari jarayonidagi aqliy faolligini oshirish vazifalari hal qilinmoqda. Uchinchidan, mavjud ta'lim tizimidagi tekshirishlar bilan bir qatorda o'qitishning istiqboli haqidagi vazifalarni hal qilish maqsadida ham tekshirishlar olib borilmoqda.

Shunday qilib, fan sifatida ona tili o'qitish metodikasining o'z predmeti, vazifasi, nazariy va ilmiy sohasi bo'lib, bir qator fanlar o'rtasida uning ma'lum o'rni bor. Bu fan ham boshqa fanlar kabi rivojlanib, taraqqiy etib bormoqda.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, ta'lim sohasida ham katta islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, „Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilindi, „Davlat tili to'g'risida"gi qonun qaytadan ko'rib chiqildi, Davlat ta'lim standartlari ishlab chiqildi, ona tili dasturlari va darsliklari yangilandi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 13-maydagi „O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'limni tashkil etish to'g'risida"gi 203-sonli qarorida umumiy o'rta ta'lim ikki bosqichdan iborat qilib belgilandi:

1. Boshlang'ich ta'lim.

2. Umumiy o'rta ta'lim.

Respublikamizda umumiy o'rta ta'limning standarti yaratildi. Unda boshlang'ich bosqich va umumiy o'rta ta'lim nihoyasida o'quvchilar

www.ziyouz.com kutubxonasi

egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning minimal darajasi belgilab berildi. Jumladan, 1–4-sinflarda o'quvchilar ona tili va o'qish predmetlaridan o'qish texnikasi, matn mazmunini va o'zgalar fikrini anglash malakasi, fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarning minimal darajasi belgilab berildi. Bu o'rinda ona tiliga katta vazifa yuklatildi: ona tili ta'limiga o'quv fani sifatidagina emas, balki butun ta'lim tizimini uyushtiruvchi ta'lim jarayoni sifatida qaraldi. Ona tili bo'yicha minimal talablar uch parametrli standart o'lchovi orqali aks ettirildi: o'qish texnikasi, o'zgalar fikrini va matn mazmunini anglash, fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi. Bu talablarni amalda bajarish ta'lim jarayoniga yangicha o'qitish texnologiyalarini tatbiq etishni taqozo qiladi.

Hozirda o'quvchilarga bilim berish, bilimlarni oshirishda mustaqil ishlarni uyushtirish, bilimlarni hisobga olish kabi metodik tavsiyalar tizimi ishlab chiqilmoqda, texnik vositalardan unumli foydalanish, grammatik ta'limiy o'yinlarni joriy etish keng tus olmoqda, ta'lim jarayonida test topshiriqlaridan, turli boshqotirma va jadvallardan keng foydalangan holda mashg'ulotlar uyushtirilmoqda.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, ona tili o'quv fani sifatida shakllanib, rivojlanishning murakkab yo'lini bosib o'tmoqda.

Ona tili – boshlang'ich sinflarda o'quv predmeti sifatida

Til fikrni shakllantirish va bayon qilish, taassurot, his-kechinmalarni ifodalashda muhim o'rin tutadi. Til jamiyat a'zolarining bir-biri bilan o'zaro aloqasi uchun xizmat qiladigan vositadir. Bu vosita qanchalik takomillashsa, fikr shunchalik aniq, ta'sirchan ifodalanadi. Demak, kishilarning o'zaro munosabati, his-tuyg'ulari, kechinma va holatlari til vositasida aniqlashadi. Maktabda ona tilini chuqur o'rganish zarurati tilning bajaradigan asosiy vazifalaridan kelib chiqadi.

K.D.Ushinskiy boshlang'ich maktab o'quv predmetlari tizimida ona tiliga katta ahamiyat berib, uni markaziy va yetakchi predmet hisoblagan. „Ajoyib o'qituvchi bo'lgan ona tili bolaga ko'p narsani o'rgatadi... Bola ikki-uch yil ichida shuncha ko'p narsa o'rganadiki, ko'p narsa bilib oladiki, 20 yil qunt bilan metodik jihatdan juda to'g'ri o'qiganda ham uning yarmicha o'rgana olmaydi. Ona tilining ulug' pedagogligi ham ana shundadir"[5], – deydi u. Shuning uchun ham

[5] Ushinskiy K.D. Tanlangan pedagogik asarlar. – Toshkent: „O'zdavnashr", 1959.– 49-bet.

www.ziyouz.com kutubxonasi

boshlang'ich sinflarda ona tilini o'rganishga katta ahamiyat beriladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ona tili darslarida ongli o'qish va savodli yozishga o'rganadilar, og'zaki va yozma nutqning qonun-qoidalarini egallaydilar. Ona tili sohasidagi ko'nikma-malakalar (nutq, o'qish va yozishga oid malakalar) o'quvchilarning o'quv mehnatining zaruriy sharti va vositasidir. O'quvchi o'qish ko'nikmalarini egallash bilan bir qatorda, birinchi navbatda, o'zining ona tilini o'rganishi zarur, chunki ona tili bilimdonlikning, aql-idrokning kalitidir.

Ona tili boshqa fanlarni o'qitish vositasi hamdir: jamiyat tarixi ham, tabiiy fanlar ham ona tili yordamida o'rganiladi. Demak, ona tili bolaning umumiy kamol topishida ham, bilim va mehnatga havasini uyg'otishda ham alohida o'rin tutadi.

Til muhim tarbiya vositasidir. Badiiy adabiyotlarni, gazeta, jurnallarni o'qigan bola o'zida eng yaxshi xislatlarni tarbiyalab boradi, muomala madaniyatini egallaydi.

Ona tili boshlang'ich sinflarda asosiy o'rinni egallar ekan, har bir o'quvchida ona tiliga qiziqish va muhabbatni tarbiyalab borish zarur.

Boshlang'ich sinflarda ona tili mashg'ulotlari turi va mazmuni quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. O'qish, yozuv, grammatik materialni o'rganish, kuzatishlar hamda o'quvchilarning ijtimoiy faoliyatlari bilan bog'liq holda, ularning og'zaki va yozma nutqini o'stirish.

2. Birinchi sinfga kelgan bolalarga savod o'rgatish, ya'ni ularni elementar o'qish va yozishga o'rgatish, bu ko'nikmalarni malakaga aylantirish.

3. Adabiy til me'yorlarini, ya'ni imloviy va tinish belgilariga rioya qilingan savodli yozuvni, to'g'ri talaffuzni o'rganish, nutq va uslubiy elementlarni egallash.

4. Grammatika, fonetika, leksikologiyadan nazariy materiallarni o'rganish, tildan ilmiy tushunchalarini shakllantirish.

5. O'quvchilarni o'qish va grammatika darslari orqali badiiy, ilmiy-ommabop va boshqa adabiyotlar namunasi bilan tanishtirish, ularda badiiy asarni idrok etish ko'nikmasini hosil qilish.

Bu vazifalarning hammasini boshlang'ich sinflarda ona tili predmeti hal etadi va ular ona tili dasturida aks etadi. Dastur davlat hujjati bo'lib, unda o'quv predmetining mazmuni va hajmi, shuningdek, shu predmetdan bilim, ko'nikma va malakalar darajasiga qo'yilgan asosiy talablar belgilangan bo'ladi. O'qituvchi va o'quvchilar dastur talablari asosida ish olib boradilar.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Boshlang'ich sinflarnig ona tili dasturi ikki qismdan iborat:

1. Tushuntirish xati.

2. Asosiy qism.

Tushuntirish xatida ona tili predmetining tutgan o'rni, uning vazifalari ko'rsatilib, metodik yo'l-yo'riqlar beriladi.

Dasturning asosiy qismi quyidagi bo'limlardan tashkil topgan:

1. Savod o'rgatish va nutq o'stirish.

2. Sinfda, sinfdan tashqari o'qish va nutq o'stirish.

3. Fonetika, grammatika, imlo va nutq o'stirish.

Ularda o'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilimlar mazmuni va ularning bilim, ko'nikmalariga qo'yilgan talablar ko'rsatiladi:

Har bir bo'lim bir necha qismlardan iborat. Masalan, „Sinfda, sinfdan tashqari o'qish va nutq o'stirish" bo'limi „Sinfda o'qish", „Sinfdan tashqari o'qish", „O'qish mavzulari", „O'qish ko'nikmalari", „Matn ustida ishlash" kabi qismlarni o'z ichiga oladi.

Savol va topshiriqlar

1. Ona tili o'qitish metodikasining predmeti nimadan iborat?
2. Metodika fani qanday masalalarni o'rganadi?
3. Ona tili o'qitish metodikasining asosiy vazifalarini ta'riflab bering.
4. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi fanining asosiy bo'limlarini aytib bering.
5. Ona tili o'qitish metodikasi fanining metodologik asoslarini izohlang.
6. Ona tili o'qitish metodikasining boshqa fanlar bilan bog'liqligini tushuntiring.
7. Ona tili o'qitish metodikasining o'ziga xos tamoyillari qaysilar? Ularga tavsif bering.
8. Nazariy metod nima va u qanday hollarda tatbiq etiladi?
9. Empirik metodni tushuntirib bering.
10. Eksperiment vazifasiga ko'ra qanday hollarda o'tkaziladi?
11. Ona tilini o'qitish tarixiga tavsif bering.
12. Boshlang'ich sinflarda ona tili mashg'ulotlarining turi va mazmunini sharhlang.
13. Boshlang'ich sinflar ona tili davlat ta'lim standarti va dasturiga o'z munosabatingizni bildirib taqriz yozing.
14. „Ona tili – boshlang'ich sinflarda o'quv predmeti" mavzusida qisqacha ma'ruza tayyorlang.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Savod o'rgatish metodikasining ilmiy, psixologik va lingvistik asoslari

O'qish va yozish — nutq faoliyatining turi. Maktabda o'qitish elementar o'qish va yozishga o'rgatishdan boshlanadi. „Alifbe"ga asoslangan holda qisqa vaqt ichida o'quvchilar o'qish va yozishga o'rgatiladi, ya'ni o'qish va yozish ko'nikmasini egallaydilar.

Savod o'rgatish davrida o'qish va yozish harakatini maqsadga muvofiq ravishda bajara olish o'qish va yozish ko'nikmasi deyiladi. Bu ko'nikma bilimni talab qiladi, chunki har qanday ko'nikma bilimsiz shakllanmaydi. Bilim ko'nikmaga aylanmagan bo'lishi mumkin. Masalan, bola **v** harfining elementlarini, yozuv chiziqlari orasiga qanday joylashtirilishini bilib, uni daftarda yoza olmasligi yoki o'quvchi harflarni tanib, ularni o'qiy olmasligi mumkin. Yozish ko'nikmasini hosil qilish uchun boshqa faoliyat turlari, ya'ni yozish jarayonida partada to'g'ri o'tirish, ruchkani barmoqlar orasida tutish, daftarni qiyalikda qo'yish kabilar ham o'rgatiladi.

O'qish va yozish ko'nikmasi takomillashtirila borib, malakaga aylantiriladi. Malakaning shakllanishi uchun bir faoliyat bir necha bora takrorlanishi lozim. Yozish malakasida o'quvchi ruchkani qanday ushlash, qanday yurgizish haqida o'ylab o'tirmay, so'z va gaplarni yoza boshlaydi. Demak, o'qish va yozish malakasi harakatning o'ylab o'tirmay amalga oshirilish jarayonidir. Malaka o'qitishning keyingi bosqichlarida mustahkamlanib, avtomatlashish darajasiga yetkaziladi.

O'qish va yozish kishi nutq faoliyatining turi bo'lib, u nutqqa oid malakadir. O'qish malakasi ham, yozish malakasi ham nutq faoliyatining boshqa turlari bilan, ya'ni og'zaki hikoya qilish, o'zgalar nutqini eshitish orqali anglash, ichki nutq bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. Maktabda o'qitishning muvaffaqiyati savod o'rgatishning qanday tashkil etilganligiga bog'liq.

O'quvchini savod o'rgatish jarayonida elementar o'qish va yozishga o'rgatishda o'quvchilarning faoliyat ko'rsatishi va nutq faoliyatiga kirishishlari uchun talab bo'lishi, o'z fikrini og'zaki yoki yozma ifodalashi uchun zaruriyat va ehtiyojni yuzaga keltiruvchi vaziyat yaratilishi lozim.

www.ziyouz.com kutubxonasi

O'qish va yozish malakasi biri ikkinchisining muvaffaqiyatli amalga oshuvini ta'minlaydi. Shuning uchun ham o'qishga o'rgatish bilan yozuvga o'rgatish parallel olib boriladi va bu faoliyat muntazam ravishda mashq qildiriladi. Shunday ekan, savod o'rgatish jarayonida bola juda ko'p o'qishi va yozishi zarur. O'qish uchun ham, yozish uchun ham yangi matn olinadi, chunki bir matnni bir necha bor qayta o'qish bilan maqsadga erishish qiyin. Bu ko'pincha o'qilgan matnni yuzaki yodlab olishga olib keladi. Takroriy faoliyatda vaziyat va mazmunning almashinishi malakani mustahkamlashga yordam beradi, qobiliyatni o'stiradi. O'quvchi oldida uzoq muddatda amalga oshadigan maqsad – o'qish va yozishni o'rganish hamda hozirda bajarishi shart bo'lgan kundalik maqsad – topishmoqni o'qish va javobini topish, so'z va gaplarni o'qish, rasm asosida so'zlab berish kabilar turadi.

O'zbek tili yozuvi tovush yozuvi, ya'ni fonematik yozuvdir. Har bir tovush uchun, har bir fonema uchun maxsus grafik shakl (harf) olingan. O'qishda grafik shakllar tovushga aylantirilsa, yozuvda aksincha, tovushlar harflarga aylantiriladi. Bu o'qish va yozish faoliyatida o'quvchi uchun qiyinchilik tug'dirgandek tuyulsa-da, aslida o'qish va yozish jarayonini soddalashtiradi, chunki tilimizdagi tovushni ifodalovchi harflar soni uncha ko'p emas. O'qish va yozishni o'zlashtirish uchun tovush va harflarning o'zaro munosabatiga oid qoidalarni o'zlashtirish kifoya. Savod o'rgatish metodikasida o'zbek tili tovushlar va harflar tizimining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish talab etiladi.

O'zbek tilining tovush tizimi va yozuvi. O'zbek tili yozuvi fonematik yozuv hisoblanadi. 1993-yil 2-sentabrdagi „Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi qonunga muvofiq o'zbek tili yozuvi uchun lotin grafikasi asos qilib olindi. Nutqning har bir tovushi uchun unga mos grafik shakl qabul qilindi.

O'qituvchi savod o'rgatish jarayonida o'quvchilarni tovush va harflar bilan tanishtirishda, ularni sintezlab o'qishga o'rgatishda o'zbek tilining fonetik xususiyatlarini hisobga olishi zarur.

Savod o'rgatish analitik-sintetik tovush metodiga asosan olib boriladi. So'z bo'g'inga bo'linadi, bo'g'indan kerakli – o'rganilayotgan tovush ajratilib olinadi, tahlil qilinadi, o'rganiladigan harf bilan sintezlanadi, shu asosda harf va butun o'qish jarayoni o'zlashtiriladi. Bunda o'zbek tili grafik tizimi, tovushlarni yozuvda belgilash xususiyatlari hisobga olinadi. Savod o'rgatishda o'zbek tili grafik tizimining quyidagi xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega:

www.ziyouz.com kutubxonasi

1. Savod o'rgatishda tovush-harf bilan tanishtirish unlilardan boshlanadi. Hozirgi o'zbek tilida 6 ta unli fonema mavjud: a, o, i, e, u, o'.

E harfi so'z va bo'g'in boshida qo'llanadi *(ekin, echki, aeroplan)*, undoshdan keyin o'rta keng lablanmagan unli tarzida o'qiladi *(kel, tez)*. Savod o'rgatishda oldin so'z boshida keladigan **e**, so'ngra undoshdan keyin keladigan **e** tovush-harfi bilan tanishtiriladi.

O harfi o'zbekcha, umumturkiy so'zlarda quyi keng, lablangan **o** tovushini ifodalaydi, ruscha-baynalmilal so'zlarda urg'usiz bo'g'inda **a** tarzida *(botanika)*, **o'** tovushi kabi *(tonna)*, qisqa **i** tarzida *(traktor)* talaffuz qilinadi. Shuning uchun bu unli qatnashgan ruscha-baynalmilal so'zlar savod o'rgatish davridan so'ng o'quv jarayoniga kiritiladi.

A tovushi *bahor, savol* kabi so'zlarda o kabi, *muomala, munosabat* kabi so'zlarda **i** tovushiga yaqin talaffuz qilinadi, lekin **a** yoziladi.

U tovushi *qovun, sovun* kabi so'zlarda **i** tovushiga yaqin talaffuz etilsa ham **u** yoziladi.

I tovushi *bilan, sira* kabi so'zlarda talaffuz etilmasa ham yozuvda doimo saqlanadi.

2. O'zbek tilida 24 ta undosh tovush bor. Yozuvda ular 23 ta harf bilan ifodalanadi: shulardan 3 tasi harf birikmasi, 21 tasi yakka harf bilan belgilanadi. Ular quyidagilar: b, d, f, g, h, j *(jurnal)*, j *(jo'ja)*, k, l, m, n, p, q, r, s, t, v, x, y, z, g', sh, ch, ng. Undoshlarni o'rgatishda ham muayyan tartibga, talabga asoslaniladi.

Alifbo davrida undosh tovushlar bilan tanishtirishni sonor, ya'ni ovozdor tovushlar bilan boshlash maqsadga muvofiqdir. Chunki sonor tovushlarni bo'g'in va so'z tarkibidan ajratib olish oson. Lekin **ng** sonor undoshi n va g undosh tovushlari va harflari bilan tanishtirilgach, o'rgatiladi. Harf birikmalarini o'rgatishdagi qiyinchilik hisobga olingan holda, ularning alifbe davrining oxirgi bosqichida o'rganilishi maqsadga muvofiqdir.

J harfi ikki tovushni ifodalaydi, shuni hisobga olib, unga alohida darslar ajratiladi. Birinchi darsda portlovchi **j** tovushini o'rgatish, talaffuzini tushuntirish, analitik-sintetik mashqlar yordamida ko'nikmalar hosil qiliinadi, keyingi darsda esa sirg'aluvchi **j** tovushi va uning talaffuzi o'rgatiladi. So'ng bu ikki tovushning talaffuzidagi farq taqqoslash usuli orqali tushuntiriladi. Berilgan bilim analitik-sintetik mashqlar yordamida mustahkamlanadi.

Sh tovushini ifodalovchi **sh** harf birikmasi ham **s** va **h** harfi bilan, **ch** tovushini ifodalovchi **ch** harf birikmasi **h** harfi bilan tanishtirilgach,

www.ziyouz.com kutubxonasi

o'rgatiladi. O'quvchilar bu harf birikmalarini bir yaxlit tovush sifatida o'qish va yozishga ko'nikishlari lozim. Bu davrda s'h (is'hoq) tarzida o'qiladigan holatga to'xtalmaydi.

Jarangsiz jufti bor jarangli undoshlar talaffuzi (*b—p, d—t, v—f, g—k, z—s* kabi) haqida dastlabki amaliy tushunchalar hosil qilinadi, ularning talaffuzi va yozilishiga e'tibor qaratiladi.

X va **h** tovushlarining talaffuzi va imlosi haqida ham dastlabki tushunchalar beriladi, ularni farqlash bo'yicha maxsus mashqlar ham uyushtiriladi.

Tutuq belgisi (') unli tovushdan so'ng kelsa, uni cho'zib talaffuz qilishga, undosh tovushdan so'ng kelsa, undoshni unlidan ajratib talaffuz qilishga xizmat qilishi haqida ham tushunchalar berilib, asta-sekin uni qo'llashga doir ko'nikmalar shakllantiriladi.

Savod o'rgatish jarayonida harflarning 4 xil (bosma, yozma, bosh va kichik) shakli va ularning ishlatilish o'rni o'rgatiladi.

O'quvchilarni o'qishga o'rgatish bo'g'in asosida olib boriladi. Bo'g'inlab o'qishga o'rgatish uchun so'zni bo'g'inga bo'lish, bo'g'in chegarasini aniqlashni o'rgatish muhim sanaladi. Savod o'rgatish davrida o'quvchilar so'zlarni bo'g'inlarga to'g'ri ajrata olsalar, o'qish ko'nikmasini ham yaxshi egallaydilar.

O'qishning dastlabki bosqichida orfografik o'qishdan foydalaniladi, asta-sekin orfoepik o'qish ko'nikmalari shakllantiriladi. Talaffuzi yozilishiga mos kelmaydigan tovushlar ishtirok etgan so'zlar oldin orfografik, so'ngra orfoepik o'qib beriladi va ularning o'qilishi bilan yozilishi taqqoslanadi. O'quvchilar muayyan darajada tushunchaga ega bo'lganlaridan so'ng orfoepik o'qish mashq qilinadi.

O'qish va yozish jarayonining psixofiziologik tavsifi. O'qish ham, yozish ham murakkab nutq faoliyati hisoblanadi. Bu jarayonlar kichik yoshdagi o'quvchidan iroda, aql, hatto jismoniy harakatni ham talab qiladi.

Kichik yoshdagi o'quvchini o'qishga o'rgatishda quyidagilar kuzatiladi:

1. Bola o'qish paytida bitta harfni ko'radi, uni bilish uchun rasmlarni ko'z oldiga keltiradi, rasmlarni yoki boshqa harflarni eslaydi, esga tushirgach, uni aytishga oshiqadi, biroq o'qituvchi aytishga yo'l qo'ymaydi, undan bo'g'inni aytishni talab qiladi. O'quvchi ikkinchi harfni eslab olguncha, birinchisi esdan chiqib qoladi yoki ularni qo'shib bo'g'in, bo'g'indan so'z hosil qilguncha, o'qish jarayoni sustlashadi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

2. Ko'pincha bola o'qiyotgan qatorni yo'qotib qo'yadi, harfni, bo'g'inni, so'zni qayta o'qishiga to'g'ri keladi. O'quvchining diqqati kengaygan sari bo'g'in va so'zni butunligicha idrok eta boshlaydi.

3. O'qishni endi o'rganayotgan bola o'qiyotgan matn mazmunini o'zlashtirmaydi, chunki u so'zni qanday o'qishga ko'p kuch beradi. Darslikdagi rasmlar, o'qituvchining savollari, ko'rgazmali qurollar ularning ongli o'qishlarini ta'minlaydi.

4. Tajribasiz kitobxon so'zni birinchi bo'g'iniga yoki rasmga qarab topadi. Bu xato o'qishga olib keladi. Bunday xatoning oldini olish uchun so'z bo'g'inlab o'qitiladi, so'zni bo'g'in-tovush tomondan tahlil qilishga, tovush-harf tomondan analiz va sintez qilishga diqqat qaratiladi.

O'qishni muvaffaqiyatli egallashlari uchun o'quvchilarning idroki, xotirasi, tafakkuri va nutqini o'stirishga katta e'tibor berish kerak. Savod o'rgatishda fonematik eshitish qobiliyatlarini o'stirishga, ya'ni tovushni aniq talaffuz qilishga, boshqa tovushlardan farqlashga o'rgatish, bo'g'in yoki so'zdan o'sha tovushni ajrata olish ko'nikmasini o'stirish muhim sanaladi.

Fonematik eshitish imloviy malakani hosil qilishning muhim shartidir. Shu bois savod o'rgatish davrida eshitish idrokini o'stirish uchun ham maxsus xilma-xil mashqlar o'tkazib borish maqsadga muvofiqdir.

Yozuv jarayonida o'quvchilar ruchkani to'g'ri ushlashni, daftarni to'g'ri qo'yishni, harfni yozishda yozuv chiziqlari, ular bo'ylab qo'lni harakatlantirishni esda saqlashi, harfni harfga qanday ulash, qatorga sig'ish-sig'masligini mo'ljallashi lozim. Bu jarayon o'quvchini aqliy va jismonan charchatadi, ayniqsa, ularning barmoq va yelka muskullari charchaydi. Shuning uchun ham darsda ikki-uch marta daqiqali jismoniy mashqlar o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir.

Yozuv jarayonida o'quvchi ruchkani qog'oz ustida sekin, ishonchsizlik bilan qimirlatadi, bir harfni yozib to'xtaydi va namuna bilan solishtiradi, ba'zan chiziqdan chiqib ketadi, noto'g'rilarini bo'yab, to'g'rilaydi. Bunda u o'qituvchiga har daqiqada murojaat qiladi, uning qo'li va boshi yozishda birgalikda harakat qiladi. Yozuv jarayoni o'quvchilarning ongli harakat qilishlarini ham talab etadi. Shu sababli o'qituvchi yozuv jarayoniga sabr-qanoat bilan katta e'tibor qaratishi juda muhim. Yozuvning chiroyli va imloviy jihatdan to'g'ri bo'lishi savodxonlikning yuksak belgisidir.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Savod o'rgatish metodlarining qiyosiy-tanqidiy tahlili*

Eski maktabda o'qish bilan yozish bir vaqtda o'rgatilmagan, avval faqat o'qish o'rgatilgan. O'qish hijo (bo'g'in) usuli bilan o'rgatilgan. O'qishga o'rgatishning „hijjai qadimiy" deb atalgan usuli uzoq vaqtlar davomida hech qanday o'zgarishsiz davom etib kelgan.

Hijo usulida o'qishga o'rgatishni 3 bosqichga bo'lish mumkin:

1-bosqich. Harflarning nomini yodlatish („harfiy metod"). Bu metodning mohiyati quyidagilardan iborat bo'lgan: bir necha yildan beri o'qiyotgan bolalar maktabxonaga yangi kelgan bolaga bir necha kichik-kichik surani og'zaki yodlatgan. Bola aytayotgan suradagi so'zlarining ma'nosini tushunmay, suralarni birin-ketin yodlab olgan, bu orada taxminan bir yilga yaqin vaqt o'tgan. Shundan keyin arab alifbosi yodlatila boshlangan; bola uyidan har ikki tomoni randalanib silliqlangan maxsus taxta olib kelgan. Maktabdor taxtaning bir tomoniga qora siyoh bilan 28 ta arabcha harfning yolg'iz shaklini alifbo tartibida bandlarga bo'lib yozib bergan.

Maktabdor birinchi banddagi harflarning nomini ***alif, be, te, se*** deb aytgan. Bola domlaga ergashib takrorlagan, ayta olmasa, domla yana aytgan va shuni yaxshilab o'rganishni vazifa qilib topshirgan. Bola birinchi bandni yodlab olgach, ikkinchi bandni shu tariqa yodlagan. Bolalar 28 harf nomini 5–6 oyda zo'rg'a bilib olganlar, ularning ko'pchiligi harflarning nomini yodlab olsalar ham, qaysisi ***be*** (ب), qaysisi ***se*** (ث) ekanini ko'rsatib bera olmaganlar. Ayrim domlalar, otinoyilar yosh bolalarning eslab qolishiga yordam berish maqsadida har bir harf uchun shartli iboralar o'ylab topganlar (ا – uzunchoqqina alif, ب – bittagina ***be***, ت – ikkitagina ***te***, ث – uchtagina ***se*** kabi).

2-bosqich. Bo'g'in hosil qilish. Harflar nomi yodlab bo'lingach, bo'g'in hosil qilishga, ya'ni ***„zer-u zabar"*** ni o'rgatishga o'tilgan. Eski maktabda ***„zer-u zabar"*** (zabar, zer, pesh) har xil o'rgatilgan. Masalan, ba'zi domlalar ب ***(be, zabar-ba), be-zer-bi, be-pesh-bu, te-zabar-ta*** kabi o'rgatsalar, boshqalari ***be zabar ba, te zabar ta*** kabi, yana birovlari ***be-zabar-a; zer-i, pesh-u; te-zabar-a, zer-i, pesh-u*** deb o'rgatganlar.

Maktabxonada ***„zer-u zabar"*** quruq yodlatilgan, nimaga xizmat qilishi aytilmagan. Aslida esa bu belgilarning ma'lum xizmati bor:

* Mazkur mavzu U.Abdullayevning „Eski maktabda xat-savod o'rganish" („O'rta va oliy maktab" nashriyoti, 1960) kitobi asosida yoritildi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

zabar (fatha)—undosh harf ustidagi urg'u belgisiga o'xshash chiziqcha bo'lib, undoshga ***a*** unli tovushini qo'shib aytish zarurligini ko'rsatadi; ***zer (kasra)*** undosh harf ostidagi chiziqcha bo'lib, shu undoshga ***i*** unli tovushini qo'shib aytish kerakligini bildiradi; ***pesh (zamma)*** esa undosh harf ustiga qo'yiladigan belgi bo'lib, shu undosh tovushga ***u*** unlisini qo'shib aytish zarurligini ko'rsatadi. Demak, arabcha matnlarni o'qish uchun „zer-u zabar"ni bilish juda zarur bo'lgan, ammo o'qishga o'rgatish anglab o'qishga asoslanmagani uchun bolalar ***mim zabar ma, mim zer mi, mim pesh mu*** deb yodlaganlar, „zer-u zabar"ning mohiyatini anglamaganlar.

3-bosqich. Bo'g'inlarni qo'shish. Eski maktabda bo'g'inlarni qo'shish „abjad" bilan boshlangan. Maktabdor taxtaning ikkinchi tomoniga arab tili alfavitidagi 28 ta harf jamlangan 8 so'zni „zer-u zabar" bilan yozib bergan. Bolalar bu 8 ta so'zni birin-ketin hijo usulida o'qib yodlab olganlar. Masalan, **abjad** *so'zi* **alif***ga zabar qo'yib,* **be***ga urishtirilsa* **ab**, **jim***ga zabar qo'yib,* **dol***ga* urishtirilsa ***jad***, bularning ikkisidan abjad hosil bo'lgan.

Abjaddan keyin eski maktab o'quv kitobi bo'lgan „Haftiyak"ka o'tilgan. „Haftiyak"dagi suralar ham „Abjad"dagi kabi hijo usulida o'qitilgan. Bolalar „Haftiyak"ning bir betini hijo usulida o'qish uchun juda ko'p vaqt va kuch sarflaganlar.

So'zni hijo usulida o'qishda avval so'zdagi birinchi undosh harfning, keyin ikkinchi undosh harfning nomini aytib, unga zarur harakatni qo'yib hijo hosil qilingan. Shu usulda navbatdagi harflardan ham hijo hosil qilinib, hijolarni bir-biriga qo'shib, bu so'z bir butunicha aytilgan. So'zni hijo usulida o'qishda tovush emas, balki shu tovushni ifodalovchi harfning nomi asos qilib olingan. So'zni tovush jihatidan tahlil qilishga oid hech qanday ish qilinmagan, tovushlarning qo'shilishi bolalarga tushunarli bo'lmagan, bolalar so'zdagi har bir harf ma'lum bir tovushni bildirishini mutlaqo anglamaganlar. Hijo usulida o'qishga o'rgatish, birinchidan, mexanik ravishda bo'lib, ayni bir narsani qayta-qayta aytishga majbur qilingan, ikkinchidan, bola o'zi aytgan so'zining ma'nosini tushunmay, maktabdordan eshitganini takrorlayvergan.

„Haftiyak"ning keyingi ayrim suralari so'zni yaxlit „o'qish" usulida olib borilgan, aniqrog'i bola o'qimagan, eshitganini yodlagan. Natijada bolalar maktabxonada o'qiganlarini o'zi o'qib yurgan kitobidan „o'qib bergan", ammo ularning qo'liga maktabda o'qilmagan boshqa bir kitob berilsa, uni o'qiy olmagan; eski maktabda 6—10 yil muntazam

www.ziyouz.com kutubxonasi

o'qigan bolalarning juda ko'p deganda 4–5 foizigina o'qish va yozish ko'nikmasini hosil qilgan.

Turkistonda ochilgan rus-tuzem maktablari savod o'rgatishda ma'lum darajada ijobiy o'rin tutdi. Rus-tuzem maktablarining o'zbekcha sinflarida o'zbekcha xat-savod o'rgatish metodi 1900-yildan boshlab asta-sekin isloh qilindi: hijo metodidan tovush metodiga o'tildi. 1900-yillardan rus-tuzem maktabi o'zbekcha sinflarining peshqadam muallimlari tovush metodi asosida tuzilgan tatarcha alifbedan foydalana boshladilar. Bu kitobning tili va mazmuni o'zbekcha sinflarga mos kelmas edi. 1902-yilda Saidrasul Saidazizovning tovush metodi talabiga muvofiq tuzilgan ona tili alifbesi – „Ustodi avval" nashr etildi. „Ustodi avval" nashr qilingandan keyin o'zbekcha xat-savod o'rgatishda yangi davr boshlandi. Tovush metodi savod o'rgatishning eski usulidan tamomila farq qilib, o'qitishni osonlashtirdi, ta'limni bola tushunadigan, anglaydigan ta'limga, ya'ni faol ta'limga aylantirdi.

„Ustodi avval" 3 bo'limdan iborat edi: 1-bo'lim, hozirgi atama bilan aytganimizda, alifbe davridir. Muallif bu bo'limda arab alfavitidagi harflarni alfavit tartibida emas, balki harf orqali ifodalangan tovushning talaffuzi oson-qiyinligini, harflarning yozilishi sodda yoki murakkabligini e'tiborga olgan holda tizib chiqqan. Muallif har bir harfning yozuvda bir necha xil shaklda kelishi xat-savod o'rgatishni qiyinlashtirishini hisobga olgan; alifbe davrining boshida deyarli har doim bir xil shaklda qo'llanadigan harflarni bergan. U shakli yozilish o'rniga qarab turlicha bo'ladigan harflarning so'z boshida, so'z o'rtasida, so'z oxirida va alohida yozilish shaklini berib, ularga mos misollar keltirgan. Masalan, **q** harfini tanitish uchun *qor, uyqu, oq* so'zlarini, **g'** harfini tanitish uchun *g'or, uyg'oq, tog'* so'zlarini tanlagan. Muallif soddadan murakkabga tamoyiliga amal qilib, alifbe davrini asta-sekin murakkablashtira borgan. Kitobning alifbe qismiga, asosan, o'zbek tilining lug'at tarkibidagi so'zlar tanlab olingan.

„Ustodi avval"ning 2-bo'limi alifbedan keyingi davrdir. Bu bo'limda hikoya, masal va 50 maqola berilgan. Ularning ayrimlarida bilim olish targ'ib qilinsa, boshqalari tarbiyaviy mazmunda bo'lgan.

S. Saidazizov kitobining 3-bo'limini „Alifboi Qur'on" deb atagan va o'z oldiga bolalarga „Qur'on"ni tushunib o'qishga o'rgatishni maqsad qilib qo'ygan.

Umuman, tovush metodi Markaziy Osiyoga ikki manbadan yoyilgan:

1. Rus-tuzem maktablari ruscha sinflarida xat-savod tovush metodi

www.ziyouz.com kutubxonasi

bilan o'rgatilar edi. O'zbekcha sinf muallimlari tovush metodi oson va qulayligini amalda o'z ko'zlari bilan ko'rganlar va asta-sekin tovush metodini o'z sinflariga tatbiq eta boshlaganlar.

2. XIX asrning oxiridan boshlab Rossiyadan Markaziy Osiyoga kelgan tatar muallimlari, ya'ni jadidlar tovush metodida xat-savod o'rgata boshlagan edilar, oradan ko'p o'tmay, bir qancha mahalliy muallimlar ular kabi yangi maktablar ochadilar va bolalarga xat-savodni tovush metodi asosida o'rgata boshlaydilar.

Shunday qilib, O'rta Osiyoda tovush metodi asta-sekin hijo metodining o'rnini egallay boshlagan.

Ma'lumki, tovush metodi bilan xat-savod o'rgatishga Rossiyada K. D. Ushinskiy asos solib, u sintetik tovush metodini qat'iy himoya qilgan.

Tovush metodi bilan savod o'rgatilganda, so'zning eng kichik bo'lagi, ya'ni nutq tovushlari asos qilib olinadi. So'zning ma'nosini o'zgartira oluvchi har bir tovush yozuvda harf orqali ifodalanishi: so'zda tovushlar almashinishi, ortishi yoki kamayishi natijasida boshqa bir yangi so'z hosil bo'lishi mumkinligi bolalar ongiga yetkaziladi. Keyingi yillarda ham xat-savod tovush metodida o'rgatilmoqda. Atoqli metodistlar (S. P. Redazubov, A. I. Voskresenskaya, K. Qosimova, Y. Abdullayev, O. Sharafiddinov va boshq.) tovush metodida xat-savod o'rgatishni takomillashtirdilar.

Arab alifbosida yozuvni o'rgatish qiyin bo'lgan. Bu alifbodagi harflar so'zda qo'llash o'rniga qarab, har xil shaklda yozilgan, bu yozuvni o'rganishni qiyinlashtirgan. Shuning uchun ko'p maktablarda bolalarga o'qish o'rgatilib yozuv o'rgatilmagan, chunki domla va otinoyilarning ko'pchiligi o'qishni bilib, yozishni bilmagan.

Eski maktabda yozish chiziqsiz tekis oq qog'ozga dastlab yo'g'onroq savag'ich qalamda o'rgatilgan; bolalar yozishni ozroq o'rganganlaridan keyin qamish qalamda ham yozishgan, ularga ruchkada yozishga ruxsat etilmagan.

Yozishni o'rgatish alifbo tartibida harflarning alohida-alohida shaklini yozdirishdan boshlangan. Avval ***alif***ni yozish o'rgatilgan, keyin o'xshash shaklli harflar bandlarga bo'linib, o'xshash unsuri bo'lmaganlari esa ayrim-ayrim yozdirilgan. Ba'zi domlalar ayrim harflarning elementlarini yozishni ham alohida mashq qildirganlar.

Shundan keyin harflarni nusxaga qarab alifbo tartibida katta-katta qilib yozish (bu ***mufradot*** (sarhad) deyilgan: bunday yozish bir-ikki yilga cho'zilgan) o'rgatilgan.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Shundan keyin harflarni bir-biriga qo'shib yozish mashqi boshlangan. Bu mashqni ***murakkabbot*** deyilgan. Harflarni bir-biriga qo'shib yozish mashqi bir necha bosqichga bo'linib, harf birikmalarining ma'no anglatish-anglatmasligi umuman e'tiborga olinmagan, qanday qo'shilish mashq qilinavergan. Ko'pgina eski maktablarda bunday mashq ***„abjad yozish"*** bilan tugallangan.

Murakkabbotdan keyin bayt, qit'a va ruboiylarni ko'chirib yozish mashqi boshlangan. Bu mashqni ***muqattaot*** deyilgan. Bu mashqqa ham juda ko'p vaqt sarflangan; u ma'noli so'zlarni yozish bilan boshlanib, ***duoyi salom*** (insho) yozish bilan tugallangan. Bola ***duoyi salom*** yozishni bilsa, „xati chiqqan" hisoblangan.

Yozuvni o'rgatish va husnixat mashq qildirishda ***„Mufradot"*** kitobidan foydalanilgan. Bu kitobchada har uchala mashq turi, ba'zi nashrlarda esa insho namunalari berilgan.

Eski maktabda yozuvga o'rgatishning birdan-bir yo'li ko'chirib yozuv – nusxa ko'chirish hisoblangan, natijada bolada yozma nutq ko'nikmasi hosil qilinmagan. Bu mashq bolani juda zeriktirgan, hech o'ylanmasdan yozishga odatlantirgan. Maktabxonada ijodiy ko'chirib yozuv mashqlarining, shuningdek, boshqa usullarning qo'llanilmaganligi orqasida bola chiroyli ko'chirib yozish ko'nikmasini hosil qilgan bo'lsa ham, o'z fikrini yozma ifoda qila olmagan, eng oddiy jumlalarni ham zo'r-bazo'r xato bilan yozgan.

Eski maktablarda, madrasalarda o'zbek tili o'qitilmagan, natijada eski maktab bolalarigina emas, hatto madrasada bir necha yil umr o'tkazgan ba'zi bolalar ham o'z ismini to'g'ri yozishni bilmaganlar.

Arabchada to'g'ri, chiroyli yozuvga o'rgatish uchun xivalik shoir Shermuhammad Avazbey o'g'li Munisning (1778–1829) „Savodi ta'lim" kitobidan foydalanilgan.

Rus-tuzem maktablarida o'qish va yozishni o'rgatish, odatda, bir vaqtda boshlanib, bir-biriga bog'lab olib borilgan, har kuni avval o'qish, keyin yozuv darsi bo'lgan; o'qish va yozish onglilik tamoyili asosida o'rgatilgan; bolalar qaysi tovush, bo'g'in, so'z yoki gapni o'qiyotgan yoki yozayotganini aniq tasavvur qilgan, ma'nosiga tushungan, arabcha harfning yolg'iz shaklini yoxud biror harfning elementini yozayotganligini ongli ravishda bilgan.

Rus-tuzem maktablarining o'zbekcha sinfida ko'chirib yozishga va diktantga ko'p vaqt sarf etilgan. Bulardan tashqari, insho (turli tilxat, duoyi salom va savdo ishiga oid har xil xatlar) yozishga ham o'rgatilgan.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Savod o'rgatishda analitik-sintetik tovush metodi

Analitik-sintetik (tovush-tarkib) tovush metodiga K.D.Ushinskiy asos solgan. Bu metod hozirgi kunga qadar ancha takomillashdi. Shu bois analitik-sintetik tovush metodining an'anaviy hamda shakllanish, tashkil topish jarayonidagi tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. Savod o'rgatishda analitik-sintetik tovush metodi **shaxsni shakllantirish maqsadiga ko'ra** ta'limiy va o'stiruvchi xarakterda bo'ladi, nutqiy mashqlar orqali aqliy o'sishini ta'minlaydi, o'qishning ongli bo'lishini talab etadi.

2. Analitik-sintetik tovush metodi **tashkiliy tomondan** quyidagi ikki davrga bo'linadi:

a) alifbegacha tayyorlov davri;

b) alifbo davri.

Bunda yozuvga o'rgatish o'qishga o'rgatish bilan parallel holda olib boriladi.

3. Analitik-sintetik tovush metodida **psixolingvistik nuqtai nazardan** quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

a) savod o'rgatish bolalarning jonli nutqiga, ular egallagan nutq malakasiga asoslanadi;

b) savod o'rgatishga tovush asos qilib olinadi, unda tovushni ajratishga, analiz va sintez qilishga, tovushlar artikulatsiyasiga, bolalarda fonematik eshitishni rivojlantirishga katta ahamiyat beriladi;

d) o'qish birligi sifatida bo'g'in olinadi, bo'g'in ustida ishlashga katta ahamiyat beriladi.

Metodning shakllanish va tashkil topish jarayonidagi tamoyillari quyidagilardir:

1. Ta'lim jarayonini tashkil etish nuqtai nazaridan: savod o'rgatish jarayonida o'quvchilarga differensial va individual yondashish (bu bolaning umumiy rivojlanishi hamda o'qish va yozishga tayyorligiga bog'liq).

2. O'qitishning istiqboli nuqtai nazaridan: grammatika, so'z yasalishi, imlo, leksikologiyaga oid bilimlarni nazariyasiz amaliy asosda muntazam berib borish.

3. Psixolingvistik nuqtai nazaridan: tovush va harfni o'qitishning qulay usulini izlash, tovush va harflarning mosligini, osonligini, ta'limning tarbiyaviy va o'stiruvchi xarakterini hisobga olish.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarga tarbiya ham berib boriladi. Tarbiyalash didaktikaning muhim tamoyillaridandir. Maktabda axloqiy

www.ziyouz.com kutubxonasi

tarbiya beriladi, ilmiy dunyoqarash elementlari shakllantiriladi. Bolalar darsda ommaviy siyosiy tushunchalarni egallaydilar.

„Alifbe" sahifalarida do'stlik, baynalmilal munosabat, bolalar mehnati, tabiat, kattalar mehnati, bolalar o'yinlari, oila, maktab hayotiga oid rasmlar berilgan, turli mavzularda matnlar keltirilgan. Bular bolalarda o'zaro do'stlik, mehnatsevarlik, mehnatni qadrlash, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, tabiatni sevish va asrash, hayvonot dunyosiga qiziqish, ularni muhofaza qilish, maktab va o'qishni sevish, umuman, estetik tarbiyani shakllantiradi. Demak, bolalarga axloqiy, g'oyaviy-siyosiy, mehnat va estetik tarbiya berish ham savod o'rgatish vazifasiga kiradi.

Bolalarning savod o'rgatishga tayyorgarligini o'rganish

Savod o'rgatishni to'g'ri tashkil etish uchun bolalarning unga nutqiy tayyorgarligini maxsus o'rganish talab etiladi. Oldin bolalarni maxsus o'rganish avgust oyida, hatto undan oldin – bahordan boshlangan. Bunda 1-sinfga keladigan o'quvchining oilasiga yoki bolalar bog'chasiga borilgan, suhbat o'tkazilgan, bolalarning umumiy bilim saviyasi aniqlangan.

Hozir 1-sinfga qabul qilinadigan bolalar savod o'rgatishga maxsus tayyorlanyaptilar. Ular uchun bir-ikki, ba'zi joylarda uch-to'rt oylik tayyorlov sinflari tashkil qilingan. Tayyorlov mashg'ulotlarda bolalar tovush-harf bilan tanishtirilyapti, elementer tarzda yozuvga ham o'rgatilyapti. Metodistlar tayyorlov sinflar uchun aniq talablar, metodik tavsiyalar ishlab chiqishmoqda. Tayyorlov sinflarning ta'lim mazmuni va tashkil etish muddati bir xil bo'lmasa-da, lekin bu davrda bolalarning nutqiy tayyorgarligini o'rganish uchun quyidagilarni aniqlash tavsiya etiladi:

1. O'qish ko'nikmasini aniqlash.

a) so'zni sidirg'a o'qiydi;
b) bo'g'inlab o'qiydi;
d) harflab o'qiydi (noto'g'ri o'qish);
e) anchagina harflarni biladi, lekin o'qishni bilmaydi;
f) ayrim harflarni taniydi.

2. Yozuv ko'nikmasi.

a) hamma harfni yozishni biladi, so'z yozadi (bosma yoki yozma);
b) ayrim harflarnigina yozishni biladi (bosma yoki yozma);
d) yozishni umuman bilmaydi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

3. Tovushni tahlil qilishga tayyorgarligi.

a) so'zni bo'g'inlarga bo'ladi;

b) so'z yoki bo'g'indagi tovushni ajratadi;

d) hamma tovushni to'g'ri talaffuz qiladi;

e) ayrim tovushlarni noto'g'ri talaffuz qiladi (qaysi tovushlar ekani hisobga olinadi);

f) nutqining baland yoki pastligi, diksiyasiga e'tibor qaratiladi.

4. Og'zaki bog'lanishli nutqi. She'rni yoddan o'qish.

a) 3 ta yoki undan ortiq she'rni biladi, uni zavqlanib aytadi;

b) 1–2 ta she'rni biladi, aytishga uyaladi;

d) birorta she'rni yoddan o'qishni bilmaydi.

5. Og'zaki bog'lanishli nutqi. Ertak aytish.

a) bir yoki bir nechta ertakni biladi va aytib bera oladi;

b) ertakni biladi va uni aytishga harakat qiladi, lekin ayta olmaydi;

d) ertak aytishni bilmaydi, o'rganishga ham harakat qilmaydi.

6. Og'zaki bog'lanishli nutqi. Fikr bayon qilish („Rasmda nimalar ko'rayotganingni aytib ber").

a) 20 so'zdan ortiq bog'lanishli hikoya, bir necha gap tuza oladi;

b) 10 tadan 20 tagacha so'z, bir necha gap tuza oladi;

d) 10 tagacha so'z bilan bog'lanishli nutq tarzida javob qaytara oladi;

e) 3–4 so'z bilan qisqa javob bera oladi.

Shuningdek, bu jarayonda bola nutqining sintaktik qurilishi ham, foydalanadigan so'zlar doirasi ham o'rganiladi, to'plangan materiallar ikki variantda yoziladi:

a) har bir o'quvchi haqida alohida ma'lumot (bu bolaga yakka yoki differensial yondashish uchun kerak bo'ladi);

b) sinf o'quvchilari uchun umumiy ma'lumot (bu ma'lumotdan darsda sinf o'quvchilari uchun umumiy ishlar metodikasini tanlashda foydalaniladi).

Ma'lumki, o'quvchilar 1-sinfga har xil tayyorgarlik bilan keladi. O'quv materiallari 1-sinf o'quvchilari saviyasiga mos, izchil ravishda beriladi. Shunga qaramay, har xil tayyorgarlik bilan kelgan o'quvchilarning o'zlashtirishlari turlicha bo'ladi. Bu savod o'rgatish jarayonida o'quvchilarga differensial va individual yondashishni taqozo etadi. Bunday yondashish ta'limning barcha bosqichlarida ham yaxshi natija beradi.

Differensial yondashishda o'quvchilar guruhlarga bo'linadi, har bir guruhning saviyasiga va imkoniyatiga mos topshiriqlar beriladi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Sinf o'quvchilari 3 guruhga bo'linishi mumkin. Topshiriqlar ham 3 variantda ishlab chiqiladi.

O'qituvchi sinfda frontal ishlash jarayonida 3 guruhdagi o'quvchilar bilan parallel ish olib boradi. 3 guruh uchun ham o'quv materiali „Alifbe" hisoblanadi, unga qo'shimcha tarzda tarqatma materiallardan, jadvallardan, mustaqil ishlardan foydalanish mumkin.

Alifbedagi o'quv materiali yoki o'qilayotgan matnning qiyin o'rni oldin tayyorgarligi puxta o'quvchiga, so'ng bo'sh o'quvchiga o'qitiladi. Ba'zi o'quvchilar bilan darsdan tashqari vaqtda yakka tartibda ishlar olib borishga ham to'g'ri keladi.

Savod o'rgatish jarayoni

Analitik-sintetik (tahlil-tarkib) tovush metodida savod o'rgatish jarayoni 4 oy davom etadi. Bu jarayon quyidagi 2 davrga bo'linadi[6]:

a) alifbogacha tayyorgarlik davri (2 hafta);

b) alifbo davri (31 dekabrgacha davom etadi).

Alifbogacha tayyorgarlik davri. Bu davrning asosiy vazifasi o'quvchilarni maktab, sinf, tartib-intizom qoidalari va o'quv qurollari bilan tanishtirish, nutq o'stirishga oid mashqlar o'tkazib, fonematik eshitishni o'stirishdan iboratdir.

Alifbogacha tayyorgarlik davri, o'z navbatida, quyidagi 2 bosqichga bo'linadi:

1. Harf o'rganilmaydigan bosqich (1 hafta).

2. Unli tovush va harf o'rganiladigan bosqich (1 hafta).

1-bosqichda o'quvchilarga og'zaki va yozma nutq haqida, gap, so'z, bo'g'in va tovushlar haqida, nutqning gaplardan, gaplarning so'zlardan tuzilishi, so'zlarning bo'g'inlarga bo'linishi, bo'g'inlarning tovushlardan tashkil topishi haqida ma'lumot beriladi, tovushlarning unli va undosh tovushlarga ajratilishi o'rgatiladi, ulardan amaliy foydalana bilish ko'nikmalari hosil qilinadi. Bu jarayonda maxsus nusxalar asosida o'quvchilarning bog'lanishli nutqi ustida ishlanadi. Ularga „Alifbe"da berilgan rasmlar asosida hikoyalar tuzdirishdan tashqari,

[6] Ba'zi adabiyotlarda bu jarayon 3 davrga bo'lingan. Qarang: O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim strategiyasi muammolari va ta'lim mazmunining yangi modellari, ularni tatbiq etish yo'llari/ R.Safarova, U.Musayev, P.Musayev, F.Yusupova, R.Nurjanova. –T.: „Fan", 2005. 217–218-betlar.

www.ziyouz.com kutubxonasi

o'zlari bilgan she'r, ertak, hikoya, tez aytish, maqol, topishmoq, xalq ashulalari, alla, qo'shiqlar, latifalardan ayttiriladi.

Tayanch so'zlar asosida gap tuzdirish, „Alifbe" sahifalaridagi so'zlarning talaffuzi, o'qilishi va ma'nolari ustida ishlash kabi ishlar uyushtiriladi (Bu tarzdagi ishlar har bir darsda mavzularga bog'liq ravishda izchil davom ettirib boriladi).

Bu bosqichdagi yozuv darslarida o'quvchilar yozuv daftari va yozuv chiziqlari bilan tanishtirilib, harf elementlarini yozishga o'rgatiladi, ularda namunaga qarab grafik xatolarini aniqlash – o'z-o'zini tekshirish, harf oralarining tengligiga rioya qilish, chamalab yozish kabi ko'nikmalar hosil qilinadi.

2-bosqichda unli tovush-harflar o'rgatiladi. Bunda ularning quyidagi uch xususiyatini o'quvchilar amaliy ravishda puxta egallashlariga erishish lozim:

a) talaffuzda (og'izda) to'siqqa uchramasligi;

b) cho'zib aytilishi;

d) faqat ovozdan tashkil topishi.

Shuningdek, bu bosqichda tovush bilan harfni farqlashga o'rgatish ko'zda tutiladi. Ushbu bosqichdanoq tovush va harf o'rtasidagi chegaraga qat'iy rioya qilinadi. Bolalarga tovush haqidagi ma'lumotlar kitob ochtirilmay beriladi. Tovushni ifodalovchi harf ko'rsatilgach, harf ustida ishlanadi. Tovush va harfga oid o'ziga xos xususiyatlar (tovushlarni talaffuz qilamiz, eshitamiz; harflarni yozamiz, ko'ramiz, o'qiymiz) ham izchil ravishda o'quvchilarning o'zlashtirishlarini hisobga olgan holda sekin-asta tushuntirila boriladi.

Alifbo davri. Bu davr 31-dekabrgacha davom etib, unda o'quvchilar alifbodagi barcha unli va undosh tovush-harflar bilan tanishtiriladi. Undoshlar osondan qiyinga tamoyili asosida joylashtiriladi. Oldin sonor tovushlar (***n, m, l*** kabi), keyin esa sirg'aluvchi va boshqa undoshlar: ikki tovushni ifodalaydigan ***j***, harf birikmalari (***ng, sh, ch***), tovush bildirmaydigan ***tutuq belgisi (')*** bilan tanishtiriladi.

O'quvchilarning tovush va harfni yaxshi tanishlari, elementar o'qishni muvaffaqiyatli egallashlari uchun bo'g'inga bo'lish, bo'g'in chegarasini aniqlash, bo'g'indan tovushni ajratish, tovush va harf munosabatini aniqlash, kesma harflardan bo'g'in tuzish va o'qish, bo'g'in-tovush, tovush-harf tahlili kabi mashqlardan foydalaniladi.

Bu davrda bo'g'inlab o'qish asosi shakllantiriladi: ikki harfli ochiq *(na, ni, mu* kabi*)*, ikki harfli yopiq *(in, ol* kabi*)*, uch harfli yopiq bo'g'inlarni *(mon, lim, til* kabi*)* o'qishga o'rgatiladi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Alifbo davrini o'rganiladigan tovush-harfning va o'quv materialining murakkablik darajasiga ko'ra **3 bosqich**ga ajratish mumkin:

1) unli tovush-harflar, ovozdor, sirg'aluvchi undoshlar, *o-na, a-na, il, in, bi-lan* tuzilishidagi so'zlar o'rganiladigan bosqich;

2) artikulatsiyasi qiyin bo'lgan ***r, k, v, f*** kabi undoshlar va *yo'l-bars, do'st, rasm* kabi tuzilishdagi so'zlar o'rganiladigan bosqich;

3) o'rganilganlar takrorlanib, harf birikmalari ***ng, sh, ch,*** 2 tovushni ifodalaydigan ***j,*** tutuq belgisi ***(')*** va *jo'ja, jurnal, jirafa, tong, so'ng, bodring, choynak, shudring* va shu kabi so'zlarni o'qishga o'rgatiladigan bosqich.

Fonetik ishlar sohasida jarangli va jarangsiz undoshlarni taqqoslashga, ularning so'z ma'nosini farqlashdagi holatini aniqlashga oid mashqlar o'tkaziladi *(ziyrak – siyrak, dil – til* kabi). Artikulyatsiyasi qiyin bo'lgan undoshlar ***ng*** (tong, rang, keng), lab-tish undoshi ***v***, qorishiq undosh ***ch***, jarangli portlovchi ***j*** (jo'ja) va jarangli sirg'aluvchi – ***j*** (jurnal) kabilarni o'rganishda tovush artikulatsiyasiga oid ishlar qiyinlashadi.

Asosiy davrning oxirlarida jarangsiz jufti talaffuz qilinadigan undoshli so'zlar: *ko'rib (ko'rip), qaytdik (qayttik), aytib (aytip), ketayotib (ketayotip), tortib (tortip), terib (terip), olib (olip), obod (obot), borishdi (borishti);* qisqa talaffuz qilinadigan **i** unlisi bor so'zlar: *bilan (blan), sira (sra);* talaffuzda tushib qoladigan undoshli so'zlar: *baland (balan), do'st (do's), Toshkent (Toshken), farzand (farzan), daraxt (darax)* kabilarni yozilgandek o'qish imloni o'rganishga tayyorlaydi. Bular avval orfografik, so'ng orfoepik o'qitiladi.

Yuqoridagi kabi so'zlarni o'qish bilan bo'g'inlab o'qish malakasi takomillashadi: o'quvchilar talaffuzi va yozilishida farqlanadigan so'zlarni ham to'g'ri o'qishga o'rganadilar.

Alifbo davrining oxirida o'quvchilar quyidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari zarur:

a) hamma tovushlarni tanishi va har qanday holatda to'g'ri talaffuz qilishi;

b) so'zning bo'g'in-tovush, tovush-harf tahlilini bilishi, so'zdagi tovushlarning izchil tartibini aniqlay olishi, kerakli tovushni so'z va bo'g'inga ajrata olishi;

d) kesma harf va bo'g'inlardan so'z tuza olishi va o'qishi;

e) 2-3-4 bo'g'inli so'zlarni yaxlit, adabiy-orfoepik talaffuz bilan o'qishi;

f) gaplarni ohangiga rioya qilib o'qishi;

www.ziyouz.com kutubxonasi

g) o'zi o'qigan matnning mazmunini tushunib, ongli o'qishi;

h) o'qigan matn mazmunini savollar asosida soddagina qilib qayta hikoyalab berishi;

i) o'qigan matnga sarlavha topa olishi;

j) to'g'ri, tez, ongli va ifodali o'qish malakalariga ega bo'lishi.

Alifbo davri yozuv darslarining vazifasi – kichik va bosh yozma harflarni to'g'ri shakllantirish, harflarni to'g'ri ulash, alifbeda o'qigan bo'g'in, so'z va gaplarni namunaga qarab yozish, harf, bo'g'in, so'z, gap diktantlarni yozish ko'nikmasini shakllantirish, izohli, saylanma, ko'ruv rasm diktant kabi ta'limiy diktant turlarini yoza olishlariga erishish, umuman, grafik malakani shakllantirishdir. Savod o'rgatish jarayonining oxirida bir darsda, agar darsning 2/3 qismi yozuvga ajratilsa, 20 tagacha so'z yoza olishlari talab qilinadi.

Savod o'rgatish davrida o'quvchilarni o'qishga o'rgatish

Ma'lumki, savod o'rgatish jarayonidagi o'qish darslarining asosiy vazifasi o'quvchilarga tovush va harfni tanishtirish, ularning to'g'ri talaffuzini o'rgatish orqali bolalarda to'g'ri, ongli, ifodali o'qish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Shuningdek, o'quvchilar lug'atini boyitish, bog'lanishli nutqini o'stirish, bilimini boyitish, tafakkurini shakllantirish, eshitish, qabul qilish sezgisini o'stirishda ham bu davr mas'uliyatliligi bilan alohida o'rin tutadi.

Tayyorgarlik davri o'qishga o'rgatish uchun zamin hozirlaydi. Bu davrda bolalarda o'zgalar nutqini eshitish, diqqatni to'plash, til birliklarini (tovush, bo'g'in, so'z, gap) farqlash, ajratish, ularning vazifalarini anglash kabi xususiyatlar shakllantiriladi. Bular o'quvchilarning o'qishni muvaffaqiyatli egallashlariga yordam beradi.

O'qishga o'rgatish uchun, avvalo, o'quvchi tovush va harf bilan yaxshi tanishtirilishi lozim. Tovush va harf bilan tanishtirishda bo'g'indan tovushni ajratish tamoyiliga rioya qilinadi. Harf bilan tanishtirish bir necha xil yo'nalishda amalga oshirilishi mumkin:

1. Mazmunli rasm yuzasidan savol-javob usuli bilan bog'lanishli hikoya tuzdiriladi. Undan kerakli gap, so'ng kerakli so'z ajratib olinadi, so'ngra so'z ustida yuqoridagi kabi tahlil ishlari uyushtiriladi.

2. So'z asos qilinib, analitik mashqlar yordamida o'rganiladigan tovush ajratib olinadi. Masalan: ***oy.*** O'qituvchi **oy** rasmini ko'rsatadi, o'quvchilar uning nomini – so'zni aytadi. O'qituvchi o tovushini cho'zib (o-o-o-y) aytadi va qaysi tovushni cho'zib aytayotganini

www.ziyouz.com kutubxonasi

o'quvchilardan so'raydi. O'quvchilar **o** tovushini aytgach, uning xususiyatlari haqida savol-javob o'tkaziladi. **O** tovushli so'zlar o'ylab toptiriladi. Shundan so'ng o harfi kesma harfdan yoki rasmli alifbodan ko'rsatiladi. Bunda o harfining shaklini esda olib qolishlariga alohida e'tibor qaratiladi.

3. O'rganilgan harflar ichiga bugun o'rganiladigan harf aralashtirib qo'yiladi, bolalar uning ichidan notanish harfni ajratadilar, so'ng o'qituvchi bu harf ifodalaydigan tovushni aytadi. O'quvchilar tovushning xususiyatlarini aytadilar. Shu harfni kesma harflar ichidan topib, kitob sahifasidan, rasmli alifbodan ko'rsatadilar. Shu tariqa tovush-harf bilan tanishtirilgach, o'qishga o'rgatish ustida ishlanadi.

O'qishga o'rgatishda bo'g'in asos qilib olinadi. Buning uchun o'qituvchida bo'g'in jadvali bo'lishi lozim. Bo'g'in jadvali asosida o'qish namunasi ko'rsatiladi, ya'ni harflab emas, ichida, birinchi harfni ko'z bilan ko'rib, uning nomini dilda saqlab, ikkinchi harfni ko'rish va ikkalasini bog'lab, unlini mo'ljallab ulab aytish tushuntiriladi. Bo'g'in o'qish o'qituvchining namunasi asosida doimiy ravishda har bir darsda izchil olib boriladi. Bunda quyidagi kabi chizmalardan foydalanish mumkin:



Bunda „Alifbe" sahifalaridagi so'zlarni oldin bo'g'inga bo'lish, so'ng o'qishni mashq qilish yaxshi samara beradi. O'qituvchining namunali o'qishidan so'ng birgalikda ovoz chiqarib o'qish, yakka-yakka o'qish, shivirlab o'qishdan foydalaniladi. Ayniqsa, sekin o'qiydigan o'quvchilar bo'lgan sinflarda xor bilan o'qitish o'qishni tezlashtirishga yordam beradi. Sinf o'quvchilarining o'qish ko'nikmalaridan kelib chiqib, matndagi so'zlarni xattaxtada bo'g'inlarga bo'lib yozish, o'rganilgan harflarni hisobga olgan holda qo'shimcha so'z birikmalari, gaplar tuzib yozish va o'qitish usulidan ham foydalaniladi.

Ma'lumki, „Alifbe" sahifalarida bo'g'in tuzilishi murakkablashib boradi. Shuning uchun o'qituvchi har bir bo'g'in tuzilishining murakkabligiga qarab ish usullarini belgilab olishi zarur. Masalan, uch tovushdan tuzilgan, to'rt tovushdan tuzilgan bo'g'inlarni o'qishga o'rgatish ham o'ziga xos qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bunda *o-lov,*

www.ziyouz.com kutubxonasi

Man-non tipidagi bo'g'inlarda *o-lo:v, Ma:n-no:n* tarzidagi qo'shimcha chiziqdan, *bodring, do'st* tipidagi bo'g'inlarda *bo:d-ri:ng, to':r:t* tarzidagi qo'shimcha chiziqlardan foydalaniladi. So'zlarni o'qishga o'rgatishda bo'lib o'qitishdan tashqari jadvallar ham yaxshi samara beradi:

ki			
	la		
			lar

Umuman olganda, har bir o'qish darsida, albatta, bo'g'in tuzilishi murakkab bo'lgan so'zlarni o'qish mashqi o'tkazilishi lozim. Bu usul o'quvchilarda o'qish malakasining takomillashuviga yordam beradi.

O'qishga o'rgatishda so'zlarni va gaplarni to'ldirib o'qish ko'nikmalarini hosil qilish o'quvchini gap tuzishga, tez fikrlashga yo'naltiradi. O'quvchi tushirib qoldirilgan harf va so'zni rasmga qarab topadi, uning gap mazmuniga mos yoki mos emasligiga e'tibor beradi, o'rtoqlariga nisbatan tez topib, o'qituvchining rahmatiga sazovor bo'lishga intiladi.

„Alifbe" darsligidagi matnlarda turli tinish belgilari ishlatilgan. O'quvchilar shularga mos ohang tanlashni, to'xtam (pauza) qilish o'rinlarini belgilab olishi zarur. Bunda ham o'qituvchining tushuntirishi (birinchi uchragan tinish belgini izohlashi) va ifodali o'qish namunasini ko'rsatishi katta ahamiyat kasb etadi. Ifodali o'qilgan matngina tushunarli bo'ladi.

Har bir predmetda bo'lgani kabi o'qish darslarida ham ta'lim-tarbiya birligiga e'tibor beriladi. O'qish darslarida tarbiya o'qilgan matnning ongli o'zlashtirilishiga bog'liq. Birinchidan, o'quvchi matnda fikr nima haqida borayotganini anglasagina, o'zida shunday xislatlarni shakllantirishga harakat qiladi. Ikkinchidan, yaxshi inson bo'lish uchun o'qishning zarurligini anglaydi. Shuning uchun ongli o'qishni ta'minlashda matn bilan unga ishlangan mazmunli rasmlar o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlashtirishga, matn yuzasidan savollar berishga diqqatni qaratish lozim. Bunda quyidagicha savol va topshiriqlardan foydalanish mumkin:

1. Rasmni kuzating, matnda nima haqida gap boradi?

2. Rasmda nima tasvirlangan? Rasm bilan matn orasida bog'lanish bormi?

3. Matn mazmunini rasmga qarab so'zlab bering.

4. Bolalar qayerga bordilar? Qizning ismi nima? Bolaning ismi-chi?

5. Ali, Lola nima qildi? Ular qanday lolalar terdilar?

Demak, o'qish o'qilganlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim, shundagina matndagi asosiy fikr, ilgari surilayotgan g'oya

www.ziyouz.com kutubxonasi

o'quvchilar tomonidan o'zlashtiriladi, so'z va matnlar yod olingan taqdirda ham o'quvchiniki bo'lib qoladi.

Savod o'rgatishning birinchi kunlaridanoq o'qish ongli bo'lishi, bolalarni ongli o'qishga o'rgatish juda muhim. So'roqlar yordamida o'qilganlarni bola qanday tushungani aniqlanadi, tekshiriladi. O'qishdan oldin o'tkazilgan tayyorlov suhbati ham, o'qilgan matn yuzasidan o'tkazilgan suhbat ham shu maqsadga – ongli o'qishga xizmat qiladi. Sharoitga qarab, bolalarga nimanidir o'qishni talab qiladigan muammoli holatni yaratish ham zarur. Bunday holat „Alifbe"dan yoki harf terish matosidan, o'qiladigan topishmoqdan foydalanib yoki muammoli savolni keltirib chiqaradigan taxminiy suhbat yordamida hosil qilinishi mumkin. Masalan, *Qishda qushlar qayerga uchib ketadi?* (harf terish matosida: *Issiq o'lkalarga uchib ketadi).* Mana shu kabi tayyorlov mashg'ulotlari o'qishning yuqori darajada ongli bo'lishini ta'minlaydi.

Ongli o'qishni ifodali o'qishdan ajratib bo'lmaydi. Ammo analitik o'qishning birinchi bosqichida ifodali o'qish mumkin emas, chunki bolalar so'zda urg'uli bo'g'inni ajrata olmaydilar, tugallangan intonatsiyani, so'roq ohangini, hatto, orfoepik to'g'ri o'qishni ham bilmaydilar. Shuning uchun analitik o'qish bosqichida so'zni yaxlit, orfoepik qayta o'qish tavsiya qilinadi. Bunday qayta o'qish to'g'ri intonatsiyaga, ifodalilikka rioya qilib o'qishga o'rgatibgina qolmay, o'qishning ongli bo'lishiga ham yordam beradi.

Savod o'rgatishning birinchi darslaridayoq o'quvchilarga tabaqalashtirib (differensial) yondashish (bunda o'quvchilarning o'qishga tayyorgarliklaridagi fikrlar hisobga olinadi) amalga oshiriladi.

O'qishning ongliligini va ta'sirchanligini ta'minlash uchun matn mazmunini o'quvchilarning ko'rgan-kechirganlari, taassurotlari bilan bog'lash lozim. Shunda o'quvchida o'qishga, o'rganishga qiziqish ortadi.

Ongli o'zlashtirishni amalga oshirishda lug'at ustida ishlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. So'zlarning ma'nosi ustida to'xtalish, birinchidan, fikrni oydinlashtirsa, ikkinchi tomondan matnni tushunishga ham yordam beradi.

She'r, tez aytish, topishmoq, qo'shiq, maqol, hikmatli so'zlardan o'qitish, yod oldirish ham o'quvchilarning o'qishga qiziqishini oshiradi, o'qish malakasini shakllantiradi, xotirasini mustahkamlaydi. Boshlang'ich sinflarda o'qish darslarining uchdan ikki qismi o'qishni mashq qilishga ajratilishi lozim.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Yangi material o'rganiladigan **o'qish darsida** asosiy ish turlari quyidagilardir:

1. O'rganiladigan yangi tovushli so'zni (shu tovush so'z boshida, o'rtasida, oxirida kelgan so'zni) bo'g'in-tovush tomonidan tahlil qilish bilan ajratish. Bunda yangi tovush ajratiladigan so'zni o'quvchilar rasm asosida o'zlari tuzgan gaplar ichidan oladilar. Tovushni ajratishda shu so'zning chizmasi-modeliga asoslanadilar. Tovushlarni eshitish, talaffuz qilish, ularning artikulatsiyasi (nutq organlarining tovush chiqarishdagi ishi) ustida mashq qilinadi.

2. Kichik va bosh harflar bilan tanishtiriladi. Bo'g'inlar o'qitiladi.

3. So'zlarni avval xattaxtadan, keyin „Alifbe"dan o'qish. Harf bo'g'inlaridan harf terish kartonida so'z, so'z birikmasi, gap tuzish va ularni o'qish, so'z ma'nosi ustida ishlash.

4. Matnni o'qish va tahlil qilish, uni qayta o'qish, rasmning matnga bog'liqligini belgilash.

5. Nutq o'stirish: lug'atini boyitish, so'z birikmasi, gap, bog'lanishli hikoya tuzish.

6. Umumlashtirish: yangi harfni jadvalga qo'yish, yangi o'rganilgan tovushning unli yoki undosh ekanligini aniqlash, yangi harfni ilgari o'rganilganlar bilan qiyoslash, tovush va harfning ahamiyatini takrorlash va hokazo.

7. O'rganilganlarni mustahkamlash darsida yangi tovush ajratiladi, yangi harf bilan tanishtirish mashqidan tashqari, barcha ish turlaridan foydalaniladi, shuningdek, qo'shimcha so'zlar va matnlar bilan ishlanadi; matnni o'qish va tahlil qilishga, ko'rgazma vositalar bilan ishlashga (harfni terish kartoni, magnit doskasi, sirli mato, rasmlar va boshq.) nutq o'stirishga, o'yinlar va qiziqarli materiallarga, ilgari o'rganilgan tovushlar va harflarni takrorlab mustahkamlashga alohida ahamiyat beriladi, tarqatma materiallardan ham foydalaniladi.

8. Birinchi uchragan so'zlar bilan ishlash: ochiq bo'g'inda dastlab undosh, keyin esa unli o'qiladi, yopiq bo'g'inda esa unli bilan tugagan ochiq bo'g'inni o'qib, keyingi undosh o'qiladi va so'zni yaxlit o'qishga o'rgatiladi. O'quvchilarga asta-sekin bo'g'inlab o'qishdan sintetik o'qishga (so'zni butunligicha o'qishga) tayyorlab boriladi. Bunda yangi so'zni xattaxtada katta bosma harflar bilan yozish, o'quvchilarga o'qitish tavsiya qilinadi. So'z shivirlash bilan o'qiladi, kesma harf, bo'g'in bilan yoziladi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

9. Sujetli (rasmning asosiy mazmunini aks ettiradigan) rasmga qarab o'qituvchi yordamida, uning yo'llovchi savollari asosida hikoya tuzish, undan gapni ajratish va tahlil qilish.

Yangi bo'g'in, so'z tuzishda harf terish matosi, magnit doskasi, sirli mato kabilarning va yangi so'zni xattaxtada va daftarda „yasash"ning ahamiyati juda katta. O'qish uchun xilma-xil bosma materiallar qanchalik ko'p bo'lsa, ulardan turli xil mashqlar tuzishda foydalanilsa, o'qish shunchalik ongli, qiziqarli bo'ladi.

Bola endigina o'qiy boshlagan bosqichda ularni qatorni yo'qotmaslikka, shuningdek, so'zdagi keyingi harfni, keyingi so'zni yo'qotmaslikka o'rgatish juda muhimdir. Bu vazifani savod o'rgatishning boshlang'ich bosqichida xatcho'p *(o'qiyotgan betni belgilab qo'yish uchun kitob ichiga solib qo'yiladigan qog'oz yoki lentacha)* va tayoqcha bajaradi. O'qilayotgan qatorni kuzatib borish ko'nikmasiga sinf o'quvchilaridan o'rtog'ining xatosini to'g'rilashni talab qilish yo'li bilan ham erishiladi. O'quvchilar bu talabni qiziqib bajaradilar, shu yo'l bilan ularning darsga, o'qishga e'tibori jalb etiladi.

Demak, o'quvchilarni o'qishga o'rgatish, ularning o'qish sur'atini oshirish, ifodali va ongli o'qish elementlarini shakllantirish, tarbiyalash o'qish darslarining muhim vazifalari hisoblanadi.

Savod o'rgatish mashqlarining asosiy turlari

Tovush ustida ishlash. Tovush savod o'rgatishning asosi bo'lib xizmat qiladi. Savod o'rgatish davrida so'z va bo'g'inlarni tovush tomonidan analiz va sintez qilish, tovush va ularning artikulatsiyasini analiz qilish mashqlari o'tkaziladi, diksiya (ravshan, burro gapirish) ustida ishlanadi, logopedik ishlar olib boriladi. Tovush ustida ishlash harf ustida ishlash bilan, ayniqsa, kesma harflardan bo'g'in, so'z tuzish kabi sintez qilish usullarida birlashib ketadi; tovush va harf o'rtasidagi munosabatni doimo aniqlab borish o'qish malakalarini shakllantirish uchun ham, imloviy jihatdan savodli yozish asosini yaratish uchun ham foydalidir.

So'zlarni tovush tomonidan analiz va sintez qilish usullari hozirgi kunda takomillashtirilib borilmoqda. Savod o'rgatishda asosan, quyidagi usullar amalda qo'llanilmoqda:

I. Analiz mashqlari.

1. Nutq (gap)dan so'zni ajratish; so'zni aniq talaffuz qilish; bo'g'inlarga bo'lish va bo'g'inlarni aniq talaffuz qilish, so'zdan, bo'-

www.ziyouz.com kutubxonasi

g'indan tovushni kuchli talaffuz qilib o'qish, muayyan tovushni ajratgan holda so'zni bo'g'inlab o'qish *(aaaa-na, nooon, iiin, sssa-na, ki-yyyik, iiish).*

2. Darsda o'rganiladigan yangi tovushni ajratish. Bunday tovushni birinchi marta ajratishning bir necha usuli bor:

a) so'zdan tovushni cho'zib talaffuz qilish bilan ajratish: *aaa-na, looo-la, booo-la;*

b) undosh tovushni yopiq bo'g'indan ajratish: *Usss-mon, O-limmm, A-minnn.*

d) sirg'aluvchi undoshni ochiq bo'g'indan ajratish: *sssa-na, tu-yyya, zzzi-rak;*

e) bo'g'in hosil qilgan bir unlini ajratish: *o-na, u-num, o'-tin, a-na, e-tik, i-pak;*

f) o'rganiladigan tovushni so'z boshida kelgan so'zlardan ajratish (so'zni o'qituvchi aytadi, birinchi tovushni esa o'quvchi aytadi): ***non, tok, olma,...;***

g) rasm nomini ifodalovchi so'zni aytish: o'qituvchi nokning rasmini ko'rsatib, *noo* deydi, o'quvchilar *k* tovushini qo'shib aytadilar: *nok.*

Bu jarayonda Omonashvili ishlab chiqqan usuldan ham foydalanish mumkin. Bunda tovush emas, harf asos qilib olinadi. O'quvchilar o'rganilgan harflar ichidan notanishini topadilar, so'ng uning o'qilishi va fonetik belgilari ustida ishlanadi:



Darsda yangi tovush birinchi marta ajratib, talaffuz qilingandan so'ng, odatda, shu tovush so'z boshida, o'rtasida, oxirida kelgan va aniq talaffuz qilinadigan so'zlar tanlanib, o'quvchilarga talaffuz qildiriladi. Misol:

L tovushi: *laylak, olma, fil.*

O tovushi: *olma, non, O-mon.*

D tovushi: *don, Odil* (so'z oxirida jarangsizlashadigan *ozod, obod* kabi so'zlarni tanlash tavsiya qilinmaydi).

www.ziyouz.com kutubxonasi

3. So'zdagi tovushlarni sanash va ularning nomini tartibi bilan aytish, sonini aniqlash, bo'g'inlarni sanash: *Olma – ol-ma; o-l-m-a* – to'rtta tovush, to'rtta harf, ikki unli tovush, ikki undosh tovush, ikki bo'g'in .... Bu usuldan o'quv yilining ikkinchi yarmida va keyingi sinflarda ham fonetik tahlil sifatida foydalaniladi.

4. Jarangli va jarangsiz undoshli so'zlarni amaliy taqqoslash: *dil-til, zira-sira* kabi.

Savod o'rgatishda analiz va sintez bir-biridan ajratilmaydi, chunki analiz o'qish jarayonini egallash uchun zamin yaratadi, sintez esa ko'proq o'qish malakasini shakllantiradi.

II. Sintez mashqlari.

1. Tovush tomonidan analiz qilingan so'zni yoki bo'g'inni talaffuz qilish va uni kesma harfdan tuzish (yozish); shu so'z yoki bo'g'inni o'qish.

2. O'rganilgan undosh yoki unli bilan *(na, ni, no; la, lo, li; ay, uy, oy, ...)* bo'g'in jadvalini tuzish; bo'g'in jadvalini kitobdan yoki matndan o'qish; kesma harflardan bo'g'in jadvalini tuzish.

3. *Bola-lola-tola, boy-soy-loy, baxt-taxt, ona-ota, mosh-bosh* kabi bir undosh harf bilan farqlanadigan yoki *ona-ana, ukki-ikki, osh-ish* kabi bir unli harf bilan farqlanadigan so'zlarni o'qish (bunday so'zlarni o'quvchilarning o'zlari topib o'qishlari mumkin).

4. So'zning boshiga yoki oxiriga bir harf qo'shib, yangi so'z hosil qilib o'qish: *ola-lola, osh-bosh, oy-toy, boy, soy, loy; o'roq-so'roq; ol-xol, sol; sava-savat; son-oson; ayiq-qayiq; olti-oltin.*

5. So'z o'rtasiga harf qo'shib, yangi so'z hosil qilib o'qish: *ko'mak-ko'lmak, zirak-ziyrak, tana-tashna, sila-siyla* kabi.

6. Bo'g'inlarni almashtirib yangi so'z hosil qilish va o'qish: *Gulnor-Norgul, asil-sila* kabi.

7. Tovushlarning o'rnini almashtirib yangi so'zni hosil qilish va o'qish: *somon-osmon, tilak-kalit, qo'y- yo'q.*

8. Tovushni yoki bo'g'inni tushirib qoldirib, yangi so'z hosil qilish va o'qish: *anor-nor, gulnor-gul, yelkan-yelka, bog'la-bola.*

9. Bo'g'in qo'shib yangi so'z hosil qilish va o'qish: *bog'-bog'bon, gul-gulzor, paxta-paxtakor.*

Sintetik ishlarning bu usullari tovush ustida ishlashni harf ustida ishlash bilan birga qo'shib olib borishni talab qiladi. Bu ish usullari qiziqarli bo'lib, darsda yarim o'yin holatini vujudga keltirishga imkon yaratadi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Xulosa qilganda, faqat analiz yoki faqatgina sintez bilan kifoyalanib bo'lmaydi, ammo tafakkur faoliyatining u yoki bu turi yetakchi o'rin tutadi. O'quvchi so'zni analiz qilish bilan uni leksik ma'noga ega bo'lgan bir butunlik sifatida anglaydi, bu – **sintez**dir; so'z sintez qilinganda uning tovush tarkibiga diqqat jalb etiladi, bu esa **analiz**dir.

Umuman, savod o'rgatish jarayonida analitik-sintetik ishlar tizimi bolaning faol fikrlashini ta'minlaydi. Analitik-sintetik ishlar usuligina o'quvchilarning bilish mustaqilligini ta'minlaydi, „muammoli" vaziyat yaratadi, bolalarda kuzatuvchanlikni, ziyraklikni o'stiradi.

Tovush-harf tomonidan analiz va sintezni yengillashtiradigan foydali vositalar sifatida kesma harflar, kesma bo'g'inlar va harf terish taxtasi, shuningdek, abak (harakat qiladigan lentali ko'rgazma), kadoskop, alifbo multimediyasi va shu kabi texnik vositalardan ham foydalaniladi; tovushlarning talaffuzi ustida ishlash uchun, shuningdek, yozib olingan ifodali nutqni (asosan, badiiy asarni) takroriy eshittirish uchun magnitafon yoki lingofon kabineti xizmat qiladi.

Tovushlar artikulatsiyasi, diksiya ustida ishlash. Analiz-sintez ishlari tizimida tovushning o'zini analiz va sintez qilish, tovushni talaffuz qilish vaqtidagi nutq apparati organlarining holati va harakatini kuzatish (analiz) va harf bilan ifodalangan tovush va tovushlar birikmasini talaffuz qilish maqsadida nutq organlarini zarur holatga keltirish (sintez) muhim o'rin tutadi. Masalan, **u** tovushining analizida til tanglayga tomon baland ko'tariladi, tanglay bilan til orasida torgina bo'shliq qoladi, lablar bir-biriga yaqinlashib yumaloqlashadi, ovoz hosil bo'ladi; **r** tovushining sintezida og'iz ozroq ochiq, tishlar orasida bo'shliq bo'ladi, lablar ozgina kengroq tortilgan, til ozroq orqaga itarilgan va tanglay (tepa)ga tomon baland ko'tarilgan holatda; ovoz eshitiladi, o'tayotgan havo kuchi bilan tilning uchi titraydi.

Sinfda barcha tovushlarning artikulatsiyasi (hosil bo'lishi)ni ko'rsatib bo'lmaydi. Masalan, qorishiq portlovchilar *(ch, j)*, chuqur til orqa *(q, g', x)*, bo'g'iz tovushi *(h)* artikulatsiyasini ko'rsatish qiyin. Ammo bunday tovushlarning hosil bo'lishini tushuntirish uchun o'qituvchi, o'quvchilar diqqatini jalb qilgan holda, tovushni talaffuz qilib ko'rsatadi, so'ngra o'quvchilar talaffuz qiladilar. Bunday usulni bir necha bor takrorlagan ma'qul.

Diksiya ustida ishlash o'quvchilar nutqini tushunarli, sof, tiniq, jarangdor bo'lishiga erishishdir. U savod o'rgatish uchun ham, ifodali o'qish, orfoepik va orfografik malakani, xushovozlik ko'nikmasini o'stirish uchun ham juda muhimdir. Yaxshi diksiya tovush hosil qi-

www.ziyouz.com kutubxonasi

luvchi apparatning egiluvchanligiga bog'liq, shuning uchun diksiyani o'stirish mashqlari tovush hosil qiluvchi apparatning egiluvchanligini oshirishga qaratiladi.

Diksiya ustida ishlashda quyidagicha mashq turlaridan foydalanish mumkin:

1. Baland talaffuzni mashq qilish: Masalan, *sara-shira-sara-shira* kabi so'zlarni ovozni to qichqiriqqacha balandlatib, so'ngra esa ovozni to shivirlashgacha pasaytirib talaffuz qilish.

2. Talaffuz tempini mashq qilish. Shu *sara-shira* kabi so'zlarni sekin talaffuz qilib, tempni asta tezlashtira borish.

3. Ayrim undosh tovushlarni, ayniqsa, o'quvchilar qiyinchilik bilan yoki noto'g'ri talaffuz qiladigan so'zlarni qayta talaffuz qilish mashqi.

4. Murakkab tovush birikmalarini talaffuz qilishni mashq qilish. Buning uchun tez aytishlardan foydalaniladi. Misol: *Qishda kishmish pishmasmish, pishsa kishmish qishmasmish.*

Bolalarni so'zlayotganda to'g'ri nafas olishga, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatish zarur. Ba'zi tortinchoq bolalar tovushni talaffuz qilishga uyaladilar. Bunday vaqtda tovushni, so'zni xor bilan talaffuz qildirish, xor bilan o'qitish, tez aytishlarni xor bilan ayttirish foydalidir.

Savod o'rgatish davrida o'quvchilar nutqini o'stirish

Boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilar nutqini o'stirishdir. Nutq o'stirish uch yo'nalishda: so'z ustida ishlash, so'z birikmasi va gap ustida ishlash, bog'lanishli nutq ustida ishlash orqali amalga oshirilishi metodik adabiyotlarda qayd etilgan.

Savod o'rgatish darslarida ham yuqoridagi uch yo'nalish bo'yicha ish olib boriladi. Ona tilidan olib boriladigan ishlarning hammasi, shu jumladan savod o'rgatish ham o'quvchilar nutqi va tafakkurini o'stirish bilan bog'liq holda uyushtiriladi. Savod o'rgatish davridagi ishlarning miqyosi keng bo'lib, ekskursiyalar, bolalarning kuzatishlari, predmet va sujetli rasm yuzasidan suhbat va shu kabilar bilan bog'lanadi. Bu davrda o'quvchilar nutqini o'stirishning vazifalari quyidagilardan iborat:

1) o'quvchilar nutqidagi kamchiliklarni to'g'rilash;

2) ularning tasavvur va tushuncha doirasini kengaytirish bilan bog'liq holda lug'atini boyitish;

www.ziyouz.com kutubxonasi

3) o'quvchilar nutqidagi ayrim so'zlarning ma'nosiga aniqlik kiritish;

4) gap va uch-to'rt gapli kichik „hikoya" (bog'lanishli nutq)ni og'zaki to'g'ri tuzish ko'nikmasini o'stirish.

Bolalar bu davrda, birinchidan, kiyim-kechak, ish qurollari, mevalar kabi predmetlar bilan tanishish yordamida so'zni ongli ishlatishga; ikkinchidan, turli sodda yig'iq gap *(Bolalar yuguryaptilar)*, sodda yoyiq gap *(Lola do'konga bordi)*, uyushiq bo'lakli gap *(Anvar o'qidi va yozdi)* tuzadilar. Ular bu ko'nikmalarni amaliy mashqlar yordamida egallaydilar.

Bolalarning shaxsiy tajribalari, kishilar hayoti va tabiatni kuzatishlari nutq o'stirish uchun asosiy manba hisoblanadi. Narsalar, uy-ro'zg'or buyumlari, o'simliklar, hayvonlar qiziqarli suhbat uchun mavzu bo'lib xizmat qiladi. Suhbat jarayonida bolalarda hosil qilingan tasavvur asosida aniq tushunchalar shakllanadi.

Birinchi sinf o'quvchilari nutqini o'stirishda bolalarning o'yin va ermaklari, rasm ko'rish va *„Bu nima?, Bu kim?, U nima qilyapti?"* kabi savollar asosida suhbatdan ham foydalaniladi.

Savod o'rgatish davrida nutq o'stirishga oid ish turlariga atrofdagi jonli predmetlarning nomini, ularning belgilarini aytish, predmetlarni ma'lum belgilari asosida guruhlash kabi mashqlar kiradi. Masalan, o'qituvchining topshirig'iga muvofiq, ma'lum bir mavzuda (kuz, mevali bog', sinf, maktab haqida) ikki so'zdan iborat gap tuzadilar; keyinroq esa shunday yig'iq gaplar tuzib, uni savollar yordamida yoyiq gapga aylantiradilar. Ular o'rgangan harflaridan so'zlar va kichik gaplar tuzib yozadilar.

O'qish darslarida o'quvchilar rasmga qarab kichik hikoyacha tuzadilar, o'qituvchi savoliga to'liq javob berishga o'rganadilar. Alifbedagi rangli, chiroyli rasmlar tevarak-atrofdagi predmet va hodisalar, hayvonlar va o'simliklarning nomini idrok etishga, bilib olishga yordam beradi.

Savod o'rgatish davrida o'quvchilarning talaffuzi ustida ishlash ham katta ahamiyat kasb etadi, chunki ko'pgina bolalarning talaffuzida kamchiliklar bo'ladi: bir tovush o'rniga boshqasini (*sh* o'rniga *s*, *r* o'rniga *l*) talaffuz qiladilar, chuchuk til bilan duduqlanib gapiradilar, so'zdagi ayrim tovushni tushirib yoki boshqa bir tovush qo'shib talaffuz qiladilar, tovushlar o'rnini almashtirib qo'yadilar va hokazo. Bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun logopedlar maxsus mashqlardan foydalanadilar. O'qituvchi ham har bir darsda va darsdan tashqari

www.ziyouz.com kutubxonasi

vaqtda o'quvchilar talaffuzini kuzatib borishi, kamchiliklarni aytib, to'g'ri talaffuz namunasini ko'rsatishi lozim.

Savod o'rgatish davridagi har bir dars jarayonida nutq o'stirish ishiga alohida e'tibor qaratish lozim. Shundagina o'quvchilarda adabiy nutq (shevalar ta'sirisiz, adabiy me'yor asosidagi nutq) ko'nikmalari shakllanadi va malakaga aylanadi. Shu o'rinda „Alifbe" (mualliflari: R. Safarova, M. Inoyatova, M. Shokirova, L. Shermamatova) darsligi asosida bir soatlik dars namunasini keltiramiz.

Darsning mavzusi. K tovushi va **Kk** harfi.

Darsning maqsadi:

a) ta'limiy maqsad: o'quvchilarni **k** tovushi va **Kk** harfi bilan tanishtirish, bu tovushni to'g'ri talaffuz qilish ko'nikmasini shakllantirish, Kk harfli bo'g'inlarni va so'zlarni ravon o'qishga, kesma harflar va bo'g'inlar vositasida so'zlar tuzish va ularni o'qishga o'rgatish;

b) tarbiyaviy maqsad: kattalarni hurmat qilish va tartib-intizomli bo'lishga o'rgatish, axloqiy xislatlarni singdirish;

d) rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarning bo'g'inlab o'qish ko'nikmalarini shakllantirish, fikrlash qobiliyatlarini, nutqini o'stirish.

Darsning metodi: analitik-sintetik tovush metodi.

Dars turi: yangi tovush-harf o'rganiladigan o'qish darsi.

Darsning jihozi: Kk harfining bosma va yozma shakllari yozilgan ko'rgazma, *kitob, maktab, terak* so'zlari yozilgan kartochkalar, turli xil predmetlar, matnga oid rasmlar, harf kassasi, kesma harf va bo'g'inlar.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism.

II. O'tgan mavzuni mustahkamlash. Bunda bolalar bilan rasm asosida suhbat tashkil qilinadi:

– *Rasmdagi bolalarning ismini ayting.*
– *Tolib va Bilol.*
– *Bilol qanday bola ekan?*
– *U bilimli bola ekan.*
– *Buvisi Tolibga nima deyapti?*
– *Buvisi Tolibga bilim olish kerakligini aytyapti.*
– *Nima uchun bilim olish kerak ekan?*
– *Chunki bilimli kishi kuchli bo'ladi, uni hamma hurmat qiladi.*

Shundan so'ng har bir o'quvchiga matn va so'zlar birma-bir o'qitiladi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

III. Yangi mavzuning bayoni: Bunda dastlab kitob, kaptar, kapalak kabilarning rasmlari ko'rsatilib, o'quvchilardan ularning nomlari so'raladi. Bu predmetlar nomining birinchi harfi **k** ekanligi suhbat asosida aniqlanadi va u bilan tanishtiriladi.

Bunda *kapalak* rasmi asosida suhbat uyushtirilib, quyidagi savol va topshiriqlar bilan o'quvchilarga murojaat qilinadi:

– *Bu nima?*

– *Rangi qanday kapalak?*

– *Qanotlarining ko'rinishini tasvirlab bering.*

– *Tasvirlashda qaysi so'zlardan foydalandingiz?*

– *Kapalaklar qancha umr ko'radi deb o'ylaysiz?*

– *Kapalak so'zini bo'g'inlarga bo'ling va nechta bo'g'in ekanini chizmada tasvirlab bering.* (——|——)

– *Birinchi bo'g'inni ayting.* (ka)

– *Birinchi bo'g'inda nechta tovush bor? Uni katakchalarda ifodalang.* (□□).

Qolgan bo'g'inlar ustida ham shu tarzda ishlanadi.

Kapalak so'zining bo'g'in-tovush tuzilishi chizmada shakllantiriladi:



O'qituvchi ushbu darsda o'rganiladigan tovush katakchasini belgilab qo'yadi:



So'ngra savol beriladi:

– *Bugun qaysi tovush bilan tanishar ekansiz?* (K tovushi bilan)

K tovush-harfini o'rgatishda quyidagicha ish turlaridan foydalanish mumkin:

1. K tovushining talaffuzi va belgilari ustida ishlash.

– *K tovushi qanday talaffuz qilinyapti?*

– *Nima uchun?*

– *K qanday tovush? Nima uchun?*

K tovushining undosh ekanligi aniqlangach, bu tovush namuna tarzida talaffuz qilib ko'rsatiladi, o'quvchilar uni takrorlaydilar. Shu jarayonda o'quvchilar barcha o'tilgan harflarni birgalikda ovoz chiqarib aytadilar.

2. K tovushli so'zlar topish va uning so'zdagi o'rnini aniqlash.

www.ziyouz.com kutubxonasi

3. Kk harflari bilan tanishtirish. Bunda quyidagi chizmadan foydalanish mumkin:



Topshiriq: *Tanish harflarni o'qing. Harflar ichidan o'zingizga notanish harfni toping.*

So'ngra Kk harflari kesma harflar ichidan toptiriladi:

— *Bosh K harfini ko'rsating. U bilan qanday so'zlar yoziladi?*

— *Kichik k harfini ko'rsating. Bu shakl qachon ishlatiladi?*

Kk harflari „Harf kassasi"ga qo'shib qo'yiladi.

4. Bo'g'in o'qish. K harfini o'rganilgan unli harflarga qo'shib bo'g'inlar tuzdiriladi va o'qitiladi.

5. Rasm asosida suhbat. O'qituvchi ko'rgazmani harakatlanadigan qilib tayyorlasa, o'quvchilarda qiziqish uyg'onadi, yangi mavzu oson o'zlashtiriladi.

Xattaxtaga bosma harflar bilan quyidagi matn yoziladi:

Kamol Komilaga kitob olib keldi. Komila kitobni oldi. U kitobni toza saqlashga so'z berdi.

Bu gaplar bolalarga bo'g'inlab o'qitiladi. O'quvchilar nutqini o'stirish maqsadida quyidagi savollar beriladi:

1. *Kamol kitobni qayerdan olgan?*
2. *U kitobni kimga sovg'a qildi?*
3. *Komila nega xursand bo'ldi?*
4. *Komila akasiga qanday va'da berdi?*

Kartochkalarga bo'g'inlarga ajratib yozilgan so'zlar o'qitiladi.

6. Darslik bilan ishlash. O'qituvchi darslikda berilgan bo'g'inlar, so'zlar va matnni o'quvchilarga o'qib beradi, bolalar birgalikda ovoz chiqarib takrorlaydilar.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash. Buning uchun o'quvchilar bilan quyidagicha savol-javob o'tkaziladi:

www.ziyouz.com kutubxonasi

1. Bugun biz qaysi tovush bilan tanishdik?
2. Rasmda nimalar tasvirlanibdi?
3. Bolalarning ismlarini ayting.
4. Kitobdan qanday foydalanish kerak?

Kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining nutqini o'stirishda didaktik o'yinlar, turli xil musobaqalar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan mavzuni mustahkamlashga oid quyidagicha qatorlararo musobaqa uyushtirish mumkin:

1-qator: K harfi bilan boshlanadigan so'zlardan ayting.
2-qator: O'rtasida k harfi qatnashgan so'zlardan ayting.
3-qator: Oxirida k harfi ishtirok etgan so'zlardan ayting.

Qaysi qatorda takroriy so'zlar bo'lmasa, o'sha qator g'olib hisoblanadi. So'ngra o'quvchilarning har biriga bittadan turli xil predmetlarning rasmlari bor kartochkalar tarqatiladi. Rasmdagi predmetning belgilarini bildiruvchi so'zlar toptiriladi va ular ishtirokida ikkitadan gap tuzdiriladi. Birgina rasm asosida bir necha gap tuzishni mashq qildirish o'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytirishga ham yordam beradi va nutqini o'stiradi.

V. Dars yakuni. Bunda faol ishtirok etgan o'quvchilar rag'batlantiriladi, uyga vazifa beriladi.

Savod o'rgatish davrida grammatik-orfografik bilimlarni amaliy o'zlashtirish

Savod o'rgatish davridayoq bolalar grammatika va imlodan ayrim materiallarni amaliy o'zlashtira boradilar, ya'ni ularga mavzu tushuntirilmaydi, nazariy ma'lumot berilmaydi. Bolalar og'zaki va yozma nutqni o'zlashtirish va yozma mashqlarni bajarish bilan o'quv yilining ikkinchi yarmida yoki keyingi sinflarda o'rganiladigan mavzularni o'zlashtirishga tayyorlanadilar.

Savod o'rgatishning birinchi oylaridayoq bolalar *Omon, Tolib, Lola, Naima* kabi juda ko'p ismlarni o'qiydilar va kishilarning ismlari bosh harf bilan yozilishini amaliy o'zlashtira boradilar. Bu bilan ular keyinroq o'rganiladigan kishilarning ismi bosh harflar bilan yozilishiga doir imlo qoidasini o'zlashtirishga tayyorlanadilar.

Til-dil, olti-oldi kabi so'zlarni o'qishni mashq qilish jarangli va jarangsiz undoshlarni o'zlashtirishga, *son-sana, gul-gulchi-guldon-gulzor, bog'-bog'bon* kabi so'zlarni o'qishni mashq qilish esa bolalarni „O'zakdosh so'zlar" mavzusini o'zlashtirishga tayyorlaydi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Propedevtik mashqlar tizimi boshlang'ich sinflar grammatika va imlo dasturining bosqichli izchillik tamoyili asosida tuzilishiga mos keladi. Amaliy ishlar natijasida bolalarda ma'lum nutq tajribasi, til qoidalarini, so'zni, uning tarkibi va yasalishini, boshqa so'zlar bilan bog'langanda o'zgarishini kuzatish tajribasi to'plana boradi. Mana shu tajribalar asosida o'quvchilar nazariy umumlashmalarni o'zlashtiradilar, bular asosida esa grammatik tushuncha va orfografik qoidalar shakllanadi.

Gap ustida ishlash. Fikr almashish, aloqa-aralashuv gap vositasida amalga oshiriladi, shuning uchun ham gapni o'qishga, gap tuzishga, gap mazmunini aniqlashga, gapni to'g'ri yozishga oid amaliy bilimlar savod o'rgatish davridan boshlab shakllantiriladi.

O'quvchilarda nutq, uning og'zaki va yozma shaklda bo'lishi, nutqning gaplardan hosil bo'lishi va gap haqida amaliy tushuncha darslikdagi mazmunli rasmlar asosida hosil qilinadi. Buning uchun o'qituvchi rasm yuzasidan 3–4 so'zli savollar tuzib keladi.

Masalan:

1. Rasmda nima tasvirlangan?

2. Aziz dalada nima qilyapti?

3. Kimlar bog'da olma teryapti?

O'quvchilar javobi gap nusxasi orqali xattaxtada quyidagicha tasvirlab beriladi:



O'quvchilar javobidan nima hosil bo'lgani (hikoya, og'zaki nutq) aniqlanadi. So'ng o'qituvchi xattaxtada hikoyaning nusxasi chizilganini aytadi. O'quvchilar nusxalarni kuzatadilar.

O'qituvchi birinchi nusxa 1-berilgan savolning – gapning javob gapi ekanini aytadi. So'ngra o'quvchilarga nechta savol berilgan va nechta javob olinganini aniqlash topshirig'i beriladi. Ularga *„Chiziqning boshi nima uchun burchakli? Oxiriga nima qo'yilgan?"* kabi savollar bilan murojaat qilinadi. Ular „3 ta savol – 3 ta gap berilgan edi, shuning uchun 3 ta javob – 3 ta gapning nusxasi chizilgan" deyishadi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

O'quvchilarning javobini hisobga olgan holda gapning boshlanishi burchakli chiziq bilan ko'rsatilishi, oxiriga gapning tugaganligini bildiruvchi tinish belgisi – nuqta qo'yilgani tushuntiriladi. O'quvchilarning javobini tartiblashtirib va to'ldirib, quyidagicha xulosa chiqariladi: Demak, nutqimiz gaplardan tuzilar ekan. Nutqda 2, 3, 4 ta va undan ham ko'p gap bo'ladi. Gapning boshlanishi burchakli chiziq bilan belgilanadi, gapning tugagan joyiga nuqta qo'yiladi.

Navbatdagi darslarda gapning boshqa xususiyatlari o'tilayotgan mavzu va rasmlarga bog'liq holda o'rgatib boriladi.

Umuman, xat-savod o'rgatish jarayonida o'qish va yozuv darslarida gap, gapning so'zlardan tuzilishi, gapda so'zlarning alohida-alohida yozilishi, gapning oxiriga mazmuniga qarab nuqta, so'roq, undov belgisi qo'yilishi, gapning birinchi so'zi bosh harf bilan yozilishi haqida amaliy tushuncha beriladi.

Gap yuzasidan quyidagicha mashq turlaridan foydalanish mumkin:

1. O'qituvchi yoki o'quvchilardan biri aytgan gapni o'quvchilarning xattaxtada chizma shaklida tasvirlashi va tushuntirishi (bunda gap rasm asosida tuziladi).

2. O'qituvchi tavsiya qilgan gap chizmasini o'quvchilarning izohlashi va unga mos gap tuzishi. Bunda o'qituvchi tuzadigan gap alifbe va yozuv daftaridagi rasmlar asosida bo'ladi.

3. Berilgan mazmunli rasm asosida tuzilgan hikoyadan o'rganilayotgan tovush-harf qatnashgan so'z bor gap ajratib olinib, uning chizmasi xattaxtada chizdiriladi. Shundan so'ng o'sha so'z bo'g'in-tovush jihatdan tahlil qilinadi.

4. Rasm asosida tuzilgan hikoyadan istalgan gapning chizmasini xattaxtada ifodalash. Bunda o'quvchilarning gapni bir butun holda xotirasida saqlagani, gapga xos xususiyatlarni ongli o'zlashtirgani aniqlanadi. Bu jarayonda bir necha o'quvchiga bir nechta gap chizmasi chizdirilishi mumkin.

5. Hikoyadan berilgan chizmaga mos gapni ajratib olish va izohlab berish.

6. Hikoyadagi har bir gapning nusxasini chizdirish. Hikoya dastlab 2–3, so'ng 4–5 gapli bo'lishi zarur. Tuzilgan hikoyani o'qituvchi qayta aytib turadi, o'quvchilar bittadan uni xattaxtada ifodalaydi. Hikoyaning nusxasi shu tariqa xattaxtada o'z ifodasini topadi. Misol:

Mana katta dala.
Bolalar bodring terdilar.
Dehqon ularga rahmat aytdi.

www.ziyouz.com kutubxonasi



7. Kartochkalar bilan ishlash. Bunda bir necha o'quvchilarga quyidagicha shakllar chizilgan kartochkalar tarqatiladi:



So'ngra ularga har bir kartochkani o'z o'rniga qo'yib, gap tuzish va tushuntirib berish topshirig'i beriladi. Bunday topshiriqlar o'tirgan o'quvchilarga tasmachalarda bajartirilishi mumkin. Hech bo'lmaganda topshiriqning to'g'ri bajarilgan-bajarilmaganini so'rash lozim.

8. Gapni so'zlar qo'shib kengaytirish va uni chizmada ifodalash. Bunda o'qituvchi gapdagi narsalarning belgilarini topishga undovchi savollar berib turadi. (*Qanday?* olmalar, *qachon?* terdi, *qayerdan?* terdi va shu kabi).

Bunday ish turi o'quvchining bilish faolligini oshiradi, darsga qiziqish uyg'otadi. Bu jarayonda o'quvchilar gapning yozilishi bilan bog'liq imloviy bilimlarni egallab boradilar, ularning gapni to'g'ri tuzish malakalari rivojlanadi, hikoyada (matnda) gapiar bir-biri bilan mazmunan bog'liq bo'lishini anglashga tayyorlab boradi.

Yuqoridagi mashqlar savod o'rgatish darslari davomida izchil uyushtirib boriladi. Bu xil mashqlar o'quvchilar tomonidan yo'l qo'yiladigan tipik xatolarning (gap chegarasini farqlamaslik) oldini olish imkonini yaratadi. O'quvchilar gapning ohangiga, to'xtamlariga e'tibor berib, uni chegaralab olishga o'rganadilar.

So'z ustida ishlash. Bu yo'nalishda quyidagicha ishlar omalga oshiriladi:

1. So'zning to'g'ri, adabiy-orfoepik talaffuzi va o'qilishini o'rgatish.

2. So'z ma'nolarini tushuntirish.

3. O'quvchilar nutqiga yangi so'zlarni kiritib borish, ya'ni lug'atini boyitish.

4. So'zlarni uslubiy jihatdan to'g'ri qo'llashga o'rgatish.

5. Berilgan so'zni imlo jihatdan to'g'ri yozishga o'rgatish.

Bu jarayonda, mazmunli rasm asosida yoki predmetlarning o'zi

www.ziyouz.com kutubxonasi

yordamida har bir aytilayotgan **nom so'z** ekanligi tushuntiriladi, **„so'z"** tushunchasi shakllantiriladi. Bu o'rinda gapning so'zlardan **tuzilishi** aytib o'tiladi. „Bo'g'in" mavzusi o'tilganda so'zlarning **bo'g'inlarga** bo'linishi bilib oladilar.

So'z ustida ishlash jarayonida quyidagicha og'zaki **mashq** turlaridan foydalanish mumkin:

1. Bir xil qo'shimchali so'zlardan topish. Masalan: *ishla, tuzla, sozla; gulzor, mevazor, paxtazor* va boshq.

2. Ohangdosh so'zlar topish. Misol: *bosh, tosh, qosh, osh; tutun, butun, kukun* va boshq.

3. Ma'nodosh so'zlar topish. Bunda darslikdagi matndan ma'nodoshi bor so'z tanlab olinadi va „Bu so'zni boshqa qaysi so'z bilan almashtirish mumkin?" deb so'raladi. Masalan: *vatan, yurt, el, mamlakat, diyor* va boshq.

4. Shakldosh so'zlar topish. Bunda 2 ta gap berilib ulardagi **bir** xil yozilgan so'zni topish aytiladi. So'z topilgach, uning ma'nolari gaplar vositasida tushuntirib beriladi. Misol:

Yozda dam oldik.

Xatni qalam bilan yoz!

O'quvchilarga mana shunga o'xshash misollar **topish vazifasi** beriladi.

5. Qarama-qarshi ma'noli so'zlar topish. Misol: *yaxshi-yomon, baland-past, oq-qora, odobli-odobsiz, katta-kichik* va boshq.

6. Ko'p ma'noli so'zlar yordamida birikmalar tuzish: *odamning ko'zi – uzukning ko'zi, taxtaning ko'zi...* Bunda o'qituvchi boshlab beradi va qator o'quvchilar tomonidan davom ettiriladi.

7. Berilgan so'zni qatnashtirib gap tuzish. Bunda berilgan so'zni qatnashtirib gap yoki maqol aytish topshirig'i berilishi mumkin. Misol: Kitob: *Kitob – bilim manbai.* Vatan: *Men vatanimni sevaman.*

So'z ustida ishlash jarayonida kesma harf va kesma bo'g'inlar yordamida yozma mashqlar tashkil etiladi.

1. O'rganilayotgan sahifadagi bir bo'g'inli so'zlarni kesma harflardan tuzish va o'qish: *nok, nay, osh, oy, ip, tom, do'st, qand, baxt* va boshq.

2. Ustunchadagi ikki va uch bo'g'inli so'zlarni kesma harf va kesma bo'g'inlardan tuzish va o'qish. Misol: *t – to-mon, o-ta, mit-ti.*

3. Bir so'z asosida bir necha so'z tuzish va o'qish: **oltin** – *olti, in, tin, til, il, it, tol.*

www.ziyouz.com kutubxonasi

4. Berilgan so'zning bo'g'inlarini yoki ayrim harflarini almashtirib, yangi so'z tuzish va o'qish. Misol: *osmon – somon, Zilola – Hilola, qovoq – tovoq* va boshq.

5. So'z bo'g'inlaridan yoki harflardan birini olib tashlab, yangi so'z hosil qilish va uni o'qish: *Noila – nola (yoki oila), guldon – don (yoki gul), ziyrak – zirak* va boshq.

6. Berilgan so'zga *-chi, -la, -zor* qo'shimchalarini qo'shish va hosil bo'lgan yangi so'zning ma'nosini izohlash. Misol: ish – *ishchi, ishla*; gul – *gulchi, gulla, gulzor* va boshq.

7. So'zga harf, bo'g'in yoki tutuq belgisi qo'shib, yangi so'z hosil qilish va uni o'qish: *o't-o'tloq, bog'-bog'bon, bil-bilim, sher-she'r* va boshq.

8. Berilgan chizma asosida so'zlar tuzish va ularni o'qib, ma'nosini izohlash. Misol: □□□– □□. Bu chizma asosida *qush-cha, do'p-pi, ruchka* kabi so'zlar tuziladi.

O'yin tarzida olib boriladigan bu kabi ish turlari o'quvchilarning lug'atini boyitish bilan birga, o'qishga qiziqish uyg'otadi, imloviy sezgirlikni oshiradi va so'zning tovush tarkibi haqidagi tasavvurlarini kengaytiradi.

Savod o'rgatish jarayonida yozuvga o'rgatish

Savod o'rgatish jarayonida o'quvchilar o'qishga o'rganish bilan parallel ravishda yozuvdan ham elementar malaka hosil qiladilar. Dasturga muvofiq o'quvchilar yozuvdan quyidagi malakalarni egallashlari lozim:

1. Partada to'g'ri o'tirish, daftarni to'g'ri qo'yish, chiziqlarni chamalash, yozayotganda ruchkadan to'g'ri foydalanish, hoshiyaga rioya qilish (1-rasm).

2. Yozuv daftari yoki alifbe asosida o'zbek alifbosidagi barcha bosh va kichik harflarni yozish, shuningdek, harflarni so'zda bir-biriga bog'lab yoza olish; bosma matnni yozma matnga aylantirib yozish.

3. Tahlil qilingan so'z va ikki-uch so'zli gaplarni o'qituvchi yordamida yozish.

4. Talaffuzi bilan yozilishida farq qilmaydigan so'zlarni ko'chirib yozish va eshitib yozish: yozganlarini matnga qarab, shuningdek, izohlab o'qish bilan tekshirish.

5. Og'zaki tuzilgan hikoyadan olingan gapni yozish.

www.ziyouz.com kutubxonasi

1-rasm







Analitik-sintetik tovush metodi (tovush-tarkib metodi) tamoyiliga muvofiq, o'qish va yozuv birligi saqlanadi. Harflarni yozishda o'qishga o'rgatishdagi tarkib asos qilib olinadi, ya'ni o'qish darsida o'quvchilar harfni o'zlashtiradilar, matnni o'qiydilar, yozuv darsida esa shu harfli

www.ziyouz.com kutubxonasi

so‘zni yozadilar. Yozuvga o‘rgatishning bu tartibida genetik tamoyil buziladi, ya’ni oson harfni yozishdan asta-sekin qiyin harfni yozishga o‘tiladi.

Yozuvga o‘rgatish, birinchi navbatda, grafik malaka hosil qilishdir. Har bir malaka ham ta’lim berish, ko‘nikmani shakllantirish va shu asosda qator mashqlarni bajarish natijasida hosil qilinadi.

Grafik malaka qo‘l-harakat malakasidir, bu harakat, birinchidan, muskul kuchiga asoslanadi. Ikkinchidan, yozuv jarayonida nutq birligi bo‘lgan tovush grafik belgilarga, ya’ni harfga tarjima qilinadi. Bu yozuvga ongli faoliyat tusini beradi. Yozuvning ongliligi, birinchidan, tovush va harfning to‘g‘ri nisbatini, ikkinchidan, bir qancha grafik va imlo qoidalarga rioya qilishni, uchinchidan, o‘z fikrini, taassurotini, istaklarini ifodalashda yozuv malakasidan foydalanishni talab qiladi.

Yozishdan birdan-bir maqsad fikrni ifodalashda yozuv malakalaridan foydalanish hisoblanadi. Bu maqsadni bolalar tez anglab yetsalar, ularda yozma nutq malakasi shunchalik muvaffaqiyatli va to‘g‘ri shakllanadi. Savod o‘rgatish jarayonida bolalar juda sekin yozadilar.

Yozuv malakasi o‘qish malakasi bilan uzviy bog‘liqdir. Bola yomon o‘qisa, yozuvni egallashi ham qiyin bo‘ladi, chunki bo‘g‘inlab o‘qish malakasidan so‘ng, bo‘g‘inlab yozish malakasi shakllanadi. Harf terish kartonida tuzilgan so‘zni ko‘chirish yoki yozishga tayyorlanishda bolalar uni bo‘g‘inlab o‘qiydilar. Bu o‘qish uchun ham, bo‘g‘inlab aytib yozish uchun ham, imloga oid malakasining o‘sishi uchun ham muhimdir.

Yozish va o‘qish uchun bolaning umumiy nutqiy rivojlanishi katta ahamiyatga ega. Keyinroq, bolalarda o‘z fikrini yozma ifodalash malakasi bir oz barqarorlashganda, bu malaka nutqqa, fikrni ifodalash jarayoniga ham ijobiy ta’sir qiladi.

Grafik malakani shakllantirishda quyidagi bosqichlar mavjud:

1. Turli shakllar andozasi ustidan chizish. Erkin rasmlar chizish. Yozuv qurollarini to‘g‘ri tutish, turli qiya elementlar chizish, uzunlikni, oraliq masofani chamalash va hokazo.

2. Harf elementlarini yozish, baravar masofada qisqa va uzun elementlar, osti va usti ilmoqli elementlar chizish.

3. Bosh va kichik harflarni alohida yozish.

4. Harf birikmalarini, bo‘g‘inni yozish, harflarni to‘g‘ri qo‘shib yozish malakasini hosil qilish uchun so‘z yozish.

Grafik malakani hosil qilishdan asosiy maqsad, harflarni bosmasdan

www.ziyouz.com kutubxonasi

bir tekisda, elementlarga ajratmay bog'lab, tez, bir maromda yozish, so'zlarni qatorga to'g'ri joylashtirishdir.

Shuni ta'kidlash kerakki, savod o'rgatish davrida bola harflarni yozishdan oldin uni qanday shakllantirishni ko'z oldiga keltirib, fikrlab oladi, ba'zan harf shaklini havoda „chizadi", harf namunasini ko'chiradi, tarkibini tahlil qiladi, uni qanday yozishni o'zicha sekin gapiradi; o'qituvchi o'quvchi yoniga o'tirib, ruchkani to'g'ri ushlatadi va uning qo'li bilan harfni yozishni ko'rsatadi yoki o'zi yozib tushuntiradi. Bundan tashqari, bola yozuvning texnik tomoniga katta jismoniy kuch sarflaydi. Savod o'rgatish oxirida bola bir darsda 20 tacha so'zni yozishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qaroriga binoan 1993-yil 2-sentabrda „Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. 1995-yil 6-mayda bu qonunga o'zgartirishlar kiritildi. Bu alifbo, birinchidan, og'zaki talaffuz bilan yozma nutq mosligini ta'minlaydi, ikkinchidan, jahon xalqlarining 30 foizdan ortig'i mana shu yozuvdan foydalanadi. Bu esa xalqaro aloqa-aralashuvni birmuncha yengillashtiradi.

Lotin alifbosiga asoslangan o'zbek alifbosidagi harflar ham bosmasdan, ortiqcha jimjimasiz, qo'l uzmasdan bog'lab yoziladi. Shuning uchun yozuvga o'rgatish metodikasida harflarni qo'shishga alohida ahamiyat beriladi. O'quvchilar barcha harflarni bir-biriga qo'shish yo'lini bilishlari lozim.

Yozuvga o'rgatishning tashkiliy va gigiyenik shartlari. Maktabda asosiy yozuv quroli sharikli ruchka bo'lib, xattaxtaga yozishda bo'rdan foydalaniladi.

Savod o'rgatish davrida bolalarni yozuvga o'rgatish uchun turli vaqtlarda turli xil chiziqli daftarlardan foydalanilgan: dastlab chiziqsiz silliq qog'oz ishlatilgan bo'lsa, keyin quyuq yotiq chiziqlar bilan kesilgan uch chiziqli daftardan foydalanilgan:



Bunday daftarda yozuvga o'rgatilgan boladan boshlang'ich sinflarni bitirguncha besh xil daftarga yozishni o'rganish talab etilar edi:

www.ziyouz.com kutubxonasi



Hozirgi vaqtda yozuvga o'rgatish uchun ikki chiziqli daftar tavsiya etiladi. Xattaxta ham shunga mos bo'lishi talab qilinadi; 2-sinfdan, ba'zan 1-sinfda o'quv yilining ikkinchi yarmidan boshlab bir chiziqli daftarga yozishga o'tiladi.

Daftar tutishda bolalarni hoshiya qoldirishga, daftar chiziqlariga rioya qilishga, harflarni bir xil hajmda yozishga, sarlavhani aniq va to'g'ri ajratishga, xat boshidan yozishda joy qoldirishni unutmaslikka o'rgatib borish ularda saranjom-sarishtalikni tarbiyalaydi. Yozuv darsida o'quvchilar „Yozuv daftari" bilan ishlaydilar. Sinfda o'rganilgan harfni uyda mashq qilish uchun alohida daftar bo'lishi kerak.

O'qituvchi yozish vaqtida 65° qiyalikda yozishni, buning uchun daftar parta ustiga 25° qiyalikda qo'yilishini amaliy ko'rsatib turadi.

Yozuv daftari bilan ishlash. Yozuv daftari asosida uyushtiriladigan yozuv darslarida o'quvchilar asosan grafik malakalarni egallaydilar. Yozuv ko'nikmalarini shakllantirish ham bevosita nutq hamda tafakkur faoliyati bilan bog'liq. Shu sababli yozuv daftari ham savod o'rgatish jarayoniga mos holda tuziladi.

Yozuv daftarida ta'lim beruvchi, o'rganuvchi-tekshiruvchi va tekshiruvchi mashqlar beriladi. Bu mashqlar bilan ishlash jarayonida lug'at ustida ishlash, to'g'ri talaffuz, og'zaki suhbat, gap va so'z tahlili, so'z yoki bo'g'indagi yozilishi o'rganiladigan harfni ajratish, bo'g'inlarni biriktirish, tuzilgan so'zlarni o'qish va yozish kabi ish turlaridan foydalaniladi.

Yozuv daftarida o'quvchilar „Alifbe"da o'rganilgan harfni yozma shakllantiradilar. Suhbat uchun daftarning yuqori qismida predmet rasmi yoki biror mazmunli rasm keltirilishi, ayrim predmet nomlarini ifodalovchi so'z chizmasi katakchalarga ajratib berilishi, gap nusxalarining keltirilishi maqsadga muvofiqdir. Ba'zi o'rinlarda o'quvchilar berilgan gap yoki so'z chizmasini o'zlari mustaqil tasvirlaydilar.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Predmet rasmi berilgan o'rinlarda shu predmet nomi — so'z bo'g'in-tovush jihatdan tahlil qilinadi, so'zdagi tovushlar soni suhbat yo'li bilan aniqlanadi va katakchalarda ranglar bilan belgilanadi.

Mazmunli rasm asosida gap chizmasiga mos gap tuziladi, keyin o'sha gapning tahlili ustida ish olib boriladi.

Harflarning yozma shakli ularning bosma shakli bilan taqqoslash orqali tanishtiriladi.

Yozuv daftarida tinish belgilar qo'llangan. Ular shu belgi uchragan o'rinlarda tanishtirib boriladi.

Yozuvga o'rgatishda o'quvchilarning ko'ruv, eshituv, qo'l harakati sezgilarini ishga solish lozim. Shunda yozuv quruq yozuv bo'lmay, ongli yozuvga aylanadi.

Yozuvga o'rgatishda orfografik elementlar. Orfografiya yunoncha so'z bo'lib, „to'g'ri yozuv" degan ma'noni bildiradi. Orfografiya (imlo) adabiy tilning yozma shakli bilan bog'liq bo'lib, to'g'ri yozish haqidagi qoidalar yig'indisidir. Orfografiyani bilmay turib, fikrni adabiy til me'yorlari asosida yozma ifodalab bo'lmaydi. O'quvchilarning imloviy savodxonligi haqida g'amxo'rlik qilish tilning aniqligi, fikrni to'g'ri ifodalash, kishilar bilan o'zaro xatosiz muomala qilish uchun g'amxo'rlik demakdir. Savod o'rgatish davrida bolalarda grafik malakani shakllantirish bilan birga imloga oid malaka ham shakllantiriladi.

Savod o'rgatish davrida o'quvchilar quyidagilarni amaliy tarzda o'rganadilar:

a) talaffuzi va yozilishida farq qilmaydigan so'zlarda tovush bilan harfning mosligini;

b) so'zlarni alohida yozishni, ya'ni yozuv vositasida so'zni ma'no birligi sifatida ajratishni;

d) so'zning satrga sig'may qolgan qismini keyingi qatorga bo'g'inlab ko'chirib yozishni (bunda bo'g'in hosil qilgan bir unli harfni qatorga ko'chirib yozib bo'lmasligini);

e) gap boshida, shuningdek, kishilar ismida, hayvonlarga qo'yilgan nomlarda bosh harfning ishlatilishini.

Savod o'rgatish davrida o'quvchilarda o'z-o'zini tekshirishga oid malaka shakllantiriladi: ular yozganlarini namuna bilan solishtiradilar, yo'l qo'ygan xatolarini topadilar, ularni izohlashga o'rganadilar. Shu davrdanoq ko'chirib yozish, diktant va ijodiy yozuv (insho)lardan foydalaniladi.

Gap va so'zlarni yozishdan oldingi tayyorgarlik ishlari, muntazam o'tkazib boriladigan o'z-o'zini tekshirish mashqlari, o'qilgan matnning

www.ziyouz.com kutubxonasi

imlosini kuzatish o'quvchilarda yuqori savodxonlik garovi bo'lgan orfografik ziyraklikni asta-sekin shakllantira boradi, ularni yuqori sinflarda o'rganiladigan imlo qoidalarini puxta o'zlashtirishga tayyorlaydi.

Yozuv darslarida o'quvchilar nutqini o'stirish. Yozuv darslarida ham o'quvchilar nutqini o'stirish, fikrlashga o'rgatish asosiy vazifalardan hisoblanadi. Yozuvga o'rgatishning dastlabki kunlaridanoq bolalarning o'z fikrini yozma ifodalashi muhim ekanligini, u insonlarning aloqaga kirishuvida muhim vositaligini tushunishlariga erishish lozim. Buning uchun o'quvchilar yozadigan birinchi so'z ularning jonli nutqidan yoki o'zlari tuzgan gapdan olinishi kerak. Bu jarayonda ko'chirib yozish va diktant ijodiy yozuvdan so'ng o'tkaziladi. Bu yozma mashq turlarining ongli bajarilishini, o'quvchilarning bilish faolligini ta'minlaydi. Masalan, bolalar o'qish darsida „Alifbe" da berilgan rasmga qarab gap yoki hikoya tuzadilar, yozuv darsida esa o'sha gap yoki hikoyadagi ma'lum bir so'zni yozadilar. Bu ular uchun ijodiy yozuv – inshodir. Keyinchalik o'quvchilar alohida so'z yozishdan kichik-kichik gaplarni yozishga o'tadilar.

O'quvchilar gap yoki hikoyani og'zaki ravishda erkin tuza oladilar, lekin yozish uchun o'rganilmagan harf bo'lmagan so'zni tanlashda qiynaladilar. Bu jarayonda o'qituvchi yordam berishi va yozuvni kuzatib borishi lozim.

Ijodiy yozuv mashqini doimo izchil ravishda o'tkazib, asta-sekin murakkablashtirib borish kerak. Bunday mashqlar o'quvchilarni insho va bayon yozishga tayyorlaydi, o'z fikrlarini mustaqil ravishda yozma bayon qilishga o'rgatadi.

Yozuv darslarida yuqoridagi kabi mashqlar o'quvchilarning yozma nutqini og'zaki nutqi bilan bog'liq holda o'stirishni ta'minlaydi.

Savod o'rgatish davrida o'qish va yozuv darslari

O'qish va yozuv darslariga qo'yiladigan talablar. Dars ta'limning asosiy shakli hisoblanadi. Analitik-sintetik tovush metodi asosida olib boriladigan savod o'rgatish darslari xilma-xil bo'lishi, o'quvchilarni zeriktirmasligi va charchatib qo'ymasligi kerak.

Savod o'rgatish davridagi o'qish yoki yozuv darslari va ularning ayrim turlari uchun umumiy bo'lgan asosiy talablar mavjud:

1. Umumdidaktik talablar:

a) har bir darsning tarbiyaviy maqsadi bo'lib, unda bironta axloqiy sifat o'stirilishi lozim;

www.ziyouz.com kutubxonasi

b) darsning ta'limiy maqsadi, ya'ni o'quvchilar darsda qanday yangilikni bilishi, nimani o'rganishi, qanday ko'nikma va malakalar o'stirilishi, o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va faolligining qanday bo'lishi aniq belgilab olinishi kerak;

d) darsning izchilligi va istiqboli, uning oldingi va keyingi darslar bilan bog'liqligi aniq belgilab olinishi zarur;

e) o'tiladigan materialning xarakteri va ta'lim maqsadidan kelib chiqib dars uchun xilma-xil va qiziqarli metodik usullar va vositalar tanlanishi lozim;

f) dars davomida o'quvchilarga differensial va individual yondashish, ishni barcha o'quvchilarning imkoniyati, bilimi, ko'nikma va malakasi hamda fikrlash faoliyatini hisobga olgan holda uyushtirish kerak;

g) o'quvchilarni aqliy mehnat (o'qish) usullariga o'rgatish, ularda maktabda o'qish uchun kerakli ko'nikmalarni hosil qilish zarur;

i) beriladigan material ilmiy, o'quvchilar yoshiga mos va muvofiq bo'lsin va hokazo.

2. Maxsus metodik talablar:

a) o'quvchilar nutqi uchun qayg'urish, darsda adabiy til nuqtai nazaridan to'g'ri, ifodali, obrazli, aniq nutqqa erishish lozim;

b) o'qish darsida ham, yozuv darsida ham o'quvchilar nutqini o'stirishga, lug'atini boyitishga, gap tuzish va uni tahlil qilishga, og'zaki hikoyalash va shu kabi ish turlariga alohida ahamiyat qaratish kerak;

d) maktab va sinf devorlariga osilgan, xattaxtaga yozilgan har qanday yozuv mazmunan va imlo jihatdan savodli bo'lishi zarur;

e) darsda nutq madaniyati hukmron bo'lishi, o'qituvchi va o'quvchilar adabiy tilda so'zlashishlari kerak;

f) o'qish va yozuv ko'nikma-malakalarini shakllantirish mashqlari darsda yetakchi o'rinni egallab, taxminan, darsning uchdan ikki qismiga to'g'ri kelishi lozim;

g) har bir o'qish va yozuv darsida „Alifbe"dagi matnlar bilan bir qatorda Q. Muhammadiy, P. Mo'min, Z. Diyor, A. Obidjon kabi sevimli bolalar shoiri va yozuvchilari asarlaridan namunalar tanlab olinishi va sinfda o'qish sinfdan tashqari o'qish hamda o'qib berilgan matnni eshitish bilan bog'lanishi zarur.

i) o'qish va yozuv darslari bir-biri bilan uzviy bog'lanishi, ya'ni o'qish darsi o'quvchilarni yozuv darsiga tayyorlashi, yozuv darsi oldingi o'qish darsining davomi sifatida xizmat qilishi kerak va hokazo.

www.ziyouz.com kutubxonasi

O'qish va yozuv darslarining turlari. Savod o'rgatish jarayonidagi darslar quyidagi belgilariga ko'ra farqlanadi:

1. Ta'limning predmetiga ko'ra:
   a) „Alifbe" darsligi asosidagi o'qish darslari;
   b) „Yozuv daftari" asosidagi yozuv darslari.
2. Ta'limning davri va bosqichlariga ko'ra:
   a) alifbogacha bo'lgan davrdagi darslar;
   b) alifboni o'rganish jarayonidagi darslar.
3. Darsda yangi mavzu o'tilishi va o'tilmasligiga ko'ra:
   a) yangi tovush-harf o'rganiladigan o'qish darslari;
   b) yangi harfni yozish darslari;
   d) yangi tovush-harf o'rganilmaydigan darslar;
   e) yangi harf yozilmaydigan yozuv darsi.

Bulardan tashqari, umumlashtiruvchi va takrorlash darslari hamda savod o'rgatish davrining oxirida „Alifbe" bayrami o'tkaziladi.

Savod o'rgatish davrida o'quvchilar bilimi dars jarayonida barcha ishlarga bog'lab aniqlanadi, bog'lanishli nutqni o'stirish ham o'qish va yozuv darslariga uzviy bog'lanib ketadi. O'quvchilarning sinfdan tashqari o'qishlariga rahbarlik qilishlariga haftada bir marta 20 daqiqa ajratiladi. Ssavod o'rgatishning tayyorlov davrida darslar 35 daqiqa, asosiy (alofbe) davrida 45 daqiqa bo'ladi.

Savod o'rgatish darslarida ish turlarini almashtirib turish, vaqti-vaqti bilan dam olish daqiqalari o'tkazish zarur. Bu o'quvchilar toliqishining oldini oladi.

Darslar tizimi deyilganda o'quv vaqtini mavzularga nazariy va amaliy jihatdan rejali taqsimlangan, darslarning mantiqiyligi va istiqboli bir-biri bilan bog'langan, dars turlari va unda o'qituvchi bilan o'quvchilar foydalanadigan asosiy metodik vositalar xilma-xil bo'lgan izchillik nazarda tutiladi.

Savod o'rgatish davri uchun darslar tizimi o'quv jarayoni bosqichlari asosida o'qish va yozuv darslari muayyan guruhini ajratishni ko'zda tutadi. Amaldagi „Alifbe" darsligi va ularga yozilgan qo'llanmalarga asosan, savod o'rgatishga jami 4 oy (shundan tayyorgarlik davriga 8 dars (ikki hafta), asosiy davrga qolgan vaqt) ajratiladi. Ta'limning har bir bosqichidagi darsning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Darslar qurilishida ichki mantiqiylik bo'lib, har bir darsda yangi tovush va harf o'rganiladigan dars bilan yangi mavzu o'rganilmaydigan darsni navbatlashtirish, imlo va so'zning bo'g'in tuzilishi haqida ma'lumot

www.ziyouz.com kutubxonasi

berish, o'quvchilar nutqi va tafakkurini o'stirish kabi talablarga rioya qilinadi. Darslar umumlashtirish-takrorlash darsi bilan yakunlanadi.

Savod o'rgatish davridagi darslarni interfaol usullardan foydalanib tashkil etish katta ahamiyatga ega.

Oz komplektli maktablarda savod o'rgatish darslarining xususiyatlari. Oz komplektli maktablarda savod o'rgatishni tashkil etishda o'qituvchi bir vaqtning o'zida ikki yoki uch, ba'zan to'rt (1- va 4-sinf, 2—3-sinf, 1-, 2-, 3-sinf, 1—4-sinflar) sinf bilan ishlaydi, ya'ni bir vaqtning o'zida bir necha sinf o'quvchilari bilan ish olib boradi. Bunday sinflarda dars jadvali integrallashtirilgan bo'lishi kerak va darslar 30 daqiqagacha qisqartirilishi mumkin. Savod o'rgatish davridagi yozuv darslarini boshqa sinflarda olib boriladigan matematika, tabiatshunoslik va ba'zan o'qish darslari bilan birga olib borish maqsadga muvofiqdir.

Oz komplektli maktablarda o'quvchilarning mustaqil ishlariga alohida ahamiyat beriladi, chunki o'qituvchi ikki sinf yoki uch sinf bilan ishlaganda, bir sinf bilan alohida ishlay olmaydi: u bir sinf bilan ishlashi uchun qolgan sinflarga mustaqil ish topshirib, ularni band qilishga majbur. Shuning uchun maxsus mustaqil ishlar tizimi ishlab chiqilishi zarur. Oz komplektli maktablarda savod o'rgatish davrida mustaqil ishlarni muvaffaqiyatli uyushtirish uchun „Alifbe"ga qo'shimcha, ishni jonlantiradigan didaktik tarqatma materiallar muhim ahamiyatga ega.

Mustaqil ish savod o'rgatish jarayonida o'qituvchining rahbarlik qilishini talab etadi: o'qituvchi aniq vazifa topshiradi, uni qanday bajarishni yaxshilab tushuntiradi, o'quvchi bajargan ishni sinfning o'zida tekshiradi. Boshqa sinflar bilan ishlash jarayonida ham u 1-sinf o'quvchilarining mustaqil ishni qanday bajarayotganini kuzatib boradi.

Savod o'rgatish jarayonida bajariladigan mustaqil ishlarga turli predmetlar shaklini chizish, bir xil oraliqni mo'ljallab nuqtalar qo'yish, yotiq to'g'ri chiziqlar chizish, ayrim harflar elementlarini yozish, rasmga qarab savollarga javob berishga tayyorlanish, rasmga qarab gap tuzish kabi mashqlarni kiritish mumkin.

Alifbo davrida esa harf terish kartoni va abak yordamida turli xil analitik-sintetik ishlarni uyushtirish, rasm asosida suhbat, ovoz chiqarib yoki ichda o'qish, qayta hikoya qilishga tayyorlanish, berilgan bo'g'inlar yordamida so'zlar tuzish, gaplarni to'ldirish, o'qilgan matnga oid rasm chizish, namuna asosida yozish, tushirib qoldirilgan harf yoki so'zni o'rniga qo'yib yozish, berilgan predmetlarni ma'lum

www.ziyouz.com kutubxonasi

belgisiga ko'ra guruhlash va umumlashtirish kabi mashqlarni qo'llash, bu jarayonda texnika vositalaridan unumli foydalanish zarur. Mustaqil ish sifatida tarqatma materialda berilgan so'zni o'qish, unli va undosh harf tagiga chizish, so'zni bo'g'inlarga ajratish kabi mashqlarning berilishi o'qituvchiga juda qo'l keladi.

Oz komplektli maktablarda texnika vositalaridan foydalanish ham katta ahamiyat kasb etadi.

Komplekt sinflarni to'g'ri taqsimlash va birlashtirish, dars va mustaqil ishlarni mohirlik bilan uyushtirish va rejalashtirish, didaktik materiallardan, ko'rgazmali vositalardan unumli foydalanish yo'li bilan oz komplektli sinf o'quvchilarining bilimlarni puxta o'zlashtirishlariga erishish mumkin.

„Alifbe" darsligi qurilishining ilmiy-pedagogik tamoyillari

„Alifbe" birinchi o'quv kitobi bo'lib, uni ishlab chiqishda didaktikaning umumiy mezonlariga: g'oyaviylik; bayonning ilmiyligi, tushunarliligi; ko'rsatmalilik; onglilik; o'quv materialining hayot bilan bevosita aloqadorligi; bolalar yoshi va dunyoqarashi, o'ziga xos ruhiy xususiyatlarining hisobga olinishi[7] hamda „Alifbe" darsligi tuzilishining xususiy mezonlariga asoslaniladi.

„Alifbe" darsligi, asosan, quyidagi ilmiy-pedagogik tamoyillar asosida tuziladi:

1. „Alifbe" materiali bolalarda ongli, to'g'ri, bo'g'inlab o'qish va to'g'ri yozish malakalarini hosil qilishga yordam berishi kerak.

2. O'qish uchun berilgan matnlar, rasmlar bolalar saviyasiga mos bo'lishi, shu bilan birga, ularning tafakkuri va nutqini o'stirishi lozim.

3. „Alifbe" tuzilishida tovush-harflarning ko'p ishlatilishi tamoyilidan foydalanish kerak.

4. „Alifbe"dagi harflarni joylashtirishga va ular qatnashgan so'zlarni tanlashga alohida e'tibor qaratish lozim.

5. „Alifbe"dagi materiallarning hajmi savod o'rgatishga ajratilgan vaqtga mos bo'lishi zarur.

6. „Alifbe"ning harfi, terilishi, qog'ozi, rasmlarining bo'yoqlari gigiyenik talablarga javob berishi lozim.

[7] R. Safarova va boshq. Savod o'rgatish darslari (Alifbeni o'qitish bo'yicha metodik qo'llanma). – T.: „Ma'naviyat", 2003. 3-bet.

www.ziyouz.com kutubxonasi

7. „Alifbe"ning tashqi ko'rinishi chiroyli, bolalar diqqatini o'ziga tortadigan bo'lishi kerak va hokazo.

„Alifbe"ga qo'yilgan barcha talab va tamoyillarni faqat „Alifbe" darsligini tuzuvchilar emas, balki u bilan ishlaydigan o'qituvchilar ham bilishi zarur. „O'qituvchi", avvalo, „Alifbe"ning mazmunini, tuzilishini yaxshi bilib olib, undagi materialdan pedagogik jarayonni tashkil etish (alohida bir dars rejasini tuzish, darslar tizimini belgilash, alifbe materialiga qo'shimcha material tanlash, ba'zi materiallarni qayta ko'rib chiqish)da foydalanadi. Shundagina o'qituvchi kitobga ijodiy yondashib, undan metodika talablari va o'zining pedagogik tajribasidan kelib chiqib foydalangan bo'ladi.

Savol va topshiriqlar

1. Nutq faoliyatining turlari va ularning shakllanishini tushuntiring.
2. Eski maktablarda savod o'rgatish qanday metod va bosqichlarda olib borilgan?
3. O'zbek sinflari uchun yaratilgan dastlabki o'quv qo'llanmaning afzalliklari nimalardan iborat?
4. Analitik-sintetik tovush metodi va uning tamoyillari haqida ma'lumot bering.
5. Bolalarning savod o'rgatishga tayyorgarligi qanday yo'nalishlarda o'rganiladi? O'zingiz bir-ikkita bolaning savod o'rgatishga tayyorgarligini o'rganing va taqqoslang, farqini aniqlang.
6. Savod o'rgatish jarayoni haqida to'liq ma'lumot bering.
7. Savod o'rgatish jarayoni oxirida o'quvchilar qanday bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari zarur?
8. Savod o'rgatish davri o'qish darslariga dars namunasini ishlab chiqing.
9. Bo'g'in-tovush, tovush-harf tahlili mashqlarining mazmuni va ahamiyatini sharhlab bering.
10. Savod o'rgatish jarayonida qanday mashq turlaridan foydalaniladi? Ularni to'liq bayon qiling.
11. Savod o'rgatish jarayonida tovushlarning to'g'ri va ravon talaffuzi ustida qanday ishlanadi?
12. Diksiya ustida ishlash mashqlariga nimalar kiradi?
13. Savod o'rgatish davrida nutq o'stirishga oid ish turlarini misollar bilan tushuntiring.
14. Savod o'rgatish davrida gap va so'z ustida ishlashga doir ish turlarini ayting.

www.ziyouz.com kutubxonasi

15. Yozuvning inson hayotidagi ahamiyatini ayting. Hozirgi yozuv shriftiga o'z munosabatingizni bildiring.

16. Yozuvga o'rgatishning tashkiliy, gigiyenik va ta'limiy shartlarini aytib bering. Ularni biror harfni yozish darsiga tatbiq eting.

17. Yozuv daftari ustida ishlashni tushuntiring.

18. Yozuv darslarida o'quvchilar nutqini o'stirishda qanday usullardan foydalaniladi?

19. Savod o'rgatish davridagi o'qish va yozuv darslariga tavsif bering.

20. Oz komplektli maktablarda savod o'rgatish darslarining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

21. „Alifbe" darsligi qurilishining ilmiy-pedagogik tamoyillarini tushuntirib bering.

22. Hozirgi kunda amalda qo'llanilayotgan „Alifbe" darsligini tahlil qiling va unga taqriz yozing.

www.ziyouz.com kutubxonasi

O'qish darslarining maqsad va vazifalari, ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyati

Boshlang'ich sinflarning o'qish darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Negaki uning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta'limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshqa predmetlar ta'limini o'qish ta'limisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

O'quvchi matnni to'g'ri, tez, tushunib o'qish, mazmunini o'zlashtirish bilan ilk bor o'qish darslarida yuzlashadi. O'qish darslari orqali o'quvchilarning Davlat ta'lim standarti (DTS) talablari bo'yicha o'zlashtirishlari ko'zda tutilgan o'quv-biluv ko'nikma-malakalari hamda bilimlarni egallashlariga yo'l ochiladi. Aynan o'qish ta'limida insonning, avvalo, o'zligini, qolaversa olamni anglashga bo'lgan intilishlariga turtki beriladi.

Shu maqsadda „O'qish kitobi" darsliklariga ona tabiat, atrofimizni o'rab turgan olam, Vatanimiz tarixi va bugungi qiyofasi, kattalar va bolalar hayoti, mehnatsevarlik, istiqlol va milliy-ma'naviy qadriyatlar, xalqlar do'stligi va tinchlik kabi turli mavzular bo'yicha atroflicha tushunchalar berishga mo'ljallangan badiiy, axloqiy-ta'limiy, ilmiy-ommabop asarlar kiritiladi.

O'qish darslari savod o'rgatish davrida o'quvchilarni bo'g'in, so'z va gaplar bilan tanishtirish va ularni o'qish, rasmlar asosida hikoya qilish tarzida uyushtirilsa, o'qish texnikasi egallangandan so'ng o'qish muayyan mavzular bo'yicha tanlangan badiiy, ilmiy-ommabop matnlar yuzasidan olib boriladi.

Boshlang'ich sinf „O'qish kitobi" darsliklariga kiritilgan muayyan mavzular o'quvchilarni badiiy adabiyotning sehrli olamiga olib kirishi, dunyoqarashlarini milliy istiqlol mafkurasi asosida to'g'ri shakllantirishga qaratilishi bilan belgilanadi. Shunga ko'ra, o'qish darslarining yetakchi xususiyati o'quvchilarning savodxonligini ta'minlash bilan birga, o'quvchilarni milliy mafkura asosida yuksak axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratiladi.

Boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida o'rganiladigan asarlarning mavzu doirasi ancha keng bo'lib, ular ona tabiat, yil fasllari, xalq

www.ziyouz.com kutubxonasi

og'zaki ijodi, mehnatga muhabbat, asosiy bayram sanalari, milliy istiqlol va ma'naviyat kabi umumiy mavzular doirasida birlashtirilgan.

O'qish darslari uchun tanlangan mavzular o'quvchilarga kundalik hayot, mustaqillikni mustahkamlash va insoniy munosabatlar bo'yicha ham bilim va tarbiya berishni ko'zda tutadi. Bular ichida istiqlol, vatan, ma'naviyat va tabiat haqidagi mavzular alohida ajralib turadi. Ulardan ko'zlangan maqsad o'zlikni anglash, istiqlol, vatan va tabiat bilan bog'liq tuyg'ularni uyg'otishdir.

Vatanparvarlik, atrofimizdagi olam, mehnatsevarlik kabi mavzular o'qish darsliklaridagi keng qamrovli mavzulardan bo'lib, 2-sinf „O'qish kitobi"dagi *„Ona yurtim-oltin beshigim"* bo'limiga kiritilgan *„O'zbekistonim"* (H. Imonberdiyev), *„Istiqlol"* (J. Jabborov), *„O'lka"* (E. Vohidov), *„Yur tog'larga"* (U. Nosir), 3-sinfda *„Ona bitta, Vatan yagona"* bo'limidagi *„Vatan haqida she'r"* (A. Avloniy), *„O'zbegim"* (E. Vohidov), *„Vatan mo'tabardir"* (X. Davron), *„Bilib qo'yki, seni Vatan kutadi"* (T. Malik), 4-sinfda *„O'zbekiston – Vatanim manim"* bo'limidagi *„Serquyosh o'lka"* (Z. Diyor), *„Iqboli buyuksan"* (A. Oripov), *„Toshkentnoma"* (M. Shayxzoda), *„Xarita"* (N. Norqobil) kabi asarlar misolida atroflicha tahlilga tortiladi.

Ijtimoiy-tarixiy mazmundagi mavzular Vatanimiz o'tmishi, xalqimiz hayoti, mardonavor kurashi, ulug' siymolar tomonidan amalga oshirilgan ishlar, tarixiy sanalar to'g'risida muayyan tasavvur beradi. Beruniy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur va boshqa ajdodlarimiz haqidagi matnlar shular jumlasidandir. Bu xildagi asarlar o'quvchilarni faqat o'tmishimiz bilan tanishtirib qolmasdan, Vatan oldidagi farzandlik burchi va mas'uliyatini teran anglashga ham yordam beradi. Ularda Vatanga muhabbat tuyg'usi shu tariqa shakllanadi. Vatanimiz o'tmishi haqida hikoya qilingan asarlar bilan tanishish va ularni tahlil qilish jarayonida o'quvchilar o'tmish bilan bugungi kunni taqqoslash imkoniga ega bo'ladilar, jamiyat taraqqiyoti xususida qisqacha bo'lsa-da, tushuncha hosil qiladilar. Bu borada ayniqsa milliy istiqlol bilan bog'liq H. Imonberdiyevning *„O'zbekistonim"*, J. Jabborovning *„Istiqlol"* (2-sinf), A. Rustamovning *„Bayroq nima?"*, A. Obidjonning *„O'ktam avlod"* (3-sinf), S. Barnoyevning *„Mangulikka tatigulik kun"*, E. Malikovning *„Assalom, Neksiya!"* (4-sinf) mavzusidagi asarlari yaqindan yordam beradi.

Tabiatga oid mavzular yordamida o'quvchilar tabiatdagi o'zgarishlar, yil fasllarining almashinuvi, hayvonot olamiga doir bi-

www.ziyouz.com kutubxonasi

limlarni egallaydilar. Bunday mavzudagi asarlar o'quvchilarni kuzatuvchanlikka, tabiatni sevishga, unga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lishga o'rgatadi.

Tabiat tasviriga oid matnlar ustida ishlashda tabiat bag'riga sayohat uyushtirilib, bolalar kuzatuvchanlikka o'rgatilsa, vatanparvarlikka oid asarlar tahlili vatanning dongdor kishilari bilan uchrashuvlar yoki mavzuga daxldor kinofilmlar namoyishi vositasida amalga oshirilsa, dars samaradorligi yanada ortadi.

Umuman, „O'qish kitobi" darsliklaridagi barcha mavzular o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish bilan birga, ularning lug'atini boyitishga, og'zaki va yozma nutqini to'g'ri shakllantirish va nutq madaniyatini o'stirishga ham qaratiladi.

Amaldagi „O'qish kitobi" darsliklarida materiallarning sinfdan sinfga o'tgan sari mavzu jihatidan ham, mazmun jihatidan ham kengaya borishi hisobga olingan. Masalan, 1-sinfda o'rgatiladigan *„Ajdodlarimiz – faxrimiz", „Ilm – aql chirog'i", „Zumrad bahor", „Kumush qish"* kabi mavzular 2–4-sinflarda ham davom ettirilgan. Bu esa o'quvchilarning oldingi bilimlarini to'ldiradi va boyitadi.

Uzluksiz ta'limning boshqa bosqichlaridan farqli o'laroq, boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida o'quvchilarning o'qish malakalarini shakllantirish, asar matni ustida ishlash ta'limning **didaktik maqsadi** hisoblanadi. U turli mavzudagi matnlar ustida ishlash orqali ma'naviy-ahloqiy, adabiy-estetik tarbiya bilan chambarchas bog'lab olib boriladi.

Darsliklardagi har bir mavzu uchun tanlangan matnlarning janriy rang-barangligiga, poetik mukammalligiga, o'quvchilarning bilim darajasi va yosh xususiyatlariga mos kelishiga alohida e'tibor qaratiladi.

O'quvchilar darsliklar yordamida o'zlashtiriladigan bilim, ko'nikma va malakalarining kelajak hayotda zarur bo'lishini tushunib yetishishlariga erishish o'qituvchilar oldidagi muhim vazifalardandir.

Boshlang'ich ta'lim bo'yicha DTS va „Ona tili" o'quv dasturida o'qish ta'limi oldiga qo'yilgan talablarni amalga oshirish sinfda o'qishni to'g'ri tashkil qilish, o'qitish bosqichlari, tamoyillari va metodlari, birinchi navbatda, ilg'or pedagogik texnologiyalardan o'rinli foydalanishga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Umuman olganda, o'qish darslari oldiga qo'yiladigan **didaktik vazifalar** quyidagilardan iborat:

1. O'quvchilarda yaxshi o'qish sifatlari: to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qishlarini shakllantirish.

www.ziyouz.com kutubxonasi

2. O'quvchilarni kitobdan foydalanishga, undan kerakli bilimlarni olishga o'rgatish, kitobga muhabbat uyg'otish; ularni oddiy kitobxondan chuqur mulohaza yurituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarish.

3. O'quvchilarning atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirish va boyitish hamda ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish.

4. O'quvchilarni axloqiy, estetik jihatdan yetuk va mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash.

5. O'quvchilarning bog'lanishli nutqini va adabiy-estetik tafakkurini o'stirish.

6. O'quvchilarning xayolot olamini boyitish.

7. Elementar adabiy tasavvurlarini shakllantirish.

Shuni unutmaslik kerakki, har bir ta'limiy vazifani bajarishning aniq va ilmiy metodik usullari mavjud bo'lib, ular zamonaviy o'qitish usullari bilan boyitib borilmoqda. Bu vazifalar boshqalari bilan o'zaro bog'liq holda va sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari jarayonida hal qilinadi.

O'qish darslarida qo'llaniladigan metodlar

„Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"da ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarini yaratish kabilar umumiy o'rta ta'limning asosiy vazifalaridan biri sifatida ta'kidlangan.

Ilg'or pedagogik texnologiya usullaridan foydalanish o'qituvchi va o'quvchi faoliyati doirasini aniq belgilab beradi.

Inson hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan o'qish faoliyati barcha predmet darslarida amalga oshiriladi. Lekin o'qishga o'rgatish yo'l-yo'riqlarini o'qish metodikasi ishlab chiqadi. O'qish metodikasi kichik yoshdagi o'quvchilarning umumiy rivojlanishi, psixologiya, xususiy metodika sohasidagi yutuqlar asosida takomillashtirilib boriladi.

O'qish darslarining samaradorligi ko'p jihatdan ta'lim metodlarining to'g'ri tanlanishiga bog'liq. Binobarin, fanning o'zi kabi o'qitish metodlari ham doimiy rivojlanishda bo'ladi. Masalan, eski maktablarda o'qish quruq yod olish metodi asosida o'rgatilgan bo'lsa, hozir izohli o'qish asosida olib boriladi. Yod olish metodida matndagi so'zlarga izoh berishga, ma'nosini tushuntirishga, o'qilganni qayta hikoyalashga, umuman olganda, o'qishning ongli bo'lishiga mutlaqo e'tibor berilmagan. Ularda ko'proq to'g'ri talaffuz, qiroat bilan o'qish, ifodali o'qish nazarda tutilgan.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Hozir maktablarda o'qish izohli o'qish metodi asosida olib borilayotgan ekan, quyidagicha savol tug'iladi: *Izohli o'qish nima?*

Izohli o'qishga XIX asrning 60–70-yillarida rus pedagogi K. D. Ushinskiy asos solgan, u o'qishda o'quvchilarni „ongli, tushunib, o'ylab o'qishga" o'rgatishni alohida ta'kidlaydi va uni „Izohli o'qish" deb nomlaydi.

Izohli o'qish metodiga K. D. Ushinskiy ishining davomchilari yangiliklar kiritdilar. Korf va Vaxterev izohli o'qish o'quvchilarga real bilim berish vositasi desa, Vodovozov va Bunakov o'quvchilarga o'qish jarayonida bilim badiiy asar tahlili va asarning tarbiyaviy xarakteri bilan bog'liq holda beriladi, degan fikrni ilgari suradilar.

Professor Asqar Zunnunov o'qitishning mazmuni va usullari haqida fikr yuritib, o'quvchilarning oldin bilimlarni o'zlashtirishiga, so'ng yod olishlariga e'tibor berilishi ta'lim jarayonida izohli o'qish deb nomlanganini ta'kidlaydi.

Demak, *izohli o'qish* deb o'ylashga, his qilishga, asarni to'liq idrok qilishga, o'qilganning mazmunini o'zlashtirishga olib keladigan o'qishga aytiladi. Izohli o'qish asar mazmunini tushunishni, asardagi muhim fikrni, yozuvchi ilgari surayotgan g'oyani anglashni ta'minlaydi.

Izohli o'qish quyidagi tamoyillarga to'liq amal qilingandagina muvaffaqiyatli bo'ladi:

1. O'qishni hayot bilan bog'liq holda tashkil etish.

2. O'qishning ongli va ta'sirchan bo'lishi uchun o'quvchilarning hayotiy tajribalariga, taassurotlariga asoslanish.

3. O'qishni ko'rgazmali tashkil qilish, tabiatga, tarixiy joylarga ekskursiyalar uyushtirish, hayvonot olami va o'simliklar dunyosini kuzatish, rasmlar, jadvallar, predmetlar bilan tanishtirish hamda matnni o'quvchining ifodali o'qishi tarzida olib borish.

Boshlang'ich sinf o'qish darslarida asosan she'rlar, masallar, ertaklar, hikoyalar, afsonalar, maqol va topishmoqlar, ilmiy-ommabop asarlar o'qib o'rganiladi. Tabiiyki, ularning har biri o'ziga xos shakl, uslub va mazmunda yaratiladi. Shuning uchun ham har bir janrga mansub asarlarni o'ziga xos usulda o'qib o'rganish taqozo qilinadi.

Badiiy asarni izohli o'qishga yaqin bo'lgan metodlardan biri *ijodiy o'qish*dir. Atoqli metodist olim N. I. Kudryashov ijodiy o'qish metodi tarkibiga quyidagi ish usullarini kiritadi:

a) o'qituvchilarning badiiy matnni sharhlab o'qishi hamda o'quvchilarning asarni to'g'ri va imkon qadar yanada chuqurroq, emotsional idrok etishlarini ta'minlash maqsadini ko'zda tutuvchi so'zi;

www.ziyouz.com kutubxonasi

b) o'qilgan asardan o'quvchilarning bevosita olgan taassurotlarini chuqurlashtirish maqsadiga ega bo'lgan va ularning diqqatini matnning muhim g'oyaviy va badiiy hususiyatlari sari yo'naltiradigan suhbat uyushtirish yoki o'qilgan asardan kelib chiqadigan badiiy, axloqiy, ijtimoiy-siyosiy muammoning qo'yilishi;

d) o'qituvchining asar o'qilganidan keyin o'quvchilarning asarni tadqiq etish jarayonida tug'ilgan badiiy kechinmalarini faollashtirish maqsadini ko'zda tutuvchi so'zi[8].

Ko'rinadiki, ijodiy o'qish izohli o'qishdan farqli o'laroq, to'g'ridan-to'g'ri matn mohiyatini ochishga ijodiy yondashishni taqozo etadi. Masalan, 4-sinfda A. Oripovning „Dehqonbobo va o'n uch bolakay qissasi" asarini ijodiy o'qish metodi asosida o'rganish jarayonida matn mazmuni va shoir g'oyaviy niyatidan kelib chiqib Vatanimiz hududlaridagi aholining yashash tarzi bilan bog'liq milliy xususiyatlar haqida ham atroflicha tushuncha beriladi. 2-sinfda „O'tinchi yigit", 3-sinfda O'tkir Hoshimovning „Xazonchinak", 4-sinfda S. Anorboyevning „Qo'rqoq" asarlarini ham ijodiy o'qish metodi asosida o'qitish ijobiy samaralar beradi.

Ifodali o'qish. Boshlang'ich ta'lim tizimida **mantiqiy o'qish** (matnni to'g'ri, tushunib, tez (me'yorida) o'qish) va **adabiy o'qish** mukammal o'zlashtirilganidan so'ng ifodali o'qishga o'tiladi. U yod olingan she'riy asarlarni ifodali o'qishni ham o'z ichiga oladi. Ifodali o'qishning muvaffaqiyati o'quvchilarning asar mazmuni, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari haqida muayyan tushunchaga ega bo'lishi bilan bog'liq.

Ohang va intonatsiya she'riy asarlarni ifodali o'qishda qay darajada muhim bo'lsa, nasriy asarlarni o'qishda ham muhim talablardan biridir.

Nasriy asarlarni ifodali o'qishdan oldin unda qanday g'oya ilgari surilayotganini aniqlash zarur. Masalan, 4-sinfda X. To'xtaboyevning „Xatosini tushungan bola" hikoyasini ifodali o'qishdan oldin o'quvchilarga xatosini tushungan bola kim ekanligi, uning xatosi nimalardan iborat bo'lganligi, maqtanchoqlikning illat ekanligi to'g'risida tushuncha beriladi.

Ifodali o'qish oldiga qo'yilgan bu talab M. Abdurashidxonovning „Har kim ekkanin o'rar", Sh. Sa'dullaning „Laqma it", A. Oripovning „Dehqonbobo va o'n uch bolakay qissasi" kabi she'riy hikoyalarini o'qishga ham xosdir.

[8] Кудр шов Н.И. Взаимосв зь методов обучени на уроках литературы. – Москва: „Просвещение", 1981.– стр. 60.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Badiiy o'qish. Badiiy o'qish ifodali o'qishning yuksak bosqichi hisoblanadi. Unda so'z san'atining barcha komponentlari ishtirok etadi. U o'quvchidan asar ruhiga batamom kirishni, san'atkorona o'qishni talab etadi. Badiiy o'qishda asar qahramonlarining ruhiy holati, kechinmalari to'la anglab etilgandagina ta'sirchanlikka erishish mumkin. Badiiy o'qishga tayyorgarlik ko'rishda aktyorlarning audio-video tasmalarga yozilgan ijrolaridan foydalanish yaxshi samara beradi.

Badiiy o'qishning muvaffaqiyatini ta'minlaydigan omillardan biri **tanlab o'qish**dir. Masalan, 3-sinfda X.To'xtaboyevning „Hassa" hikoyasi bilan tanishish jarayonida Qobil boboning savollariga Shavkatning javoblari yoki S.Anorboyevning „Bahs" hikoyasidagi bolalarning bahslashish epizodi yuzasidan o'qituvchi topshirig'iga ko'ra mazkur o'rinlarni tanlab qayta o'qilishi natijasida ushbu asarlarning badiiy-estetik qimmatini chuqurroq o'zlashtirishga erishiladi.

Izlanish metodi. Bu metod asardagi voqea va tafsilotlar asosida o'quvchilarga savol-topshiriqlar tuzishda, qahramonlarga baho berishda keng qo'llaniladigan usuldir.

O'qish darslarida **reproduktiv metod** keng qo'llaniladi. Masalan, o'qituvchi dastlabki darslarda o'zi asar matnini qismlarga bo'ladi, yozuvchi yoki shoirning aytmoqchi bo'lgan muhim fikriga o'quvchilar diqqatini jalb qiladi, uni aniqlab ko'rsatadi, o'quvchilar bilan birga tasvir vositalariga yuklatilgan ma'noni ochib, o'quvchilarga ko'maklashadi. Bularning bari o'quvchilar uchun bir ko'rsatma vazifasini o'taydi. Shundan so'ng o'quvchilar o'qituvchining ko'rsatmalari yordamida yuqorida ko'rsatib o'tilgan vazifalarni o'zlari mustaqil ravishda bajaradilar.

Yuqorida ta'kidlangan metodlardan tashqari, boshlang'ich sinf o'qish darslarida zamonaviy pedagogik texnologiya usullaridan „Aqliy hujum", „Tarmoqlash", „Guruhlar bilan ishlash", „Blis texnologiyasi" kabilardan ham foydalanish yaxshi samara beradi.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, har bir darsda qanday metoddan foydalanish, darsda qanday usullarni qo'llash o'qituvchi tomonidan oldindan belgilab olinishi va puxta ishlab chiqilishi kerak.

O'qish malakalari va ularni takomillashtirish usullari

Dastur talablarini to'liq bajarish va amalga oshirish uchun, birinchi navbatda, o'qish ko'nikmalarini to'g'ri va puxta egallash va takomillashtirib borish zarur. O'qish ko'nikmalari savod o'rgatish jarayonida shakllanadi, o'qitishning keyingi bosqichlarida takomillashadi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

O'qish malakalari deganda badiiy asar matnini to'g'ri, tez, ongli va ifodali o'qish tushuniladi. O'qish darslarida o'quvchilarning o'qish malakalari shakllantiriladi va takomillashtiriladi.

O'qish malakasining sifatlari o'zaro bog'liq bo'lib, ularning asosi **ongli o'qish** hisoblanadi. O'quvchi matnni tez va to'g'ri o'qisa-yu, anglab o'qimasa yoki uning tez o'qishi natijasida boshqalar matn mazmunini tushunmasa, to'g'ri o'qisa-yu, o'ta sekin o'qisa, nutq birliklari orasida to'xtamlarga e'tibor bermasa, matnda ifoda etilayotgan fikr tushunilmaydi. Muayyan tezlikda va to'g'ri o'qish ongli o'qishga xizmat qiladi, to'g'ri, tez va ongli o'qish esa ifodali o'qishning asosi hisoblanadi.

O'qish malakalarini egallash maktabda o'qitiladigan barcha predmetlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishning muhim sharti hisoblanadi. O'qish faoliyatning asosiy turi bo'lib, o'quvchilarni g'oyaviy-siyosiy, aqliy, estetik va nutqiy tomondan rivojlantirish uchun juda katta imkoniyat yaratadi. Bu jarayon esa o'qish malakalarini o'stirish va takomillashtirish ustida tizimli va maqsadga muvofiq ishlashni talab qiladi.

O'qish malakasini egallash ancha murakkab bo'lib, uni shakllantirish uzoq vaqtni talab etadi. Ruhshunos olim T. G. Yegorov o'zining „Очерки психологии обучени детей чтению" nomli asarida o'qish malakalarini shakllantirish jarayonini uch bosqichga ajratadi: *analitik bosqich, sintetik bosqich va avtomatlashgan bosqich.* **Analitik bosqich** savod o'rgatish davriga to'g'ri keladi, bunda so'zni bo'g'in-harf tomonidan tahlil qilish va bo'g'inlab o'qish malakasi shakllantiriladi. **Sintetik bosqich** uchun so'zni sidirg'a o'qish xarakterlidir; bunda so'zni ko'rish orqali idrok qilish va uning talaffuzi so'z ma'nosini anglash bilan asosan mos keladi. O'qish so'z ma'nosini idrok qilish bilan amalga oshadi. O'quvchilar sintetik bosqichga 3-sinfda o'tadilar. Bundan keyingi yillarda o'qish **avtomatlasha** boradi.

O'qish darslarida asar ustida ishlashni shunday tashkil etish kerakki, asar mazmunini tahlil qilish o'qish malakalarini takomillashtirishga yo'naltirilgan bo'lsin.

To'g'ri o'qish. To'g'ri o'qish deganda xato qilmasdan, yanglishmasdan o'qish tushuniladi, ya'ni to'g'ri o'qish so'zning tovush-harf tarkibini, grammatik shakllarini buzmasdan, so'zdagi tovush yoki bo'g'inni tushirib qoldirmay, boshqa tovushni qo'shmay, harflar o'rnini almashtirmay, aniq talaffuz qilib, so'zga urg'uni to'g'ri qo'yib o'qish hisoblanadi. M. Odilova va T. Ashrapovalar „Adabiy talaffuz

www.ziyouz.com kutubxonasi

me'yorlariga qo'yilgan barcha talablar to'g'ri o'qish ko'nikmasiga ham taalluqlidir", – deb ta'kidlaydilar. Rus metodisti Yakovleva to'g'ri o'qishga quyidagicha ta'rif bergan: „To'g'ri o'qish – bu materialning tovush tomonidan xatosiz va bir tekisda ravon nusxa ko'chirishdir". Demak, to'g'ri o'qish so'zning tovush tarkibini, grammatik shaklini buzmasdan adabiy-orfoepik me'yorlar asosida o'qishdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida idrok etish, talaffuz qilish va matn mazmunini tushunish o'rtasida puxta sintez yo'q bo'lgani uchun ular o'qishda xatoga yo'l qo'yadilar. Bu esa matn mazmunini tushunishni qiyinlashtiradi.

To'g'ri o'qish so'zning uzun-qisqaligiga, o'quvchining so'z boyligiga, ya'ni so'zning leksik ma'nosini qanchalik bilishiga hamda so'zning bo'g'in va morfemik tarkibiga bog'liq. O'quvchilar ko'pincha quyidagi sabablarga ko'ra xatoga yo'l qo'yadilar:

1. So'zni talaffuz qilish bilan uning ma'nosini tushunish o'rtasida puxta sintez bo'lmagani uchun bola so'zning oldin tovush tomonini ko'radi, uni talaffuz qilishga oshiqadi. So'zning ma'nosini esa e'tibordan chetda qoldiradi.

2. So'z ko'p bo'g'inli bo'lib, bola uni oldin eshitmagan bo'lsa, xatoga yo'l qo'yadi.

3. So'zning ma'nosini bilmaslik tufayli xatoga yo'l qo'yadi.

4. Tez o'qiyman deb xatoga yo'l qo'yadi.

5. To'g'ri o'qish yorug'likka va yorug'likning tushishiga ham bog'liq.

6. Undosh tovush so'zning o'rtasida va oxirida kelgan yopiq bo'g'inli so'zlarni o'qishda qiynaladilar.

Xato o'qishning oldini olish uchun quyidagilar e'tiborga olinadi:

1. Matnni o'qitishdan oldin undagi o'qilishi qiyin so'z, birikma va gaplarni aniqlash va ular ustida ishlash usullarini belgilab olish. Tuzilishi murakkab so'zlarni bo'g'inlab o'qilishini mashq qildirish.

2. Matnni o'qishdan oldin uning mazmunini tushunishni qiyinlashtiradigan so'zlarning lug'aviy ma'nosini tushuntirish. So'z ma'nosini izohlash usullarini aniqlash.

3. Vazifalarni aniq va tushunarli qilib berish.

4. Matnni diqqat-e'tibor bilan o'qishlari uchun sharoit yaratish.

5. Oldin ichda o'qitish, so'ng ovoz chiqarib o'qitish.

6. O'qitishda o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish, ya'ni matnni oson, o'rtacha qiyinlikda va qiyin o'qiladigan

www.ziyouz.com kutubxonasi

o'rinlarini belgilab olib, unga kuchi yetadigan o'quvchilarga oldindan taqsimlab berish.

7. O'quvchilarning o'qishini muntazam tekshirib turish.

8. Xatoning xarakteriga qarab, uni metodik tomondan to'g'ri tuzatish yo'lini aniqlash.

9. O'quvchilarni xato qilish mumkin bo'lgan o'rindan ogohlantirib turish.

10. Xatcho'pdan foydalanish.

11. Xato o'qish o'quvchining shaxsiy ko'ruv sezgisiga bog'liq bo'lsa, bu jihatni ham hisobga olish.

O'qituvchining tuzilishi murakkab so'zlarni oldindan xattaxtaga yoki kartonga bo'g'inlarga bo'lib yozib qo'yib, o'quvchilarga ovoz chiqarib birgalikda o'qitishi yaxshi natija beradi.

O'quvchilar yo'l qo'ygan xato ikki xil yo'l bilan tuzatiladi:

1. O'quvchi so'z oxiridagi qo'shimchani noto'g'ri o'qisa, uni o'qishdan to'xtatmasdan xatoni to'g'rilash mumkin.

2. Xato o'qish bilan gaplarning mazmuni buzilsa, qayta o'qitish usulidan foydalaniladi. Bunda o'quvchiga o'qigan matni yuzasidan savol berilsa, o'quvchi e'tiborli bo'lib qayta o'qiydi.

Tez o'qish. Tez o'qish me'yoriy tezlikda o'qish bo'lib, bunda o'qish sur'ati matnning mazmunini tushunishdan ajralib qolmasligi kerak. O'qish tezligi matnni tushunish tezligi bilan muvofiq ravishda o'sib borishi lozim. O'qilayotgan asar mazmunini o'zlashtirishni, matn mazmunini ongli idrok etishni ta'minlaydigan o'qish **tez o'qish** deyiladi.

O'qish sifatlarini yaxshi o'zlashtirgan holda o'quvchilarning o'qish sur'ati bir-biridan farq qiladi. Bu dastur talablarini bajarmadi, degan gap emas. Og'zaki nutq tempiga to'g'ri keladigan o'qish sur'ati normal tezlik hisoblanadi. Chunki o'ta tez ham, o'ta sekin o'qish ham matn mazmunini o'zlashtirishni qiyinlashtiradi.

O'qish tezligi bir daqiqada o'qiladigan so'zlar soni bilan belgilanadi. 2005-yilda e'lon qilingan o'qish dasturida 1-sinfning 2-yarim yilligida o'qish sur'ati 20–25 so'z (notanish matnni o'qish tezligi ham 20–25 so'z); o'quv yili oxirida 25–30 so'z; 2-sinfning 1-yarim yilligida matnni o'qish tezligi 30–35 so'z; 2-yarim yilligida 40–50 so'z; 3-sinfning 1-yarim yilligida 60–70 so'z; 2-yarim yilligida 70–80 so'z; 4-sinfning 1-yarim yilligida ichda ovozsiz 110–130 so'z, ovozli o'qishda 90–100 so'z deb belgilangan.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, bir daqiqada bola 250 so'zli matnni o'qisa, undagi 200 ta so'zni eslab qolar ekan. Agar harflab, bo'g'inlab

www.ziyouz.com kutubxonasi

o'qisa, uning diqqat markazida so'z emas, bo'g'in bo'ladi. Natijada u so'zlarni eslab qola olmaydi[9]. Bu 4-sinf o'quvchilarining o'qish tezligiga tatbiq etilsa, 125 so'zdan 100 so'zni eslab qoladi. Bu esa yuqori ko'rsatkichlarga erishish imkonini beradi. 4-sinfda bir daqiqada 170–180 ta so'z o'qiydigan o'quvchilar ham bor.

O'qish tezligi to'rt yil davomida to'g'ri va ongli o'qish bilan bog'liq holda asta ortib boradi. O'qish tezligini tekshirganda o'qituvchi o'qiladigan materialning xarakterini, ya'ni g'oyaviy-mavzuviy murakkabligini, so'z va gaplarning tuzilishini, ularning bolalar nutqida qay darajada ishlatilishini, o'qishning to'g'ri va ongli bo'lishini hisobga oladi. O'quvchilarning o'qish tezligi har xil bo'ladi, albatta. O'qituvchining vazifasi barcha o'quvchilarning o'qish tezligini, iloji boricha bir xillikka keltirishdan iborat. O'qish sur'atini oshirishda tez aytishlarni, maqollarni yod oldirish va matnni ovoz chiqarib o'qishni mashq qilish kabilar samarali usullardan hisoblanadi.

Ongli o'qish. Ongli o'qish yaxshi o'qishning asosiy sifati hisoblanadi. Ongli o'qish o'qilgan matnning aniq mazmunini, asarning g'oyaviy yo'nalishini, obrazlarini va badiiy vositalarining rolini tushunib o'qish, shuningdek, asarda tasvirlangan voqea-hodisalarga o'z munosabatini ifodalay olishdir. Ongli o'qish o'z navbatida, o'quvchilarning zarur hayotiy tajribasiga, so'zning leksik ma'nosini, gapda so'zlarning bog'lanishini tushunishga va bir qator metodik shartlarga bog'liq. Hozirda ongli o'qish atamasi adabiyotlarda va maktab tajribasida ikki ma'noda: birinchidan, o'qish jarayonini egallashga nisbatan o'qish texnikasi ma'nosida, ikkinchidan, keng ma'nodagi o'qishga nisbatan o'qish sifatlaridan biri ma'nosida qo'llanadi.

Matnni ongli o'qish uchun o'quvchilar to'g'ri, me'yorida o'qishni egallagan bo'lishlari va o'qish jarayonida qiynalmasligi talab etiladi. O'quvchilar matnni ongli o'qishlari uchun matn mazmuni va badiiy vositalari jihatidan tahlil qilinadi.

Ongli o'qishning muhim sharti asar qurilishi va mazmunini tushunish hisoblanadi. O'qituvchi ongli o'qishni matnni ifodali o'qishga (agar ovoz chiqarib o'qilsa) va asar mazmuni yuzasidan berilgan savollarga javobning to'g'riligiga, asar voqealari va qahramonlarning xatti-harakatiga bildirgan munosabatiga qarab baholaydi. Ongli o'qish va ifodali o'qish bir-birini taqozo qiladi, ammo bir-biriga aynan o'xshamaydigan o'qish sifatlaridir.

[9] Yo'ldoshev J.G'. 1992-yil „O'qituvchilar uyi"dagi ijodkor o'qituvchilarning 1-anjumanidagi nutqdan.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Ifodali o'qish. Ifodali o'qish intonatsiya – ohang yordamida asarning g'oyasi va jozibasini to'g'ri, aniq, yozuvchi niyatiga mos ravishda ifodalay bilishdir. „Ifodali o'qish adabiyotni aniq va ko'rgazmali o'qitishning dastlabki va asosiy shaklidir", deb ta'kidlaydi metodist olima M.A.Ribnikova[10]. Demak, „Ifodali o'qishning asosiy vazifasi asarning mazmunini va emotsionalligini intonatsiya orqali o'quvchilarga ko'rgazmali qilib ko'rsatishdir. Ifodali o'qishning asosiy tamoyili o'qiladigan asar g'oyasi va badiiy qimmatini chuqur tushuntirishdir"[11].

Intonatsiya (ohang). Intonatsiya og'zaki nutqning birgalikda harakat qiluvchi elementlari: urg'u, nutq tempi va ritmi, pauza, ovozning past-balandligining yig'indisidir. Bu elementlar bir-biriga ta'sir etadi va hammasi birgalikda asarning mazmunini, g'oyasini, qahramonlarning turli kayfiyatini, ichki kechinmalarini ifodalaydi.

O'quvchilar ifodali nutq asoslarini egallashlari uchun muhim shartlar quyidagilardan iborat:

1. Nutq jarayonida nafasni to'g'ri olish va to'g'ri taqsimlay bilish.
2. Har bir tovushning to'g'ri artikulatsiyasi va aniq diksiya (burro gapirish) malakasini egallash.
3. Adabiy talaffuz me'yorlarini egallash[12].

Bu shartlar faqat ifodali o'qishgagina emas, balki ifodali nutqqa, ya'ni hikoya qilishga ham taalluqlidir. O'quvchining har qanday og'zaki hikoyasi ifodali bo'lishi zarur.

Ifodali o'qishning asosiy vositalaridan biri **ovoz**dir. Ovoz nafas bilan uzviy bog'lanadi. Shuning uchun o'qituvchi bolalarning ifodali nutqi ustida ishlashni talaffuz qilayotganda o'z nafasini boshqara olish va ovozdan to'g'ri foydalanishga o'rgatishdan boshlaydi. Ovoz kuchi baland-pastlik, uzun-qisqalik, tezlik (temp), yoqimli-yoqimsizlik xususiyatlari bilan xarakterlanadi. O'quvchilar matn mazmuniga qarab, baland yoki past ovozda o'qish (gapirish)ga, nutqda tez, o'rtacha yoki sekin tempni tanlashga, biror tuyg'uni ifodalashga o'rganadilar. Ifodali o'qishga o'rgatishda o'quvchilar pauza va logik urg'u bilan ham tanishtiriladi.

---

[10] Рыбникова М.А. Очерки по методике литературного чтени . – „Учпедгиз", 1945. – стр.125.

[11] Jo'rayev K. Ifodali o'qish va hikoya qilish. –T.: „O'qituvchi", 1968. 7–9-betlar.

[12] O'sha asar, 11-bet.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Ifodali o'qishga tayyorlanish shartli ravishda uch bosqichga bo'linadi:

1. Asarning aniq mazmunini tushunish, unda qatnashgan shaxslarning xatti-harakatini tahlil qilish, asarning g'oyasini belgilash, ya'ni asarning g'oyaviy-mavzuviy asosini, uning obrazlarini badiiy vositalari bilan yaxlit holda tushunish.

2. Matnning qaysi joyida to'xtam (pauza) qilishni, mantiqiy urg'uning o'rnini, o'qish tempini belgilab olish.

3. O'qishni mashq qilish, muallif fikrini, uning tasvirlangan voqea-hodisalarga va qatnashuvchi shaxslarga munosabatini ovoz bilan ifodalay olish uchun matnni qayta o'qish.

Asarning mazmuni va g'oyaviy yo'nalishini tahlil qilish ifodali o'qishga o'rgatish bilan bog'lab olib boriladi. Ifodali o'qishga o'rgatishda matn mazmunini tushunish, muallif hikoya qilgan voqealarga o'z munosabatini bildirish asosiy vazifa hisoblanadi. O'quvchilarda ifodali o'qish malakasini shakllantirish uchun asarni o'qituvchining ifodali o'qishi muhim ahamiyatga ega.

O'qish turlari

Boshlang'ich ta'limda o'qishning uch turidan foydalaniladi:

1. Ovozli o'qish.
2. Ichda o'qish.
3. Shivirlab o'qish.

Ovozli o'qish ovozga asoslangan o'qish bo'lib, undan ta'lim jarayonida keng foydalaniladi.

Ovozli o'qishning yakka, jo'r va rollarga bo'lib o'qish usullari mavjud. Yod aytish ham ovozli o'qishning bir shaklidir.

Ichda o'qish ham tovushga asoslangan, lekin unda ovozsiz o'qiladi.

Shivirlab o'qish yarim ovoz bilan o'qishdir. Malakali kitobxon o'qishning har uch turini bilishi zarur.

Ovozli o'qishning ham, ovozsiz ichda o'qishning ham, shivirlab o'qishning ham o'z qo'llanish o'rni va afzalliklari hamda kamchiliklari bor. Masalan, 2-sinf o'quvchilari ichda o'qiganda kam so'z o'qiydi, so'zning ma'nolarini tushunmay qoladi, o'qiganlarining mazmunini to'liq o'zlashtira olmaydilar.

Psixologik izlanishlar shuni ko'rsatadiki, o'qishni endi o'rganayotgan o'quvchilar o'qilayotgan matnni tushunib borishlari uchun eshitish

www.ziyouz.com kutubxonasi

sezgisiga ham e'tibor qaratganlar. Ikkinchidan, 2-sinf o'quvchilarida o'qish ko'nikmalari yaxshi shakllanmagani uchun ichda o'qish jarayonida ayrim so'zlarni noto'g'ri o'qish natijasida uning ma'nosini tushunmaganlar. Shularni nazarda tutgan holda, 1–2-sinflarda ovozli va shivirlab o'qishdan foydalaniladi.

3–4-sinflarda ovozli o'qish bilan birga ichda o'qishdan ham foydalaniladi. Bu sinflarda ichda o'qish ancha samarali bo'ladi, lekin bunda ichda o'qish mexanik o'qishga aylanmasligi kerak. Ichda o'qish biror maqsadga yo'naltirilishi, ya'ni quyidagicha turli topshiriqlar asosida ichda o'qitilishi lozim:

– She'rni ichingizda o'qib, ifodali o'qishga tayyorlaning.

– Ichda o'qing, ma'nosi tushunarsiz so'zlarni aniqlab, lug'at daftaringizga yozing. Lug'atdan foydalanib, ularning ma'nosini izohlashga harakat qiling.

– Hikoyani ichingizda o'qib, uni qismlarga bo'ling.

– Ichingizda o'qib, ovoz chiqarib to'g'ri o'qishga tayyorlaning.

– Ichingizda o'qing. Tabiatning ko'rinishi tasvirlangan o'rinni toping.

Bu kabi topshiriqlar sinfdan sinfga o'tgan sari murakkablashib boradi. Bunda o'quvchilarning asarni qanchalik idrok etganliklari tekshirilib borilishi zarur.

Ichda o'qish quyidagi afzalliklarga ega:

1. Bir vaqtning o'zida butun sinf o'quvchilari o'qiydi.

2. O'quvchilarda asar matni ustida mustaqil ishlash ko'nikmalari takomillashadi.

3. O'qituvchi har bir o'quvchining mustaqil ishlash jarayonida o'zlashtirish darajasini aniqlaydi.

4. Ichda o'qishda ongli o'qishga talab va e'tibor kuchayadi.

Ichda o'qishda o'qituvchi o'quvchilar o'qishidagi kamchiliklarni aniqlay olmaydi. Bu undan foydalanishni cheklab qo'yadi.

Ovozli o'qishning afzalliklari quyidagilar:

1. O'qituvchi o'quvchilarning xato va kamchiliklarini, o'qish ko'nikmalarini aniqlay oladi.

2. Kichik yoshdagi o'quvchilar ovoz chiqarib o'qisalar, matn mazmunini tez tushunib oladilar.

3. Ovozli o'qishdan kitobxon estetik zavq oladi.

4. Ovozli o'qishda ifodalilikka katta e'tibor beriladi.

5. Ovozli o'qish o'quvchilar lug'atini boyitish va nutqini o'stirishda katta ahamiyatga ega.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Shivirlab (yarim ovozli) o'qish darsning tashkiliy qismlarida, o'qituvchi sinf jurnali bilan mashg'ul paytda yoki o'quvchilarni darsga tayyorlash bosqichlarida o'tkaziladi.

Maktabda o'qishning bu uch turi almashtirib turiladi. 1—2-sinflarda ovozli va shivirlab (pichirlab) o'qishdan ichda o'qishga o'tilsa, 3—4-sinflarda ichda o'qishdan ovozli o'qishga o'tiladi. 3—4-sinflarda o'qish turlaridan foydalanishda chegara qo'yilmaydi.

Boshlang'ich sinflarda o'qishning hamma turiga bir xil talab qo'yiladi, ya'ni o'qish to'g'ri bo'lishi, tez, ongli va ifodali bo'lishi zarur.

Kichik yoshdagi o'quvchilarning badiiy asarni idrok etishdagi psixologik xususiyatlari

Boshlang'ich sinflarda badiiy asarni tahlil qilish metodikasida kichik yoshdagi o'quvchilarning badiiy asarni idrok qilishidagi psixologik xususiyatlar hisobga olinadi. Ruhshunos olimlarning tekshirishlaridan ma'lum bo'lishicha, asarni idrok qilishga, bilim olishga xizmat qiladigan komponentlar bilan birga, uni emotsional-estetik his etish ham kiradi. Badiiy asarni yaxshi idrok etish uchun uni tushunishning o'zigina yetarli emas. Asarni idrok etish murakkab jarayon bo'lib, asarga unda tasvirlangan voqelikka qandaydir munosabatning yuzaga kelishini o'z ichiga oladi. Psixologik tekshirishlar natijasida kichik yoshdagi o'quvchilarning adabiy qahramonlarni idrok etishi va baholashidagi psixologik xusisiyatlari o'rganilgan va ular adabiy qahramonga ikki xil munosabatda bo'lishlari aniqlangan:

1. Adabiy qahramonga emotsional munosabat.
2. Elementar tahlil qilish.

Asarda qatnashuvchi shaxslarga baho berishda o'quvchilar o'z shaxsiy va axloqiy tushunchalaridan foydalanadilar. Bunday axloqiy tushunchalar kichik yoshdagi o'quvchilarda chegaralangan bo'ladi, albatta. Ular axloqiy sifatlardan botirlik, to'g'rilik, mehnatsevarlik, yaxshilik tushunchalarini ko'p ishlatadilar. Qahramonlarning boshqa sifatlarini tasvirlash uchun ularning so'z boyliklari yetishmaydi. O'qituvchining vazifasi o'quvchilar bilan asarni tahlil qilib, ular nutqiga personajlarning axloqiy, intellektual, emotsional sifatlarini tasvirlovchi so'zlarni kirita borishdan iborat. Bu adabiy qahramonlarning xarakterini yaxshi yoritish shartlaridan biri hisoblanadi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Asardagi qahramonlarning xarakteri ularning axloqiy sifatlarini anglash asosida tushuniladi. Bunda qahramonning nima qilishi emas, nima uchun shunday qilishi kerakligini bilish muhimdir. Ushbu jarayonda asar qahramonlarining axloqiy sifatlari ustida ko'proq ishlash lozim.

4-sinfda ***„Qodir bilan Sobir"*** hikoyasidagi Qodir va uning xislatlarini ochishda tanlab o'qish asosida tarmoqlash usulidan foydalanilishi mumkin. O'qituvchi o'quvchilarga bergan savollariga javobni xattaxtada tarmoqlash usulida yoritib boradi. Masalan, „Qodir qanday bola?", „Qodirning maqtanchoqligi tasvirlangan o'rinni topib o'qing", „Qodirning qo'rqoqligi ifodalangan o'rinni topib o'qing", „Qodirning yolg'on gapini Sobir qanday to'g'riladi? Shu o'rinni topib o'qing", „Qodirning zo'ravonligi ifodalangan o'rinni topib o'qing. O'qigan qismlaringiz asosida Qodirning xususiyatlarini isbotlab bering" kabi savollar asosida quyidagicha jadval hosil bo'ladi:



O'qish darslarida o'qilayotgan asarning ongli o'zlashtirilishini ta'minlashda o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini albatta hisobga olish zarur.

www.ziyouz.com kutubxonasi

BOSHLANG'ICH SINFLARDA BADIIY ASARNI TAHLIL QILISHNING METODIK SHARTLARI

Zamonaviy maktab oldiga qo'yilgan vazifalar, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar umumiy rivojlanishining o'sganligi, psixologiya va xususiy metodika sohasidagi yutuqlar sinfda o'qish mazmuni va o'qitish metodlariga o'zgartirish kiritishni talab etmoqda. Shularga bog'liq holda badiiy asarni tahlil qilish metodikasi takomillashtira borildi: takroriy bayon qilish mashqlari kamaytirildi, ijodiy va o'qilgan matn yuzasidan o'z fikrini bayon qilish ko'nikmasini o'stiradigan mashqlar ko'paytirildi, asar qismlari ustida emas, balki yaxlit asar ustida ishlanadigan bo'ldi, asar g'oyasi va obrazlarini tushuntirishda o'quvchilarning mustaqilligi ortdi, matn ustida ishlashda xilma-xil topshiriq turlaridan, ta'limda texnika vositalaridan va ilg'or pedagogik texnologiya usullaridan ko'proq foydalanila boshlandi va hokazo.

XX asrning 60-yillarida yaratilgan maktab dasturida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda shakllantiriladigan matn ustida ishlash ko'nikmalari belgilab berildi, shuningdek, 1–4-sinflarda o'qish malakasiga qo'yilgan talablar ancha aniq ajratildi. XX asrning 70-yillari boshlarida mazmuni va metodik apparati jihatidan hayotga yaqinlashtirilgan o'qish kitoblari yaratildi.

Mustaqillik tufayli ta'lim sohasida ham katta islohotlar amalga oshirildi. 1999-yil boshlang'ich ta'limning ham „Davlat ta'lim standarti" yaratildi, o'quv dasturlari yangilandi. 2005-yil tajriba-sinov natijalari hisobga olinib, davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari qayta ko'rib chiqildi, „O'qish kitobi" darsliklari ham yangilandi.

O'zbek maktablarida taniqli rus metodist-olimlari T. G. Ramzayeva, M. S. Vasileva, V. G. Goreskiy, K. T. Golenkina, L. A. Gorbushina, M. I. Omorokova, E. A. Nikitina, N. S. Rojdestvenskiy, o'zbek olimlaridan A. Zunnunov, K. Qosimova, Q. Abdullayeva, S. Matchonov, M. Yusupov, M. Umarova, X. G'ulomova kabilar ishlab chiqqan takomillashgan sinfda o'qish metodikasidan ijodiy foydalanilmoqda.

Boshlang'ich sinflarda badiiy asar quyidagi muhim metodik qoidalar asosida tahlil qilinadi:

1. Asar mazmunini tahlil qilish va to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish malakalarini shakllantirish bir jarayonda boradi (asarning mazmunini tushuntirishga oid topshiriq o'qish malakalarini takomillashtirish topshirig'i ham hisoblanadi).

www.ziyouz.com kutubxonasi

2. Asarning g'oyaviy asoslari va mavzusini, uning obrazlari, sujet chizig'i, kompozitsiyasi va tasviriy vositalarini tushuntirish o'quvchilarning shaxs sifatida umumiy kamol topishiga yaxshi xizmat qiladi, shuningdek, bog'lanishli nutqining o'sishi (lug'atining boyishi va faollashishi)ni ta'minlaydi.

3. O'quvchilarning hayotiy tajribasiga tayanish asar mazmunini ongli idrok etishning asosi va uni tahlil qilishning zaruriy sharti hisoblanadi.

4. Sinfda o'qishga o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirish va ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirishning samarali vositasi sifatida qaraladi.

Asarni tahlil qilishda hisobga olish zarur bo'lgan muhim omillardan biri uning o'quvchilarga **hissiy ta'siri**dir. O'quvchilar muallifning asosiy fikrini tushunibgina qolmay, muallif hayajonlangan voqeadan ham hayajonlansinlar. Matnni tahlil qilish o'quvchida fikr qo'zg'atishi, hayotiy tajribasining muallif qayd etgan dalillarga to'g'ri kelish-kelmasligini aniqlashi zarur. Tahlil davomida asarning estetik qimmati, badiiy go'zalligi ham alohida qayd qilib o'tiladi.

O'qish metodikasi adabiyotshunoslik, psixologiya, pedagogika ishlab bergan nazariy qoidalarga asoslanadi. Sinfda o'qishni to'g'ri uyushtirish uchun o'qituvchi badiiy asarning o'ziga xos xususiyatlarini, ta'limning turli bosqichlarida o'qish jarayonining psixologik asoslarini, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning matnni idrok etish va o'zlashtirish xususiyatlarini hisobga olishi zarur.

O'qish darslari o'quvchilarda badiiy asarlarning bir-biridan farqini ajrata olish, yozuvchining hayotiy voqealarni qanday badiiy vositalar orqali aks ettirgani va qanday obrazlar yaratganini aniqlay olish, mustaqil o'qish va asarni tahlil qilish malakasi sinfdan-sinfga o'tgan sari o'stirib boriladi. O'quvchilar adabiy ma'lumotlarni o'zlashtirish orqali badiiy asarning mazmuni, g'oyasi va ahamiyatini anglab ola boshlaydilar.

O'quvchilar adabiy tushunchalarni o'rganish natijasida badiiy adabiyot san'atning bir turi ekanligi, uning hayot bilan aloqadorligini bilib oladilar. Adabiy tushunchalarni shakllantirish bilan birga o'quvchilarning nutqini o'stirish ham muhim o'rin tutadi.

Boshlang'ich sinflarda asar tahlilida adabiy janr turlari – ertak, hikoya, masal, she'r, doston, maqol, topishmoq bilan birga badiiy til vositalari – sifatlash, o'xshatish, jonlantirish, mubolag'a bilan ham amaliy ravishda tanishtiriladi.

Badiiy asar tilini tahlil qilish orqali o'quvchilarda o'z ona tiliga muhabbat hissi, badiiy asarni ongli o'qish ko'nikmasi o'stiriladi, asar

www.ziyouz.com kutubxonasi

g'oyasini chuqur idrok etishga zamin hozirlanadi, o'quvchilar nutqi rivojlantiriladi.

Xalq og'zaki ijodida ertak janrining bolalar tomonidan yaxshi qabul qilinib, qiziqib o'qilishining sabablaridan biri ertak tilining ta'sirchanligi, o'tkir sujetliligi va xalq tiliga yaqinligidir. Ertak o'qib bo'lingach, uning badiiy tili ustida ishlashga alohida ahamiyat berish zarur.

2-sinf „O'qish kitobi"da keltirilgan „Karnaychi shoh" ertagida „yov qora bulutday yopirilib kelayotgan ekan", „Kuychi terak" ertagida „Terakning shoxlari xuddi surnay chalgandek ovoz chiqarib, yaproqlari esa shildirab raqsga tushar ekan", „To'rg'aylar qo'shiq aytib, ularga jo'r bo'lar ekanlar", „Oh, deb nola qilibdi terak", „Ustun ularning nag'malariga jo'r bo'lib, sho'x-sho'x kuy chalibdi" kabi badiiy vositalar yordamida tasvirlangan manzaralar juda ko'p. Ular ustida ishlash o'quvchi nutqini o'stirish bilan birga ularni fikr yuritishga, mulohaza qilishga ham o'rgatadi.

Ertaklarda o'xshatishlar, jonlantirish va mubolag'alardan foydalanilgan. O'quvchilarga ularni izohlab berish, keyinchalik matndan topdirish, qayta hikoyalashda ulardan nutqlarida foydalanishga o'rgatish zarur.

Asar o'qib bo'lingach, badiiy til vositalari ustida ishlanadi. Chunki ularning ma'nosi matndan, asar mazmunidan anglashiladi. Ayniqsa, masallarda allegoriyani ochishda ko'chma ma'noli so'zlardan ko'p foydalaniladi. Ular bolalarga masal mazmunini tushunishga xalal bergani uchun ayrim ko'chma ma'noda ishlatilgan so'zlar asarni o'qishdan oldin tushuntiriladi.

3-sinf „O'qish kitobi"dan o'rin olgan „Ayamajiz" (Qudrat Hikmat) she'rida „Bo'ralar qor kapalak", „Bog'lar sokin mizg'ishar, Misoli oq kapalak", „Muz oynalar sovuq yeb" misralarida o'xshatish, jonlantirish; „Saxiy ona tabiat", „quchog'ida havo sof" misralarida metafora; „Ayamajiz izg'iydi, Ko'chalarda tutoqib, Shox-shabbani tortqilar, Yalmog'izdek yutoqib" kabi misralarda jonlantirish va o'xshatishlar qo'llangan. Bular ustida ishlaganda quyidagicha savol-topshiriqlardan foydalanish mumkin:

1. Shoir qorni nimaga o'xshatadi? (oq kapalakka).

2. Ayamajizni nimaga o'xshatadi? (Yalmog'izga).

3. „Muz oynalar sovuq yeb" misrasini qanday tushunasiz? Oyna sovuq qotadimi?

www.ziyouz.com kutubxonasi

Darslikning „Kumush qish" bo'limida „Qish" matni berilgan. Ushbu matnda ham ko'plab jonlantirishlar qo'llangan. Masalan, „hamma yoqda sovuq izg'irin *kezadi*", *„Ingrar* og'riq kabi qari tol, oynalarni *bezar qish — gulkor*", „Daraxt kurtaklari rohatlanib *uxlamoqda*", „hozir urug'lar tinch *uyquda*" kabi. Matn tahlilida „Matnning birinchi qismini o'qing. Unda qaysi so'z o'z ma'nosidan boshqa ma'noda qo'llangan?" yoki „Matnning ikkinchi qismida jonsiz narsalar jonlidek tasvirlangan o'rinlarni topib o'qing. Boshqa ma'noda qo'llangan so'zlarni o'z ma'nosida qo'llab gap tuzing. Bu so'zlar qanday ma'noda qo'llanganda ta'sirchan bo'ladi?" kabi savol-topshiriqlardan foydalanish mumkin.

Maqol janrida ham ko'chma ma'noli so'zlar ko'p qo'llanadi. Misol uchun *„Yurt boshiga ish tushsa, Er yigit hozir"* maqolida *boshiga* so'zi metafora yo'li bilan ma'nosi ko'chgan, o'quvchilarga uning ma'nosi qanday usul bilan ko'chganligi aytilmaydi, faqat boshqa ma'noda qo'llanganligi o'z ma'nosi bilan taqqoslangan holda o'quvchilarga o'rgatiladi.

Tarixiy asarlarda ham ta'sirchan, tasviriy-bo'yoqdor so'zlar ko'p uchraydi. Jumladan, „Bobur va kabutar" asarida hazrat, a'yonlar, oliy hazrat so'zlari qo'llangan. Asar matnida qadimiy davr bilan bog'liq qo'shimchalarning qo'llanilishi ham asarga joziba bag'ishlaydi. Masalan: „Kabutar ne deydur?" kabi. Mazkur asarda ikkinchi shaxs qo'shimchasi o'rnida hurmat ma'nosidagi uchinchi shaxs qo'shimchasi qo'llangan: „Xatda: Oliy hazrat, qovun ayni pishdi. Kelib qo'l urib bersalar". Shu o'rindagi „qo'l urib bersalar" birikmasi ibora hisoblanadi. Iboralar doim ko'chma ma'no ifodalab, nutqning ta'sirchanligini oshiradi. Matndan iboralar aniqlangach, ma'nosini izohlashdan tashqari, ularga ma'nodosh yoki qarama-qarshi ma'noli iboralarni toptirish ham yaxshi samara beradi.

Topishmoqlarda ham jonlantirish va o'xshatishlar juda ko'p. Masalan, „Ayoz bobo novvot sotdi, Olgan edim, qo'lim qotdi" topishmog'ida o'xshatish, „Chiq-chiq" ishlab tolmaydi, tunda uxlab qolmaydi" topishmog'ida jonlantirish qo'llangan.

„Chumoli va Tipratikan", „O'jar toshbaqa" masallarida ham badiiy til vositalari mavjud. Xususan, ularda „O'g'irlik mol aylar jonsarak", „Bola ko'nglin ko'tarar", „Kosang joningga huzur", „Senga qalqon usti-bosh", „Parcha go'sht bo'lib yurar", „Jish Toshbaqa" kabi ibora, birikma va gaplar uchraydiki, ular ustida ishlashda „Bunday majorolar qachon va kimlar orasida bo'lib o'tishi mumkin?", „Ularga hayotdan

www.ziyouz.com kutubxonasi

misollar keltiring" kabi topshiriqlar berish, ulardagi ma'noni boshqacha yo'sinda bayon ettirish, o'zaro taqqoslash, ta'sirchanligidagi farqni aniqlatish katta ta'limiy ahamiyat kasb etadi. Masalan: „Bola ko'nglin ko'tarar" – Bolasiga yaxshi gaplar gapirar, „Kosang joningga huzur" – Kosang joningni, sog'lig'ingni asraydi" kabi.

O'qish kitoblarida turli janrdagi badiiy asarlar va ilmiy-ommabop maqolalar berilgan. Istalgan asarning obyektiv mazmuni butun borliq, mavjudot, uning turli tomonlari, dalillar va ularning bir-biriga ta'siri hisoblanadi. Badiiy asarda hayot obrazlar orqali tasvirlanadi. Shuni ta'kidlash kerakki, badiiy asar markazida inson, uning jamiyat va tabiatga munosabati turadi.

Badiiy asarda borliqni, voqelikni obrazlar vositasida tasvirlash, obyektiv mazmun va subyektiv bahoni aniq materialda berish haqidagi qoidalar metodika uchun katta nazariy-amaliy ahamiyatga ega.

Birinchidan, badiiy asar ustida ishlashni tashkil qilishda obrazlar va muallifning asarda tasvirlangan voqealarga munosabati o'qituvchining diqqat markazida turadi. O'quvchilar voqelikni obrazlar orqali tasvirlashning o'ziga xos xususiyatlarini tushuna boradilar.

Ikkinchidan, har qanday badiiy asarda aniq tarixiy davrdagi voqealar tasvirlanadi. Shuning uchun asarda tasvirlangan voqealarga tarixiy yondashilgan taqdirdagina matnni to'g'ri o'qish, qatnashuvchi shaxslarning xatti-harakati sabablarini tushunish, dalillar va voqealarni haqqoniy baholash mumkin. Buni boshlang'ich sinflarga tatbiq etganda, avvalo, bolalarni asarda tasvirlangan davr bilan qisqacha tanishtirish, keyin o'quvchilarda qatnashuvchi shaxslarning xatti-harakatini ular yashagan davr va ijtimoiy omillarni hisobga olgan holda baholashni o'stirish zarur.

Uchinchidan, yozuvchining hayoti va qarashlarini o'quvchilarning yoshlariga mos ravishda tanishtirish maqsadga muvofiq.

To'rtinchidan, badiiy asarni tahlil qilishda o'quvchilarni asarning g'oyaviy yo'nalishini tushunishga o'rgatish muhimdir, bu asarni to'g'ri idrok etish uchun, matn ustida ishlash ko'nikmasini, o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirish uchun zarur. Muallif badiiy asarda tasvirlangan hayotiy dalillarga, ijtimoiy hodisalarga, jamiyatning u yoki bu tabaqasi vakillariga o'z munosabatini ifodalashga harakat qiladi. Yozuvchining hayotiy materiallarga bahosi aniq dalillar asosida yaratilgan badiiy asarning g'oyaviy mag'zini tashkil etadi. Asarning g'oyaviy yo'nalishi yozuvchining dunyoqarashiga bog'liq. Asarning tar-

www.ziyouz.com kutubxonasi

biyaviy ahamiyati, o'quvchiga ta'sir kuchi uning g'oyaviy yo'nalishiga bog'liq.

Badiiy asar ustida ishlashni to'g'ri tashkil qilish uchun shakl va mazmun birligi haqidagi qoida ham e'tiborga olinadi.

BADIIY ASAR USTIDA ISHLASH

Badiiy asar ustida ishlash va uning asosiy bosqichlarini belgilashda o'qituvchi badiiy asarning san'at asari sifatida o'ziga xos xususiyatlari va o'quvchilarning tayyorgarlik darajasini nazarda tutadi.

Badiiy asarda barcha qismlar (g'oyaviy asos, kompozitsiya, sujet, tasviriy vositalar) o'zaro bog'liq bo'ladi. Sujet rivoji asosida asar qahramonlarining yangi-yangi qirralari ochila boradi. Bu xususiyatlar asar ustida ishlashda uni yaxlit o'qish va idrok etishni talab etadi.

O'quvchilarni badiiy asar ustida ishlashga o'rgatish ularda adabiy-estetik tahlil malakasini shakllantirish va o'stirish orqali ta'lim-tarbiya berishni nazarda tutadi. Asar matnini tahlil qilish muallif fikrini, hissiyoti va xulosalarini tushunishga yordam beradi, asarda ifoda etilgan voqealarga munosabat uyg'otadi. Asar tahlili o'qituvchidan o'quvchilar faoliyatini ma'lum maqsadiga yo'naltirishni taqozo qiladi.

„Maktabda badiiy asarni tahlil qilishdan asosiy maqsad asarda ifodalangan hayotiy voqeani yoritish orqali o'quvchilarni badiiy adabiyot olamiga olib kirish, tasvirlanayotgan voqealarga nisbatan muallifning munosabati va niyatlarini payqab olishga imkoniyat yaratishdan iboratdir. O'quvchilarning yozuvchi oldinga surgan g'oya, muammolarni to'liq tushunishlariga erishmay turib, adabiyotning yoshlarni tarbiyalashdagi vazifasini amalga oshirib bo'lmaydi"[13].

O'quvchi asarning mazmuni bilan uni mutolaa qilish paytida tanishsa, tahlil qilishda uning poetik vositalariga murojaat qiladi. Mutolaa hissiyotni boyitib, aqlni peshlasa, tahlil asar zamiridagi ma'noni chuqur o'rganishga yordam beradi.

O'qituvchi badiiy asar ustida ishlashda quyidagi masalalarni hal qilishi lozim:

1. Asar ustida ishlashning maqsad va mazmunini aniqlab olishi.
2. Asarni tahlil qilish uchun dars bosqichlarini belgilab olishi.
3. Har bir asar tahlili uchun topshiriqlar tizimini ishlab chiqishi.
4. Asarni qanday metodlar asosida o'rganishni aniqlashi.

[13] Zunnunov A. va boshq. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: „O'qituvchi", 1992. 160-bet.

www.ziyouz.com kutubxonasi

5. O'quvchilar egallaydigan bilim, ko'nikma va malakalar doirasini belgilab olishi.

Boshlang'ich sinflarda badiiy asar ustida ishlash uch asosiy bosqichga bo'linadi:

Birinchi bosqich *(birinchi sintez).* Bu bosqichning asosiy vazifasi matnni yaxlit idrok etish asosida asarning aniq mazmuni va tasviriy ifoda vositalari bilan tanishtirishdan iborat.

Ikkinchi bosqich *(analiz).* Bu bosqichning vazifasi va ish mazmuni voqealar rivojining bog'lanishini belgilash, ishtirok etuvchi shaxslarning xulq-atvori va ularning asosiy xususiyatlarini aniqlash (nega shunday qildi va bu uning qanday xususiyatini ochadi), asar kompozitsiyasini ochish (tugun, kulminatsion nuqta, yechim), asarning aniq mazmunini tasviriy vositalar bilan birga tahlil qilish va qahramonlar xulq-atvorini baholash (muallif nimani tasvirlagani, qanday tasvirlagani, nima uchun u yoki bu dalilni tanlagani)dan iborat.

Uchinchi bosqich *(ikkinchi sintez).* Bu bosqichning ish mazmuni ishtirok etuvchi shaxslarning muhim xususiyatlarini umumlashtirish, qahramonlarni taqqoslash va baholash, asarning g'oyasini aniqlash, badiiy asarni hayotni bilish manbai va san'at asari sifatida baholash (qanday ma'lumotlarga ega bo'ldik, asar nimaga o'rgatadi, muallif o'z fikri va taassurotlarini qanday qilib aniq-ravshan va ta'sirli tarzda yetkazadi va hokazo)dan iboratdir.

Ikkinchi sintezdan so'ng o'qilgan asarga bog'liq holda ijodiy xarakterdagi ishlar o'tkaziladi.

Asar maqsadga muvofiq tahlil qilinsa, o'quvchilar faolligi ortadi, chunki asarni tahlil qilish ular uchun ijodiy jarayondir.

Badiiy asarni o'qishga tayyorgarlik

Asarni o'qishga kirishishdan oldin o'quvchilarni badiiy asarni o'qishga tayyorlash lozim bo'ladi. Chunki o'quvchilar asar mazmunini to'g'ri idrok etishlari uchun hayot haqida ma'lum tasavvurga ega bo'lishlari zarur. Buning uchun tayyorgarlik ishlari o'tkaziladi.

Ma'lumki, sinfda o'qish asosida badiiy va ilmiy-ommabop matnlar turadi. O'quvchilarni matn bilan tanishtirish o'qishga tayyorgarlik bosqichidan boshlanadi.

Tayyorgarlik bosqichi yozuvchilar haqida ma'lumot berish, o'quvchilarni asarda tasvirlanadigan voqea-hodisalarni idrok qilish, asar pafosini his etish, notanish va ko'p ma'noli so'zlar, murakkabroq

www.ziyouz.com kutubxonasi

tarzdagi obrazli ifodalarni izohlash kabi masalalarni o'z ichiga oladi. Agar asar yil fasllari haqida bo'lsa, tabiat qo'yniga sayohat uyushtirish ham sinfda o'qish muvaffaqiyatini ta'minlashga xizmat qiladi.

Matn bilan dastlabki tanishuvdan so'ng quyidagicha savollar bilan murojaat qilish darsda o'quvchilarning faolligini oshiradi:

1. Hikoyadagi qaysi epizodni qiziqarli deb o'ylaysiz?

2. Hikoya qahramonlaridan qaysi birining xatti-harakatini ma'qullaysiz? Qaysi birining fe'l-atvori, o'zini tutishi sizga yoqmadi?

3. Hayotda shunday kishilarni uchratganmisiz?

Tayyorgarlik ishlarining vazifalari quyidagilar:

1. O'quvchilarning asarda aks ettirilgan voqea-hodisalar haqidagi tasavvurlarini boyitish, matnni ongli idrok qilishga ta'sir etadigan yangi ma'lumotlar berish, badiiy asarda tasvirlangan dalillarni o'quvchilarning o'z hayotida kuzatganlari bilan bog'lay olishlariga sharoit yaratish.

2. Yozuvchining hayoti va ijodiga qiziqish uyg'otish. Masalan, 4-sinfda Zafar Diyorning hayoti va ijodi haqida quyidagicha ma'lumotlar berish mumkin: Zafar Diyor Namangan viloyatining Chust tumanida tug'ilgan. Ota-onasi dehqon bo'lgan. Ular kambag'allikda kun kechirishgan. Zafar Diyor to'rt yoshga to'lganda uning oilasi Toshkentga ko'chib keladi. Onasi bosmaxonada ishlaydi. Shoirning o'zi esa eski maktabda o'qiydi. Keyinchalik Toshkentdagi 7-bolalar uyida tarbiyalanadi. Shoirning birinchi she'rlar to'plami 21 yoshida bosilib chiqadi.

3. O'quvchilarni asarni hissiy idrok etishga tayyorlash.

4. Asar mazmunini tushunishga xalal beradigan so'zlarning lug'aviy ma'nolarini tushuntirish. *Masalan,* 4-sinf „O'qish kitobi"dagi „Xarita" matni ustida ishlaganda so'z va iboralar lug'ati quyidagicha bo'lishi mumkin:

Og'zing ochilib qolsin *– hayron bo'lib qolgin*
Qolipdan chiqqan g'ishtdek *– hamma tomoni birdek tekis*
Loqayd *– befarq*
Kashfiyot *– izlanishlar natijasida yaratilgan narsa; ixtiro*
Ayilday botdi *– qattiq tegdi, ranjitdi*
Pisanda qilmoq *– oldindan biror shart qo'ymoq; ta'kidlamoq.*

Tayyorgarlik ishlarining ta'limiy shakllari xilma-xil bo'lib, o'qituvchi asar mazmuni va sharoitga qarab ish turini tanlaydi. Tayyorgarlik davrida nimalar haqida ma'lumot berish maqsad qilingan bo'lsa, avvalo, o'quvchilarning o'zlaridan ular haqida bilganlari so'rab aniqlanadi. Masalan, „Kitobga ixlos" asarini o'qishga tayyorgarlikda o'quvchilarning dastlabki bilimlari quyidagicha aniqlanadi:

www.ziyouz.com kutubxonasi

O'qituvchi: – Bugun biz Vatanimizning o'tmishiga sayohat qilamiz. Sayohatimiz Buxoro shahriga bo'ladi. Sayohatchilar ikki guruhga bo'linadi. Buxoro darvozalari ochilishi uchun bir necha tilsimlarni yechishimiz zarur. Buning uchun har bir guruh o'ziga berilgan savol-topshiriqlarni bajarib, shohsupaga ko'tarilishi zarur.

1-guruh uchun savol-topshiriqlar:

1. Tarixda yashagan buyuk olimlar, shoirlar, yozuvchilar, sarkardalardan kimlarni bilasiz?
2. Buxoroda qaysi buyuk shaxslar yashagan?
3. Buxorodagi tarixiy binolar, joylar nomini ayting.

2-guruh uchun ham shu tarzdagi savol-topshiriqlar beriladi yoki har ikkala guruh uchun shu savol-topshiriqlar berilib, „Kim oldin shohsupaga etib boradi?" sharti qo'yiladi.

Xattaxtaga buyuk shaxslar portreti, tarixiy joylar tasvirlangan rasmlar ilib qo'yiladi.

Tayyorgarlik shakllaridan biri – **ekskursiya**dir. Bu ish turidan tabiat tasviriga bag'ishlangan yoki ishlab chiqarish, qurilish, shahar, qishloq hayotiga, kasbga doir mavzular va tarixiy asarlar o'rganilganda foydalanish mumkin. Chunonchi, 2-sinfda „Metropoliten" kabi mavzularni o'rganishdan oldin ekskursiya qilish maqsadga muvofiq. Ekskursiya o'quvchilarning asarda ifoda etilgan hodisalarni aniq va ongli o'zlashtirishlariga yordam beradi, bilimlarini chuqurlashtiradi, tabiat hodisalarini kuzatish va ularni aniq tasvirlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

Ekskursiya bolalarda tabiatga mehr uyg'otadi, uni sevish va tabiat ehsonlarini asrash hissini tarbiyalaydi.

Ishlab chiqarish korxonalariga, muzey va boshqa joylarga ekskursiyalar esa tarixiy voqealarni to'g'ri idrok etishlarini ta'minlaydi, kattalar mehnati bilan tanishtiradi, o'quvchida mehnatga muhabbat uyg'otadi, kasbga yo'naltiradi.

Film namoyish qilish. Tarixiy materiallarni, asar muallifi hayotini o'rganishdan oldin film namoyish qilinsa, o'quvchilarning asarni idrok qilishlari faollashadi. Masalan, 2-sinfda „Gulzorda" hikoyasini o'qishda „Mehrobdan chayon" filmidan parcha ko'rsatilishi, 3–4-sinflarda Ibn Sino haqidagi asarlarni o'rganishda „Ulug'bek xazinasi", Alisher Navoiy haqidagi asarlar bilan tanishtirishda „Alisher Navoiy" filmi namoyish etilishi mumkin.

Kinofilm va diafilmlardan o'quvchilarni asarni o'qishga tayyorlash davrida foydalaniladi. Ular o'quvchilarning tasavvur qilishlariga, tu-

www.ziyouz.com kutubxonasi

shunchalarini oydinlashtirishga, ongli o'qish va hissiy idrok etishlariga yordam beradi. O'quvchilarning film namoyishida tug'ilgan ayrim savollariga ularning o'zlari yangi o'qiydigan asarlardan javob topadilar. Tayyorgarlik ishlarini bunday uyushtirish o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishlarini ham oshiradi.

O'qituvchi hikoyasi. Bu metod asar muallifi haqida ma'lumot berishda eng samarali hisoblanadi. Asar muallifi shoir va yozuvchilar haqida so'zlab berilayotganda ularning portretlari, bolalar uchun yozgan asarlari namoyish etilsa, o'quvchilarning muallif ijodiga qiziqishlari ortadi. Boshlang'ich sinfda shoir, yozuvchilarning o'z tilidan o'qigan asarlari yoki ular haqida boshqalar aytgan fikrlarni magnit tasmasidan eshittirilsa yoki video tasmadan ko'rsatilib, unga o'qituvchi hikoyasi qo'shilsa, darsning samaradorligi yanada oshadi. Masalan, 4-sinfda O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi aytilgach, A.Oripovning o'zi aytgan „O'zbekiston" she'ri qo'yib eshittirilishi mumkin.

O'qituvchi yozuvchi va shoirlar haqidagi ma'lumotlarni o'quvchilar saviyasiga mos qilib, hayajonli qilib hikoya qilsa, o'quvchilarning badiiy asarni o'qishga ichki istagi kuchayadi, ularda kitob o'qishga muhabbat ortadi. Yozuvchi haqidagi ma'lumot 1-sinfdan 4-sinfga borgunga qadar ko'paytirilib, chuqurlashtirilib boriladi.

Asarni o'qishga tayyorgarlik bevosita o'quvchilarning **mustaqil izlanishlari** asosida ham tashkil etiladi. Masalan, „Kitobga ixlos" (4-sinf) asarini o'qishga tayyorgarlikda o'quvchilarning o'tmishda yashagan tarixiy shaxslar haqidagi tushunchalari aniqlangach, o'quvchilar xayolan sayohatga olib chiqiladi. O'qituvchi o'quvchilarni Buxorodagi tarixiy muzeyga taklif etadi. Muzeyda o'quvchilar Abu Ali ibn Sino portretini kuzatadilar, u haqdagi yozuvlarni o'qiydilar (Muzey uchun sinfning biror qismi ajratiladi).

Abu Ali ibn Sino – ma'rifatparvar alloma

Abu Ali ibn Sino – buyuk hakim

Men kechalari kam uxlar, kunduzlari ham ilmdan boshqa narsa bilan shug'ullanmas edim. (Ibn Sino)

Bir kuni shohdan kutubxonasiga kirishga va u yerda tibga oid kitoblarni mutolaa qilishga ruxsat so'radim. Shoh menga ruxsat berdi. (Ibn Sino)

www.ziyouz.com kutubxonasi

Ibn Sino dorivorlar tayyolash, yurak kasalligi, jarrohlik va boshqa sohalarga doir 400 dan ziyod asar yozgan

O'quvchilarni mustaqil izlanishga o'rgatishning yana bir usuli o'quvchilarga oldindan yozuvchi yoki asar yozilgan davr haqida kitoblar, manbalar tavsiya etib, ulardan ma'lumotlar to'platish, albomlar tayyorlatish, so'ng o'quvchilar o'zlari aniqlagan ma'lumotlarni o'qib, so'zlab berishidir.

Sinfdan sinfga ko'chish bilan yozuvchi hayoti va ijodi haqidagi o'quvchilar bilimi ortib boradi. Asar muallifi bilan tanishtirishga qo'yilgan talablar ham ko'payadi. O'qituvchi qisqa ma'lumot berishdan yozuvchi hayoti bilan to'liqroq tanishtirishga o'tadi. Bunda u kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning yoshiga mos imkoniyatlarni, ular yozuvchi bilan qay darajada tanish ekanligi va uning asarlaridan nimalarni o'qiganligini hisobga oladi.

Asar bilan tanishtirish

Tayyorgarlik davridan so'ng 1-bosqich amalga oshiriladi. Bu bosqichning asosiy vazifasi asar mazmuni bilan tanishtirishdir. Badiiy asarni yaxlit idrok etish muhim bo'lgani uchun maktab tajribasida asar ustida ishlash shu asar yoki uning bir darsda o'rganishga mo'ljallangan qismi yaxlit o'qish usulida tanishtiriladi.

Hikoya, masal, she'rning mazmunini to'g'ri idrok etish, shuningdek, matnning hissiy ta'sirini oshirish uchun ifodali o'qish katta ahamiyatga ega.

Asar matni bilan tanishtirishning bir necha usullari mavjud. Ular quyidagilar:

1. Matn o'qituvchi tomonidan ifodali o'qib beriladi (ba'zan asar matni magnitafon orqali ham eshittirilishi mumkin). O'quvchilar matn mazmuni bilan tanishtirilgach, o'qituvchi ularga boshlang'ich taassurotlarini aytishni talab qiladigan savollar beradi. Masalan, *„Hikoyaning qaysi o'rni sizga yoqdi?“, „Qahramonlardan qaysi biri sizga ayniqsa yoqdi?“, „Hikoya o'qilganda siz qaysi o'rinda juda xursand bo'ldingiz?“* kabi va hokazo. Kirish suhbati, birinchidan, asarning o'quvchilarga qanday ta'sir qilganini bilish, ikkinchidan, bolalarni asar matnini tahlil qilishga qiziqtirish, darsda o'quvchilar faolligini oshirish maqsadini ko'zda tutadi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

2. Yaxshi o'qiydigan o'quvchiga o'qitish. O'quvchini oldindan o'qituvchi o'qish yo'llari bilan tanishtiradi va uning o'qishini o'zi kuzatadi, xato va kamchiliklarni bartaraf etadi. Shundan so'ng tayyorlangan o'quvchi sinf jamoasiga o'qib beradi.

3. Og'zaki qayta hikoyalab, so'zlab berish. Bu o'qituvchidan alohida tayyorgarlikni talab etadi. Chunki asar matniga yaqinlashtirib, badiiy vositalarini to'liq saqlagan holda hikoyalash zarur, aks holda o'quvchilarning badiiy asarni o'qishga bo'lgan qiziqishi susayadi.

4. Yoddan ifodali aytib berish. She'riy asarlar yoddan aytib berish orqali tanishtirilsa, o'quvchi o'qituvchining mahoratini yuqori baholaydi. O'zida ham yod olishga qiziqish paydo bo'ladi.

5. Asarning muhim dialogli o'rinlarini yoki butun asarni sahnalashtirish orqali tanishtirish.

6. Asarning bir qismini (muammoli o'rnini) o'qituvchining o'qib berishi, qolgan qismini o'quvchilarning ichda mustaqil o'qishi.

7. Asar bilan tanishtirishda texnika vositalaridan ham unumli foydalanish.

8. Asarni musiqa sadolari ostida o'qib berish. Bu asarning ta'sirini kuchaytiradi, o'quvchilarning estetik didini tarbiyalaydi, ularni toliqishdan saqlaydi.

Umuman olganda, asarning janriy xususiyati hisobga olingan holda u bilan tanishtirishning o'ziga xos usullarini tanlash lozim.

Badiiy asar matni ustida ishlash

Boshlang'ich sinflarda to'g'ri, tez, ongli va ifodali o'qishga o'rgatish vazifasi o'quvchilarda asarni tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirish bilan birga amalga oshiriladi. O'qish malakalarini shakllantirish bilan matn ustida ishlashning o'zaro bog'liqligi asarni tahlil qilishga qanday yondashishni belgilab beradi.

Badiiy asar ustida ishlashning 2-bosqichi asar tahlilidir. Asarni tahlil qilishning asosiy yo'nalishi matnning aniq mazmuni (voqealar va uning rivojlanishi)ni, kompozitsiyasini, ishtirok etuvchi shaxslarning axloqi va xarakterli xususiyatlarini, asarning g'oyasini aniqlash hisoblanadi.

Asarni tahlil qilishning metodik shartlaridan biri asar mazmunini uning tasviriy-ifodaviy vositalari bilan bog'liq holda qarashdir. Yana bir asosiy qoida asar ustida ishlash jarayonida ta'lim-tarbiyaviy vazifalarni umumiy ravishda amalga oshirish hisoblanadi. Bu qoidalar asar ustida

www.ziyouz.com kutubxonasi

ishlashning asosiy yo'nalishini belgilaydi, shuningdek, matnni tahlil qilish jarayonida o'quvchilar bajaradigan topshiriqlarni va muhokama qilish uchun ularga beriladigan savollarning xarakterini aniqlab olishga yordam beradi.

Asar tahlili jarayonida matn ustida ishlashning quyidagi turlaridan foydalaniladi:

1. Tanlab o'qish. Bunda o'quvchi matnning berilgan vazifaga mos qismini o'qiydi. Vazifa asarning mazmunini oydinlashtirish, sabab-natija bog'lanishini belgilash, badiiy xususiyatini ochish, o'qilgan matnga o'z shaxsiy munosabatini ifodalashdan iborat bo'lishi mumkin. Masalan, 4-sinfda „Oltin kuz" matnidan „Tabiatdagi o'zgarishlar berilgan qismlarni topib o'qing", „Baqa va taqa" ertagidagi „Taqachining nasihati berilgan joyni topib o'qing" kabi topshiriqlar berilishi mumkin.

Tanlab o'qish matn ustida ishlashning eng samarali usulidir. Tanlab o'qishdan matn ustida ishlashning barcha bosqichlarida turli xil qiyinchilikda, murakkablikda foydalaniladi. U o'quvchilarda yaxshi o'qish sifatlarini o'stirish bilan birga ularning ijodiy tasavvuri, nutqi va zehnini o'stirishga yordam beradi. Eng oddiy tanlab o'qish asar mazmuni yuzasidan bo'ladi. Masalan, 4-sinfda *„Toshkentnoma"* (M. Shayxzoda) asari yuzasidan tanlab o'qish uchun quyidagi topshiriqlar beriladi:

– She'rdan o'zbek xalqining mehmondo'stligi tasvirlangan o'rinni topib o'qing.

– Yoz faslining zo'rligi tasvirlangan o'rinni topib o'qing.

„Dehqonbobo va o'n uch bolakay qissasi" (A. Oripov) asari matni yuzasidan „Matndan Dehqonboboning Vatan haqidagi gaplarini topib o'qing" kabi topshiriq berilishi mumkin.

Tanlab o'qishning yana ham murakkabroq turlari matndan sabab-natija munosabati bilan bog'langan dalillarni taqqoslashni, umumlashtirishni talab qiladigan o'rinlarini topib o'qish hisoblanadi. Masalan, „Xarita" (N. Norqobilov) hikoyasi yuzasidan topshiriqlar quyidagicha bo'lishi mumkin:

– Sinf rahbari Rasulni nima uchun Samadga biriktirib qo'ydi? Shu o'rinni topib o'qing.

– Samadning Rasuldan arazlash sababi ifodalangan o'rinni topib o'qing.

Bunda o'quvchi biror qatnashuvchi shaxs o'zini qanday tutishini, nima uchun u shundayligini tasdiqlash uchun matndan material tanlab o'qiydi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Tanlab o'qish ongli va ifodali o'qish malakasini shakllantirishni matn ustida ishlash ko'nikmasini shakllantirish bilan birga qo'shib olib borishga, bolalarning ijodiy tasavvurini, nutqi va zehnini o'stirishga imkon beradi. Shuning uchun undan o'qish darslarida keng foydalaniladi.

Tanlab o'qish matn rejasini tuzishda (matn qismiga uning mazmunini ifodalaydigan gapni, ya'ni reja qismini topishda) qahramonga tavsif berish (matndan qahramonning muayyan bir xususiyatini, harakatini tavsiflovchi materiallar tanlash)da, asar g'oyasini aniqlash (g'oyani anglatgan o'rinni topib o'qish)da tatbiq etiladi.

2. O'quvchilarning berilgan savol va topshiriqlarga o'z so'zlari bilan javob berishi. Mashqning bu turi o'quvchilarda o'qilganlar yuzasidan muhokama yuritish ko'nikmasini o'stirishga, asarda qatnashuvchi qahramonlarni baholashga, muallif tasvirlagan hayotiy lavhalar bilan asar g'oyasi o'rtasidagi bog'lanishni aniqlashga imkon beradi. Ishning bu turida beriladigan savollar ma'lum maqsadga yo'naltirilgan va muayyan izchillikda bo'lishi, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undashi lozim. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida savol va topshiriqlar qaysi maqsadga yo'naltirilganiga ko'ra quyidagicha tasnif qilinadi:

1. Asar mazmunini o'zlashtirish va qayta hikoyalashga doir savol-topshiriqlar.

2. Asar tilini o'rganish va o'zlashtirishga doir savol-topshiriqlar.

Sabab-natija tarzidagi savollardan ham foydalaniladi. Agar o'qituvchi asar g'oyasini tushunishda o'quvchilarga yordam berishni ko'zda tutsa, savol sabab-natija tarzida bo'ladi. Anvar Obidjonning „Odobli bo'lish osonmi?" ertagi (4-sinf) g'oyasi o'quvchilarni salomlashish odobi bilan tanishtirish, ularda muomala madaniyatini tarbiyalashdir. Ertakdagi asosiy fikrni aniqlash uchun o'qituvchi *„Anvar Obidjon aytmoqchi bo'lgan salom berish mavridlarini o'z so'zingiz bilan aytib bering", „Nima uchun echki sichqonga nasihat qildi?", „Toshbaqaning sichqoncha haqidagi fikrini gapirib bering"* kabi savol-topshiriqlardan foydalanishi mumkin. Qambar O'tayevning „Non qayerdan keladi?" (4-sinf) she'ri asosida esa *„Non nima? Uni ta'riflang", „Non qayerdan kelar ekan?", „Nonni nima uchun qadrlash kerak?"* kabi savol-topshiriqlardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich sinflarda savol-topshiriqlarga javob berishga katta o'rin berilgan. O'qituvchining vazifasi ana shu savol-topshiriqlar ustida ishlash usullarini oldindan belgilab olishdir. Ijodiy xarakterdagi savollar o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi. 4-sinf „O'qish kitobi"dan

www.ziyouz.com kutubxonasi

o'rin olgan „Qodir bilan Sobir" matni yuzasidan o'quvchilarni o'z fikrini aytishga undovchi *„Sobir o'qishdan kechikish sababini ochiq aytib to'g'ri qildimi?", „Uning o'rnida siz bo'lganingizda nima qilardingiz?"* kabi savollar o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini, og'zaki nutqini o'stiradi va matnni yaxshi o'zlashtirishlariga yordam beradi. Asardagi voqealar tizimiga oid savol-topshiriqlar tuzish va undan tahlil jarayonida ijodiy foydalanish ham katta ahamiyatga ega. Masalan, 4-sinf „O'qish kitobi"dagi Qudrat Hikmatning „Bahor" she'ri asosida *„She'rda dastlab nimalar haqida gapiriladi?", „She'rdagi fikr yuritilgan narsalarni ketma-ket aytib bering", „Shoir bahorni tasvirlashda qanday tasvir usullaridan foydalangan?"* kabi savol-topshiriqlardan foydalanish o'quvchilar faolligini oshiradi.

Savol-topshiriqlar ustida jamoa, juft va yakka tartibda ishlash mumkin.

3. O'quvchilarni savol tuzishga o'rgatish. O'quvchilarni savol tuzishga o'rgatish matn ustida ishlashda yaxshi natija beradi. Metodist olimlarning fikricha, to'g'ri berilgan savolda yarim javob tayyor bo'ladi. O'quvchilar matnni ongli o'zlashtira olsalargina, matn yuzasidan savol bera oladilar. O'quvchilarga savol tuzishni o'rgatishni 2-sinfdan boshlash maqsadga muvofiqdir.

O'quvchilarni ongli ravishda savol tuzishga o'rgatish uchun o'qituvchi matnga o'zi tuzgan yoki „O'qish kitobi"da berilgan savollarni tahlil qiladi. Tahlil uchun *„Nega u yoki bu savol qo'yilgan?", „Unda kim yoki nima haqida gap boradi?", „Savol ko'proq qaysi so'zlar bilan boshlanadi?"* kabi savollarni ishlatadi va matndan foydalangan holda bu savollarga javob berishni o'rgatadi. Ikkinchidan, o'qituvchi o'quvchilar e'tiborini matnga savol tuzish yo'liga qaratadi va savol tuzishdan oldin matnni diqqat bilan o'qish, qatnashuvchi shaxslarni ko'rsatish, savol tuziladigan qismni ajratish kerakligini tushuntiradi. Savol tuzishga o'rgatishning boshlang'ich bosqichida bu mashq jamoa bo'lib bajariladi va ta'limiy xarakterda bo'ladi; buning uchun qulayroq savol ajratilib, nima uchun u qiziqarli ekani yoki, aksincha, noqulay bo'lsa nima uchun noqulayligi tushuntiriladi. Masalan, 3-sinfda „Ahillik ulug' baxt" ertagida *„Odamlarning cholning bolalari haqidagi fikri yuzasidan savol tuzing"* topshirig'i berilgach, o'quvchilar *„Odamlar aqlli cholning bolalari haqida nima deyishdi?"* kabi savol tuzishlari mumkin.

4-sinfda „Qovun sayli" (Sh. Sa'dulla) hikoyasi yuzasidan quyidagicha savol tuzish topshirig'i beriladi:

www.ziyouz.com kutubxonasi

– Hikoyadagi birinchi xatboshini o'qing va shu qism yuzasidan savol tuzing.

– Hikoyadagi birinchi xatboshida qo'llangan so'zlarning ma'nosini izohlash bo'yicha savol-topshiriqlar tuzing. (*Bejirim, serto'r* so'zlarining ma'nosini izohlang)

– Hikoya qahramonlari yuzasidan savollar tuzing.

Keyinchalik o'quvchilar muhokama va ijodiy savollar berishni ham o'zlashtirib oladilar.

4. Matnni tasvirlash. Matnni tasvirlash matn ustida ishlashda katta ahamiyatga ega bo'lib, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi, undan to'g'ri foydalanish esa asarda yozuvchi tasvirlagan hayotiy manzaralarni o'quvchilar aniq tasavvur qilishlari uchun qulay imkoniyat yaratadi. Matnni ikki xil tasvirlash mumkin: ***1) so'z bilan tasvirlash; 2) grafik tasvirlash.***

So'z bilan tasvirlash o'ziga xos murakkab ish turi bo'lib, unda manzarani so'z yordamida aniq qayta tiklash talab etiladi. So'z bilan tasvirlash, shuningdek, grafik tasvirlash uchun ham o'quvchi matnni, undagi voqea sodir bo'lgan vaziyatni, qatnashuvchilarning tashqi ko'rinishini, xarakterli xususiyatlarini yaxshi bilishi zarur. So'z bilan tasvirlashda so'zlarni aniq tanlash talab qilinadi, bu esa o'quvchilar nutqini rivojlantirishda foydali vositalardan biri hisoblanadi.

Tasvirlashdan o'qituvchi turli maqsadlarda, chunonchi, reja tuzishga asos sifatida, qayta hikoyalashga tayyorlashda, voqea yuz bergan sharoitni aniqlashda foydalanadi. Tasvirlashdan mustaqil ish sifatida ham foydalaniladi: o'qituvchi matnning ma'lum qismidan o'quvchilarga juda ma'qul bo'lgan manzarani so'z bilan yoki grafik tasvirlashni, unga muallif so'zini tanlashni hamda turli tabiat manzaralarini, qatnashuvchi kishilarning tashqi ko'rinishini, voqea sodir bo'lgan joylarni tasvirlashni topshiriq qilib berishi mumkin.

Matnni so'z bilan tasvirlashga o'rgatishni darslikda berilgan rasmni matndagi shu rasmga mos qism bilan taqqoslab tasvirlashdan boshlash kerak.

So'z bilan tasvirlash bosqichma-bosqich, maxsus tayyorgarlikdan so'ng amalga oshiriladi:

1. Matndan manzara, vaziyat yoki qahramonlarning tashqi ko'rinishi tasvirlangan o'rinlar aniqlanadi.

2. Nisbiy tugallangan o'rinlar ajratiladi.

3. Tasvirlashga leksik-uslubiy tayyorgarlik ko'riladi, ya'ni yozuvchi,

www.ziyouz.com kutubxonasi

shoir qo'llagan lug'aviy birliklarga o'quvchilar diqqati tortiladi va ular tahlil qilinadi. Tasvirlashda so'zni aniq tanlashga yordam beriladi.

4. So'z bilan tasvirlashga o'rgatishning dastlabki paytida xattaxtaga foydalaniladigan so'zlar yozib qo'yilishi zarur. So'z bilan tasvirlash qayta hikoyalashga aylanib qolmasligi lozim.

Grafik tasvirlash ko'proq uyda bajariladi. Buning uchun o'quvchilar tasvirlanadigan matn qismini ajratadilar, uni diqqat bilan o'qib chiqadilar, mazmunini o'zlashtiradilar va unga mos rasm chizadilar. Bunda o'quvchilar bilan qanday ranglardan foydalanish, ranglar ifodalaydigan ma'nolar bo'yicha suhbat o'tkaziladi. Rasmlar ko'rgazmasi tashkil etiladi. Har bir rasm muallifi o'zi chizgan rang tasvirini izohlab beradi. Kompyuterlashtirilgan sinflarda grafik tasvirlash sinfda ham bajartirilishi mumkin. Bunda o'quvchilarning ijodiy yondashuvlariga imkon beriladi.

O'quvchilar asar voqealari rivojini seriyali rasmlar asosida muayyan izchillikda tasvirlashlari ham, har bir rasm seriyasi ostida shu qismda ifoda etilgan muhim fikrlarni yozib qo'yishlari ham mumkin. Bular asar matnini to'liq qayta hikoyalash, shuningdek, o'qilgan hikoya, maqolaning rejasini tuzish, matn mazmunini, uning tasviriy vositalarini bilib olishga yordam beradi.

5. Asar rejasini tuzish. Reja matn mazmunini ongli va chuqur tushunishda, asosiy fikrni ajratishda, voqealarning izchilligini belgilashda, matn qismlarining o'zaro bog'lanishini tushunishda o'quvchilarga yordam beradi. Reja ustida ishlash o'quvchilar nutqi va tafakkurini o'stiradi. Ular matnni mazmunan tugallangan qismlarga bo'lishga va har bir qismning asosini topishga, ularga qisqa va aniq sarlavha topishga, uni reja qismi sifatida shakllantirishga o'rganadilar.

Reja tuzishga tayyorgarlik ishlari savod o'rgatish davridayoq boshlanadi. Tayyorgarlik mashqining eng oddiy turi berilgan sarlavhalardan kichik matn mazmuniga mosini topib qo'yish hisoblanadi. Bunday mashqqa o'rgatishda o'qituvchi sarlavha asosiy fikrni ifodalashini ta'kidlaydi, bolalar topgan sarlavhani tahlil qilib, u yoki bu sarlavha nima uchun mos yoki mos emasligini tushuntiradi. Reja tuzishga tayyorgarlik ishining ikkinchi turi o'qituvchi rahbarligida tanlab o'qish hisoblanadi, bolalar matndan o'qituvchi bergan savolga javob bo'ladigan o'rinni topib o'qiydilar.

Reja tuzish „oddiydan murakkabga" tamoyili asosida asta-sekin murakkablashtirilib, muayyan izchillikda o'tkazib boriladi. O'quvchilar 1-sinfda o'qilgan kichik matnga o'qituvchi rahbarligida so'roq gap tar-

www.ziyouz.com kutubxonasi

zida sarlavha tanlashlari, 2-sinfda kichik maqolaning rejasini o'qituvchi rahbarligida so'roq yoki darak gap tarzida tuzishlari, 3-sinfda o'qilgan matn rejasini jamoa bo'lib tuzishlari, 4-sinfda mustaqil reja tuza olishlari kerak.

Rejaning eng oddiy shakli rasmli reja hisoblanadi. Buning uchun avval bolalar kitobda berilgan rasmlardan matn qismiga mosini tanlashga va uni nomlashga o'rgatiladi, keyin matn qismiga tayyor rasm berilmaydi, uni bolalarning o'zlari so'z bilan tasvirlaydilar. Hikoya o'qiladi va qismlari bo'yicha tahlil qilinadi, so'ng o'quvchilar matnning 1-qismini o'qiydilar, o'qituvchi ulardan qanday rasm chizish mumkinligini so'raydi. Qolgan qismlari ustida ham ishlar shu tarzda ishlanadi. O'quvchilar chizgan rasmlariga nom (sarlavha) qo'yadilar. Ular qo'ygan nom sarlavha xattaxtaga reja qismi tarzida yozib boriladi.

O'quvchilar rasmli reja tuzishdan mantiqiy reja tuzishga o'tadilar. Bunday reja tuzish quyidagi izchillikda o'rgatiladi:

1. O'qituvchi qismlarga bo'lingan matnga tanlab reja tuzadi va matn rejasining o'rnini almashtirib, sarlavha tarzida xattaxtaning chap tomoniga yozib qo'yadi. O'quvchilar matnning 1-qismini o'qiydilar, shu qism mazmuniga mos sarlavhani topadilar, uni o'qituvchi xattaxtaning o'ng tomoniga yozadi. Ana shu tarzda xattaxtada o'qilgan matnning rejasi hosil bo'ladi.

2. Matn qismlarini tahlil qilish jarayonida o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida har bir qismdagi asosiy g'oyani aniqlaydilar va unga sarlavha topadilar, o'qituvchi sarlavhalarni reja tarzida xattaxtaga yozib boradi.

3. Qismlarga bo'linmagan matn tanlanadi, sarlavhalar matn rejasi tartibida xattaxtaga yoziladi. O'quvchilarga berilgan sarlavhalardan foydalanib, matnni qismlarga bo'lish topshiriladi. Ular matnni o'qishadi va sarlavhalarga tegishli qismni ajratadilar.

4. Qismlarga bo'linmagan matn tanlanadi, sarlavhalar aralash tarzda xattaxtaga yoziladi. O'quvchilarga yuqoridagiday qismlarga bo'lish topshiriladi. O'quvchilar matnni o'qib, nisbiy tugallangan qismni ajratadilar va unga mos sarlavhani xattaxtadan tanlaydilar. Ish shu tarzda davom ettirilib, matn rejasi tuziladi.

O'quvchilarda reja tuzish ko'nikmasi hosil bo'lgach, 3–4-sinflarda ular matnni mustaqil ravishda qismlarga bo'ladilar, har bir qismga reja tuzadilar. Rejani darak va atov gap tarzida shakllantiradilar, unda har bir qism bir turdagi gaplar shaklida bo'lishi lozim.

www.ziyouz.com kutubxonasi

O'quvchilar lug'atini boyitish, nutqining hissiy ta'sirini kuchaytirish, badiiy vositalardan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish, nutq madaniyatini o'stirish maqsadida asardagi badiiy vositalar ustida ishlanadi. Masalan, 4-sinf „O'qish kitobi" darsligidagi „Kitobga ixlos" matnidagi badiiy vositalar ustida quyidagicha ishlash mumkin:

Kartonga ko'chma ma'noli so'zlar yozib qo'yiladi. Ularning ma'nosini izohlash bo'yicha quyidagicha savol-topshiriqlar beriladi:

— *Birikmalarni o'qing. Tagiga chizilgan so'zlarning ma'nosiga diqqat qiling. Ularning qaysi ma'noda qo'llanganini izohlashga harakat qiling.*

olovning qip-qizil tillari — gurullab yonayotgan olovning yuqoriga bo'ralab-bo'ralab ko'tarilishi;

olovning ... tillari osmonni yalar — baland ko'tarilar;

o'zini o'tga urmoqchi — olovning ichiga kirmoqchi.

O'quvchilarga yordam berish maqsadida shu so'zlarni o'z ma'nosida qo'llab, taqqoslash uslubidan foydalanish mumkin:

olovning tili — odamning tili;

odam tili bilan yalaydi — olov tili bilan osmonni yalaydi;

o'tga urmoqchi — bolani urmoqchi.

Qaysi birikmada „til", „yalaydi", „uradi" so'zlari o'z ma'nosida, qaysi birikmada ko'chma ma'noda qo'llanganligi aniqlanadi.

O'xshatishlar ustida quyidagicha ishlanadi: gaplar oldindan xattaxtaga yoki kartonga yozib qo'yiladi va ular yuzasidan topshiriq beriladi:

— *Gapni o'qing. Alanga nimaga o'xshatilyapti?*

... yong'in borgan sari kuchayar, qimmatli kitoblarni ajdahodek yutayotgan alanga quturib, hujra eshigidan tutun aralash chiqib turar edi.

— *Parchani o'qing. Suv alangaga qanday ta'sir qildi? Nima uchun?*

...Chelaklab sepilgan suv unga kor qilmas, aksincha, moydek ta'sir qilayotgandek edi.

— *Quyidagi parchada Ibn Sinoning holati nimaga o'xshatilyapti?*

...Ibn Sino xuddi yaqin kishisini ko'rib, qabristondan qaytgan kishidek boshini quyi solib, yarim-yorti kuygan bir necha kitobni qo'ltiqlagan holda uyiga jo'nadi...

So'ngra iboralar ustida ishlanadi. Bunda quyidagicha topshiriqlar beriladi:

— *Berilgan gaplarni o'qing, tagiga chizilgan iboralarning ma'nosiga diqqat qiling. Ularni bir so'z bilan almashtirish mumkinmi? Yoki ularning ma'nosini boshqa so'z bilan ifodalash mumkinmi?*

www.ziyouz.com kutubxonasi

1. Askarlarning suroni *quloqni qomatga keltiradi* – qattiq eshitiladi.

2. Kechasi uyqusi kelib, *ko'ziga qum tiqila boshlaganda* ... – ko'zi og'riy boshlaganda, uyqusi kela boshlaganda.

3. Ba'zilar mehnati bekorga ketayotganini ko'rib, *qo'llarini qo'ltiqqa urdilar* – ishonchini yo'qotdilar.

4. ... ko'pchilikning *hafsalasi pir bo'ldi* – ... ishini to'xtatdi.

5. ... kiyimi bilan o'zi yonib ketishi *turgan gap edi* – aniq edi.

6. Oxiri baxayr bo'lsin – yaxshilik bilan tugasin.

7. ...nima to'g'risida *bosh qotirayotganini* bilib turibman – o'ylayotganini;

8. Bu yerda qolsam bir kuni meni chaqirib, *oyog'imga bolta uradilar* – yo'q qiladilar va shu kabilar.

Hozir maktab tajribasida izohli o'qish, ijodiy o'qish, adabiy o'qish usulidan, muammoli o'qitish metodlaridan, ilg'or pedagogik texnologiya, interaktiv metodlardan keng foydalanilmoqda. Masalan, *A. Qodiriyning „Chin do'st"* hikoyasini o'rganishda izohli o'qish metodidan foydalanish mumkin. Chunki bu asar matnida o'quvchilarga lug'aviy ma'nosi tushunarsiz bo'lgan so'zlar uchraydi. Masalan, hikoyadagi *saboqdosh, mirzaboshi, havolanmas, asrandi, g'arq, holda, mahdum, marsiya, xun, hamnishin, dildor, notavon, g'urbat* kabi so'zlar izoh talab etadi.

Metodik adabiyotlarda badiiy asar matnini tahlil qilishning uch usuli: *badiiy asarni yozuvchiga ergashib yaxlit o'rganish, obrazlar vositasida o'rganish, mavzuli-muammoli o'rganish* alohida ajratib ko'rsatiladi.

Boshlang'ich sinflarda, asosan, matn asosidagi tahlildan foydalaniladi, ya'ni, o'qituvchi asarni tahlil qilishda asar matniga asoslanadi. Uni o'zgartirmagan holda undagi ma'noni, jozibani o'quvchilarga yetkazib beradi.

Boshlang'ich sinflarda muammoli tahlil usulidan ham foydalanish mumkin. Masalan, *„Bobur va Humoyun"* hikoyasini o'rganishda o'quvchilarga *„Boburning aytgan gaplari o'rinlimi?"*, *„Hikoyadagiday holat sodir bo'lishi mumkinmi?"* kabi muammoli savollar berish o'rinli bo'ladi. O'quvchilar asarni ichda o'qiydilar, jamoa bo'lib fikr almashadilar, bahslashadilar. Bahs davomida o'quvchilar ma'naviy olamida ham, aqliy dunyosida ham muayyan o'zgarishlar, rivojlanishlar sodir bo'ladi. Asar tahlilida qo'llanadigan tanlab o'qish, unga munosabat bildirish, munosabatlarning turli xilda bo'lishi ham munozarani keltirib

www.ziyouz.com kutubxonasi

chiqaradi. Munozarali o'rin muammoni yuzaga keltiradi. Endi o'quv jarayoni oldida muammoni to'g'ri hal etish vazifasi turadi.

Shunday qilib, boshlang'ich sinflarda ham badiiy asar matnini tahlil qilishda, umuman, badiiy asarlarni o'rganishda o'quvchi shaxsiga kuchli ta'sir qiluvchi, ularning saviyasiga mos, bilimlarning o'zlashtirilishini ta'minlovchi metod va usullardan, tahlil turlaridan foydalanish mumkin.

O'QISH DARSLARIDA MUSTAQIL ISHLAR

Mustaqil ish mashqning faol turi bo'lib, uni bajarish jarayonida o'quvchilar fikrlashga va mustaqil faoliyat yuritishga o'rganadilar. Bir vaqtning o'zida ikki yoki uch sinf bilan ishlanadigan oz komplektli maktablarda mustaqil ish, ayniqsa, juda zarur hamda katta ahamiyatga ega.

O'qish darslarida mustaqil ishni bajarishga bolalar taxminiy tayyorlanadi, albatta. O'quvchilarni mustaqil ishga tayyorlashda topshiriqning maqsadi ularga qisqa va aniq tushuntiriladi. Mustaqil ish uchun tanlangan matnning hajmi kichik va o'quvchilar saviyasiga mos bo'lishi lozim. Mustaqil ish turlari har xil bo'lib, uni tanlashda o'quvchilarning tayyorgarligi, o'qiladigan matnning xarakteri, asarni o'rganish bosqichi hisobga olinadi.

Boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida mustaqil ishning quyidagi turlaridan foydalaniladi:

1. Asarni ichda o'qish. 1-sinfda bu mashqni topshirishdan oldin ayrim so'zlarni kesma harflar bilan tuzdirish va uni o'qishni mashq qildirish maqsadga muvofiq. O'quv yilining ikkinchi yarmidan boshlab ichda o'qib, ayrim qatnashuvchi shaxslarning gaplarini topish, uni o'qish va o'z so'zi bilan gapirib berish, matndan o'qituvchi bergan savolga javob bo'ladigan o'rinni topish kabi topshiriqlar berilishi mumkin.

2. O'qilgan matn yuzasidan berilgan savollarga javob berish. Bu mashq bolalarni diqqat-e'tibor bilan o'qishga o'rgatadi; bu ish turidan oz komplektli maktablarda foydalanish dars tartibini belgilashga ham yordam beradi. Mashqning bu turi asta murakkablashtira boriladi: avval o'quvchilar matnga oid savollarga javob berish bilan uning mazmunini o'zlashtirsalar, keyin asarning asosiy g'oyasini bilib oladilar, voqea-hodisalar o'rtasidagi sabab-natija bog'lanishlarini tushunadilar. Bunda „Nega?", „Nima uchun?" kabi savollardan foydalaniladi. Masalan,

www.ziyouz.com kutubxonasi

4-sinf „O'qish kitobi"dagi *„Davlat"* ertagi matni ustida ishlaganda *„Ertakda Davlat dehqonning uyida umrbod qolishga jazm qilibdi. Nima uchun?"* savoli beriladi, bu savol hikoyaning asosiy mazmunini aniqlashga ham yordam beradi. 2-sinfdan boshlab bolalar nima uchun hikoya, she'r shunday nomlanganini aytib berishga o'rganadilar.

3. O'qilgan asar mazmunini to'liq anglash, bilib olish uchun o'qituvchi topshirig'ini bajarish. Topshiriqlar quyidagicha bo'lishi mumkin:

– o'qing va omonatga xiyonatning jazosi qandayligini aytib bering. („Omonatga xiyonat", 4-sinf)

– o'qing va nima uchun hunarsiz kishi o'limga yaqinligini tushuntirib bering. („Hunarsiz kishi o'limga yaqin", 4-sinf) va hokazo.

Ba'zan topshiriqlar turli xildagi qayta hikoyalashni talab qiladi:

a) matnning ayrim o'rinlaridan foydalanib (ko'chirma olib) qayta hikoyalash;

b) hikoyani bir sujet chizig'i asosida qayta hikoyalash;

d) matnni qisqartib qayta hikoyalash;

e) matnning shaxsini o'zgartirib qayta hikoyalash va boshq.

4. O'qilgan matn rejasini tuzishga tayyorlanish va reja tuzish. Bunda quyidagi ish turlaridan foydalaniladi:

1) o'qilgan matnga oid rasm chizish;

2) rasmga matndagi so'zlar yoki o'z so'zi bilan sarlavha qo'yish;

3) o'qituvchi tomonidan tartibsiz berilgan savollardan foydalanib reja tuzish;

4) matnni qismlarga bo'lish va har bir qismga sarlavha qo'yish va hokazo.

Mustaqil ishning qanday bajarilganligini hisobga olish o'quvchilarning tayyorlik darajasini aniqlashda va keyingi bosqichlarda mustaqil mashqni to'g'ri tashkil qilish uchun material tanlashda o'qituvchiga yordam beradi.

BADIIY ASARLARNI JANRIY XUSUSIYATLARIGA KO'RA O'RGANISH

Boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida garchi ilmiy jihatdan bo'lmasa-da, amaliy jihatdan turli janrga mansub asarlar o'qib o'rganiladi. O'qish darsliklariga, asosan, hikoya, she'r, ertak, masal, maqol, doston, rivoyat va topishmoq kabi janrdagi asarlar kiritilgan. Bulardan tashqari, ilmiy-ommabop asarlar ham o'qitiladi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Turli janrdagi badiiy asarlar qurilishi, uslubi jihatidan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularning o'quvchilarga ta'siri ham har xil bo'ladi. Tabiiyki, har bir janrga oid asar matni lingvistik jihatdan ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Masalan, she'riy asarlar matni hikoya matnidan, ertak matni she'r matnidan, ilmiy-ommabop maqola matni masal janriga taalluqli asarlar matnidan tubdan farq qiladi. Topishmoqlar predmet, voqea-hodisalar o'rtasidagi o'xshashlikni taqqoslash orqali o'zlashtirilsa, maqollar mazmuni hayotiy misollar vositasida sharhlashni taqozo etadi. Shunga ko'ra, turli janrdagi badiiy asarlarni o'qishda o'qituvchidan unga mos usullar tanlash talab etiladi.

Ertakni o'qish metodikasi

Xalq og'zaki ijodida ertak janrining bolalar tomonidan yaxshi qabul qilinib, qiziqib o'qilishining sabablaridan biri ertak tilining ta'sirchanligi, o'tkirligi, ma'nodorligi va xalq tiliga yaqinligidir. Ertaklarning ko'pchiligida real hayot tasviri sarguzasht elementlar bilan qo'shilib ketadi.

Ertakning o'tkir, maroqli sujeti, voqea rivojidagi favqulodda ajoyib vaziyat bolalarni maftun qiladi, undagi mard, kuchli, topqir, dovyurak, chaqqon qahramonlar, ertakning g'oyaviy yo'nalishi, unda ezgulik kuchining – yaxshilikning doimo g'alaba qilishi bolalarni o'ziga tortadi. Ertakda qabul qilingan hikoya qilish shakli bir xil so'z va iboralarning qayta-qayta takrorlanib turishi, ohangdorligi, tilining ta'sirchanligi, ifoda vositalarining jonliligi, bolalar uchun juda qiziqarliligidir. Ertakda qatnashuvchilar ko'pincha rahmdil, saxiy, adolatli hamda ularning aksi bo'lgan yovuz, baxil, ochko'z kishilar timsoli bo'ladi.

Ertakning pedagogik qiymati shundan iboratki, o'quvchilar unda to'g'rilik, halollik g'alaba qilganidan, kambag'al kishilar qiyinchiliklardan qutilganidan, ya'ni yaxshilik, ezgulik ro'yobga chiqqanidan va yomonlik, yovuzlik mahkumlikka uchraganidan quvonadilar. Ular hayotda ham doimo shunday bo'lishini istaydilar. Masalan, „Halollik" ertagida (3-sinf) asosiy fikr kambag'allarga yordam ko'rsatish, o'z mehnati bilan hayot kechirish bo'lib, bu hatto butun xalq istagi ekanligi g'oyasi ilgari surilgan bo'lsa, „Hiylagarning jazosi" ertagida (4-sinf) soddadilning to'g'riligi hiylagarning makri ustidan g'olib kelishi, xiyonat jazosiz qolmasligi g'oyasi ilgari surilgan. Har ikki ertak ham to'g'riso'zlilikning g'alabasi bilan yakunlanadi. Bunday g'alaba maishiy ertaklardan tashqari, sehrli ertaklarda ham ifodalangan.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Ertak bolalarda qahramonlarning xatti-harakatini muhokama qilib, baholash ko'nikmasini o'stirishi bilan birga yaxshilikning doimo g'alaba qozonishiga ishonch uyg'otadi. O'quvchilar ertakni tahlil qilish jarayonida „Kishilardagi qanday sifatlar sizga yoqdi? (yoki yoqmadi?)", „Nima uchun?", „... nima uchun jazolandi? (yoki rag'batlantirildi?)", „Nima uchun ertakdagi ba'zi qahramonlarga hatto tabiat kuchlari ham yordam beradi? (yoki ba'zilaridan yuz o'giradi?)" kabi savollarga javob topish jarayonida mushohada qiladilar, muhokama qilib, xulosaga keladilar.

Boshlang'ich sinflarda hayvonlar haqidagi ertaklar ko'proq o'qitiladi. „Bo'rining tabib bo'lgani haqida ertak" (Anvar Obidjon), „Ko'zacha bilan tulki" kabi ertaklar aniq hayotiy hikoyalar tarzida o'qitiladi va tahlil qilinadi.

Ertak matni ustida ishlashda tanlab o'qish, savollarga javob berish, o'quvchilarning o'zlari ertak mazmuniga oid savollar tuzib, javob berishlari, reja tuzish, qayta hikoyalash, ijodiy davom ettirish, ertak aytish, qahramonlarni grafik tasvirlash kabi ish turlaridan foydalaniladi. Bunday ertaklarda hayvonlarning odatlari tahlil qilinadi, ammo ularni kishilar xarakteriga taqqoslash tavsiya qilinmaydi.

Maktab tajribasidan ma'lumki, kichik yoshdagi o'quvchilar ertakdagi hayvonlar gapirmasligini, tulki va turna bir-birinikiga mehmonga bormasligini yaxshi biladilar, ammo ertaklar dunyosini hayotiy hikoya kabi qabul qiladilar. Ertakni o'qib tahlil qilganda, barcha ishlar uning mazmunini yaxshi idrok etishga, sujet rivojini, qatnashuvchi personajlarning xatti-harakati, o'zaro munosabatlarini to'g'ri tasavvur etishga yo'naltiriladi. Bunda tanlab o'qish va qayta hikoyalashning ahamiyati katta. Masalan, „Odobli bo'lish osonmi?" (A. Obidjon) ertagining mazmunini o'zlashtirish uchun quyidagi topshiriqlardan foydalanish mumkin:

1. Sichqonchaning onasi bilan qilgan suhbatini o'qing. Sichqonchaning „Odobli bo'lish uchun nimalar qilish kerak?" degan savoliga onasi qanday javob qaytarganligini so'zlab bering.

2. Sichqonchaning Mushuk bilan uchrashgan holati aks ettirilgan o'rinni topib o'qing. Nima uchun „Shum Baroq" ko'zidagi yovuzlik birdaniga so'nadi?

3. Echki nima uchun Sichqonchani „Kam bo'lma" deb duo qiladi? Shu o'rinni topib o'qing.

Ertakni tahlil qilishning oxirgi bosqichida „Ertakning sizga juda yoqqan joyini topib o'qing", „Nima uchun aynan shu joyi yoqqa-

www.ziyouz.com kutubxonasi

nini ayting", „Hayotingizda ertakdagi voqealarga o'xshash voqealar bo'lganmi?" kabi savol-topshiriqlar yordamida o'quvchilarning ertak xulosasini tushunishlariga erishiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari hayvonlar haqidagi ertaklardan tashqari, *„Davlat", „Ilm afzal", „Hiylagarning jazosi", „Hunarsiz kishi o'limga yaqin"* kabi maishiy ertaklarni ham o'qiydilar. Bunday ertaklarda xalq o'z hayotini hikoya qiladi, shu sababli o'quvchilar ertakni o'qigach, o'tmishdagi xalq hayotini, o'y-fikrlari va orzu-istaklarini bilib oladilar.

Bunday ertaklarni tahlil qilish badiiy hikoya tarzida uyushtiriladi. Bolalar o'qituvchi rahbarligida ertakda qatnashuvchilarning hulq-atvori, ayrim xatti-harakatlarini baholaydilar, ularning bir-birlariga bo'lgan munosabatlarini aytadilar va shular asosida ayrim obrazlar haqida xulosalar chiqaradilar, ertak rejasini tuzadilar, ertakni rollarga bo'lib o'qiydilar.

„Davlat" ertagi (4-sinf) oddiy turmushga tegishli hodisalarni tasvirlovchi ertakdir. Ertakni o'qishga tayyorlash uchun ota-bobolarimiz atrofimizdagi tabiatni, borliqni qanday tasavvur etishlari haqida suhbat o'tkaziladi. Bunday suhbat ertakdagi badiiy obrazlarni, ularning o'zaro munosabatlarini, xulq-atvorlari, xarakterlarini to'g'ri tushunishga yordam beradi. *„Davlat"* ertagi matni ustida ishlash jarayonida o'quvchilar *„Dehqonning xonadoni qanday hayot kechirar ekan?", „Nima uchun Davlat dehqonning xonadonidan ketishni istamaydi?"* kabi savollarga javob topish orqali ertak qahramonlarini baholaydilar, ahil va inoq bo'lib, halol mehnat qilish lozim degan xulosaga keladilar.

Ertak ustida ishlashda bolalarni ertakni o'qishgagina emas, balki uni aytib berishga o'rgatish ham muhimdir. Ertak aytish og'zaki nutqni o'stiradi, bolalar nutqini yangi so'z va iboralar bilan boyitadi.

O'quvchilarni 1-sinfdayoq ertak tilidan erkin foydalanishga o'rgatish uchun ertak bilan birinchi tanishtirishda uni o'qituvchi aytib berishi mumkin.

O'quvchi ertak mazmunini o'zlashtirib olgandan so'ng, uning tili ustida ishlashga alohida ahamiyat qaratilishi zarur. Ertak mazmunini qayta hikoyalashda, qahramonlarga tavsif berishda o'quvchilarning o'z nutqida til vositalaridan o'rinli foydalanish talab qilinadi. Til vositalaridan foydalanish uchun talab va vaziyat, ehtiyoj yaratish zarur.

Ertak tilida shunday so'z va iboralar borki, ular bolaga o'zgacha ta'sir ko'rsatadi. Masalan, „Yo'lbars, Tulki va Bo'ri" ertagida „Tog' echkisi siz **ulug'imizniki** bo'lsin", „Quyon siz **podshohimizning** erta-

www.ziyouz.com kutubxonasi

labki **nonushtangiz** bo'lsin", „Kiyik kechqurungi **taomingiz**, qo'y kunduzgi **xo'ragingiz** bo'lsin" kabi gaplar tarkibidagi ajratib ko'rsatilgan so'zlarga o'quvchilar diqqati qaratilib, ertakni so'zlab berayotganda ulardan nutqda foydalanishlariga erishish zarur.

Ertaklarda keltirilgan maqollar ustida ishlash, ularda ilgari surilayotgan g'oyalarni bolalar ongiga etkazish, yod oldirish yo'li bilan bog'lanishli nutqni o'stirish, nutqning ta'sirchanligini oshirish lozim. Masalan, *„Rostgo'y bola"* (1-sinf) ertagida bola o'z rostgo'yligi bilan podshoga ma'qul bo'lganligi hikoya qilingan. Ertak g'oyasiga mos xulosa esa „Boshingga qilich kelsa ham to'g'ri gapir" maqoli bilan ifodalangan. O'quvchilar ushbu maqol mazmunini tushunib olishsa, o'zlari ham yuqoridagi kabi ertak tuzib, hikoya qilib berishlari mumkin.

So'z ma'nolari ustida ishlashda boshlang'ich sinf o'quvchilariga mos bo'lgan usullardan biri rasmdan foydalanishdir. Masalan, 2-sinfda *„Ko'ngilchan o'tinchi"* ertagida *qayin, eman, shumtol, zarang, zirk, tog'terak, qarag'ay, qayrag'och, chinor* kabi daraxt nomlari keltirilgan. Ularni bola ko'z oldiga keltira olmaydi. Ertakni o'qishdan oldin shu daraxt rasmlarini ko'rsatib, uning o'ziga xos xususiyatlarini izohlash va nomlarini aytish lozim. Shundan so'ng didaktik o'yin o'tkaziladi. Bunda daraxt rasmlari bolalarga bo'lib beriladi. Har bir o'quvchi o'ziga berilgan rasmdagi daraxtning nomini aytishi va ertakdagi shu daraxtning so'zini o'z so'zlari bilan aytib berishi kerak bo'ladi.

Shu ertakni o'qib, mazmuni bilan tanishtirilgach, o'quvchilardan *shaylanib, ro'parasida, sharbat, xayrli ish, xivchin, muhayyo* so'zlarining ma'nosi so'raladi. Javoblar to'ldiriladi, umumlashtiriladi.

Ertak matni bilan ishlash jarayonida unda qo'llangan badiiy vositalar: jonlantirish, metafora, mubolag'alar ustida ishlash ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi barcha fikrlarni hisobga olganda, ertakni o'rganish darslarining qurilishi quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Ertak bilan tanishtirish:

a) o'quvchilarni ertakni idrok etishga tayyorlash;

b) o'qituvchining ertakni ifodali o'qishi, yod aytib berishi va hokazo.

2. Ertakni o'quvchilar qay darajada idrok etganliklarini aniqlash maqsadida qisqacha suhbat o'tkazish;

3. Ertakni qismlarga bo'lib o'qish va tahlil qilish; undagi ayrim tasviriy vositalar, ma'nodosh so'zlarni topish, lug'at ishi (ayrim so'zlar ma'nosini tushuntirish);

www.ziyouz.com kutubxonasi

4. Ertakni aytib berishga tayyorlanish (ichda o'qish);
5. Ertakni so'zlab berish;
6. Umumlashtiruvchi suhbat (ertak g'oyasini ochish);
7. Ma'lum topshiriq asosida ertakni qayta o'qish (ijodiy va mustaqil ishlar);
8. Vazifani tekshirish va yakunlash;
9. Uyda ertakni o'qib (yoki aytib) berishga tayyorlanish.

ERTAK O'TISH DARSI NAMUNASI

Mavzu. Kumush qish.

O'quv materiali. Rangin qorlar (Olloyor).

Darsning maqsadi:

1. O'quvchilarning qish fasli haqidagi tushunchalarini boyitish.
2. Tabiatdan zavq olishga, unga zarar keltirmaslikka o'rgatish.
3. O'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini o'stirish, xotirasini mustahkamlash.
4. O'qish ko'nikmalarini takomillashtirish, o'quvchilar lug'atini yangi so'zlar bilan boyitish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, ertak o'qish darsi.

Dars metodi: izohli o'qish, mustaqil ish metodi, guruhlarda ishlash.

Darsning jihozi: qog'oz, flomaster, elim, qisqich, qaychi, mikrotestlar, akvarium, baliqlar, rag'batlantirish uchun jetonlar.

Sinf sharoiti. O'qituvchi turli usullar bilan o'quvchilarni guruhlarga ajratadi. Sinfdagi partalar doira shaklida qo'yib chiqiladi.

Tashkiliy qism. Sinf o'quvchilari guruhlarga bo'linib o'tiradilar. O'qituvchi guruhlar bilimi teng bo'lishi uchun qizil, ko'k, oq, yashil, sariq rangli doirachalardan foydalanishi mumkin. Bir xil rangdagi doira egalari bir guruhni tashkil etishi aytiladi. Har bir guruh o'ziga nom tanlaydi. Buning uchun o'quvchilarni darsga hozirlash, qiziqtirish, harakatga keltirish, mavzuni mustaqil anglab yetishlari uchun topishmoqlardan foydalanish lozim.

— *Topishmoqning javobini toping:*

Elakdan un elandi

Supra unga belandi. (qor)

— Qor qaysi faslda yog'adi?

— O'ylang, bugun o'rganadigan yangi mavzu nima haqida ekan?

www.ziyouz.com kutubxonasi

Xattaxtaga bo'lim nomi – „Kumush qish" yoziladi. So'ng guruhga qish fasli bilan bog'liq holda nom tanlashlari mustaqil ish qilib beriladi.

1-guruh „Qorparcha", 2-guruh „Ayozbobo", 3-guruh „Qorbobo", 4-guruh „Sumalak", 5-guruh „Qish" deb nomlanishi mumkin. Har bir guruh a'zolari o'zlariga sardor saylaydi.

Darsning borishi

I. Chaqiruv bosqichi. Guruhlar taqdimoti.

Bunda har bir guruh o'z nomining ma'nosini izohlaydi, nomini ifodalovchi rasm chizib ko'rsatishi ham mumkin.

1-guruh – „Qorparcha": Men qish faslida dunyoga kelganman. Qir-adir, tog'u tosh, dala-dashtda uchib, o'ynoqlab yerga tomon intilaman. Hammayoqni oq choyshab bilan o'rayman. Men yoqqanda bolalar, hatto kattalar ham qorbo'ron o'ynaydi, qorbobo yasashadi. Qorxat yozishadi.

2-guruh – „Ayozbobo": Men issiq havoni sovutaman. Yerlarni, suvlarni muzlataman. Men tufayli yaxmalaklar paydo bo'ladi. Bolalar yaxmalakda chang'ida, chanada va konki uchadi. Tarnovlarda sumalaklar paydo bo'ladi.

3-guruh – „Qorbobo": Men qish faslida bolalarning eng sevimli bobosiman. Uzoq-uzoq o'lkalardan ularga yangi yil bayrami sovg'alarini, qorqizimni olib kelaman. Ularning kuy-qo'shiqlari, o'yin-kulgilari jaranglagan bayramni birga nishonlayman. Men tufayli Ayozboboning izg'irin sovuqlarini sezmaydilar. Men ularga kuch-quvvat bag'ishlayman. Hammangizni yangi – qutlug' yilingiz bilan tabriklayman.

4-guruh – „Sumalak": Men Ayozbobo bilan Qorparchalarning farzandiman. Tomlarning bo'g'otida qishning quyosh nurlarida yaltirab turaman. U yerdan bolalarning o'yin-kulgilarini tomosha qilaman. Borib bolalarga qo'shilib o'ynay olmaganimdan ko'zlarimdan chak-chak yoshim oqadi. Shu ko'z yoshlarim bilan yerning dardlariga malham bo'laman.

5-guruh – „Qish": Yuqoridagi so'zga chiqqanlarning barchasi mening dilbandlarim. Ular tufayli men borman. Ular tufayli men yilning boshida turaman. Dekabr, yanvar, fevral oylari mening qo'ynimda yashaydi. Ularning har biriga yaxshi kunlarni – bayramlarni taqsimlab berganman.

8-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni, 31-dekabrda Yangi yil bayrami nishonlanadi. 14-yanvar Harbiylar kunini

www.ziyouz.com kutubxonasi

bayram qilinadi. 9-fevralda ulug' bobomiz Mir Alisher Navoiyning, 14-fevralda Mirzo Boburning tavallud kuni nishonlanadi.

O'qituvchi o'quvchilarning javobini umumlashtirib, har bir guruhni rag'batlantiradi. Shu tarzda asarni o'qishga tayyorgarlik yakunlanadi.

II. Anglash bosqichi. Bu bosqichda „Rangin qorlar" (Olloyor) ertagi (o'qituvchi qismlarga bo'lib kelgan bo'ladi)ning har bir qismi guruhdagi yaxshi o'qiydigan o'quvchilarga o'qitiladi. „Ifodali o'qish" musobaqasi uyushtiriladi. Eng yaxshi o'qigan o'quvchi aniqlanadi va rag'batlantiriladi.

Shundan so'ng guruhlarga asar matni ichda o'qishga topshiriladi. Guruh o'quvchilariga quyidagi topshiriq beriladi:

– Har bir guruh o'z qismini ichida o'qiydi. Uning mazmuniga va qahramonlariga doir savol-topshiriqlar tuzadi va konvertga solib uzatadi. Tuzilgan savollar izohlanib, rag'batlantirilib boriladi.

III. Fikrlash bosqichi. Bunda quyidagi ish turlaridan foydalaniladi:

1. O'quvchilar o'zlari tuzgan savollarga javob beradilar:

– Qadimda qorbo'ron qanday qorlar bilan o'ynalgan? Nima uchun?

– Bo'yoq bozori qancha yilda bir bo'lar ekan?

– Nega qorlar oq rangda yog'ar ekan?

– Bahoroy qaysi bo'yoqlarni xarid qilibdi?

– Kuz kelganda qozonlarda qaysi bo'yoqlar bor edi?

– Qish kelganda qozonda qaysi bo'yoq qolgan edi?

– Yoz uyqudan uyg'onib nimani o'ylab ketibdi?

– Yoz qaysi bo'yoqlarni olganini o'ylab toping.

– Kuz qaysi bo'yoqlarni o'chirib, uning o'rniga qaysi bo'yoqlarni surtib chiqdi?

– Qish o'z zahrini nimalarga sochadigan bo'lib qolibdi?

2. Darslikdagi savol-topshiriqlar ustida ishlanadi. Bularni barcha guruh bajaradi. Guruhning faol ishtirokiga qarab ball qo'yiladi.

3. O'qituvchi „Kumush qish" va o'qilgan asar yuzasidan tuzgan test topshiriqlarini guruhlarga tarqatadi.

4. Qish fasli bilan bog'liq maqol va topishmoqlar aytiladi:

Bahor, yoz, kuz qishlaydi, Qish paytida ishlaydi. (Pechka)

Qish yopingichingni qo'yma, Yoz o'zing bilasan. (Maqol)

5. O'qituvchi sardorlar uchun asar matni yuzasidan savol-topshiriqlar tuzib keladi. Bu savol-topshiriqlar konvertlarga solinib, guruhlarga beriladi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

1-guruh uchun.

– Ayozbobo deraza oynalariga qanday qilib naqshlar chizadi?

– „Qiyomiga kelib" birikmasining ma'nosini izohlab bering (ayni me'yoriga, maromiga yetgan holga kelgan).

2-guruh uchun.

– *Falak, libos so'zini qaysi so'zlar bilan almashtirish mumkin?* (falak – osmon gumbazi, osmon, ko'k; libos – kiyim, ust-bosh)

– *Bahoroyning gullari nomini sanab bering.*

3-guruh uchun.

– „Shitob" so'zining ma'nosini izohlang (harakatning bajarilishidagi tezlik)

– Saraton qaysi payt ekanini ayting.

4-guruh uchun.

– Bahor tabiatida yuz beradigan hodisalarni ayting.

– Za'far, zarg'aldoq ranglar qanday rang? Ranglar ichidan olib ko'rsating. (zarg'aldoq – to'q sariq rang, za'far – sap-sariq, somon rang).

5-guruh uchun.

– Qish chillasi necha kun va unga qaysi vaqt kiradi?

– Ertakda badiiy vositalardan nima ko'proq qo'llanilgan? (jonlantirish)

Darsni yakunlash va tarbiyaviy xulosa chiqarish. Bunda quyidagicha savollar beriladi:

– Dars sizga yoqdimi? Nimasi yoqdi?

– Bugun darsda nimalarni bilib oldingiz?

– Siz qishda tabiatni, tabiat ehsonlarini asrash uchun nimalar qilyapsiz?

So'ngra o'quvchilarning umumiy ballari e'lon qilinadi.

Uyga vazifa: ertak matnini ifodali qilib o'qishga, unga reja tuzib, shu reja asosida qayta hikoyalashga tayyorlanib kelish.

Hikoyani o'qish metodikasi

Hikoya kichik hajmli badiiy asar bo'lib, unda kishi hayotidagi ma'lum bir voqea, hayotning muhim tomonlari umumlashtirib tasvirlanadi.

„Hikoya ko'pincha kishi hayotida bo'lgan bir epizodni tasvir etadi. Uning mazmuni ertakdagidan ortiqroq hayotiydir"[14].

[14] Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: „O'qituvchi", 1980. 245-bet.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Hikoya mazmunan boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mos janr hisoblanadi. Kichik yoshdagi o'quvchilarni qahramonlarning xatti-harakati, tashqi ko'rinishi, portret tasviri, voqea-hodisalar haqidagi hikoyalar ko'proq qiziqtiradi. Shuning uchun bolalami hikoya bilan tanishtirish uning sujetini tushuntirishga bog'lab olib boriladi.

Boshlang'ich sinflarda hikoyani o'qishga bag'ishlangan izohli o'qish darslarida o'qilgan hikoya mazmunini ochish, lug'at ustida ishlash, o'qilgan matnni qayta hikoyalash kabilar asosiy ish turlaridan hisoblanadi. Hikoya mazmuni odatda savollar asosida tahlil qilinadi. So'roqlardan ikki maqsadda: hikoya mazmunini tahlil qilish hamda dalillar, mulohazalar, xulosalarni taqqoslash, voqea-hodisalar, xatti-harakat o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlash va umumlashtirish uchun foydalaniladi.

Hikoyani o'qish darsida o'quvchilar tushunmaydigan so'z va iboralar ma'nosini tushuntirish ham muhim, aks holda ular hikoya mazmunini tushuna olmaydilar.

Hikoyani o'qishda uning mazmunini tahlil qilish va shu asosda o'quvchilar nutqini o'stirish markaziy o'rin egallaydi. Hikoya o'qib bo'lingach, o'quvchilar o'ylashi, o'z mulohazalarini aytishi uchun tayyorlanishga vaqt berish kerak. O'qilgan asar yuzasidan beriladigan dastlabki savollardan maqsad hikoya bolalarga yoqqan-yoqmaganligi, undagi qaysi qahramonning xarakteri bolaga ta'sir etganini bilishdan iborat. Shundan keyingina hikoya sujeti, voqeaning yo'nalishini ochishga, personajlar xarakterini tushunishga, nihoyat, asarning asosiy g'oyasini bilib olishga yordam beradigan savollardan foydalaniladi.

Badiiy asarni tahlil qilishda sujetni to'liq tushuntirishga berilib ketib, qahramonlarga tavsif berish, asar qurilishi va tilini tahlil qilish kabi ish turlari e'tibordan chetda qolmasligi lozim.

Ertak janriga xos matnlar jozibadorligi bilan bolani o'ziga tortadi. Lekin hikoya janri ham hayotiyligi bilan o'ziga xos. Hikoyada voqealar tez rivojlanib boradi. Unda inson hayoti, u bilan bog'liq hayotiy lavhalar bayon etiladi. O'quvchilar qahramonlarning xarakteri, ulardagi xususiyatlar bilan qiziqadilar. Masalan, 3-sinf „O'qish kitobi"dagi *„Dadam qurgan dengiz"* (Hakim Nazir), *„Olma"* (Malik Murodov), *„Ilmli ming yashar"* (Nurmat Maqsudiy), *„Xazonchinak"* (O'. Hoshimov), *„Qo'shterak"* (A. Irisov), *„Mehnatkash qiz"* (Oybek) va boshqa qiziqarli hikoyalar berilgan. Ular mavzu jihatdan xilma-xil bo'lib, qahramonlarining xarakter-xususiyatlari bilan ham farq qiladi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Hikoya biror bir davr bilan bog'liq bo'ladi. O'quvchilar qahramonlarning ma'naviyatiga bo'lgan qiziqishlari tufayli hayotning nurli va qorong'i tomonlari xususida muayyan tushunchaga ega bo'la boshlaydilar. Ularda go'zallik va nafosatga muhabbat, yovuzlikka nisbatan nafrat tuyg'usi hikoyalar bilan tanishish va uni tahlil qilish davomida shakllanib boradi. Masalan, 3-sinfda *„Jaloliddin Manguberdi"* hikoyasida Chingizxon va uning qo'shinlariga nisbatan nafrat uyg'otilsa, Jaloliddin Manguberdining xatti-harakati misolida ona-Vatanga mehr-muhabbat uyg'otiladi, uning taqdiri orqali o'z ajdodlaridan faxrlanish tuyg'usi paydo bo'ladi.

Hikoya tahlili adabiy tur sifatida o'ziga xos xususiyatlari va vazifasidan kelib chiqib ish ko'rishni taqozo etadi. Undagi har bir so'z, ibora, gap yozuvchining fikrini ifodalashga xizmat qiladi.

Hikoya matni uning mazmunini yoki badiiy xususiyatlarini o'rganishdagina emas, tahlilning ifodali, adabiy, shartli yoki ijodiy o'qish, muammoli usullardan foydalanish uchun ham manba bo'lishi lozim.

Boshlang'ich sinflarda hikoya sujeti, kompozitsiyasi, qahramonlarini o'rganish bo'yicha turli tahlillar matn ustida ishlash asosida olib boriladi. Bunda o'quvchining ijodiy faolligi ortadi, ijodiy fikrlash doirasi kengayadi.

„Jaloliddin Manguberdi" hikoyasi qahramonlarini, ularning xatti-harakatlarini o'rganish va tahlil qilishni matnga tayangan holda quyidagi reja asosida amalga oshirish mumkin:

1. Chingizxonning hiyla ishlatgan o'rnini matndan topish. Uning o'quvchilarda qanday taassurot qoldirganligini aniqlash.

2. Jaloliddin Manguberdining Eron va Afg'onistonda mo'g'ullarga qarshi kurashib, erishgan g'alabasi tasvirlangan o'rinni topib o'qish.

3. Lashkarboshilarning o'lja taqsimlashi oqibatida nima yuz berganini aniqlash. Bu o'rinni matndan topish.

4. Jaloliddin Manguberdining jasorati yana qaysi o'rinda ko'ringanini aniqlash.

5. Chingizxon Jaloliddin Manguberdiga nima uchun tan berganini aytish.

Shundan so'ng o'quvchilar Jaloliddin Manguberdi haqida ongli fikr yuritadilar. Chingizxon bilan Jaloliddin Manguberdining xatti-harakatlarini taqqoslab, farqlaydilar.

Hikoya mazmunini o'zlashtirish bo'yicha matn asosida quyidagicha ishlar amalga oshiriladi:

www.ziyouz.com kutubxonasi

1. Matn mazmuni yuzasidan o'qituvchi savollariga javob berish.
2. Hikoya matni asosidagi savol-topshiriqlarni bajarish.
3. Hikoya mazmuni yuzasidan o'quvchilarning savollar tuzishi.
4. Hikoya mazmuniga mos rasmlar chizish.
5. Hikoya matnini qismlarga bo'lish.
6. Har bir qismga sarlavha topish.
7. Hikoyaga reja tuzish.
8. Reja asosida qayta hikoyalash (to'liq, qisqartirib va ijodiy qayta hikoyalash).
9. Reja asosida bayon yozish.

Tahlilda o'qilayotgan hikoya matnining tushunarliligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. ***Tushunarlilik*** deganda yozuvchi yaratgan badiiy olamning o'ziga xosligi, obrazli tasvirning o'quvchi hayotiy tajribasi, bilim darajasiga muvofiqligi nazarda tutiladi.

Hikoyani o'rganishda savollarni, odatda, o'qituvchi beradi, ammo asar mazmuni, qatnashuvchi shaxslarning xulq-atvorini ochish yuzasidan o'quvchilarga ham savol tuzdirish juda foydali. Bu usul bolalarga juda yoqadi va ishni jonlantiradi, asar mazmunini yaxshi tushunish, o'z fikrini izchil bayon qilish malakasini egallash, mazmun va voqealar orasidagi bog'lanishni to'liq esda saqlab qolishda o'quvchilarga yordam beradi.

Hikoyani izohli o'qish darsini quyidagicha reja asosida olib borish mumkin:

1. Hikoyani o'qishga tayyorlash (hikoyadagi kabi odamlar hayoti va davrga xarakteristika berish va boshqa.).
2. Hikoyani o'qish (bunda to'liq va ma'no jihatdan tugal qismni o'qituvchi yoki oldindan tayyorlangan o'quvchi ifodali o'qishi mumkin).
3. Lug'at ustida ishlash.
4. Idrok etishni tekshirish (qatnashuvchilarning xatti-harakatlari, shaxslar va voqealar o'rtasidagi munosabatlar, badiiy vositalar yuzasidan qisqacha suhbat).
5. Hikoyani qayta o'qish (qismlarga bo'lib, rollarga bo'lib o'quvchilarga o'qitish).
6. Hikoyaning har bir bo'limi (qismi) yuzasidan suhbat uyushtirish, hikoya rejasini tuzish.
7. Reja asosida qayta hikoyalash.
8. Hikoya asosida ijodiy va mustaqil ishlar.

www.ziyouz.com kutubxonasi

9. Hikoyani ifodali o'qishga yoki sahnalashtirishga tayyorlanish (sinfda yoki uyda).

10. Hikoyani ifodali o'qish va ifodali qayta hikoyalash.

HIKOYA O'TISH DARSI NAMUNASI

Mavzu. Shirin qovunlar mamlakatida.

O'quv materiali. Qovun sayli (Sh. Sa'dulla).

Darsning turi: yangi bilim beruvchi, hikoya o'qish darsi.

Dars shakli: Noan'anaviy dars.

Asosiy masalalar. O'quvchilarning kuz faslida poliz mahsulotlarini yig'ib olishning tartib-qoidalari, dehqonchilik, xalq an'analari haqidagi tushunchalarini boyitish, qovun turlari bilan tanishtirish, o'qish malakalarini takomillashtirish.

Tayanch tushunchalar. *Qovun sayli, hashar, umbirvohi, ko'kalampish, doniyor, qizilurug', qo'zivoy.*

Darsda foydalaniladigan ta'limiy vositalar: turli qovun rasmlari, poliz mahsulotlarini yig'ib olish tasviri, test topshiriqlari.

Dars metodi: izohli o'qish, tarmoqlash, muammoli o'qitish metodi.

Darsning maqsadi: 1. O'zbekistonda yetishtiriladigan poliz ekinlari, qovun sayli haqida o'quvchilar bilimini boyitish. 2. O'quvchilarda ona-yurtimiz boyliklarini asrash, xalq an'analarini hurmatlash va davom ettirish hissini tarbiyalash. 3. Lug'atini boyitish, nutqini o'stirish, o'qish malakalarini takomillashtirish.

Identiv o'quv maqsadi:

1. Hikoya matnini to'g'ri, o'quv sur'atiga mos, ongli va ifodali o'qish.

2. Asar matni yuzasidan berilgan topshiriqlarni yakka va juft bo'lib bajarish.

3. Matn mazmunini qayta hikoyalash.

Darsning borishi

I. Da'vat bosqichi.

1. „Kuz" she'ri ifodali yod ayttiriladi va o'qitiladi.

2. O'qituvchi o'quvchilarning oldingi darslarda olgan bilimlarini mustahkamlash maqsadida kuz haqida, uning noz-ne'matlari haqida suhbat o'tkazadi.

– O'lkamizga kuz fasli kelganini nimalardan bilish mumkin?

– „Oltin fasl" matnidan tabiat tasvirini topib o'qing.

www.ziyouz.com kutubxonasi

– Kuzda qaysi sabzavot va mevalar pishadi?

– Stol ustidagi uzum rasmlarini olib, nomini ayting (kishmish, husayni, hasayni, charos, ...).

– Siz olmaning qaysi navlarini bilasiz?

– Uzum nomlarini tarmoqlash usulida ko'rsating.

Namuna:



3. Yangi mavzuni o'rganishga o'quvchilarni tayyorlash. Suhbat:

– Qovun qaysi turkumga kiradi? Sabzavotgami yoki mevalargami?

– Qovun nomlarini bilasizmi? Ularning nomlarini ham tarmoqlash usulida yozib ko'rsating.

– „Kuz" she'rini kim yozgan?

– Sh. Sa'dullaning hayoti va ijodi haqida nimalar bilasiz?

4. Sh. Sa'dullaning „Qovun sayli" hikoyasi bilan tanishtirish.

Hikoyaning birinchi darsga mo'ljallangan qismi o'qib beriladi yoki magnit tasmasi orqali eshittiriladi.

5. Kichik guruhlar bilan ishlash. O'quvchilar 4-guruhga bo'linadi. O'quvchilar 1, 2, 3, 4 deb sanaydilar. O'z raqamlari bo'yicha guruhlanib, stol atrofiga o'tiradilar.

Har bir stol atrofidagi o'quvchilarga hikoyaning qismlari bo'lib beriladi va topshiriqlar konvertlarda uzatiladi.

1-topshiriq. Guruhingizga nom qo'ying. Uni ta'riflang.

1- „Handalak" guruhi. Handalak bahor faslining oxirgi oyida erta pishadi. Odamlar uni sog'inib kutishadi. Handalak dumaloq, uning hidi yoqimli, o'tkir bo'ladi. Ustki qismi serto'r, mazasi tilni yorar darajada shirin bo'ladi.

2- „Qo'zivoy" guruhi. Qo'zivoy tezpishar tarvuz turi. U 95–100 kunda yetiladi. Unda 12 foiz qand moddasi bor. Tarvuz buyrak va sariq kasalligiga davo bo'ladi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

3- „Kishmish" guruhi. Kishmish uzumning bir turi. U qora va oq ranglarda bo'lib, danaksiz va juda shirin bo'ladi.

4. „Doniyor" guruhi. Doniyor – qovunning bir turi. U juda shirin qovun bo'lib, ustida yashil va sariq rangli yo'li bor.

II. Anglash bosqichi. Hamma guruhga bir xil topshiriq beriladi:

1-topshiriq.

– Berilgan qismni, to'g'ri va ifodali o'qishga tayyorlaning. Ma'nosi tushunarsiz so'zlarni lug'at daftaringizga yozing. Asosiy fikrni aniqlang.

2-topshiriq.

1. O'qigan qismingizni matnga yaqinlashtirib qayta hikoya qilib bering.

2. Ma'nosi tushunarsiz so'zlarning ma'nosini izohlashga harakat qiling.

3. O'z qismingizdagi ko'chma ma'noli so'zlarni toping va izohlang.

4. O'qigan qismingizga sarlavha qo'ying va daftaringizga yozing.

Guruhlar ishlaridan namunalar:

„Handalak" guruhi. Lug'at ishi:

– qovun boshiga – boshiga ko'chma ma'noda;

– bejirim – ixcham;

– serto'r – po'stida taram-taram chiziqlari bor.

Sarlavha: „Bolalik xotiralari".

„Qo'zivoy" guruhi. Lug'at ishi:

–Dasturxon yozdilar – „yozdilar" „yoydilar" ma'nosida;

– yozdi – xat yozdi – shakldosh so'zlar;

– o'choq boshi – „boshi" so'zi ko'chma ma'noda;

Savlavha: „Qovunxo'rlik".

„Kishmish" guruhi. Lug'at ishi:

– karch – qovun yoki tarvuz qismidan ko'ndalangiga kesilgan qism;

– tilni yoray deydi – ibora, o'ta shirin ma'noda;

– kosa – ko'chma ma'noda, qovunning 4 dan 1 qismi.

Sarlavha. „Tog'amning fikri".

„Doniyor" guruhi. Lug'at ishi:

– oy chiqdi – „chiqdi" ko'chma ma'noda, „ko'rindi" ma'nosida;

– quloq solinglar – eshitinglar;

– qovun dum beryapti – „pishdi" ma'nosida.

Savlavha. „Tungi voqealar".

www.ziyouz.com kutubxonasi

O'quvchilar hamma guruhning lug'atini va topgan sarlavhasini daftarlariga yozib boradilar.

O'quvchilar aniqlamagan so'zlarni o'qituvchi aytib, izohlab beradi.

Ifodali o'qish va qayta hikoyalash mashqi. Har bir guruh o'z qismini o'qib, gapirib beradi.

Rollarga bo'lib o'qitishda har bir guruhdan o'quvchilar tanlanadi. (Tog'a, muallif, Hasan, Zuhra)

III. Fikrlash bosqichi.

1. Darslikdagi savol-topshiriqlar bilan ishlash. Har bir guruh asar matni ostida berilgan 1-, 2-, 3-, 5- savollarga javob beradi. O'quvchilarga qo'shimcha savollar beriladi:

– O'zbek xalqining kuz faslida o'tkaziladigan qaysi an'anaviy bayramlarini bilasiz?

– „Qovun sayli"da qanday ishlar qilinadi?

Javob namunasi. O'zbek xalqining kuzda o'tkaziladigan „Hosil bayrami", „Qovun sayli" kabi ko'pgina bayramlari bor. „Qovun sayli" qovunlar ayni g'arq pishgan pallada o'tkaziladi. „Qovun sayli"da qovunlar aytishuvi ham bo'ladi. Bunda har bir qovun o'zini ta'riflaydi, maqtaydi. Saylga yig'ilgan odamlar qovun-tarvuzlarni uzib, yig'ib olishga yordam beradi. Bunda odamlar pishib ketgan qovunlarni so'yib, qovun qoqi qiladilar. Qishki qovunlarni osib qo'yish uchun to'rva xaltalar to'qiydilar. Bularning hammasi dehqonga ancha yordam bo'ladi.

2. Reja tuzish. Har bir guruh o'z qismiga reja tuzadi.

Reja namunasi:

1. *Tog'amning taklifi.*
2. *Cho'ldagi qovun polizlari.*
3. *Qovunxo'rlik.*
4. *Hasan va Husan chaylada.*
5. *Tungi voqealar.*

3. Reja asosida hikoyaning 1-bo'limini to'liq qayta hikoya qilish musobaqasi.

4. Test topshiriqlari ustida ishlash. Har bir guruhga konvertda test topshiriqlari beriladi.

Test namunalari:

1. Qovun nomlari berilgan qatorni toping.

A) Bo'rikalla, doniyor, bosvoldi

www.ziyouz.com kutubxonasi

B) Qo'zivoy, ko'kalampish, umrboqi
C) Charos, qizilurug', daroyi

2. *Uzum nomlari berilgan qatorni toping.*
A) Charos, buvaki, qo'zivoy
B) Hasayni, chillaki, kishmishi
C) Qizilurug', Ko'kalampish

3. *Hasan, Husan, Fotima, Zuhra qaysi asar qahramonlari?*
A) „Oltin fasl"
B) „Xarita"
C) „Qovun sayli"

4. Darsda o'rganilganlarni umumlashtirish va tarbiyaviy xulosa chiqarish.

– Fasllar va dehqonchilik bilan bog'liq qanday an'analarni bilasiz? O'zingiz shunday an'analarda ishtirok etganmisiz?

– An'analarni saqlab qolish va davom ettirish uchun nima qilish kerak?

5. Uyga vazifa. Asarning birinchi bo'limini ifodali o'qishga tayyorlanib, matn yuzasidan savollar tuzib kelish.

6. Guruhlarning to'plagan ballarini e'lon qilish. Bunda to'plangan ballar e'lon qilinadi va har bir guruhda faol ishtirok etgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

Masalni o'qish metodikasi

Masal – axloqiy, satirik va kesatiq mazmunini kinoyaviy obrazlarda aks ettirgan aksariyat kichik she'riy, ba'zan nasriy asardir. Inson xarakteriga xos xususiyatlar masalda majoziy obrazlar – hayvonlar, jonivorlar va o'simliklar dunyosiga ko'chiriladi. Timsollarning kinoyaviy xarakterda bo'lishidan tashqari, kulgili savol-javob ham masal tili va uslubi uchun xarakterlidir. Ko'pincha masalning kirish qismida, ba'zan pirovardida qissadan hissa – ibratli xulosa chiqariladi.

Adabiyot nazariyasida masalga liro-epik janrlardan biri sifatida she'riy shakldagi, majoziy xarakterdagi qisqa sujetli asar deb ta'rif beriladi. Masallarda turli hayvonlar majoziy suratda asarning qahramonlari sifatida tasvirlanadi.

Masal kichik hajmli, ammo boy mazmunli, tugun, kulminatsion nuqta va yechimi bo'lgan kichik pesani eslatadi. U biror voqea-hodisani qisqa, mazmunli tasvirlashda ajoyib namuna bo'la oladi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

„Antik adabiyotda Ezop masallari juda mashhur bo'lgan. O'z ma'nosidan ko'chirilgan (majoziy) so'z va kinoyaviy iboralar orqali qilinadigan „yashirincha" tanqidning tili va uslubi Ezopga nisbatan berilib, „Ezop tili" deyilgan va shu ta'bir joriy qilingan"[15].

Mashhur masalnavis Gulxaniyning „Toshbaqa bilan Chayon", „Maymun bilan Najjor" masallari boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshiga mos keladi. Ularda do'stlik, rostgo'ylik, qo'lidan kelmaydigan ishga urinmaslik kabi g'oyalar ilgari suriladi.

Ma'lumki, tarbiya ko'proq ta'lim jarayonida berib boriladi. Bolalarga maktabga kelgan kunidan boshlab, bilim olishga havas tuyg'usi shakllantiriladi. Ularda asta-sekin bilim olishga ehtiyoj paydo bo'ladi va bu orqali o'quvchilar ma'naviy ozuqa ola boshlaydilar. Bu bilan bolada kelajakka intilish, orzu-havas, mehnatga chanqoqlik, xayru ehsonda sofdillik, ona-Vatanga mehr-muhabbat, fidoyilik, milliy g'urur, matonat, mehr-oqibat, do'stlik, ezgulik kabi yuksak hislar paydo bo'ladi.

Jumladan, masal janridagi asarlar ham boladagi qo'pollik, qo'rslik, yolg'onchilik, yalqovlik, beparvolik kabi illatlarni bartaraf etishda yordam beradi. Lekin amaldagi boshlang'ich sinf „O'qish kitobi" darsliklarida masal janriga kam o'rin berilgan. Vaholanki, bola tarbiyasida masalning o'rni beqiyosdir. Masaldagi qissadan hissa o'quvchi matndagi e'tibordan chetda qoldirgan, yuzaki o'qib o'tib ketgan, yaxshi anglashga harakat qilmagan o'rinni, bo'shliqni to'ldiradi.

3-sinf „O'qish kitobi"dan o'rin olgan „Qaysar buzoqcha" (O. Qo'chqorbekov) masali oilasi, o'rtoqlari, do'stlaridan ajralib, yomon yo'llarga kirib qolgan, oqibatda ko'ngilsiz holatlarga tushib qolgan bolalarni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Ushbu masaldagi asosiy xulosa masal oxirida berilgan qissadan hissada, ya'ni ota-bobolarimiz yaratib, bizga nasihat sifatida qoldirgan „Bo'linganni bo'ri yer" hikmatida o'z ifodasini topgan. Bu hozirgi kunda maqol tusini olgan. Shoir esa bundan juda ustalik bilan foydalangan.

„Chumoli va Tipratikan" masali esa nasriy turga mansub bo'lib, unda Chumoli timsoli orqali bolalar halollikka o'rgatiladi, har bir narsani, u katta yoki kichik bo'lishidan qat'iy nazar, so'rab olishga, egasining ruxsati bilan foydalanishga da'vat etiladi. Masalni o'qishda bolalar Tipratikan timsoliga tanqidiy nazar bilan yondashadilar, agar

[15] Homidiy H. va boshq. Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati. – T.: „O'qituvchi", 1967. 104 – bet.

www.ziyouz.com kutubxonasi

o'zining hayotida biron-bir shunday holat-voqea yuz bersa, uni boshqa takrorlamaslikka o'rganadilar.

Masalning, avvalo, ixchamliligi, tilining qisqa va lo'ndaligi, soddaligi, o'tkirligi va xalqchilligi bola hissiyotiga qattiq ta'sir qiladi. Bular o'quvchilar nutqini o'stirishda ham muhim material hisoblanadi. Masal qahramonlarining xatti-harakatlari, fe'l-atvorlari, nutqiy o'ziga xosliklari o'quvchining diqqatini o'ziga jalb qiladi.

2-sinf „O'qish kitobi"da berilgan „O'roq va Kombayn" masalida o'roq va kombayn asar qahramonlari qilib olingan. Ularning munozarasi orqali texnikaning afzalligi: kam vaqt sarflab, samarali natijaga erishish mumkinligi hamda ularning ahil bo'lib, birgalikda mehnatga bel bog'lashlari kabi g'oyalar ilgari suriladi. Oddiy predmetlar tilga kiradi. Insonlar tomonidan aytiladigan texnika va ish qurollari haqidagi gap-so'zlar bevosita predmetlar tilidan beriladi.

3-sinf „O'qish kitobi"da „Qaysar buzoqcha" (O. Qo'chqorbekov), „Chumoli va Tipratikan", „O'jar Toshbaqa" (H. Yoqubov), „Chayondan so'radilar" kabi masallar joy olgan. Bu masallarning qahramonlari ham hayvonlar: buzoqcha, chumoli, tipratikan, toshbaqa, chayon. Majoziy qahramonlarni tanlashda ham yozuvchi har bir hayvonning xususiyatidan kelib chiqadi. Masalan, buzoqchalar arqondan bo'shatib yuborilsa, shataloq otib, uzoq-uzoqlarga ketib qoladi. Qaysar buzoqcha ham to'dasidan ajralib, bo'riga duch keladi, ya'ni ko'ngilsiz voqea yuz beradi. Buzoqcha orqali onasidan uzoqlashib ketgan bolalar, vatanidan yiroqda turli kulfatlarga duch kelayotgan kishilar nazarda tutilgan.

„Chumoli va Tipratikan" masalidagi majoziy qahramonlar ham aslida jamiyatimiz a'zolaridir. Chumoli hayotdagi halol, pok, to'g'riso'z insonlar bo'lsa, tipratikan o'g'ri, qallob birovning ustidan kuladigan kishilar timsolidir.

„O'jar Toshbaqa" masalidagi Toshbaqa hayotdagi o'jar, qaysar, o'z bilganidan qolmaydigan, ko'ngli tusaganini qiladiganlar timsolidir.

Boshlang'ich sinflarda masalni o'rganayotganda bolalarni masalni ifodali o'qishga va uning mazmunini qisqa, ba'zan bir necha so'z bilan aytib berishga, ayrim qatnashuvchilarning xarakterli xususiyatlarini aniqlab, o'zaro qiyoslashga o'rgatish muhim ahamiyatga ega.

Masalning allegorik mazmuniga to'xtalmasdan, bosh qahramon qiyofasini tahlil qilishga kirishiladi. 1-sinfda bolalar masalni hayvonlar haqidagi ertakka o'xshash kulguli asar kabi qabul qilsalar, 2-sinfdan boshlab ular masaldagi hayvonlarning xatti-harakati, o'zaro munosabatlari ba'zan kishilar hayotida ham uchrashini, masal axloqiy bilim

www.ziyouz.com kutubxonasi

beradigan hikoya ekanini, ko'proq she'riy tarzda bo'lishini, unda kishilardagi ayrim kamchiliklar tasvirlanishini bilib ola boshlaydilar.

Masallarda yashiringan o'tkir kinoya, voqealarning tez-tez o'rin almashinib turishi uni bir maromda o'qishga xalaqit beradi. Shuning uchun ifodali o'qishga yetarli malaka hosil qilmagan o'quvchi avval matn bilan yaxshilab tanishib chiqishi lozim.

Masal tahlil qilinayotganda, voqea rivojini jonli tasavvur qilish, obrazlarni aniq idrok etishda o'quvchilarga yordam berish zarur. Chunonchi, ularga ayrim epizodlarni so'z bilan tasvirlash, ba'zilariga o'qituvchi yordamida tavsif berish, ishning oxirgi bosqichida rollarga bo'lib o'qish kabilarni tavsiya qilish maqsadga muvofiq. Qahramonlarga tavsif berishda uning xatti-harakati bilan birga, tilning o'ziga xos xususiyatlaridan ham foydalaniladi. Masalni ifodali o'qishga tayyorlanishda uning sujetini bilish bilan birga, muallif tilini yaxshi tushunish zarur.

4-sinf „O'qish kitobi"da berilgan Sh. Sa'dullaning „Laqma it" masalida it markaziy timsol sanaladi. Mushuk, sigir, xo'roz, tovuq va kurkalar timsolini it birlashtirib turadi. Shuning o'ziyoq it xarakterini ochish uchun uning atrofidagi timsollarning xarakter xususiyatini bilishni talab etadi.

Mushukning it haqidagi so'zlarini matndan toptirib o'qitish itning xususiyatini ochib beradi:

Ajab bo'ldi .... uy qurmading.
O'z va'dangda sen turmading.
Yozi bilan laqillading.
Meni ko'rsang akillading.

Sigirning it haqidagi quyidagi so'zlarini ham matndan topib o'qitish orqali itning boshqa xususiyati ochiladi:

– Menga bundoq hiyla qilma
Sigirlarni axmoq bilma....
Uyda yotding oyoq cho'zib
Sog'in sutni hadeb buzib.

So'ng o'quvchilarga itga xos xususiyatlarni ochuvchi so'z va iboralarni toptirib ayttiriladi. Shu tariqa o'quvchilar o'qituvchi yordamida itga tavsif beradilar. So'ng boshqa timsollar ustida ishlanadi. Bunda taqqoslash usulidan foydalaniladi. Mushukning yaxshi xislatlari sanaladi. Bu kabi tavsiflar sigir, xo'roz, tovuq, kurkalarga ham beriladi. Qahramonlarga tavsif berish matn ustida ishlash orqali amalga oshiriladi. Yozuvchi foydalangan til vositasida o'quvchilar qahramonlarga

www.ziyouz.com kutubxonasi

tavsif berishga o'rganadilar, ularning tili ham yangi so'zlar bilan boyiydi. O'quvchilarni tavsif berishga o'rgatish uchun o'qituvchining o'zi qahramonni xarakterlovchi so'z, iboralarni tavsiya qiladi. Ular ichiga masaldagi timsollarga xos bo'lmagan xususiyatlarni ifodalovchi so'z, iboralar kiritib qo'yiladi. O'quvchi ular ichidan mosini tanlab olish jarayonida mantiqan fikrlaydi. Bu so'z va iboralar esa bolalar nutqiga ko'chadi.

4-sinf „O'qish kitobi"da berilgan „Baqa bilan Taqa" (Aziz Abdurazzoq) masalida baqa timsoli orqali yozuvchi o'ziga mos bo'lmagan, o'ziga to'g'ri kelmaydigan narsalarni orzu qilish va bu orzuni amalga oshirishda boshqalarning maslahati, nasihatiga quloq solmay, o'z aytganidan qaytmaydigan, o'jar kishilarni tanqid ostiga oladi. Baqa otlar kabi taqa bilan tovush chiqarib yurishni, yurganda yerni jaranglatib, odamlarga bu dunyoda o'zining borligini bildirib yashashni istaydi. U taqachining „Taqani o'ylama, uni otga chiqargan, senga taqa qoqsam, sakrashdan mahrum bo'lasan... Sen taqa bilan yo'rg'alay olmaysan. Yo'rg'alashni ham otga chiqargan", „Sen borligingni bildirib yurmoqchi bo'lsang, sayrab yuraver" deyishlariga quloq solmaydi. Bu o'jarlik uning boshiga kulfat keltiradi: suv tagiga cho'kib ketadi. Yonidagi baqalar bo'lmaganda halok bo'lishi ham tayin edi. Kech bo'lsa ham baqa xatosini anglab yetadi, taqachi oldida xijolat chekadi. Bu holatlar o'quvchini o'z hayotiga, xatti-harakatiga bir nazar tashlashga undaydi. Ular o'z tengqurlari kabi yashash kerakligini anglaydilar.

Shunday qilib, masal ustida ishlash quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

— *masal mazmunini aniq idrok etish;*

— *kompozitsiyasi, qatnashuvchilarning xarakteriga mos xususiyatlarini, xatti-harakatlarining sabablarini ochish;*

— *allegoriyani aniqlash;*

— *masal xulosasini tahlil qilish.*

Mana shu izchillik hisobga olinsa, masal o'qish darsining qurilishi quyidagicha bo'ladi:

1. Tayyorgarlik ishlari:

a) masal muallifi haqida o'qituvchi hikoyasi;

b) o'qilgan masal mazmuni bilan bog'liq suhbat;

d) o'qilgan masalda qatnashuvchi timsollarga xos xususiyatlar haqida suhbat.

2. Masalni o'qituvchi o'qishi (magnitafon yozuvini eshitish yoki film ko'rsatish ham mumkin).

www.ziyouz.com kutubxonasi

3. Masal matni ustida ishlash:

a) masalning tuzilishi va kompozitsiyasini aniqlash (o'qish, reja tuzish va hokazo);

b) qatnashuvchilarning xatti-harakati, fe'l-atvori, xarakteriga xos xususiyatlarini tushuntirish (tanlab o'qish, so'z bilan va grafik tasvirlash, savollarga javob berish);

d) masalning aniq mazmunidan kelib chiqib, undagi asosiy fikrni belgilash;

e) krossvordlar, ta'limiy o'yinlar, topishmoqlardan foydalanib, masal mazmuni va g'oyasini o'zlashtirish.

4. Allegoriyani ochish.

5. Axloqiy xulosa aks ettirilgan qismni tahlil qilish.

6. Hayotda uchragan shunga o'xshash hodisalarga taqqoslash.

She'rni o'qish metodikasi

She'r ohang jihatidan ma'lum bir tartibga solingan, his-tuyg'u ifodasi sifatida vujudga kelgan hayajonli ritmik nutqdir. She'riy nutqni ohang jihatidan ma'lum bir tartibga solish vositalari ritm (bir-biriga monand kichik bo'laklarning izchil va bir me'yorda takrorlanib kelishi) va qofiya (misralarning oxirida keladigan ohangdosh so'zlar) hisoblanadi.[16]

She'rni o'qiganda kichik yoshdagi o'quvchilar tabiat va jamiyat voqea-hodisalarining poetik tasviridan hayajonlanishlari muhim ahamiyatga ega. Boshlang'ich sinflarda she'r tarzida yozilgan hikoyalar, ertaklar, ya'ni she'riy asarlar va lirik she'rlar o'qitiladi.

She'riy hikoya, she'riy ertaklarda sujet, ya'ni voqealar tizimi va uning rivoji xarakterlidir. Lirik she'r „biror hayotiy voqea-hodisa ta'sirida insonda tug'ilgan ruhiy kechinma, fikr va tuyg'ular orqali turmushni aks ettiradi". Lirik she'rning xususiyati „kishining his-tuyg'uga to'la hayajonli nutqini ta'sirliroq ifodalashda qo'l keladi"[17].

She'rni o'qish darslarida asosiy ish turi ifodali o'qish hisoblanadi. O'quvchi she'rning asosiy mazmunini tushunsagina, uni ifodali o'qiy oladi.

She'riy hikoyani tahlil qilishda, asosan, hikoya, ertak, masalni tahlil qilishda qo'llangan ish turlaridan foydalanish mumkin.

---

[16] Homidiy H. va boshq. Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati. – T.: „O'qituvchi", 1967. 92-bet.

[17] O'sha asar, 93-bet.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Lirik she'rni o'qish va tahlil qilish o'qituvchidan katta mahorat talab qiladi. Holbuki, ko'p hollarda she'rga oddiy matn nuqtai nazaridan yondashiladi. Bunday holda she'riy san'at hissiyot bilan bog'liq ekanligi unutiladi, she'r ma'nosining satrlar, so'zlar zaminida yashirin berilishi anglab yetilmaydi. Buning oqibatida o'quvchilar she'rdagi obrazlilikning mag'zini chaqa olmaydilar. Vaholanki, har qanday asar zaminidagi yashirin ma'noni uqish mehnattalab ishdir. Busiz hatto adabiy ta'limning maqsadi ham amalga oshmaydi.

She'riy ohangni his qilmaslik, matndagi so'zlarning ma'nosini to'la tushunib yetmaslik she'r yodlashni zerikarli mashg'ulotga aylantiradi. Ma'nosi anglanmagan matnni yodlash oson kechmaydi. Buni deyarli barcha sinflarda o'rganiladigan „O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi" misolida ko'rish mumkin. Ma'lumki, madhiya kichik yoshdagi bolalarga mo'ljallab maxsus yaratilmaydi. Binobarin, uning matnidagi „hur o'lka", „to abad", „ilm-u fan", „shuhrating", „ajdodlar", „mardona ruhi senga yor", „o'chmas iymoni", „istiqlol mash'ali", „tinchlik posboni", „haqsevar ona yurt", „mangu bo'l obod", „jo'sh urgan" kabi ko'pdan-ko'p so'zlar, iboralar o'quvchilarga izohlab tushuntirilmasa, ta'limdan ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi.

4-sinfda Q. Hikmatning „Qish to'zg'itar momiq par" she'rini o'rganishda albatta tabiat manzaralarini izohlash talab etiladi. She'rni o'qishdan oldin unda tasvirlangan yil fasllari haqida suhbat o'tkaziladi yoki she'r mazmunini tushunish uchun o'quvchilar bilishi lozim bo'lgan voqealarni o'qituvchi qisqa qilib aytib beradi.

Ma'lumki, qish fasli go'zal ko'rinishi bilan odamda yoqimli tuyg'ular uyg'otadi. Qishda bolalar chana uchish, qorbobo yasash, qorbo'ron o'ynashdan olam-olam zavq oladilar. Qishdagi sof va toza havogina emas, oppoq qorga burkalib turgan daraxtlar, dala-bog'lar kishida ajib bir kayfiyat uyg'otadi.

„Qish to'zg'itar momiq par" (Qudrat Hikmat) she'rini o'rganish jarayonida agar qor yog'magan bo'lsa, ayni manzara tasvirlangan rasmlardan foydalanish ham mumkin. Qish fasli haqida gapirilar ekan, albatta, „kumush" sifati qo'shib aytiladi. Bu shu fasl hukmronligi davridagi manzaraga, qorning oppoq bo'lib tovlanishiga, ko'zlarni qamashtirishiga ishoradir. Ushbu she'rni o'rganish darsi dastlab o'quvchilarning qish fasli haqidagi tushunchalarini aniqlashdan boshlanadi. Qishning o'ziga xos belgilari, qishda o'ynaladigan o'yinlar, qish manzarasi yuzasidan savol-javob o'tkaziladi. O'quvchilarning qish faslida sovuq bo'lishi tufayli ayrim qushlarning o'lkamizni tark

www.ziyouz.com kutubxonasi

etib janubga uchib ketishlari, qishda sovuqqa mos issiq kiyimlarning kiyilishi haqidagi tushunchalari aniqlashtirilib, to'ldiriladi. Shundan so'ng o'qituvchi she'rni ifodali o'qiydi.

Boshlang'ich sinflarda ko'rgazmali ta'limning asosiy shakli she'rni ifodali o'qish hisoblanadi. Lirik she'rni ham o'quvchilar hayajon bilan yaxlit idrok etishlariga erishish muhim. Shuning uchun she'r birinchi marta o'qilganda, hech qanday tushuntirish berilmaydi. She'r o'quvchilarga qanday ta'sir qilganini hisobga olish, bilish zarur. O'qituvchi she'rni shunday ifodali o'qishi kerakki, bolalar uning asosiy mazmunini anglasinlar, ularga jonli so'z kuchliroq ta'sir etsin. So'ngra she'rni mustaqil o'qish topshiriladi. O'qish oddiy bo'lishi kerak. O'qiyotganda tabiiy zavq-shavq, shodlik, xursandlik, qahr-g'azab hissini qichqiriq ovoz bilan soxta ifodalashga yo'l qo'ymaslik zarur. Bolalar she'rni o'qiganda, she'riy satrga rioya qilishlari, bu jarayonda ularning she'r ritmini buzmasliklariga erishish kerak.

O'quvchilar she'r matnini mustaqil o'qiyotganlarida xattaxtaga ma'nosi izohlanadigan so'zlar yozib qo'yiladi. Masalan, „Qish to'zg'itar momiq par" she'ri o'rganilganda „to'zg'itar", „momiq par", „oq namat", „nazdimda", „zarra" so'zlari izohlanadi. Shundan so'ng, she'r o'quvchilarga navbat bilan o'qittiriladi, uning mazmuni yuzasidan savollar asosida suhbat o'tkaziladi. Bunda quyidagicha savollar berilishi mumkin: „She'rda qaysi fasl tasvirlangan ekan?", „Shoir qor yoqqan joylarni nimaga o'xshatadi?", „She'rda qor yog'ishi nimaga qiyoslangan?", „Shoir qorga qanday murojaat qiladi?". O'qituvchi berilgan javoblarni to'ldirib, o'quvchilarning qish fasliga doir tushunchalarini boyitadi.

„Qish" (Tursunboy Adashboyev) she'rining hajmi unchalik katta emas. Lekin u qishda hayvonlar hayotida ro'y beradigan o'zgarishlarni bilib olishga yaqindan yordam beradi. Bu she'rni o'qishdan oldin ham o'quvchilar bilan savol-javoblar o'tkaziladi. O'quvchilar diqqati hayvonlarning qishdagi hayotiga qaratiladi. Masalan, qishda yovvoyi quyonlarning rangi o'zgarib, qorda o'zini dushmandan himoya qiladigan oq rangga kirishi, ayiqning o'siq yunglari sovuqda yashashga qo'l kelishi to'g'risida tushuncha beriladi. She'r matni bilan tanishishdan oldin xattaxtaga „ayoz", „quyruq", „so'qmoq", „piyma", „po'stin" „pahmoq" so'zlari yozilib, ma'nosi izohlanadi. She'rni navbat bilan o'quvchilarga to'rt-besh marta o'qitilganidan keyin uning mazmuni yuzasidan savol-javob o'tkaziladi. She'rning to'la mazmuni uch-to'rt o'quvchiga gapirtiriladi, ularning fikr-mulohazalari to'ldiriladi. Maz-

www.ziyouz.com kutubxonasi

kur mavzuni o'rganish jarayonida maktab atrofiga sayohat uyushtirish ham mumkin. Qishda qor bosgan dalalarni, tomlarni, daraxtlarni, odamlarning va qushlarning qishdagi hayotini kuzatish o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va nutqining ifodali, sermazmun bo'lishi uchun boy material beradi.

O'quvchilar barglari to'kilib, sovuqda qor bosib turgan daraxtlarni ko'rar ekan, shu holatni ifodalagan „qor ko'rpasiga o'rangan yalang'och daraxt" yoki „sovuqda mudrayotgan daraxt" kabi iboralarni topishga harakat qiladi, bu esa o'quvchilarning lug'at boyligining oshishiga xizmat qiladi.

She'r matni ham savollar asosida tahlil qilinadi. Ammo, she'r mazmuni haqida o'quvchilarga ko'p savol berish tavsiya etilmaydi. O'quvchilar she'rning asosiy mazmunini tushunganliklariga ishonch hosil qilishning o'zi kifoya. Shuni ham aytish kerakki, bolalar hayoti, ularning o'ziga xos fikrlari, his-tuyg'ulari, qiziqishlarini ifodalovchi, shuningdek, zamonamiz qahramonlari, o'zbek xalqi, Vatan himoyasi, xalqimizning qahramonona ishlari haqidagi she'rlar mazmunini to'liqroq tahlil qilish talab etiladi. Bunday she'rlarni o'qishga maxsus tayyorlaniladi: she'r mazmuniga asos bo'lgan tarixiy voqea haqida qisqacha so'zlab beriladi yoki suhbat o'tkaziladi.

Boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan ko'pgina she'rlarni tahlil qilib, ifodali o'qish mashq qilingach, ifodali yod aytib berish vazifasi topshiriladi.

She'riy nutq yengil yodlab olinadi, bolada estetik his-tuyg'u uyg'otadi. Kichik yoshdagi o'quvchilar saviyasiga mos bolalarbop ravshan til bilan yozilgan sodda ritmli jarangdor she'rlarni bolalar tez va oson yodlab oladilar.

Kichik yoshdagi o'quvchilarga she'rni qanday yodlash kerakligi o'rgatiladi. Buning uchun o'qituvchi o'quvchilar bilan she'rni teng satrli bir necha qismga bo'ladi. O'quvchilarga har bir satr oxirida pauza (to'xtam) qilish, buning uchun satr oxirida tinish belgisi bo'lishi shart emasligi, ritmik to'xtamda ovozni nuqtadagi kabi pasaytirmaslik lozimligi, bu tugallanmagan fikrni davom ettirishga imkon berishi tushuntiriladi va bo'lingan qismlar navbati bilan yodlatiladi.

Epik (voqeiy) she'rlar yoki she'riy usuldagi adabiy ertaklar kishilar hayotida yuz bergan yoki yuz berishi mumkin bo'lgan biror voqeani umumlashtirgan holda ifodalash bilan hikoyalarga o'xshaydi. Voqealarni ifoda etuvchi vositalarning ohang jihatdan tartibga solinishi, kichik bo'laklarning izchil va bir me'yorda takrorlanishi, misralarda

www.ziyouz.com kutubxonasi

ohangdosh so'zlarning qo'llanishi bilan she'riy nutq sanaladi. Shu sababli bunday asarlarni o'rganishda she'r va hikoya ustida ishlash metodikasidan foydalaniladi.

Epik she'rlarni o'qishga o'quvchilar alohida tayyorlanadi, ularda ifoda etilgan voqealar yuz bergan davr haqida tasavvur hosil qilinadi. Bunday she'rlarning mazmuni qay darajada o'zlashtirilganligiga ham alohida e'tibor qaratilishi lozim. Bunda ta'limiy vositalardan bo'lgan rasmlardan foydalanish yaxshi samara beradi. Asar matni ustida ishlashda uni qismlarga bo'lish, har bir qismdagi asosiy fikrni aniqlash, reja tuzish va qayta hikoyalash, qahramonlarga tavsif berish va tarbiyaviy xulosalar chiqarish kabi tahliliy ishlar amalga oshiriladi.

Epik she'rlarning nasriy asarlar kabi tuguni, kulminatsion nuqtasi, yechimi mavjud bo'ladi. Shu sababli asar mazmuni savol-topshiriqlar orqali tahlil qilinadi. Savol-topshiriqlar o'quvchilar tomonidan ham tuzilishi mumkin.

Bunday she'rlarni tahlil qilish asar voqealarini hamda qahramon holatlarini o'quvchi ko'z oldida yaqqol gavdalantirish imkonini beradi. Bunda ayrim epizodlarga rasmlar ham chizdirish mumkin.

Epik she'rlarning badiiy til vositalari ma'nolarini ochish, ohangdosh so'zlarni aniqlash, band va misralar, bo'g'inlar sonini belgilash, ifodali o'qish, ayrim epizodlarni yod oldirish kabi ish turlari qo'llansa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

4-sinf „O'qish kitobi"da „Mardlik va aql yorug'ligi" (M.A'zam), „Dehqonbobo va o'n uch bolakay qissasi", „Sharq hikoyasi" (A.Oripov), „Har kim ekkanin o'rar" (M.Abdurashidxonov), „Pop va uning xizmatkori Balda haqida ertak" (A.S.Pushkin), „Bo'rining tabib bo'lgani haqida ertak" (A.Obidjon) kabi epik she'rlar berilgan. Bu asarlar ustida ishlashda ham yuqorida ta'kidlab o'tilgan ish turlaridan foydalanish kerak.

She'rni izohli o'qish darsining tuzilishi quyidagicha bo'lishi mumkin:

1) she'r mazmunini yaxlit idrok etish uchun uni ifodali o'qib berish (birinchi sintez);
2) she'rda tasvirlangan payt, hodisa haqida suhbat (analiz);
3) she'rni ifodali o'qishni mashq qilish (ikkinchi sintez);
4) she'rni yod aytib berishga tayyorlanish;
5) epik (voqeiy) she'rlar ustida ishlash;
6) she'rdagi notanish so'zlar ustida ishlash.

www.ziyouz.com kutubxonasi

SHE'R O'QISH DARSI NAMUNALARI

1-dars namunasi:

Mavzu. Qor – hayot suvi.

O'quv materiali. Qish to'zg'itar momiq par (Qudrat Hikmat).

Darsning maqsadi:

1. O'quvchilarni she'rni ifodali o'qishga, she'r matni ustida ishlashga o'rgatish; shoirning qish fasli xususiyatlarini she'r orqali tasvirlashdagi mahoratini ochib berish; o'quvchilarning qishning xususiyatlari, qorning hayot uchun foydasi haqidagi tushunchalarini boyitish.

2. O'quvchilarning lug'atiga *bulut to'shagi, momiq par, oq namat (qor), izg'irin, hovuz, mo'rkom, surunkasi, fayz bermoq, oq choyshab* kabi so'z va ibora, tasviriy ifodalarni kiritish.

3. O'quvchilarning mustaqil ishlash, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini oshirish.

4. Tabiatni sevish, uning ehsonlarini qadrlashga o'rgatish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, lirik she'r o'rganiladigan dars.

Darsda qo'llaniladigan metodlar: izohli o'qish, mustaqil ish metodi, tarmoqlash metodi.

Darsning jihozi: qish fasli tasvirlangan rasmlar, Q. Hikmat portreti, shoir haqidagi ma'lumotlar yozilgan ko'rgazma.

Darsning borishi

1. O'quvchilarda yangi mavzuni o'rganishga qiziqish uyg'otish, topishmoq aytish yo'li bilan bugungi darsning mavzusini aniqlashtirish:

Oppoqqina dasturxon
Yer yuzini qoplagan. (Qor)
Bostirdim ikki tovuq,
Biri issiq, biri sovuq. (Yoz, qish)

Savol: Bugungi o'qish darsimiz qaysi mavzu haqida ekan?

2. Qish fasli haqida kirish suhbati. Xattaxtaga qish fasli tasvirlangan rasmlar ilinadi va savollar beriladi:

– Yil qaysi fasl bilan boshlanadi?

– Qish fasli haqida nimalarni bilasiz? Rasmlardan foydalanib so'zlang.

– Qish bekorchilik faslimi?

Qor haqidagi afsona qisqa so'zlab beriladi: Qadimda osmondan un yog'ilar ekan. Odamlar o'z ehtiyojlariga yarashasini olib, uylariga olib kirar ekan. Qishloqda bir ochko'z boy unlarning o'ziga keragidan ham

www.ziyouz.com kutubxonasi

ortig'ini qoplab o'z uyiga tashiy boshlabdi. Hatto yer yuzini chegaralab olibdi. O'z yerim degan joylardagi unlarni boshqalarga bermabdi. Shunda osmon-u qish va bulutlarning jahli chiqib, unlarni muzdek qorga aylantirib qo'yishibdi.

Savol: Tabiatda ranglar har xil. Siz qaysi ranglarni yaxshi, yoqimli deb hisoblaysiz?

3. O'quvchilarning qish fasli haqidagi tushunchalarini aniqlash. Buning uchun qish fasliga xos xususiyatlarni aytish topshirig'i beriladi. O'qituvchi tarmoqlash usulida yozib boradi:



4. Xattaxtaga „Qish to'zg'itar momiq par" (Qudrat Hikmat) deb yoziladi. O'qituvchi savol beradi va javoblarni umumlashtirib, to'ldiradi:

– She'r muallifi kim ekan? U haqida nimalarni bilasiz?

O'qituvchi hikoyasi. Qudrat Hikmat – iste'dodli bolalar shoiri. U qisqa umr ko'rgan. Shoir o'z ijodini kichkintoylarni ilmga ishtiyoq, ona-Vatanga, jonajon yurtimizga sadoqat ruhida tarbiyalashga bag'ishlagan.

Qudrat Hikmat 1925-yilda Toshkent shahrida kambag'al dehqon oilasida tug'ildi. Birinchi she'rlari 1945-yilda bolalar gazetalarida bosildi.

1960-yildan boshlab bolalar nashriyotida ishladi.

Uning „Mening Vatanim" (1950), „Baxtli bolalar" (1952), „Obodlik" (1953), „Do'stlik" (1954), „Rodnoy Uzbekistan" (1955)

www.ziyouz.com kutubxonasi

kabi qator she'riy to'plamlari nashr etilgan. Keyinchalik „Ilonshoh va uning amaldori ari haqida ertak" (1963), „Soatjonning soati" (1964), „Toshbaqalar hujumi" (1965), „Daydi bola", „O'g'lim bilan suhbat" kabi kitoblari bosilgan.

Kitoblari ko'rsatiladi. Ularni o'qishga da'vat etiladi.

O'qituvchi shoirning biror she'ridan parcha o'qib berishi ham mumkin. Masalan:

Tinchlik haqida qo'shiq

Tinchlik juda soz,
To'kin-sochin yoz.
O'q tovushi chiqmas,
Yangrar do'stlik, soz.
– Bo'lsa-chi urush
O't tushar har yon.
Tinch, shirin turmush,
Bo'ladi vayron.

5. She'r bilan tanishtirish. O'qituvchi she'rni ifodali o'qib (yoki yod aytib) beradi.

6. She'r yuzasidan kirish suhbati.

– She'r nima haqida ekan?

– She'rdagi qaysi jumlalar sizga juda yoqdi? Nima uchun?

7. She'rni ichda o'qish.

8. She'rni topshiriqlar asosida o'qitish.

– Birinchi to'rtlikni o'qing. Unda qaysi so'z va iboralar o'z ma'nosida qo'llanmagan? Ularning qaysi ma'noda qo'llanganini izohlashga harakat qiling.

– Quyidagi to'rtlikning qaysi misralarida jonlantirish qo'llangan? Jonlantirish deganda nimani tushunasiz?

Mahalla-ko'y ko'chada
Chuvurlashib qor kurar,
Esib sovuq izg'irin:
– Tezroq yur! – deb buyurar.

– Quyidagi to'rtlikning keyingi ikki misrasidagi so'zlarning ma'nosini tushuntirishga harakat qiling.

Pirpiratib ko'zini
Avtobuslar o'tadi.
Qahraton qish hovurni
Mo'rkon kabi yutadi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Mustaqil ish. ***1-topshiriq:*** She'rni ichingizda qayta o'qing. Qaysi misrada o'xshatish borligini aniqlang.

O'quvchilar:

Tomlar kiydi oq qalpoq
Hovlilarda sen tepa.
Osmon elak, nazdimda,
Shahrimizga un separ.

– Oxirgi to'rtlikdagi *„O'ra kumush choyshabga"* misrasida ham o'xshatish bor.

2-topshiriq: She'rni yana ichingizda o'qib, qorga berilgan buyruqni toping.

O'quvchilar:

Yetar shuncha yoqqaning
Uzoq dala, qirga bor! (buyruq)

Vodiylarga fayz berib
Gullat bog'-u rog'ini. (buyruq)

O'ra kumush choyshabga,
O'lkamning har yog'ini.

3-topshiriq: Jonsiz narsalar she'rda jonli qilib ifoda etilgan misralarni toping.

Ular seni kutmoqda
Har zarrangga bo'lib zor.
Savab bulut to'shagin
Qish to'zg'itar momiq par – misralarida qaysi badiiy vosita qo'llanganini ayting.

9. She'rdagi qahramonlar ustida ishlash. Savollar beriladi:

– She'rda nimalar haqida gap boryapti?

– Ularni she'rdagi qahramonlar deyish mumkinmi? Nima uchun?

– O'ylang, she'rda nechta qahramon bor? Ular qaysilar? (Qish, izg'irin, avtobus, osmon)

– She'rda kim g'orga qarata gapiryapti? (Shoir)

– Shoirning qorga qarata aytgan gaplarini o'qing.

10. Darslikdagi savol-topshiriqlar ustida ishlash.

Osmon elak nazdimda
Shahrimizga un separ...
O'ra kumush choyshabga
O'lkamning har yog'ini, – deganda shoir nimalarni nazarda tutadi?

www.ziyouz.com kutubxonasi

11. Uyga vazifa. She'rni yod oling. She'r mazmuniga mos rasm ishlang.

Ijodiy ish uchun topshiriq: She'rdan olgan taassurotingizdan foydalanib, *qish, qor, sovuq* haqida 4-5 gapli matn tuzing. Matningizda she'r matnidagi quyidagi so'z va iboralardan foydalaning: *momiq par, oq choyshab, qahraton qish, osmon elak, qor zarralari, izg'irin, fayz beradi, oq kiyimda.*

Namuna: Qahraton qish kunlari edi. Osmon elak kabi qor zarralarini yerga elardi. Yer bir zumda oq choyshabga o'raldi. Daraxtlar qordan oq kiyim kiydi. Bu qishlog'imizga fayz berib turardi.

12. Yakunlovchi suhbat.

– Darsda qanday she'r bilan tanishdingiz?

– Biz bugun qish fasli haqidagi she'rni o'qidik. Buning go'zal elchisi – qor haqida, uning yog'ishidagi go'zal manzaralar bilan, uning foydasi bilan tanishdik.

– Tabiatning ehsonlariga qanday munosabatda bo'lish kerak ekan?

– Qor, qish haqida qanday topishmoqlarni bilasiz? Maqollardan-chi?

Dars yakunida faol ishtirok etgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

2-dars namunasi:

Mavzu: Bahor uyg'onish fasli.

O'quv materiali. Bahor (Qudrat Hikmat).

Darsning maqsadi:

1. O'quvchilarning bahor faslida tabiatda, hayvonot va qushlar hayotida bo'ladigan o'zgarishlar haqidagi bilimlarini boyitish.

2. Bahor faslida tabiatni kuzatishga, undagi o'zgarishlarni payqab olishga o'rgatish.

3. Tabiatni sevish, asrash, uning gullab-yashnashi uchun hissa qo'shishga yo'llash.

4. O'quvchilar nutqini yangi so'zlar bilan boyitish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, she'r o'qish darsi.

Dars shakli: noan'anaviy dars.

Dars metodi: kichik guruhlar bilan ishlash, mustaqil ish metodi, suhbat metodi, tarmoqlash metodi.

Darsning jihozi: korton qog'oz, rangli flomaster, gul, qushlar rasmi, tabiiy hodisalar tasviri.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Darsning borishi

Tashkiliy qism. Sinf o'quvchilari 4 guruhga ajratiladi.

I. Da'vat bosqichi. Maqsad: o'quvchilarning bahor fasli, undagi hayot haqidagi tushunchalarini aniqlash, yangi mavzuni o'rganishga tayyorlash va qiziqish uyg'otish.

Metod: mustaqil ish metodi.

1. O'quvchilar guruhiga o'tilgan mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar yozilgan kartochka solingan konvertlar beriladi.

Savol-topshiriqlar:

1-guruh uchun: – Bahor fasli haqida qaysi asarni o'qib keldingiz? Unda tabiatdagi ob-havo o'zgarishlari qanday tasvirlangan? So'zlab bering.

– *Nasim, firdavs* so'zining ma'nosini izohlab bering.

– „Bahor ta'rifida" matnining 1-qismini ifodali o'qib bering.

2-guruh uchun: – „Bahor ta'rifida" asarida yerning yuza qismidagi, dov-daraxtlardagi o'zgarishlar qanday tasvirlanadi? So'zlab bering.

– „Chin" so'zining ma'nosini izohlab bering.

– Asarning 2-qismini ifodali o'qib bering.

3-guruh uchun: – Qushlar hayoti qanday tasvirlanadi? Shularni so'zlab bering.

– Kaklik, oqqush, o'rdak kabi qushlarni rasmlar ichidan tanlab ko'rsating.

– Asarning 3-qismini ifodali o'qib bering.

4-guruh uchun: – Hayvonlar harakati qanday tasvirlangan? Shu o'rinni hikoya qilib bering.

– Jayronning rasmiga qarab, uning tashqi ko'rinishini tasvirlang.

– Asarning 4-qismini ifodali o'qib bering.

O'quvchilar to'plagan ballar e'lon qilinadi.

2. Badiiy til vositalari ustida ishlash.

O'qituvchi: – Bugun darsda daraxtdagi olmalardan uzishga ruxsat beraman. Faqat uning orqasiga yozilgan savol-topshiriqni bajarsangiz, olma sizniki bo'ladi va uni o'z savatchangizga solasiz.

Har bir guruhdan o'quvchilar navbat bilan chiqib olmalardan oladi va shu vaqtning o'zidayoq savollarga javob beradi.

Savol-topshiriqlardan namunalar:

– O'qing. Qanday badiiy vosita qo'llanganini ayting.

„Uyquga kirgan daraxtlar yana yashil to'n kiydi, oq, sariq, ko'k, qizil rangli yoping'ichlar bilan bezandi".

– O'qing. Qanday badiiy vositalar qo'llanganini ayting.

www.ziyouz.com kutubxonasi

„Bo'z yer yuziga yashil parda tortdi, go'yo Xitoy karvoni Chin hariri ipak matolarini har tomonga yoydi".

– O'qing. Qanday badiiy vosita qo'llanganini ayting.

„Qora qarg'a tumshug'ini ko'pirtirib qag'illaydi, uning ovozi tantiq qizning ovozi kabi yoqimsizdir".

– O'qing. Qanday badiiy vosita qo'llanganini ayting.

„Mag'rur turnalar ko'kda ovozini baralla yangratmoqda, tizilgan tuya karvonidek uchmoqda".

Guruhlar bali e'lon qilinadi.

3. Matnni topshiriqlar asosida o'qitish.

– „Bahor ta'rifida" matnini o'qing. Undan ko'chma ma'noda qo'llangan so'zlarni toping (*Bahor nafasi, firdavs yeli, o'z hukmiga, harir yoping'ich, har tomonga yoydi, kaklik kulmoqda, gullar yuz ochib, qah-qah urib kulmoqda* kabi).

Guruhlarning bali e'lon qilinadi.

4. Bahor fasli haqida o'quvchilar tushunchasini aniqlash.

– Bahor fasliga xos xususiyatlarni tarmoqlash usulida ifodalang, uni doskaga iling va izohlab bering.

– „Bahor" she'ri muallifi Qudrat Hikmat haqida nimalar bilasiz? Og'zaki gapirib berishga tayyorlaning. Shoirning qaysi she'rlarini yod bilasiz? (O'quvchilar „Qish to'zg'itar momiq par" she'rini aytishadi)

O'qituvchi hikoyasi:

Q. Hikmat bolalar uchun she'rlar yozgan. Shuning uchun bolalar shoiri deb aytishadi. U Toshkentda tug'ilgan. Pedagogika oliygohida o'qigan. U atigi 43 yil yashagan. Lekin bolalar uchun ko'plab she'riy to'plamlarni yaratgan. Uning „Mening Vatanim", „Baxtli bolalar", „Uch o'rtoqning sovg'asi", „Soatjonning soati", „O'g'lim bilan suhbat" to'plamlari bor.

Guruhlarning bali e'lon qilinadi.

II. Anglash bosqichi.

Maqsad: „Bahor" asari orqali o'quvchilarning bahor tabiati, qushlarning hayoti haqidagi bilimlarini boyitish, ifodali o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish.

O'quvchilar nutqiga *„mayin shamollar", „soyabon tollar", „tong yellari", „o'tlar tebranar", „ko'kni quchgan teraklar"* iboralarini kiritish.

Metod. Mustaqil ish metodi.

1-topshiriq. She'rni ichingizda o'qing. Ifodali o'qib berishga tayyorlaning.

www.ziyouz.com kutubxonasi

O'qish uchun 1–2 daqiqa beriladi. So'ng har bir guruhdan 4–5 o'quvchiga o'qitiladi. Ular baholanib boriladi, guruhning ifodali o'qish bo'yicha umumiy bali e'lon qilinadi.

2-topshiriq. Darslikdagi savol-topshiriqlar ustida ishlang. Har bir guruh o'z ichida savol-topshiriqlarni bo'lib olib, tayyorgarlik ko'rsin.

Tayyor o'quvchi joyidan turib javobini aytaveradi. Guruhlar bir-birining javobini to'ldiradi.

III. Fikrlash bosqichi.

Maqsad: O'quvchilarning mavzu yuzasidan olgan bilimlarini, hayotda ko'rgan-kuzatganlarini, eshitganlari bilan bog'lab ifodalab berishga o'rgatish. Dars taassurotlarini eshitish orqali keyingi darsning vazifalarini rejalashtirib olish.

Metod. Suhbat metodi.

Savollar:

– Bugungi darsda nimalarni bilib oldingiz?

– She'rni o'qishdan oldin bahor, uning ob-havosi, tabiat ko'rinishi, qushlar hayoti haqida nimalarni bilar edingiz?

– Bugungi darsda qanday qiyinchiliklarga duch keldingiz?

– Dars sizga yoqdimi?

– Sizningcha, darsda qaysi guruh faol ishtirok etdi?

O'quvchilarning fikri umumlashtirilib, guruhlar to'plagan ballar va ayrim faol o'quvchilarning bahosi e'lon qilinadi.

Uy vazifasi: She'rni yod olish. She'r mazmuniga mos rasm chizish.

Maqol o'rganish metodikasi

Maqol turmush tajribalari zaminida tug'ilgan va xalq donoligini ifodalagan qisqa, ko'pincha she'riy shakldagi hikmatli so'zlar, chuqur ma'noli iboralardir. Maqollar xilma-xil mavzularda bo'lib, hayotning turli masalalarini qamrab oladi. Ko'pincha maqol o'git, nasihat xarakterida bo'ladi: „Yer haydasang – kuz hayda, Kuz haydamasang yuz hayda", „Hunari yo'q kishining, mazasi yo'q ishining" kabi.

Maqol xalq og'zaki ijodining juda qadimiy shakllaridan biri bo'lib, unda xilma-xil badiiy ifoda vositalari – ohangdosh tovushlar takrori bo'ladi. Katta hayotiy va ijodiy tajribaga ega bo'lgan ajoyib so'z ustalarining o'lmas satr va hikmatli so'zlari ham ko'pincha xalq maqollariga o'xshab ketadi. Masalan, A. Navoiyning „Mahbub ul-qulub"da aytgan bir qancha hikmatli so'zlari shular jumlasidandir: „Oz-oz o'rganib

www.ziyouz.com kutubxonasi

dono bo'lur, qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur", „Tilga ixtiyorsiz – elga e'tiborsiz" va boshq.

Ma'lumki, badiiy asar matni ustida ishlash bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Maqollarni o'rganishda ham bu bosqichlarga e'tibor qaratish kerak. 1–2-sinflar maqollarni o'rganishning birinchi bosqichi bo'lsa, savod o'rgatish davri maqollarni o'qish va o'rganishning tayyorlov bosqichidir.

Savod o'rgatish davridayoq o'quvchilar maqollarni o'qiydilar. Alifbe davrida berilgan maqollar matn mazmuni bilan bog'liq bo'lib, ular matn g'oyasini o'quvchilarga lo'nda, aniq yetkazish uchun ham xizmat qiladi. Bu vaqtda o'quvchilarga maqollar o'qitiladi, ma'nosini bilganlaricha izohlab berishlari so'raladi. O'quvchilar javobini o'qituvchi to'ldirib, misollar bilan dalillab beradi.

Maqollarni o'rgatish o'qituvchidan katta tayyorgarlikni talab etadi. Har bir darsga tayyorlanayotganda asar mazmuniga va unda ilgari surilgan g'oyaga mos maqol ustida qanday mashq uyushtirishni rejalashtirib olish lozim. Iloji boricha ularni dars rejasiga kiritish, izohli lug'atlar (Masalan: Sh. Shomaqsudov, Sh. Shorahmedovning „Hikmatnoma" (o'zbek maqollarining izohli lug'ati), Toshkent, 1990) dan uning ma'nosini oson izohlaydigan, sodda til bilan tushuntirish mumkin bo'lgan shakllarini bilib olish zarur. Buning uchun o'qituvchi „Maqollar to'plami" va ularning izohiga oid adabiyotlarga ega bo'lishi kerak.

Boshlang'ich sinflarda matn ostida berilgan maqollarni o'qish va o'rganish, tahlil qilish asar o'qilib, tahlil qilinib bo'lingach amalga oshirilishi kerak. Chunki asar mazmuni va unda yozuvchi aytmoqchi bo'lgan g'oyani tushunmay turib, maqolning ma'nosini izohlash qiyin bo'ladi. Mualliflar ham maqol ma'nosini asar voqealari bilan izohlamoqchi bo'ladilar.

1–2-sinflarda maqolni ifodali o'qish va yod olishga ahamiyat beriladi. 1-sinf darsligida bo'lim yuzasidan berilgan savol-topshiriqlarda ham maqollarni o'rganishga katta e'tibor berilgan. Masalan, „Xalq o'giti – baxt kaliti" bo'limidagi savol-topshiriqlarda „Rostgo'ylik haqidagi maqollardan ayting", „Odob insonga husn" bo'limida „Qanoatda – barakat" maqolining ma'nosini tushuntirib bering", „Ko'klam – yashnadi olam" bo'limidan so'ng „Bilim olish haqidagi maqollarni ayting" kabi vazifalar berilgan. Har bir bo'lim yuzasidan berilgan vazifalarda u yoki bu maqolni o'rganish ko'zda tutilgan.

1–2-sinfda maqolning mazmunini o'rganish va yod olishdan

www.ziyouz.com kutubxonasi

tashqari, uning matnidagi izohtalab so'zlar, birikmalar ustida lug'at ishi o'tkazish, badiiy til vositalari, ko'chma ma'noli, qarama-qarshi ma'no bildiruvchi, maqolda takrorlanib kelayotgan so'zlar ma'nosi yuzasidan ish olib borish talab etiladi. Masalan, 1-sinf „O'qish kitobi" da „Ona yurting - oltin beshiging" maqoli berilgan. Mana shu maqol matni ustida ishlaganda, „Yurt" so'zini qaysi so'zlar bilan almashtirish mumkin?", „Maqolda ona yurt nimaga tenglashtirilayapti?", „Beshik oltin bo'ladimi?" kabi savollar berish yo'li bilan o'quvchilarning lug'atini boyitish, bog'lanishli nutqini o'stirish ustida ishlanadi. Bundan tashqari, „Eling senga cho'zsa qo'l, Unga doim sodiq bo'l" maqolining ma'nosini tushuntirishda shu bo'limdagi asarlardan, bolalar uchun davlatimiz tomonidan yaratib berilgan sharoitlardan misollar keltirish lozim. Masalan, „Jar" sport kompleksi sizning sog'lom o'sishingiz uchun yaratildi. Maktabda bepul bilim olyapsiz. Shunga javoban siz nima qilishingiz kerak?" kabi. Shu maqolning badiiy til vositasi ustida ishlashda „Qo'l cho'zsa" deganda nimani tushundingiz?" kabi savollar bilan o'quvchilarga murojaat qilish va uning qanday ma'noda kelayotganini aytib o'tish foydadan xoli bo'lmaydi.

2-sinfda „Ish ishtaha ochar" matnidan keyin: „Ish ishtaha ochar, Dangasa ishdan qochar", „Kuch birlikda" matnidan „Birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar" maqollari keltirilgan. Bu maqollardan matn o'rganib bo'lingach, asarning g'oyasini ochishda va xulosa chiqarishda foydalaniladi. Su tarzda maqol mazmuni ham ochiladi. Maqol tili ustidagi 1-sinfda uyushtirilgan ishlar 2-sinfda ham davom ettiriladi. Maqol ustida ishlash orqali o'quvchilar uning yaratilishi sababini, oddiy gapdan farqini bilib oladilar.

1-sinfda maqollarni to'g'ri o'qish va yod olishga e'tibor ko'proq qaratiladi, 2-sinfda esa o'quvchilardan matn mazmuniga mos maqollar aytishni talab qilish mumkin.

3–4-sinflarda maqollar maxsus darslarda va badiiy asarni o'rganish jarayonida ham muntazam o'rganib boriladi. Bu sinflarda maqollarni o'rganishdan ko'zlangan maqsad o'quvchilar dunyoqarashini shakllantirish, to'g'ri va ongli o'qish malakalarini takomillashtirish, maqoldagi har bir so'zning va yaxlit maqolning ma'nosini to'liq idrok etishga erishishdir. O'quvchilar o'qilgan matn ichidan maqollarni, hikmatli so'zlarni o'zi mustaqil topa olish ko'nikmasini egallashi, ular yordamida o'qilgan asarlar yuzasidan to'g'ri hukm chiqarishga o'rganishlari zarur.

3–4-sinflarda „Xalq og'zaki ijodi" bo'limi tarkibida „Maqollar"

www.ziyouz.com kutubxonasi

mavzusi alohida o'rganiladi. Bu mavzuni o'rganishda maqolning kelib chiqishi, yaratilishi haqida dastlabki elementar ma'lumotlar beriladi. Bunda maqollar xalqning uzoq yillik hayotiy tajribasi asosida vujudga kelganligi, tarbiya vositasi sifatida har bir xalqning milliy ma'naviyatining shakllanishida muhim vosita bo'lishi haqida dastlabki tushunchalar beriladi.

Maqollar mavzular bo'yicha guruhlab o'rgatiladi. Masalan, 4-sinf „O'qish kitobi"da maqollar „Ona yurting – oltin beshiging", „Eldan ayrilguncha, jondan ayril", „Mehnat – baxt keltirar", „Odobing – zeb-u ziynating", „Olim bo'lsang, olam seniki", „Ko'ngil ko'ngildan suv ichar" kabi mavzular asosida birlashtirilib berilgan. O'quvchilarga maqollarni mavzu bo'yicha guruhlab o'rgatishda o'qish mavzulariga asoslaniladi. Bunda maqol mazmuniga mos asarlar nomini keltirish, uning mazmun va g'oyasini maqol bilan bog'lash kerak. Bu jarayonda o'quvchilarning hayotiy tajribalari asosida misollar keltirish bilan maqollarni izohlash yoki o'quvchilarga maqol g'oyasiga mos bironta hikoya tuzish mustaqil ish sifatida berilishi ham mumkin.

3–4-sinflarda maqol janri bo'yicha tahliliy ishlar o'quv yili davomida izchil uyushtirilib boriladi, ya'ni „Asar g'oyasiga oid maqol ayting", „Maqollar asosida krossvord tuzing, rebus yarating" kabi topshiriqlar beriladi, „Maqollar aytish musobaqasi", „Maqollar mushoirasi" kabilar tashkil qilinadi.

Maqollarni o'rganishda ko'rgazmalilik, nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi, ta'lim-tarbiyaning birligi tamoyillariga amal qilinadi.

4-sinf yakunida maqol janrini o'rganish yuzasidan umumlashtiruvchi darsni tashkil qilish zarur. Bunda o'quvchilarga yod olingan maqollar mavzusiga qarab guruhlash ustida ish olib boriladi.

Yuqoridagilarni hisobga olganda, maqolni o'rganishda quyidagi ish turlaridan foydalaniladi:

1. Maqolni o'qib, uning mazmuni ustida ishlash.
2. Maqoldagi so'zlarning ma'nosini izohlash.
3. Badiiy til vositalari ustida ishlash.
4. Maqolni yod oldirish.
5. Maqol matnidagi qarama-qarshi ma'noli va ma'nodosh so'zlarni aniqlash va ularning maqolda ifoda etilgan g'oya bilan aloqasini ochish.
6. Matn mazmuni va g'oyasiga mos maqol toptirish.
7. Maqollarni mavzular bo'yicha guruhlash.

www.ziyouz.com kutubxonasi

MAQOL O'RGANISH DARSI NAMUNASI

Mavzu. Xalq hikmatlari.

O'quv materiali. Maqollar.

Darsning maqsadi: 1. O'quvchilarga maqollarning xususiyatlari haqida ma'lumot berish. Maqollarni ifodali o'qish, mazmunini to'liq anglab yetish malakasini oshirish. 2. Maqollar orqali o'quvchilar ongiga vatanparvarlik, mehnatsevarlik, ilm olishga qiziqish, kamtarlik, oqko'ngillik tuyg'ularini singdirish. 3. O'quvchilarni ko'rgan-bilgan, eshitgan, o'qiganlari yuzasidan xulosa chiqarishga, o'z nutqida maqollardan foydalanishga o'rgatish.

Darsning turi. Yangi bilim beruvchi, maqol o'qish darsi.

Darsning borishi

I. Da'vat bosqichi. ***Maqsad:*** o'quvchilarda yangi mavzuni o'zlashtirishga ishtiyoq uyg'otish, maqollarning xususiyatlari haqida ma'lumot berish.

Metod: Suhbat metodi.

O'qituvchi xattaxtaga quyidagi maqollarni yozib qo'yadi: „Birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar", „Avval o'yla, keyin so'yla".

O'qituvchi: Abdulla Avloniyning „Yaxshilik yerda qolmas" hikoyatini bilasizmi?

Xattaxtaga hikoya mazmuniga mos rasmlar ilinadi.

O'qituvchining hikoyasi:

„Yaxshilik yerda qolmas"

Bir ari suv ustinda uchib borur edi. Birdan suvga yiqilib ketdi. Qanotlari ho'l bo'lib ucharga kuchi yetmadi. O'lar holatga etdi. Buni bir kabutar ko'rib, ariga rahmi kelub, darhol bir cho'pni tishlab, suvga tashladi. Bechora ari bu cho'pni kema qilib, suv balosidan qutuldi. Arodan ko'p o'tmadi. Bir bola tuzoq qo'yib, kabutarni tutmoqchi bo'ldi. Ari buni ko'rgan zamon kelub, bolaning qulog'ini chaqdi. Bola qulog'ining alamidan tuzoqni tashlab, qulog'ini ushladi. Kabutar vaqtni g'animat bilib, uchib ketub, o'limdan qutildi.

Topshiriq. Xattaxtadan siz tinglagan hikoyaga mos maqolni topib, belgilang. (O'quvchilar „Birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar" maqolini belgilaydilar)

– Qolgan maqollarga mos qanday hikoya, ertaklar o'qigansiz? („Bilim – aql chirog'i" maqoli mazmuniga mos „Ilm afzal" ertagini o'qiganmiz)

www.ziyouz.com kutubxonasi

– Maqollarni yana qanday nom bilan atash mumkin? („Dono fikr" deb atash mumkin.)

– Bugungi darsda nimalarni o'rganar ekanmiz?

– Maqollar nima haqida bo'ladi? Ular nima maqsadda yaratiladi? O'quvchilar javobi to'ldirib, umumlashtiriladi.

Nazariy ma'lumot. Maqollar – xalqning hikmatli ifodalari, hayotiy tajriba asosida yuzaga kelgan dono fikrlarining ixcham shakli. Maqollar she'riy va nasriy tuzilishga ega. Maqollar ona-Vatanni sevishga, uning har bir qarich yerini asrashga, kasb-hunar egallashga, mehnat qilishga, to'g'ri so'z bo'lishga, yaxshi odob va olijanob xulqli bo'lishga chaqiradi.

II. Anglash bosqichi. ***Maqsad:*** maqollarni ifodali o'qish, mazmunini misollar bilan ochib berishga o'rgatish.

Metod: Suhbat, guruhlarga bo'linib ishlash.

O'quvchilar 4 guruhga bo'linadi. Har bir guruh uchun ma'lum mavzudagi maqollarni o'qib o'rganish topshiriladi.

1. Topshiriq. Ifodali o'qish mashqi o'tkaziladi. Bunda guruhdagi har bir ishtirokchi bittadan maqolni ifodali o'qib beradi.

2. Mustaqil ish. O'quvchilar o'qigan maqollariga darslikdan mos asarlarni tanlab, maqolning ma'nosi bilan asarda aytilayotgan fikrning bog'liqligini izohlab beradilar. Masalan, „Elidan ayrilgan yetti yil yig'lar, Vatandan ayrilgan o'lguncha yig'lar" maqoliga Bobur haqidagi „Hidi, tilimi va mazasidan" asarini misol qilib keltirish mumkin.

Savol-topshiriqlar beriladi:

– Darslikdan „El boshiga tushgan ish, Er boshiga tushgani" maqoliga mos asarni eslang. Shu maqol qaysi asar g'oyasiga mos keladi?

– „Bilagi zo'r birni yiqar, bilimi zo'r mingni yiqar" maqoliga qaysi asar g'oyasi mos? („Mardlik va aql yorug'ligi") va hokazo.

3. Maqollar yuzasidan rebus yechish.

1) [oltin rasmi] [o't rasmi]da bil[in rasmi] [ari rasmi] (rd),
[odam rasmi] – [mehnat qilayotgan kishi rasmi]da.

2) [ko'z rasmi] (k)i [100] sizning [ko'z rasmi] (ks)i [tuz]siz.

3) Bol[ari rasmi] (rg) [to'r rasmi] (tz) [1]ni yi[qor rasmi](oa), [bol] (oi)imi [bo'r rasmi] (bz) [1000]ni.

III. Fikrlash bosqichi. ***Maqsad:*** o'quvchilarning mavzu yuzasidan egallagan bilimlarini mustahkamlash, nutqda maqollardan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish, xulosa chiqarishga o'rgatish.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Metod: Aqliy hujum, suhbat metodi.

1. Aqliy hujum.

– Qaysi mavzulardagi maqollarni o'qidingiz?

– Maqollar qanday paydo bo'lgan?

2. Maqollardan yod aytish musobaqasi.

1-guruh. Mehnatsevarlik haqidagi maqollardan ayting.

2-guruh. Vatanparvarlik haqidagi maqollardan ayting.

3-guruh. To'g'riso'zlik haqidagi maqollardan ayting.

4-guruh. Do'stlik haqidagi maqollardan yod ayting.

3. Mustaqil ijodiy ish.

Har bir guruhga bitta maqol beriladi. Guruh ishtirokchilari birgalikda oxiri berilgan maqol bilan xulosalanadigan hikoya tuzib yozishadi. O'qituvchi guruhlarga quyidagi maqollarni bo'lib berishi mumkin:

1) Hamjihatlik – davlat, Yolg'izlik – kulfat.

2) Ilmi yo'qning ko'zi yumuq.

3) Odobli – elda aziz.

4) Hunar bo'lsa qo'lingda, non topilar yo'lingda.

Hikoyani ertak tarzida yoki hayotda uchraydigan biror voqea tarzida yozish bo'yicha maslahat va yordam beriladi. Masalan, „Odobli – elda aziz" maqoli asosida taxminan quyidagicha hikoya tuzish mumkin:

Odiljon oyisi, dadasi bilan xolasinikiga mehmonga bordi. Xolasi mehmonlarni pista-bodom, shirinliklar, kulcha nonlar bilan siyladi. Odiljon mehmonda sho'xlik qilmadi. Shirinliklarga hadeb qo'l cho'zavermadi. Kelgan boshqa mehmonlar Odiljonni „odobli bola ekan" deyishdi. Odiljon „Odobli – elda aziz" ekanligini bilib oldi.

Ushbu topshiriq uyga vazifa qilib berilishi ham mumkin.

4. Mavzu yuzasidan tarbiyaviy xulosa chiqarish.

– Bugungi maqollarni o'rganish darsi sizga yoqdimi?

– Maqollar bolalar tarbiyasiga ta'sir qiladi deb o'ylaysizmi? Ular qanday ta'sir o'tkazishi mumkin?

– Siz bugun o'zingizga qanday xulosa chiqardingiz?

– O'qigan qaysi maqolimiz sizga ham tegishli?

5. Guruhlar to'plagan ballarni e'lon qilish. O'quvchilarni rag'batlantirish.

6. Uyga vazifa. Maqollarni ifodali o'qish va yod olish. Darslikdan o'qilgan ertaklar mazmuniga mos maqollar topib, daftarga yozib kelish.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Doston o'qish metodikasi

O'zbek xalqi og'zaki ijodi juda uzoq tarixga ega. Og'zaki ijodning qadimdan shakllangan janri **doston**dir. U eng murakkab, yirik va keng tarqalgan shakllardan hisoblanadi. ***„Doston"*** so'zi *„qissa", „hikoya", „ta'rif", „maqtov", „shon-shuhrat", „sarguzasht"* ma'nolarida ishlatiladi. U adabiy atama sifatida yirik hajmli, liro-epik asarlarni anglatadi. Dastlab xalq og'zaki ijodida shakllangan bu janr keyinchalik yozma adabiyotda ham salmoqli o'rin tutgan.

Xalq dostonlari maxsus ijrochilar tomonidan kuylangan. Ular hozir ham *baxshi, oqin, shoir* nomlari bilan ataladi. Xalq dostonlarining matni nazmiy va nasriy parchalardan iborat bo'lib, mavzusiga ko'ra xilma-xildir. Boshlang'ich sinflarda asosan:

1. Qahramonlik dostonlari;
2. Jangnoma dostonlar o'rganiladi.

Xalqning qahramonona kurashlari qahramonlik dostonlarining paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. „Alpomish", „Yodgor" kabi xalq qahramonlik dostonlarida fantaziya va romantik tasvirning kuchli bo'lishiga qaramay, ularning asosini xalq hayoti va kurashi, uning orzu-armonlari tashkil etadi. Xalqqa xos insonparvarlik, vatanparvarlik, qahramonlik, mardlik, mehnatsevarlik, do'stlik va sadoqat kabi olijanob fazilatlari xalq dostonlaridagi qahramonlar obrazida mujassamlashgan.

Boshlang'ich sinf o'qish darsliklarida doston janriga kam o'rin berilgan. 3-sinf „O'qish kitobi" da „Alpomish", „Rustamxon" dostonlaridan parchalar berilgan bo'lsa, 4-sinfda M. Shayxzodaning „Toshkentnoma" dostoni keltirilgan.

3-sinfda o'quvchilarga doston haqida beriladigan ma'lumot „Rustamxon" dostoniga bog'liq holda bayon etiladi. Darsda o'qituvchi doston haqida quyidagi ma'lumotlarni beradi:

„Doston ham xalq og'zaki ijodining bir turidir. Dostonda xalq hayoti, kurashi va orzu-umidlari aks etadi".

Boshlang'ich sinflarda dostonlardan berilgan parchalarda, asosan, qahramonlarning bolalik davri aks etgan epizodlar keltiriladi. Bunda bolalarni qahramonlikka, Vatanga sadoqatli bo'lishga chorlovchi voqealar tasvirlanadi. 3-sinf darsligidan o'rin olgan „Rustamxon", „Alpomish" dostonlari xalq og'zaki ijodi mahsuli bo'lganligi uchun muallif haqida ma'lumot berilmaydi. Faqat bu dostonlar o'rganiladigan darslarda dostonni qo'shiq qilib aytadigan baxshilar haqida ma'lumot berish mumkin.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Qahramonlik dostonlari tahlilida voqealar rivojiga, qahramonlar hayotiga alohida e'tibor qaratiladi. Dostondagi mubolag'a, favqulodda yuz beradigan vaziyatlar aniqlanadi, doston qahramonlariga tavsif berish va tarbiyaviy xulosa chiqarishda o'quvchilarning mustaqil mulohaza yuritishlari uchun sharoit yaratiladi.

4-sinfda Maqsud Shayxzoda tomonidan yaratilgan „Toshkent-noma" nomli doston o'rganiladi. Bu dostonni quyidagi tartibda o'rganish mumkin:

1. 3-sinfda doston haqida olingan bilimlar esga olinadi va to'ldiriladi.

2. Dostonni o'qishdan oldin uning muallifi - Maqsud Shayxzoda haqida ma'lumot beriladi.

3. O'qituvchi dostonni ifodali o'qib beradi.

4. Doston yuzasidan dastlabki suhbat o'tkaziladi. Suhbatda o'quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat qilinadi: „Doston qaysi shahar haqida ekan?", „Dostonni o'qish orqali Toshkent shahri haqida yana nimalarni bilib oldingiz?" va hokazo.

5. Doston qismlarga bo'linib, o'quvchilarga o'qitiladi.

6. Doston mazmuni to'liq qayta hikoya qildiriladi. Bunda bir o'quvchi mazmunni gapirib berishi yoki bir necha o'quvchi ketma-ket davom ettirishi mumkin.

7. Doston matni ustida ishlashda dostondagi badiiy vositalarga e'tibor qaratiladi, asar mazmuni yuzasidan savol-topshiriqlar tuzish, dostonning ba'zi epizodlariga rasmlar chizdirish, dostonga reja tuzish kabi ish turlaridan foydalaniladi.

8. Umumlashtiruvchi suhbat o'tkaziladi. Bunda **„Toshkentda uch fasl yoz", „Osiyoning qo'ynida yashil shahar bor"** kabi gaplarni o'quvchilar qanday tushunganliklari so'raladi.

Yuqoridagilarni hisobga olib, dostonni o'rganish darsining qurilishi quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Tayyorgarlik ishlari (bunda doston xususiyatlari va qaysi sinfda o'qitilishiga mos ravishda ish turlari tanlanadi).

2. Dostonni o'qituvchining ifodali o'qishi yoki baxshi aytganini eshittirish.

3. Dostonni qismlarga bo'lib o'qish.

4. Doston mazmunini tahlil qilish.

5. Dostonda o'quvchilar tushunishi qiyin bo'lgan so'z va so'z birikmalarining ma'nosi ustida ishlash.

6. Dostondagi badiiy san'atlar ustida ishlash.

www.ziyouz.com kutubxonasi

7. Dostonni qismlarga bo'lish va reja tuzish.
8. Dostonni to'liq qayta hikoyalash.
9. Umumlashtiruvchi suhbat.

Ilmiy-ommabop asarlarni o'qish metodikasi

Boshlang'ich sinflarda ilmiy-ommabop asarlarni o'qitishdan asosiy maqsad bolalarga tabiat, kishilar mehnati va ijtimoiy hayot haqida muayyan bilim berish, bolalarni kitob bilan mustaqil ishlashga va undan aniq bilim olishga o'rgatishdan iborat.

Tabiatshunoslikka oid va tarixiy mavzudagi ilmiy-ommabop asarlarni o'qib o'rganishda tabiat hodisalarini kuzatish (masalan, *daraxt kurtaklarining bo'rtishi)*, o'quvchilarni dehqonlar mehnati bilan tanishtirish, mamlakatimizda yuz bergan o'zgarishlarning guvohi va ishtirokchilari bo'lgan insonlar bilan uchrashuvlar uyushtirish maqsadga muvofiq.

Ijtimoiy-tarixiy mazmundagi asarlar Vatanimiz o'tmishi, xalqimiz hayoti, mardonavor kurashi, ulug' siymolar amalga oshirgan ishlar, tarixiy sanalar to'g'risida bilim beradi. O'qish darsliklaridan o'rin olgan *Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur* va boshqa ajdodlarimiz haqidagi matnlar shular jumlasidandir. Bu xildagi matnlar o'quvchilarni nafaqat o'tmishimiz bilan tanishtiradi, balki ularning Vatan oldidagi farzandlik burchi va mas'uliyatini teran anglashga ham yordam beradi. O'quvchilarda Vatanga muhabbat tuyg'usi shu tariqa shakllanadi.

Vatanimiz o'tmishi haqida hikoya qilingan ilmiy-ommabop asarlar bilan tanishtirish va ularni tahlil qilish jarayonida o'quvchilar o'tmish bilan bugungi kunni taqqoslash imkoniga ega bo'ladilar. Jamiyat taraqqiyoti haqida qisqacha bo'lsa-da, tushuncha hosil qiladilar. Bu borada, ayniqsa, milliy istiqlol bilan bog'liq mavzudagi asarlar tahliliga alohida e'tibor berish zarur.

1-sinf dasturida o'qish bilan bog'liq holda kuzatish, sayohat darslari mo'ljallanadi. Masalan, yil fasllarida mavsumiy tabiat hodisalari (obhavoning o'zgarishi, o'simlik va hayvonlarning hayoti)ni, shuningdek, dala mehnatini kuzatish uchun tabiatga (dala, bog', xiyobonlarga) sayohat uyushtirish ko'zda tutiladi. Sayohatda tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlar va kishilarning mehnati yuzasidan bolalarning nisbatan uzoq kuzatishlari uyushtiriladi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Bunday darslarda ko'rgazma sifatida o'quv kinofilmlaridan ham foydalanish mumkin.

Tarixiy mavzudagi ilmiy-ommabop asarlarni unga mos rasmlar bilan bog'lab o'qitish kishilarning baxtli hayot uchun intilishlari, ota-bobolarimizning dushmanlardan Vatanni saqlash uchun qanday kurashganliklarini tushunib yetishga yordam beradi; o'quvchilar mehnat hayotning asosi ekanligini, insonlar turmushi mehnat tufayli rivojlanib, farovonlashib borishini bilib oladilar.

Dasturga ko'ra 2-sinf o'quvchilari „Toshkent", „Toshkent metrosi" mavzusidagi ilmiy-ommabop asarlarni, 4-sinfda esa „Mangulikka tatigulik kun" (Safar Barnoyev) asarini o'qish orqali o'tmish ajdodlarimiz, ularning xizmati, vatanimizning hozirgi taraqqiyoti haqida bilib oladilar. Bu maqolalar xalqimizning hayoti, mehnati va kurashi haqida yangi bilim berish bilan birga, bolalarni Vatanga, xalqqa, ona tabiatga muhabbat ruhida tarbiyalaydi.

Ilmiy-ommabop maqolalarni izohli o'qish darsini uyushtirishda quyidagicha reja asos qilib olinishi mumkin:

1. O'qiladigan matn yuzasidan bolalar tajribasi va bilimini aniqlash, ularni matn mazmunini tushunishga tayyorlash maqsadida taxminiy suhbat o'tkazish.
2. Asarni yoki uning ma'lum bir qismini o'qish, o'quvchiga notanish bo'lgan so'zlar ma'nosi ustida ishlash.
3. Asar rejasini tuzish.
4. O'qilgan maqola yuzasidan suhbat uyushtirish.
5. Matnning asosiy mazmunini aniqlash va reja qismlarini yoritish.
6. Reja asosida maqolani qayta o'qish.
7. Maqolani yaxlit o'qish. Bunda bolalarni qayta hikoyalashga tayyorlash va maqola mazmunini yaxshi o'zlashtirishlariga erishish maqsadi ko'zda tutiladi.
8. Reja asosida qayta hikoyalash.
9. Xulosalash va umumlashtirish.

Ilmiy-ommabop asarlarni uzviy birlikda o'rganish o'quvchilarning har bir mavzuda bayon etilgan tarixiy-adabiy hodisalarni, ular o'rtasidagi umumiylikni, har bir davrga ega xususiyatlarni anglab olishlarini ta'minlaydi. Ular bolalarni kelgusida gazeta va jurnallarni o'qishga tayyorlaydi, ijtimoiy-siyosiy, tabiatshunoslik atamalarini o'zlashtirishga yordam beradi, ularning mantiqiy tafakkurini va nutqini o'stiradi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

ILMIY-OMMABOP ASARLARNI O'RGANISH DARSI NAMUNASI

Mavzu. Bahor shabadasi.

O'quv materiali. „Bahor ta'rifida" (Yusuf Xos Hojib).

Darsning maqsadi:

1. O'quvchilarga Yusuf Xos Hojib hayoti va ijodi haqida ma'lumot berish, bahorning uyg'onish fasli ekanligi, o'quvchilarning tabiatdagi o'zgarishlar haqidagi bilimlarini boyitish.

2. Bahor faslini qadrlash va sevish hissini tarbiyalash.

3. O'quvchilarning o'qish malakalarini yanada rivojlantirish, o'quvchilar lug'atini *nasim, turdosh, chin, sabo, havo* so'zlari bilan boyitish, iboralarning ma'nosini izohlash, savol-topshiriqlar ustida ishlash.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, ilmiy-ommabop asarlarni o'qish darsi.

Darsning metodi: izohli o'qish, suhbat, tarmoqlash metodi.

Darsning jihozi: bahor fasli, tabiati tasvirlangan rasmlar, predmet rasmlari: qushlar, gullar, hayvonlar rasmi.

Darsning borishi

I. O'quvchilarni yangi o'rganiladigan mavzuga tayyorlash.

Quyidagi topishmoq aytiladi, o'quvchilar uning nima haqida ekanini va javobini topadi:

Ilon izli yorug' nur
Bulutlarni quchadi.
Jarangdor ovozidan
Yer-u osmon ko'chadi. (Chaqmoq)

Savollar beriladi:

– Topishmoqni topishda sizga qaysi so'zlar yordam berdi?

– Bu so'zlar qaysi fasl ta'rifida aytiladi?

1. Aqliy hujum.

– Bahor faslini qanday so'zlar bilan ta'riflash mumkin?

O'quvchilar javobi tarmoqlash usulida har xil ranglar bilan kartonga yozib boriladi.

www.ziyouz.com kutubxonasi



Tarmoqlash bahor faslining ko'rinishini eslatadigan shaklda ham bo'lishi mumkin.

2. Bahor faslidagi tarixiy sanalar haqida suhbat.

– Bahor faslida qaysi bayramlar nishonlanadi?

– Siz qaysi bayramni juda yaxshi ko'rasiz?

3. O'quvchilarning bahor haqida yod olingan she'rlaridan aytiriladi.

O'qituvchi o'quvchi bilan bo'lgan suhbatni umumlashtiradi: Bahor – yaxshi kayfiyat, mehnat qilishga ishtiyoq uyg'otadigan fasl. Shuning uchun qadimdan shoir va yozuvchilarimiz bahorni madh etib she'rlar bitgan, hikoyalar yozgan. Shunday yozuvchilarimizdan biri Yusuf Xos Hojibdir. Siz bu yozuvchi haqida oldingi darslarimizda eshitgansiz.

– Eslang. Yozuvchining qaysi asaridan parcha o'qigansiz? O'sha parcha nima deb nomlangan edi? Unda nima haqida hikoya qilingan edi? (Yaxshilik va yomonlik, bilimdonlik va nodonlik haqida).

– Yusuf Xos Hojibning „Qutadg'u bilig" asaridan yana bir parcha o'qiymiz. O'ylang. Bu parcha qaysi mavzuda bo'lishi mumkin? Xattaxtaga mavzu va o'quv materiali nomi yoziladi:

Mavzu. Bahor shabadasi.

O'quv materiali. „Bahor ta'rifida" (Yusuf Xos Hojib).

1. Asar bilan tanishtirish. Matnni o'qituvchi o'qib beradi. So'ngra topshiriq beriladi:

– Asarni diqqat bilan tinglang. Yozuvchi bahorni qanday ta'riflagan?

2. Kirish suhbati:

– Asar nima haqida ekan?

– Unda nimalarning ta'rifi berilgan?

3. Topshiriq asosida ichida o'qish.

– Asarni o'qing. O'zingizga ma'nosi notanish so'zlarni belgilang.

www.ziyouz.com kutubxonasi

4. Lug'at ishi.

Nasim – shabada, shamol
Firdavs – bog', jannat bog'i
Chin – Xitoy
Mushk-anbar – xushbo'y hid
Sabo eli – shamol nafasi
chechaklar – gullar
ifor – yoqimli hid
Musaffo – toza, pokiza
Navo – kuy

5. Asarni qismlarga bo'lib o'qitish.

Asar 3 qismga bo'linadi va 3 o'quvchiga o'qitiladi.

2-qayta o'qitilayotganda quyidagi savol-topshiriqlar beriladi:

1-qism yuzasidan:

– Yozuvchi bahorni ta'riflashda qaysi so'zlardan foydalangan?

– *Nasim, firdavs, oq rang, bo'z yer, alvon rang, musaffo, yashil to'n, oq, sariq, ko'k, qizil rangli harir yaproqchalar, yashil parda, xitoy karvoni, chechaklar, ifor* kabi so'zlarning ma'nosini aytib bering.

2-qism yuzasidan:

– Yozuvchi qaysi qushlarni va parrandalarni tilga oladi?

– G'oz, o'rdak, oqqush, qil quyruq, turna, kaklik, qora qarg'a, bulbul.

– Shu qush va parrandalarni rasmlar ichidan ko'rsating.

3-qism yuzasidan.

– Yozuvchi qaysi hayvonlarning nomini tilga olgan? (Bug'u, jayron).

6. Tanlab o'qish. Topshiriqlar beriladi:

– Bahor faslida daraxtlarning harakatga kelishi tasvirlangan o'rinni topib o'qing.

– Kaklik tasviri berilgan qismni topib o'qing.

– Qora qarg'aning ovozi nimaga o'xshatiladi? Shu misralarni topib o'qing.

– Yozuvchi yerni o'tlar bilan qoplanishini nimaga o'xshatadi? Shu qismni topib o'qing.

– Turnalarning uchishi nimaga o'xshatilgan? Shu o'rinni topib o'qing.

– Asardan jonsiz narsa jonlantirilgan o'rinni topib o'qing. (Gullar yuz ochib, qahqaha urib kulmoqda).

– Zerikarli qishni bahor qanday haydadi? (Bahor nafasi bilan haydadi).

– Daraxtlarning barg yoyishi nimaga o'xshatilgan? Matndan topib o'qing (... daraxtlar yana yashil to'n kiydi).

O'qituvchi: – Demak, yozuvchi Yusuf Xos Hojib bahorni

www.ziyouz.com kutubxonasi

ta'riflashda juda ko'p rang bildiruvchi so'zlardan, o'xshatishlardan, jonlantirishlardan foydalangan. Siz ham uyda „Bahor – go'zal fasl" mavzusida kichik hikoya tuzing. Unda shunday so'zlardan, iboralardan foydalanishga harakat qiling.

Bunda quyidagi rejadan foydalaning:

Reja:

1. Bulut suzgan osmon.
2. Gullarga burkangan olam.
3. Qushlar navosi (chug'uri).

– Asarni bir necha marta o'qing. Hikoyangizda asardagi so'zlardan ko'proq foydalanishga harakat qiling.

7. Darslikdagi savol-topshiriqlar ustida ishlash.

8. Darsda o'rganilganlarni umumlashtirish va tarbiyaviy xulosa chiqarish.

– Siz bugungi o'qigan asarimiz orqali nimalarni bilib oldingiz?

– Bahor faslida tabiatda qanday o'zgarishlar sodir bo'ladi? U kishilarga qanday kayfiyat bag'ishlaydi?

– Bahor fasli tuhfalariga qanday munosabatda bo'lyapsiz?

9. O'quvchilar faoliyatini baholash va rag'batlantirish.

Topishmoq, latifa va tez aytishlarni o'rganish metodikasi

Topishmoqlar narsa yoki hodisalarning ataylab yashirilgan belgisi, shakli, xatti-harakati, holati va vazifasini boshqa narsa yoki hodisalarga qiyoslash asosida topishga asoslangan she'riy yoki nasriy tuzilishdagi savol va topshiriqlardir. Topishmoqlar xalq turmushi bilan chambarchas bog'liq holda yaratiladi. Ularning zaminida kishilarning qadimiy e'tiqod va tasavvurlari, olamni bilish va idrok etishga bo'lgan intilishlari yotadi.

Topishmoqda yashirilgan narsalar uning javobi hisoblanadi. Topishmoqning javobini topish uchun topishmoq matnini e'tibor bilan o'qish, nimaga ishora qilinayotganligini fahmlash, topishmoqning asosiy xususiyat va belgilari aynan nimaga qaratilganligini taxmin qilish bilan ham topishga harakat qilish kerak.

Topishmoq o'quvchilarni topqirlik va hozirjavoblikka o'rgatadi. Shu sababli xalq og'zaki ijodining bu janridan darsliklarda ham keng qo'llanilgan. 1–2-sinf „O'qish kitobi" da topishmoqlar ko'proq, har bir matn ostida keltirilgan. Bundan ko'zlangan maqsad matn mazmunini topishmoqlar asosida ham o'zlashtirilishiga erishishdir. Masalan, 1-sinf

www.ziyouz.com kutubxonasi

„O'qish kitobi" da „Kitobga mehr" matni ostida „Qat-qat qatlama, Aqling bo'lsa tashlama" topishmog'i keltirilgan va mavzuga juda mos tanlangan. Topishmoqlar bunday shaklda berilganda ularning javobi oson topiladi. 1—4-sinf o'qish darsliklarida „Topishmoqlar" mavzusi ostida har xil topishmoqlar ham berilgan bo'lib, ular o'quvchilarning topqirligini yanada oshiradi, tafakkurini o'stiradi. 1—2-sinf darsliklarida topishmoq javoblari ularning ostiga yozib qo'yilgan yoki rasmlar orqali berilgan. 3—4-sinflarga o'tgach esa javoblar qayd etilmagan. Buning sababi shuki, bu davrga kelib o'quvchilar topishmoqlar ustida ishlash ko'nikmalarini hosil qilgan bo'ladi.

Topishmoqlar bolalar shoirlari tomonidan ham yaratilib kelinmoqda. Bunday topishmoqlar sho'x, qiziqarli bo'ladi. Masalan, 4-sinf „O'qish kitobi" da „Buni toping, qizlarim" (G'. G'ulom) topishmoqlari keltirilgan.

Latifa xalq og'zaki ijodining eng ommaviy janrlaridan biri bo'lib, nozik, mayin kinoya, qochiriqlar ishtirok etuvchi kulguli, kichik hajmli hikoyadir. Xalq o'rtasida „afandi" deb ham yuritiladi. Latifalar yagona qahramon (Nasriddin Afandi) bilan bog'liq holda yaratiladi, ixcham sujetga ega bo'ladi. Latifalarning eng muhim xususiyatlaridan biri uning hamma vaqt hayot bilan hamnafas, hamqadam borishidir.

Latifa matni ustida ishlashda ham hikoya matni ustida ishlashda qo'llangan usullardan foydalanish mumkin. Lekin bunda latifa janrining o'ziga xos jihatlariga ham ahamiyat qaratish lozim.

3-sinf „O'qish kitobi" darsligida „Uyqum qochib ketdi", „Tuya eshikdan sig'maydi" kabi latifalar keltirilgan bo'lsa, 3-sinfda „Latifalar" mavzusi ostida bir necha latifalar berilgan. Latifalar ustida ishlaganda ularda tanqid qilingan illatlar haqida alohida to'xtalib o'tish, o'quvchilarga yaxshi fazilatli bo'lish kerakligini uqtirib o'tish kerak. Umuman olganda, latifalar orqali ham o'quvchilarni tarbiyalab borish lozim.

Tez aytishlar ma'lum so'zni, so'z birikmasini yoki tovushni to'g'ri talaffuz qilishga, uni boshqa tovushlardan farqlashga o'rgatadigan, xotirani mustahkamlaydigan va nutqni o'stiradigan, o'qish sur'atini oshiradigan janr hisoblanadi. Shu sababli 1-sinfda ko'pgina tez aytishlar keltirilgan. Masalan, „Botir botmas botqoqqa", „Qobil qozonda qovurdoq qovurdi", „Bahodir bayroqni Botirga berdimi, Botir Bahodirga bayroqni berdimi?", „Olim oldidagi oltita olmani oldi" va boshq.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, boshlang'ich sinf darsliklariga o'quvchilar yoshiga mos, mavzular bo'yicha tanlab olingan,

www.ziyouz.com kutubxonasi

ko'proq tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan topishmoq, latifa va tez aytishlar tanlab kiritilishi maqsadga muvofiqdir.

Topishmoq, latifa va tez aytishlarni o'rganish boshlang'ich sinflarda dastlab har bir darsda amalga oshirilib boriladi. Alohida dars sifatida o'rganishda esa o'qituvchilar turli usullardan foydalanishlari mumkin.

TOPISHMOQ O'TISH DARSI NAMUNASI

Mavzu. Topishmoqlar.

Darsning maqsadi:

1. O'quvchilarga topishmoqlarning janriy xususiyatlari haqida ma'lumot berish. Ularning topishmoqni ifodali o'qish, javobini tez topish malakalarini oshirish, ziyraklikka o'rgatish.

2. O'quvchilarning muomala madaniyatini oshirish.

3. O'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish, ijodiy faoliyatga yo'llash.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi, topishmoq o'qish darsi.

Darsning borishi

I. Da'vat bosqichi. ***Maqsad:*** o'quvchilarning topishmoq haqidagi tushunchalarini aniqlash, yangi mavzuga qiziqish uyg'otish.

Metod: suhbat, izlanish metodi.

O'qituvchi xattaxtaga osmondagi yulduzlar, yong'oq, yer yong'oq, arra rasmlarini ilib qo'yadi va quyidagi topishmoqni yozadi:

Tunda ko'rib, cho'g' deysan,
Tongda ko'rib yo'q deysan.

Savol-topshiriqlar beriladi:

– Shu rasmlar ichidan topishmoqning javobini toping.

– Qaysi so'zlar orqali topishmoqlarning javobi „yulduz" ekanini bildingiz?

Xattaxtaga 2-topishmoq yoziladi:

Qo'shaloq tovoq,
Ichi to'la yog'.

– Qaysi belgilariga ko'ra topishmoqning javobini topdingiz?

3-topishmoq yoziladi:

Pilla kabi bo'g'indor,
Har bo'g'inda mag'zi bor.

– Yer yong'oqning qaysi belgilari topishmoqda keltirilgan?

www.ziyouz.com kutubxonasi

4-topishmoq:

Og'zi yo'g'-u tishi bor,
Duradgorda ishi bor.

– Javob qaysi so'zlar orqali topdingiz?

O'qituvchi:

– Topishmoqlarni topishda sizga nimalar yordam berdi?

– Topishmoqda narsaning belgilarini ifodalovchi so'zlar bo'ladi.

– Topishmoqlarda ko'pincha kim?, nima? so'zlariga javob bo'ladigan so'zlar yashirinadi.

2. Topishmoqlar haqida ma'lumot berish. O'qituvchining hikoyasi:

– Topishmoq matnida narsa yoki hodisalarning belgisi, shakli, harakati, holati, vazifasi va boshqa tomonlari berilgan bo'ladi. Topishmoqlar qadimda „jumboq", „top-top" deb yuritilgan. Har bir topishmoq uni yaratgan xalqning hayoti, urf-odati, o'ziga xos rasm-rusmlari bilan bog'liq bo'ladi.

II. Anglash bosqichi. ***Maqsad:*** darslikda berilgan topishmoqlar bilan tanishtirish, mustaqil o'qishga, topishmoqlar yuzasidan o'zaro muhokama qilishga o'rgatish.

Metod: mustaqil ish, krossvord yechish, suhbat metodi.

1. Topishmoqni ifodali o'qish va javobini topish.
2. Savol-javob o'tkazish:

– Birinchi topishmoqning javobi nimaga o'xshatilgan? (G'o'zaga)

– Tungi osmon nimaga o'xshatilgan? (ko'k ko'ylakka)

– 2-topishmoqda oy nima deb ta'riflangan? (patir)

– 3-topishmoqda karamni qaysi belgilariga ko'ra topdingiz? (Karamning qavat-qavat bargi qat-qat to'nga o'xshatilgan)

3. Krossvord yechish.

O'qituvchi krossvordni vatmanga oldindan quyidagicha tayyorlashi mumkin: krossvord savollari topishmoqlar ko'rinishida bo'ladi. Sinfni 3 guruhga bo'lib, har bir guruhga 1 tadan krossvord yechish uchun beriladi. Bu usul bolalarning topishmoqni tez topishga ishtiyoqini oshiradi.

1-guruh uchun krossvord:

Bo'yiga

1. Keragida suvga o'tasan
   Qimirlashin poylab yotasan.
2. Kasbi doim taqir-tuqur,
   Qayda ilon ko'rsa cho'qir.

www.ziyouz.com kutubxonasi

3. Birlashtirib kiyimni
Issiq tutadi sizni.

Eniga

4. Qo'lsiz, oyoqsiz eshik ochar.
5. Katta oppoq dasturxon
Yer yuzini qoplagan.
6. Og'zi yo'g'-u, tishi bor,
Duradgorda ishi bor.

Javoblari:

1. Qarmoq. 2. Laylak. 3. Tugma. 4. Shamol. 5. Qor. 6. Arra.

2-guruh uchun krossvord:

Bo'yiga

1. Tikuvchimas,
Bichuvchimas,
Ignasi ancha ekan.
2. Kundalik tarix o'zi
Har yerda uning so'zi.
3. Bir onadan yuz bola,
Yuzovi ham bo'z bola.

Eniga

4. Uyning shiftida ini,
Kuylab berar har kuni.
Bahorda kutib olib
Kuzatamiz kuz uni.
5. Xo'ppa semiz, bir tuki yo'q.
6. Uzun terak, ichi kovak.

Javoblar:

1. Tipratikan. 2. Gazeta. 3. Uzum. 4. Qaldirg'och. 5. Tarvuz. 6. Qamish.

3-guruh uchun krossvord:

Bo'yiga

1. Pishirsang osh bo'lur,
Pishirmasang qush bo'lur.
2. Gulsiz meva qiladi,
Ko'p yesang – til shiladi:
G'ir-g'ildirak oy kulcha,
Bu nima, kim biladi?
3. Chopsa chopilmaydi,
Ko'msa ko'milmaydi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

4. Bodom kabi yaprog'i,
Sollanadi butog'i,
O'zi shirin, tukligina,
Mazasi ham totligina.

Eniga

5. Ikki ajib qulog'i bor:
Biri tinglar, biri so'zlar.
6. O'zi qizil, go'zal biram,
Qirga yozar qizil gilam.
7. Pak-pakana bo'yi bor,
Yetti qavat to'ni bor.

Javoblar:

1. Tuxum. 2. Anjir. 3. Soya. 4. Shaftoli. 5. Telefon trubkasi. 6. Lola. 7. Piyoz.

III. Fikrlash bosqichi.

Maqsad: Darslikdagi savol-topshiriqlarga javob olish orqali egallangan bilimlarni aniqlash, o'yinlar orqali ijodiy izlanish ko'nikmasini shakllantirish.

1. Darslikdagi savol va topshiriqlar ustida ishlash:
   - Topishmoqlarni kim yaratgan?
   - Topishmoqlar qadimda nima deb nomlangan?
   - Topishmoqning qanday foydasi bor?
   - O'zingiz qanday topishmoqlar bilasiz?

2. O'quvchilar bir necha qatorlarga ajratilib, o'yin uyushtiriladi: qator boshliqlari o'quvchilarga biror narsa rasmini beradi, o'quvchi rasmga oid topishmoq aytadi. Bir o'quvchi aytolmasa, orqadagi o'quvchiga uzatadi. O'quvchilarning o'zlariga „Shunga doir topishmoqni o'zingiz to'qishingiz ham mumkin" deb aytiladi. Qaysi qator topishmoqni birinchi aytsa, o'sha g'olib sanaladi.

3. Uyga vazifa. Darslikda o'qilmagan yangi topishmoqlar topib, daftarga yozib kelish.

4. O'quvchilarni rag'batlantirish va darsni yakunlash.

O'qishdan umumlashtiruvchi darslarni tashkil etish

O'qishdan o'tkaziladigan umumlashtiruvchi dars o'quvchilar bilimini bir tizimga solish, o'rganilganlarni takrorlab umumlashtirish maqsadiga xizmat qiladi. Umumlashtiruvchi dars odatda o'qish dasturidagi u yoki bu muhim mavzu yuzasidan o'tkaziladi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Umumlashtiruvchi dars dasturning butun bir bo'limini yakunlashga xizmat qilishi ham mumkun.

Umumlashtiruvchi dars bolalar tasavvuri va tushunchalarni kengaytirishga yordam beradi; bunday darslarda o'quvchilar egallagan bilimlarining sinf va maktab jamoasi hayotida, har bir o'quvchi hayotida qanday ahamiyatga ega ekanini tushunadilar. Bu darsda o'qituvchi bolalar bilimini boyitadigan shu mavzuga oid qo'shimcha materiallar ham berishi mumkin.

Umumlashtiruvchi darsda takrorlash, ilgari o'qilganlar mazmunini o'quvchilar yodida qayta tiklash emas, balki umumlashtiruvchi xarakterda bo'lishi, bolalar bilimini ma'lum bir tizimga solishga, ayrim tasavvur va tushunchalarini tartibga solishga yordam berishi lozim. Shunday ekan, bunday darslar uchun kitobdan o'qiganlarinigina emas, balki bolalarning kuzatishlari natijasida bevosita idrok qilingan tabiatdagi predmetlar va hodisalar, ijtimoiy hayot voqealari, shaxsiy tajribalari ham material bo'ladi. Maktab hayoti, oila mavzusiga yoki tabiatshunoslikka oid mavzuga bag'ishlangan umumlashtiruvchi darsning vazifasi kitob materialini o'quvchilarning kuzatishlari, ekskursiyalar jarayonida olgan bilimlari bilan bog'lash hisoblanadi.

Umumlashtiruvchi darslarda ish turlari xilma-xil bo'lib, ko'rilgan va kechirilganlar yuzasidan, illustrativ materiallarni (rasmlar, misollar) ko'rsatish va tahlil qilish, o'quvchilarning ayrim asarlardan parchalar o'qishi, ekskursiya va kuzatishlar asosida o'quvchilarning og'zaki hikoyasi kabilardan foydalaniladi.

Umumlashtiruvchi dars uchun ish turi darsning aniq maqsadidan kelib chiqib tanlanadi.

O'quvchilar muayyan mavzu ustida ishlab, o'qiganlari, ko'rganlari, eshitganlari, kuzatganlari haqida o'z fikr-mulohazalarini dadil va erkin aytish imkoniyatiga ega bo'lsinlar. Masalan, ma'lum bir mavzuni yakunlab o'tkazilgan umumlashtiruvchi darsda bolalar kitobdan shu mavzuga oid o'qigan hikoya va maqollardan qaysi biri qiziqarliroq ekanini, shuningdek, u yoki bu asarda qatnashuvchi shaxslar, ularning xulq-atvorlari haqida o'z fikrlarini aytadilar, ayrim zaruriy hollarda o'qilgan asar mazmunini qisqa bayon qiladilar. Agar mavzuni o'rganish jarayonida o'quvchilar bilan ekskursiya o'tkazilgan bo'lsa, ular ekskursiyada ko'rganlaridan nimalar qiziqarli bo'lganini, qaysilari kuchli taassurot qoldirganini aytib berishlariga o'qituvchi yordam beradi. Bular o'quvchilar tafakkurini faollashtiradi, ularni mustaqil fikrlashga o'rgatadi, o'stiruvchi ta'limning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

4-sinfda Vatan haqida bilim beradigan „O'zbekiston – Vatanim manim" mavzusida berilgan „Serquyosh o'lka" she'ri (Z. Diyor), „Toshkentnoma" (M. Shayxzoda), „Dehqon bobo va o'n uch bolakay qissasi" (A. Oripov), „Xarita" (N. Norqobilov), „Mardlik va aql yorug'ligi" (M. A'zam) she'r va hikoyalari o'qilgandan keyin o'tkaziladigan umumlashtiruvchi darsning vazifasi o'quvchilarning o'qiganlarini, Vatan bo'ylab qilgan sayohatlari jarayonida ko'rganlari, hozirda ko'rayotganlari bilan bog'lab, umumiy xulosa chiqaradilar. Bunda o'quvchilarning shaxsiy tajribasi, oila va maktab, shahar hayoti haqidagi bilimlari katta ahamiyatga ega. Bunday darslarda umumiy xulosani o'qituvchining yordamisiz o'quvchilarning o'zlari mustaqil ravishda chiqarishlari juda muhim bo'lib, bu ularning kelgusida ishonchlarini shakllantirish uchun mustahkam asos hisoblanadi.

„O'qish kitobi" darsliklarida berilgan savol va topshiriqlar bolalar qiziqishlariga yaqin, ularning yosh xususiyatlariga mos, shuning uchun ular yuzasidan bolalar to'g'ri yakun va umumiy xulosa chiqara oladilar. Mustaqil xulosa chiqarish tarbiyalovchi ta'limda muhim ahamiyatga ega.

Umumlashtiruvchi darsni muvaffaqiyatli o'tkazish unga o'qituvchining qanday tayyorgarlik ko'rganiga bog'liq. Bunday darsda juda ko'p material yuzasidan umumiy xulosa chiqarishni rejalashtirish mumkin emas; bu darsga ko'p material yuklash o'quvchilar diqqatini tarqatib yuboradi, idrok etish qobiliyatlarini pasaytiradi va faol fikrlash imkonini chegaralaydi. O'qituvchi umumlashtiruvchi darsda o'quvchilardan nimalarni so'rashni, mavzu yuzasidan yana nimalarni umumlashtirishini belgilab oladi; darsning maqsadi haqida o'ylab, bolalar tafakkuri va faoliyatini faollashtirishga ta'sir etadigan ish turlaridan foydalanishni rejalashtiradi.

Umumlashtiruvchi darsni o'qish dasturidagi har bir mavzu o'rganilgandan so'ng o'tkazish shart emas. Uni faqat o'qish darsining muhim va katta bo'limi materiallari o'rganilgandan keyin o'tkazish maqsadga muvofiq. Mavzularni o'rganish davrida foydalanilgan ko'rgazmali qo'llanmalardan, savol va topshiriqlardan, ekskursiya, kuzatish, uchrashuv va suhbat materiallaridan umumlashtiruvchi darslarda shundayligicha – bir xilda foydalanish tavsiya etilmaydi.

Umumlashtiruvchi dars oldiga qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o'qituvchi kundalik mashg'ulotlarda foydalanilgan juda ko'p materiallardan har bir mavzu uchun juda muhim va xarakterlilarini tanlashi, o'quvchilar mustaqil xulosa chiqara olishlariga

www.ziyouz.com kutubxonasi

va o'z fikr-mulohazalarini mustaqil ravishda bayon etishga, ekskursiya va kuzatishda yozgan xotiralarni (agar bo'lsa) o'qib chiqishlari, ilgari tayyorlangan rasmlarini yig'ishlari, kitobdagi materiallarni ko'zdan kechirib, qiziqarli o'rinlarini belgilashlari, u yoki bu asardan ayrim parchani yodlashlari yoki matnga yaqin bayon etishga tayyorlanishlari lozim.

UMUMLASHTIRUVCHI DARS NAMUNASI

Mavzu. Mustaqillik – sharaf-shonim.

„Istiqlolim – istiqbolim" bo'limi yuzasidan umumlashtiruvchi dars.

Dars maqsadi:

1. „Istiqlolim – istiqbolim" bo'limi yuzasidan o'quvchilar egallagan bilimlarni tizimga solish.

2. O'quvchilarning bo'lim yuzasidan olgan bilimlarini takrorlash, umumlashtirish.

3. Bo'lim yuzasidan egallagan bilimlarning hayotdagi ahamiyatini tushunishlariga, mustaqillik buyuk ne'mat ekanligini anglashlariga erishish.

Dars turi: umumlashtiruvchi dars.

Dars metodi: suhbat, tarmoqlash, mustaqil ish metodi.

Dars jihozi. „Istiqlolim – istiqbolim" bo'limini o'rganishda qo'llangan rasmlar va o'quvchilar chizgan rasmlar, test topshiriqlari.

Darsning borishi

Sinf o'quvchilari ikki guruhga bo'linadi. 1-guruh ilmiy-ommabop asarlar ustida ishlaydi. Guruh nomi: „Mustaqil yurt farzandlari".

2-guruh she'riy asarlar ustida ishlaydi. Guruh nomi „Istiqboli porloq bolalar".

O'qituvchi har bir guruh vakillari uchun savol-topshiriqlar tuzadi (ular oldindan o'quvchilarga berib qo'yilishi ham mumkin). Savol-topshiriqlar dars vaqtida konvertda guruh sardoriga beriladi. Topshiriqlarni o'quvchilar darsda jamoa bo'lib bajaradilar.

1-tur topshiriq.

1-guruh uchun: „Mangulikka tatigulik kun" asari yuzasidan savollar tuzing va 2-guruh a'zolaridan javob oling.

2-guruh uchun: „Iqboli buyuksan" she'ri yuzasidan savol-topshiriqlar tuzing va 1-guruh a'zolaridan javob oling.

www.ziyouz.com kutubxonasi

O‘quvchilar taxminan quyidagicha savollar tuzadilar:

1-guruh a’zolari:

1. 1991-yil 31-avgust nima uchun „Mangulikka tatigulik kun“ deyiladi?
2. Mustaqillik sharofati bilan biz qaysi allomalarimizni tanib oldik?
3. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda nimalar rivojlandi?
4. Mustaqillikka erishgach, O‘zbekistonda paxtadan tashqari nima ekila boshlandi?
5. Asakada qanday zavod qurilgan? U nimalar ishlab chiqarmoqda?

2-guruh a’zolari:

1. „Iqboli buyuksan“ she’rini yod aytib bering.
2. „Iqboli buyuksan“ she’rida shoir yoshlarga nimalarni aytmoqda?
3. O‘zbekiston Davlat madhiyasini qo‘shiq qilib kuylab bering.

Guruhlar 1-tur bo‘yicha baholanadi.

2-tur topshiriq: Berilgan she’rni ifodali o‘qing va uning nima haqida ekanini ayting.

1-guruh uchun:

Ajdodlardan meros bo‘lib qolgan tuproq,
Bobolarning qon va teri tomgan tuproq.
Qizg‘aldoqlar ochilganda qilmay kanda,
Qir, adirlar gulxan bo‘lib yongan tuproq,
To‘kin-sochin dasturxonni solgan tuproq.

(Tursunboy Adashboyev)

2-guruh uchun:

Alla bo‘lib jaranglagan
Ona tilim – jon-u dilim.
Mir Alisher bobomlardan,
Meros bo‘lib qolgan tilim
Bobur Mirzo she’ridan
Rang va ohang olgan tilim.
Shunday tildan tonar bo‘lsam
Yoki o‘gay sanar bo‘lsam,
Qiyma-qiyma bo‘lsin tilim.
Ona tilim – jon-u dilim.

(Tursunboy Adashboyev)

3-tur topshiriq: „Zinama-zina“ o‘yini. Bunda shohsupaga birinchi chiqqan guruh unga „O‘zbekiston bayrog‘ini“ o‘rnatadi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

1-guruh uchun savol-topshiriqlar:

1. O'zbekiston Respublikasi qachon mustaqillikka erishdi?
2. O'zbekistonning rivojlanib borayotganini asoslab bering.
3. O'zbekiston Respublikasi bayrog'ini ta'riflab bering.
4. Istiqlolni ulug'lashimizning sababi nimada deb bilasiz?

2-guruh uchun savol-topshiriqlar:

1. „O'zbekiston kelajagi buyuk davlat" gapini kim aytgan? O'zbekistonning buyukligini qanday izohlaysiz?
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qachon qabul qilingan?
3. O'zbekiston Respublikasi Gerbini ta'riflab bering.
4. Mustaqillik o'zbek xalqiga qanday erkinliklar berdi?

4-tur topshiriq:

1. Konstitutsiyadan yod olgan moddalaringizdan aytib, uning ma'nosini izohlab bering.
2. „Istiqlolim – istiqbolim" mavzusida tuzgan 5–6 gapli matningizni o'qing yoki ijod etgan she'ringizni ayting.
3. „Istiqlolim – istiqbolim" mavzusida chizib kelgan rasmlar ko'rgazmasini namoyish qiling.

5-tur topshiriq:

Ifodali o'qish musobaqasi. Bunda o'qituvchi bo'limdagi asarlardan belgilab kelgan parchalarini o'qitadi. Misol:

– „Mangulikka tatigulik kun" asaridan bug'doy haqidagi parchani ifodali o'qing. Shu asardan O'zbekistondagi yer-mulk egalariga bildirilgan istaklarni ifodali o'qing.

– Konstitutsiyada keltirilgan moddalarni ifodali o'qing.

– Avtomobil zavodining tashkil etilishi haqidagi parchani ifodali o'qing.

6-tur topshiriq: Test topshiriqlari ustida ishlash.

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi so'zini kim yozgan?

A. Abdulla Oripov
B. Erkin Vohidov
C. Zafar Diyor

2. „Serquyosh", „Oltin vodiylar", „Istiqlol mash'ali" kabi so'zlar qaysi she'r matnida uchraydi?

A. „Iqboli buyuksan"
B. „O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi"
C. „Serquyosh o'lka"

www.ziyouz.com kutubxonasi

3. Qaysi kun „Mangulikka tatigulik kun" hisoblanadi?

A. 1992-yil 2-mart
B. 1992-yil 5-noyabr
C. 1991-yil 31-avgust

4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qachon qabul qilingan?

A. 1989-yil 21-oktabr
B. 1991-yil 18-noyabr
C. 1992-yil 8-dekabr

5. „Chiniqtir mayliga sen tanni, Unutma va lekin Vatanni" misralari qaysi she'rdan olingan?

A. „Iqboli buyuksan"
B. „Toshkentnoma"
C. „Serquyosh o'lka"

6. O'zbekiston va Janubiy Koreyaning avtomobil ishlab chiqaradigan qo'shma korxonasi qaysi shaharda joylashgan?

A. Samarqand
B. Toshkent
C. Asaka

7. „Neksiya", „Tiko", „Damas" avtomobillari qachondan boshlab ishlab chiqarila boshlangan?

A. 1992-yil 5-noyabrdan
B. 1993-yildan
C. 1996-yil bahoridan

8. „O'zbekiston kelajagi buyuk davlat" gapini kim aytgan?

A. Islom Karimov
B. Sharof Rashidov
C. Amir Temur

7-tur topshiriq: Krossvord yechish. Krossvord ikkala guruhga ham beriladi, birinchi yechgan guruh g'olib sanaladi.

Bo'yiga

1. Mustaqillik so'ziga ma'nodosh so'z. (Istiqlol)
2. O'zbekiston ramzi. (Bayroq)
3. Chaqaloq belanadigan narsa nomi. (Beshik)
4. Eng mo'tabar zot. (Ona)
5. Farzandiga ona aytgan qo'shiq. (Alla)
6. O'zbekiston ramzi. (Madhiya)

Eniga

7. O'zbekiston ramzi. (Gerb)

www.ziyouz.com kutubxonasi

8. Madhiyaga kuy bastalagan kompozitor ismi. (Mutal)
9. Kalendar so'ziga ma'nodosh so'z. (Yilnoma)
10. Yulduzlar ilmi bilan shug'ullangan olim ismi. (Ulug'bek)
11. Davlat qomusi. (Konstitutsiya)
12. O'zbekiston avtomobili nomi. (Neksiya)
13. Avtomobil zavodi joylashgan shahar. (Asaka)
14. Poytaxt nomi. (Toshkent)

Javoblar to'g'ri topilsa, eniga shu bo'limda yod olingan she'r nomini o'qiysiz. *(Iqboli buyuksan)*

Guruhlarning har bir tur topshiriqlari bo'yicha to'plagan ballari e'lon qilinadi, faol ishtirok etgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

Darsga yakun yasaladi.

O'QISH DARSLARIDA NUTQ O'STIRISH

Ma'lumki, nutq tafakkur bilan bog'liq, shuning uchun u tafakkur bilan uzviy bog'liq holda o'stiriladi. Darsda o'qilgan asarni o'quvchilar ongli tushunishi, asosiy mazmunini, g'oyasini anglab yetishi uchun tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish kabi mantiqiy usullar qo'llanadi. O'qilgan asarni analiz qilishda har xil ish usullaridan foydalaniladi. Bolalar hikoyadagi asosiy qatnashuvchi shaxslarni aytadilar, o'qituvchi rahbarligida asar rejasini tuzadilar. Qatnashuvchi shaxslarni o'quvchilar har xil tartibda aytishlari mumkin, ammo o'qituvchi ularni asarda qatnashish tartibida aytishni so'raydi. Natijada o'qituvchi rahbarligida hikoyaning chizmasi tuziladi. O'qituvchi bergan savollar yordamida asarlarning mazmuni aniqlanadi.

Shunday qilib, asar mazmuni bilan birinchi tanishish o'quvchilardan ongli ishlashni, ya'ni voqealarni, qatnashuvchilar tarkibini tahlil qilishni talab etadi. O'qish bilan bog'liq holda bajariladigan bunday mantiqiy ishlar asta-sekin murakkablasha boradi.

Boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida o'quvchilar nutqining o'sish darajasi to'g'ri uyushtirilgan qayta hikoyalashdir. Maktab tajribasida to'liq, qisqartirib, tanlab va ijodiy qayta hikoya qilish turlari mavjud. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun matnni to'liq yoki matnga yaqin qayta hikoyalash ancha oson, boshqa turlari esa nisbatan qiyinroqdir. Qayta hikoyalashda o'qilgan hikoya mazmuni yuzasidan o'qituvchining savoli hikoyaning detallari haqida, ayrim voqealar o'rtasidagi bog'lanishning sabab-natijalari haqida fikrlashga qaratilishi lozim. Asar sujetining rivojlanishida qatnashuvchi shaxslar, ularning

www.ziyouz.com kutubxonasi

xatti-harakati asosiy rol o'ynaydi. O'quvchilar asar mazmunini unda ishtirok etuvchi shaxslar va ularning xatti-harakati, xarakterli xususiyatlarini tahlil qilish yordamida yaxshi anglab yetadilar. O'qituvchining savoli asar qahramonlari nima qilgani, ularning u yoki bu xatti-harakati qayerda va qanday sharoitda yuz bergani haqida so'zlab berishga, voqealarni izchil bayon qilinishga va o'zaro bog'liqligini yoritishga yunaltirilishi lozim.

O'quvchi o'qilgan asar mazmunini o'qituvchi savoli yordamida aytib berishida faqat analizdan emas, sintezdan ham foydalaniladi: ayrim lavhalar o'zaro bog'lanadi (sintezlanadi), bir-biriga taqqoslanadi, ular yuzasidan muhokama yuritiladi va xulosa chiqariladi.

Ko'pincha boshlang'ich sinf o'quvchilari qatnashuvchi shaxslar xatti-harakatini yaxshi tushunmasliklari, ba'zan noto'g'ri yoki yuzaki tushunishlari natijasida asar mazmunini anglab yetmaydilar. Shuning uchun ham o'qituvchi savolni juda o'ylab tuzishi, u bolani fikrlashga, o'ylashga majbur etadigan, qatnashuvchi shaxslarning xatti-harakati, voqealarning bog'lanishi yuzasidan muhokama yuritishga undaydigan, ularni o'zaro qiyoslashga, ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlashga yordam beradigan bo'lishi lozim. O'quvchi asarda qatnashuvchilarning xatti-harakatini qanchalik aniq ko'z oldiga keltira olsa, u hikoyaning asosiy mazmunini shunchalik chuqur tushunadi, shunchalik mustaqil qayta hikoya qilib beradi.

O'qilgan asar mazmunini izchil ravishda qayta hikoyalash uning rejasini tuzishga yordam beradi. Reja tuzishda o'quvchi hikoyani tarkibiy qismlarga bo'ladi va har qaysi qismdagi asosiy fikrni aniqlaydi. Bularning hammasi analitik ish hisoblanadi. Keyin sintetik ishga o'tiladi, ya'ni bolalar hikoya qismlariga sarlavha topadilar. O'quvchilar o'qituvchi rahbarligida reja tuzish jarayonida o'qilgan hikoyaning har bir qismida bosh va ikkinchi darajali masala nimalardan iboratliligi haqida, qanday qilib fikrni qisqa va aniq ifodalash haqida o'ylaydilar. Sarlavha topish ustida ishlash, o'quvchilar topgan sarlavhani jamoaviy muhokama qilish, reja tuzish jarayonining o'zi bolaning fikrlash qobiliyatini faollashtirishi, unda o'z mulohazasini isbotlash, asoslash odatlarini tarbiyalashi lozim.

Asarni o'qish va tahlil qilish jarayonida tuzilgan reja xattaxtaga yozilsa, hikoya mazmunini izchil qayta hikoya qilishga yordam beradi. Reja asosida hikoya qilishning vazifasi mazmunni berilgan izchillikda o'zlashtirishdir. Reja asosida qayta hikoyalash o'qituvchi savoliga

www.ziyouz.com kutubxonasi

javob berishga nisbatan asar mazmunini aytib berishning xiyla mustaqil shaklidir.

O'qilgan asar mazmunini o'zlashtirish ustida ishlashdagi keyingi bosqich qisqartirib hikoyalash hisoblanadi. Qisqartirib hikoyalash uchun 2–3 qismga bo'linadigan, bu bo'limlar yaqqol ajralib turadigan, mazmuni sodda asarlar tanlanadi. Qisqartirib hikoyalashga o'rgatish quyidagicha uyushtiriladi: o'qituvchi hikoyaning oldindan belgilab qo'ygan qismini o'qiydi va o'quvchilar bilan birgalikda eng muhim, asosiy fikr aniqlanadi. Bunda o'quvchilar ba'zan asardagi so'zlardan foydalanadilar. Bu o'quvchilarga qiyinlik qilsa, bo'limdagi asosiy fikrni o'z so'zlari bilan aytib berishlari mumkin. Keyin o'quvchilar o'qituvchi bilan bu qismni qisqartirib hikoyalashda nimalar haqida gapirmaslik kerakligini, qaysilar ikkinchi darajali yoki kam ahamiyatli fikr ekanini aniqlaydilar. Asarning boshqa qismlari yuzasidan ham shunday ish olib boriladi va o'quvchilar asarni qisqartirib qayta hikoya qiladilar. O'qilgan asarni qisqartirib hikoya qilishga II sinfdan boshlab o'rgatiladi.

Tanlab hikoyalash ham bolalarning tafakkuri va nutqini o'stirish vositalaridan biridir. Tanlab hikoyalashda o'quvchi: 1) o'qilgan matndan bir qismini, uning chegarasini ongli ravishda ajratib so'zlab beradi; 2) hikoyadan faqat bir voqeani aytib beradi; 3) hikoya mazmunini faqat bir sujet yo'nalishida so'zlab beradi.

O'quvchilarda tanlab qayta hikoyalash malakasini hosil qilishga boshlang'ich sinf izohli o'qish darslarida keng qo'llaniladigan metodik usullar yordam beradi: 1) hikoya qismiga chizilgan rasm asosida hikoyalash; 2) hikoyadagi bir voqeani tasvirlovchi rasm asosida hikoyalash; 3) tanlab qayta hikoyalashni talab etadigan savollarga javob berish.

O'quvchi tanlab hikoya qilishga tayyorlanganda o'qilgan matnni tahlil qiladi. Bunday tahlil bolalar tafakkurini, ular nutqidagi mustaqillikni o'stiradi va o'qilgan matn mazmunini o'zlashtirishga yordam beradi.

Hikoyani o'qish bilan bog'liq holda o'tkaziladigan ijodiy ishlar ham o'quvchilar nutqini, tafakkurini o'stiradi. Bular: 1) ijodiy qayta hikoyalash; 2) inssenirovka qilish; 3) o'qilgan asarga rasm chizish; 4) hikoyani davom ettirish.

Ijodiy qayta hikoyalashda o'qilgan hikoyaning sharoiti yoki shaklini o'zgartirib hikoya qilinadi. Bunda hikoyani yangi epizodlar bilan to'ldirib hikoya qilish ham mumkin.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Inssenirovka yoki sahnalashtirishda o'quvchilar o'qilgan hikoyani sahnabop qilib o'zgartiradilar. Buning uchun ular hikoyaga ssenariy haqida, kiyim-kechaklari, qatnashuvchilarning imo-ishorasi haqida o'ylaydilar, monologik nutqni dialogik nutqqa aylantiradilar (bu tilni o'rgatish nuqtai nazaridan eng muhim ish hisoblanadi).

O'qilgan hikoyaga rasm chizishda o'quvchi rassomlar tomonidan chizilgan rasmlardan o'qilgan asarning mazmuniga mos rasm tanlaydi yoki o'zi rasm chizadi. Agar o'quvchi rasmni yaxshi chiza olmasa, o'zi chizmoqchi bo'lgan rasmni og'zaki tasvirlab beradi, ya'ni so'z bilan chizadi.

O'qilgan hikoyani davom ettirish usuli maktab tajribasida keng qo'llaniladi. Bu usul hikoyaning mazmuni uni davom ettirishga imkon beradigan asarlarda qo'llaniladi.

Umuman olganda, boshlang'ich sinf o'qish darslarida ham o'quvchilar nutqi va tafakkurining rivojlanishiga katta ahamiyat qaratiladi.

Savol va topshiriqlar

1. Boshlang'ich sinf ona tili dasturi („O'qish" bo'limi) va o'qish darsliklarida berilgan o'qish mavzularini va o'quvchilarning bilimiga qo'yilgan talablarni aniqlang. Ularga o'z munosabatingizni bildiring.

2. Hikoya o'qishda qaysi ish turlaridan foydalaniladi? Hikoya o'qish darsiga misol tariqasida bironta mavzuga oid dars ishlanmasini tayyorlang.

3. Ertakni o'rganishda qanday usullardan foydalaniladi? Boshlang'ich sinflarning „O'qish kitobi"ga kiritilgan ertaklarni sinflar bo'yicha guruhlab, ko'proq qaysi mavzudagi ertaklar berilganini izohlang.

4. Masal matni ustida qanday ishlar amalga oshiriladi? Masalni o'qish darsi namunasini tayyorlang.

5. „Oqish kitobi"da berilgan she'riy asarlarni guruhlang. Ularni o'rganish usullarini yoriting.

6. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'rganiladigan birorta doston bo'yicha dars ishlanmasini tayyorlang.

7. O'qish darslarida qanday mustaqil ish turlaridan foydalaniladi? Ularni misollar bilan tushuntiring.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Sinfdan tashqari o'qishning maqsad va vazifalari

Maktab o'quvchini o'qish malakasi bilan qurollantirish bilan bir qatorda kitobni mustaqil o'qiy oladigan, uni tushunadigan, ma'lum bir mavzuga oid kitoblarni tanlay oladigan, gazeta va jurnallarni ham mustaqil o'qiydigan faol kitobxonni tarbiyalaydi. Shu jihatdan sinfdan tashqari o'qish (STO') tarbiyaning asosiy quroli sifatida xizmat qiladi, ko'p narsani bilishga havasni orttiradi.

STO'ning maqsadi o'qish malakalarini takomillashtirish, kitob tanlay oladigan, muntazam kitob o'qiydigan, o'qilgan kitobni to'g'ri baholay oladigan ongli kitobxonni tarbiyalashdir.

Maktablarda 1959-yildan boshlab maxsus STO' darslari tashkil etilgan. STO' darslari 1–2-sinfda haftada 1 marta, 3–4-sinfda 2 haftada 1 marta o'tkaziladi. Savod o'rgatish jarayonida esa haftadagi oxirgi alifbe darsining 17–20 daqiqasi ajratiladi.

Sinfdan tashqari o'qish o'quv dasturi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, unda ko'zda tutilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda yaqindan yordam beradi. Buning uchun o'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini tarbiyalash, ularni oddiy kitobxondan ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarish talab etiladi. O'quvchilarda kitobga havas uyg'otishda har bir bolaga yakka tartibda yondashish, shaxsiy qiziqishlarini hisobga olish zarur. Bolalarda kitob ustida ishlash malakasini shakllantirish ularda kitobxonlik madaniyatini tarbiyalashning muhim omilidir. Bunda o'qish uchun ajratilgan soatlardan foydalaniladi.

Badiiy va ilmiy-ommabop asarlar mustaqil ravishda va izchil o'qib borilsagina, o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirish va kengaytirishga xizmat qiladi.

Sinfdan tashqari o'qish tanish bo'lmagan mualliflarning kitoblari muqovasi, titul varag'i, kirish so'zi, mundarijasi va suratlariga qarab asarning taxminiy mazmunini aniqlashga o'rgatish vazifasini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Sinfdan tashqari o'qish darslarining asosiy vazifasi o'quvchida badiiy kitoblarni o'qishga havas uyg'otish, o'qigan kitoblari yuzasidan kundalik yurita olishga o'rgatish, bolalar adabiyotining mashhur adiblari hayoti va ijodi bilan elementar tarzda tanishtirish hisoblanadi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Bolalarda ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafrat uyg'otish, ularning bog'lanishli nutqini o'stirish, adabiy-estetik tafakkurini yuksaltirish sinfdan tashqari o'qish darslarining ham tub mohiyatini tashkil etadi.

STO' darslarining **muhim vazifalaridan biri mustaqil o'qish malakalarini tarbiyalash** hisoblanadi. Buning uchun mustaqil bajarish uchun topshiriqlar berish, qiziqarli mashq turlaridan foydalanish, eng yaxshi insholarni, taqrizlarni, yozuvchi haqida to'plangan ma'lumotlarni o'qitish, ***„Tez aytish", „Topishmoqlar topish", „Ifodali o'qish", „Maqollar aytish musobaqasi", „Ertak to'qish", „Bilimdonlar anjumani"*** kabi ko'rik-tanlovlar tashkil qilish, muayyan mavzular bo'yicha savol-javoblar uyushtirish, o'yin tarzidagi ish turlaridan foydalanish zarur. O'qilgan asarlar yuzasidan suhbatlar o'tkazish, ***„Kitob haftaligi"*** tashkil etish, asarlar asosida kichik insholar yozishni mashq qilish yaxshi samara beradi.

STO' sinfda o'qish bilan uzviy bog'liq ravishda uyushtiriladi. Sinfda o'qish STO' uchun zarur bo'lgan o'qish malakalarini shakllantiradi, o'quvchilarning o'qigan asarini tushunishga o'rgatadi, lug'atini boyitadi. STO' qiziqarli va o'ziga jalb etadigan faoliyat bo'lib, bolalarning bilim doirasini boyitadi, qiyoslash uchun material beradi. Sinfda o'qish – hayotga tayyorlash vositasi, sinfdan tashqari o'qish esa hayotning o'zidir.

Hozirgi paytda boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun sinfdan tashqari o'qishga mo'ljallangan „Kitobim – oftobim" (1–3-sinflar uchun) nomli qo'llanmalar ham chop etilgan.

Sinfdan tashqari o'qish bosqichlari

STO' darslari o'quvchilarda mustaqil kitob tanlash va o'qish malakalarini shakllantiradi. Mustaqil o'qish malakasini shakllantirish 3-bosqichga bo'linadi:

1. Tayyorlov bosqichi. Bu 1-sinfning savod o'rgatish davriga to'g'ri keladi. Unga darsning bir qismi – 17–20 daqiqasi ajratilgani uchun „STO' mashg'uloti" deb yuritiladi. Uning o'ziga xos xususiyatlari shundaki, o'qituvchi asarni o'zi tanlaydi, asarning kichik hajmda bo'lishiga va boshqa kitob tanlash tamoyillariga e'tibor beradi. Asarni o'qituvchining o'zi o'qib beradi. O'quvchilar asarni eshitishga, eshitganlarini idrok etishga, ularga soddagina baho berishga, asar mazmuni bilan sarlavhasining mosligini aniqlashga, asar mazmunini hikoya qilib

www.ziyouz.com kutubxonasi

berishga o'rgatiladi. Bu bosqichda o'quvchilar o'qish gigiyenasi va kitobga qanday munosabatda bo'lish bilan tanishadilar.

2. Boshlang'ich bosqich. Bu 1-sinfning 2-yarim yilligiga to'g'ri keladi. Bu bosqichda haftada 1 marta 45 daqiqalik dars uyushtiriladi. Asarni o'qishdan oldin o'quvchilar asar nomi va uning muallifi bilan tanishadilar, rasmlarini tomosha qiladilar, daftarlariga u haqda soddagina qilib asar muallifini va nomini yozadilar. Asar elementar tarzda tahlil qilinadi. Tanlangan asar (kitob) yaxshi o'qiydigan o'quvchiga maxsus tayyorgarlikdan so'ng o'qitiladi. Asarning oson o'qiladigan o'rinlarini bo'sh o'qiydigan o'quvchilarga o'qitish ham mumkin. Bu ularda o'qishga qiziqish uyg'otadi. Bu bosqichda o'quvchilar har xil tezlikda bo'g'inlab o'qiydilar. Shuning uchun o'qituvchi bu jarayonda har bir o'quvchiga individual yondashishi, kichik kitobxonni kitobni mustaqil o'qishga o'rgata borishi lozim.

3. Asosiy bosqich. Bu bosqich 2–4-sinflarga to'g'ri keladi. Bu davrda o'quvchilarning o'qish malakalari mustahkamlanadi. Bunda o'quvchilarning sinfdan tashqari o'qiganlari baholanadi. Baholashda dastur talablariga asoslaniladi: o'qigan kitoblarining sifat o'zlashtirishiga, miqdoriga, o'qigan kitobiga munosabat bildira olishiga e'tibor beriladi. Bunda o'quvchilar muayyan mavzuga doir bir necha asarlarni o'qib keladilar, ularning ayrim o'rinlarini ifodali o'qib beradilar, o'qigan asarlarini o'zaro taqqoslaydilar.

STO'ning bosqichlari, dastur talablari, tarbiyaviy vazifalari o'quvchilarning qiziqishlari bilan belgilanadi. Masalan, tayyorlov bosqichida kichik hajmdagi asarni o'qituvchi o'qib bersa, o'qilganlar yuzasidan suhbat, qayta hikoyalash o'tkazilsa, boshlang'ich bosqichda butun sinf o'quvchilari bir xil kitob bilan ta'minlanadi, barcha o'quvchilar bitta matn ustida ishlaydilar. Bunda bitta yozuvchi yoki bir mavzudagi asarlar ko'rgazmasi tashkil qilinadi. Asar ichda o'qishga topshirilishi, albomlar tayyorlanishi, kinofilm va diafilmlardan parchalar ko'rsatilishi, musiqiy daqiqalar o'tkazilishi hamda asar mazmuni yuzasidan ijodiy rasmlar chizdirilishi ham mumkin. Bu jarayonda kitobni saqlash maqsadida uni yamash, o'rash o'rgatiladi, ***„Ertaklar bayrami", „Ifodali o'qish tanlovi"*** o'tkaziladi.

Asosiy bosqich yakunida kichik yoshdagi o'quvchilar faol kitobxon uchun zarur bo'lgan yaxshi o'qish ko'nikma va malakalarini egallashlari, eng muhimi, ularning kitob hamda mustaqil o'qishni yaxshi ko'rishlariga erishish juda muhimdir.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Sinfdan tashqari o'qish uchun kitob tanlash tamoyillari

Metodikaning vazifalaridan biri STO' uchun kitoblar tanlash, o'qiladigan adabiyotlar ro'yxatini tavsiya qilish, yillik o'quv rejasi va dars tuzilishi namunalarini ishlab chiqishdir.

Sinfdan tashqari o'qish uchun kitob tanlashda quyidagi tamoyillarga amal qilinadi:

1. Kitob tanlashda tarbiyaviy maqsad ko'zda tutiladi. Bunda o'quvchilarga vatanimiz o'tmishi, mustaqillik uchun kurash, xalq qahramonlari, xalq turmushi haqidagi, oilada, maktabda va jamoat joylarida o'zaro munosabatlarda yuzaga keladigan axloqiy muammolar haqidagi, tabiat va uni asrab-avaylash haqidagi kitoblar tavsiya etiladi.

2. Kitob tanlashda asarlar janri va mavzusining xilma-xilligi e'tiborga olinadi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar, asosan, hikoyalar, ertaklar, she'rlar, topishmoqlar, maqollarni o'qishga qiziqqanlari uchun shu janrdagi asarlar tanlansa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

3. Kitobning o'quvchilar yoshi va saviyasiga mosligi hisobga olinadi. 1-sinfda kichik hikoya va ertaklarni o'qish tavsiya etilsa, 2–4-sinflarda mavzular doirasi kengaytirilib, kundalik turmushda ro'y berayotgan turli voqealar tasvirlangan asarlar, gazeta va jurnallardagi kichik hajmli xabarlarni o'qish ham tavsiya etilishi mumkin.

4. Kitob tanlashda o'quvchilarning shaxsiy qiziqishi va mustaqil o'qishi hisobga olinadi. Bunda o'quvchilar o'ziga qiziqarli bo'lgan o'zbek va xorijiy bolalar adabiyoti yozuvchilarining asarlarini o'zi tanlashi muhim ahamiyatga ega.

5. Kitob tanlashda mavsumiy tamoyilga amal qilinadi.

Umuman olganda, kitobni to'g'ri tanlash sinfdan tashqari o'qish muvaffaqiyatini ta'minlashning muhim shartidir.

Sinfdan tashqari o'qishga rahbarlik shakllari

STO'ga rahbarlikning asosiy shakli maxsus sinfdan tashqari o'qish darslaridir. Bunday darslar erkin dars hisoblanadi. STO' darslarida o'quvchilarning kitobxonlik qiziqishlari, bilim doirasi, estetik taassuroti, badiiy obrazlarni idrok etishi, ijodiy qobiliyati rivojlanadi; faol kitobxonga xos ko'nikma va malakalar shakllanadi.

Sinfdan tashqari o'qish darslari o'quvchilarning faolligini oshirishga qaratiladi, shuning uchun ularning qurilishi juda xilma-xil bo'ladi Har bir dars o'qituvchi va o'quvchining ijodi hisoblanadi; darsda qa

www.ziyouz.com kutubxonasi

chalik xilma-xillikka, hayotiylikka erishilsa, maqsadga erishish oson kechadi.

Shularga qaramay, STO‘ darslari o‘z oldiga qo‘yilgan vazifalarni amalga oshirishi uchun ma’lum talablarga bo‘ysunadi. Ular quyidagilardir:

1. Har bir darsda o‘quvchilar o‘qigan kitoblar (asarlar) hisobga olinadi. Ular o‘qigan va o‘qiyotgan kitoblarini sinfga olib kelib ko‘rsatadilar, ikki-uch o‘quvchi o‘zlari o‘qigan kitob haqida gapirib beradi, darsda o‘zaro fikr almashish holati yaratiladi (bu holat darsdan tashqari vaqtda ham davom etishi mumkin).

2. Har bir darsda o‘qish uchun yangi kitob (asar)lar tavsiya qilinadi. Tavsiya qilish shakllari turlicha bo‘lib, ular fikr almashuv, kitobni ko‘rsatish, sinfda ko‘rgazma tashkil etish, o‘quvchilarni qiziqtirish uchun tavsiya qilinadigan kitobdan biror parchani o‘qib berish, rasmlarni ko‘rsatish yoki film namoyish etishdan iborat bo‘lishi mumkin.

3. Har bir darsda o‘quvchilarga asarni yaxlit holda o‘qitish mumkin. Agar asar hajmi kattaroq bo‘lsa, bu ish ikki-uch dars davomida amalga oshiriladi. Bunda o‘quvchilar o‘zlari o‘qigan kitobdan biror parchani ovoz chiqarib o‘qib berishlari mumkin. Bu jarayonda ichda o‘qishdan ham, she’r yodlashdan ham, rollarga bo‘lib o‘qishdan ham foydalaniladi.

4. Har bir darsda o‘qilgan asar yuzasidan suhbat metodi orqali tahlil ishlari amalga oshiriladi. Bunda erkin hikoya qilish uchun „Senga asardagi nimalar yoqdi?“, „Bu kitob haqida sen nimalar ayta olasan?“ kabi savollar beriladi va o‘quvchilarning ijodiy hamda mustaqil qayta hikoyalash malakalari shakllantiriladi.

5. Har bir darsda ma’lum bir yangi kitobxonlik ko‘nikmasi hosil qilinadi: muallif haqida ma’lumotlar to‘plash, kitob nomiga qarab u nima haqida ekanligini aytish, o‘qilgan asarlar yuzasidan ko‘rgazmalar tayyorlash, asarga taqriz yozish, albomlar tayyorlash, kitobxonlik kundaligini yuritish kabi ishlar amalga oshiriladi.

6. Har bir dars kirish suhbati bilan boshlanadi va sinfda o‘qish darslarida qo‘llanadigan barcha usullardan ijodiy foydalaniladi.

7. Har bir darsda tahlil qilingan asarlar yuzasidan umumlashtiruvchi, yakunlovchi suhbat uyushtiriladi. Umumlashtirishga ko‘rgazma ham, albom tuzish ham, rasmlarni tatbiq etish ham yordam beradi.

Sinfdan tashqari o‘qishga rahbarlikning **yordamchi shakllari** ham mavjud bo‘lib, ular barcha ishlarni izchil uyushtirishni ta’minlaydi,

www.ziyouz.com kutubxonasi

STO‘ darslari uchun sharoit yaratadi. Bunday shakllarga quyidagilar kiradi:

1. Kitobni targ‘ib qilish. STO‘ga tavsiya qilinadigan asarlar ro‘yxati sinfga yoki maktabning maxsus joyiga osib qo‘yiladi, ular vaqti-vaqti bilan yangilab turiladi, to‘ldiriladi, ko‘rgazmalar tashkil qilinadi. O‘qituvchi maxsus suhbatlar uyushtiradi.

2. Yakka tartibdagi yordam va kundalik tekshiruv. O‘quvchilarning o‘qigan kitoblari yuzasidan suhbat uyushtiriladi, o‘qilgan kitoblar hisobga olinadi. Shaxsiy fikrlar aniqlanadi, uy kutubxonalari bilan tanishiladi, ota-onalar bilan suhbat o‘tkaziladi.

3. STO‘ yuzasidan ommaviy ishlar. Adabiy ertaklar, viktorinalar, yozuvchilar bilan uchrashuvlar, adabiy ekskursiyalar uyushtiriladi, ular uchun maxsus tayyorgarlik ko‘riladi.

4. Kutubxonaga yozilish. 1-sinf o‘quvchilari o‘qituvchining tavsiyasi bilan kutubxonaga a’zo bo‘ladi. Bu jarayonda o‘qituvchi va kutubxonachi hamkorlikda ish olib borishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

5. O‘quvchilarning o‘qiganlarini hisobga olish. Bunda ularning kitobxonlik kundaligidan foydalaniladi. 1-sinf o‘quvchilari 2-yarim yillikdan boshlab kitobxonlik kundaligiga yozuvchining ismi, familiyasi va kitob nomini, 2-sinfda esa unga nashr etilgan joyi va yilini qo‘shib yozadilar. 3—4-sinflarda o‘qigan kitobining qisqacha mazmunini yozib, unga taqriz va o‘z mulohazalarini ham qo‘shishlari mumkin.

O‘quvchilarning o‘qigan kitoblari og‘zaki tarzda ham hisobga olinadi: ular o‘qiganlari yuzasidan sinfdan tashqari o‘qish va sinfda o‘qish darslarida, yakka tartibdagi suhbatlarda gapirib beradilar.

Sinfdan tashqari o‘qish darslarining turlari

Sinfdan tashqari o‘qish darslarining xususiyatlari, birinchidan, STO‘ tizimining bosqichlari bilan, ikkinchidan, o‘quv vazifalari va dastur bilan, uchinchidan, oldinga qo‘yilgan tarbiyaviy vazifalar bilan, to‘rtinchidan, o‘quvchilarning qiziqishlari bilan belgilanadi.

1-sinfda tayyorlov bosqichida yangi matn o‘qituvchi tomonidan o‘qib beriladi, boshlang‘ich bosqichdagi darslarda yangi kichik hajmli matnni o‘quvchilar o‘qiydilar.

Keyingi bosqichlarda asar tahliliga doir ishlar kengaytiriladi, o‘quvchilar o‘qiganlarini taqqoslashga, umumlashtirishga, xulosalashga, qahramonlarni elementar tavsiflashga o‘rgatiladi. Bu jarayonda rollarga bo‘lib o‘qishdan foydalaniladi. Asosiy bosqichda STO‘ darslari

www.ziyouz.com kutubxonasi

2-sinfda haftada 1 marta, 3-4-sinflarda 2 haftada 1 marta o'tkaziladi. O'quvchilar mustaqil o'qishga o'rgatiladi, ular „G'uncha", „Gulxan", „Bilimdon" jurnallari, „Tong yulduzi" gazetasi bilan, ya'ni bolalar matbuoti bilan tanishtiriladi. Bu bosqichda o'zbek, qardosh va chet el adabiyoti yozuvchilarining turli janrdagi va mavzudagi asarlaridan foydalaniladi. Bir darsga o'quvchilar bir nechta asarlar o'qib kelib, ular haqida o'z fikrlarini aytib beradilar, qahramonlarni tasvirlab, rasm chizadilar. Bu jarayonda yozuvchilar hayoti va ijodiga doir kechalar uyushtiriladi. Shu tarzda adabiyotni sevadigan, mustaqil fikr yurita oladigan kitobxon shaxsi shakllantiriladi.

Sinfdan tashqari o'qish darslarida o'qilgan kitobni muhokama qilish, ijodiy qayta hikoyalash, insenirovka qilish, rasmlar chizish, ifodali o'qish, kitoblar tavsiya qilish usullaridan keng foydalaniladi.

Sinfdan tashqari o'qish darsi namunalari

I. 1-sinfda (tayyorlov bosqichi) STO' darsi.

Mavzu: Cho'pon yigit Shiroq.

Darsning maqsadi:

a) afsonaviy qahramonlar haqida ma'lumot berish;

b) o'quvchilarda vatan tushunchasini, vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalash.

Darsning metodi: suhbat.

Darsning jihozi: asar mazmunini yorituvchi rasmlar.

Darsning borishi

1. Kirish suhbati.

O'quvchilardan vatanini dushmandan asragan qahramonlardan kimlarni bilishlari so'raladi. To'maris, Jaloliddin Manguberdi, Najmiddin Kubro nomlari sanalib, Shiroq degan qahramon ham o'tganligini, uning qahramonligi haqida xalqimiz, „Cho'pon yigit Shiroq" degan afsona yaratgani aytiladi.

2. „Cho'pon yigit Shiroq" afsonasi o'qib beriladi.

3. Afsona yuzasidan dastlabki suhbat o'tkaziladi:

– Afsona sizga yoqdimi?

– Unda kimning qahramonligi hikoya qilib berilgan?

– Shiroq nima uchun xanjari bilan burni, quloqlarini kesadi?

– Keyin Shiroq kimning oldiga boradi?

– U shoh Doroga nima deydi?

www.ziyouz.com kutubxonasi

– Shiroq Doro qo'shinlarini qayerga olib boradi?
– Shiroq nima deb hayqiradi?

O'quvchilar javobi umumlashtirilib, vatanni sevish, uning tinchligi uchun kurashish kerakligi ta'kidlanadi.

4. Asarga ishlangan rasmlar ko'rsatiladi. Bu jarayonda asar mazmuni yuzasidan rasmlarga bog'lab qisqacha suhbat uyushtiriladi.

5. Shiroq rasmini uyda chizib kelish topshirig'i beriladi. O'quvchilarga ota-onalaridan qahramonlar haqida ertak, hikoya bilib kelishlari va ota-onalariga Shiroq haqida gapirib berishlari aytiladi.

II. 2-sinfda (boshlang'ich bosqich) STO' darsi.

Mavzu: Tabiat – mening uyim.

Darsning maqsadi: she'r mazmuni bilan tanishtirish va tabiat haqidagi bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish, she'r o'qish sifatlarini takomillashtirish, tabiatga mehr-muhabbat hissini kuchaytirish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi.

Dars usuli: suhbat, tushuntirish.

Dars jihozi: tabiat manzarasi tasvirlangan plakat, rasmlar, qushlarning rasmlari.

Darsning borishi

1. Tashkiliy qism.

O'quvchilarning uyda o'qib kelgan asarlari so'raladi. Olib kelgan kitoblari ko'rib chiqiladi.

2. Yangi mavzu: „Tabiat – mening uyim".

1. Bir necha o'quvchiga ***„Tabiat – mening uyim"*** she'ri 4 qatordan yod ayttiriladi.

Dalalarni aylansam,
Uzoq xayolga botsam,
Chigirtkalar qo'shig'in
O'tloqda tinglab yotsam.
Tabiat – mening uyim,
Tabiat – jonimda jon.
Shivirlayman men unga
Va onamga: – Onajon!
Shundanmi ko'ksim og'rir
Zaharlansa ona yer.
Tabiat – mening uyim,
Tabiat – eng go'zal she'r.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Shivirlasam giyohga
Xapqirgancha: – Ey ko'kat,
Nega keldim dunyoga,
Yashamoq sirin o'rgat?!
Toshni yorgan giyohlar
Sabotdan dars o'qisin.
Oy cho'milgan daryolar
Bolaga she'r to'qisin.
Uchadi bola tomon
Shu sabab mening so'zim:
– Tabiat – jonimda jon,
Tabiat – mening uyim.

She'r yuzasidan suhbat uyushtiriladi:

– She'r nima haqida ekan?

– Tabiat, shoirning uyi ekanligi haqida ekan.

– Tabiat yana kimlarning uyi? Nima uchun?

– Tabiat mening ham uyimdir. Men shu tabiat qo'ynida tug'ildim, ulg'aydim.

– Miraziz, tabiat sening ham uyingmi?

– Tabiat mening ham uyimdir. Negaki men ham shu tabiat qo'ynida yashayman, tabiat qo'ynida o'sgan mevalardan iste'mol qilaman.

– Bolalar, hozir o'rtoqlaringiz o'qigan she'rning muallifi kim? U nimani kuylayapti?

– Bu she'r X. Davronning „Tabiat – mening uyim" she'ri.

– She'rda shoir „dalalarni aylanaman, chigirtkalar qo'shig'ini eshitaman, bulbullarni shod qilsam, o't bilan suhbatlashsam, mushukni sut bilan mehmon qilsam, xayron bo'lmang. Ular mening do'stlarim. Ular bilan ko'nglim xush. Tabiat mening uyimdir", – deb aytyapti. (1-o'quvchining javobi)

– „Mening tomirimga tutash o't ildizi, tunlari oy va yulduzlari daftarimni yoritadi. Ona yer zaharlansa, ko'ksim og'riydi. Sen uni asra, mangu qolsin, o'lmasin", – deyapti. (2-o'quvchining javobi)

– Hurmatli, o'quvchilar! Demak, biz tanishgan she'rimizda tabiat kuylangan ekan. Tabiat bizning ikkinchi onamiz. Chunki biz onamiz va tabiat quchog'ida yashaymiz. Shuning uchun ham biz uni „Ona tabiat" deb ataymiz. Biz uning bag'ridagi o'simliklarni, qushlarni, hayvonlarni, dengiz-u ko'llarni va boshqa boyliklarni asrashimiz, e'zozlashimiz kerak. Tabiat insonga birgina toza suv, havo, oziq-ovqat, kiyim-kechakkina emas, sog'lik, a'lo kayfiyat ham beradi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

– Bolalar tabiatimizni qushlarsiz tasavvur qila olmaymiz. Ular tabiatning nodir va g'alati jonivorlaridan biridir. Qushlar zararkunanda hasharotlarni yeb, kishilarga foyda keltiradi va estetik zavq baxsh etadi. Siz ularning sayrashidan olam-olam zavq olasiz. Masalan, bulbul, sa'va va boshq. (Shu o'rinda qushlarning rasmi ko'rsatiladi va „Bahor valsi" kuyi eshittiriladi).

– Hasharotlardan kapalak va ninachilar tabiatimizning jonli bezagidir. Kapalaklar chiroyi bilan o'ziga maftun etadi. Gullar chamani uzra qanot qoqib, hayot qo'shig'ini kuylashadi. Lekin hozirgi kunda ularning turlari kamayib ketgan. Buni hamisha yodda tuting. Ularni asrang, ermakka kapalak tutmang. (Rasm ko'rsatiladi)

– Bizning hayotimizda o'simliklar ham katta o'rin tutadi. Ayniqsa, yalpiz, qoqio't, otquloq kabi ko'katlarning inson salomatligini tiklashda o'rni kattadir.

– Bolalar bizning hayotimizda yana bir muhim narsa obihayotdir. Biz suvsiz hayotimizni tasavvur qila olmaymiz. Mana shu suv ham tabiat qo'ynidan inju bo'lib oqadi. Suvni ham asrashimiz kerak. Buning uchun daryolarni, ko'llarni, irmoqlarni saqlamog'imiz darkor. Turmushda, kundalik hayotimizda suvlarni tejab ishlating!

– Xulosa qilib aytganda, tabiatimizning bundan ham chiroyli, obod bo'lishi siz bilan bizning qo'limizda ekan.

O'quvchilarning tabiat haqida yod olgan she'rlaridan, topishmoq va maqollardan ayttiriladi:

Dengiz-u daryoda yashar,
Asosan ko'klarda kezar.
Zeriksa bormi, osmondan
Zamin uzra qaytib tushar. (Suv)

Ikki yaproq bir tanda,
Kezar gulzor chamanda. (Kapalak)

Shu o'rinda shoirlarning tabiat haqidagi har xil kitoblari ko'rgazmasini uyushtirish ham mumkin.

Uyga vazifa qilib gullar haqida she'rlardan yod olib kelish beriladi.

Keyingi darsda „Gullar aytishuvi" uyushtiriladi.

Dars yakunlanadi.

III. 4-sinfda (asosiy bosqich) STO' darsi namunasi.

Mavzu. A. Obidjon – bolalarning sevimli shoiri va yozuvchisi.

Darsning maqsadi: o'quvchilarda badiiy adabiyotga qiziqish uyg'otish, ularning mustaqil o'qish ko'nikmalarini shakllantirish, Anvar

www.ziyouz.com kutubxonasi

Obidjon ijodi bilan tanishtirish, shoirning ijodiga qiziqish uyg'otish, o'quvchilarda ijodkorlik xususiyatini paydo qilish.

Darsning shakli: noan'anaviy, sayohat darsi.

Dars metodi: kichik guruhlarda ishlash, mustaqil ish metodi.

Darsning jihozi. Anvar Obidjon portreti, to'plamlari, sahnani jihozlash uchun kerakli narsalar.

Darsning borishi

1. Anvar Obidjon to'plamlari ko'rgazmasi tashkil etiladi. O'quvchilar kitoblarni qo'llariga olib, varaqlab ko'radilar, tomosha qiladilar.

O'quvchilarga to'plamlarni ko'rishlaridan oldin quyidagi topshiriqlar beriladi:

– Anvar Obidjonning qanday to'plamlari bor?

– Shoir to'plamlarining nomini bilib oling.

– O'zingizda qiziqish uyg'otgan to'plamni varaqlab o'rganing.

2. Anvar Obidjon hayoti va ijodi haqida suhbat o'tkaziladi:

– Anvar Obidjon kim ekan?

– Uning qaysi she'r va asarlarini o'qigansiz?

– Shoir haqida yana nimalarni bilib oldingiz?

Shoir haqida o'quvchilarning qiziqishlarini hisobga olib ma'lumot beriladi:

– O'zbekiston xalq shoiri Anvar Obidjon 1947-yil 8-yanvarda Farg'ona viloyatining Oltiariq tumanida tug'ilgan. Uning „Shkafcham" she'ri 6-sinfda o'qib yurgan vaqtlarida „G'uncha" jurnalida bosilgan.

– Siz Anvar Obidjonning qaysi to'plamlari nomini bilib oldingiz?

– „Ona yer", „Bahromning hikoyalari", „Ey, yorug' dunyo", „Ketmagil", „Olovjon va uning do'stlari", „Bezgakshamol", „Masxaraboz bola", „Juda qiziq voqea" va boshq.

– Adibning „Qo'ng'iroqli yolg'onchi", „Pahlavonning o'g'irlanishi", „Topsang hay-hay", „Navro'z va boychechak" kabi pyesalari „Yosh tomoshabinlar teatri"da sahnalashtirilgan.

– Anvar Obidjonning kino qilingan qaysi asarlarini bilasiz?

– „Tilsimoy – g'aroyib qizaloq", „Dahshatli meshpolvon" va boshq.

3. Anvar Obidjonning sahna asarlaridan parchalar namoyish qilish. Bunda „Navro'z va boychechak" pyesasidan parcha olish mumkin.

4. O'quvchilar o'zlari qiziqib tanlagan to'plamlari bo'yicha guruhlarga bo'linishadi.

1-guruh. „Bulbulning cho'pchagi"

www.ziyouz.com kutubxonasi

2-guruh. „Bezgakshamol“
3-guruh. „Oltiariq hangomalari“
4-guruh. „Yerliklar“
5-guruh. „Masxaraboz bola“

5. Guruhlar taqdimoti. Har bir guruh o‘zlari tanlagan to‘plamlardan she’r, latifa, ertak-pyesalardan parchalar o‘qib beradi. 1-guruh taxminan „Fatxullaning kurkasi“, „Yirtqich“ she’rlarini, 2-guruh „Obbo, kalamush-ey!“

(Kalamushvoy,
Kalamush,
Savoding sal
Chalamish.
Yoz desalar
„Temir“ deb.
Sen yozasan
Kemir deb),

„Masxaraboz bola“, 3-guruh „Karnay qo‘shig‘i“, „Chigirtka qo‘shig‘i“, 4-guruh „Tuzdonda yozilgan she’r“, „Partada yozilgan she’r“, 5-guruh „Bezori“, „Handalak“, „Turp“, „Kalish afsonasi“

(Seni kiyib olishib,
Rosa kezib yurishdi.
Yo‘lakdagi xaslarni,
Dangal ezib yurishdi.
Kalishvoy.
Pisand qilmay qararding.
Eh, o‘zingdan pastlarga,
Axir seni yoqishdi
Qo‘shib o‘sha xaslarga,
Kalishvoy) kabi she’rlarni o‘qishadi. She’rni ifodali o‘qib bergan o‘quvchi rag‘batlantiriladi.

6. O‘qilgan she’rlar yuzasidan suhbat:

– Anvar Obidjon nimalar haqida she’r yozgan?
– „Partada yozilgan she’r“ kim haqida ekan?
– Handalak kim haqida so‘zlab berdi?
– Bo‘rining gaplari rostmi?
– Masxaraboz bola nima uchun „burnimni berib turaman“ dedi? Burnini berib tursa, qiziqchi bo‘lib qoladimi?

www.ziyouz.com kutubxonasi

7. O'qituvchi shoir she'rlaridan o'qib beradi:

Ulug'bekning o'g'li bilan vidolashuvi
Taxt o'tkinchi, e nodon,
Men ketdim, sen yashayver.
Ilmsiz yurt – biyobon,
Men ketdim, sen yashayver

Shoirning Jaloliddin Manguberdi, shoir Miraziz A'zam, yozuvchi Tog'aymurod va boshqalar haqidagi she'rlaridan o'qib berish ham mumkin.

O'qituvchi aytilgan she'rlar yuzasidan suhbat uyushtiradi.

8. Krossvord yechish.

Topshiriqlar:

Bo'yiga: 1. She'r yozadigan odam.

Eniga: 2. Shoir yozadigan janr. 3. Shoirning ismi. 4. Shoirning familiyasi.

9. Uyga vazifa. Keyingi darsdagi sinfdan tashqari o'qish uchun asarlar tavsiya qilinadi, Anvar Obidjon she'rlaridan yod olib kelish topshiriladi, sahna asarlarini rollarga bo'lib o'qishga tayyorlanib kelish, she'r va sahna asarlari mazmuniga mos rasmlar chizish vazifa qilib beriladi. O'quvchilarning o'zlari ham she'r yozib kelishlari mumkinligi aytiladi.

10. Darsni yakunlash. O'qituvchi keyingi STO' darsida qaysi bolalar yozuvchilari ijodi bilan tanishishni istashlarini so'raydi. Darsda faol ishtirok etgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

Sinfdan tashqari o'qish darslarini rejalashtirish

Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilar badiiy va ilmiy-ommabop kitoblarni mustaqil o'qiy va tanlay oladigan, ularning mazmun-mohiyatini tushunadigan bo'lishlariga erishish lozim. Bu jarayonda o'quvchilarning faqat kitoblarninggina emas, balki gazeta va jurnallar mutolaasiga ham qiziquvchan faol kitobxon bo'lishlariga e'tibor qaratiladi.

Mavjud dasturlarda sinfdan tashqari o'qish davomida o'quvchilar egallashi zarur bo'lgan bolalar yozuvchilarining asarlarini tanlay bilish, mustaqil o'qigan kitoblarini, ulardagi qahramonlarning xatti-harakatlarini baholash, asar sujetidagi muhim o'rinlarni ajrata olish, sinfdan tashqari o'qish kundaligi yuritish kabi ko'nikmalarni egallash belgilab berilgan.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Sinfdan tashqari o'qish, o'z navbatida, qiziqarli va o'ziga jalb etadigan faoliyat bo'lib, o'quvchilarning bilimi va dunyoqarashini kengaytiradi, kundalik hayotga faol munosabat uyg'otadi. Shuning uchun ham bu xildagi darslarning qurilishi ham xilma-xil bo'ladi.

Sinfdan tashqari o'qish darslarida o'quvchilar o'qigan kitoblari hisobga olinadi, yangi kitoblar tavsiya etiladi. Mustaqil mutolaa qilingan asarlar yuzasidan o'tkaziladigan suhbatlarda asar mavzusi, janri, kompozitsion tuzilishi, sujet qurilishi, qahramonlar timsoliga oid tahlil elementlari o'qituvchi savollari asosida o'quvchilar ongiga singdirila boriladi.

Sinfdan tashqari o'qish darslarida ham kirish va yakuniy suhbatlar o'tkaziladi. Darslar rejasi butun o'quv yili uchun oldindan tuzilishi lozim.

Sinfdan tashqari o'qishning asosiy vazifasi bolalarni mustaqil amaliy faoliyatga o'rgatish, bilimini boyitish va o'qish ko'nikmalarini takomillashtirishdir. O'quvchilarga sinfdan tashqari o'qish darslarida o'qishlari zarur bo'lgan kitoblar, ular bilan tanishish tartibi yuzasidan ko'rsatmalar beriladi. Maktab kutubxonasi bilan birgalikda kitob ko'rgazmalari tashkil etiladi. Bu jarayonda kitob muqovasi, tituli, betlarini farqlay olish, asar muallifi, nomlarini, rassomlarni tanib-bilib olish, rasm asosida asarlarning nima haqida ekanini, mazmunini aniqlashga erishish muhim ahamiyatga ega.

O'quvchilarda muayyan mavzularda tavsiya etilgan asarlar ichidan kitob tanlash va o'qish ko'nikmalarini shakllantirish, ularni o'qigan asari mazmunini qisqacha so'zlab berishga o'rgatish lozim.

O'qish mavzusi sinfda o'qiladigan asarlar mavzusi bilan uyg'unligiga, ta'lim-tarbiya birligiga, mavsumiy, bosqichli va bolalar qiziqishiga rioya qilgan holda belgilanadi hamda asarlar tanlanadi.

Sinfdan tashqari o'qish uchun tanlanadigan mavzular, asosan, quyidagicha rejalashtirilishi mumkin:

1. Gulla-yashna hur O'zbekiston!
2. Mustaqillik — oliy ne'mat.
3. O'zbekistonning qahramon o'g'lonlari.
4. Tabiat — bizning uyimiz.
5. Odob — oltindan qimmat.
6. Ona tilim — jon-u dilim.
7. Bilim ol, hunar tanla! va boshq.

Boshlang'ich sinflarda STO' darslarini rejalashtirishda quyidagilarga asoslaniladi:

www.ziyouz.com kutubxonasi

1. Mavsumiy tamoyilga va milliy an'analarimiz bilan bog'liq bo'lishiga.

2. STO' darslarini sinfdan sinfga o'tgan sari bosqichli izchillik tamoyili asosida kengaytirib borishga.

3. Sinfda o'qish darslarida o'rganiladigan mavzular bilan bog'liq bo'lishiga.

4. Bolalar yozuvchilarining tavallud kunlari bilan bog'liq holda ularning ijodini o'rganishga.

5. Bolalarning qiziqishlarini hisobga olishga.

6. Adabiy jarayon bilan hamnafas bo'lishiga.

7. STO' uchun beriladigan topshiriqlarning ijodiy xarakterda bo'lishiga.

8. O'quvchilarda mustaqil o'qish ko'nikmalarining shakllanishiga e'tiborni kuchaytirish va rahbarlik shakllarining xilma-xil bo'lishiga.

4-sinfda (STO'ning asosiy bosqichi) STO' darslarining bir yillik taxminiy rejalashtirilishi quyidagicha bo'lishi mumkin:

№	Mavzu	Tavsiya etiladigan asarlar	Ajr. soat	Vaqti
1	Vatanimni sevaman	A. Avloniy „Vatan", X. To'xtaboyev „Omonboy va Davronboyning sarguzashtlari", Sh. Xolmirzayev „Oqtosh" hikoyasi, O. Yoqubov „Sho'rtan gazchisi", A. Obidjon „Vatan", Q. Ota „Vatan timsoli", „O'zbekiston", A. Akbar „O'zbek elim", K. Turdiyeva „Vatan iqbol kutar", R. Nazar „Vatan tuyg'usi", O. To'xtash „Ona-Vatan".	1	Sentabr
2	T. Adashboyev – bolalar shoiri	„Biz sayohatchilar", „Arslonbop sharsharasi", „Surnay", „Nur daryo", „Guldasta", „Olatog' – lolatog'", „Oqbura to'lqinlari", „Sovg'a", „Tuproq", „Jasorat".	1	Sentabr
3	Ustozlarni e'zozlaymiz	K. Turdiyeva „Ustozlar", „Bo'ling harfga hurmatda", A. Obidjon „Kitobni ko'p o'qiydigan ukam", S. Jo'ra „Tinish belgilarining majlisi", A. Muxtor „Hafta", D. Matjon „Suflyor", T. Adashboyev „Ustozlarga bag'ishlov", „O'qituvchim".	1	Oktabr

www.ziyouz.com kutubxonasi

4	Ona tilim – jon-u dilim	X. Safarov „Savollarga javoblar“, M. A'zam „Ona tilim“, „Til darsi“, T. Adashboyev „Ona tilim“ va til haqidagi hikmatlar, maqollar.	1	Oktabr
5	Tabiatni asrang	T. Adashboyev „To'rt amal“, T. Yo'ldosh „Uzumlar oilasi“, „Yerning tili“, Y. Sulaymon „Kuz“, E. Vohidov „Shaftoli“, „Terak“, „Archa“, „Majnuntol“, „Nashvati“, S. Jabbor „Ko'chatim“, M. Murodov „Dala xunuk bo'lib qoladi“, A. Akbar „So'rov“, R. Nazar „Yordam qushi“, R. Tolib „Tabib ko'klam“, „Orolim“, Q. Hikmat „Uch o'rtoqning sovg'asi“.	1	Noyabr
6	Ertaklar olamiga sayohat	Y. Shukurov „Ona mehri“, T. G'oyipov „G'ani degan bolaning parvozi“, „Yana uchar ot haqida“, „O'qilon va ot“, „Oltin shoxli kiyik“, P. Mo'min „Tish cho'tka, poroshok va atir sovun ertagi“, J. Rahim „Bir butun oy va o'n ikki yulduz“, Z. Diyor „Yuksak tog', keng o'tloq va mard o'rtoq haqida qissa“, T. Adashboyev „Adolatli qozi“, S. Marshak „Tentak ovchi“, S. T. Aksakov „Sirli qizil gul“.	1	Noyabr
7	Qomusimiz – qonunimiz	Qambar Ota „Baxt qomusi“.	1	Dekabr
8	Qushlar – bizning do'stimiz	S. Ochil „Qushlar qo'shig'i“, M. A'zam „Kaklik“, „Musichaning arazi“, „Ikkita qorashaqshaq va bitta qora mushuk“, „Mening vafoli qarqunog'im“.	1	Dekabr
9	Vatan posbonlari	E. Ro'zimatov „Vatan madadkor bo'lg'ay“, T. Adashboyev „So'nggi jang“, „Yo'lchi yulduz“, A. Obidjon „Yaroq“.	1	Yanvar
10	A. Obidjon – bolalarning sevimli shoiri	„Ona yer“, „Bahromning hikoyalari“, „Ey, yorug' dunyo“, „Olovjon va uning do'stlari“, „Ketmagil“, „Bezgakshamol“, „Masxaraboz bola“, „Juda qiziq voqea“, „Oltin yurakli Avtobola“, „Dahshatli Meshpolvon“, „Yerliklar“, „Ajoyibxona“, „Meshpolvonning janglari“, „Alisher ila Husayn yoki uch dono va o'g'ri“, „Oltiariq hangomalari“, „Bulbulning cho'pchaklari“, „Bezgakshamol – 2“	1	Fevral

www.ziyouz.com kutubxonasi

11	Navoiy – buyuk daho	Oybek „Bola Alisher“.	1	Fevral
12	O‘tmishni o‘rganish – burchimiz	G‘. G‘ulom „Shum bola“, Sh. Bo‘tayev „Usta va charxpalak“, S. G‘ofurov „A’zam tut“, S. Barnoyev „Minora“, E. Malikov „Xotira“, M. A’zam „Temur va mulla Alibek“, „Ikki Temur“, „Buxoriy darsi“, „Ulug‘bek va o‘qli Abdurahmon“, „Qodiriya qasabasi va Abdulqodirning to‘g‘riso‘zligi“, T. Adashboyev „Yassaviy zurriyodlari“.	1	Mart
13	Mening mehribon onajonim	K. Turdiyeva „Qush bo‘lib uchgan ona“, Y. Shukurov „Ona mehri“.	1	Mart
14	Navro‘zi olam – yashardi olam	N. Ostonov „Bahor“, „Hamal“, T. Adashboyev „Navro‘z“, „Boychechak“, E. Baxt „Moychechakning qalpog‘i“, O. To‘xtash „Kuz faslida“, H. Imonberdiyev „Turnalar“, R. Nazar „Gullagan olcha“, Q. Muhammadiy „Bahor keldi“, „Gullar“ turkum she’rlari, Z. Diyor „Binafsha“, A. Abdurazzoq „Dunyo“.	1	Mart
15	Bor bo‘lsin tinchlik	S. Barnoyev „Tinchlik qo‘shig‘i“, Q. Rahmat „Dil so‘zlari“, H. Olimjon „Vatan“, I. Muslim „Do‘stlik“, O. Rasul „Tinchlik yashar“	1	Aprel
16	Abdurahmon Akbar ijodini o‘rganamiz	„Shoir dadam haqida she’riy hikoyalar“, „Kichkintoy va paxtaoy“, „So‘zlovchi yomg‘ir“, „Yozning tug‘ilgan kuni“, „Kuylayotgan bog‘“, „O‘yinqaroq bulutcha“, „O‘rdakcha“, „Jonli savatcha“ to‘plamlari.	1	Aprel
17	Tengdoshlar hayotidan	I. Mahmudov „O‘rik“, E. Rahimov „Portlash“, Y. Sa’dullayeva „Ko‘cha to‘la bolalar“, S. G‘ofurov „Teshik kulcha“, Y. Rahmonova „Qasos“, A. Akbar „Mish-mishvoy“	1	May

www.ziyouz.com kutubxonasi

Savol va topshiriqlar

1. Sinfdan tashqari o'qish uchun kitob tanlashda qanday tamoyillarga asoslaniladi?
2. Sinfdan tashqari o'qish tizimida sinfdan tashqari o'qish darslarining o'rni va rolini ayting.
3. Sinfdan tashqari o'qish darsini o'qish darsiga qiyoslang, ularning xususiyatlarini ayting.
4. Sinfdan tashqari o'qish darsiga qo'yilgan asosiy talablarni aytib bering.
5. Tayyorgarlik, boshlang'ich va asosiy bosqichlardagi sinfdan tashqari o'qish darslarida o'quvchilarning mustaqil faoliyati qanday shakllanishini izohlang.
6. Sinfdan tashqari o'qish darslari rejasini ishlab chiqing. Bunda mavzu, bosqich va dars turini o'zingiz mustaqil tanlang.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ilmiy dunyoqarash elementlarini shakllantirishda ona tilini o'rganishning o'rni

O'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish vazifalaridan biri ularda ilmiy dunyoqarash elementlarini shakllantirishdir. Bu vazifani hal qilishda maqsadga muvofiq ishlashning yetakchi sharti – o'quvchini shaxs sifatida muvaffaqiyatli kamol toptirishdir. Quyida ko'rsatilgan omillar tilni o'rgatish bilan bog'liq holda o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash elementlarini shakllantirish usulini belgilaydi:

1. Tilning ijtimoiy hodisa sifatidagi mohiyati uning aloqa (kommunikativ) vazifasini ifodalashdan iboratdir. Maktabda, shu jumladan, boshlang'ich sinflarda tilni o'rgatishning yetakchi yo'nalishi o'quvchilar tomonidan tilning aloqa vazifasini bajarishini tushunishlariga erishish hisoblanadi.

2. Til bilan tafakkur uzviy bog'liq bo'lib, tafakkur so'z vositasida yuzaga chiqadi. Til tafakkurning mahsuli hisoblanib, ongdan tashqarida o'zicha yashamaydi.

3. Til va tafakkur atrofimizni o'rab olgan moddiy borliqqa nisbatan ikkilamchidir. Tafakkur tashqi dunyoning tushunchadagi ifodasi hisoblanadi. So'z tushunchaning shartli nomini o'zida aks ettiradi. Dunyoda yo'q narsa ongda ham, tilda ham bo'lmaydi. Bu holat o'quvchilarda dunyoqarashni shakllantirish asosini tashkil etadi va didaktik tamoyillardan birini, ya'ni til atrofni o'rab olgan muhitni, voqelikni kuzatish jarayonida faol bilish faoliyati vaziyatida o'rganilishini belgilaydi. Bunday yondashish dunyoqarashning asosiy masalalaridan biriga, ya'ni nima birlamchi: tabiat (materiya)mi yoki ongmi degan savolga javob tayyorlash hisoblanadi; materiya – birlamchi, ong – ikkilamchi degan tushunchadan o'quvchilarning xabardor bo'lishiga yordam beradi.

4. Til – barcha tomonlari o'zaro dialektik bog'lanishda va birlikda bo'lgan murakkab, ko'p qirrali hodisa. Aloqa jarayonida tilning barcha tomonlari, uning barcha jihatlari bir-biriga o'zaro ta'sir etadi, shunday sharoitdagina til o'zining aloqa quroli vazifasini bajara oladi.

Maktabda tilning barcha tomonlari (talaffuzi, fonetikasi, leksikasi, grammatikasi, so'z yasalishi)ni o'zaro bog'liq holda o'rganish

www.ziyouz.com kutubxonasi

ona tilini o'rgatishdagi yetakchi tamoyil bo'lib, uni amalga oshirish o'quvchilarning tilni murakkab, rivojlanuvchan, o'zaro bog'langan muhim tomonlarga ega bo'lgan hodisa sifatida anglab yetishlari uchun ilmiy asos yaratadi. Tilning mohiyatini bunday idrok etish hodisalarning rivojlanuvchanligi va o'zaro bog'langan qismlardan tuzilishini tushunishga zamin hozirlaydi.

Maktab tajribasi va maxsus tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, yuqorida qayd etilgan dastlabki qoidalarni o'quv jarayonida amalga oshirishda ijtimoiy hodisa sifatida til haqidagi bilimlar majmuasini to'g'ri tanlash, asosiy til hodisalarini va turlarini tushuntirishda o'qituvchining tutgan metodologik yo'lining aniqligi, o'quvchilar fikrlashini faollashtirish, til nazariyasini o'rgatishga asos bo'ladigan til materialining yuqori sifatli bo'lishi kabi dalillar hal qiluvchi ta'sir etadi. Shubhasiz, har bir omil maktab tajribasida bir-biridan ajralgan holda bo'lmaydi. Aksincha, ularning bir-biriga to'g'ri, maqsadga muvofiq ta'siri ijobiy natija beradi.

Tilni ijtimoiy hodisa sifatida tanishtirish muhim ahamiyatga ega. Tilning ijtimoiy mohiyati uning aloqa vazifasini bajarishida ko'rinadi. Uning jamiyat hayotidagi ahamiyatini aniq tushunishga yordam berish uchun quyidagi jihatlarga ahamiyat berish kerak:

a) o'quv jarayonida har bir til birligining nutqimizdagi o'rnini o'quvchilar o'zlashtirishini ta'minlash zarur. O'quvchilar tilning aloqa vazifasini tilning asosiy birliklari (fonema, morfema, so'z, so'z birikmasi, gap)ning vazifasini tushunish jarayonida o'rganadilar.

b) o'quvchilarning tilning o'zaro aloqa vositasi ekanligini tushunishlari „Til har bir kishi, umuman, jamiyat hayotida qanday o'rinni egallaydi?" savoliga javob topishda ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilar sinfdan sinfga o'tishi bilan bu savolga javob chuqurlashib va kengayib boradi. Til kishilarning birgalikdagi mehnat faoliyatida, yangiliklarni maslahatlashib tushunishida, yangi mashinalar ixtiro qilishda zarurligi haqida misollar topib, o'z fikrlarini tasdiqlaydilar. Yoshlari ulg'aygan sari o'quvchilar odamning odam bo'lishida tilning ahamiyatini tushuna boradilar. Odam o'zining fikrlash faoliyatini rivojlantirish va nutqini o'stirish bilan o'zini doimo takomillashtirib boradi. Olamni, koinotni o'zgartira borib, kishi yanada kamol topa boradi, uning tili ham boyiydi. Kishilar bilan, jamiyat a'zolari bilan aloqa, munosabat har bir kishining o'sishi, rivojlanishidagi zaruriy shartlardan hisoblanadi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

d) boshlang'ich sinf o'quvchilarining tilga ijtimoiy hodisa sifatida qarashini shakllantirishda tilning kelib chiqishi, tilda yangi so'zlarning paydo bo'lishi haqida ularning saviyasiga mos bo'lgan „sir"ni yechish (tushuntirish) ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchi o'quvchilarga tilning bir kishi tomonidan maxsus o'ylab chiqarilmaganini, u ibtidoiy odamlarning mehnat faoliyati bilan bog'liq holda yaratilganini va asta-sekin rivojlanib borganini tushuntiradi: „Bizdan juda uzoq vaqtlar ilgari tilda faqat bir necha o'ngina so'z mavjud edi, kishilar atrofdagi tabiatni, narsalarni bilib, ish qurollari yaratib, nimadir ishlab chiqarganlari sari tilda yangi so'zlar paydo bo'la boshladi. Atrofimizda mavjud bo'lgan shaxs va narsalarga, ularning belgilariga, jarayonga, juda ko'p boshqa narsalarga kishilar nom qo'yganlar. Shunday qilib, til yangi so'zlar bilan boyidi va boyib bormoqda".

Tilning rivojlanishi, ayrim so'zlarning ma'nolari haqidagi bilimni boshlang'ich sinf o'quvchilari ot, sifat, son, fe'lni o'rganish jarayonida asta-sekin bilib oladilar. Bu o'rinda „So'zning tarkibi" bo'limi katta imkoniyatga ega. O'quvchilar bu bo'lim materiallarini o'rganish jarayonida tilimizning yangi so'zlar bilan boyib borishi haqidagi muhim manbalar bilan, so'z yasalishi bilan tanishadilar. Ma'lumki, ko'pgina yangi so'zlar tilda mavjud bo'lgan so'zlar zaminida yaratiladi, tilda bor qoliplar kabi yasaladi: *limon* tipida *limonzor, suvchi* tipida *bo'zchi* kabi. Tilda yangi so'zning paydo bo'lishi o'zidan keyin bir xil o'zakli so'zlar guruhining hosil bo'lishiga sabab bo'ladi: *ishli, ishsiz, ishchi* kabi.

Boshlang'ich sinflarda tilning rivojlanishi haqidagi masala maxsus o'rganilmaydi. Tilga jamiyatning rivojlanishi bilan bog'liq holda rivojlanadigan hodisa sifatida ilmiy qarashga zamin yaratish muhim ahamiyatga ega. Tilning leksik tomoni boshqalariga nisbatan harakatchan, tez rivojlanadigan bo'lgani uchun, til leksikasi misolida boshlang'ich sinf o'quvchilari saviyasiga mos ravishda jamiyatning rivojlanishi bilan bog'liq holda tilning ham rivojlanishi tushuntiriladi. Tilning leksik tarkibida yuz berayotgan o'zgarishlar yuzasidan o'qituvchi va o'quvchilarning kuzatishlari bolalarda dunyoni bilish haqidagi tasavvurini shakllantirishga mos material beradi.

Kichik yoshdagi o'quvchilarning tilni o'zlashtirish jarayonini tekshirish shuni ko'rsatadiki, tilga ilmiy qarash asoslarini shakllantirish uning muhim bog'lanishlarini bilishga ham yordam beradi. Xususan, o'quvchilarning so'zning tovush tomoni bilan uning leksik ma'nosi, so'zning morfemik tarkibi bilan leksik ma'nosi, so'zning grammatik ma'nosi bilan uning ma'lum so'z turkumiga tegishliligi o'rtasidagi

www.ziyouz.com kutubxonasi

bog'lanish kabilarni bilib olishi shu maqsadga xizmat qiladi. Bu bog'lanish tilning fonetik, leksik, so'z yasalishi va grammatik tomonlarining bir-biriga ta'sir qilishini xarakterlaydigan umumiy bog'lanishlarning xususiy ko'rinishi hisoblanadi. Shuni ta'kidlash kerakki, o'quvchilarning xarakterli bog'lanishlarni tushuntirishlari tilni egallash nuqtai nazaridangina emas, balki dunyoqarashlarini shakllantirishda ham katta ahamiyatga ega.

Tildan bilim berishda o'quvchilarning hayotiy tajribasiga tayanish muhimdir. O'qituvchi nazariy xarakterdagi umumlashtirish zarur bo'lgan daliliy materiallarni yig'ish bosqichida ham, berilgan bilimlarni amaliyotga tatbiq etish uchun ham bolalarning hayotiy tajribasiga, nutqqa oid amaliyotiga tayanadi. Tilga oid bilimni o'rganish natijasida o'quvchilar nutq faoliyatining sifati o'zgaradi, ongliligi ortadi. Tilni o'rganishni hayot bilan bog'lash dunyoning moddiyligini tushunishga asos yaratadi. Bu bilan bir paytda ona tili darslarining asosiy vazifalaridan biri bo'lmish o'quvchilarda to'g'ri kuzatish va o'z fikrlarini og'zaki va yozma shaklda aniq bayon etish ko'nikmasini o'stirish masalasi hal qilinadi. Bunda o'qituvchidan o'quvchilarda dialektik fikrlash ko'nikmasini shakllantirishga alohida e'tibor berish talab etiladi.

Dialektik tafakkur keng ma'noda hodisalarning boshqa hodisalar va jarayonlarga bog'liqligini hisobga olib, ularni har tomonlama mavjud belgilari yig'indisi bilan rivojlanishda ko'rish ko'nikmasini ta'riflaydi. Tafakkurning bunday sifati o'quvchilarda asta-sekin shakllana boradi va o'z navbatida, ular kuzatish jarayonida dalillarni topish, ularni tahlil qilish va o'rganiladigan hodisalarning ayrim tomonlari o'zaro bog'liqligini aniqlash, taqqoslash va umumlashtirish ko'nikmasini egallab boradilar. Keyingi yillarda o'quvchilarning o'quv faoliyati tobora izlanish xarakteriga ega bo'lmoqda. Tilni o'rganishda boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ayrim qoida va aniqliklarni yodlab olish emas, balki atrofdagi hayotni kuzatish asosida o'quvchilarning o'zlari „topgan" yoki adabiy manbalardan tayyor olingan til materialini maqsadga muvofiq analiz va sintez qilish yetakchi hisoblanadi. O'rganiladigan grammatik va so'z yasalishiga oid, leksik tushunchalarning mavjud belgilarini aniqlash jarayonida faol qatnashish, bilib olingan dalillarni o'xshash va farqli tomondan qiyoslash, shuningdek, o'rganilgan nazariy bilimlarni har xil nutqiy faoliyatga ijodiy tatbiq etish – bularning barchasi o'quvchilarda dialektik fikrlash ko'nikmasini o'stirish uchun zamin va shart-sharoit yaratadi. Bunda muhim omillardan biri o'quvchilarning aqliy fao-

www.ziyouz.com kutubxonasi

liyatini o'qituvchi tomonidan maqsadga muvofiq boshqarish, ularda orfografik, grammatik yoki leksik-uslubiy vazifalarni hal qilishning umumiy metodlarini shakllantirish hisoblanadi.

Ona tilini o'rganish jarayonida o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirish masalasini hal qilishda maktabda ona tilini o'rgatishga asos bo'ladigan material alohida qimmatga ega. Materialning g'oyaviy yo'nalishi va badiiy ifodaliligi o'quvchilarning fikrlash faoliyatiga, his-tuyg'ulariga ta'sir etadi, atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytiradi, tilga va uni yaratgan xalqqa qiziqishini tarbiyalaydi, o'quvchilarning umumiy taraqqiyoti darajasini o'stiradi va ularning shaxsiy sifatlarining, dunyoqarashlarining shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Keyingi yillarda maktab ona tili darsliklari va o'qituvchilar uchun nashr qilingan qo'llanmalar materiali mazmuniga qo'yilgan talablar anchagina ortdi. Materialning asosiy mezoni matn va alohida gaplarning bilimni boyituvchi qimmati, leksik-uslubiy aniqligi, mavzu jihatdan xilma-xilligi, hayotning turli tomonlari bilan bog'lanishi, matnlarning g'oyaviy-mavzuviy yo'naltirilganligi, kichik yoshdagi o'quvchilarga mosligidir.

Shunday qilib, tilni o'rganish jarayonida kichik yoshdagi o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirishga o'qituvchining metodologik yondashuvi, o'quvchilar o'zlashtiradigan ijtimoiy hodisa sifatida rivojlanib boruvchi til haqidagi bilimlar majmuasi, o'quvchilar o'rganib oladigan bilish usuli, tilni o'rganishga asos bo'ladigan materialning bilim berishdagi, g'oyaviy-siyosiy va badiiy qimmati hal qiluvchi ta'sir ko'rsatar ekan.

O'quvchilarda ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirish ko'p qirrali jarayon bo'lib, u maktabda va maktabdan tashqarida olib boriladigan o'quv-tarbiyaviy ishlarning barcha tizimida hal qilinadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tilini o'rgatishning lingvistik asoslari

Maktabda o'quv predmeti sifatida tilni o'rganish tizimi tilning barcha tomonlarini, yani fonetikasi, leksikasi, so'z yasalishi va grammatikasi (morfologiya va sintaksis)ning o'zaro ichki bog'lanishlariga asoslanadi.

Tilning barcha tomonlari o'zaro bog'lanishining ko'p qirraliligi va murakkabligi, ularning dialektik birligi, avvalo, uning aloqa vosi-

www.ziyouz.com kutubxonasi

tasidagi vazifasida namoyon bo'ladi. Aloqa vositaligi tilning muhim xususiyati, asosidir. Bu vazifani tilning har bir qismi boshqa qismlar bilan o'zaro bog'lanishda bajaradi. Har bir so'zga xos bo'lgan tovush shakli kishilarga aloqa uchun imkoniyat yaratadi. Ammo so'zning tovush qurilishi, shakli mazmunsiz, aqlga to'g'ri kelmaganidek, o'zicha yashamaydi. Istalgan tovushlar yig'indisi emas, balki ma'lum ma'no bildiradigan tovushlar yig'indisigina aloqa maqsadiga xizmat qilishi mumkin.

Ma'lumki, ma'no bildiradigan tovushlar yig'indisi so'zdir. Tilning lug'at boyligi, leksikasi fikr ifodalash uchun xizmat qiladigan o'ziga xos qurilish materialidir.

Tilning lug'ati qanchalik boy bo'lsa ham grammatikasiz u o'lik hisoblanadi. Tilning lug'at boyligi o'z-o'zicha aloqa vazifasini bajarmaydi. Aloqa maqsadida xizmat qilish uchun lug'at boyligidagi so'zlar bir-biri bilan grammatik jihatdan o'zaro bog'lanib, gap tuziladi. Mana shu tuzilgan gap orqali fikr ifodalanadi.

Tilning har bir tomonining xususiyati undagi til birliklarining o'ziga xosligida namoyon bo'ladi. Fonetika uchun bunday til birligi nutq tovushlari, fonemalar; leksikologiya uchun ma'nosi va qo'llanishi nuqtai nazardan so'z; grammatika uchun so'z shakllari, shuningdek, so'z birikmasi va gap; so'z yasalishi uchun morfema, tuzilishi va yasalishi jihatdan so'z hisoblanadi.

So'z, so'z birikmasi va gap grammatik tomondan ko'pgina xususiyatlarga ega. So'zning o'z morfemik qurilishi, o'zining so'z yasalish turi, biror grammatik kategoriyasi (shaxs, son, egalik, kelishik va boshq.), ma'lum sintaktik vazifasi bor. So'z birikmasi ham so'z kabi so'z o'zgarishi (ko'proq ergash so'z o'zgaradi) shakllariga ega. Gap o'z qurilishiga ko'ra so'zdan sifat jihatdan farqlanadi: so'z o'zi alohida kelganda mustaqil ma'no anglatmaydigan morfemalardan tuziladi, gapni tashkil etuvchi qismlar esa gapdan tashqarida ham mustaqil leksik ma'no bildiradi, gap tarkibida esa uning ma'nosi yana oydinlashadi. Gap va so'z birikmasi „qurilish materiali" sifatida xilma-xil tuzilgan so'zdan foydalanadi. Gap uchun qator sintaktik xususiyatlar, shuningdek, tugallangan ohang ham xarakterlidir.

Shunday qilib, tilning har bir jihatining o'ziga xos xususiyatini ko'rib chiqishning o'zi ularning o'zaro munosabatini, bir-biriga o'tishining murakkabligini ta'kidlaydi. Tilshunoslik fani bo'limlari o'rtasidagi munosabatlar ham shunga o'xshash murakkabdir.

Fonetika, leksikologiya bilan ham, grammatika bilan ham bog'-

www.ziyouz.com kutubxonasi

lanadi. Tovushlar, fonemalar, bo'g'inlar tilda alohida emas, balki ma'lum leksik ma'no bildiradigan so'z tarkibida yashaydi.

Fonetikaning sintaksis bilan bog'lanishi, xususan, har bir gapda ma'lum ohangda bo'lishida ko'rinadi. Grammatik va semantik jihatdan bog'langan so'zlar majmuasi ma'lum ohangga ega bo'lsagina gap hisoblanadi. Bunda gapning mazmuni so'zlovchining gapda ifodalangan ohangiga bog'liq bo'ladi. Shunday qilib, ohang gapda so'z tartibi, yordamchi so'zlardan foydalanish, so'z o'zgartishlar bilan birga gap tuzish usullaridan biri sifatida xizmat qiladi.

Leksikologiya so'z yasalishi bilan jips bog'lanadi: birinchidan, tilning lug'at tarkibi, asosan, tilda mavjud bo'lgan so'zlardan yangi so'zlar yasalishi hisobiga to'ldirilib, boyib boradi; ikkinchidan, yasalgan so'zlarning leksik ma'nosi yasama negizning moddiy ma'nosiga asoslanadi.

Morfologiya leksikologiya va so'z yasalishi bilan jips bog'langan. Morfologiya, asosan, so'zning grammatik xususiyatlarini o'rganadi. So'zning grammatik ma'nosi doimo leksik ma'nosi bilan birga namoyon bo'ladi, har bir so'z, bir tomondan, shu so'zga tegishli bo'lgan ma'lum o'ziga xos leksik-grammatik guruhning belgilarini bildiradi, ikkinchi tomondan, u so'zning o'z leksik ma'nosi bo'ladi. So'zdagi mana shu umumiy birlik morfologiyada, leksikadan ajralmagan holda, leksika zaminida o'rganiladi.

So'z uchun muqarrar morfemik tarkibi xarakterli bo'lib, bunga so'zning leksik ma'nosi va qator grammatik belgilari bog'liq bo'ladi. Yangi so'z qaysi usul bilan yasalmasin, u doim grammatik shakllanadi va o'zining leksik ma'nosiga ega bo'ladi. Har bir so'z turkumida so'z yasalishining xarakterli xususiyatlari mavjud. So'zning morfemik tarkibi va yangi so'z yasalish usullari tilshunoslik fanining so'z yasalishi bo'limida, grammatika va leksikologiyadan ajratilmagan holda o'rganiladi.

Morfologiya va sintaksis har tomonlama o'zaro bog'lanadi. Morfologiyada, asosan, so'zlarning grammatik ma'nosi va uni ifodalash shakllari o'rganiladi; sintaksisda so'zlarni o'zaro bog'lanib so'z birikmasi va gap hosil qilish usullari, shuningdek, gap turlari, ularning mazmuni va ishlatilishi o'rganiladi. So'z morfologiyada ham, sintaksisda ham o'rganiladi, ammo o'rganish obyekti har xil bo'ladi. Sintaksisning o'rganish obyekti gapdir; unda so'z gap yoki so'z birikmasida boshqa so'zlar bilan ma'no va grammatik jihatdan bog'langan holda o'rganiladi. Morfologiyada so'z gapdan tashqarida

www.ziyouz.com kutubxonasi

ham o'rganilishi mumkin; so'zga muayyan leksik-grammatik guruhga kiradigan so'zlar bilan o'zaro munosabati nuqtai nazaridan qaraladi. Morfologiya va sintaksisda so'zga bunday har xil yondashish ularning bir-biriga bog'liqligini inkor etmaydi, aksincha, ular so'z va gapning o'zida yashaydi. So'zlar so'z o'zgarish tizimiga ega bo'lgani tufayli gaplar aloqa vazifasini bajaradi. Shakl yasalishi va so'z yasalishi morfologiyada o'rganiladi, ammo gapda tatbiq etiladi, so'zlarning o'zaro bog'lanish qoidalarini o'rganish esa sintaksis sohasiga taalluqlidir. So'z birikmasi tarkibidagi so'zlarning o'zaro bog'lanish usulini aniqlashda shu so'z birikmasiga kirgan so'z turkumining morfologik xususiyatlari hisobga olinadi. Bular morfologiya va sintaksisda bir-biri bilan bog'liq holda o'rganiladigan til hodisalarining ayrimlaridir. Bu aniq misollar morfologiya va sintaksis bir-birini taqozo qilsa ham, grammatikaning mustaqil bo'limi ekanini ta'kidlash uchun yetarli.

Keltirilgan fikrlar boshlang'ich sinf o'quvchilariga predmetlararo ichki bog'lanishni hisobga olgan holda ona tilini o'rgatish metodikasini belgilaydi:

1. Tilning barcha (leksik, fonetik, so'z yasash, grammatik) tomonlari o'zaro bog'liqligini va ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanini hisobga olib, o'quvchilar tilni ongli o'zlashtirishlari uchun tilning har bir tomoni xususiyatlarini va ular o'rtasidagi bog'lanishni o'zlashtirishlari zarur.

1—4-sinflarda ona tilini o'rganish tizimi fonetika, leksikologiya, so'z yasalishi va grammatikaning o'zaro bog'lanishi mohiyatini hisobga olgan holda tuziladi. Bu hol dastur materiallarini o'rganish tartibini belgilashda ham, ta'lim mazmunini (dastur bo'limlari o'rtasidagi uzviy bog'lanishni) aniqlashda ham hisobga olinadi.

2. Tilning barcha jihatlarining bir-biriga ta'siri uning aloqa quroli vazifasida namoyon bo'ladi. Tilning asosiy birligi sifatida aloqa maqsadida so'zni to'g'ri talaffuz qilish yoki yozish, shu tilda so'zlashuvchi barcha kishilarga bir xilda tushunarli bo'lishi, gapda grammatik jihatdan to'g'ri tuzilishi kerak.

Shularni hisobga olib, kichik yoshdagi o'quvchilar tilning talaffuzi, grafik, leksik, so'z yasalishi va grammatik tomonlarining o'zaro bog'lanishi mohiyatini tushunishlari uchun dastur materialini o'rganishda tilning aloqa vazifasi yetakchi ekani nazarda tutiladi, ya'ni kishilar bilan aloqa jarayonida tilning barcha tomonlari birgalikda foydalanilishi hisobga olinadi. Shu maqsadda tilning fonetik tomonini

www.ziyouz.com kutubxonasi

o'rganishda so'zning ma'no va talaffuz jihatdan birlik hosil qilishini, tovushning so'z ma'nosini farqlashdagi o'rnini tushuntirishga katta ahamiyat qaratiladi.

„So'z" mavzusi o'tilayotganda o'quvchilar tomonidan so'zning talaffuzi, leksik ma'nosi, morfologik tarkibi, grammatik belgilari, yasalishi, nutqda ishlatilishi va yozilishini yaxlit tushunishga asosiy diqqat qaratiladi. Bunda o'qituvchi so'zning nom bo'lib xizmat qilishini ham, morfemik tarkibi va leksik ma'nosining bir-biriga ta'sirini ham o'quvchilarning tushunib olishlariga erishishi lozim.

„Gap" mavzusini o'rganish vaqtida esa ishning asosiy yo'nalishi nutqda gapning til birligi sifatidagi vazifasini tushuntirish va o'quvchilarda og'zaki va yozma nutqlarida gapdan oson foydalanish ko'nikmasini shakllantirish hisoblanadi.

Maktabda tilning barcha tomonlarini bir-biri bilan bog'liq holda o'rganish ona tilini o'rgatishning yetakchi metodik tamoyili hisoblanadi. Buni amalga oshirish til o'suvchan, bir-biriga o'zaro ta'sir etadigan tomonlari mavjud bo'lgan murakkab hodisa ekanini tushuntirishda ilmiy asos hisoblanadi.

Boshlang'ich sinflarda ona tilini o'rgatishning mazmuni va vazifalari

Maktablarda ona tili o'rgatishning mazmuni jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida davlatimizning maktab oldiga qo'ygan vazifasiga moslangan. Bu vazifalar ko'p qirrali bo'lib, ularni bajarish o'quvchilar ongini o'stirishga, ularga g'oyaviy-siyosiy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasini berishga yo'naltirilgan. Ona tilini o'rgatish natijasida o'quvchilarda o'z fikrini grammatik to'g'ri, uslubiy aniq, mazmunli, ohangga rioya qilib ifodalay olish va uni imloviy to'g'ri yoza olish ko'nikmalari shakllantiriladi. Bu vazifa o'quv predmeti sifatida o'zbek tilining o'ziga xos xususiyati bo'lib, o'quvchini shaxs sifatida shakllantirishga yo'naltirilgan umumta'lim vazifalari bilan bog'liq holda amalga oshiriladi.

Ona tili kursida beriladigan bilimlar mazmunini o'zbek tilining tovush tuzilishi va yozma nutqda tovushlarni ifodalash usullari haqidagi (fonetik va grafik); so'zlarning o'zgarishi va gapda so'zlarning bog'lanishi haqidagi (grammatik, ya'ni morfologik va sintaktik); so'zning morfemik tarkibi va so'z yasalish usullari haqidagi (so'z yasalishiga doir); so'zlarning leksik-semantik guruhi haqidagi (lek-

www.ziyouz.com kutubxonasi

sikologik); o'zbek tilining to'g'ri yozuv tamoyillari va tinish belgilarining ishlatilishi haqidagi (orfografik va punktuatsion) bilimlar tashkil etadi. Bu bilimlar, birinchidan, grammatik, fonetik, so'z yasalishiga oid tushunchalarda, ikkinchidan, grafik, orfografik, punktuatsion qoidalarda namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, o'zbek tili kursi fonetik, grafik, morfologik, sintaktik va boshqa ko'nikma va malakalarni ham o'z ichiga oladi.

Tilni o'rganish jarayonida o'quvchilarda boshqa ko'pgina o'quv predmetlari uchun umumiy bo'lgan ko'nikmalar (predmetlararo ko'nikmalar) ni hosil qilish ustida ham ish olib boriladi. Pedagogikada bunday predmetlararo ko'nikmalarga analiz, sintez, abstraktlashtirish (til hodisalarini fikran tasavvur etish), umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash kabilar kiradi. Ushbu ko'nikmalarni o'quvchilarda shakllantirish ustida maqsadga muvofiq ishlash ularning o'quv faoliyatini faollashtirishga, bilimlarini muvaffaqiyatli egallashlariga imkoniyat yaratadi. Ona tili kursidan hosil qilinadigan maxsus ko'nikmalar bilan predmetlararo ko'nikmalar, birbiridan ajratilmagan holda o'quv-tarbiyaviy jarayonda shakllantiriladi.

Beriladigan bilim va o'quvchilarda hosil qilinadigan maxsus ko'nikmalar maktab dasturlari va davlat ta'lim standartida qayd etilgan.

Boshlang'ich sinflarda o'rganish uchun tilni ongli egallashga va o'quvchilarda grafik va imloviy malakalarni shakllantirishga zamin bo'ladigan bilimlar tanlangan. Fonetika va grafika sohasida o'quvchilar so'zning tovush tarkibini, unli va undosh tovushlarning o'ziga xos xususiyatlarini, so'zda tovushning ma'noni farqlashdagi ahamiyatini to'g'ri tushunishga imkon beradigan bilimlarni o'zlashtiradilar, shuningdek, ularga so'zning tovush va grafik shakli o'rtasidagi nisbat (bog'lanish)ni ongli aniqlash, so'zni to'g'ri yozish imkoniyati yaratiladi. Morfologiya sohasidan ham so'zni ongli o'zlashtirish, uni to'g'ri ishlatish uchun katta amaliy ahamiyatga ega bo'lgan bilimlar tanlangan. Boshlang'ich sinf o'quvchilari 1-sinfdan boshlab so'z turkumlari (ot, sifat, son, olmosh, fe'l)ni har xil saviyada o'rganadilar.

Sintaksisdan dasturga nutq birligi sifatida gap haqidagi, gapda so'zlarning bog'lanishi, bosh va ikkinchi darajali bo'laklar haqidagi bilimlar kiritilgan. So'zning morfemik tarkibi yuzasidan har bir morfemaning muhim belgilarini, ularning ahamiyati va so'zda birbiriga ta'sirini boshlang'ich sinf o'quvchilari tushunadigan va so'zlarni to'g'ri yozishda foydalanishlari uchun zarur bo'lgan hajmda ma'lumot berilgan.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Dasturda „Leksika“ bo‘limi alohida berilmagan, ammo o‘quvchilar so‘zlarning leksik-semantik guruhlari (sinonimlar, antonimlar) haqida, ularning leksik ma’nolari haqida so‘z turkumlari va so‘z tarkibini o‘rganish jarayonida ma’lumot oladilar.

Boshlang‘ich sinflar ona tili kursi 1–4-sinflarda tilning hamma tomonlarining o‘zaro bog‘liq holda o‘rganilishi hisobga olinib tuzilgan, har bir sinfda fonetika, leksika, grammatika va so‘z yasalishi haqida elementar bilim beriladi. Kursning bunday qurilishi tilning barcha tomonlarini bir-biriga o‘zaro ta’sir etadigan bir butun hodisa sifatida o‘rganishni taqozo etadi. Tilni o‘rganishga bunday yondashish ta’lim jaryonini o‘quvchilar nutqini o‘stirish vazifasini hal etishga yo‘naltirish imkonini beradi.

Dasturning „Grammatika, imlo va nutq o‘stirish“ bo‘limi har bir sinfda quyidagicha qismlarni o‘z ichiga oladi: „Tovushlar va harflar“, „So‘z“, „Gap“, „Bog‘lanishli nutq“. Asosiy mavzular bosqichli izchillik tamoyiliga asoslanib, har to‘rt sinfda o‘rganiladi. Har bir sinfda yetakchi mavzular ajratiladi. 1–2-sinfda fonetika va grafikaga oid mavzularni o‘rganishga katta o‘rin beriladi, chunki o‘quvchilar o‘qish va yozish jarayonini egallaydilar. 3-sinfda so‘zning morfemik tarkibi va gapni o‘rganish muhim hisoblanadi. So‘z yasalishiga doir bilimlar asosida o‘quvchilarda so‘zning leksik ma’nosiga, undan nutqda foydalanishga ongli munosabat o‘sadi. 4-sinfda so‘z turkumlarini o‘rganish birinchi o‘ringa qo‘yiladi (morfologik bilim chuqurlashtiriladi, otlarning egalik va kelishik qo‘shimchalarini, fe’llarning tuslovchi qo‘shimchalarini to‘g‘ri yozish malakalari shakllantiriladi).

Bog‘lanishli nutq ustida to‘rt yil davomida grammatik va orfografik materiallarni o‘rganish bilan bog‘liq holda reja asosida ish olib boriladi.

Ona tili darslarida til hodisalari ma’nosi (semantikasi), qurilishi, vazifasi jihatidan o‘rganiladi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan kundan boshlab jamiyatni isloh qilish siyosatini kun tartibiga qo‘ydi. Barcha sohalardagi kabi ta’lim sohasini isloh qilish siyosati ham izchillik bilan amalga oshirila boshlandi.

Boshlang‘ich ta’lim bo‘yicha Yangi tahrirdagi Davlat ta’lim standarti ham mustaqillik davridagi tajribalar natijasi sifatida maydonga keldi. U boshlang‘ich ta’lim darsliklari va metodik qo‘llanmalarining yangi avlodini yaratishda dasturulamal vazifasini o‘tamoqda.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Boshlang'ich ta'lim Davlat ta'lim standartining „Kirish" qismida „Boshlang'ich ta'lim jarayoni bolaning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyati, aqliy rivojlanishi, dunyoqarashi, kommunikativ savodxonligi va o'z-o'zini anglash salohiyatini shakllantirishga, jismonan sog'lom bo'lishga, moddiy borliq go'zalliklarini his eta olishga, go'zallik va nafosatdan zavqlana olish, milliy urf-odatlarni o'zida singdirish va ardoqlash, ularga rioya qilishga o'rgatadi", – deb alohida ta'kidlangan.

Boshlang'ich ta'lim oldiga qo'yilgan bu kabi talablarni amalga oshirish ta'lim mazmunini aniq belgilab olishni, o'qitishga yangicha yondashuvni taqozo etadi.

Davlat ta'lim standartida ta'kidlanganidek, „Boshlang'ich ta'lim bosqichida davlat va jamiyat tomonidan qo'yiladigan talab"da ta'lim sohalari bo'yicha o'zaro muvofiqlik, mutanosiblik, uyg'unlik to'la ta'minlangan bo'lmog'i kerak. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim standartini belgilash ta'lim jarayonining tarkibini va xuddi shu tarkib komponentlarining mazmunini modernizatsiyalash, boshlang'ich ta'lim jarayonida yangi, zamonaviy pedagogik texnologiyani qo'llash imkonini beradi.

Boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limi mazmuni ta'limning mazkur bosqichiga qo'yilgan talablardan kelib chiqib belgilanadi.

„Ta'lim to'g'risida"gi qonunda „Boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'lim olish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim va ko'nikma asoslarini shakllantirishga qaratilgandir", deyiladi. Shundan kelib chiqqan holda „Boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limining maqsadi, vazifalari sifatida DTSda quyidagilar belgilab berilgan:

1. ...bolaning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirishga, erkin fikrlay olish, o'zgalar fikrini anglashi, o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda bayon qila olishi, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.

2. ...o'z fikrini savodli, mantiqiy izchillikka rioya qilgan holda bayon eta olishga o'rgatish.

3. ...yozma nutq belgilarini talaffuzda ifodalash, matnni ifodali o'qiy olish ko'nikmasini shakllantirish.

4. O'qish sur'atini oshirish, ta'limning shu bosqichi uchun xos bo'lgan sidirg'a o'qishni egallashlariga erishish.

5. Fikrni yozma bayon etish bo'yicha belgilangan quyidagi ko'nikmalarni egallash:

a) fikrning mantiqiy izchillikda ifodalanganligi;

www.ziyouz.com kutubxonasi

b) tavsifning mavzuga muvofiqligi va mukammalligi;

d) tavsifda tilning ifoda vositalaridan foydalanish darajasi;

e) imloviy savodxonlikni egallashlariga erishish[18].

Bularni amalga oshirish ona tili ta'limi siklidagi fanlarning, ya'ni savod o'rgatish, o'qish va ona tilining vazifasidir.

Bu vazifalarni ado etish ko'p jihatdan ta'lim mazmunni to'g'ri belgilashga bog'liq. Ona tili ta'limi mazmuni aniq va ilmiy-nazariy jihatdan to'g'ri belgilansagina, oldinga qo'yilgan talablar to'liq bajariladi.

Ma'lumki, DTSida belgilab berilgan ona tili ta'limi mazmuni aniq mavzular va til materiallari asosida dastur va darslikda o'z ifodasini topadi. Ular biri ikkinchisining ijrochisi bo'lib, bir-biriga muvofiq kelishi lozim.

Xulosa qilib aytish mumkinki, boshlang'ich sinf ona tili mazmuni metodist olimlarning ko'p yillik kuzatishlari, tajribalari, tajriba natijalarining tahlili asosida takomillashtirilib kelinmoqda. Ayniqsa, ona tili o'qitishning amaliy ahamiyatiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Boshlang'ich sinflarda ona tili darslarining turlari va ularga qo'yiladigan talablar

Darsning umumiy tasnifi. Maktabda dars o'quv-tarbiya jarayonini tashkil qilishning asosiy shakli hisoblanadi. Dars ta'lim-tarbiyani amalga oshirishning eng qulay va eng zarur omilidir.

Darsga qo'yiladigan **umumiy talablar** quyidagilar:

1. Ta'limiy talab. Har bir dars o'quvchiga qandaydir bilim berishi lozim. Har bir darsning asosiy maqsadi ham shu.

2. Tarbiyaviy talab. Bu har jihatdan komil shaxsni tarbiyalash demakdir.

3. Didaktik talablar. Bu o'qituvchiga darsni to'g'ri tashkil qilish: dars maqsadlarini, turini to'g'ri belgilash, darsdagi u yoki bu materialni o'quvchilarga yetkazib berish usullarini to'g'ri tanlash, o'quvchilar bilimini tekshirish va baholash shakllarini aniqlab olish demakdir.

4. Psixologik talablar. Bu talab shuni nazarda tutadiki, o'qituvchi o'z o'quvchilarining xarakter-xususiyatini qanchalik darajada yaxshi bilishi juda katta ahamiyatga ega. O'z o'quvchilarining psixologik xususiyatlarini yaxshi bilgan o'qituvchigina to'laqonli dars uyushtirishi mumkin.

[18] Boshlang'ich ta'lim bo'yicha yangi tahrirdagi Davlat ta'lim standarti. //„Boshlang'ich ta'lim", 2005.– № 5. 5-bet.

www.ziyouz.com kutubxonasi

5. Gigiyenik talablar. Bu o'quvchilar salomatligi haqida qayg'urish demakdir. Sinfda yorug'lik, toza havo har doim yetarli bo'lishi lozim.

Boshqa fanlar kabi, ona tili o'qitishning samaraliligi darsning sifatiga bevosita bog'liqdir.

Darsga qo'yilgan umumdidaktik talablar pedagogik adabiyotlarda keng yoritilgan. Ularni ona tili o'rgatishga tatbiq qilib, metodik aniqliklar kiritilsa, ona tili darslariga qo'yilgan talablar quyidagicha bo'ladi:

I. Yangi bilim berish, ularni nutq amaliyotiga tatbiq etish va o'quvchilarni tarbiyalash bir butun jarayondir. Darsda o'quvchilarning o'quv faoliyatini tashkil etishga, foydalaniladigan til materialining g'oyaviy-siyosiy, estetik va badiiy qimmatli bo'lishiga, tilni o'rganish jarayonida bolalarda dunyoqarash elementlarini shakllantirishga alohida ahamiyat berish zarur. Ijodiy izlanish muhiti yaratilgan darslardagina zarur axloqiy sifatlar tarbiyalanadi.

Ona tili darslarida o'zbek tiliga muhabbat va so'zga ehtiyotlik bilan munosabatni tarbiyalashga alohida e'tibor beriladi. Buning uchun matn puxta tanlanadi. Tilni o'rganish jarayonida leksik-uslubiy ishlarga katta o'rin beriladi. Darsda she'r, soddalashtirilgan matnlar bilan birga, yuksak badiiy matnlardan ham foydalaniladi.

Ona tili o'qitish jarayoni o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirishga qaratiladi. Ona tili darslari har bir kishi uchun zarur bo'lgan saranjom-sarishtalik, mustaqillik, tashabbuskorlik sifatlarini ham tarbiyalaydi.

II. Darsning aniqligi va ichki mantiqiyligi, uning maqsadga yo'naltirilganligi juda muhim. Yangi material o'rgatiladigan darsning mazmuni va mantiqiy o'rganiladigan til hodisasi hamda uning lingvistik mohiyatining bir-biriga ta'sir qilishiga ma'lum darajada sabab bo'ladi. O'qituvchi bu o'zaro bog'lanishni bilishi va uni o'quvchilar bilan birga topshiriqlarni bajarish davomida asta ocha borishi muhimdir.

Agar dars grammatik bilimlarni mustahkamlash, orfografik ko'nikmalarni shakllantirish maqsadini o'z oldiga qo'ysa, darsning mantiqiy shartlari asta murakkablashtirib borilgan mashqlar tizimini aks ettiradi. Bolalar biror imlo qoidasini yaxshilab bilib, o'rganib olishlari uchun bir-ikki mashq jamoaviy ravishda bajariladi. O'quvchilar mustaqilligi oshgach, mashqni mustaqil ishlaydilar. Darsda bajarilgan mashqlar o'rtasidagi bog'lanishni shakllantiradigan ko'nikmaning

www.ziyouz.com kutubxonasi

xususiyati ham sabab bo'ladi. O'quv materialining mavzuga va darsning maqsadiga mos bo'lishi uning maqsadga yo'naltirilishini ta'minlaydi. Darsda foydalaniladigan barcha o'quv materiallari (shu jumladan, til dalillarini kuzatish, imlo va nutqqa oid mashqlarni bajarish uchun tanlanadigan materiallar ham) darsning maqsadiga juda mos bo'lishi zarur.

III. Ona tili darsi, avvalo, o'quvchilar nutq va tafakkurini o'stirish darsidir. Ona tili darslari ijtimoiy-foydali bo'lishi uchun o'quvchilarda o'z fikrini grammatik to'g'ri, uslubiy aniq, izchil ifodalash va boshqalar fikrini bera olish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilishi lozim. Ona tili darslarida nutq o'stirish ko'rsatmasi grammatik materialni o'rgatishda o'quvchilarning tilimizdagi har bir so'z turkumi yoki so'z qismining rolini bilib olishlariga erishtiradigan metodik usullarni qo'llashni talab etadi, ya'ni grammatik nazariya grammatik to'g'ri va aniq nutq malakalarini shakllantirishga, anglab, tushunib yozish malakalarini o'stirishga amalda tatbiq etish uchun o'rgatiladi. Darsda bolalar nutqini o'stirish darsning mazmunida va qo'llanilgan vazifalar turlarida o'z aksini topadi.

Grammatik, so'z yasalishiga oid, imloviy materiallarni o'rganishni nutq o'stirish bilan bog'lash o'quvchilar aqliy faoliyatini boshqarish hisoblanadi. Bolalar nutqini o'stirish jarayoni ularning tafakkurini o'stirish bilan bog'liq.

Ona tili darsi o'quvchilar taffakurini o'stirish ustida ishlash maqsadiga yo'naltirilganligiga qarab baholanadi. Bunda muayyan grammatik va imloviy materialni o'rganish jarayonida shu materialni yaxshiroq o'zlashtirishni taminlaydigan, aqliy faoliyatni talab qiladigan mashqlarni o'tkazish tushuniladi. Masalan, „O'zakdosh so'zlar" tushunchasini shakllantirish uchun so'zlaming leksik ma'nosi va morfemik tarkibini taqqoslashni (ularning ma'nolarida umumiylikni va ularda bir xil o'zakning mavjudligini) bilish lozim. O'quvchilar tafakkurini o'stirish uchun o'qituvchi darsga tayyorlanganda, vazifa turlarini tanlaydi, darsning materialini va uni o'zlashtirishda o'quvchilar bajaradigan aqliy faoliyat mashqlarini ham belgilab oladi.

O'quvchilarga beriladigan nazariy bilim tildan ongli foydalanish imkonini beradi. Nazariyaga ahamiyat berish, elementar tarzda bo'lsa ham, o'quvchilarning til hodisalari o'rtasidagi bog'lanishni bilib olishiga e'tibor berish demakdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bunday bog'lanishni bilsalar, ***nima uchun shunday?*** so'rog'iga

www.ziyouz.com kutubxonasi

javob topa oladilar. Masalan, „Nima uchun *daftar* so'zi kelishik va egalik qo'shimchalari bilan turlanadi, *o'qidik* so'zi esa shaxs-son qo'shimchalari bilan tuslanadi?".

Ona tili darslarining foydali bo'lishiga darsda og'zaki va yozma ishlarni maqsadga muvofiq o'tkazish, o'quvchilarning o'quv ishlarini tekshirib, nazorat qilib borish, o'z vaqtida xatolarning oldini olish va to'g'rilash, texnika vositalaridan foydalanish kabi omillar katta ta'sir ko'rsatadi.

Ona tili darslarining turlari va qurilishi. Dars turlari uning didaktik maqsadiga ko'ra belgilanadi, chunonchi: *yangi materialni o'rganish darsi, bilimni mustahkamlash darsi, umumlashtiruvchi-takrorlash darsi, bilimlarning qanchalik o'zlashtirilganini hisobga olish (tekshiruv) darsi* va boshq. Har bir dars turi muayyan qurilishi bilan boshqasidan farqlanadi. Darsning didaktik maqsadi, turi va qurilishi o'rtasida ma'lum bog'lanish mavjud. Muayyan bir darsning didaktik maqsadi o'rganiladigan mavzuga va bu darsning darslar tizimida tutgan o'rniga qarab belgilanadi. O'qituvchi dasturda mavzuga ajratilgan soatlar sonini va o'rganiladigan materialning xususisiyatlarini hisobga olgan holda, dars turini tanlab, qurilishini belgilaydi.

Dars qurilishida qat'iy andaza bo'lishi mumkin emas. Biroq darsda uy vazifasini tekshirish, takrorlash, yangi materialni tushuntirish, mustahkamlash, uyga vazifa berish bosqichlariga rioya qilish tajribada o'zini oqlayapti. Shunga qaramay, bularga ijodiy yondashish, darsning maqsadi va foydalaniladigan metodik usullariga asoslangan holda, darsni qaysi bosqich (yangi materialni tushuntirish, mustaqil ishni bajartirish yoki uy vazifasini tekshirish) dan boshlashni o'qituvchining o'zi hal qilib, bosqichlar orasidagi ichki bog'lanish, har bir bosqichdagi ishlarning mazmunini aniq belgilab olish katta ahamiyatga ega ekanini unutmasligi kerak. Darsning barcha bosqichlarini bir jarayonga birlashtirish o'qituvchidan yuksak mahorat talab etadi.

Birinchi sinfdan boshlab o'quvchilar modul usulida mustaqil ishlashga o'rgatib borilsa, keyingi sinflarda ham shu kabi darslarni tashkil etish osonlashadi, chunki o'quvchilarda bu haqda ko'nikmalar hosil bo'la boradi. O'qituvchi dars davomida dam olish daqiqalarini ham uyushtirishi kerak.

Quyida yangi pedagogik texnologiya usullaridan biri — modul asosidagi 1 soatlik ona tili darsi namunasini keltiramiz:

Darsning mavzusi. *Shaxs va narsani bildirgan so'zlar.*

www.ziyouz.com kutubxonasi

Darsning maqsadi. O'quvchilarga shaxs va narsa bildirgan so'zlar haqida bilim berish, o'z fikrlarini aniq, to'g'ri va ifodali bayon etishga o'rgatish, husnixat asosida yozish ko'nikmalarini shakllantirish.

Dars turi. Yangi bilim beruvchi dars

Dars jihozi. Kartochkalar, test topshiriqlari, rangli rasmlar.

Modulning didaktik maqsadi. O'quvchilarning kichik guruhlarida hamkorlikda mustaqil ishlash, so'zlarni ma'nosiga ko'ra farqlash va guruhlash ko'nikmalarini shakllantirish, shaxs va narsani bildirgan so'zlarning to'g'ri talaffuzi va imlosini o'zlashtirishlarini ta'minlash.

<table>
<tr><th>O'quv faoliyati elementi (O'FE)</th><th>O'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan o'quv materialiga oid topshiriqlar</th><th>Topshiriqlarni bajarishlari uchun ko'rsatmalar</th><th>Baho</th></tr>
<tr><td>1-O'FE</td><td>Maqsad. O'quvchilarning so'z ma'nolari haqidagi tushunchalarini aniqlash, yangi mavzuni o'rganishga qiziqish uyg'otish.
Metod. Mustaqil ish.
Topshiriqlar:
1. Uyda tuzib kelgan matningizni o'qing. So'roqlar o'rniga qanday ma'nodagi so'zlarni qo'ydingiz?
2. Osmondagi sayyoralar nomini yozing. Namuna: Oy, ...
3. Quyidagi so'zlarni jadvalga guruhlab joylang:
Kitob, dehqon, o'qituvchi, chumoli, o'rmaladi, tindi, yomg'ir, ishladi, o'qidi.
<table>
<tr><th>Kim?</th><th>Nima?</th><th>Nima qildi?</th></tr>
<tr><td></td><td></td><td></td></tr>
</table>
4.Yuqoridagi so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.
90-mashqni o'qing. Topshiriqlarning javobini aniq qilib ayting.</td><td>Mashqni o'qing Oldin bajarish yo'lini bilib oling. Savol-topshiriqlarni kichik guruhlarga bo'linib bajaring.</td><td></td></tr>
</table>

www.ziyouz.com kutubxonasi

<table>
<tr>
<td>2-O‘FE</td>
<td>Maqsad. Shaxs bildirgan so‘zlar haqida bilim hosil qilish.
Metod. Muammoli yarim izlanishli.
Topshiriqlar:
1. She’rni ifodali o‘qing.
2. She’r matnidagi kishilarning ismini daftaringizga yozing.
3. Shu so‘zlarga qanday so‘roq beriladi? O‘ylang, ular nimani bildiryapti?
4. „Ulug‘“ so‘zini qaysi so‘zlar bilan almashtirish mumkin?
5. „Sig‘ingan”, „qo‘msab“ so‘zlarining ma’nosini izohlashga harakat qiling.
91-mashqni ifodali o‘qishga tayyorlaning.</td>
<td>Mashq matnini ifodali o‘qing. So‘zlarni husnixat bilan yozing.</td>
<td></td>
</tr>
<tr>
<td>3-O‘FE</td>
<td>Maqsad. Narsani bildirgan so‘zlar haqida bilim hosil qilish.
Metod. Muammoli yarim izlanishli.
Topshiriqlar:
1. 92-mashq shartini tushuntirib bering.
2. 92-mashq matnida ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni quyidagi jadvalga joylang.
<table>
<tr><th>Qush</th><th>Gul</th><th>Sabzavot</th></tr>
<tr><td></td><td></td><td></td></tr>
</table>
3. Qush nomlariga so‘roq bering. O‘ylang, ular nimani bildiryapti?
4. Gul nomlariga so‘roq bering. O‘ylang, ular nimani bildiryapti?
5. Sabzavot nomlariga so‘roq bering. Ular nimani bildiryapti?
92-mashqdagi so‘zlarni ichingizda o‘qing.</td>
<td>92-mashqdagi so‘zlarni ichingizda o‘qing.</td>
<td></td>
</tr>
<tr>
<td>4-O‘FE</td>
<td>Maqsad. O‘quvchilarni o‘rganganlari asosida bilimlarini umumlashtirish va xulosalashga o‘rgatish.
Metod. Suhbat
Savollar:
1. Siz yozgan va o‘qigan so‘zlar qanday so‘roqlarga javob bo‘ladi?
2. Kim? so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlar nimani bildiradi?
3. Nima? so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlar nimani bildiradi?
4. So‘zlar nimalarga nom bo‘lar ekan?</td>
<td>To‘rtburchak ichida berilgan ma’lumotlarni o‘qing. Savollarni diqqat bilan tinglang. Savollarga qisqa va aniq javob bering.</td>
<td></td>
</tr>
</table>

www.ziyouz.com kutubxonasi

5-O'FE	Maqsad. O'quvchilarning shaxs va narsani bildirgan so'zlar bo'yicha olgan bilimlarini mustahkamlash. Metod. Suhbat va mustaqil ish. Topshiriqlar: 1. 92-mashq shartini tushuntirib bering. 2. She'rni ifodali o'qing. 3. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga so'roq bering. Ular nimani bildiryapti? 4. „Mitti", „oshiyon" so'zlariga ma'nodosh so'z toping. 5. Ta'limiy o'yin: a) qushlar va gullarni ikki guruhga ajrating; b) qush rasmini qo'lingizga olib, uning nomini ayting; d) gul rasmini qo'lingizga olib, uning nomini ayting. 6. Test topshiriqlarini bajarish: I. Shaxs nomi berilgan javobni belgilang. A. Mirzo Bobur B. Qushcha II. Narsani bildirgan so'z berilgan qatorni belgilang. A. Qalam B. Amir Temur	92-mashq shartini ichingizda o'qing. She'rni ifodali qilib o'qishga tayyolaning. Kim ko'p qush va gul nomini bilishini hisobga olib boring va uni qanday rag'batlantirish kerak deb o'ylaysiz?	

Umumlashtiruvchi dars grammatikadan maxsus dars turi hisoblanadi. Bu darsda biror mavzu yoki bo'limni o'rganish jarayonida olingan bilimlar tizimlashtiriladi. Bu dars ilgarigi darslarda o'rganilgan ayrim nazariy materiallarni takrorlab bayon qilish darsiga aylanmasligi uchun o'rganilganlarni o'zaro taqqoslashni talab qiladigan ish turlaridan foydalaniladi.

Umumlashtiruvchi darslar qurilishiga ko'ra xilma-xil bo'lib, tajribalarning natijasiga ko'ra, quyidagi varianti ma'qullangan:

1. O'rganilgan grammatik tushunchaning mavjud belgilari haqidagi bilimlarni tatbiq qilishga qaratilgan mashqlarni ishlash.
2. Bilimlarni umumlashtirish va tekshirish.
3. Mustaqil ijodiy ishlar.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Umumlashtiruvchi dars namunasi

Mavzu. So'z turkumlari (umumlashtirish).

Darsning maqsadi: Ot, sifat, son, olmosh va fe'lning xususiyatlari haqidagi bilimlarni takomillashtirish, ularni bilib olish va to'g'ri foydalanish ko'nikmasini o'stirish.

Darsning borishi

I. Lug'at ishi.

– Quyidagilarni bir so'z bilan yozing:

1. Eng aziz inson (ona)
2. Jamoa bo'lib muzeyga borish (ekskursiya)
3. Katta shaharlarda yer osti qasri (metro)
4. Bilim manbai (kitob)

– Endi quyidagi so'zlarni yozing: non, suv, uy, ...

Shu so'zlarni oldingi so'zlaringiz bilan taqqoslang. Ulardan qaysi biri oldin paydo bo'lgan? Nima uchun shunday deb hisoblaysiz?

II. So'z turkumlari va ularning belgilarini kuzatish.

– So'zlar qanday paydo bo'ladi?

– Odamlar yangi narsa ixtiro qilsa, unga nom qo'yadilar. Shu tariqa tilda yangi nom hosil bo'ladi.

– Har bir narsaning nomi bo'lmasa, odamlar bir-biri bilan qanday aloqa qilishlarini o'ylang va javob bering.

– Agar narsalarning nomi bo'lmasa, odamlarning bir-biriga biron narsani tushuntirib berishlari juda qiyin bo'lardi. Bunda o'sha narsaning o'zini yoki rasmini ko'rsatish lozim bo'lardi. Narsalarning nomini bildirgan so'zlar odamlarning muloqotga kirishishiga juda katta yordam beradi.

– So'zlar faqat shaxs va narsalarning nomini bildiradimi?

– Yo'q. Ular narsalarning belgisini, harakatini va son-sanog'ini ham bildiradi.

– Tilimizdagi barcha so'zlar guruhi qanday nomlangan?

– „So'z turkumlari" deb nomlangan.

– Siz o'rgangan so'z turkumlarini ayting.

– Ot, sifat, son, olmosh, fe'l.

– Ularning xususiyatlarini eslang va quyidagi jadvalni to'ldiring.

www.ziyouz.com kutubxonasi

So'z turkumi	Nimani bildiradi?	Qanday so'roqqa javob bo'ladi?	Qanday o'zgaradi?
Ot			
Sifat			
Son			
Kishilik olmoshi			
Fe'l			

III. Mustaqil ijodiy ish.

1. „Bahordagi ishlar" mavzusidagi materiallarni to'plash va tartibga solish.
2. Mavzuga doir rasm ustida ishlash.
3. Mavzuni yoritishga xizmat qiluvchi leksik birliklar ustida ishlash.
4. Insho rejasini tuzish.
5. Reja asosida qayta hikoyalash.
6. Inshoni yozma shakllantirish.
7. Yozilgan inshoning xato-kamchiliklarini tuzatish.

Topshiriq. Yozgan inshongizdagi ot, sifat, son, kishilik olmoshi, fe'lga oid so'zlarning tagiga tegishlicha chizing.

Uyga vazifa: O'tilganlarni takrorlash.

Nazorat-hisobga olish va xatolar ustida ishlash darslarining o'ziga xos xususiyatlari bor. Bilimni tekshirish darsi o'quvchilarning nazariy bilimlarni amaliyotga qanday tatbiq qilishlarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Beriladigan topshiriq turlari va ularning mazmuni tekshirish maqsadiga qarab belgilanadi. Bunda diktant, bayon va maxsus grammatik mashqlardan foydalaniladi.

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida qo'llaniladigan metodlar

Ona tilini o'qitishda o'qituvchi bilan o'quvchining birgalikdagi faoliyatini tashkil etish shakllari, metodlari va usullari ta'lim tizimining takomillashuvi bilan bog'liq holda rivojlanib, yangilanib bormoqda.

XX asrning oxirgi yillariga qadar o'qitish metodlari sifatida tushuntirish-bayon metodi, suhbat metodi, analiz-sintez metodi, mustaqil ish metodi, induktiv va deduktiv metodlar ona tili ta'limi darslarini tashkil etishda ko'proq qo'llanilib kelindi.

Bayon qilish metodi ona tili darslarida qo'llangan asosiy metodlardan biri bo'lgan. Bunda o'qituvchi bayon qilishdan oldin o'quvchilarning o'rganilayotgan mavzu yuzasidan bilimlarini aniqlab olgan. Bu o'quvchilarni o'qituvchi bayonini kuzatib, tinglab borishga,

www.ziyouz.com kutubxonasi

faol bo'lishga undagan. O'qituvchining bayoni, ya'ni bayon qilish metodida grammatik mavzuning xususiyatidan kelib chiqib, o'qituvchi ma'lumotlarni o'z so'zlari bilan bayon qilib bergan. Bunda o'qituvchi zimmasiga o'rganilayotgan grammatik mavzuning muhim o'rinlarini aniq, lo'nda, misollar tahlili bilan izchil bayon qilib berish vazifasi yuklangan. Boshlang'ich sinflarda bayon qilish metodi o'quvchilarning yoshi va eslab qolish holatidan kelib chiqqan holda 3–5 daqiqaga mo'ljallangan. Bayon qilish metodini qo'llash holatlari hozir ham uchraydi.

Suhbat metodi boshlang'ich sinflarda ona tilini o'qitishda keng qo'llaniladigan va shu bosqich o'quvchilari tabiatiga mos metod sanaladi. Suhbat metodi ***savol-javob metodi*** deb ham yuritilgan. Suhbat metodi o'qituvchidan mavzuning xususiyatini o'zida aks ettirgan o'quv materialini topishni, grammatik mavzuning muhim belgilarini aniqlash, ularning o'xshash va farqli jihatlarini ajratish, o'xshash va farqli jihatlariga qarab guruhlash, umumlashtirishga, xulosa chiqarishga yo'naltirilgan savollar tuzishni, ularni o'quvchilarga izchil berib borishni talab etadi.

Boshlang'ich sinflarda suhbat metodining **muammoli o'qitish metodi** sifatida qo'llanilishi ta'limda o'quvchilarni faollashtirishga katta ta'sir ko'rsatadi. **Muammoli o'qitish metodiga** amerikalik pedagog va psixolog Dyun 1894-yilda asos solgan. Bu metodning maqsadi ilmiy tushunchalarni o'zlashtirishga yordam berishgina emas, balki o'quvchilarning bilish qobiliyatini ham rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini o'stirish hamdir. Bunda suhbat davomida o'qituvchining topshirig'i bilan o'quvchining oldiga biror muammo qo'yiladi va darsda muammoli vaziyat yaratiladi. Bu muammoni o'quvchi oldin egallagan bilimlari asosida hal etadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining hayotiy tajribalari kamligi sababli o'qituvchi muammoni hal qilishga yordamlashuvchi savollar beradi. Muammoni o'quvchi hal qila olmasa, uni o'qituvchining hal qilishiga to'g'ri keladi. Shuning uchun boshlang'ich sinfda muammoli o'qitish metodi ***yarim izlanishli muammoli metod*** deb ham yuritiladi. Masalan, muammoli o'qitish metodini leksik-semantik va grammatik mashqlarni tashkil etishda ham qo'llash mumkin. Bu metoddan 1-sinfdan boshlab foydalanish mumkin. Bu metod „Tovush va harf" mavzusini o'rganayotganda tovushning so'z ma'nosini farqlashdagi vazifasini tushuntirishda, „So'z ma'nosi", „Nutq va gap" mavzularini o'rganishda ham qo'llanadi. Masalan, „So'z ma'nosi" mavzusini o'rganish uchun xattaxtaga turli

www.ziyouz.com kutubxonasi

ma'nodagi, ya'ni turli so'z turkumiga kiradigan so'zlar aralash holda yozib qo'yiladi.

So'zlar: kitob, qurdi, shifokor, sakkiz, qizil, qalam, o'qidi, yashil, binokor, o'nta, o'qituvchi, sakkiz.

O'quvchilar bilan quyidagicha savol-javob tashkil qilinadi:

So'zlarni o'qing.

– Birinchi so'z nimani bildiryapti? Narsanimi, shaxsnimi?

– Bu so'zga qanday so'roq beramiz?

– Ikkinchi so'z harakatni bildiryaptimi yoki narsanimi?

– Bu so'zga qaysi so'roqni beramiz?

– Qaysi so'zlar sanoqni bildiryapti?

– Bu so'zlarga qaysi so'roqni beramiz?

– Qaysi so'zlar rangni bildiryapti?

– Bu so'zga qaysi so'roqni beramiz?

So'zlar ichidan shaxsni (kasb egasini) bildirayotgan so'zlarni topib, bir ustun qilib yozing.

– Ikkinchi ustunga narsani bildirgan so'zlarni topib yozing.

– Uchinchi ustunga harakatni bildirgan so'zlarni topib yozing va hokazo.

O'quvchilar topshiriqni o'qituvchi yordamida bajarib bo'lgach, muammoli savol o'rtaga tashlanadi:

– Yuqoridagi so'zlar nimasiga ko'ra farqlanyapti?

O'quvchilar „ma'nosiga ko'ra" degan fikrni ayta olmasalar, o'qituvchi bu muammoni hal qiladi:

– Bu so'zlar ma'nosiga ko'ra va so'roqlariga ko'ra farq qiladi. O'ylang, so'zlarni qaysi xususiyatlariga ko'ra guruhlarga ajratamiz? So'zlarni nechta guruhga ajratish mumkin?

Savol-javoblardan ko'rinib turibdiki, o'quvchilar bilan suhbat rivojlantirilib borilyapti va o'quvchilar suhbat davomida yangi-yangi ma'lumotlarni egallab bormoqdalar. 3–4-sinflarga o'tganda bunday suhbatlar oxirida o'quvchilarning o'zlari xulosa chiqaradilar. Bunday suhbatlarda o'quvchilarning yoshi, saviyasidan tashqari, vaqt ham hisobga olinadi. Suhbat uzoq davom etsa, o'quvchilar charchab qoladilar, o'zlashtirish darajasi ham susayadi.

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida **mustaqil ish metodi** asosan o'rganilgan mavzuni mustahkamlash qismida mashqlar ishlash jarayonida qo'llaniladi. O'quvchilar o'qituvchining topshirig'i bilan mustaqil ishlarni og'zaki yoki yozma shaklda bajaradilar. Topshiriq qiyin va ko'p vaqtni olmasligi, o'quvchilar kuchi yetadigan qilib, muayyan vaqt

www.ziyouz.com kutubxonasi

ichida bajarishga mo'ljallangan bo'lishi kerak. Mustaqil ishlash uchun topshiriq 1-sinfdan boshlab beriladi va u asta-sekin marakkablashtirilib boriladi. 1-sinfda „Yozgan so'zlaringizni lug'atdan tekshiring", „Rasmga qarab sabzavot nomlarini alifbo tartibida yozing", „Rasmni kuzating. Unda tasvirlangan narsalarni aniqlang va ularning nomini yozing" kabi topshiriqlar beriladi. Masalan, 88-mashqda „O'lkamda bahor" mavzusida sujetli rasm berilgan. O'quvchilar rasmni kuzatib, narsa nomlarini yozadilar. Bunda bir o'quvchi 5 ta, ikkinchi o'quvchi 10 ta va hokazo so'z yozishi mumkin. Aslida rasmda 30 tadan ortiq narsa tasvirlangan: *tog', osmon, bulut, qor, terak, tol, o'rik, ko'ylak, shim, tufli, mayka, lenta, soch, bosh, qir, dala, o't, gul, qo'l, oyoq, quloq, ko'z, burun, yuz, og'iz, barmoq, bo'yin, qorin, yubka, jemper, daraxt* va hokazo. Bu o'quvchilarning e'tibor bilan kuzatishga – kuzatuvchanlikka o'rgatadi.

Analiz-sintez metodi savod o'rgatish darslariga rus-tuzem maktablari va tatar o'qituvchilarining faoliyati orqali kirib kelgan. Ona tili ta'limi jarayoniga analiz – tahlil grammatik hodisaning muhim belgilarini aniqlash maqsadida, o'rganilgan grammatik tushunchaning yangi qirralarini ochish va mustahkamlash maqsadida tatbiq etiladi. Fonetik, leksik, morfologik va sintaktik tahlil shu metodning amalda namoyon bo'lishidir. Sintez qismlarga bo'lib o'rganilgan grammatik materialni yaxlitlashdir. Masalan, ot, sifat, fe'l, son kabi so'z turkumlari o'rganilayotganda ularga oid so'zlar berilib, ular ishtirokida gap tuzish, aralash berilgan so'zlardan gap tuzish, aralash berilgan gaplarni voqealar rivoji asosida tartiblashtirib matn tuzish, mazmunan tahlil qilingan rasm asosida hikoyacha tuzish kabi ishlarda sintez metodi namoyon bo'ladi. Analiz-sintez metodida ham o'quvchilarni faollashtirish o'qituvchining o'quvchilarga beradigan savol va topshiriqlariga, ishni tashkil etish shakllariga bog'liq bo'ladi.

Induksiya metodida o'quvchilar o'qituvchi tavsiya etgan til dalillarini kuzatadi, tahlil qiladi va shu asosda xulosa va ta'riflar keltirib chiqaradi.

Deduksiya metodida o'quvchi tayyor qoida – ta'rif bilan tanishadi va uning mohiyatini til dalillari asosida ochadi.

Bu metodlarning samarasi o'qituvchining savol-topshiriqlari mazmuni grammatik hodisaning muhim tomonlariga yo'naltirilganligiga, izchilligiga, faoliyatni tashkil etish shakllariga, o'quv vositalari (darslik, turli xarakterdagi lug'atlar, rasm, jadvallar, texnik vositalar)ga bog'liq bo'ladi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Xulosa qilib aytganda yuqoridagi barcha metodlarning muvaffaqiyati o'qituvchining beradigan savol-topshiriqlariga bog'liq. Yo'l-yo'lakay duch kelgan savollar bilan kichik yoshdagi o'quvchining anglash faoliyatini ishga solish kutilgan natijani bermaydi.

So'nggi yillar davomida ta'lim tizimiga an'anaviy metodlar bilan birga zamonaviy pedagogik texnologiya usullari kirib keldi. Ulardan ona tili ta'limi jarayonida foydalanish bo'yicha yutuqlar qo'lga kiritildi.

Savol va topshiriqlar

1. Boshlang'ich sinflarda ona tili kursining mazmunini izohlang.
2. „Grammatika, imlo va nutq o'stirish" dasturi bo'limlari („Tovushlar va harflar", „So'z", „Gap", „Bog'lanishli nutq")ni chuqur o'rganib, uning chizmasini tuzing. Sinfdan-sinfga ko'chgan sari har bir bo'lim materiali qiyinlashib borishini kuzating.
3. Kichik yoshdagi o'quvchilarda ona tili o'qitish jarayonida ilmiy dunyoqarash qanday shakllantiriladi?
4. Maktabda fonetika, leksika, so'z yasalishi va grammatikani bir-biri bilan bog'liq holda o'rganishning lingvistik asoslarini izohlang.
5. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida qo'llaniladigan usullarni ta'riflang.

FONETIKA VA GRAFIKA ASOSLARINI O'RGANISH METODIKASI

Kichik yoshdagi o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqni egallashlarida fonetikadan olgan bilimlarining ahamiyati katta: a) fonetik bilimga asoslangan holda I sinf o'quvchilari savod o'rganish davrida o'qishni va yozishni bilib oladilar; b) fonetik bilim so'zni to'g'ri talaffuz qilish (tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, urg'uli bo'g'inni farqlash, orfoepik me'yorga rioya qilish) asosini tashkil etadi; d) fonetik bilim morfologik va so'z yasalishiga oid bilimlar bilan birga o'quvchilarda qator imloviy malakalar (jarangsiz va jarangli undoshlarning yozilishi) shakllantirish uchun zamin bo'ladi; e) fonetik bilim gapni ohangiga ko'ra to'g'ri aytish, logik urg'u va gap qurilishidagi to'xtamlarga rioya qilish uchun zarur; d) so'zning tovush tomonini bilish uning ma'nosini tushunish va nutqda ongli qo'llash uchun muhimdir; *hózir* va *hozír, átlas* va *atlás* so'zlari manosidagi farq faqat urg'u orqali ajratiladi. So'zning tovush tomonini tasavvur qilish so'zlarni talaffuzda farqlash, ayrim so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish va qo'llash uchun zarur.

www.ziyouz.com kutubxonasi

O'qituvchi boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan barcha fanlarga oid darslarda so'zni aniq va to'g'ri talaffuz qilish ustida doimiy ishlab boradi, shu maqsadda ko'pincha so'zni tovush tomondan tahlil qilishdan foydalanadi.

Maktab dasturiga muvofiq, boshlang'ich sinf o'quvchilari fonetik-grafik ko'nikmalar tizimini hosil qiladilar: tovushlar va harflar, unli va undosh tovushlar, jufti bor jarangli va jarangsiz undoshlar, jufti yo'q jarangli va jufti yo'q jarangsiz undoshlar; so'zni bo'g'inlarga bo'lish, urg'uli bo'g'inni talaffuzga ko'ra amaliy farqlash ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

Bolalar maktabga kelgunga qadar ham nutqning tovush qurilishini amaliy o'zlashtiradilar, ammo ular maxsus o'qigunlariga qadar so'zni bo'g'inlarga bo'lishni, so'zdagi tovushlarni izchil talaffuz qilishni bilmaydilar. I sinf o'quvchilarida so'zni to'g'ri talaffuz qilish, bo'g'inlarga bo'lish, undagi har bir tovushni tartibi bilan aniq aytish ko'nikmasini shakllantirish ustida maqsadga muvofiq ishlash, o'z navbatida, analiz, sintez, taqqoslash, guruhlash kabi aqliy mashqlarni bilib olishga, shuningdek, tovushlarning tabiati, so'z tarkibida bir-biriga ta'siri kabi ayrim elementar bilimlarni o'zlashtirishga imkon beradi.

I sinfda fonetika va grafikani o'rganishga katta o'rin beriladi, chunki o'quvchilar o'qish va yozish jarayonini shu sinfda egallaydilar. Bu bilimlar keyingi sinflarda mustahkamlanadi, takomillashtiriladi.

Tovushlar va harflar, unli va undosh tovushlarning xususiyatlari bilan tanishtirish

Tovush murakkab tushuncha bo'lgani uchun boshlang'ich sinflarda unga ta'rif berilmaydi. Shunga qaramay, bolalarda tovush haqida to'g'ri ilmiy tasavvur amaliy mashqlar yordamida hosil qilinadi. Bunda yetakchi usul so'zdagi tovushlarning talaffuzi hamda so'zning leksik ma'nosi so'zdagi tovushlarning tarkibiga bog'liqligi ustida kuzatish hisoblanadi. Masalan, *aka, uka, opa, ona, ota, kul, gul, qora, qara* kabi bir unli yoki bir undosh bilan farqlanadigan so'zlar har xil lug'aviy ma'noni ifodalaydi.

So'zning tovush tarkibi ustida ishlash savod o'rgatish davridanoq boshlanadi. Bolalar bu davrda talaffuz qilingan yoki eshitilgan so'z tovushlardan tuzilishini bilib oladilar. Ular so'zni tovush tomonidan tahlil qilishga o'rganadilar, ya'ni so'zni bo'g'inlarga bo'ladilar, so'zdagi

www.ziyouz.com kutubxonasi

tovushlarni tartibi bilan aytadilar. Bunda tovush tomondan tahlilni harf tomondan tahlil bilan aralashtirmaslikka alohida ahamiyat beriladi.

So'zning tovush tarkibini to'g'ri tasavvur etish undagi harflarni tushirib qoldirmay yoki o'rnini almashtirmay yozish malakasini shakllantirish uchun ham, so'zni to'g'ri talaffuz qilish uchun ham katta ahamiyatga ega. Shuning uchun savod o'rgatishdan so'ng ham so'zni tovush tomondan tahlil qilish mashqlari yordamida so'zdagi tovushlar tarkibini aniqlash ko'nikmasini takomillashtirish ustida ishlab borish zarur.

Ma'lumki, nutq tovushlari ikki katta guruhga bo'linadi: *unli tovushlar* va *undosh tovushlar*. Buni o'quvchilarga tushuntirishda ularning quyidagi belgilari hisobga olinadi:

1) talaffuz qilinish usuli (unli tovush talaffuz qilinganda havo oqimi og'iz bo'shlig'idan erkin ravishda o'tadi, undosh tovush talaffuz qilinganda, havo og'iz bo'shlig'ida to'siqqa uchraydi);

2) ovoz va shovqinning ishtiroki (unli tovushlar faqat ovozdan iborat, undosh tovushlar talaffuz qilinganda shovqin eshitiladi, ba'zan shovqin va qisman ovoz eshitiladi);

3) bo'g'in hosil qilish xususiyati (unli tovushlar bo'g'in hosil qiladi, undosh tovushlar bo'g'in hosil qilmaydi).

O'quvchilar bu belgilarni yodlab olishlariga yo'l qo'ymaslik, aksincha, 1-sinfdanoq bolalarda tovushni talaffuz qilganda, ovoz yoki shovqin eshitilganda nutq a'zolarining vaziyatini kuzatish ko'nikmasini o'stirib borish lozim. Bunday kuzatishlar 4-sinfda davom ettiriladi va umumlashtiriladi. Tovushlarni o'zlashtirishga bunday yondashish, unli va undosh tovushlarni puxta o'zlashtirishga imkon berishi bilan birga, o'quvchilarning aqliy qobiliyatini o'stirish vazifasini ham bajaradi; xususan, bolalar kuzatilgan hodisaning bir necha belgilarini taqqoslashga, umumlashtirishga o'rganadilar.

O'zbek tili yozuvi tovush yozuvi hisoblanadi, chunki tovush yozuvda harflar bilan ifodalanadi. 1-sinf o'quvchilari quyidagilarni bilib olishlari lozim:

a) tovushni talaffuz qilamiz va eshitamiz;

b) harfni ko'ramiz, o'qiymiz va yozamiz;

d) harf – tovushning yozuvda ifodalanadigan belgisi.

O'quvchilar ko'pincha tovush bilan harfni aralashtirib, xatoga yo'l qo'yadilar. Ularda grafik malakani shakllantirish uchun quyidagilarni o'rgatish zarur:

www.ziyouz.com kutubxonasi

1) bir undosh harf yozuvda ikki undosh tovushni ifodalashi mumkin (masalan, *maktab* so'zidagi *b* harfi *p* tovushini, *maktabim* so'zidagi *b* harfi *b* tovushini ifodalaydi);

2) *jo'ja, jajji* so'zlaridagi *j* tovushi (jarangli, portlovchi) ham, *jurnal, vijdon* so'zlaridagi *j* tovushi (jarangli, sirg'aluvchi) ham bitta *j* harfi bilan ifodalanadi;

3) *tong, keng* so'zlaridagi uchinchi jarangli undosh tovush *(ng)* ikki harf birikmasi *(ng)* bilan ifodalanadi;

4) sh, ch harf birikmalari ham bir tovushni ifodalaydi (shamol, choy).

Jarangli va jarangsiz undosh tovushlarning yozuvda ifodalanishi

O'quvchilarga jarangli va jarangsiz undosh tovushlar talaffuzini kuzatishga asoslanib tanishtiriladi. Bunda jufti bor jarangli va jarangsiz undoshlar ajratiladi. Kuzatishda o'quvchilar faol qatnashishi va ularga jufti bor jarangli undosh bilan jarangsiz undoshlarni ajratish qanchalik muhim ekanini yaqqol ko'rsatish uchun faqat bitta undosh tovush bilan farqlanadigan *baqir – paqir, gul – kul, dil – til, zina – sina, joy – choy* kabi so'zlardagi tovushlarni taqqoslash maqsadga muvofiq. Bunda o'qituvchi o'quvchilar diqqatini *b–p, v–f, g–k, d–t, z–s, j–ch, j–sh* tovushlari biri jarangli, ikkinchisi jarangsiz undoshdan iborat tovush juftlarini hosil qilishiga qaratadi, ularning talaffuzidagi farqni amaliy tushuntiradi (jarangli undosh tovushlarda shovqin va qisman ovoz qatnashadi, jarangsiz undoshlarda esa faqat shovqin eshitiladi). Xattaxtaga quyidagicha yozib qo'yiladi:

Jufti bor jarangli undoshlar: *b, v, g, d, z, j, j, g'.*

Jufti bor jarangsiz undoshlar: *p, f, k, t, s, ch, sh, x.*

Jufti yo'q jarangli va jufti yo'q jarangsiz undoshlar bilan ham o'quvchilar har xil fonetik sharoitda tovushlarni talaffuz qilishni kuzatish jarayonida tanishtiriladi. Buning uchun o'quvchilar so'z oxirida yoki unli tovushdan oldin kelgan *ko'l, bilim, otam, olmos; quyon, bino; shifoner, fabrika; tong, singil; qo'y, kiyik* kabi so'zlardagi jarangli undoshning talaffuzini taqqoslaydilar va *l, m, n, r, ng, y* jarangli undosh tovushlar talaffuz qilinganda, ovoz va shovqin eshitilishini, ya'ni jarangli undosh tovush ekanini, bularning jarangsiz jufti yo'qligini (jufti yo'q jarangli undosh tovush ekanini) bilib oladilar. Xuddi shunga o'xshash usulda o'quvchilar *q, h* undoshlari talaffuz qilinganda, faqat

www.ziyouz.com kutubxonasi

shovqin eshitilishini, jarangsiz undosh tovush ekanini, jarangli jufti yo'qligini (jufti yo'q jarangsiz undosh tovush ekanini) bilib oladilar. Kuzatish natijasi xattaxtaga quyidagi ko'rinishda yoziladi (yoki kartonda tayyorlangan ko'rgazma ko'rsatiladi):

Jufti yo'q jarangli undoshlar: *l, m, n, r, ng, y*

Jufti yo'q jarangsiz undoshlar: *q, h*

Bolalar jufti yo'q jarangli undosh tovush so'zning oxirida kelganda ham alifbodagi xuddi shu harf yozilishini, ya'ni talaffuzi doim yozilishiga mos kelishini bilib olishlari yetarli. Jufti bor jarangli undosh tovushlar so'z oxirida kelganda, bunday moslik bo'lmaydi, ya'ni ko'pincha uning jarangsiz jufti talaffuz qilinadi *(maktap, ozot* kabi). Bunday so'zlar o'zbek tilida ko'p bo'lgani uchun I sinfdanoq o'quvchilarni ularning ayrimlari bilan tanishtirish zaruriyati tug'iladi. Dasturga ko'ra, 1-sinf o'quvchilari *b* va *d* jarangli undoshi so'z oxirida kelganda, uning jarangsiz jufti *p* va *t* talaffuz qilinishi bilan va bunday so'zlarning yozilishini qanday tekshirish bilan tanishtiriladi. Ularning talaffuzi va yozilishini tekshirishda fonetikaga asoslaniladi. O'quvchilar fonetik bilimlariga asoslangan holda, jufti bor jarangli undoshlarning yozilishini quyidagicha tushuntiradilar:

– *Kitob* so'zi oxirida jufti bor undosh tovushni eshityapman, shuning uchun so'zni tekshirish kerak. Shu undoshdan keyin unli tovush eshitiladigan so'z tanlayman: *kitobi. Kitobi* so'zida *b* tovushi eshitilyapti, shuning uchun *kitob* so'zida *b* harfini yozaman.

Bunday muhokama yuritish uchun o'quvchilar quyidagi bilim va ko'nikmalarni egallashlari kerak:

1. Jufti bor jarangli va jarangsiz undosh tovushlarni ajratish.

2. So'z oxirida kelgan jufti bor jarangli undosh tovushning jarangsiz jufti eshitilishi, shuning uchun bunday so'zlarni tekshirish kerakligini bilish.

3. Undosh tovush unli tovushdan oldin kelganda, boshqa tovush bilan almashmasligini bilish. Undosh tovushdan so'ng unli tovush kelgan so'z tekshiruvchi so'z bo'la olishini bilish.

4. Tekshiruvchi va tekshiriluvchi so'zdagi undosh harfni taqqoslash *(kitobi – kitob, maqsadi – maqsad, maqsadga).*

Shunday qilib, o'quvchilar qanday so'zlar tekshirishni talab qilishi va uning sababini, qanday so'zlar tekshiruvchi so'z hisoblanadi va nima uchunligini bilishlari zarur.

O'qituvchi qanday so'zlar tekshirishni talab qilishini tushuntirish

www.ziyouz.com kutubxonasi

uchun jufti bor jarangli va jarangsiz undosh tovushi bo'lgan so'zlar ustida kuzatish o'tkazadi: *maktabim – maktab, tuzi – tuz* kabi.

O'quvchilar yozilishi talaffuzidan farq qiladigan so'zlarni va so'zdagi jarangsiz undosh tovush o'ziga mos harf bilan ifodalanishini taqqoslash bilan so'zning oxirida jufti bor undosh tovush kelsa, u so'z tekshirishni talab qilishiga ishonadilar. Tekshirishga tayangan holda, yozishga imkoniyat yaratish uchun o'quvchilar tekshiruvchi so'zni tekshiriladigan so'zdan doim oldin yozadilar: *avlodi – avlod, kitobi – kitob.*

Bo'g'in ustida ishlash

Bo'g'in murakkab tushuncha bo'lgani uchun boshlang'ich sinflarda uning qoidasi berilmaydi. Dasturga ko'ra, o'quvchilarda so'zni bo'g'inlarga bo'lish ko'nikmasini shakllantirish vazifasi talab etiladi. O'quvchilar so'zni bo'g'inlarga bo'lishda so'zda nechta unli bo'lsa, shuncha bo'g'in bo'ladi, degan tushunchaga asoslanadilar. Bu tushunchani ular savod o'rgatish davridayoq hosil qiladilar. Bolalar yozilgan so'zdan dastlab unli harfni topadilar, keyin so'zda nechta unli bo'lsa, uni shuncha qism (bo'g'in)ga bo'ladilar.

1-sinfda o'quv yilining birinchi yarmida og'zaki va yozma tarzda bo'g'inlarga bo'lish, shuningdek, o'qituvchi topshirig'iga ko'ra, muayyan bo'g'inli so'z tanlash mashqlari har darsda o'tkaziladi. So'zni bo'g'inlarga to'g'ri va tez bo'lish ko'nikmasini hosil qilish 1-sinfda o'tkaziladigan muhim mashqlar qatoriga kiradi. O'quvchilar o'qish va yozish jarayonini egallashda mana shu ko'nikmaga tayanadilar. O'zbek grafikasida bo'g'in tamoyili yetakchi tamoyil hisoblanadi. O'quvchi so'zni to'g'ri yozish uchun uni avval bo'g'inlarga bo'ladi. Bo'g'inlardagi tovushlarning o'zaro bir-biriga ta'sirini aniqlaydi, undosh va unli tovushlarni ifodalash uchun zarur harflardan foydalanadi. O'quvchi quyidagicha muhokama yuritadi:

– „Vatan" so'zida ikki bo'g'in bor. Birinchi bo'g'inga *va;* ya'ni *v, a* harflarini yozaman, ikkinchi bo'g'inga *tan:* ya'ni *t, a, n* harflarini yozaman. O'quvchi so'zni bo'g'inlarga bo'lish, bo'g'indagi har bir tovushning o'rnini, tartibini aniq ko'z oldiga keltirib, bo'g'inlab aytish ko'nikmasiga ega bo'lsa, so'zdagi harflarni tushirib qoldirmay, o'rnini almashtirmay yoza oladi. Shuning uchun bo'g'in ustida ishlashga so'zni bo'g'inlab ko'chirib yozish, bo'g'inlab diktovka bilan yozish (bo'g'inlab izohlab yozish) mashqlarini ham kiritish lozim. Ikkinchidan, so'zni

www.ziyouz.com kutubxonasi

bo'g'inlarga bo'lish ko'nikmasi o'quvchilar uchun so'zning oldingi qatorga sig'may qolgan qismini keyingi qatorga bo'g'inlab to'g'ri ko'chirish uchun zarur. O'quvchilar „So'zlar bir yo'ldan ikkinchi yo'lga bo'g'inlab ko'chiriladi" va „Bir harfdan iborat bo'g'inni oldingi yo'lda qoldirib yoki keyingi yo'lga ko'chirib bo'lmaydi" degan asosiy bo'g'in ko'chirish qoidalarini I sinfdayoq o'rganadilar. Oddiy tuyulgan birinchi qoida ham so'zni bo'g'inlarga bo'lish, bo'g'in ko'chirish qoidasiga mos keladigan *maktab, Ra'no, singil* kabi so'zlar misolida juda ko'p mashqlar bilan mustahkamlashni talab etadi. Bolalar, ayniqsa, *singil, ko'ngil, tongi* kabi so'zlarni bo'g'inga bo'lishda qiynaladilar, chunki bu so'zlarda bitta jarangli undosh tovush *ng* harf birikmasi bilan ifodalanadi. Bu so'zlarni bo'g'inga bo'lishda bu ikki harf *sing-lim, ko'ng-lim, tong-gi* so'zlaridagi kabi oldingi bo'g'inda qolishi, yoki *si-ngil, ko'-ngil, to-ngi* so'zlaridagi kabi keyingi bo'g'inga ko'chirilishi kerak (Bir tovushni ifodalagan harfni ikkiga bo'lib bo'lmaydi). Keyingi qoida esa *aka, ota, oila, mudofaa, mutolaa* kabi so'zlar misolida yanada ko'proq mashq bilan o'rgatish va mustahkamlashni talab etadi. Bu qoidalar keyingi sinflarda yangi murakkabroq so'zlar misolida mustahkamlab boriladi.

Dasturga ko'ra, tutuq belgili (***ma'no, sun'iy*** kabi) so'zlarni bo'g'inga bo'lish va ko'chirishda tutuq belgisi har doim birinchi bo'g'inda bo'lishi, ***katta, ikki*** kabi ikkita bir xil undoshli so'zlarni bo'g'inga bo'lganda ikkita bir xil undoshning biri oldingi bo'g'inda qolishi, ikkinchisi keyingi bo'g'inga o'tishi (*kat-ta, ik-ki* kabi) o'quvchilarga 2-sinfdayoq o'rgatiladi[19].

GRAMMATIKA VA SO'Z YASALISHIGA OID TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISHNING METODIK ASOSLARI

Boshlang'ich sinflarda morfologiyadan „ot", „sifat", „son", „fe'l", „kishilik olmoshi" tushunchalarini; siktaksisdan „gap", „ega", „kesim", „ikkinchi darajali bo'lak", „uyushiq bo'lak", „undalma" kabi tushunchalarni; so'z yasalishidan „o'zak", „qo'shimcha", „o'zakdosh so'zlar" kabi tushunchalarni shakllantirish ustida ish olib boriladi.

O'qituvchi tushunchalarni shakllantirish jarayonini boshqarish, o'quvchilar aqliy faoliyatini to'g'ri tashkil etish uchun tushuncha

[19] Boshlang'ich ta'lim bo'yicha yangicha tahrirdagi o'quv dasturi. // „Boshlang'ich ta'lim", 2005. – № 5. 26-bet.

www.ziyouz.com kutubxonasi

nimaligini, tushunchani bilib olish jarayonining xususiyatlarini, tushunchani o'zlashtirish qanday sharoitda natijaliroq bo'lishini ko'z oldiga aniq keltirishi lozim.

Grammatik tushunchalarni o'zlashtirish

Tushuncha atrof-muhitdagi predmet va hodisalarning muhim belgilari va o'zaro aloqadorligi aks ettirilgan tafakkur shaklini tasvirlab ko'rsatadi.

Grammatik tushunchalarda ham, boshqa tushunchalar kabi, hodisalarning muhim belgilari umumlashtirilgan holda aks ettiriladi. Til hodisalarining o'ziga xos xususiyati, ya'ni tushunchaning mazmun tomoni grammatik tushunchaning o'ziga xos xususiyatini keltirib chiqaradi. Til hodisalari, til kategoriyalari boshqa hodisalarga nisbatan juda mavhumligi bilan farqlanadi. Biologik tushunchalarni shakllantirishda belgilarini kuzatish, bir tizimga solish va umumlashtirish mumkin bo'lgan aniq hodisalar va predmetlar material sifatida asos qilib olinadi. Grammatik tushunchalar esa so'z, so'z birikmasi, gap, morfema, leksema, fonema va boshqalarning o'ziga xos muhim belgilarini aniqlash va umumlashtirish natijasi hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, kishilar tomonidan yaratilgan grammatik tushunchaga asos bo'lgan dastlabki materialning o'zi yetarli darajada mavhumdir. Demak, grammatik tushunchalar umumlashtirilganlarning yana umumlashtirilgani hisoblanadi.

Grammatik tushunchaning bu xususiyatlari tufayli o'quvchilarda tushuncha juda ko'p qiyinchilik bilan shakllanadi. Grammatik tushunchani bilib olish uchun mavhum tafakkur ma'lum darajada rivojlangan bo'lishi lozim. Mavhum tafakkur ta'lim jarayonida vujudga keladi va maxsus mashqlarni talab qiladi. Bu mashqlar muayyan aqliy ko'nikmalarni va lingvistik tasavvur hamda bilimlar yig'indisini shakllantirishga qaratilgan bo'lishi zarur. Ko'pgina ruhshunos olimlarning tekshirishlari natijasida aniqlanishicha, tushunchani shakllantirish jarayoni tafakkurga oid analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, aniqlashtirish amallarini bilib olish jarayoni ham hisoblanadi. O'quvchilarda tushunchani shakllantirishning natijasi ularning mavhumlashtirish faoliyatining qay darajada o'sganligiga bog'liq.

Mavhumlashtirishda qiynaladigan o'quvchilar so'zlarni taqqoslay olmaydilar va ularning muhim grammatik belgilariga ko'ra bir guruhga

www.ziyouz.com kutubxonasi

birlashtira olmaydilar, tushunchani shakllantirishda qiynaladilar va xatoga yo'l qo'yadilar. Masalan, fe'l o'rganilganda o'quvchilar fe'l predmetning harakatini bildirishini bilib oladilar. *Yurmoq, o'qimoq, olmoq* kabi fe'llarda leksik ma'no grammatik ma'noga mos keladi. Ko'p fe'llarda bunday moslik bo'lmaydi. Grammatikada predmet harakati deyilganda, harakat bilan birga predmetning holati, uning boshqa predmetlarga munosabati, predmet belgisining o'zgarishi kabilar ham tushuniladi: *uxlamoq, o'ylamoq, sevmoq, o'smoq, ko'karmoq* va hokazo. Predmet harakatini bunday keng ma'noda, umumlashtirilgan holda tushunish endigina tilni o'rgana boshlagan o'quvchilarga qiyinlik qiladi, ular harakatni ko'proq yurish, siljish ma'nosida aniq tasavvur qiladilar. Shuning uchun fe'lni o'rganishning boshlang'ich bosqichida *yotmoq, kasallanmoq, turmoq, qizarmoq* kabi so'zlarni predmet harakatini bildiradi deb hisoblamaydilar. Bunday hodisani otni o'rganishda ham uchratish mumkin. Ayrim o'quvchilar *tinchlik, qahramonlik, qadam* kabi so'zlarni ot turkumiga kiritmaydilar. Tushunchani shakllantirish uchun o'quvchilarda mavhumlashtirish ko'nikmasini o'stirish, ular diqqatini so'zning aniq leksik ma'nosidan grammatik ma'nosiga qaratish va shu guruhdagi so'zlarga oid umumiy, grammatik belgilarni hisobga olgan holda, ularni bir guruhga birlashtirish talab etiladi. Masalan, *kim?* yoki *nima?* so'rog'iga javob bo'ladigan barcha so'zlar „ot" turkumiga birlashadi; predmet bildirish, son (birlik va ko'plikda kelish), egalik qo'shimchalari bilan o'zgarish, kelishiklar bilan turlanish bu so'zlar uchun umumiy grammatik belgilar hisoblanadi. Tushunchani shakllantirishda xatoning oldini olish uchun ta'lim berish jarayonida qator metodik talablarga rioya qilinadi.

Tushunchani o'zlashtirish ustida ishlash jarayoni

Grammatik tushunchani o'zlashtirish uzoq davom etadigan va kichik yoshdagi o'quvchilar uchun ancha murakkab jarayondir. O'qituvchi boshlang'ich sinflarda tushunchani o'zlashtirishga oid ishlarni tashkil etishda o'rganiladigan tushunchaning lingvistik mohiyatini, bilimlarni o'zlashtirish jarayonining psixologik-didaktik xususiyatlarini, o'quvchilarning nutqiy va aqliy o'sishi bir-birini taqozo etishini, grammatik bilimning nutqdagi o'rnini asos qilib oladi.

Grammatik tushunchalarda til hodisalarining muhim belgilari umumlashtiriladi. Tushunchani o'zlashtirish ustida ishlash jarayonida o'rganiladigan muhim belgilarni ajratish maqsadida muayyan til materiali

www.ziyouz.com kutubxonasi

analiz qilinadi. Masalan, so'z o'zgartuvchi qo'shimcha uchun quyidagi ikki muhim belgi xarakterli:

1) so'z o'zgartuvchi qo'shimcha – so'zning o'zgaradigan qismi;

2) so'z o'zgartuvchi qo'shimcha sintaktik vazifani bajaradi, ya'ni gapda so'zlarni bog'lash uchun xizmat qiladi.

Tushunchani o'zlashtirishga oid ishlarda o'qituvchi muayyan bir tushunchaning muhim belgilarini aniqlab oladi, dastur talabiga ko'ra, shu sinf o'quvchilarini tushunchaning qanday belgilari bilan tanishtirishni, foydalanganda yaxshi natija beradigan leksik materiallarni, metodik usul va vositalarni belgilab oladi.

Til materialini analiz qilish jarayonida o'rganiladigan tushunchaning muhim belgilari ajratiladi **(tushuncha ustida ishlashning birinchi bosqichi)**, so'ng belgilar o'rtasidagi bog'lanish topiladi, bir tushunchaning xususiyati sifatida ular orasidagi o'zaro munosabati aniqlanadi, atama beriladi **(tushuncha ustida ishlashning ikkinchi bosqichi)**. O'quvchilar o'rganilgan tushuncha mohiyatini anglashlari va bilimlarni nutq tajribasiga tatbiq etishlari uchun tushuncha ta'rifini aniq ifodalash ustida ishlanadi **(tushuncha ustida ishlashning uchinchi bosqichi)**; **to'rtinchi bosqich**da o'rganilgan kategoriyani bilib olish uchun mashq qilinadi; amaliy vazifani hal qilish maqsadida (fikrni aniq ifodalash, so'zni va gapni to'g'ri yozish uchun) o'quvchilarda tushunchaga asoslanish ko'nikmasi shakllantiriladi.

Shunday qilib, tilga oid tushunchalarni shakllantirish jarayoni shartli ravishda to'rt bosqichga bo'linadi:

Birinchi bosqich – tushunchaning muhim belgilarini ajratish maqsadida til materialini tahlil qilish. Bu bosqichda ma'lum so'z va gaplarning leksik ma'nosidan kelib chiqib mavhumlashtirish amalga oshiriladi va shu til hodisasi, til kategoriyasi uchun umumiy hisoblangani ajratiladi. O'quvchilar tahlil qilish va mavhumlashtirish aqliy amalini bilib oladilar.

Ikkinchi bosqich – tushunchaning belgilarini umumlashtirish, ular orasidagi bog'lanishni aniqlash(tushunchalarning ichki bog'lanishini aniqlash), atamani berish. O'quvchilar taqqoslash va tarkib amalini bilib oladilar.

Uchinchi bosqich – tushuncha ta'rifini ifodalashni tushunish, belgilar mohiyatini va ular orasidagi bog'lanishni aniqlash.

To'rtinchi bosqich – yangi til materiali asosida o'rganilayotgan tushunchani aniqlashtirish, bilim tajribaga tatbiq etiladigan mashqlar ish-

www.ziyouz.com kutubxonasi

lash, o'rganilayotgan tushunchaning ilgari o'zlashtirilgan tushunchalar bilan bog'lanishini aniqlash.

Ko'rsatilgan bosqichlarni „fe'l" grammatik tushunchasini shakllantirish jarayoni misolida ko'rib chiqaylik:

Tushuncha ustida ishlash til materialini tahlil qilish va tushunchaning muhim belgilarini aniqlashdan boshlanadi. Ko'pgina tekshirishlar, agar o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida muayyan vazifani bajarish bilan dastlabki til materialini o'zlari tuzsalar yoki tanlasalar, ularning analitik faoliyati samaradorligi ortishini ko'rsatdi. Masalan, o'quvchilar harakatlarini kuzatish asosida gap tuzadilar. Darsda o'quvchilarni fe'ldan foydalanish va e'tibor bilan yozishga undaydigan qulay nutqiy vaziyat yaratiladi. Ekskursiya, yaqinda ko'rilgan film, shu darsda ko'rsatilgan diafilmning biror qismi, o'qilgan hikoya, rasm materiali yuzasidan gaplar tuzish ham mumkin. Gap tuzishda fikrni aniq ifodalaydigan kerakli so'z (fe'l)ni jamoa bo'lib topish imkonini beradigan vaziyat yaratish muhimdir. Masalan, mavzuni o'rganishdan oldin o'quvchilar bahorda tabiatda yuz beradigan o'zgarishlarni kuzatadilar.

O'qituvchi: – Bahorda tabiatda qanday o'zgarishlar yuz beradi?

O'quvchilar: – Kunlar isiydi.

– O'tlar ko'karadi.

– Daraxtlar kurtak chiqaradi.

– Bodom gullaydi.

– Dastlab shaftoli, o'riklar gullaydi.

– Olma keyinroq gullaydi.

O'quvchilar o'qituvchi tavsiya qilgan bir necha gapni izohlab yozadilar.

O'qituvchi: – Narsaning harakatini ifodalash uchun siz qaysi so'zlardan foydalandingiz? Ularning tagiga ikki to'g'ri chiziq chizing (O'quvchilar vazifani bajaradilar).

– Harakatni bildirgan so'zlarga so'roq bering va taqqoslang (O'quvchilar *nima qildi? nima qilyapti? nima qiladi?* so'roqlarini beradilar).

– Endi darslikda fe'l haqida nima deyilganini o'qing.

– Shaxs va narsaning harakatini bildirgan so'zlar qanday ataladi, ular qanday so'roqlarga javob bo'ladi?

– *Bodom gulladi. Olma gullaydi* gaplarini gap bo'laklariga ko'ra tahlil qiling (O'quvchilar eganing tagiga bir, kesimning tagiga ikki to'g'ri chiziq chizadilar).

www.ziyouz.com kutubxonasi

– *Gulladi, gullaydi* fe'llari gapda qaysi bo'lak vazifasida kelgan? (Kesim.)

– Fe'l haqida nimalarni bilib oldingiz? Rejadan foydalanib ayting (umumlashtiring):

1. Fe'l nima? *(So'z)*
2. Nimani bildiradi? *(Shaxs va narsaning harakatini)*
3. Qaysi so'roqlarga javob bo'ladi? *(Nima qildi?, nima qilyapti?, nima qiladi?)*
4. Qaysi gap bo'lagi vazifasida keladi? *(Kesim)*

– Kitobdagi qoidada rejaning qaysilariga javob berilgan? Rejani o'qing va unga javob bering.

O'quvchilar kitobdagi va qo'shimcha mashqlarni ishlaydilar.

– Fe'ldan boshqa yana qanday so'z turkumlarini bilasiz? (Ot, sifat, son, kishilik olmoshi)

– So'zlarni taqqoslang: *gul, gulli, gulladi.* So'z turkumlari (ot, sifat, fe'l) bir-biridan qanday farqlanadi? (O'quvchilar rejadan foydalanib javob beradilar).

O'quvchilar mustaqil bir necha gap tuzadilar, ayrimlarini yozib, fe'llarning tagiga chizadilar.

Bu dars fragmentida tushuncha bilan tanishtirish jarayonining yuqoridagi to'rt bosqichi qisqa shaklda o'z aksini topgan. Biroq bu darsda o'quvchilar tushuncha bilan faqat tanishtirildi, uni o'zlashtirish uchun esa dasturda mavzuni o'rganishga ajratilgan barcha darslardagi mashqlar tizimini bajarish lozim. Mavzuni o'rganish jarayonida „Fe'l" tushunchasi chuqurlashadi va kengayadi, o'quvchilar fe'lning yangi belgilarini o'rganadilar (fe'llarda bo'lishli va bo'lishsizlik, ularning shaxs-son qo'shimchalari bilan tuslanishi, fe'l zamonlari). O'quvchilarda fe'llarni shaxs-son, zamon, bo'lishsizlik qo'shimchalari bilan o'zgartirish va fikr bayon etish maqsadiga mos fe'l shakllaridan nutqda to'g'ri foydalanish ko'nikmasi shakllantiriladi.

Tushunchani shakllantirish jarayonida so'zning leksik ma'nosi, uning gap tarkibida boshqa so'zlar bilan birga kelgandagi ma'nosi asta-sekin aniqlanib, oydinlashtirilib boriladi, og'zaki va yozma nutqda so'zni uslubiy to'g'ri ishlatish ko'nikmasi orta boradi. Buning uchun o'quvchilar so'zning ko'p ma'noliligi, o'z va ko'chma ma'noda ishlatilishi, sinonim va antonim so'zlar bilan elementar tanishtiriladi.

O'rganilgan grammatik belgilarni amalga keng tatbiq etish va ulardan jonli nutqda aloqa maqsadida bevosita foydalanish uchun gram-

www.ziyouz.com kutubxonasi

matik tushunchani shakllantirishda o'quvchilarda mavhumlashtirishni va so'zlar uchun xarakterli bo'lgan umumiy grammatik belgilarni sintezlashni o'stirish zarur, shuningdek, ular so'zning leksik ma'nosini chuqur bilishlariga erishish muhimdir. Bular o'quvchilarning nutqini o'stirish mohiyatini aks ettiradi, yani o'quvchilar nutqda so'zlardan amaliy foydalanishga, so'zning leksik ma'nosini tor tushunishdan chuqurroq tushunishga o'tadilar, so'zning leksik va grammatik ma'nolari bir-biriga ta'sir qilishini tushuna boshlaydilar, natijada nutqda so'zlardan ongli foydalanishga asos yaratiladi.

Grammatik tushunchalarni o'zlashtirishning metodik shartlari

I. O'quvchilar aqliy faoliyatini faollashtirish. Bilimni o'zlashtirishning natijasi ma'lum darajada o'qitish metodlariga bog'liqdir. Bayon metodi asosan o'quvchilarning eslab qolishiga mo'ljallanadi va ularning bilish faoliyatini faollashtira olmaydi, shuning uchun kutilgan natijani bermaydi. Maktab tajribasini ommalashtirish va olimlar (L. V. Zankov, Yu. N. Babanskiy, V. P. Strezikozin va boshq.)ning maxsus tekshirishlari ko'rsatishicha, izlanish metodlari (boshlang'ich sinflarda qisman izlanish metodi) ko'proq samarali hisoblanadi. Grammatik tushunchani shakllantirishda izlanish vaziyati o'qituvchi bergan vazifa va uni jamoa bo'lib bajarish vaqtida yaratiladi. Izlanish vaziyati o'quvchilarni yangilikni bilishga qiziqtiradi va vazifani bajarish usulini mustaqil ravishda ijodiy tanlashga undaydi. Masalan, o'quvchilarni so'z yasovchi qo'shimchalar bilan tanishtirishda o'qituvchi xattaxtaga *gul – gulchi, g'alla – g'allakor, traktor – traktorchi* kabi so'zlarni ikki ustun tarzida yozadi. O'quvchilarga „Ikki ustun shaklida yozilgan so'zlarni kuzating, ma'nolaridagi farqini o'ylab ko'ring, shu so'zlarning ma'nosini farqlashga xizmat qilayotgan qismini toping" topshirig'i beriladi. Birgalikda o'tkazilgan muhokamadan so'ng o'quvchilar quyidagicha xulosaga keladilar:

– *Gul* so'zi o'simlikning bir turini, *gulchi* esa gullarni parvarish qiluvchi kishi ma'nosini bildiradi; *g'alla* – o'simlik, *g'allakor* – g'alla yetishtiruvchi kishi; *traktor* so'zi qishloq xo'jalik mashinasini, *traktorchi* esa traktorda ishlovchi kishi ma'nosini bildiradi. So'zning *-chi, -kor* qismi ikki so'zning ma'nosini farqlashga xizmat qiladi; *-chi, -kor* alohida kelganda ma'no anglatmaydi, bular qo'shimcha; so'zga qo'shilganda ishlovchi, shug'ullanuvchi kishi ma'nosini anglatyapti,

www.ziyouz.com kutubxonasi

ya'ni yangi ma'noli so'z hosil bo'lyapti; demak, *-chi, -kor* so'z yasovchi qo'shimcha.

Muammoli vaziyatni orfografik mavzu bilan tanishtirish jarayonida ham yaratish mumkin. Masalan, o'qituvchi *„Hayvonlarga qo'yilgan nomning bosh harf bilan yozilishi"* mavzusini tushuntirish uchun o'quvchilarga „Kim qanday uy hayvonlarini boqadi? Ularga o'zingiz nom qo'yganmisiz? Qanday nom qo'ygansiz?" kabi savollarni beradi. O'quvchilar tartib bilan o'zlari boqayotgan hayvonlari va unga qo'ygan nomlarini aytadilar *(mushuk – Mosh, kuchuk – Olapar, sigir – Targ'il, ot – Lochin* kabi); o'qituvchi ikki ustun shaklida xattaxtaga yozib boradi. O'qituvchi: „Ikki ustun shaklida yozilgan so'zlarni o'qing, ularni taqqoslang. Ularning yozilishida qanday farq bor? Nima uchun? Isbotlang" topshirig'ini beradi. Bu savol-topshiriqlar xarakteri bolalarni o'ylashga, izlanishga majbur qiladi. Ular birinchi ustundagi so'zlar kichik harf bilan, ikkinchi ustundagilar esa katta (bosh) harf bilan yozilganini aytadilar, ammo nima uchun shunday yozilganini isbotlashga ularning bilimlari yetishmaydi. Shunday qilib, muammoli vaziyat yaratiladi. O'quvchilar yangi materialni o'rganish zarurligini sezadilar. Bu metodda eng muhim jihat muammoli vaziyat yaratish, til hodisalarini tahlil qilish, o'zaro taqqoslash omillarini bajarish bilan bolalarning bilish faoliyatini faollashtirish hisoblanadi. Suhbat-muhokama jarayonida muammoni o'qituvchi rahbarligida o'quvchilarning o'zlari hal qilishlari yoki o'qituvchi tomonidan hal qilinishi ham mumkin.

Muhokamaning borishi bilimlar asosida topshiriqlarni faol bajarishni, faol aqliy faoliyatni talab qiladi.

II. O'quvchilarda so'z va gapga lingvistik munosabatni o'stirish ustida maqsadga yo'naltirilgan ishlar. O'quvchilarda so'z va gapga lingvistik munosabat nazariy bilimlarni o'zlashtirish, mavhum tafakkurni o'stirish jarayonida shakllantiriladi va tilning semantik hamda grammatik tomonining bir-biriga ta'sirini anglashni bildiradi.

O'quvchilar tilni ularda til birliklariga, xususan, ularning asosiylari bo'lgan so'z, morfema, so'z birikmasi, gapga lingvistik munosabatni parallel shakllantirish bilan birga ongli o'zlashtiradilar. So'zga lingvistik munosabat so'zni tovush-harf tomonidan tahlil qilib, uning tovush va grafik tomoni o'rtasidagi bog'lanishini aniqlash, so'zni morfemik tahlil qilish va so'zga leksik ma'no berishda morfemaning o'rnini tushunish; so'zni grammatik tahlil qilish va shu so'zning muayyan so'z turkumiga

www.ziyouz.com kutubxonasi

oid ekani bilan uning grammatik belgilari o'zaro bog'liqligini tushunish ko'nikmasining shakllanishiga qarab o'sib boradi.

Lingvistik munosabat o'quvchilarda asta-sekin shakllantirib boriladi, ularda bilish, tushunib olish saviyasi ham har xil bo'lishi mumkin. Masalan, 2-sinf o'quvchilari gapdagi so'z birikmalarini topadilar, ammo u so'z birikmasidagi so'zlar o'zaro qanday, ya'ni nimalar yordamida bog'langanini tushuntira olmaydilar. 4-sinf o'quvchilari gapdagi so'z birikmasini topadilar va so'z birikmasi tarkibidagi so'zlar o'zaro so'z o'zgartuvchi qo'shimchalar (kelishik, shaxs-son qo'shimchalari) yoki ohang yordamida bog'langanini tushuntiradilar, ya'ni bog'lanish grammatik vositalar bilan ifodalanishini ko'rsatadilar. Bu so'z birikmasi tarkibidagi so'zlarning bog'lanish mohiyatini elementar darajada tushunish bo'lib, uni yuqori sinflarda chuqurroq (so'z birikmasi tarkibidagi so'zlarning bog'lanish turlari, bosh va ergash so'zning xususiyatlarini) tushunadilar.

O'qituvchi o'quvchilarda so'zga, so'z birikmasi va gapga lingvistik munosabatni ta'lim jarayonida maqsadga muvofiq o'stirib boradi, xususan, o'rganiladigan kategoriyani o'quvchi tushunib olishiga g'amxo'rlik qiladi.

III. Yangi tushunchani ilgari o'rganilgan tushunchalar tizimiga kiritish tushunchani o'zlashtirish, bilimni nutq tajribasiga tatbiq etishning muhim sharti hisoblanadi. Tushunchalar orasida bog'lanishni vujudga keltirish, amalga oshirish o'quvchilarning o'zbek tilidan egallaydigan bilimlar tizimiga hamda tildan ongli foydalanishiga poydevor bo'ladi. Tushunchalar orasidagi bog'lanishni bilib olish amaliy (grammatik, orfografik, nutqiy) vazifalarni hal qilishda nazariy bilimlarni ko'proq tatbiq etishga imkon beradi.

Tushunchalar orasidagi bog'lanishni aniqlamay, ularni bilimlar tizimiga kiritmay turib, o'quvchilar tilni ongli o'zlashtira olmaydilar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'zlashtiradigan asosiy bog'lanish yo'llari quyidagilar:

1. So'zga beriladigan morfologik so'roqlar va ularning grammatik belgilari (kim?, nima? so'rog'iga javob bo'lgan so'z shaxs va narsani bildiradi birlik va ko'plikda qo'llanadi egalik qo'shimchalari bilan o'zgaradi, kelishiklar bilan turlanadi; qanday?, qanaqa? so'rog'iga javob bo'lgan so'z shaxs va narsaning belgisini bildiradi o'zgarmaydi; necha?, nechanchi? so'rog'iga javob bo'lgan so'z shaxs va narsaning soni va tartibini bildiradi asosan, o'zgarmaydi; nima qildi? nima qilyapti?, nima qiladi? so'rog'iga javob bo'lgan so'z predmet harakatini bildiradi

www.ziyouz.com kutubxonasi

bo'lishli yoki bo'lishsiz shaklda qo'llanadi, shaxs-son qo'shimchalari bilan tuslanadi, o'tgan, hozirgi va kelasi zamondan birini ko'rsatadi).

2. So'z turkumi – gap bo'lagi bo'ladi (ot gapda ega yoki ikkinchi darajali bo'lak, sifat – ikkinchi darajali bo'lak, son – asosan, ikkinchi darajali bo'lak, fe'l – kesim vazifasida keladi).

3. Bosh kelishikdagi ot – ega, boshqa kelishiklardagi otlar – ikkinchi darajali bo'lak bo'ladi.

4. Kishilik olmoshlari fe'llarda shaxsni ifodalaydi (agar fe'l *men* yoki *biz* olmoshlari bilan qo'llansa, I shaxs, *sen* yoki *siz* olmoshlari bilan qo'llansa, II shaxs ifodalanadi).

5. Umumiy o'zak va o'zakdosh so'zlarning ma'nosidagi umumiylik (o'zakning umumiyligi o'zakdosh so'zlarning ma'nosidagi o'xshashlikka sabab bo'ladi).

6. So'zning leksik ma'nosi va uning morfemik tarkibi (so'zning morfemik tarkibi o'zgarsa, ko'proq uning leksik ma'nosi o'zgaradi: *gul – gulchi, guldon, gulla* kabi).

IV. Ayrim til kategoriyalari bog'lanishining mohiyati yangi til kategoriyasini o'rganish jarayonida ochiladi, shuningdek, bir yoki bir necha til kategoriyasi o'rganilgandan keyin oydinlashadi. Masalan, so'zning leksik ma'nosi va uning morfemik tarkibi so'zning ma'noli qismlarini o'rganish jarayonida biryo'la muhokama qilinadi, chunki u yoki bu morfemaning rolini boshqacha yo'l bilan tushuntirib bo'lmaydi; o'qituvchi so'z tarkibini o'zgartiradi va shu bilan bog'liq holda so'z ma'nosining o'zgarishini ko'rsatadi, bu o'zgarish so'zning qaysi qismi (so'z yasovchi qo'shimcha) hisobiga hosil bo'lganini tushuntiradi: *ishchi – ishla – ishchan; paxtakor – paxtazor.*

Fe'llarning shaxs-sonda tuslanishi kishilik olmoshlari o'rganilgandan so'ng, fe'lda shaxs kishilik olmoshlarining uch shaxsni ko'rsatishi bilan bog'lab o'rganiladi.

Maktabda grammatik materialni o'rganish amaliy yo'nalishga ega bo'lgani va, birinchi navbatda, o'quvchilarning nutqiy va aqliy rivojlanishiga xizmat qilgani uchun, bir til kategoriyasining boshqasiga tobeligini va bir-birini taqozo qilishini tushunish bilan birga, o'quvchilarning bu haqdagi bilimlaridan amaliy vazifalarni hal qilishda, ya'ni so'zlarni yozish, gap tuzish, so'zni tahlil qilishda foydalanishga o'rgatish ham muhimdir. O'qituvchi tilni o'rgatish vazifalarini hisobga olib, doimo o'quvchilarning nutqiy tajribasiga suyanadi va til kategoriyalarining bog'liqligi haqidagi bilimlarni tajribaga tatbiq etish jarayoniga yo'naltiradi. Bilim komponentlari o'rtasidagi bog'lanishni

www.ziyouz.com kutubxonasi

aniqlash bilimni tajribaga, o'quvchilarning yozma va og'zaki nutqiga tatbiq etish imkonini beradi.

Ona tilini o'rganish jarayonida bilimlarning izchilligi qanday ta'minlanadi? Avvalo, maktab dasturi lingvistik materialni o'rganishda yangi o'rganiladigan materialning ilgari o'rganilganlar bilan ilmiy asoslangan bog'lanishini aniqlashga imkon beradigan izchillikni ko'zda tutadi. O'qituvchi bu bog'lanishning mohiyatini metodik jihatdan ko'z oldiga aniq keltirishi zarur. O'zaro bog'liq bo'lgan til hodisalarini ketma-ket va parallel o'rganish mumkin. Bularning qaysi biridan foydalanish ma'qulroq degan masala ko'proq materialning lingvistik mohiyatidan kelib chiqib hal qilinadi. Masalan, kishilik olmoshlari fe'ldan oldin o'rganiladi, bu fe'lning shaxs-sonda tuslanishini kishilik olmoshlariga bog'lab o'rganish imkonini beradi. O'qituvchi yangi o'rganiladigan materialni ilgari o'rganilganlar bilan bog'laydi. Buning uchun til tushunchalarini taqqoslaydi va bir-biriga qarama-qarshi qo'yadi. Masalan, so'z o'zgartuvchi qo'shimchalarni o'rganishda ular so'z yasovchi qo'shimchalar bilan taqqoslanadi (so'z yasovchi qo'shimcha yangi so'z hosil qilish uchun xizmat qilsa, so'z o'zgartuvchi qo'shimcha so'zning shaklini o'zgartirish uchun, ya'ni gapda so'zlarni bog'lash uchun xizmat qilishi aniqlanadi).

V. Tushunchani ko'rgazmali o'rganish. Tushunchani shakllantirishning turli bosqichida ko'rgazmalilikdan foydalanish katta ahamiyatga ega. Tushuncha belgilari bilan tanishtirishning boshlang'ich bosqichida ko'rgazmalilikdan o'rganiladigan hodisaning belgilarini nutqda aniq ko'rsatish maqsadida foydalaniladi. Til tushunchalarini shakllantirishda foydalaniladigan ko'rgazmali vositalarning o'ziga xos xususiyati o'rganiladigan obyekt hisoblangan so'z, so'z birikmasi, gap, gap bo'lagi va boshqalarga mos bo'ladi. Shunday ekan, ko'rgazmali vositalarga jadval, chizma, biror predmet, uning rasmi bilan bir qatorda til materialning o'zi ham kiradi. Tanlangan matnlar, alohida so'z va gaplarda o'rganilayotgan hodisa aniq va lo'nda berilgan, nutqiy vazifasi va grammatik xususiyati ravshan ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Bu ichki ko'rgazmalilik o'quvchilarga tushuncha belgilarini mavhumlashtirish, o'rganilayotgan hodisani biror tomondan o'xshashi bo'lgan boshqa hodisalar orasidan topish imkonini beradi. Masalan, o'zakdosh so'zlarni o'rganishda tarkibida bir necha o'zakdosh so'z bo'lgan matndan foydalanish maqsadga muvofiq: 1. Maktabimiz hovlisida katta **gulzor** bor. Unga har xil **gul** ekilgan. **Gullarni gulchi** o'quvchilar parvarish qiladilar. 2. Rahimning otasi zavodda **ishlaydi**. U ilg'or **ishchi**.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Rahimning o'zi – **ishchan** bola. Bu ikki matnda uchtadan o'zakdosh so'z bo'lib, ularning ikki muhim belgisi (bir xil umumiy qismga egaligi va ma'nolaridagi o'xshashlik)ni hisobga olgan holda, o'zakdosh so'zlar yuzasidan umumlashtirish imkoni tug'iladi. Bundan tashqari, o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida o'zakdosh so'zni shu so'zlarning bir shakli bo'lgan so'z *(gullarni)* bilan taqqoslab, o'zakdosh so'zlar bilan so'z shakli o'rtasidagi farq haqida elementar tushunchaga ega bo'ladilar.

Tushunchaning mohiyatini ochishga qaratilgan vazifalarning o'zi o'quvchilarni ularni bajarishga undashi, majbur etishi lozim. Bu bilan tushuncha ko'rgazmaliligi ta'minlanadi. Masalan, gapning uyushiq bo'laklari tushunchasining mohiyatini ochishda ikki-uch gapdan bitta gap tuzish vazifasini berish maqsadga muvofiq. Masalan, *Bahorda biz qaldirg'ochlarni quvonib kutib olamiz. Bahorda biz maynalarni quvonib kutib olamiz. Bahorda biz chug'urchuqlarni quvonib kutib olamiz. – Bahorda biz qaldirg'ochlarni, maynalarni, chug'urchuqlarni quvonib kutib olamiz.* Gaplar gap bo'laklari jihatidan tahlil qilinadi; o'quvchilar uchala gapda takrorlangan so'zlarni aytadilar; bunday hollarda kishilar uch gap o'rniga bitta gapdan foydalanishlarini tushunadilar. Shunday qilib, ular uch gapdan bitta gap tuzadilar, uni gap bo'laklariga ko'ra tahlil qiladilar, chizmasini tuzadilar. Bu vazifalarni bajarish bilan o'quvchilar ko'rgazmali xulosa chiqaradilar: bir kesimga bir necha ikkinchi darajali bo'lak bog'lanishi va ular bir xil so'roqqa (nimalarni?) javob bo'lishi mumkin; bir bo'lakka qarashli va bir xil so'roqqa javob bo'lgan bunday so'zlar *gapning uyushiq bo'laklari* deyiladi. Yuqorida keltirilgan misollarda foydalanilgan ko'rgazmalilik o'rganilayotgan til hodisalarining belgilarini ajratishga qaratilgan, ya'ni ko'rgazmalilikdan tushunchani ta'riflashdan oldin foydalanilgan.

Darsda foydalanish uchun ko'rgazma material tanlashda o'qituvchi qo'yilgan maqsadga ko'ra o'quvchilar nimani bilib olishlarini aniq ko'z oldiga keltirishi kerak. Bir ko'rgazma materialdan turli maqsadlarda foydalanish mumkin. Masalan, predmet yoki uning rasmidan so'zning leksik ma'nosini tushuntirishda ham, grammatik tushunchani shakllantirishda ham foydalanish mumkin. O'quvchilarni sifatning nutqdagi ahamiyati bilan tanishtirish uchun o'qituvchi berilgan predmetni tasvirlash, uning belgilarini aytish vazifasini topshiradi. O'quvchilar har qanday predmetni tasvirlash uchun o'z nutqlarida sifatlardan foydalanadilar. Bu – tabiiy. O'qituvchi *„Predmetni tasvirlashda siz qaysi so'zlardan foydalandingiz? Nima maqsadda?"* kabi savollar berib,

www.ziyouz.com kutubxonasi

bolalar diqqatini o'rganiladigan grammatik tushunchaning (bu o'rinda sifatning) belgilariga qaratadi. O'quvchilar predmetni tasvirlash uchun qaysi sifatlardan bir predmetni boshqasidan ajratish maqsadida foydalanganliklarini aytadilar. Bu misolda ko'rgazmali material nutqda grammatik tushuncha (sifat)ning rolini kuzatish maqsadida foydalaniladi va o'quvchilar aniq materialdan umumlashtirishga o'tadilar.

Tushunchani shakllantirish uchun jadval va chizmalardan keng foydalaniladi. Bu ko'rgazmalardan ko'proq tushuncha belgilari ajratilgandan so'ng mavhumlashgan belgilarni umumlashtirish, ular o'rtasidagi bog'lanishni aniqlash maqsadida foydalaniladi.

Shunday qilib, grammatik tushunchani o'zlashtirishga yordam beradigan asosiy metodik shartlar o'quvchilarning aqliy faoliyatini faollashtirish, ularni yangi bilim olish uchun qiziqtirish, o'quvchilarning nutqiy tajribasiga tayanish, bilimlarning tizimliligi, o'quvchilarda til birliklariga lingvistik munosabatni shakllantirish ustida maqsadga muvofiq ishlash hisoblanadi.

Grammatik va so'z yasalishiga oid mashqlar

Maktabda tildan nazariy bilimni o'rganishdan maqsad fikrni og'zaki va yozma tarzda grammatik to'g'ri va uslubiy aniq ifodalash uchun undan ongli foydalanish hisoblanadi. Biroq nazariy bilimni amalda qo'llashni esa maqsadga muvofiq va muntazam o'rgatib borish talab etiladi.

Mashqlar tizimi tushunchani o'zlashtirish bosqichiga va uning xususiyatiga mos ravishda mashq turini tanlash, uning murakkablasha borishini va o'quvchilar mustaqilligi o'sib borishini hisobga olgan holda mashqlarni bajarish izchilligini aniqlashni ko'zda tutadi. Bu tizim mashqlarning o'zaro bog'lanishiga asoslangan.

Mashq turlari. Grammatik mashqlar turli asosga ko'ra tasnif qilinadi, shuning uchun mashqning har xil turi hosil bo'ladi. Agar bilimni shakllantirish xarakteriga asoslanilsa, grammatik mashqlar ikki katta guruhga bo'linadi:

1) *morfologik mashqlar* (bunga leksik-morfologik mashqlar ham kiradi);

2) *sintaktik mashqlar.*

Agar o'quvchilar faoliyatining xarakteri, ya'ni mashq jarayonida o'quvchilar bajaradigan aqliy omillar xarakteri asos qilib olinsa,

www.ziyouz.com kutubxonasi

mashqlar *analitik, sintetik, taqqoslashga, guruhlashga, umumlashtirishga* oid mashqlarga bo'linadi.

Mashqning o'ziga xos xususiyatlarini aniqroq belgilash uchun yuqoridagi ikki asos hisobga olinadi. Masalan, mashqning vazifasi aralash berilgan so'zlardan gap tuzishni va gap bo'laklarini ajratishni talab etsa, bu mashq bilimni shakllantirish turiga ko'ra *sintaktik mashq*, faoliyat xarakteriga ko'ra *sintetik-analitik mashq* hisoblanadi.

Boshlang'ich sinflarda sof morfologik yoki sof sintaktik mashq juda kam qo'llaniladi, shuning uchun ham vazifaning yetakchi tomoni hisobga olinadi. Masalan, matnga mazmunga mos otni qo'yish, qaysi kelishik ekanini ko'rsatish talab etilsa, bu *leksik-morfologik mashq*dir. O'quvchi otning qaysi kelishikda ekanini aniqlashi uchun u bog'langan so'z (fe'l yoki ot)ni aniqlashi (so'z birikmasini ajratishi) talab etiladi, shunga ko'ra bu mashq *sintaktik mashq* hisoblanadi.

Grammatik tahlil *analitik mashq*qa kiradi. Grammatik tahlil so'z turkumiga ko'ra (morfologik) tahlilni, gap bo'laklariga ko'ra (sintaktik) tahlilni o'z ichiga oladi.

Gap bo'laklariga ko'ra tahlil o'quvchilar o'zlashtirgan sintaktik bilimlarning me'yoriga qarab chuqurlashib boradi.

Amaldagi dasturga ko'ra, 1-sinf o'quvchilari „ega" va „kesim" atamalaridan foydalanmaydilar, ammo ular gapning bosh bo'laklarini amaliy ravishda topish ko'nikmasiga ega bo'ladilar, ya'ni gap kim yoki nima haqida aytilganini bildirgan so'z (ega)ni, u haqda nima deyilganini anglatgan so'z(kesim)ni topadilar. Masalan, *Bolalar olmalarni terdilar* gapini tahlil qilishda o'quvchilar quyidagicha fikr yuritadilar: „Gap bolalar haqida aytilgan. Kimlar? – *bolalar* (so'zning tagiga bitta to'g'ri chiziq chizadilar). *Bolalar* – nima qildilar? – *terdilar* (so'zning tagiga ikki to'g'ri chiziq chizadilar). *Bolalar terdilar* – gapning asosiy qismi; nimalarni? (terdilar) – *olmalarni*".

2-sinfda 1-sinfdagidek muhokama qilinadi, faqat mazmuni chuqurlashtiriladi. Masalan, 2-sinf o'quvchisi *„Chiroyli gullar adirlarni bezadi"* gapini quyidagicha tahlil qiladi: „Gap gullar haqida aytilgan. Nimalar? – *gullar* – ega (tagiga bir chiziq chizadi). Paxtalar haqida nima deyilgan? *Ochildi* – nima qildi? – kesim (tagiga ikki to'g'ri chiziq chizadi). Qayerlarni? (bezadi) – *adirlarni* – ikkinchi darajali bo'lak, gapni to'ldirayapti (tagiga uzuq chiziq chizadi). Qanday? (gullar) – *chiroyli* (gullar) ikkinchi darajali bo'lak, egani izohlayapti. *Gullar bezadi* – gapning asosi. *Chiroyli gullar* va *adirlarni bezadi* – so'z birikmasi".

www.ziyouz.com kutubxonasi

3–4-sinflarda sintaktik tahlil sifat jihatidan o'zgarmaydi, ammo so'z birikmasini ajratishga ahamiyat beriladi.

Morfologik tahlilning mohiyati so'zning qaysi so'z turkumi ekani, gapda qanday grammatik shaklda kelganida ifodalanadi.

To'liq morfologik tahlilda o'quvchi so'z turkumining o'zi o'rgangan belgilarini aytadi. Masalan, 1-sinf o'quvchisi shu so'z qanday savolga javob bo'lishini va nimani bildirishini aytadi (shaxs yoki narsa, narsa belgisi, harakati).

3-sinfda so'z turkumlari o'tilgach, morfologik tahlil quyidagi tartibda o'tkaziladi:

Ot: 1. So'z turkumi. 2. So'rog'i. 3. Birlik yoki ko'plikda ekanligi.

Sifat: 1. So'z turkumi. 2. So'rog'i. 3. Qaysi ot bilan bog'langanligi.

Fe'l. 1. So'z turkumi. 2. So'rog'i. 3. Bo'lishli yoki bo'lishsiz ekanligi.

Og'zaki tahlil namunasi: *Mevali daraxtlar gulladi. Mevali* – sifat, qanday? – *mevali; daraxtlar* oti bilan bog'langan: *mevali daraxtlar; daraxtlar* – ot, nimalar? – *daraxtlar,* ko'plikda; *gulladi* – fe'l, nima qildi? – gulladi, bo'lishli.

4-sinfda o'rganilgan mavzularni hisobga olib, morfologik tahlil biroz to'ldiriladi va quyidagi tartibda o'tkaziladi:

Ot: 1. So'z turkumi. 2. Bosh kelishik shakli. 3. Birlik yoki ko'plikda ekanligi. 4. Egalik qo'shimchasi, shaxs-soni. 5. Kelishigi.

Sifat: 1. So'z turkumi. 2. So'rog'i. 3. Qaysi ot bilan bog'langanligi.

Son: 1. So'z turkumi. 2. So'rog'i. 3. Qaysi ot bilan bog'langanligi.

Olmosh: Kishilik olmoshi: 1. So'z turkumi. 2. So'rog'i. 3. Shaxs-soni. 4. Kelishigi.

Fe'l: 1. So'z turkumi. 2. So'rog'i. 3. Bo'lishli yoki bo'lishsiz ekanligi. 4. Shaxs-soni. 5. Zamoni.

O'quvchilar tahlil tartibini bilib olishlari uchun o'qituvchi bu tartibga rioya qilib so'zga xarakteristika berishning qulayligini tushuntiradi.

So'z turkumiga ko'ra tahlil og'zaki va yozma tarzda o'tkaziladi: uni mustaqil mashq sifatida topshirish ham mumkin. To'liq bo'lmagan morfologik tahlildan xilma-xil grammatik vazifalarni bajarish maqsadida yangi mavzu bilan tanishtirish bosqichida ham, uni mustahkamlash bosqichida ham foydalaniladi.

Morfologik tahlilning vazifasi hozirgi o'zbek tilida so'z qanday ma'noli qismlardan tuzilganini aniqlashdir. Morfologik tahlil 3-sinfdan

www.ziyouz.com kutubxonasi

boshlanadi. Bu sinfda o'quvchilarga o'zakdosh so'zlar, o'zak o'zakdosh so'zlarning umumiy qismi ekani, so'z yasovchi qo'shimchalar va so'z o'zgartuvchi (shakl yasovchi) qo'shimchalar haqida elementar ma'lumot beriladi.

So'z tarkibiga ko'ra tahlil quyidagicha o'tkazilishi mumkin:

1. So'zga so'roq berish va u nimani anglatishini bilish.

2. O'zakni aniqlash. Buning uchun so'zga o'zakdosh so'zlar tanlash. O'zakdosh so'zlarni taqqoslash va umumiy qismi (o'zak)ni aniqlash.

3. So'z yasovchi qo'shimchani aniqlash. Bu yangi so'z yasash uchun xizmat qilishini aytish.

4. So'z o'zgartuvchi (shakl yasovchi) qo'shimchani aniqlash. Bu so'zni boshqa so'z bilan bog'lash uchun xizmat qilishini aytish.

3-sinfda „So'zning tarkibi" mavzusi to'liq o'rganilgach, *gulzor* so'zini so'z tarkibiga ko'ra og'zaki tahlil qilish tartibi quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Qaysi so'z turkumi ekanini bilaman. *Gulzor* so'zi *nima?* so'rog'iga javob bo'ladi, narsani bildiradi, bu – ot.

2. O'zakni aniqlayman. Buning uchun o'zakdosh so'zlar tanlayman: *gulzor, gulli, gulsiz, gulla.* Ularni solishtirib, umumiy qismini topaman – *gul.* Bu – o'zak.

3. So'z yasovchi qo'shimchani aniqlayman, *gulzor* so'zi *gul* so'ziga *-zor* so'z yasovchi qo'shimchasini qo'shish bilan yasalgan.

4. Bu so'zda so'z o'zgartuvchi qo'shimcha yo'q.

So'z tarkibiga ko'ra tahlildan so'ng shunday ko'rinish hosil bo'ladi: *gul zor.*

4-sinfda *paxtakorga* so'zini so'z tarkibiga ko'ra og'zaki tahlil qilish tartibi quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. *Paxtakorga* – ot.

2. O'zakni aniqlayman. Buning uchun o'zakdosh so'zlar tanlayman: *paxtakor, paxtazor.* Solishtiraman. Umumiy qism – *paxta.* Bu – o'zak.

3. So'z yasovchi qo'shimchani aniqlayman: *paxtakor* so'zi *paxta* so'ziga *-kor* so'z yasovchi qo'shimchasini qo'shish bilan yasalgan.

4. So'z o'zgartuvchi (shakl yasovchi) qo'shimchalarni aniqlayman: *-ga* – so'z o'zgartuvchi qo'shimcha, kelishik qo'shimchasi.

4-sinfda *ishladim* so'zini so'z tarkibiga ko'ra og'zaki tahlil tartibi:

1. *Ishladim* – fe'l.

www.ziyouz.com kutubxonasi

2. O'zakni aniqlayman. O'zakdosh so'zlar tanlayman: *ishla, ishli, ishsiz, ishchan*. Solishtiraman. Umumiy qism – *ish*. *Ish* – o'zak.

3. So'z yasovchi qo'shimchani aniqlayman: *ishla* fe'li *ish* so'ziga *-la* qo'shimchasini qo'shish bilan yasalgan. *-la* – fe'l yasovchi qo'shimcha.

4. So'z o'zgartuvchi (shakl yasovchi) qo'shimchani aniqlayman: *-di* – o'tgan zamon qo'shimchasi, *-m* – shaxs-son qo'shimchasi, I shaxs, birlik: *ishladim*.

So'z tarkibiga ko'ra tahlildan mustaqil mashq sifatida foydalanish ham mumkin. So'zni morfologik tahlil qilish uning lug'aviy ma'nosini tushunishda, morfemalarni to'g'ri yozishda o'quvchilarga yordam beradigan muhim vositadir.

Boshlang'ich sinflarda grammatik va morfemik tahlil bilan birga, so'zni tovush-harf tomonidan tahlil qilishdan ham foydalaniladi. Bu tahlilning vazifasi so'zda tovushlarning tartibini, ularning xarakterli xususiyatlarini, tovushlar va harflar o'rtasidagi munosabatni aniqlash hisoblanadi.

Boshlang'ich sinflarda tovush-harf tomonidan tahlil tartibi quyidagicha:

1. So'zda nechta bo'g'in bor?

2. So'zda nechta tovush va nechta harf bor? (Tovushlar soni harflar sonidan kam yoki ko'p bo'lsa, sababini aytish)

3. Unli tovush nechta? Undosh tovush-chi?

4. Har bir tovushni xarakterlash. Tovush so'zda qaysi harf bilan ifodalangan?

Masalan, *kitob* so'zi quyidagicha tahlil qilinadi:

1. So'zda ikki bo'g'in bor: *ki-tób*.

2. So'zda beshta tovush, beshta harf bor.

3. So'zda ikki unli tovush, uch undosh tovush bor.

4. k – undosh, jarangsiz, k harfi bilan ifodalangan

i – unli tovush, i harfi bilan ifodalangan

t – undosh tovush, jarangsiz, yozuvda t harfi bilan ifodalangan

o – unli tovush, o harfi bilan ifodalangan.

b – undosh tovush, jarangli, b harfi bilan ifodalangan

Tovush-harf tomonidan to'liq bo'lmagan tahlildan so'zning yozilishini tushuntirishda ham, orfoepik to'g'ri talaffuzni o'rgatish maqsadida ham foydalaniladi. Masalan, *maktab* so'zi oxirida *b* undoshi *p* tarzida talaffuz qilinadi, jufti bor undosh, tekshiramiz: *maktabim – maktab, b* harfi yoziladi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Savol va topshiriqlar

1. Grammatik tushuncha nima? Uning o'ziga xos xususiyatini ayting.
2. Kichik yoshdagi o'quvchilar lingvistik tushunchalarni o'rganishda qanday qiyinchiliklarga duch keladilar? Buning sababi nimada?
3. O'quvchilarda lingvistik tushunchalarni shakllantirish jarayonini izohlang. Har qaysi bosqichdagi ishning mazmuni va maqsadini ayting.
4. O'quvchilarga yangi grammatik tushunchani o'rgatish darsining lavhasini ishlab chiqing.
5. Grammatik tushunchani qulayroq shakllantirishga qanday shartlar yordam beradi?
6. Grammatik tushunchani o'rgatish jarayonida o'qituvchi qanday qilib o'quvchilarning aqliy faoliyatini faollashtiradi?
7. Grammatik materialni o'rganishning har xil bosqichida darslik bilan qanday ishlanadi? Aniq misollar keltiring.
8. Grammatik, leksik va so'z yasalishiga oid mashqlarni ta'riflang.

www.ziyouz.com kutubxonasi

So'zning morfemik tarkibi va so'z yasalishi ustida ishlashning ahamiyati va bu jarayondagi vazifalar

So'zning leksik ma'nosini aniqlash maqsadida uni morfemalarga ajratish til haqidagi fanda o'zining nazariy asosiga ega.

Morfema – so'zning eng kichik, bo'linmaydigan ma'noli qismi. Morfema ikki turga bo'linadi:

1. O'zak morfema – so'zda albatta qatnashadigan va leksik ma'no anglatadigan morfema.

2. Affiksal morfema – mustaqil holda leksik ma'no anglatmay, so'zning leksik va grammatik ma'nolari shakllanishi uchun xizmat qiladigan morfema. Masalan, *gullarni, gulla* so'zlaridagi *gul* – o'zak morfema, *-lar, -ni, -la* affiksal morfemadir.

Affikslar (qo'shimchalar) ikki turga bo'linadi:

1. So'z yasovchi qo'shimchalar. Ular so'zning leksik ma'nosini shakllantirish uchun xizmat qiladi. Masalan, *bog'bon, paxtakor, gulzor, ishchi* so'zlaridagi *-bon, -kor, -zor, -chi* so'z yasovchi affikslardir.

2. Shakl yasovchi qo'shimchalar. Bu qo'shimchalar so'zlarni grammatik jihatdan shakllantirib, turli grammatik ma'nolarni ifodalaydi. Masalan, *maktablarimizni* so'zida *-lar, -imiz, -ni* shakl yasovchi qo'shimchalar bo'lib, *-lar* ko'plik ma'nosini, *-imiz* egalikning I shaxs ko'plik ma'nosini, *-ni* tushum kelishigi ma'nosini ifodalaydi.

Morfemalarning qo'shilishi bir-biriga ta'sir qiladi, bundan tashqari, ko'pgina o'zak va so'z yasovchi qo'shimchalar ko'p ma'noli. Shunga qaramay, ko'p so'zlarning leksik ma'nosini uning morfemik tarkibiga qarab aniqlash qiyin, bu maqsadda so'zni morfemalarga ajratishdan foydalanishga to'g'ri keladi.

O'quvchilar so'zning morfemik tarkibini va so'z yasalishini o'rganishlariga qarab, so'zni morfemalarga ajratishdan ongli foydalana boshlaydilar. Ular yasama so'zlarning leksik ma'nosini so'zlarning semantik o'xshashligiga qarab bilib oladilar.

So'zlarning morfemik tarkibi ustida ishlashning ahamiyati va shunga mos ravishda o'qituvchining vazifalariga quyidagilar kiradi:

1. So'zning morfemik tarkibi ustida ishlash bilan o'quvchilar so'zning leksik ma'nosini aniqlashning asosiy usullaridan birini bilib oladilar. Bunda o'qituvchining vazifasi o'quvchilar so'zlarning leksik

www.ziyouz.com kutubxonasi

ma'nosi va morfemik tarkibi bir-biriga bog'liqligini bilib olishi uchun eng qulay sharoit yaratish, shu asosda ularning lug'atiga aniqlik kiritishga maqsadga muvofiq rahbarlik qilish hisoblanadi.

2. So'z yasalishi haqidagi elementar bilim ham o'quvchilarning tilimizning yangi so'zlar bilan boyishining asosiy manbasini tushunishlari uchun muhimdir. Yangi so'z tilda mavjud bo'lgan morfemalardan, ma'lum usul va modellar asosida vujudga keladi (yasaladi). So'z yasalishini kuzatish o'quvchilarda so'zga faol munosabatni shakllantirishga ijobiy ta'sir etadi, tilning rivojlanish qonuniyatlarini tushunishga olib keladi.

3. So'z yasalishi asoslari bilan tanishish o'quvchilar lug'atini atrof-muhit haqidagi bilimlar bilan boyitishga imkon beradi. Predmet, jarayon, voqea-hodisalar haqidagi tushunchalar so'z bilan ifodalanadi. So'zlar o'rtasidagi ma'no va tuzilish jihatidan bog'lanishni belgilash o'zaro munosabatda bo'lgan tushunchalar o'rtasidagi bog'lanishga tayanadi (masalan, *traktor* va *traktorchi* so'zlari o'zaro munosabatda bo'lgan tushunchalar, shu tufayli ma'no va tuzilishiga ko'ra bog'langan). O'quvchilar so'zlarning ma'no va tuzilishiga ko'ra o'zaro munosabatini haqiqatan bilsalar, atrof-muhitda mavjud bo'lgan predmetlar, jarayonlar, voqealar o'rtasidagi bog'lanishni chuqur tasavvur etadilar, biladilar.

4. So'zda morfemaning ahamiyatini anglash, shuningdek, qo'shimchalarning semantik ma'nosini bilish o'quvchilarda nutqning aniq shakllanishiga ta'sir etadi. O'qituvchining vazifasi o'quvchilarning so'zning leksik ma'nosini tushunibgina qolmay, kontekstda aniq qo'shimchali so'zlardan ongli foydalanishlarini ham o'rgatish hisoblanadi.

5. So'zning morfemik tarkibini o'rganish imloviy malakalarni shakllantirishda ham katta ahamiyatga ega. Fonetik tamoyil yangi o'zbek imlosining yetakchi tamoyili bo'lib, bunga binoan so'zlar va ularning tarkibiy qismi (o'zak va qo'shimchalar) ko'proq talaffuziga muvofiq yoziladi. O'zak va qo'shimchalarni to'g'ri yozish malakasini nazariy asosda shakllantirish fonetik, so'z yasalishiga oid grammatik bilimlarni maqsadga muvofiq tatbiq etishni talab qiladi. Shuning uchun so'zning morfemik tarkibini o'rganishning muhim vazifalaridan biri o'zak va qo'shimchalarni to'g'ri yozish malakasini shakllantirish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar asosini yaratish hisoblanadi.

6. So'zning morfemik tarkibini o'rganish o'quvchilarning aqliy qobiliyatini o'stirishda, xususan, til birligi sifatida so'zni ongli bilib

www.ziyouz.com kutubxonasi

olish uchun zarur bo'lgan maxsus aqliy ko'nikmalarni shakllantirishda ham ahamiyatli. O'qituvchining vazifasi ta'lim jarayonida bilimni o'zlashtirish bilan o'quvchilarda aqliy faoliyatni o'stiradigan, analiz, taqqoslash ko'nikmalarini shakllantiradigan sharoit yaratish hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida so'z tarkibi va yasalishini o'rganish metodikasi

Boshlang'ich sinflar ona tili dasturiga muvofiq so'zning morfemik tarkibi 3-sinfda o'rganiladi. 4-sinfda so'z turkumlarini o'rganish bilan bog'liq holda so'zning tarkibi haqidagi bilimlarni takomillashtirish ko'zda tutiladi.

Avvalo, til materialini o'rganish tizimi nimaligini aniqlab olish zarur.

Til materialini o'rganish tizimi deganda aniq, ilmiy asoslangan izchillikdagi va o'zaro bog'lanishdagi bilimlar yig'indisini o'zlashtirishni ta'minlaydigan maqsadga qaratilgan jarayon, shuningdek, shu asosda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish tushuniladi. So'zning morfemik tarkibiga tatbiq qilganda, tizim so'z yasalishiga oid va grammatik bilimlarni o'zlashtirish: a) dastur materialini o'rganish tizimida so'zning morfemik tarkibini o'rganishning o'rni bilan; 2) „o'zak", „o'zakdosh so'z", „so'z yasovchi qo'shimcha", „shakl yasovchi qo'shimcha" tushunchalari ustida ishlashdagi izchillik bilan; 3) so'zning morfemik tarkibi va so'z yasalishining o'zaro bir-biriga ta'sir qilishi bilan; 4) morfemalarni to'g'ri yozish malakasini shakllantirish ustida ishlash bilan bog'liqligini belgilab beradi.

So'z tarkibi to'rt bosqichda o'rganiladi:

Birinchi bosqich – so'z yasalishini o'rganishga tayyorgarlik bosqichi. Bu bosqichning vazifasi – o'quvchilarni bir xil o'zakli so'zlarning ma'no va tuzilishiga ko'ra bog'lanishini tushunishga tayyorlash. Bunday vazifaning qo'yilishiga sabab, birinchidan, so'zning ma'no va tuzilishi jihatidan bog'lanishini tushunish, o'zining lingvistik mohiyatiga ko'ra, bir xil o'zakli so'zlarni va so'z yasalishini o'zlashtirishga asos hisoblanadi. Haqiqatan ham, yasalgan va yasashga asos bo'lgan so'zlar bir-biri bilan ma'no va tuzilishi jihatidan bog'lanadi: *ish – ishchi, g'alla – g'allakor.* Ikkinchidan, o'quvchilar bir xil o'zakli so'zlarni va morfemalarni o'rganishda qiyinchiliklarga duch keladilar: ular bir xil o'zakli so'zlarning ma'nolaridagi umumiylikni tushunishda qiynaladi-

www.ziyouz.com kutubxonasi

lar, chunki ularda mavhum tafakkur hali yetarli rivojlanmagan bo'ladi; o'zak, so'z yasovchi va shakl yasovchi qo'shimchalarning vazifalarini o'zlashtirishda ularga bir xil o'zakli so'zlarning ma'no va tuzilishi jihatidan o'xshashligi va farqini aniqlash anchagina qiyinlik qiladi. Shuning uchun so'zning morfemik tarkibini maxsus o'rganishdan oldin uning ma'no va tarkibiga ko'ra yaqinligi kuzatiladi.

1-sinfda kuzatish o'rganiladigan materialning mazmuni va ayrim so'zlarning ma'nosini, yozilishini tushuntirish bilan uzviy bog'lanadi. 1-sinfda *kim?, nima?* so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarni o'rganish jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning „Nima uchun u yoki bu narsa shunday nomlangan?" savoliga birgalikda javob topishi ularni bir xil o'zakli so'zlar o'rtasidagi munosabatni tushunishga tayyorlashda anchagina mos va qiziqarli usul hisoblanadi. Bu savolga javob topish bilan o'quvchilar „Nega so'zlar o'zakdosh hisoblanadi?", „Bir so'zdan boshqa so'z qanday hosil bo'ldi?" savollariga javob berishga tayyorlanadilar.

Tilda juda ko'p so'zlar shaxs va narsaning nomi hisoblanadi. Shuning uchun o'quvchilar bilan nega shaxs yoki narsa shunday nomlanganini aniqlashdan asta-sekin tildagi bir so'z bilan ikkinchi so'z o'rtasidagi bog'lanishni aniqlashga o'tish mumkin. Masalan, „Nega kishilar paxta ko'p ekilgan joyni paxtazor **(paxta – paxtazor)**, daraxt ko'p ekilgan joyni daraxtzor **(daraxt – daraxtzor)** deb nomlashgan?", „Nega kishilar bir uyni g'ishtli **(g'isht – g'ishtli)**, boshqasini **sinchli** deyishadi?"

O'quvchilar predmet yoki predmet belgisining nomlanish sababini aniqlashdan so'zlarning ma'nosi va tarkibidagi umumiylikni topishga o'rganadilar. Bularning hammasi o'quvchilarni bir xil o'zakli so'zlarning yasalishi mohiyatini tushunishga tayyorlaydi; ular bir so'z boshqa so'zdan o'zaro ma'no jihatdan bog'lanishi asosida yasalishini, o'z navbatida, shu so'z bilan nomlangan tushunchalar o'rtasidagi bog'lanishga asoslanishini tushuna boshlaydilar. O'quvchilar so'zning yangi so'z hosil qilishga yordam beradigan qismini bilib olgan sari ularda so'z yasalishi haqidagi tasavvur chuqurlasha boradi.

Ikkinchi bosqich – bir xil o'zakli so'zlarning xususiyatlari va barcha morfemalarning mohiyati bilan tanishtirish. Bu bosqichning asosiy o'quv vazifasi – so'zlarning ma'noli qismlari sifatida o'zak, so'z yasovchi va shakl yasovchi qo'shimchalar bilan tanishtirish, „o'zakdosh so'zlar" tushunchasini shakllantirish, bir xil o'zakli so'zlarda o'zakning bir xil yozilishini kuzatish hisoblanadi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

„O'zakdosh so'zlar" tushunchasini shakllantirish ularning ikki muhim belgisini, ya'ni mazmuniy umumiylikni (ma'nosida qanday-dir umumiylik borligini) va tuzilishiga ko'ra umumiylikni (umumiy o'zak mavjudligini) o'zlashtirish bilan bog'lanadi. Shuning uchun bu belgilarni o'quvchilar o'zlashtirishiga ta'lim jarayonida sharoit yaratish lozim. Bu o'quvchilarda bir xil o'zakli so'zlarning lug'aviy ma'nolari bilan morfemik tarkibi o'rtasidagi bog'lanishni aniqlash ko'nikmasini rivojlantiradi. Masalan, o'quvchilar gul, gulzor, gulli (ko'ylak), gulladi so'zlarini taqqoslaydilar, bu to'rt so'z ma'nosiga ko'ra o'xshashligini va bir xil umumiy qismga ega ekanini, shuning uchun bularni bitta o'zakdosh so'zlar guruhiga kiritish mumkinligini aniqlaydilar.

Bir xil o'zakli so'zlarning ma'nolaridagi umumiylik o'zakning umumiyligi tufayli vujudga keladi, ularni bir guruhga birlashtiradi; qo'shimchalar esa so'zning ma'nosiga o'ziga xos ma'no qo'shadi; ularni bir-biridan farqlaydi. Bir xil o'zakli so'zlar ustida bunday ishlash usuli o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiradi, ular diqqatini so'zning umumiylikka asoslangan aniq belgilariga jalb qilish imkonini beradi. Masalan, o'qituvchi *kombayn* rasmini ko'rsatadi va „Kombaynni boshqaradigan kishi nima deb nomlanadi?" savolini beradi. Javob xat-taxtaga yoziladi: kombayn – kombaynchi. Tushunchalarni taqqoslab kuzatish quyidagi aniq til materialini yaratish imkonini beradi, uni tahlil qilish jarayonida bir xil o'zakli so'zlarning xususiyatlari haqida xulosa chiqariladi: Avval so'zlarni ma'no va tarkibiga ko'ra taqqoslash asosida „o'zakdosh so'zlar" atamasi beriladi, keyin o'zakdosh so'zlarning umumiy qismi o'zak deyilishi, o'zakdosh so'zlarni, boshqacha qilib, bir xil o'zakli so'zlar (ya'ni o'zakdosh so'zlar) deb nomlanishi ham tushuntiriladi.

O'quvchilarda bir xil o'zakli so'zlarni ikki muhim belgisiga ko'ra aniqlash ko'nikmasini o'stirish uchun o'zakdosh so'zlar yaqin ma'noli – sinonim so'zlar bilan, shakli o'xshash bo'lgan so'zlar bilan taqqoslanadi. Masalan, o'quvchilar *baxtli – baxtsiz* o'zakdosh so'zlari bilan *baxtli – saodatli* sinonim so'zlarini taqqoslab, o'zakdosh so'zlar ham, sinonim so'zlar ham yaqin ma'no bildirishini (o'xshash tomonini), o'zakdosh so'zlarda umumiy qism *(baxt)* mavjud bo'lib, sinonim so'zlarda bunday umumiy qism yo'qligini (farqli tomonini) aniqlaydilar, ular *bog' – bog'bon* o'zakdosh so'zlari bilan *suv – suva* so'zlarini taqqoslab, quyidagi xulosaga keladilar: *bog' – bog'bon* o'zakdosh so'zlar hisoblanadi, chunki bular yaqin ma'noli va umumiy qismi bor; *suv – suva* so'zlari shakli tomonidangina o'xshaydi, ammo butunlay

www.ziyouz.com kutubxonasi

Ta'limning bu bosqichida o'quvchilarning morfema haqidagi bilimlari yetarli emas, ularni bu tushunchalar bilan amaliy mashqlarni bajarish jarayonida endigina tanishtirilyapti. Shuning uchun o'qituvchi tarkibi va yasalish usuli o'quvchilarning yosh xususiyatiga mos bo'lgan so'zlarni tanlaydi, bu so'zlarni analiz va sintez qilishni boshqaradi, so'zlarning leksik ma'nosi bilan morfemik tarkibi o'rtasidagi bog'lanishni o'quvchilarning bilib olishlariga doimiy g'amxo'rlik qiladi.

Uchinchi bosqich – o'zak, so'z yasovchi va shakl yasovchi qo'shimchalarning xususiyatlari hamda tildagi ahamiyatini o'rganish metodikasi. Bu bosqichning o'quv vazifasiga „o'zak", „so'z yasovchi qo'shimcha", „shakl yasovchi qo'shimcha" tushunchalarini shakllantirish, so'zning leksik ma'nosi bilan morfemik tarkibi o'rtasidagi bog'lanish haqidagi tasavvurlarni o'stirish, o'zakda jufti bor jarangli va jarangsiz undoshli so'zlarni to'g'ri yozish malakasini shakllantirish, nutqda so'z yasovchi qo'shimchasi bor so'zlarni ongli ishlatish ko'nikmasini o'stirish kiradi.

Bu bosqichning vazifasi bir-biri bilan ma'lum bog'lanishda hal qilinadi. Masalan, so'zda har bir morfemaning ahamiyatini o'zlashtirish asosida o'quvchilar so'zning leksik ma'nosi bilan uning morfemik tarkibi o'rtasidagi bog'lanishni bilib oladilar. Barcha vazifalar bilan uzviy bog'liq holda, so'zlarning morfemik tarkibini hisobga olib, ulardan nutqda mumkin qadar aniq va ongli foydalanish vazifasi ham bajariladi.

O'zakni o'rganishning xususiyatlari. „O'zak" tushunchasini shakllantirishda o'quvchilar o'zak o'zakdosh so'zlarning umumiy qismi ekani va u barcha bir xil o'zakli so'zlarning ma'nosidagi umumiylikni o'z ichiga olishi bilan tanishtiriladi.

O'zakdosh so'zlarni tahlil qilish bilan o'quvchilar so'zning qaysi qismi shu so'zlardan o'zakdosh so'zlar hosil qilayotganini tushuntirishga (bunda ular o'zakni ajratadilar), qaysi qismi har xil ma'noli so'zlar hosil qilayotganini tushuntirishga (bunda ular so'z yasovchi qo'shimchalarni ajratadilar) o'rgatiladi. Bunday vazifalarni to'g'ri bajarish natijasida o'quvchilar o'zak va so'z yasovchi qo'shimchaning so'zning leksik ma'nosini hosil qilishdagi rolini elementar tarzda bo'lsa ham tushunadilar, shuningdek, o'zak o'zakdosh so'zlarga asos bo'ladigan qism ekanini bilib oladilar.

O'zak ustida ishlash bu bilan tugamaydi, balki boshqa morfemalarni maxsus o'rganishga ajratilgan darslar mazmuni bilan va keyinroq

www.ziyouz.com kutubxonasi

so'z turkumlari o'rganilganda, so'z yasashga doir mashqlar bilan ham uzviy bog'lanadi.

So'z yasovchi qo'shimchalar ustida ishlash. Bu morfemani o'rganishning asosiy vazifasi o'quvchilarni so'zda so'z yasovchi qo'shimchaning ahamiyati bilan tanishtirish va shu asosda so'z yasovchi qo'shimchali so'zdan o'z nutqida ongli foydalanish ko'nikmasini o'stirish hisoblanadi. O'quvchilar so'z yasovchi qo'shimcha yordamida yangi leksik ma'noli so'z yasash mumkinligini tushunishi muhim ahamiyatga ega.

So'z yasovchi qo'shimchalar ustida ishlash ba'zi so'z yasovchi qo'shimchaning ma'nosini va yasama so'zning grammatik belgilarini aniqlash bilan birga olib boriladi. So'z yasovchi qo'shimchaning ma'nosini tushuntirish uning so'z yasashdagi ahamiyatini o'quvchilar anglashiga imkon beradi, ularning diqqat-e'tibori so'z yasovchi qo'shimcha yordamida yangi leksik ma'noli so'z yasalishiga qaratiladi. Masalan: *ish – ishchi, ishli, ishchan, ishla).*

Yasalgan so'z qaysi so'z turkumiga kirishini aniqlash so'z yasovchi qo'shimcha yordamida har xil so'z turkumiga oid so'zlar yasash mumkinligi haqidagi tasavvurni chuqurlashtiradi.

So'z yasovchi qo'shimchani ongli o'zlashtirish uchun quyidagi mashqlar guruhidan foydalanish yaxshi natija beradi:

Birinchi guruh mashqlarga har xil so'z yasovchi qo'shimcha qo'shish bilan hosil bo'lgan bir xil o'zakli so'zlarning ma'no jihatdan farqini qiyoslashga oid vazifalar kiradi. Masalan, ***gul*** *so'zidan* ***-chi, -zor*** so'z yasovchi qo'shimchalari bilan yangi so'z yasang. Hosil bo'lgan so'zlarni ma'nosi va tarkibiga ko'ra qiyoslang. Ularda nima o'xshash? So'zning qaysi qismi ularni ma'nosiga ko'ra farqlayapti? Yangi so'zlarni qatnashtirib gap tuzing.

Ikkinchi guruh mashqlarga bir so'z yasovchi qo'shimchani har xil so'zlarga qo'shishdan hosil bo'lgan so'zlarda so'z yasovchi qo'shimchaning ma'nosini qiyoslashga oid vazifalar kiradi. Bunday mashqlarning maqsadi so'z yasovchi qo'shimchaning ma'nosi haqidagi bilimni elementar tarzda umumlashtirish hisoblanadi. Masalan, ***ishchi, suvchi, gulchi*** so'zlarini taqqoslash, ma'nosiga ko'ra o'xshash tomonini belgilash (biror ishni, vazifani bajaradigan kishini – shaxsni bildiradi), so'zning qaysi qismi bajaruvchi shaxs ma'nosini bildirayotganligini aniqlash (so'z yasovchi qo'shimcha ***-chi***).

Uchinchi guruh mashqlarga matnni leksik-grammatik va leksik-uslibiy tahlil qilishga oid vazifalar kiradi. Masalan, matndan o'zakdosh

www.ziyouz.com kutubxonasi

so'zlarni topish, ularning ma'nosidagi farqni aytish, bu farq so'zning qaysi qismi yordamida yuzaga kelayotganini aniqlash; berilgan so'zlardan namunadagidek gap tuzish (masalan, Soatsoz soatni tuzatdi. Traktorchi yerni traktor bilan haydaydi); o'zakdosh so'zlarni aniqlash va tarkibiga ko'ra tahlil qilish va hokazo.

Shakl yasovchi qo'shimchalarni o'rganish xususiyatlari. Har bir morfemaning lingvistik mohiyatida o'ziga xoslik bo'lib, uni o'rganish metodikasi ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Shakl yasovchi qo'shimchada grammatik vazifa yetakchi hisoblanadi, bu bilan u so'z yasovchi qo'shimchadan farqlanadi.

Shakl yasovchi qo'shimcha so'zning grammatik ma'nosini ifodalovchi vosita hisoblanadi. O'quvchilar so'zning grammatik ma'nosini bilmay turib shakl yasovchi qo'shimchaning vazifasini ham anglab yetmaydilar. Bundan tashqari, shakl yasovchi qo'shimcha bir necha ma'no ifodalaydi (masalan, *kitobni o'qidim* so'z birikmasidagi *-m* I shaxs birlik ma'nosini bildiradi).

Shakl yasovchi qo'shimchani o'rgatishda uning mana shu xususiyatlari hisobga olinadi, boshlang'ich sinf o'quvchilari uning ikki belgisi bilan (so'z shaklini o'zgartirishi va gapda so'zlarni bir-biriga bog'lashi bilan) amaliy tanishtiriladi. O'quvchilar otlarda birlik va ko'plik, bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar, otlarning egalik va kelishik qo'shimchalari bilan o'zgarishi, kishilik olmoshlarining kelishiklar bilan turlanishi, fe'llarda shaxs-son, zamonni (4-sinf) o'rganishlari bilan bog'liq holda ularning shakl yasovchi qo'shimcha haqidagi bilimlari asta-sekin chuqurlashtirila boriladi.

O'quvchilarda gapda so'zlar shakl yasovchi qo'shimcha yordamida bog'lanishi haqidagi dastlabki tasavvur mashqlarni bajarish jarayonida hosil qilinadi. Masalan, gapning mazmuniga mos ravishda ajratib berilgan so'zning shaklini so'roqlardan foydalanib o'zgartirish va u so'z gapdagi qaysi so'z bilan bog'langanini aniqlash so'raladi: *O'quvchi* (nimani?) *kitob... sevadi. U* (nimadan?) *kitob... yaxshi foydalanadi?* O'quvchilar o'qituvchi rahbarligida *„So'zning shaklini nima uchun o'zgartirishga to'g'ri keldi? So'z shaklini o'zgartirish bilan nimaga erishildi?"* savollariga javob beradilar.

O'quvchilar shakl yasovchi qo'shimchalarning sintaktik vazifasini gapda so'zlarning bog'lanishi va so'z birikmasini o'zlashtirish jarayonida o'zlashtiradilar. O'quvchilarning so'zlarning bog'lanishi haqidagi bilimi elementar xarakterda bo'lsa ham, ularning so'z birikmasidagi so'zlar ma'no va grammatik jihatdan shakl yasovchi qo'shimchalar

www.ziyouz.com kutubxonasi

yordamida bog'lanishini tushunishiga erishiladi. O'quvchilar ot va kishilik olmoshlarining kelishik qo'shimchalari bilan turlanishini o'rganganlaridan so'ng gapda ma'no va grammatik jihatdan o'zaro bog'langan so'zlarni ajrata olish va nimalar yordamida bog'langanini tushuntirish ko'nikmalariga ega bo'lishlari mumkin, so'ngra shakl yasovchi qo'shimchalarning sintaktik vazifasini o'zlashtira boshlaydilar.

O'quvchilar har bir morfemaning topshirig'ini boshqa morfemalar bilan qiyoslab ko'rsatish talab qilingan vazifani bajarish jarayonida shakl yasovchi qo'shimchaning o'ziga xos xususiyatini yaxshi o'zlashtiradilar. Masalan, o'zakdosh so'zlar tanlash vazifasini bajarish davomida so'z yasash uchun qanday morfemalardan foydalanilgani, so'z yasovchi qo'shimcha tufayli so'zning ma'nosi qanday o'zgargani aniqlanadi. Shundan so'ng o'quvchilarga „Otni shunday o'zgartiringki, u birlikni emas, ko'plikni bildirsin" topshirig'i beriladi. Bolalar bu vazifani bajarib, otga shakl yasovchi ko'plik qo'shimchasi qo'shilganda, so'zning leksik ma'nosi o'zgarmaganini, faqat shakli o'zgarganini, ko'plik bildirganini aytadilar. So'z yasovchi qo'shimcha bilan shakl yasovchi qo'shimchalarni taqqoslash orqali o'quvchilar shakl yasovchi qo'shimchaning so'z shaklini o'zgartirishdagi o'rnini yaqqol ko'radilar.

To'rtinchi bosqich – so'z turkumlarini o'rganish bilan bog'liq holda so'zning tarkibi ustida ishlash (3-, 4-sinflar). So'zning morfemik tarkibini o'rganish tizimida bu bosqichning maqsadi so'z yasovchi qo'shimchaning so'z yasashdagi ahamiyati va shakl yasovchi qo'shimchaning so'z shaklini o'zgartirishdagi ahamiyati haqidagi bilimni chuqurlashtirish; o'quvchilarni ot, sifat, fe'llarning yasalish xususiyatlarini tushunishga tayyorlash hisoblanadi.

So'z turkumlarini o'rganish jarayonida o'qituvchi o'quvchilarga so'z yasalishi asoslarini, so'z yasovchi qo'shimcha yordamida bir so'z turkumidan boshqasini yoki shu so'z turkumining o'zini yasash mumkinligini tushuntiradi. Masalan, ot ko'proq boshqa bir otdan *(ishchi, baliqchi; sinfdosh, sirdosh; bog'bon, oshpaz, kitobxon, zargar)*, shuningdek, fe'ldan *(elak, kurak, yutuq, o'roq, yotoq, terim, bilim)*; sifat ko'proq otdan *(suvli, suvsiz; yozgi, qishki, ishchan, ishli, ishsiz)*, shuningdek, fe'ldan *(maqtanchoq, o'tkir, sezgir)*; fe'llar otdan *(ishla, gulla, gapir)*, sifatdan *(oqla, yaxshila, oqar, qoray)* yasaladi.

O'quvchilarni so'z yasalish xususiyatlarini tushunishga tayyorlash uchun o'qituvchi ularga muayyan bir yangi so'z qaysi so'zdan va qaysi morfema yordamida yasalganini aniqlashga qaratilgan topshiriq beradi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Masalan, o'qituvchi *chegara* otini aytadi va chegarani qo'riqlaydigan kishini bildiradigan o'zakdosh ot tanlashni topshiradi *(chegarachi)*. Vazifani boshqacharoq berish ham mumkin: o'qituvchi so'zni va so'z yasovchi morfemani beradi. O'quvchining vazifasi yangi so'zni to'g'ri yasash va leksik ma'nosini tushuntirish hisoblanadi. Masalan, *baliq* so'zidan *-chi* qo'shimchasi yordamida yangi so'z yasash *(baliqchi)*, uning leksik ma'nosini tushuntirish, qaysi so'z turkumi ekanini aytish topshiriladi. Ikkala topshiriqda ham o'quvchilar so'zni morfemik tahlil qiladilar. Bunda o'qituvchi o'quvchilar e'tiborini hosil bo'lgan so'z qaysi morfema yordamida, qaysi so'z turkumidan yasalganiga, qanday ma'no anglatishi va qaysi so'z turkumi ekaniga qaratadi. Bunday mashqlarda tilda mavjud bo'lgan so'zlarning leksik ma'nosi bilan morfemik tarkibining o'zaro bog'liqigiga va biror so'z turkumiga xarakterli bo'lgan so'z yasalishi usuliga asoslaniladi.

Bunday mashq turlaridan namunalar:

1. O'zakdosh so'zlari bo'lgan matnni leksik, so'z yasalishi tomonidan tahlil qilish. Masalan, quyidagi kabi matn aytib yozdiriladi:

Hovlimizda gulzor bor. Gulzorga har xil gul ekilgan. Ularni gulchi akam parvarish qiladi. Gullar chamandek ochiladi.

O'qituvchi rahbarligida bir so'zdan boshqasi, ya'ni o'zakdosh so'zlar qanday morfema yordamida yasalgani, u qaysi so'z turkumiga kirishi, qanday ma'no bildirishi aniqlanadi.

2. Leksik ma'nosi keng tushuntirilgan so'zni o'zakdosh so'z bilan almashtirish.

Topshiriq. Ajratib ko'rsatilgan so'zga o'zakdosh bo'lgan bir so'z toping. Uning qaysi so'z turkumiga kirishini ayting va uni so'z tarkibiga ko'ra tahlil qiling.

– Olma daraxti ko'p joy (Olmazor)
– Paxta yetishtirish bilan shug'ullanadigan kishi (Paxtakor)
– Bog' yaratadigan va uni parvarish qiladigan kishi (Bog'bon)
– Traktor bilan ish bajaradigan kishi (Traktorchi)
– Gul solib qo'yiladigan idish (Guldon)

O'quvchilar o'qituvchi yordamida shu so'z qaysi so'zdan va qanday qo'shimcha yordamida yasalganini aniqlaydilar.

3. Har xil so'z turkumiga kiradigan o'zakdosh so'zlardan qatnashtirib gap tuzish.

4. So'z yasashga doir vazifalar:

– *Oq, ish* so'zlaridan *-la, -chi* qo'shimchalari yordamida yangi

www.ziyouz.com kutubxonasi

so'zlar yasang. Berilgan va siz yasagan so'zlar qaysi so'z turkumiga kirishini ayting va fikringizni asoslang.

– *Ish, paxta, suv* otlaridan o'zakdosh otlar yasang. So'zlarni tarkibiga ko'ra tahlil qiling. Yangi ot hosil qilish uchun siz so'zning qaysi qismidan foydalandingiz?

– *Chiz, o'r* fe'llaridan o'zakdosh otlar yasang. Otlarni so'z tarkibiga ko'ra tahlil qiling. Fe'ldan ot yasash uchun qanday qo'shimchalardan foydalandingiz?

Bu vazifalar o'quvchilardan so'z yasalishi xususiyatlariga, so'zlarning morfemik tarkibiga e'tibor berishni talab etadi va so'zning morfemik tarkibi shu so'zning muayyan bir so'z turkumiga oid ekani bilan bog'liqligini aniqlashga qaratiladi. Boshlang'ich sinflarda u yoki bu so'z turkumining yasalishini kuzatish propedevtik xarakterda bo'ladi, uning natijasi mashqning mavzuni o'zlashtirish maqsadiga qaratilishi, darsda faol va individual ishlarni to'g'ri uyushtirish, foydalanilgan leksik materialning o'quvchilar saviyasiga mosligi va ko'rgazmalilikka bog'liq.

O'qituvchi o'quvchilarning biror morfemani qay darajada o'zlashtirganini ularning morfemik tarkibi bolalar saviyasiga mos so'zlardagi morfemalarni ajratish ko'nikmasiga, o'zak va shakl yasovchi qo'shimchadan yo o'zak va so'z yasovchidan, yoki o'zak, so'z yasovchi va shakl yasovchidan tuzilgan so'zlarni mustaqil tanlay bilishiga, so'zdagi morfemalarning rolini so'z bilan tushuntirish ko'nikmasiga, gapda so'z yasovchi qo'shimchali so'zlarni to'g'ri ishlatish ko'nikmasiga qarab aniqlaydi.

Quyidagicha savol va topshiriqlarni bajarish asosida o'quvchilar so'zning morfemik tarkibini qanday o'zlashtirganini aniqlash mumkin:

I. Savollarga javob berish:

1. So'zda qaysi qism eng asosiy hisoblanadi? Nima uchun?

2. So'z yasovchi qo'shimcha qanday vazifani bajaradi? Misol bilan isbotlang.

3. So'zda shakl yasovchi qo'shimcha nima uchun xizmat qiladi? Isbotlang.

II. Ikki so'zning ma'nosi va tarkibini taqqoslash. Buning uchun o'quvchilar o'zak va so'z yasovchi qo'shimchalarning semantik ahamiyatini qanchalik tushunganini aniqlashga imkon beradigan so'zlar tanlanadi *(ishladi* va *boshladi, paxtakor* va *paxtazor).*

www.ziyouz.com kutubxonasi

III. So'zlarni taqqoslab, o'zakdosh yoki o'zakdosh emasligini isbotlash *(tuz, tuzdon, tuzli, tuzsiz, tuzladi). Qaysi qism ularni o'zakdosh qilyapti? Qaysi qism har xil ma'noli so'z hosil qilyapti?* kabi savollarga javob berish.

IV. *Bog'bon, o'roq, bog'ni, ishchidan* so'zlarini tarkibiga ko'ra tahlil qilish. 1) o'zak va so'z yasovchi qo'shimchadan, 2) o'zak va shakl yasovchi qo'shimchadan, 3) o'zak va so'z yasovchi, shakl yasovchi qo'shimchalardan tuzilgan so'zlar tanlash.

V. Tayanch so'zlar asosida o'qituvchi tavsiya etgan mavzuga oid kichik hikoya tuzish.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinflarda so'zning morfemik tarkibi va so'z yasalishini o'rgatish o'quvchilarning har bir so'zga ongli munosabatda bo'lishlarini ta'minlaydi, so'z tarkibi va uning yasalishi haqidagi dastlabki tushunchalarni shakllantiradi.

Savol va topshiriqlar

1. Maktabda so'zning morfemik tarkibi va so'z yasalishini o'rganish nima uchun katta ahamiyat kasb etadi?
2. 1–4-sinflarda so'zning morfemik tarkibini o'rganish tizimi mohiyatini tushuntiring.
3. Siz o'quvchilarni bir xil o'zakli so'zlarning muhim belgilari bilan qanday tanishtirardingiz? Bu tushunchani shakllantirishga qanday shartlar yordam beradi?
4. So'z yasovchi qo'shimchaning tilimizdagi ahamiyatini o'zlashtirishda o'quvchilarga qanday yordam beriladi?
5. Shakl yasovchi qo'shimchalarni o'rganishning o'ziga xos xususiyatlarini tushuntiring.
6. Dasturga muvofiq so'zning tarkibi va yasalishiga oid dars ishlanmasini tayyorlang.

So'z turkumlarini o'rganish metodikasi

So'z turkumlari ustida ishlash metodikasining lingvistik asosi so'zlarning leksik-grammatik, morfologik va sintaktik belgilariga ko'ra turli guruhlarga ajratilishi, ya'ni so'z turkumlari haqidagi ilm hisoblanadi.

So'zlarni leksik-grammatik turkumlarga ajratishda uch belgiga: 1) leksik ma'nosi (nimani ifodalashi, ya'ni shaxs, narsa, harakat yoki holat, belgi kabilarning umumlashtirilgan ma'nolari), 2) morfologik

www.ziyouz.com kutubxonasi

(so'zning turli shakllari tizimi) va 3) sintaktik (turli morfologik shakllarning sintaktik vazifa bajarishi) belgilariga asoslaniladi. Demak, so'z turkumlari ustida ishlash o'quvchilarning muayyan guruhdagi so'zlarning umumlashtirilgan ma'nolarini, kishilarning aloqa vositasi sifatidagi rolini tushunib olishlariga qaratilishi zarur.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari so'z turkumlari (ot, sifat, son, olmosh, fe'l) bilan umumiy tanishtirilgandan so'ng har bir leksik-grammatik guruh alohida o'rganiladi. Bu so'z turkumlarini o'rganishning boshlang'ich bosqichidayoq ularni taqqoslashga qulay sharoit yaratadi va shakllantiriladigan grammatik tushunchaning asosiy tomonlarini aniqroq ajratishga imkon beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ot, sifat, son, fe'lning quyidagi xususiyatlarini bilib oladilar:

1) so'z nimani bildirishi (shaxs, narsa, belgi, miqdor va tartib, harakat yoki holat);

2) qanday so'roqlarga javob bo'lishi;

3) o'zgarish-o'zgarmasligi, qanday doimiy kategoriyalari mavjudligi;

4) gapda, asosan, qanday bo'lak vazifasida kelishi.

O'quvchilar mana shu o'rgangan belgilari asosida so'z turkumlarini taqqoslaydilar. Ular nimani o'rganganlariga qarab, har bir so'z turkumining grammatik belgilari haqidagi bilimlari asta kengaya va chuqurlasha boradi. Dasturga ko'ra, boshlang'ich sinfda so'zlar dastlab javob bo'ladigan morfologik so'roqlariga qarab guruhlanadi. 3-sinfda „So'z turkumi" tushunchasi shakllantiriladi. O'quvchilar har bir so'z turkumiga xos ayrim belgilar (so'z turkumlarining umumlashtirilgan leksik ma'nolari, otlarning birlik va ko'plikda qo'llanishi, bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar, ot, sifat, son va fe'lning gapdagi vazifasi) bilan tanishtiriladi. 4-sinfda so'z turkumlarining morfologik-sintaktik xususiyatlari haqidagi bilim chuqurlashtiriladi: o'quvchilar otlarning egalik va kelishiklar bilan o'zgarishini, sifat va sonning gapdagi vazifasini, kishilik olmoshlari va ularning kelishiklar bilan turlanishini, fe'llarda shaxs-son va zamonni o'rganadilar. Quyidagi jadvalda boshlang'ich sinf o'quvchilarining so'z turkumlari yuzasidan bilimlari hajmi ko'rsatilgan:

www.ziyouz.com kutubxonasi

So‘z turkumlari				
Ot	Sifat	Son	Olmosh	Fe’l
1. Shaxs, narsa va joy nomini bildiradi.	1. Shaxs va narsaning belgisini bildiradi.	1. Shaxs, narsaning sanog‘i va tartibini bildiradi.	1. Kishilik olmoshlari shaxsni bildiradi va ot o‘rnida qo‘llanadi.	1. Shaxs, narsaning harakatini bildiradi.
2. Kim?, nima?, qayer? so‘roqlariga javob bo‘ladi.	2. Qanday? yoki qanaqa? so‘rog‘iga javob bo‘ladi.	2. Necha? yoki nechanchi? so‘rog‘iga javob bo‘ladi.	2. Kishilik olmoshlari kim? so‘rog‘iga javob bo‘ladi.	2. Nima qildi?, nima qiladi?, nima qilyapti? nima qilmoqchi? kabi so‘roqlarga javob bo‘ladi.
3. Birlik va ko‘plikda qo‘llanadi.	3. O‘zgarmaydi.	3. O‘zgarmaydi.	3. Ular birlik va ko‘plikda bo‘ladi.	3. Bo‘lishli va bo‘lishsiz shaklda qo‘llanadi.
4. Egalik qo‘shimchalari bilan o‘zgaradi.	4. Gapda ikkinchi darajali bo‘lak vazifasida keladi.	4. Gapda ikkinchi darajali bo‘lak vazifasida keladi.	4. Kishilik olmoshlari kelishik qo‘shimchalari bilan qo‘llanadi.	4. Shaxs-son qo‘shimchalari bilan tuslanadi.
5. Kelishik qo‘shimchalari bilan turlanadi.	5. Sifatlar yasaladi.	5. Sonlar yasalmaydi.	5. Ular gapda bosh va ikkinchi darajali bo‘laklar vazifasida keladi.	5. Uch zamonni bildiradi.
6. Gapda ega yoki ikkinchi darajali bo‘lak vazifasida keladi.			6. Olmoshlar yasalmaydi.	6. Gapda kesim vazifasida keladi.
7. Otlar yasaladi.				7. Fe’llar yasaladi.

O‘quvchilarda so‘z turkumlarini bilish ko‘nikmasi ularning belgilari yig‘indisini egallashlari asosida shakllantiriladi. Masalan, *gul, guldor, gulladi* so‘zlarining qaysi so‘z turkumiga kirishini bilish uchun 2-sinf o‘quvchisi quyidagicha fikr yuritadi: ***nima?*** – *gul,* bu so‘z narsani bildiryapti, ko‘plikda qo‘llanadi – *gullar,* bu – ot; *guldor* so‘zi ***qanday?***

www.ziyouz.com kutubxonasi

so'rog'iga javob bo'lyapti, narsaning belgisini bildiryapti, bu – sifat; *gulladi* so'zi ***nima qildi?*** so'rog'iga javob bo'lyapti, narsaning harakatini bildiryapti, bo'lishsiz shaklda qo'llanadi – *gullamadi,* bu – fe'l.

Boshlang'ich sinflar dasturi o'quvchilarni so'z turkumlari mustaqil va yordamchi so'z turkumlariga bo'linishi bilan maxsus tanishtirishni ko'zda tutmaydi, ammo o'qituvchi bolalarni so'z turkumlarining belgilari bilan amaliy tanishtiradi.

So'z turkumlarini o'rganishdagi asosiy vazifa o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish, lug'atini yangi ot, sifat, son, fe'llar bilan boyitish, o'quvchilar shu vaqtgacha foydalanib kelayotgan so'zlarning ma'nosini aniq tushunishiga erishish, bog'lanishli nutqda u yoki bu so'zdan o'rinli foydalanish malakasini o'stirish hisoblanadi. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun so'z turkumlarini o'rganish jarayonida sinonim, antonimlar (atamalar berilmaydi) ustida muntazam ish olib boriladi, o'quvchilar ko'p ma'noli so'zlar, ularning o'z va ko'chma ma'noda ishlatilishi bilan tanishtiriladi. Bunda ta'limni o'quvchilarning shaxsiy tajribalari, bevosita ko'rganlari, radiodan eshitganlari, kitobdan bilib olganlari bilan bog'lash muhim ahamiyatga ega.

O'quvchilarda kuzatish, muhim narsalarni sezish ko'nikmalarini shakllantirish, atrof-muhit haqidagi bilimlarini boyitish bilan bir vaqtda ularning nutqini o'stirish vazifasi ham amalga oshiriladi.

OTNI O'RGANISH METODIKASI

„Ot" mavzusini o'rganish tizimi maqsadga yo'naltirilgan jarayon bo'lib, bunda shu so'z turkumining umumlashtirilgan ma'nosi va grammatik belgilari aniq izchillikda, bir-biri bilan ilmiy asoslangan bog'liqlikda o'rganiladi, shuningdek, otdan nutqda to'g'ri foydalanish va to'g'ri yozish malakasini shakllantirish maqsadida bajariladigan mashqlar asta murakkablashtira boriladi.

Til hodisasi sifatida otning xususiyatlari, uni o'rganish vazifalari, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, har bir sinf uchun material hajmi, ularni o'rganish izchilligi belgilangan.

Boshlang'ich sinflarda otni o'rganish vazifalari quyidagilar:

1) „ot" haqidagi grammatik tushunchani shakllantirish;

2) *kim?* so'rog'iga javob bo'lgan (shaxs bildirgan) otlardan *nima?* so'rog'iga javob bo'lgan (narsa, hayvon, jonivor va boshqalarni bildirgan) otlarni farqlash ko'nikmasini hosil qilish;

www.ziyouz.com kutubxonasi

3) kishilarning familiyasi, ismi, otasining ismi, hayvonlarga qo'yilgan nomlar va geografik nomlarni bosh harf bilan yozish ko'nikmasini shakllantirish;

4) otlarda son (otning birlik va ko'plikda qo'llanishi) bilan tanishtirish;

5) otlarni egalik qo'shimchalari bilan to'g'ri qo'llash ko'nikmasini shakllantirish;

6) otlarning kelishiklar bilan turlanishi va kelishik qo'shimchalarining yozilishi haqida malaka hosil qilish;

7) o'quvchilar lug'atini yangi otlar bilan boyitish va ulardan nutqda aniq, o'rinli foydalanish malakasini o'stirish;

8) so'zlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirishni bilish.

Bu vazifalarning har biri alohida emas, balki bir-biri bilan o'zaro bog'liq holda hal etiladi. Shu bilan birga, „Ot" mavzusini o'rganishning muayyan bosqichida bajarish lozim bo'lgan bir vazifani hal qilishga ko'proq ahamiyat beriladi. Masalan, 1–2-sinflarda so'z turkumi sifatida otning belgilari (nimani bildirishi, so'roqlari) o'rganiladi, 3-sinfda esa otga atama beriladi, birlik va ko'plikda qo'llanishini o'zlashtirishga ahamiyat beriladi. 4-sinfda otning egalik qo'shimchalari bilan qo'llanishi, kelishiklar bilan turlanishi va kelishik qo'shimchalarining yozilishini o'rganishga e'tibor qaratiladi. O'quvchilarning nutqi va tafakkurini o'stirish vazifasi esa mavzuni o'rganishning barcha bosqichlarida hal qilinadi. Grammatik materialni o'rganish va orfografik malaka hosil qilishning butun jarayoni o'quvchilar lug'atini boyitishga, bog'lanishli nutq malakalari va fikrlash qobiliyatlarini o'stirishga qaratiladi.

So'z turkumi sifatida ot muayyan leksik ma'nolari va grammatik belgilari bilan ajralib turadi. Barcha otlarning umumiy leksik ma'nosi shaxs va narsani ifodalash hisoblanadi. Ot jonli mavjudotlar *(kishi, qush, hayvon, asalari),* yer va osmonga oid narsalar *(quyosh, yulduz, daryo, tog')*, o'simliklar *(paxta, beda, gul),* voqealar *(yig'in, majlis),* tabiat hodisalari *(shamol, bo'ron, yomg'ir, momaqaldiroq),* belgi-xususiyat *(ahillik, kuchlilik, samimiyat),* harakat-holat *(uyqu, sevinch, kurash),* o'rin va vaqt *(yoz, bahor, joy)* nomlarini bildiradi.

Otlarning grammatik belgilari: otlar birlik va ko'plikda qo'llanadi, egalik qo'shimchalari bilan o'zgaradi, kelishiklar bilan turlanadi, gapda ko'proq ega, to'ldiruvchi, aniqlovchi, shuningdek, hol va kesim vazifasida keladi. Ot nutqda sifat, son, olmosh, fe'l bilan birika oladi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Otning ma'nolari va grammatik belgilari xiyla murakkab, shuning uchun ham ot haqidagi bilim o'quvchilarda amaliy vazifalarni bajarish jarayonida asta shakllantira boriladi.

Otni o'rganishda izchillik. Otni o'rganishga tayyorlov bosqichi savod o'rgatish davriga to'g'ri keladi. Bu bosqichda o'quvchilar shaxs-narsalarni va ularning nomi bo'lgan so'zlarni farqlashga o'rganadilar, so'zning leksik ma'nosiga e'tibor ko'proq qaratiladi, ma'nolarini hisobga olgan holda so'zlar (qushlar, meva va sabzavotlar, kiyimlar va hokazolarni bildirgan otlar)ni guruhlash ko'nikmasi shakllantiriladi. So'zlarni leksik ma'nosi asosida guruhlash mashqlari otlarni taqqoslash, o'xshash tomonlarini aniqlash, umumlashtirish ko'nikmasini o'stiradi. Shunga qaramay, grammatik tushunchani shakllantirish uchun o'quvchilar so'zning aniq ma'nosini yetarli bilmaydilar, so'zning leksik ma'nosini bilish bilan birgalikda uning grammatik belgilarini ham o'zlashtirish zarur.

Keyingi bosqichda otning leksik ma'nolari va grammatik belgilari ustida maxsus ishlanadi (*kim?* yoki *nima?* so'rog'iga javob bo'lishi, shaxs, narsani bildirishi tushuntiriladi). O'quvchilar *kim?* so'rog'iga javob bo'lgan otlarni *nima?* so'rog'iga javob bo'lgan otlardan farqlashni, ularni so'roq berish bilan ajratishni o'rganadilar, o'quvchilarda mavhum grammatik tafakkur o'sa boradi, ularda atoqli otlarni bosh harf bilan yozish ko'nikmasi shakllana boradi.

2-sinfda otlarning leksik ma'nosi, atoqli va turdosh otlar (atamasiz) haqidagi bilim chuqurlashtiriladi.

„Ot" tushunchasini shakllantirish uchun shu so'z turkumiga kiradigan otlarni asosiy leksik guruhlarga ajratish, barcha otlarga xos bo'lgan belgilarni, ularning nutqimizdagi o'rnini ko'rsatish muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda mavzuni o'rganishga bag'ishlangan birinchi darslardayoq shaxs va narsani bildiradigan so'zlar bir tizimga solinadi, kishilarni, buyum, o'simliklar va hayvonlarni, tabiat hodisalarini, voqealarni bildiradigan so'zlar guruhlarga ajratiladi. Shu so'zlarning hammasi uchun umumiy bo'lgan belgilar aniqlanadi: bu so'zlar shaxs, narsalarni bildirib *kim?* yoki *nima?* so'rog'iga javob bo'ladi.

Dasturga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilarini sifat va boshqa so'z turkumlaridan yasalgan mavhum ma'nodagi (*yaxshilik, go'zallik, ishonch, sevinch, o'kinch, qo'rqinch, tayanch* kabi) otlar bilan tanishtirish talab etilmaydi. Ammo matnda uchrasa va o'quvchilar qiziqib so'rasalar, otning bolalar o'rgangan belgilari asosida (*nima?* so'rog'iga javob bo'lishi, shaxs yoki narsa nomini bildirishi) tushuntiriladi. Otlar-

www.ziyouz.com kutubxonasi

ning nutqda katta ahamiyatga ega ekanini ko'rsatish uchun o'qituvchi o'qish kitobidan matn tanlab, o'quvchilarga matndagi otlarni topishni, so'ngra matnni shu so'zlarsiz o'qishni topshiradi. O'quvchilar matndagi otlarni tushirib qoldirib o'qiganda, matn mazmunini tushunib bo'lmasligini anglaydilar. Xulosa chiqariladi: ot atrofimizni o'rab olgan shaxs va narsalarning nomi, bu so'zlarsiz bir-birimizga o'z fikrimizni tushuntira olmaymiz.

Otlarning birlik va ko'plikda qo'llanishi. 3-sinfda „Otlar, ya'ni otlarning birlik va ko'plikda qo'llanishi" ustida ishlash jarayonida o'quvchilarda: 1) birlik va ko'plikda qo'llangan otlarning ma'nosi va qo'shimcha orqali farqlash, 2) birlikdagi otdan ko'plik shaklidagi va, aksincha, ko'plikdagi otdan birlik sondagi ot hosil qilish, 3) gapda so'zlarning bog'lanishini hisobga olgan holda, otlardan nutqda to'g'ri foydalana olish ko'nikmalari shakllantiriladi.

Otlarning birlik va ko'plikda qo'llanishi taqqoslash usulidan foydalanib tushuntiriladi. Buning uchun bir predmetni va shunday bir necha predmetni bildirgan otlar taqqoslanadi: *daftar – daftarlar, qalam – qalamlar, nok – noklar* kabi. Suhbat asosida *daftar* so'zi nechta (bitta) predmetni va *daftarlar* so'zi nechta (ikki va undan ortiq) predmetni bildirishi aniqlanadi. Boshqa so'zlar bilan ham shunday ishlanadi. Oddiygina xulosa chiqariladi va fikrlar umumlashtiriladi: agar otlar bir predmetni bildirsa, birlikda qo'llanadi, agar ikki va undan ortiq shaxs yoki narsani bildirsa, ko'plikda qo'llanadi. Ko'plikdagi otni yasash uchun birlikdagi otga -lar qo'shimchasi qo'shiladi. Birlikdagi otlar **kim?** yoki **nima?** so'rog'iga, ko'plikdagi otlar esa **kimlar?** yoki **nimalar?** so'rog'iga javob bo'ladi.

Bu sinf o'quvchilariga faqat birlikda qo'llanadigan otlar, birlik shaklida qo'llangan *armiya, qo'shin, xalq* kabi otlar ko'plik ma'nosini bildirishi, bunday otlarga ko'plik qo'shimchasi qo'shilganda anglatadigan ma'nosi maxsus tushuntirilmaydi. Agar o'quvchilar bu haqda savol bersalar, soddagina shaklda tushuntirish mumkin.

Otlarning birlik va ko'plikda qo'llanishini kuzatish aslida so'z shakli ustida ishlashning boshlang'ich bosqichi hisoblanadi. Bunda o'quvchilar otlarni ko'plik qo'shimchasi bilan o'zgartirish, ya'ni otga shakl yasovchi qo'shimcha qo'shish bilan so'zning leksik ma'nosi o'zgarmasligiga ishonch hosil qiladilar.

Otlarning egalik qo'shimchalari bilan qo'llanishini o'rgatish. Bu mavzu boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun murakkab hisoblanadi, chunki bu mavzu o'rganilgunga qadar, o'quvchilar „shaxs" tushunchasi

www.ziyouz.com kutubxonasi

bilan hali tanishtirilmagan, kishilik olmoshlarini hali o'rganmagan bo'ladilar. O'quvchilarga egalik qo'shimchasi shaxs, narsa birlik va ko'plikdagi uch shaxsdan biriga taalluqli ekanini bildirishini tushuntirish qiyin. Shularni hisobga olib, o'quvchilarni otlarning egalik qo'shimchalari bilan qo'llanishini o'zgatishda o'qituvchi ishni sarlavhadagi „egalik" so'zining leksik ma'nosini tushuntirishdan boshlashi maqsadga muvofiq: „egalik" ega bo'lish, qarashlilik, tegishlilik, oidlik ma'nolarini bildiradi, demak, egalik qo'shimchasi deganda biror narsaga ega bo'lishni, shu narsa tegishli, shu narsaning egasi ekanini bildiradigan qo'shimchalar tushuniladi. Otlar egalik qo'shimchalari bilan qo'llanadi. Otga qo'shilgan egalik qo'shimchasi shu ot ifodalagan shaxs, narsaning kimgadir qarashli ekanini, shu narsaning egasi ekanini bildiradi. Misollarni kuzataylik: Kecha o'qigan **kitobim** juda qiziqarli ekan. Sening kitobing ham qiziqarlimi? Ra'noning kitobi ham qiziqarli edi.

Kitobim, kitobing, kitobi so'zlari so'z tarkibiga ko'ra tahlil qilinadi va o'quvchilar *kitob* – o'zak, *-im, -ing, -i* qo'shimcha ekanini aniqlaydilar. O'qituvchi *kitob* va *kitobim* so'zlarini taqqoslashni, *-im* qo'shimchasining ma'nosi haqida o'ylab ko'rishni topshiradi, muammoli vaziyat yaratadi; o'quvchilar qo'shimchaning ma'nosi haqida fikr yuritadilar, ammo *kitobim* so'zining ma'nosiga *(mening kitobim* – kitob meniki) tushunsalar ham, fikrlarini shakllantirib aytib berolmaydilar. O'qituvchi qisqa tushuntiradi:

– Tilda uchta shaxs mavjud:

I shaxs – so'zlovchi

II shaxs – tinglovchi

III shaxs – o'zga

Hozir men sizga so'zlayapman, tushuntiryapman, demak, **men** – so'zlovchi, hozir siz meni tinglayapsiz, demak, **siz (sen)** tinglovchi, hozir tinglashga qatnashmayotganlar ham bor, **u (ular)** – o'zga hisoblanadi. Siz otlar birlik va ko'plik sonda qo'llanishini bilasiz. Ma'lumki, biror narsa bir shaxsga yoki ikki va undan ortiq shaxsga tegishli bo'lishi mumkin. Mana shu ma'nolarni, ya'ni biror shaxs va narsaning birlik yoki ko'plikdagi uch shaxsdan biriga qarashli ekanini otga qo'shilgan egalik qo'shimchalari bildiradi. Masalan, ***kitobim*** so'ziga qo'shilgan **-im** qo'shimchasi kitobning I shaxsga taalluqli ekanini, ya'ni kitobing egasi I shaxs ekanini bildiradi **(-ing, -i** qo'shimchalari ham shunday tushuntiriladi). **Kitobimiz** so'zidagi *-imiz* qo'shimchasi kitob so'zlovchi shaxsga, shu bilan birga, ko'p shaxsga (ko'p so'zlovchiga) tegishli

www.ziyouz.com kutubxonasi

ekanini bildiradi (**-ingiz, -i** *qo'*shimchalari ham shunday tushuntiriladi). Qisqa xulosa chiqariladi: otlarga qo'shilgan mana shunday qo'shimchalar **egalik qo'shimchalari** deyiladi. Egalik qo'shimchalari tegishlilik, egalik ma'nosini bildiradi.

Egalik qo'shimchalari otlarga ikki variantda qo'shiladi. *Akam* va *kitobim, akang* va *kitobing, akasi* va *kitobi* kabi oxiri unli hamda undosh tovush bilan tugagan otlar so'z tarkibiga ko'ra tahlil qilinadi, qo'shimchalar taqqoslanadi, suhbat asosida xulosa chiqariladi: oxiri unli tovush bilan tugagan otlarga *-m, -ng, -si, -miz, -ngiz, -si* egalik qo'shimchalari, oxiri undosh tovushlar bilan tugagan otlarga *-im, -ing, -i, -imiz, -ingiz, -i* egalik qo'shimchalari qo'shiladi. Shundan so'ng o'quvchilar „Ona tili" darsligidagi qoidani o'rganadilar, jadvalni tahlil qiladilar.

O'quvchilarga egalik qo'shimchalari haqidagi ko'nikmani shakllantirish uchun matndan egalik qo'shimchasi bilan qo'llangan otni topish, uni tarkibiga ko'ra tahlil qilib, egalik qo'shimchasining shaxs-sonini aniqlash, matnda berilgan otga tushirib qoldirilgan egalik qo'shimchasini qo'shish, narsa qaysi shaxs yoki shaxslarga qarashli ekanini aytish kabi mashqlardan foydalaniladi.

Egalik qo'shimchasi ustida ishlash bu bilan tugamaydi. Otlarning kelishiklar bilan turlanishini o'rganish jarayonida egalik qo'shimchasi bilan qo'llangan ot qaratqich kelishigida kelgan boshqa ot bilan *(kitobning muqovasi, Rahimning kitobi),* kishilik olmoshlarining kelishiklar bilan turlanishini o'rganish jarayonida esa egalik qo'shimchasi bilan kelgan ot qaratqich kelishigidagi kishilik olmoshi bilan bog'lanib, so'z birikmasi hosil qilishi haqida bilim beriladi.

Otlarning kelishik qo'shimchalari bilan qo'llanishini o'rgatish. Kelishiklar sintaktik kategoriya hisoblanadi. Kelishik otlarning gapda boshqa so'zlar bilan munosabatini ifodalaydi. Demak, kelishiklarni o'rgatishda o'quvchilarning gapda so'zlarning bog'lanishini bilishlari nazarda tutiladi. Kelishiklar ustida ishlashni o'quvchilar gapda ma'no va grammatik tomondan bog'langan so'zlarni (so'z birikmalarini) ajratishga o'rganganlaridan so'ng boshlanadi. Kelishiklar ustida ishlash gapda so'zlarning bog'lanishi ustida ishlash hamdir. Kelishiklarni bilish uchun o'quvchi ot gapda qaysi so'z bilan bog'langanini aniq bilishi kerak. Ot gapda boshqa so'zlar bilan bog'langanda qo'shimchalar bilan o'zgarishi ancha oldindan kuzatib boriladi. Aslida o'quvchilar 1-sinfdayoq so'z shakllarining o'zgarishi bilan amaliy tanishadilar, ammo ular so'z shakli nimaligini hali bilmaydilar. O'quvchilar key-

www.ziyouz.com kutubxonasi

ingi sinfda shakl yasovchi (so'z o'zgartuvchi) qo'shimchalar bilan tanishadilar, bu qo'shimchalar gapda so'zlarni bog'lash uchun xizmat qilishini tushunadilar.

4-sinfda ot ustida ishlashning asosiy vazifasi fikr bayon qilishda otning kelishik shakllaridan ongli foydalanish va kelishik qo'shimchalarini to'g'ri yozishga o'rgatish hisoblanadi.

Bu sinfda ot quyidagi izchillikda o'rganiladi:

1) otlarning kelishiklar bilan turlanishi haqida tushuncha berish;

2) ko'plikdagi otlarning turlanishini o'rgatish;

3) har bir kelishikning xususiyatlarini alohida o'rganish va u bilan bog'liq holda kelishik qo'shimchalarining yozilishi haqida ko'nikma hosil qilish.

Otlarning kelishik qo'shimchalari bilan o'zgarishi – turlanish haqida tushuncha berish bilan o'quvchilarga kelishik qo'shimchalari gapda so'zlarni bog'lash uchun xizmat qilishi, o'zbek tilidagi olti kelishik, ularning nomi, so'roqlari, qo'shimchalari va joylashish tartibi tushuntiriladi.

O'quvchilar turlanish bilan kelishiklarning mohiyatidan kelib chiqib gapni tahlil qilish jarayonida tanishtiriladi, gapning asosi (ega va kesim) va so'z birikmalari ajratiladi. Ular gapda bir otning boshqa har xil so'zlar bilan shakl yasovchi qo'shimachalar *(ning, -ni, -ga, -da, -dan)* yordamida bog'lanishini kuzatadilar, bu qo'shimchalar kelishik qo'shimchalari ekanini, otlarning kelishik qo'shimchalari bilan o'zgarishi **turlanish** deyilishini bilib oladilar. Bolalarga kelishiklarning joylashish tartibi, so'roqlari va bosh kelishikdan boshqa kelishiklarning aniq qo'shimchalari mavjudligi darslikda berilgan jadval yordamida tushuntiriladi. Bosh kelishikdagi ot gapda ega vazifasida, boshqa kelishikdagi otlar esa ikkinchi darajali bo'lak vazifasida kelishi bilan ham tanishtiriladi.

O'quvchilar o'zlashtirgan grammatik bilimlarini imloni o'zlashtirishda foydalana olishlari uchun ishni bajarishda izchillikka katta ahamiyat beriladi. Bajarilgan ish yozib boriladi: o'quvchilar avval gapda ot bog'langan so'zdan shu otga savol beradilar va savolni qavs ichiga yozadilar; keyin so'roqqa qarab kelishikni aniqlaydilar. Masalan, *o'qidi* (nimani?) – kitobni, tushum kelishigi). Ular buni yaxshi o'zlashtirganlaridan so'ng, mashq tez bajariladi, yozish talab etilmaydi.

Ko'plikdagi otlarning turlanishini o'rganishda nutqda ko'plikdagi otlardan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini takomillashtirish maqsadi

www.ziyouz.com kutubxonasi

ko'zda tutiladi. O'quvchilar suhbat yordamida bosh kelishikdagi otning so'rog'ini va bitta shaxs, narsani bildirishini aytadilar, (nima? – *kitob,* kim? – *o'quvchi);* o'qituvchi agar shu ot ikki va undan ortiq, shaxs yoki narsani bildirsa, qanday so'roqqa javob bo'lishini, qaysi kelishikni bildirishini so'raydi, ular qiynalmay javob beradilar (nimalar? – *kitoblar,* kimlar? – *o'quvchilar).* Xulosa chiqariladi: ko'plikdagi otlar bosh kelishikda *nimalar?* yoki *kimlar?* so'rog'iga javob bo'ladi. O'quvchilar otlarning kelishiklar bilan turlanishi jadvalidan foydalanib, shu otlarni ko'plikda turlaydilar va ko'plik qo'shimchasi doim kelishik qo'shimchasidan oldin qo'shilishini, so'roqlarini bilib oladilar.

Har bir kelishikni alohida o'rganishning vazifasi kelishikni o'rganish bilan bog'liq holda kelishik qo'shimchalarining yozilishi haqidagi malakani shakllantirish va o'quvchilarning kelishiklar bilan turlangan otlardan ongli foydalanishlariga erishish hisoblanadi.

Kelishiklarni bilib olish maqsadida so'roqlardan foydalaniladi. Buning uchun o'quvchilar, birinchidan, so'roqni otning yakka o'ziga emas, balki gapda ot ma'no tomondan bog'langan so'zdan shu otga berishni o'rganishlari, ikkinchidan, kelishiklarning so'roqlarini yaxshi bilishlari zarur. Kelishiklarni o'zlashtirishda gapning asosini aniqlagach, gapda o'zaro bog'langan so'zlarni (so'z birikmalarini) belgilash, ot bog'langan so'zni topish, so'roq berib, qaysi kelishik bilan turlanganini, birlik yoki ko'plikda qo'llanganini aniqlash izchilligida ishni uyushtirish maqsadga muvofiq (Masalan, *Alisher Nodirni muzeyga taklif qildi.* Gap *Alisher* haqida aytilgan. (Kim?) *Alisher* – ega (bosh kelishikda, birlik); *Alisher* (nima qildi?) – *taklif qildi* – kesim; *taklif qildi* (kimni?) – *Nodirni* (ot, tushum kelishigida, birlik); *taklif qildi* (nimaga? yoki qayerga?) – *muzeyga* (ot, jo'nalish kelishigida, birlik).

Kelishiklarning xususiyatlarini o'rganishga qulaylik yaratish uchun har bir kelishikni quyidagi umumiy reja asosida o'rganish maqsadga muvofiq:

1. Kelishikning grammatik ma'nosi.
2. So'roqlari.
3. Qo'shimchasi.
4. Gapdagi vazifasi.

Kelishiklarni shu tarzda o'rganish ularni o'zaro taqqoslashni yengillashtiradi va ongli o'zlashtirishni ta'minlaydi.

Bir kelishik o'zining muhim belgilari (ma'nosi, so'rog'i, qo'shimchasi, sintaktik vazifasi) bilan boshqa kelishiklardan farqlanadi. Muayyan bir kelishikdagi otdan ongli foydalanish va kelishik

www.ziyouz.com kutubxonasi

qo'shimchalarini to'g'ri yozish uchun o'quvchilar kelishiklarning muhim belgilarini puxta o'zlashtirishi talab etiladi, shuning uchun ham kelishiklarning muhim belgilarini o'zlashtirib, bir kelishikni ikkinchisidan farqlash ko'nikmasini shakllantirishga katta o'rin beriladi.

Bosh kelishikning xususiyatlarini o'rganish bilan otning kelishik qo'shimchasi yo'q holati bosh kelishik ekani, bosh kelishikdagi ot boshqa so'zni o'ziga tobe qilishi, *kim?, kimlar?, nima?, nimalar?* so'roqlariga javob bo'lishi, gapda ega vazifasida kelishi haqida o'quvchilarda ko'nikma hosil qilinadi; lug'atlarda otlar bosh kelishik shaklida berilishi va bosh shakl hisoblanishi, ba'zan egalik qo'shimchasi olib qo'llanishi bilan tanishtiriladi.

O'quvchilar qaratqich va tushum kelishigini farqlashda qiynaladilar, bir qo'shimcha o'rniga ikkinchisini ishlatadilar. Bu kelishiklarning xususiyatlarini o'rganishda bunday qiyinchilikning oldini olish va o'quvchilarda kelishiklardan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini hosil qilish maqsadi ko'zda tutiladi. Bu maqsadga erishish uchun bu ikki kelishikning ma'nosi, so'roqlari, qo'shimchasi va gapdagi vazifasi taqqoslanadi va suhbat asosida xulosa chiqariladi.

Qaratqich kelishigida turlangan ot: 1) qarashlilik ma'nosini bildirib, gapda boshqa otga bog'lanadi, u bog'langan ot egalik qo'shimchasi bilan qo'llanadi *(o'quvchining daftari, gulning bargi* kabi); 2) *kim(lar)ning?, nima(lar)ning?,* ba'zan *qayerning?* so'roqlariga javob bo'ladi; 3) *-ning* qo'shimchasi bilan qo'llanadi; 4) gapda ikkinchi darajali bo'lak vazifasida keladi.

Tushum kelishigida turlangan ot: 1) harakatni o'ziga olgan shaxs, narsa ma'nosini bildiradi, gapda doim fe'lga bog'lanadi *(vazifani bajardim, kitobni o'qidi* kabi); 2) *kim(lar)ni?, nima(lar)ni?* ba'zan *qayerni?* so'roqlariga javob bo'ladi; 3) *-ni qo*'shimchasi bilan qo'llanadi; 4) gapda ikkinchi darajali bo'lak vazifasini bajaradi.

O'quvchilarning bu ikki kelishik qo'shimchasidan nutqda to'g'ri foydalanish va ularni to'g'ri yozish haqidagi bilimini takomillashtirish uchun gapda otning qaysi so'z bilan bog'langanini aniqlash, so'roqlar o'rniga gapning mazmuniga mos so'zni kelishik bilan turlab qo'yish, tushirib qoldirilgan kelishik qo'shimchalaridan mosini qo'yib ko'chirish, tanlab ko'chirish mashqlaridan, saylanma va eslatish diktantlaridan ko'proq foydalaniladi.

Boshlangich sinflar dasturiga ko'ra, o'quvchilarni qaratqich va tushum kelishigida otning belgisiz qo'llanishi bilan tanishtirish tavsiya etilmaydi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

O'quvchilar jo'nalish kelishigining xususiyatlari bilan tanishtirilgach, jo'nalish kelishigi qo'shimchasining yozilishi tushuntiriladi: a) oxiri jarangsiz undosh tovush bilan tugagan so'zlarga jo'nalish kelishigi qo'shimchasi *-ga* qo'shilganda talaffuzda *-ka* eshitilishi, ammo aslicha yozilishi *sinfga, ishga, Shavkatga* kabi so'zlarni tovush-harf tomonidan tahlil qilish bilan tushuntiriladi; b) o'quvchilar *„Mehnat yetkazar har tilakka"* kabi gapni o'qib, *tilak* so'zining o'zgarishini kuzatadilar; gapdagi *tilakka* bog'langan so'zni topadilar va shu so'zdan otga so'roq beradilar *(yetkazar* (nimaga?) *tilakka);* bu jo'nalish kelishigining so'rog'i ekanini aytadilar; *tilakka* so'zi so'z tarkibiga ko'ra tahlil qilinadi va *tilak* – o'zak, *-ka* qo'shimcha ekani aniqlanadi; so'ng u tovush-harf jihatidan tahlil qilinib, o'zakning oxiri *-k* undoshi bilan tugagani, qo'shimcha ham *k* undoshi bilan boshlanishi aniqlanadi. Suhbat usuli bilan xulosa chiqariladi: jo'nalish kelishigi qo'shimchasi oxiri *k* undoshi bilan tugagan otlarga *-ka* shaklida qo'shiladi. *„Baliq qarmoqqa ilindi"* gapidagi *qarmoqqa* so'zi ustida ham yuqoridagi kabi ishlanadi. Xulosani o'qituvchi rahbarligida o'quvchilarning o'zlari chiqaradilar: oxiri *q* undoshi bilan tugagan otlarga jo'nalish kelishigi qo'shimchasi *-qa* shaklida qo'shiladi.

O'quvchilar o'rin-payt kelishigining xususiyatlari bilan tanishtirilgach, *-da* kelishik qo'shimchasi *-ta* bo'lib eshitilsa ham, *-da* shaklida yozilishi tushuntiriladi. Ba'zi o'quvchilar o'rin-payt kelishigi o'rniga jo'nalish kelishigi qo'shimchasini ishlatib, xatoga yo'l qo'yadilar. Bunday xatoning oldini olish uchun o'quvchilar bilan fe'ldan jo'nalish va o'rin-payt kelishigida qo'llangan otga so'roq berib, so'z birikmasini topishni ko'proq mashq qilish va kelishiklarning so'rog'i va ma'nosiga qarab farqlashga o'rgatiladi. Masalan, *bordi* (qayerga?) – maktabga, *bo'ldi* (qayerda?) – maktabda; *oldim* (kimga?) – ukamga, *ko'rdim* (kimda?) – ukamda.

O'quvchilar chiqish kelishigining xususiyatlari bilan ham reja asosida tanishtirilib, ularga kelishik qo'shimchasining yozilishi tushuntiriladi.

Kelishiklar haqidagi malakani shakllantirish ustida ishlashning samaraliligini ta'minlaydigan shartlar, birinchidan, maqsadga muvofiq mashq tanlash, mashq materialini asta murakkablashtirib borish bilan o'quvchilarning mustaqqlligini oshirish, ikkinchidan, imloni grammatik bilimni takomillashtirib borish va o'quvchilarning nutqini o'stirish bilan bog'lab o'rgatishdir.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Shunday qilib, boshlang'ich sinflarda ot yaxlit holda o'rganiladi va uni o'rganish o'quvchilar shu so'z turkumining belgilarini, vazifasini o'zlashtirishiga, shuningdek, ularda kelishik qo'shimchalarini to'g'ri yozish ko'nikmasini shakllantirishga qaratiladi.

SIFATNI O'RGANISH METODIKASI

Sifatni o'rganish tizimi materialni leksik va grammatik tomondan izchillik bilan boyitib, murakkablashtirib borishni ko'zda tutadi. O'quvchilar 1- va 2-sinfda sifatning leksik ma'nosini kuzatadilar, sifatga *qanday?, qanaqa?* so'rog'ini berishga o'rganadilar; 3-sinfda sifat so'z turkumi sifatida o'rganiladi; 4-sinfda ilgari o'rganilganlar takrorlanib, grammatik materialga bog'liq holda *qip-qizil, yam-yashil* kabi orttirma darajadagi (atama aytilmaydi) sifatlarning yozilishi o'rgatiladi. Ona tili va o'qish darslarida o'quvchilar nutqi yangi-yangi sifatlar bilan boyitiladi, ularga oldindan ma'lum bo'lgan sifatlarning ma'nosiga aniqlik kiritiladi.

Sifatni o'rganish metodikasi uning lingvistik xususiyatlariga asoslanadi. Sifat predmetning belgisi (rangi, hajmi, shakli va ko'rinishi, maza-ta'mi, xarakter-xususiyati, hidi, vazni, o'rin va paytga munosabati)ni bildiradi. Sifatning leksik ma'nosi uni ot bilan bog'liq holda o'rganishni talab qiladi. Sifatni tushunish uchun 1-sinfdanoq o'quvchilar e'tibori sifatning otga bog'lanishini aniqlashga qaratiladi. O'quvchilar predmetning belgisini aytadilar, ularda so'roq yordamida gapda so'zlarning bog'lanishini aniqlash ko'nikmasi o'stiriladi, ya'ni ular gapdagi sifat va otdan tuzilgan so'z birikmasini ajratadilar (atama aytilmaydi). Keyingi sinflarda bu bog'liqlik aniqlashtiriladi. Shunday qilib, sifatning semantik-grammatik xususiyatlari sifat ustida ishlashni leksik va grammatik (morfologik va sintaktik) yo'nalishda olib borishni talab etadi.

Boshlang'ich sinflarda „Sifat" mavzusi quyidagi izchillikda o'rganiladi: 1) sifat bilan dastlabki tanishtirish (1-, 2-sinf); 2) sifat haqida tushuncha berish (3-sinf); 3) shu grammatik mavzu bilan bog'liq holda ayrim sifatlarning yozilishini o'zlashtirish (4-sinf).

Sifat bilan (atamasiz) dastlabki tanishtirish **(birinchi bosqich)** sifatning leksik ma'nosi va so'roqlari ustida kuzatish o'tkazishdan boshlanadi. Predmetning belgilari xilma-xil bo'lib, uni rangi, mazasi, shakli, xil-xususiyatlari tomonidan tavsiflaydi. Shunday ekan, sifat tushunchasini shakllantirish uchun uning ma'nolarini aniqlash talab etiladi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

O'qituvchi predmetni yoki uning rasmini ko'rsatadi, o'quvchilar uning belgilarini aytadilar va yozadilar. Masalan, *(qanday?)* olma – *qizil, shirin, yumaloq olma; (qanday?)* ip – *uzun, ko'k ip.* Albatta, suhbat asosida o'quvchilar olma, ip so'zlari *nima?* so'rog'iga javob bo'lib, predmet nomini bildirishi, *qizil, shirin, yumaloq* kabi so'zlar *qanday?* so'rog'iga javob bo'lib, predmetning belgisi (rangi, mazasi, shakli) ni bildirishini aniqlaydilar. O'qituvchi atrofimizni o'rab olgan predmetlarning o'z belgilari borligini, ular bir-biridan shu belgilar bilan farqlanishini yana bir-ikki misol bilan tushuntiradi (*Qanday?* daraxt – *Katta, chiroyli, sershox, ko'm-ko'k daraxt. Qanaqa?* shkaf – *Oynali, baland shkaf).* Xulosa chiqariladi: *qanday?, qanaqa?* so'roqlariga javob bo'lgan so'zlar predmet belgisini bildiradi.

O'quvchilar belgi bildirgan bunday so'zlarning nutqimizdagi ahamiyatini anglashlari uchun sifat ko'p uchraydigan matn tanlanib, avval sifatlarini tushirib qoldirib, so'ngra sifatlari bilan o'qib beriladi va mazmuni taqqoslab ko'rsatiladi. Predmetni aniq tasvirlash uchun uning belgisini bildiradigan so'zlardan foydalanilgani tushuntiriladi. Bu darslarda ko'rgazma vositalar (predmetlar, predmet rasmlari, sujetli rasmlar)dan keng foydalaniladi.

O'quvchilar *qanday?, qanaqa?* so'roqlariga javob bo'lgan (predmet belgisini bildirgan) so'zlarni o'zlashtirishlari uchun mashqning quyidagi turlari samarali hisoblanadi: 1) so'roq yordamida predmetning belgisini bildirgan so'zlarni tanlash; 2) aralash berilgan so'zlardan gap tuzish; 3) matndan *kim?* yoki *nima?* so'rog'iga javob bo'lgan so'zni va unga bog'langan *qanday?* va *qanaqa?* so'rog'iga javob bo'lgan so'zni tanlab (so'z birikmasini topib) aytish va yozish; 4) tayanch so'zlar va rasm asosida gap yoki kichik hikoya tuzish.

Ikkinchi bosqichda asosan ikki vazifa: „Sifat" tushunchasini shakllantirish hamda o'quvchilar nutqini yangi sifatlar bilan boyitib borish, fikrni aniq ifodalash uchun mazmunga mos sifatlardan nutqda o'rinli foydalanish ko'nikmasini o'stirish hal qilinadi.

„Sifat" tushunchasini shakllantirish o'quvchilarning „predmet belgisi" degan umumlashtirilgan kategoriyani o'zlashtirish darajasiga bevosita bog'liq. Shu maqsadda rang, maza, shakl, hajm, xil-xususiyat bildiradigan so'zlar guruhlanadi va shu so'zlarning xususiyatlari umumlashtiriladi. Sifatning leksik ma'nosi bilan birga uning xarakterli grammatik xususiyatlari ham qayd etiladi. Sifatlarning xususiyatlarini umumlashtirish asosida o'quvchilar uning so'z turkumi sifatidagi o'ziga xos ko'rsatkichlarini ajratadilar: a) predmet belgisini bildiradi,

www.ziyouz.com kutubxonasi

b) *qanday?* yoki *qanaqa?* so'rog'iga javob bo'ladi, d) gapda otga bog'lanib, shu ot bilan so'z birikmasi hosil qiladi, ikkinchi darajali bo'lak vazifasida keladi.

Bu sinfda og'zaki va yozma ijodiy ishlar (maktab bog'i yoki parkka ekskursiya vaqtida kuzatilgan daraxt, qushlar, hayvonlarni tasvirlab kichik hikoya tuzish kabilar)ga katta o'rin beriladi.

O'quvchilarning sifatning leksik ma'nosi haqidagi tushunchalarini chuqurlashtirish va predmetni har tomonlama tasvirlash malakasini o'stirish uchun: 1) berilgan predmetlarning rangi, mazasi, shakli, xususiyatini ifodalaydigan sifatlar tanlash va yozish: *Qanday?* shaftoli — *Shirin, suvli, tuksiz shaftoli. Qanday?* kitob *Qalin, qiziqarli kitob;* 2) berilgan belgilariga qarab qaysi hayvon ekanini aniqlash: *Tikanli, kichkina, foydali ...* (tipratikan). *Ehtiyotkor, ayyor, yovvoyi ...* (tulki); 3) predmetlarning belgisiga qarab topishmoqlarning javobini aytish kabi mashqlardan foydalanish mumkin.

Sifatning nutqimizdagi, fikrni aniq va tushunarli ifolashdagi o'rnini puxta o'zlashtirishga erishish uchun ma'nodosh va zid ma'noli sifatlar ustida ishlash, o'qish darslarida sifatning o'z va ko'chma ma'noda ishlatilishini kuzatish maqsadga muvofiq. Sifatni o'rganish jarayonida so'z yasashga oid mashqlarni muntazam o'tkazib borish o'quvchilarda u yoki bu so'z turkumini yasash uchun so'z yasovchi qo'shimchalardan ongli foydalanish malakasini shakllantiradi.

Uchinchi bosqichda sifat haqidagi bilimlarni takomillashtirish, og'zaki va yozma nutqda sifatlardan aniq, o'rinli foydalanish ko'nikmasini o'stirish bilan bog'liq holda *-roq* qo'shimchasi bilan qo'llangan sifatlarni va *ko'm-ko'k, yam-yashil* kabi sifatlarni to'g'ri yozish malakasi shakllantiriladi. Ish mazmuni shu vazifalarni bajarishga qarab belgilanadi va o'quvchilar nutqini o'stirishga qaratiladi.

Nazariy ma'lumotlarga asoslanib: matnda berilgan otlarning belgilarini ifodalaydigan sifatlarni tanlab qo'yish, gapda sifat bog'langan otni (so'z birikmasini) aniqlab yozish; otga mos sifatlar tanlab predmetni tasvirlash, berilgan sifatlar yoki so'z birikmasi bilan gap tuzish kabi mashqlardan foydalaniladi. Mashq materialini tanlashda *-roq* qo'shimchasi bilan qo'llangan *yaxshiroq, aqlliroq* kabi, shuningdek, *tip-tiniq, sap-sariq* kabi sifatlar ko'proq bo'lishiga e'tibor beriladi. O'quvchilarning mustaqilligi osha borgan sayin mashq topshiriqlari ham asta-sekin murakkablashtira boriladi. Shunday qilib, sifatni o'zlashtirishda uni ot bilan o'zaro bog'liq holda o'rganishga asoslaniladi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

SONNI O'RGANISH METODIKASI

„Son"ni o'rganish tizimi ham son haqidagi materialni leksik va grammatik tomondan sinfdan-sinfga o'tgan sayin boyitib, murakkablashtirib borishni nazarda tutadi.

Boshlang'ich ta'limda son uch yo'nalishda o'rganiladi:

1. Sonlarning talaffuzi va ma'nosi ustida ishlash.
2. Sonning grammatik shakllari ustida ishlash.
3. Sonlarning imlosi ustida ishlash.

Son boshlang'ich sinflarda quyidagi izchillikda o'rganiladi:

– 2-sinfda nechta?, qancha? so'roqlariga javob bo'lib, shaxs va narsaning sanog'ini, nechanchi? so'rog'iga javob bo'lib, shaxs va narsaning tartibini bildirishi;

– 3-sinfda „Son – so'z turkumi" tushunchasi kiritiladi. O'quvchilarda son predmetning miqdorini bildirishini otga bog'lanib kelishi yordamida aniqlash ko'nikmasi o'stiriladi. Bularni o'rganishda sonning leksik xususiyatlariga asoslaniladi. Sonning leksik ma'nosi uni ot bilan bog'liq holda o'rganishni taqozo etadi.

– 4-sinfda sanoq va tartib sonlar, tartib sonlarning harf, rim va arab raqamlari bilan yozilishi, qo'sh undoshli sonlarning, grammatik shakllangan sonlarning (ikkov, o'ntacha, beshtadan) imlosi, sonlarning gramm, kilogramm, metr, litr, so'm, tiyin so'zlari bilan qo'llanishi va shu so'z bilan bitta so'roqqa javob bo'lishi o'rganiladi. O'quvchilarning sonlarni otga bog'lanishi, so'roqlar yordamida sonni o'zi bog'langan so'z bilan ko'chirish ko'nikmalari o'stiriladi.

Shunday qilib, sonning leksik-semantik va grammatik xususiyati uni leksik va grammatik aspektda o'rganishni taqozo etadi. Son grammatika va imlo o'qitishdagi suhbat metodida, yarim izlanishli muammoli metodda, analitik (tahlil), sintetik (tarkib), induktiv metodlarda o'rganiladi. Bu metodlar son yuzasidan beriladigan tushunchalarning mohiyatiga, o'quvchilarning tayyorgarlik darajasiga bog'liq holda tanlanadi. Agar o'quvchi son haqida ma'lum darajada bilimga ega bo'lsa, yarim izlanishli muammoli metod yoki suhbat metodidan; agar bola son haqida umuman tushunchaga ega bo'lmasa, induktiv va analiz metodlaridan foydalaniladi.

„Son" ustida ishlash dastur talabiga ko'ra 1-sinfdan boshlansa ham, uni o'rganish jarayoni, metodik jihatdan 4 bosqichga bo'linadi. „Son" boshlang'ich ta'limda elementar nazariy tushunchalar asosida amaliy o'rganiladi. Lekin **1-bosqich**ni to'liq ma'noda sonni amaliy

www.ziyouz.com kutubxonasi

o'rganish bosqichi deb nomlaymiz. Chunki bu bosqichda umuman nazariyasiz son ustida ishlanadi va bu 1-sinfning savod o'rgatish va 1-sinfning 2-yarmiga to'g'ri keladi. Bu bosqich sonni o'rganuvchi keyingi bosqichlarga zamin tayyorlaydi.

Ma'lumki, savod o'rgatish davrida o'quvchilar bilan kundalik ishlar, rasmlar, predmetlar, mavzular yuzasidan og'zaki savol-javoblar o'tkaziladi. Masalan: „Bugun nechanchi sana? Biz nechanchi asrda yashayapmiz? Bu yil nechanchi yil? Darsga nechta o'quvchi kelmadi? Bir yil necha faslga bo'linadi? Yilning birinchi fasli qaysi?" yoki mantiqiy mashqlar ishlash bilan bog'liq holda: „Xonadoningizda nechta uy hayvoni bor? Nechta yovvoyi hayvon nomini bilasiz?" kabi.

Mavzular bilan bog'liq holda, „Oila" mavzusida: „Oilangizda nechta kishi yashaydi? Nechta akangiz (yo ukangiz, yoki opa-singlingiz) bor? Siz oilada nechanchi farzandsiz? Nechanchi yilda tug'ilgansiz? Hozir nechanchi sinfda o'qiyapsiz?" yoki **O** tovushi va **O o** harfi bilan tanishtirishda: Osmonda nechta oy bor?, Nechta yulduz bor? (Bolani o'ylashga majbur qiladi), Nechta yulduzning nomini bilasiz?" kabi.

1-sinfning ikkinchi yarmida mashq ishlash paytida „Gapda nechta ***kim?*** so'rog'iga javob bo'lgan so'z bor? Nechta unli bor? Nechta undosh bor? Berilgan so'z nechta bo'g'inga bo'linadi?" kabi savollarga javob olinadi.

Bu bosqichda aralash berilgan so'zlardan gap tuzdirish, mashq matnidan gaplar sonini, gapda so'zlar sonini, so'zdagi bo'g'in yoki tovush sonini aniqlatish, ba'zan tahlilni yozma tarzda bajarish (5ta unli bor, beshta bo'g'in bor) kabi mashq turlari qo'llaniladi. Bunda „Predmet (nomi)ga bog'lanib kelgan so'zga so'roq berib ko'r-chi? U nimani bildiryapti?" kabi savollardan foydalaniladi.

2-bosqich 2-sinfga to'g'ri keladi. Bu bosqichda asosan ikki vazifa bajariladi:

1. *Nechta?, qancha?* so'roqlariga javob bo'lib, shaxs va narsalarning sanog'ini: *nechanchi?* so'rog'iga javob bo'lib, shaxs va narsalar tartibini bildirgan so'zlar haqida elementar nazariy tushunchani shakllantirish;

2. Sonlarga so'roq bera olish, ularning nimani bildirishini ayta olish, ulardan foydalanib o'z fikrini aniq ifodalash, mazmunga mos holda sonlarni o'rinli qo'llash (*o'nta o'quvchi, o'ntacha o'quvchi* kabi) ko'nikmasini o'stirish, lug'atlardan foydalana olish qobiliyatini shakllantirish.

Bu bilim va ko'nikmalar mashqlar bajarish bilan mustahkamlab boriladi. Dastlabki mashqlar tayyor materialdan sonni aniqlashga va

www.ziyouz.com kutubxonasi

izohlashga qaratiladi, keyingi mashqlar esa fikrni va izlanishni talab etadi. Mashqlar muayyan izchillikda bir tizimni tashkil etishi lozim:

1. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga *nechta?, qancha?* so'roqlaridan birini bering, shu so'z nimani bildirayotganini ayting.

2. Ajratib ko'rsatilgan so'zga so'roq bering, nimani bildirishini ayting.

3. Sanoq (yoki tartib) bildirgan so'zlarni nechta?, qancha? so'roqlari yordamida aniqlang.

4. Sanoq bildirgan so'zlarni so'roqlar yordamida aniqlang.

5. Tartib bildirgan sonlarni nechanchi? so'rog'i yordamida aniqlang.

6. Nuqtalar o'rniga so'roqlarga mos so'n qo'yib o'qing.

7. Rasm asosida (matnni qayta hikoyalash asosida) bog'lanishli nutq tuzing. Unda sanoq, tartib bildiruvchi so'zlardan foydalaning.

Mashqda qo'llanilgan sonlarning talaffuzi, imlosi va ma'nosi ustida ishlanadi. Ko'rinib turibdiki, mashq shartlari soddadan murakkabga tamoyiliga asoslangan.

3-bosqichda (3-sinf) „Son" tushunchasini shakllantirish hamda o'quvchilar nutqini yangi sonlar bilan boyitib borish, fikrini aniq ifodalash uchun gap va matn mazmuniga mos sonlar tanlash, ularni o'rinli qo'llash ko'nikmasi o'stiriladi.

„Son" tushunchasini shakllantirish o'quvchilarning shaxs va narsalarning sanog'ini, tartibini bildirgan so'zlar kategoriyalarini o'zlashtirish sifatiga bog'liq.

O'quvchilar bilimini yetarli darajaga keltirish maqsadida sonlar ishtirok etgan gapiar asosida kuzatish, aniqlash, guruhlash va umumlashtirish faoliyati ishga solinadi. Masalan: „Ma'rifat xonasiga o'quvchilar keldilar. Ikkita o'quvchi 2-sinfda o'qiydi. 4 ta o'quvchi 3-sinfda o'qiydi".

O'quvchilar o'qituvchining topshirig'i asosida *ikkita* (nechta?), *to'rtta* (nechta?) so'zlari sanoq, *ikkinchi, uchinchi* (nechanchi?) so'zlari tartib bildirayotganini aniqlaydilar va ularni guruhlaydilar (sanoq bildiruvchi so'zlar, tartib bildiruvchi so'zlar). Shuning ichida umumlashtirish ham amalga oshiriladi. Sonning leksik ma'nolari bilan uning grammatik xususiyatlari ham qayd etiladi: narsa, shaxs bildirgan so'zlarga bog'lanib keladi, tartib bildirgan so'z *-nchi, -inchi* qo'shimchasini oladi va hokazo.

„Son – so'z turkumi" sifatida unga xos bo'lgan quyidagi xususiyatlar ajratiladi: a) shaxs; b) narsalarning sanog'ini, tartibini bildiradi va

www.ziyouz.com kutubxonasi

nechta?, qancha?, nechanchi? so'roqlariga javob bo'ladi; d) gapda otga bog'lanib keladi; e) gapda ikkinchi darajali bo'lak vazifasida keladi.

Bu bosqichda og'zaki va yozma shakldagi ijodiy yozma ishlar (tabiat, yil fasllari, qushlar, hayvonlar, o'simliklar haqida kichik hikoya tuzish) o'tkaziladi, o'quvchilarning sonlardan o'rinli va savodli foydalanishlariga diqqat qaratiladi. Son bilan shakldosh so'zlar o'quvchilarga aniqlatiladi, ma'nosi izohlatiladi: *uch-uch, yuz-yuz, qirq-qirq* kabi.

4-bosqichda eng asosiy e'tibor sonlarning imlosiga qaratiladi, ya'ni sonlarning har bir qismini alohida yozish (yetti, yigirma yetti), chiziqchasiz va chiziqcha bilan yozish *(7 o'quvchi, 7-sinf, X sessiya, 8-dekabr, 1992-yil),* qo'shimcha qo'shilgandan keyin son o'zagidagi o'zgarishlarni yozuvda to'g'ri ifodalash *(ikki+ov=ikkov, yetti+ov=yettov, ikki+ala=ikkala),* qo'sh undoshli sonlarning yozilishi *(ikki, yetti, sakkiz, o'ttiz),* sonlarning *gramm, kilogramm, metr, litr* so'zlari bilan qo'llanishi yangi bilim sifatida o'rgatiladi. Sonning 3-bosqichda o'rganilgan grammatik xususiyatlari bu bosqichda asosan mustahkamlanadi.

Metodik ishlar mazmuni shu vazifalarni bajarishga qarab belgilanadi. Gap yoki matnni o'rganishda, chiziqchalar o'rniga mos sonlarni qo'yib o'qish, gap tuzishda maqollar, topishmoq; matn tuzishda ertaklardan foydalanish tavsiya etiladi. Masalan:

_____ *o'lchab,* _____ *kes.*
_____ *yigitga* _____ *hunar oz.*
_____ *ketib,* _____ *qoldi.*
Bir mayizni _____ *bo'lib yemoq.*
Pak-pakana bo'yi bor, _____ *qavat to'ni bor* va hokazo.

Sonlarni miqdor bildiruvchi so'zlar bilan almashtirish: 100 ta – ancha ko'p, 2 ta – kam, oz. Ularni ifodalashdagi farqni aniqlatish: ikki raqam bilan yoziladi, kam, oz so'zlarini raqam bilan yozib bo'lmaydi.

Sonlarning imlosiga doir mashqlarda raqamlarni harflar bilan ifodalash (2, 7, 8, 9, 11 – ikki...: 2+ov, 7+ala, 6+ov; 10 gramm, 100 so'm, o'n so'm...), harflar bilan yozilgan sonlarni raqamlar bilan (arab va rim) ifodalash (yetti o'quvchi, beshinchi sinf, ikki ming birinchi yil, o'n to'rtinchi yanvar, 5-sinf, V sinf, 7 o'quvchi...) kabi topshiriqlardan foydalaniladi. Mashqlar asta-sekin murakkablashtirib boriladi.

Boshlang'ich sinflarda sonni o'rgatish ot bilan bog'liq holda amalga oshiriladi. Sonning ot bilan bog'lanishi asosida o'quvchilar ko'p ma'lumotlarni ham egallaydilar.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Sonni o'rganish yakunida o'quvchilar quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlari lozim:

1. Sonning sanoq va tartib ma'nolarini bildirishini.
2. Son nechta?, qancha?, nechanchi? so'roqlariga javob bo'lishini.
3. Son otga bog'lanib kelishini.
4. Son gapda ikkinchi darajali bo'lak vazifasida kelishini.
5. Sonlarni imlo jihatdan to'g'ri yozishni.
6. Og'zaki va yozma nutqda sonlardan to'g'ri va o'rinli foydalana olishni.
7. Sonlarga shakldosh so'zlar topishni.
8. Matndagi sonlarni boshqa miqdor bildiruvchi so'zlar bilan almashtirishni.

Har bir grammatik mavzu bir necha darsda o'rganiladi. Shuning o'ziyoq o'qituvchilardan har bir darsda o'rganiladigan grammatik material tabiatidan kelib chiqib metod, usul va ish turlarini belgilab olishni, muayyan darslikdan kelib chiqib, darsning texnologik xaritasini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Yangi grammatik materialni o'rganish darsining qurilishi 2-sinfda „Sanoq va tartib bildirgan so'zlar" mavzusi misolida quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Yangi grammatik materialni o'zlashtirishni ta'minlash, o'quvchilarning oldingi bilimlarini aniqlash. Masalan, sanoq va tartib bildirgan so'zlarni o'rganish uchun „Biz qaysi so'zlarga so'roq berishni o'rgandik?" (shaxs va narsa, belgi bildirgan so'zlarga), „Kim?, nima? so'roqlari qaysi so'zlarga beriladi?", „Qanday?, qanaqa? so'roqlarichi?" kabi savollardan foydalanish mumkin.

Sinf xattaxtasiga *„Tok ko'chati o'tqazilgandan keyin uchinchi yili hosilga kiradi"* gapi yoziladi. O'quvchilar yuqoridagi savollar asosida narsa bildiruvchi so'zlarni belgilaydilar:

Nima? – tok
Nima? – ko'chat
Nima? – hosil
Nima? – yil

Bu savol-javob yangi materialni ongli o'zlashtirishga o'quvchini tayyorlaydi

2. O'quvchilarga bajariladigan ishlarning maqsadi e'lon qilinadi:

– Biz siz bilan gapdagi so'zlarga so'roq berishni va shu so'zning nimani bildirishini bilib oldik. Biz tahlil qilgan gaplarda ba'zi so'zlar qolib ketdi. Bu darsda biz shu so'zlarga so'roq berib, nimani bildi-

www.ziyouz.com kutubxonasi

rishini aniqlaymiz (*„uchinchi“* so'zining tagiga chizib ko'rsatiladi, qolgan so'zlarni ham keyin o'rganishlari aytiladi).

3. Yangi grammatik materialni tushuntirish. Yangi material tanlangan gaplarni grammatik tahlil qilish va xulosa chiqarish yo'li bilan tushuntiriladi. Tushuntirish izchil olib boriladigan ikkita ishdan iborat:

a) matn (ichki) tahlili: agar mavzu keng tushuntirishni taqozo etmasa, birinchi misolni tahlil qilish bilanoq xulosa aytib qo'ya qolinadi. Sanoq va tartib bildirgan so'zlar xuddi shunga to'g'ri keladi.

Keng va bir qancha muhim belgilarga ega bo'lgan grammatik material tushuntirilsa, unda bir nechta misol tahlil qilingach, xulosa chiqariladi (so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalar, o'zakdosh so'zlar).

Sinf xattaxtasidagi misol yoniga yana gaplar yoziladi: *„Ekilgan tokdan yuz kilogrammgacha uzum hosili olinadi“.*

O'qituvchi: – Birinchi gapda *yil* so'zi orqali *uchinchi* so'ziga so'roq bering (nechanchi yili?). *Uchinchi* so'zi qaysi so'roqqa javob bo'lyapti? (nechanchi?) Yilning nimasini bildiryapti? Belgisini bildiryaptimi? (yo'q).

Bolalar javob berolmaydi.

O'qituvchi sinf xattaxtasiga quyidagi birikmalarni yozadi:

birinchi yili
uchinchi yili
ikkinchi yili

– *Tartib bo'yicha qaysi oldin turadi?* (1) birinchi yili; 2) ikkinchi yili; 3) uchinchi yili) *Ko'rdingizmi, 1-, 2-, 3- yilning, narsaning (predmetning) tartibini bildiryapti.*

– *Siz nechanchi sinfda o'qiysiz?* (2-sinfda)

– *Siz qaysi sinfdan keyin turasiz?* (1-sinfdan)

Bu jarayonda stol ustiga predmetlarni qo'yib, ularning tartibini aniqlatish mumkin.

Bu so'zlar narsalarning tartibini bildirib, nechanchi? so'rog'iga javob bo'ladi, narsa, shaxs bildirgan so'zlarga bog'lanib keladi:

Strelka bilan ko'rsatiladi:

uchinchi yili → *ikkinchi yili* →

Ikkinchi gap tahlili orqali sanoq bildirayotgan so'zning so'roqlari, u bog'lanib kelayotgan so'z aniqlanadi:

qancha? →

yuz kilogramm uzum

www.ziyouz.com kutubxonasi

Yuz so'zi sanoq bildiryapti, *kilogramm* so'zi bilan birga *qancha?* so'rog'iga javob bo'lyapti, *uzum* so'ziga, ya'ni narsa bildirgan so'zga bog'lanyapti.

b) xulosani shakllantirish: xulosa ba'zan o'quvchilar tomonidan, ba'zan o'qituvchi tomonidan shakllantiriladi. Uzoq muddatli tahlil va tushuntirishdan so'ng xulosani ta'rifini ko'pincha o'quvchilar shakllantiradi, yasaydi. Bu mavzuda o'qituvchi quyidagicha xulosa yasaydi: ***Nechta?, qancha?*** *so'rog'iga javob bo'lgan so'zlar sanoqni,* ***nechanchi?*** *so'rog'iga javob bo'lgan so'zlar tartibni bildiradi.*

FE'LNI O'RGANISH METODIKASI

Fe'l ustida ishlashda izchillik, bo'limlar orasidagi bog'lanish, dastur materialining hajmi, uni har bir sinfda o'rganish usullari va vositalari shu so'z turkumini o'rganish vazifasi, uning lingvistik xususiyatlari va kichik yoshdagi o'quvchilarning bilish imkoniyatlariga qarab belgilanadi.

„Fe'l" mavzusini o'rganishda asosiy vazifalar: so'z turkumi sifatida fe'l haqida dastlabki tushunchani shakllantirish, o'quvchilar nutqini fe'llar bilan boyitish hamda og'zaki va yozma nutqda fe'ldan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini o'stirish, o'quvchilarning aqliy faoliyatini rivojlantirish, grammatik mavzu bilan bog'liq holda ayrim imloviy qoidalarni o'zlashtirish hisoblanadi. Bu vazifalar bir-biri bilan bog'liq holda hal etiladi.

Fe'lning lingvistik xususiyatlari xiyla murakkab, shuning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilari faqat uning muhim nazariyalari bilan tanishtiriladi. Material tanlashda shu materialning nutq va imloga oid vazifalarni hal qilishda qanchalik zarurligi hisobga olinadi.

Fe'lni o'rganishda izchillik. ***1-sinfda fe'l ustida ishlash.*** Fe'l ustida ishlashga tayyorgarlik savodga o'rgatish davrida boshlanadi. Bu davrda o'quvchilarning diqqati fe'lning leksik ma'nosiga qaratiladi; fe'l uchun tipik hisoblangan leksik ma'nosiga qaratiladi; fe'l uchun tipik hisoblangan leksik-grammatik ma'noni, ya'ni predmetning harakatini bildirishni umumlashtirish imkonini beradigan aniq material yig'iladi. Fe'l ustida ishlash mashqlarini „Alifbe"dagi so'z va mashqlarni o'qish, rasmga qarab gap tuzish bilan bog'lab o'tkaziladi. Bunda o'qituvchi o'quvchilar gap tuzishda mazmunga mos fe'lni topishga, so'z nimani bildirishini va qanday so'roqqa javob bo'lishini aniqlashga yordam beradigan sharoit yaratadi. Masalan, bolalar kuzda meva va sabzavotlarni,

www.ziyouz.com kutubxonasi

daraxtlarni kuzatib yoki rasmlarni ko'rib, gapni mazmunga mos so'zlar bilan to'ldiradilar: *Kuzda mevalar* nima qiladi?... (pishadi), *sabzavotlar* nima qiladi?... (yetiladi), *daraxt barglari* nima qiladi?... (sarg'ayadi). *Bolalar* nima qilyaptilar?... (dam olyaptilar), ...(o'ynayaptilar), ... (ishlayaptilar).

Fe'lni o'rganishda maqsadga qaratilgan ishlar harakatni bildirgan so'zlar mavzusini o'rganishdan boshlanadi (1-sinf, o'quv yilining 2-yarmi). Fe'l leksik ma'nosi bilan grammatik ma'nosi (harakat bildirishi) mos keladigan (nima qilyapti?) *yugurayapti, arralayapti, sakrayapti,* (nima qildi?) *yugurdi, arraladi, sakradi,* (nima qiladi?) *yuguradi, arralaydi, sakraydi* kabi misollardan foydalanish bilan, o'quvchilar o'zlari bajargan harakatlarni aytishni so'rab, ular bergan javobini (fe'lni) so'roqlari bilan xattaxtaga yozib, suhbat o'tkazish bilan tushuntiriladi. O'quvchilarni so'roq berish bilan holat bildiradigan *uxlayapti, o'ynayapti, faxrlanadi* kabi fe'llarni ham tanlashga o'rgatib borish muhim ahamiyatga ega. Bunday mashqlar o'quvchilarda predmet harakatini keng ma'noda tushunish ko'nikmasining shakllana borishiga yordam beradi.

Dastur o'quvchilarda so'zlarga so'roq berib, ularni bir-biridan farqlash ko'nikmasini shakllantirishni talab etadi. Buning uchun o'qituvchi fe'lning har xil shakllaridan foydalanib, maxsus mashqlar o'tkazadi. *Nima?* so'rog'iga javob bo'lgan so'z bilan *nima qildi? (nima qilyapti?, nima qiladi?)* so'rog'iga javob bo'lgan so'zlar taqqoslanadi: nima? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlar guruhi predmetni bildirishi, nima qildi? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlar esa predmet harakatini bildirishi aniqlanadi. Taqqoslash ot va fe'lni ajratishga o'rgatadi, ularning nutqda bir-biriga ta'sir etishini aniqlashga imkon beradi.

Fe'lga so'roq berishga o'rgatish yuzaki bo'lmasligi, o'quvchilar harakat bir kishi tomonidan bajarilsa, *nima qildi?, nima qilyapti?, nima qilmoqchi?* so'roqlarini, ikki va undan ortiq kishi tomonidan bajarilsa, *nima qildilar?, nima qilyaptilar?, nima qilmoqchilar?* so'roqlarini berishni bilishlari zarur. Bunday so'roqlarga javob berishga o'rgatish o'z navbatida, fe'l zamonlarini o'rganishga tayyorlash demakdir.

1-sinfda morfologik so'roq so'z nimani bildirishini aniqlash maqsadida beriladi. O'quvchilarni so'zga so'roq berishga, o'qituvchi bergan so'rog'iga javob bo'ladigan so'zlarni tanlashga, so'zni so'roqqa mos ravishda o'zgartirishga (*nima qildi?* – o'qidi, *nima qilamiz?* – o'qiymiz, *nima qilmoqchi?* – o'qimoqchi kabi) o'rgatiladi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

2–3-sinflarda fe'lni o'rganish. Bu bosqichning asosiy vazifasi „Fe'l – so'z turkumi" degan tushunchani shakllantirish, bo'lishli va bo'lishsiz fe'llarning ma'nosi va shakliga qarab farqlash ko'nikmasini hosil qilish, bo'lishsizlik qo'shimchasi (-ma) ning talaffuzi va imlosini o'rgatish hisoblanadi.

Fe'lning harakat bildirishi yuzasidan o'quvchilarda aniq tasavvur hosil qilish uchun o'qituvchi ularga shu darsdagi mehnat jarayonini tasvirlashni, ya'ni o'quvchilarning o'zlari bajarayotgan ish-harakatni aytishni so'raydi, suhbat o'tkazadi. Suhbatda „O'qituvchi nima qildi? O'quvchilar nima qildilar? Hozir o'qituvchi nima qilyapti? O'quvchilar nima qilyaptilar? Endi o'quvchilar nima qiladilar? O'qituvchi nima qiladi?" kabi savollardan ham foydalanadi. Suhbat jarayonida o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida fe'llarni so'rog'i bilan yozib boradilar. Masalan, *nima qildi?* – so'zladi, tushuntirdi; *nima qildilar?* – tingladilar, yozdilar; *nima qilyapti?* – tushuntirayapti, so'rayapti, tinglayapti; *nima qilyaptilar?* – javob berayaptilar, yozayaptilar, tinglayaptilar; *nima qiladi?* – tekshiradi, ko'radi; *nima qiladilar?* – ishlaydilar, bajaradilar, yozadilar.

Suhbatdagi yoki o'quvchilar aytgan gaplardan birini gap bo'lagi jihatdan tahlil qilish asosida xulosa chiqariladi: *nima qildi? nima qilyapti? nima qiladi?* kabi so'roqlarga javob bo'lib, predmet harakatini bildirgan so'zlar **fe'l** deyiladi. Fe'l gapda kesim vazifasida keladi.

Mavzu yuzasidan o'quvchilarda ko'nikma hosil qilish uchun so'roq berib fe'lni aniqlash, gap mazmuniga mos fe'lni tanlab qo'yish, aralash berilgan so'zlardan, shuningdek, rasmga qarab gap tuzish kabi mashqlardan foydalaniladi.

Dasturga ko'ra 3-sinfda bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar o'rganiladi. Mavzu suhbat asosida tushuntiriladi. Suhbat uchun „O'qish darsida kimlar o'qidi? Shokir ham o'qidimi? Kim so'zladi? Alisher so'zladimi? Barno kutubxonaga boradimi? Abdulla-chi?, U qachon bormoqchi? Hozir kim tushuntirayapti? Hozir Tohir gapiryaptimi?" kabi savollardan ham foydalaniladi. O'quvchilar so'roq berib fe'llarni topadilar, ma'nosini qiyoslaydilar va o'qituvchi rahbarligida tushuntiradilar. Xulosa chiqariladi: fe'l harakatning yuzaga chiqqanini, ya'ni bajarilganligini *(o'qidi, so'zladi)*, hozir bajarilayotganini *(tushuntiryapti)*, endi bajarilishini *(boradi, o'qiydi)* bildiradi. Bu fe'llar **bo'lishli fe'llar** deyiladi. Ayrim fe'llar harakatning bajarilmaganligini *(o'qimadi, so'zlamadi)*, hozir bajarilmayotganini *(o'qimayapti)*, keyin ham bajarilmasligini *(bormaydi)* bildiradi. Bunday fe'llar **bo'lishsiz fe'llar** deyiladi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

O'quvchilar bo'lishli va bo'lishsiz fe'llarni so'roqlari bilan ikki ustun shaklida yozadilar va so'roqlarini bo'lishsiz fe'l qanday hosil bo'lganini aytadilar. O'quvchilar bilimi mashqlar bilan mustahkamlanadi, bo'lishsizlik qo'shimchasi *-ma -mi* shaklida talaffuz qilinsa ham, doim aslicha *-ma* shaklida yozilishi tushuntiriladi. O'quvchilarda bo'lishli va bo'lishsiz fe'llarni ma'nolariga qarab farqlash ko'nikmasini o'stirish uchun bo'lishli fe'ldan bo'lishsiz fe'l hosil qilish, bo'lishsiz fe'llarning talaffuzi va yozilishini qiyoslash, bo'lishsiz fe'llar bilan gaplar tuzish mashqlaridan foydalaniladi.

4-sinfda fe'lni o'rganish. Bu sinfda fe'lni o'rganishning vazifalari quyidagilar:

1. Fe'lning shaxs-son qo'shimchalari bilan tuslanishi, zamon qo'shimchasi bilan o'zgarishi haqidagi tushunchani berish va dastlabki ko'nikma hosil qilish; fe'lning leksik ma'nolari, bo'lishli va bo'lishsizligi, gapdagi vazifasi haqidagi bilimni chuqurlashtirish.

2. Nutqda fe'ldan ongli foydalanish malakasini rivojlantirish. Shu maqsadda nutqda ma'nodosh va zid ma'noli fe'llardan matn bilan bog'liq holda o'z va ko'chma ma'noda ishlatilgan fe'llar bilan tanishtirib borishga qaratilgan mashqlardan foydalanish.

3. Zamon qo'shimchalarining talaffuzi va yozilishi haqidagi ko'nikmani hosil qilish.

4. Qo'shma fe'llar va ularning doim alohida yozilishi haqidagi tushunchani berish va dastlabki ko'nikmani hosil qilish hisoblanadi.

Fe'l zamoni shaklining mohiyati ish-harakat qachon bajarilishini, ya'ni ish-harakatning nutq so'zlanib turgan paytda, undan oldin va keyin bajarilishini taqqoslash asosida ochiladi. O'quvchilar o'zlari bajargan yoki bajarayotgan harakatlarini kuzatadilar, shuningdek, keyin nima qilishlarini muhokama qiladilar. Xuddi shunga o'xshash kuzatishni tabiatda bo'layotgan o'zgarishlar yuzasidan ham o'tkazadilar. Bu mavzu bahorda o'tiladi. Shuning uchun o'quvchilar kuzatish asosida *„Bahor keldi. O'rik, olcha gulladi. Gullar ochilyapti. Endi gilos pishadi. Bahordan so'ng yoz keladi. Yozda bolalar oromgohga bormoqchi"* kabi gaplar tuzadilar. Gapdagi fe'llarga so'roq berib, ish-harakatning bajarilish payti, ya'ni ish-harakat bajarilayotganini (*nima qilyapti?* – o'qiyapti, ochilyapti), oldin bajarilganini (*nima qildi?* – o'qidi, keldi, gulladi) va keyin bajarilishi (*nima qilmoqchi?* – yodlamoqchi, bormoqchi) aniqlanadi. Aniq kuzatish asosida yig'ilgan bu leksik materiallar o'qituvchi rahbarligida umumlashtiriladi va xulosa chiqariladi:

www.ziyouz.com kutubxonasi

1. Fe'llar zamon bilan o'zgaradi. Fe'l uch zamonni bildiradi: hozirgi zamon, o'tgan zamon, kelasi zamon.

2. Hozirgi zamon fe'llari *nima qilyapti?* so'rog'iga javob bo'ladi, hozirning o'zida, ya'ni nutq so'zlanayotgan vaqtda bajarilayotgan harakatni bildiradi.

3. O'tgan zamon fe'li *nima qildi?* so'rog'iga javob bo'ladi, harakatning oldin, ya'ni nutq so'zlanayotgan vaqtdan oldin bajarilganini bildiradi.

4. Kelasi zamon fe'li *nima qilmoqchi?* so'rog'iga javob bo'ladi, harakatning keyin, ya'ni nutq so'zlanayotgan vaqtdan keyin bajarilishini bildiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari fe'l zamonlarini unga beriladigan savoldan bilib oladilar. So'roqdan uning leksik ma'nosi ham bilinib turadi.

Fe'lning zamon shaklini yasash va bilib olish uchun o'quvchilarni so'roqlardan to'g'ri foydalanishga o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Bu maqsadga erishish uchun avval jamoaviy ravishda ishlanadi va o'quvchilar e'tibori so'roq bilan fe'l zamonining bog'lanishini aniqlashga qaratiladi. Zamon shaklini hosil qilish uchun fe'lning II shaxs birlik shakli asos qilib olinadi (Boshlang'ich sinflarda fe'lning bosh shakli o'rganilmaydi). Fe'lga so'roq berish bilan fe'l zamoni hosil qilinadi.

Bir fe'ldan uch zamonni hosil qilib, ularni taqqoslash mashqi fe'lning zamon kategoriyasining mohiyatini tushunishga yordam beradi. Shuning uchun „Fe'l" mavzusini o'rganish jarayonida fe'lni zamon qo'shimchasi bilan o'zgartirish mashqi muntazam o'tkazib boriladi.

O'quvchilarni fe'l zamonlarini ongli qo'llashga o'rgatish maqsadida matnlardan foydalaniladi. Bunda fe'l zamonini aniqlash va biror fe'l shaklidan foydalanishni asoslash, shuningdek, fe'l zamonini o'zgartirish, fe'llarni muayyan bir zamonda ishlatib hikoya tuzish topshiriladi.

Dasturga ko'ra, bu sinfda fe'llarda shaxs-son haqida tushuncha beriladi. O'quvchilarda o'zbek tilida III shaxs: so'zlovchi (I shaxs), tinglovchi (II shaxs), o'zga (III shaxs) mavjudligi haqidagi dastlabki ko'nikma „Otlarning egalik qo'shimchalari bilan o'zgarishi" va „Kishilik olmoshlari" mavzulari o'rganilayotganda hosil qilingan. „Fe'llarda shaxs-son" mavzusi shu ko'nikmaga asoslangan holda tushuntiriladi.

Suhbat asosida kishilik olmoshlari III shaxsni, birlik va ko'plikni bildirishi eslatilgach, o'quvchilarga men olmoshini qatnashtirib gap

www.ziyouz.com kutubxonasi

tuzish topshiriladi. Ular tuzgan gap o'qituvchi rahbarligida tahlil qilinadi *(Men kitobni o'qidim).* O'quvchilar *men* I shaxs birlikdagi kishilik olmoshi ekanini aytadilar; *o'qidim* fe'lini so'z tarkibiga ko'ra tahlil qilib, *o'qi* – o'zak, *-di* – o'tgan zamon qo'shimchasi, *-m* ham qo'shimcha ekanini aniqlaydilar. O'qituvchi quyidagi mazmunda tushuntiradi: ish-harakat so'zlovchi (I shaxs), tinglovchi (II shaxs), o'zga (III shaxs) tomonidan bajarilishi mumkin; ikkinchidan, ish-harakat yakka (bir) yoki bir necha shaxs tomonidan bajarilishi ham mumkin. Fe'llarga qo'shilib, ish-harakatni bajargan shaxsni va sonni (ko'plik va birlikni) ham bildiradigan qo'shimchalar bor. Masalan, *o'qidim* fe'lidagi *-m* qo'shimchasi shunday ma'noni bildiradi, u shaxs-son qo'shimchasidir. Chunki *-m* o'qish harakatini bajargan shaxsni (I shaxsni) va sonini (bir kishi bajarganini) bildiryapti, ya'ni ham shaxsni, ham sonni ifodalayapti. O'qituvchi (xattaxtaga yozilgan gaplarni ko'rsatib) „Nuqtalar o'rniga gapning mazmuniga mos bo'lgan fe'llarning shaxs-son qo'shimchasini topib qo'yib, gaplarni o'qish" vazifasini beradi. Mashq o'qituvchi rahbarligida birgalikda bajariladi.

Suhbat asosida xulosa chiqariladi: Fe'llar shaxs-son qo'shimchalari bilan o'zgaradi. Shaxs-son qo'shimchalari zamon qo'shimchalaridan keyin qo'shiladi.

Fe'llarda shaxs-son haqidagi ko'nikmani shakllantirish uchun mazmunga mos shaxs-son qo'shimchalarini qo'yish, berilgan fe'llarni hozirgi, o'tgan, kelasi zamonda shaxs-son qo'shimchasi bilan tuslash, fe'llarni so'z turkumi jihatdan tahlil qilish mashqlaridan foydalaniladi.

Bu sinfda fe'llarning yozilishi haqida ham ko'nikma hosil qilinadi. Mavzuni tushuntirish uchun fe'llar ko'proq bo'lgan matn tanlanib, matnni o'qish, so'roq berib fe'llarni topish va qanday yozilganini aytish topshiriladi. O'quvchilar o'qituvchi rahbarligida vazifani bajaradilar.

OLMOSHNI O'RGATISH METODIKASI

Boshlang'ich ta'limda faqat kishilik olmoshlari o'rganiladi. 4-sinfda kishilik olmoshlari haqidagi dastlabki umumiy tushuncha beriladi; ularning kelishik qo'shimchalari bilan turlanishi va imlosi o'rgatiladi.

Kishilik olmoshlari bilan o'quvchilarni tanishtirishda predmetni nomlamasligi, ular faqat ko'rsatish uchun xizmat qilishi bilan tanishtiriladi. Boshlang'ich sinfda kishilik olmoshlarining ot bilan almashinib qo'llanishiga alohida to'xtab o'tilmaydi. Chunki *men, sen* olmoshlari hech qachon ot bilan almashinib qo'llanmaydi: „*Men o'qiyapman,*

www.ziyouz.com kutubxonasi

sen o'qiyapsan" deyish mumkin, lekin *„Salima chiqyapman, Salima o'qiyapsan, qiz tikyapman"* tarzida qo'llanmaydi. Lekin III shaxs kishilik olmoshi ot bilan almashinib qo'llanadi: *„Qiz tikyapti — u tikyapti"*. O'qituvchi kishilik olmoshlari bilan tanishtirayotganda shunga diqqatni qaratish lozim. Kishilik olmoshi haqidagi dastlabki ma'lumot badiiy asardan keltirilgan og'zaki nutqqa doir misollarni kuzatish va tahlil qilish orqali beriladi.

Kishilik olmoshlarini o'rgatish jarayonida o'quvchilarda quyidagi bilim va ko'nikmalar hosil qilinadi:

— *men, sen, u, biz, siz, ular* kishilik olmoshlari, ular *kim?* so'rog'iga javob bo'ladi;

— kishilik olmoshlari so'z turkumi;

— kishilik olmoshlari 3 ta shaxsni birlik va ko'plikda ifodalaydi;

— ular kelishiklar bilan turlanadi; *-ni, -ning* qo'shimchalari *men, sen* olmoshlariga qo'shilganda o'zakdagi **n** tushib qoladi; ***u*** olmoshiga *-ga, -da, -dan* qo'shimchalari qo'shilsa, bir **n** tovushi orttiriladi kabi bilimlar beriladi;

— olmoshlarni nutqda to'g'ri va o'rinli qo'llash, ularni kelishikli holatda to'g'ri yozish, so'roqlar yordamida aniqlash va farqlash ko'nikmalari hosil qilinadi.

Olmosh so'z turkumi *suhbat, yarim izlanishli muammoli metod, induktiv* metodlarda tushuntiriladi. Bu metodlarning qaysi birida tushuntirilsa, shunga mos usul va ish turlari tanlanadi.

O'quvchilar olmoshlarning kelishik bilan qo'llanishini o'rganmagani uchun dastlabki tanishtirishda bosh kelishikdagi olmoshlar qatnashgan gap tanlanadi.

Kishilik olmoshi quyidagi matn asosida tushuntirilishi ham mumkin:

— Men „Jimjiloq" hikoyasini o'qim.

— Sen qaysi hikoyani o'qiding.

— U „Nihollarning nolasi" hikoyasini o'qidi.

Suhbat o'tkaziladi:

— Birinchi gapdagi otni toping.

— „Jimjiloq" nimaning nomi?

— Hikoya oti-chi?

— Shu gapda *kim?* so'rog'iga javob bo'lgan so'zni toping.

Keyingi gaplar ham shu tarzda tahlil qilinadi.

Kim? so'rog'iga javob bo'lgan *men, sen, u* so'zlarini bir ustun qilib yozib qo'yiladi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Biz, siz, ular so'zlariustida ham shunday tahlil o'tkaziladi. Suhbat davom ettiriladi:

– Birinchi gapni kim gapiryapti? (so'zlovchi I shaxs)

– Ikkinchi gapni kim gapiryapti? (tinglovchi II shaxs)

– Uchinchi gapni kim gapiryapti? (o'zga III shaxs)...

Demak, *men, sen, u* shaxsni bildiradi va bu so'zlar *kim?* so'rog'iga javob bo'ladi.

Biz, siz, ular so'zlari ustida ishlanadi.

O'quvchilar javobiga aniqlik kiritiladi:

– Men, sen, u – so'z turkumi. Bu so'z turkumining nomi **olmosh** deb yuritiladi. Men, sen, u – kishilik olmoshlari. ***Men*** I shaxsni, ***sen*** II shaxsni, ***u*** III shaxcni ko'rsatadi. Shundan so'ng ***biz, siz, ular*** olmoshlari yuzasidan suhbat o'tkaziladi. Kishilik olmoshlarining birlik va ko'pligi taqqoslash orqali tushuntiriladi va qaysi paytda ***men, sen, u,*** qaysi paytda ***biz, siz, ular*** qo'llanilishi ustida ishlanadi. Egalik qo'shimchalari ifodalaydigan 3 ta shaxs: so'zlovchi *(men)*, tinglovchi *(sen)*, o'zga *(u)* eslatiladi va ular kishilik olmoshlari bilan bog'lanadi. Olmoshning gapda asosan ega vazifasida kelishi aytiladi.

Kishilik olmoshlarining ko'pligini tushuntirishda „Biz Vatan haqida ko'p maqollar bilamiz. Siz ham shunday maqollardan bilasizmi? tarzidagi gaplardan foydalanish mumkin. O'quvchilarning kishilik olmoshlari yuzasidan olgan tushunchalari bir necha dars davomida mustahkamlanadi. Bunda kishilik olmoshlariga so'roq berish, qaysi so'roqlarga javob bo'layotganini aniqlash, matndan kishilik olmoshlarini topish, ularni o'zi bog'langan so'z bilan ko'chirish, kishilik olmoshlari ishtirokida gap tuzish, ularning gapda qanday bo'lak bo'lib kelayotganini aniqlash, kishilik olmoshlarining shaxs-sonini aytish, berilgan fe'llarga mos kishilik olmoshlarini tanlash va gap tuzish (Onamga yordam berdim. Onangga yordam berdingmi? Onasiga yordam berdimi?) kabi topshiriqli mashqlar bajariladi. Ayrim matnlar shaxsini o'zgartirib ijodiy qayta hikoya qildiriladi.

Kishilik olmoshlarining kelishiklar bilan turlanishini o'tish. Kishilik olmoshlarining kelishiklar bilan turlanishini o'tishdan oldin shu mavzuni o'quvchilar ongli o'zlashtirishlari uchun xattaxtaga kelishiklarga doir jadval osib qo'yiladi. Suhbat metodidan foydalanib shu jadval asosida kelishiklar haqidagi o'quvchilar olgan bilimlar takrorlanadi va ularning yangi mavzuni o'rganishlariga zamin tayyorlanadi:

– Nechta kelishik bor? Ularning nomini, qo'shimchasi va so'rog'ini ayting.

www.ziyouz.com kutubxonasi

– Kelishiklar qaysi so'z turkumiga qo'shiladi?

– Kelishik qo'shimchalari qanday vazifa bajaradi? Misollar bilan tushuntiring.

O'quvchilar aytgan bitta gap xattaxtaga yozdiriladi va tahlil qilinadi. Masalan: ***Bilim davlatdan qimmat.*** *(Maqol)*

Davlatdan – ot, chiqish kelishigi qo'shimchasini olgan, ***-dan*** qo'shimchasi otni qimmat so'ziga bog'lagan. O'quvchilar javobi umumlashtiriladi.

Shundan so'ng oldindan xattaxtaga yozib qo'yilgan darslikdagi mashq ustida ishlanadi:

– O'qing. Tagiga chizilgan so'z qaysi turkumga kiradi? Shu so'z qaysi shaxsni bildiradi? Bizni olmoshi qaysi qo'shimcha bilan qo'llangan? Bu qo'shimcha biz olmoshini qaysi so'zga bog'lagan? Ularni birlikda yozing: *Bizni olib bordilar.* Kelishik qo'shimchasini va bog'lanishini tegishlicha belgilang. Kelishik nomini qisqartirib tepasiga yozing.

– Ikkinchi gapni o'qing. Olmoshning qaysi kelishik qo'shimchasini olganini ayting. Qaratqich kelishigi otni qaysi so'zga bog'lagan? Ularni birikma tarzida yozing: *Bizning ko'z o'ngimizda.* Qo'shimchani va so'zlarning bog'lanishini belgilang.

Qolgan gaplar ustida ham shu taxlitda ishlanadi. Xattaxtaning bir tomonida quyidagi birikmalar yuzaga keladi:

Bizni olib bordilar.

Bizning ko'z o'ngimizda.

Bizga gapirib berdi va boshq.

O'quvchilar javobi yana suhbat yo'li bilan umumlashtiriladi:

– Kishilik olmoshlari qaysi qo'shimchalarni oladi?

– Qaysi kelishik qo'shimchalari olmoshga qo'shilib keladi?

– Bu qo'shimchalar olmoshlarni qaysi so'zlarga bog'laydi? (boshqa so'zlarga)

– Kelishik qo'shimchasini olgan *bizning, bizni, bizga, bizda, bizdan* kabilar qaysi so'roqlarga javob bo'lyapti? Ular gapda qaysi bo'lak bo'ladi? (2-darajali bo'lak)

– Biz olmoshiga so'roq bering, u qaysi kelishikda? Gapda qaysi bo'lak bo'lib kelyapti? (Ega)

O'quvchilar javobi aniqlashtiriladi va umumlashtiriladi:

– Kishilik olmoshlari ham kelishik qo'shimchalarini oladi. Kelishik qo'shimchalarini olganda olmoshlar turlanadi. Tushum, qaratqich, jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishigidagi olmoshlar gapda 2-darajali

www.ziyouz.com kutubxonasi

bo'lak bo'lib keladi. Bosh kelishikda esa **ega** vazifasini bajaradi: *Biz mehnatni sevamiz.*

Kishilik olmoshlarining kelishiklar bilan turlanishi haqidagi tushuncha mashqlar yordamida mustahkamlanadi. Bunda kishilik olmoshlarining qaysi kelishikda ekanligini aniqlash, ularni o'zi bog'langan so'z bilan birikma tarzida ko'chirish, shaxs-sonini topish, chiziqchalar o'rniga topshiriqqa mos olmoshlarni qo'yish, ot o'rnida qo'llangan olmoshlarni aniqlash, ijodiy matnlar tuzish kabi topshiriqli mashqlar bajartiriladi.

Keyingi darslarda o'quvchilarning kishilik olmoshlarining kelishiklar bilan turlanishi paytidagi imlosini o'zlashtirishlariga, ijodiy yozma ishlar uyushtirishga va ularda kishilik olmoshlaridan to'g'ri foydalanib, nutqda uslubiy jihatdan to'g'ri qo'llashlariga, shuningdek, nutqda kishilik olmoshlaridan o'rinsiz va tinimsiz foydalanishlarini bartaraf etishga ahamiyat qaratiladi. Kishilik olmoshlarini o'rinsiz ko'p ishlatishlarini bartaraf etish uchun o'quvchilarning ijodiy yozma ishlari: bayon va insholari o'qib berilib, tahlil qilinadi.

O'quvchilar nutqida kishilik olmoshlarini *man, san* tarzida sheva ta'siriga berilib talaffuz qilish holatlari uchraydi. Kishilik olmoshlariga ajratilgan darslarning yana bir vazifasi shu kabi kamchiliklarni ham yo'qotishdir.

O'quvchilarni kishilik olmoshlaridan nutqda to'g'ri foydalanishga o'rgatish nutqiy g'alizlikni, talaffuzdagi yoqimsizlikni bartaraf etadi.

Savol va topshiriqlar

1. Boshlang'ich sinflarda qanday so'z turkumlari o'rganiladi? Ularni o'rganishdagi izchillikni tushuntiring.
2. O'quvchilarga otni tushuntirishda qanday usullardan foydalanasiz? Otga oid bironta dars ishlanmasini yozing.
3. Boshlang'ich sinfda sifat so'z turkumi yuzasidan o'quvchilarga qanday bilimlar beriladi va ular qanday izchillikda shakllantiriladi?
4. Sifatni o'rganish jarayonida o'quvchilar nutqini o'stirish yuzasidan qanday mashqlar o'tkazasiz?
5. Son ishtirok etgan maqol, ertak, dostonlardan bolalarga mosini to'plang. Ular asosida tarqatma material tayyorlang. Sonni o'tish bo'yicha bir soatlik namunali dars ishlanmasini tuzing.
6. Boshlang'ich sinflarda „Fe'l"ni o'rganish maqsadini ayting. Uni o'rganishdagi izchillik nimalardan iborat?
7. Kishilik olmoshlarini o'rgatishning eng qulay usuli haqida gapiring.
8. Olmoshlarning kelishiklar bilan turlanishi qay tarzda o'rgatiladi?

www.ziyouz.com kutubxonasi

BOSHLANG'ICH SINFLARDA SINTAKSIS ELEMENTLARI USTIDA ISHLASH METODIKASI

Gap ustida ishlash. Boshlang'ich sinflarda sintaksis yuzasidan beriladigan bilimlar amaliy o'rganiladigan va nazariy o'rganiladigan bilimlarga bo'linadi. Sintaksisga oid bilimlarni amaliy o'rganish savod o'rgatish davridayoq boshlanadi va 4-sinfda ham davom ettiriladi. Boshlang'ich sinfda „Gap", „Darak gap", „So'roq gap", „Buyruq gap", „His-hayajon gap", „Sodda gap", „Gap bo'laklari", „Gapning uyushiq bo'laklari", „Undalmali gaplar" mavzulari nazariy o'rganiladi. Bu mavzular yuzasidan turli mashqlar bajariladi.

Boshlang'ich sinflarda ona tili darslarining muhim vazifalaridan biri fikrni ifodalashda gapdan ongli foydalanish ko'nikmasini shakllantirish hisoblanadi.

Morfologiya va leksika, fonetika va orfografiya sintaksis asosida o'zlashtirilgani uchun tilni o'rganishda gap ustida ishlash markaziy o'rin egallaydi. Gap nutqning asosiy birligi bo'lib, boshlang'ich sinf o'quvchilari ot, sifat, son, olmosh, fe'l va ularning muhim kategoriyalarining tilimizdagi rolini gap asosida bilib oladilar. O'quvchilar ona tili leksikasini ham gap negizida egallaydilar. So'zning leksik ma'nosi va uning qo'llanish xususiyatlari so'z birikmasi yoki gapda ma'lum bo'ladi. So'z gapda bir ma'noli bo'ladi (gapdan tashqarida bir necha ma'no ifodalashi mumkin).

Metodist olima T. G. Ramzayeva boshlang'ich sinflarda gap ustida ishlashni shartli ravishda besh yo'nalishga bo'ladi:

1. Gap haqidagi grammatik tushunchani shakllantirish (til birligi bo'lgan gapning muhim belgilarini o'rgatish).

2. Gap qurilishini o'rgatish (so'z birikmasida so'zlarning bog'lanishi ustida ishlash, gapning grammatik asosini, bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning xususiyatlari, yoyiq va yig'iq gaplar ustida ishlash).

3. O'quvchilarning nutqida gapning maqsadga va ohangga ko'ra turlaridan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish.

4. Gapda so'zlarni aniq qo'llash ko'nikmasini o'stirish.

5. Yozma nutqda gapni to'g'ri tuzib yozish (uni bosh harf bilan boshlash, tinish belgilarini qo'yish) ko'nikmasini shakllantirish[20].

Ishning bu besh yo'nalishi bir-biriga o'zaro ta'sir etadi va gapning ayrim tomonlarini o'rganish maqsadidagina ularning har biri mustaqil

[20] Рамзаева Т.Г., Львов М.Р. Методика обучени русскому зыку в начальных классах. – М.: 1979. с.291–292.

www.ziyouz.com kutubxonasi

muhokama qilinadi. Gapni o'rganish va nutqda undan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish o'quvchilarning aniq bilimlarini doimiy kengaytirib, boyitib borishga asoslanadi. O'quvchi qanday yangilikni bilsa, unda bu yangilik haqida xabar berish ehtiyoji tug'iladi. U o'z fikrini ifodalash uchun qulayroq shakl qidiradi. Demak, aloqa qilish talabidan gapni mukammalroq egallash zaruriyati kelib chiqadi.

„Gap" mavzusi barcha sinflarda o'rganiladi. Gapning belgilari haqidagi bilimlar chuqurlashtirib boriladi. O'quvchilar fikr ifodalovchi nutq birligi – gap haqidagi elementar tasavvurdan gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklari, gapda so'zlarning bog'lanishi, gapning uyushiq bo'laklarini o'rganishga o'tadilar.

Gap ustida ishlashning boshlang'ich bosqichi savod o'rgatish davriga to'g'ri keladi. Bu davrda o'quvchilar gapning muhim xususiyatlari (fikr ifodalashi, tugallangan ohang bilan aytilishi) bilan tanishadilar. Gapning bu xususiyatlarini bilmasdan turib, so'zlardan gap tuzib bo'lmaydi. Agar o'quvchilar gapning bosh bo'laklarini ajrata olmasalar, gap nutqning yaxlit birligi ekanini bilmaydilar. Ega va kesim gapning qurilishi va mazmunining asosini tashkil etadi. Shuning uchun ham savod o'rgatish davrida gapning bosh bo'laklari ustida kuzatish o'tkazgan ma'qul.

Gapning bosh bo'laklarini kuzatish bilan o'quvchilar o'z fikrlarini aniq ifodalashga o'rganadilar, ularda nutqdan gapni ajratish ko'nikmasi shakllanadi. Gapni o'rganish me'yoriga qarab uning tarkibiy qismlari, xususan, so'z birikmasi haqidagi tasavvur aniqlanadi.

Boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan sintaktik material kam bo'lsa ham, butun o'quv yili davomida, boshqa mavzularga singdirilgan holda gap ustida ishlab boriladi.

Dasturga ko'ra, 1-sinfda o'quvchilarga gap haqida elementar tushunchalar beriladi. Gap tugallangan fikr bildirishi, gap so'zlardan tashkil topishi, uning oxiriga ma'lum tinish belgilari qo'yilishi haqida amaliy ma'lumotlar beriladi.

2-sinfda esa o'quvchilar gap haqida nazariy tushunchalar oladilar. Ular gapdan shu gap kim yoki nima haqida aytilganini va u haqda nima deyilganini bildirgan so'zni ajratishga o'rganadilar. Aslida gapning grammatik asosi ustida ishlash mana shundan boshlanadi va bu bosh bo'laklarni o'rganishga muqaddima bo'ladi.

3-sinf gap ustida ishlashda yangi bosqichdir. O'quvchilar gapni amaliy o'rganishdan tushuncha sifatida o'rganishga o'tadilar. Ular gapning muhim belgilarni bilib oladilar. Bu bosqichda bosh va ik-

www.ziyouz.com kutubxonasi

kinchi darajali bo'laklarning ta'rifi, ega va kesim atamalari kiritiladi. Bu sinfda gapda so'zlarning bog'lanishiga katta e'tibor beriladi. O'quvchilar gapning asosi (ega va kesim)ni ajratadilar, ikkinchi darajali bo'laklarni farqlaydilar va gapdagi ikki so'z (hokim va tobe so'z)ni, so'zlarning grammatik jihatdan, ya'ni qo'shimchalar orqali bog'lanishini bilib oladilar.

4-sinfda gapning uyushiq bo'laklarini o'rganish bilan gap bo'laklari haqidagi bilim kengaytiriladi.

Shunday qilib, o'quvchilarda gap bo'laklari haqidagi tasavvurni o'stirish gapni o'zlashtirishda yetakchi hisoblanadi. Birinchidan, boshlang'ich sinf o'quvchilari gap bo'laklarini ikkita katta guruhga (bosh va ikkinchi darajali bo'laklarga) bo'linishini o'zlashtiradilar. Bu sinflarda ikkinchi darajali bo'laklar turlarga ajratilmaydi. Gapni o'zlashtirish uchun bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning mohiyati ochiladi: bosh bo'laklar gapning grammatik asosini tashkil qiladi, fikr, asosan, gapning grammatik asosi orqali ifodalanadi; ikkinchi darajali bo'laklar esa bosh bo'laklarni aniqlovchilik va to'ldiruvchilik vazifasini bajaradi.

Ikkinchi darajali bo'laklarning mohiyatini ochish uchun o'quvchilar gapni tahlil qiladilar va ular qaysi gap bo'lagiga bog'lanib, uni izohlab kelayotganini aniqlaydilar. Ikkinchi darajali bo'laklarning xususiyatlari gapni yoyish (yig'iq gapni yoyiq gapga aylantirish) jarayonida yaqqol ko'rinadi. Masalan, o'quvchilar *„Qaldirg'ochlar uchib keldi"* gapini yozadilar. Fikrni to'liq ifodalash uchun gapga *qayerga?* va *qachon?* so'roqlariga javob bo'lgan so'zlarni qo'yish topshiriladi. O'quvchilar bu vazifani bajarib, qaysi gap bo'lagi (ikkinchi darajali bo'lak) fikrni yana aniqroq ifodalaganiga ishonch hosil qiladilar.

O'quvchilarda gapda so'zlarning bog'lanishini aniqlash ko'nikmasini shakllantirish muhim sintaktik va nutqiy ko'nikmalar qatoriga kiradi. So'z birikmasi gap qismi sifatida ajratiladi va boshlang'ich sinflarda uning muhim belgilari idrok qilinadi. „So'z birikmasi" atamasi darsliklarga kiritilmagan, ta'rifi berilmaydi. Ammo kichik yoshdagi o'quvchilar uning quyidagi muhim belgilarini amaliy bilib olishlari zarur:

1. So'z birikmasi mazmun va grammatik tomondan bog'langan ikki qism bo'ladi. Masalan, *„Dunyo xalqlari tinchlik uchun kurashadilar"* gapida ikkita so'z birikmasi bor: *1) dunyo xalqlari; 2) tinchlik uchun kurashadilar.*

www.ziyouz.com kutubxonasi

2. So'z birikmasida bir so'z hokim ikkinchi so'z tobe bo'ladi. Hokim so'zdan tobe so'zga so'roq beriladi, tobe so'z shu so'roqqa javob bo'lgan so'zdir. Masalan, *(Qanday?) Iqtidorli o'quvchilar (nimaga?) to'garakka a'zo bo'ldilar.* Ega va kesim so'z birikmasini emas, gapni hosil qiladi.

Gap tarkibidagi so'z birikmalarini ajratish ko'nikmasi uzoq mashq davomida shakllantirilib boriladi. Buning uchun o'quvchilarning so'z birikmasidan bir so'zning boshqa so'zga tobeligini tushunishga qaratilgan mashqlar tizimidan foydalaniladi:

1. Gaplarni yoyish. Buning uchun gapning qaysi bo'lagi yoyishni talab qilishi aniqlanadi. Masalan, *„Daraxtlar gullaydi"* gapini tahlil qilish uchun berilgan ega va kesim (gapning asosi) ajratiladi.

– Daraxtlar qachon gullashini aytish uchun gapga qaysi so'zni qo'shish kerak?

– Qachon gullaydi? (bahorda gullaydi)

– Bu so'z gapning qaysi bo'lagi bo'ladi? (Ikkinchi darajali bo'lak)

– U gapning qaysi bo'lagiga bog'lanadi, ya'ni tobelanadi? (Kesimga bog'lanadi)

– Gapga egani izohlaydigan yana bitta so'z qo'ying. Qanday gap hosil bo'ldi? (Mevali daraxtlar bahorda gullaydi).

2. So'zlari aralash berilgan gapni qayta tiklash. Avval gapning asoslari (ega va kesim) tiklanadi (aniqlanadi), so'ng so'roqlar yordamida ikkinchi darajali bo'laklar (so'z birikmalari) „topiladi", tiklanadi. Masalan, *Mashinada, teradi, terimchi, paxtani.*

– Gap kim haqida aytilgan? (Terimchi haqida, *kim?* – terimchi)

– U haqda nima deyilgan? (Teradi. *Terimchi teradi* – bosh bo'laklar).

– So'roqlar yordamida so'z birikmasini toping. *Nimani? teradi* (Paxtani teradi), *nimada? teradi* (Mashinada teradi). Keyin gapda so'zlarning qulay tartibi aniqlanadi *(Terimchi paxtani mashinada teradi).* Gap ohanggi ustida ishlanadi.

3. Uzluksiz (tinish belgilarisiz) matndan gaplarni ajratish. Mashqning bu turi ongli bo'lishi uchun har bir gapning bosh bo'laklarini va so'z birikmalarini ajratish lozim.

4. Gapni tahlil qilish va chizmasini chizish. Gap tahlil qilinayotganda dastlab uning asosi ajratiladi, keyin egani izohlovchi ikkinchi darajali bo'lak, kesimni izohlovchi ikkinchi darajali bo'lak, boshqa ikkinchi darajali bo'lakni izohlovchi ikkinchi darajali bo'lak ajratiladi. Shunday qilib, asta-sekin so'z birikmalari ham aniqlanadi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

5. O'qituvchi bergan chizma yoki so'roqlar asosida gap tuzish: *Kim? nimalarni? nima qildi?* (Bola olmalarni terdi).

So'z birikmasi ustida ikki yo'nalishda ish olib boriladi:

1) so'z birikmasiga gap ichida gapning tarkibiy qismi sifatida qaraladi;

2) so'z birikmasiga predmetning yoyiq nomi sifatida qaraladi, masalan, *soat* – so'z, *oltin soat, qo'l soat, osma soat, elektron soat* – so'z birikmalari.

Quyida 2-sinfda gapning bosh bo'laklarini o'rganishga oid dars namunasini keltiramiz:

Mavzu: Gap (gap asosini aniqlash).

Darsning maqsadi:

1. O'quvchilarda gap kim yoki nima haqida aytilganini (egani) va u haqda nima deyilganini bildirgan so'zni (kesimni) gapdan topish ko'nikmasini shakllantirish.

2. Nutqdan gapni ajratish ko'nikmasini o'stirish.

3. O'quvchilarni o'z fikrini aniq, tushunarli va ravon ifodalashga o'rgatish.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi dars

Darsning metodi: suhbat, izlanish metodi

Darsning borishi

1. Uy vazifasi tekshiriladi.

2. „Gap" mavzusi esga tushiriladi.

O'quvchilar diqqatiga quyidagi gaplar havola qilinadi:

1. O'qituvchi bolalarni o'qitadi.
2. Kuzda har xil mevalar pishadi.
3. Tikuvchi kiyimlarni tikadi.

4. O'quvchilar kitoblarni sevib o'qiydilar.

– Gap nimalardan tashkil topadi?

– Og'zaki nutqda biz bir gapni ikkinchisidan qanday ajratamiz?

– Yozuvda gapning boshi va oxiri qanday belgilanadi?

O'qituvchi yuqoridagi savol-javobdan so'ng, o'quvchilar javobini umumlashtiradi:

– Demak, gap tugallangan mazmun bildiradi. Gap oxiriga uning mazmuniga qarab nuqta, so'roq va undov belgisi qo'yiladi. Gap so'zlardan tuzilib, uning birinchi so'zi bosh harf bilan yoziladi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

3. O'qituvchi o'quvchilar diqqatini jadvalga qaratadi. Har bir gap quyidagicha tahlil qilinadi:

– Birinchi gapda kim haqida aytilgan?

– O'qituvchi so'ziga savol bering? (Kim?) Uning tagiga bir chiziq chizamiz (O'qituvchi jadvalga chizadi).

– O'qituvchi haqida nima deyilgan?

– O'qitadi so'ziga savol bering (nima qiladi?). Uning tagiga ikki chiziq chizamiz (O'qituvchi jadvalga chizadi).

– Ikkinchi gap nima haqida aytilganligini qaysi so'z bildiryapti? (Mevalar) Bu so'zga savol bering (nimalar?). Tagiga chizamiz.

– Mevalar haqida nima deyilgan? (pishadi) Tagiga chiziladi.

Shu tariqa keyingi gaplar ham tahlil qilinadi. Shundan so'ng o'qituvchi tagiga chizilgan so'zlar gapning asosiy mazmunini bildirishini, yana shunday so'zlar ishtirokisiz gap hosil bo'lmasligini, agar gapning asosini bildiruvchi so'zlardan loaqal bittasi ham gapda ishtirok etmasa, gap mazmun jihatdan yakunlanmay qolishi yoki noaniq bo'lib qolishi tushuntiriladi. Bu holatlar misollar bilan ko'rsatiladi. Masalan, *O'quvchilar maktabga boradilar* gapida gapning asoslaridan biri – *o'quvchilar* so'zi tushib qolsa, gapimiz noaniq bo'lib qoladi, o'quvchilar haqida nima deyilgan so'z *(boradilar)* tushib qolsa, gap mazmun ifodalamaydi. So'ng darslikdagi qoida o'qitiladi.

4. Darslik bilan ishlash. 261-mashq yozma bajariladi. O'quvchilar matnda nechta gap mavjudligini, gapning grammatik asoslarini o'qituvchi yordamida topadilar va ularning tagiga chizadilar. 262-mashq yuqoridagi mashq asosida o'quvchilar tomonidan mustaqil bajariladi (Bunda o'quvchilar ushbu mashqni maxsus mustaqil ish daftarlariga yozib o'qituvchiga topshiradilar).

5. Jadval asosida og'zaki mashq.

Kim?	bemorlarni davolaydi.
Nima?	sichqonlarni tutadi.
Nima?	yukni tashiydi.

O'qituvchi gapdagi so'roqlar o'rniga qo'yish uchun kerakli bo'lgan so'zlarning rasmlarini ko'rsatadi *(shifokor, mushuk, tuya)*. O'quvchilar tayanch so'zlar yordamida gaplarni o'qiydilar va gaplar og'zaki tahlil qilinadi.

6. Taxminiy tayyorgarlik ko'rib, bog'lanishli gap tuzish va uni yozish.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Texnik vosita orqali „Bog'bonlarga yordam" lavhalari ko'rsatiladi va hikoya yozish topshiriladi. Gap tuzishda har bir so'zni takroriy ishlatishning oldini olish uchun ma'nosi yaqin so'zlardan foydalanish tushuntiriladi *(masalan: bolalar, qizlar, o'quvchilar, o'rtoqlar)*. Bu so'zlar xattaxtaga yozib qo'yiladi.

7. Uyga vazifa qilib 263-mashq beriladi. O'qituvchi uyga vazifani qanday bajarishni tushuntiradi.

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI TINISH BELGILARINING ISHLATILISHI BILAN TANISHTIRISH

Ma'lumki, punktuatsiya tinish belgilarining ishlatilishi haqidagi qoidalar yig'indisidir. *„Punktuatsiya ham yozuv kabi kishilar orasidagi aloqaning muhim vositalaridan biri sanaladi"*[21]. Boshlang'ich sinflarda to'rtta tinish belgisi: gap oxirida nuqta, so'roq, undov belgisi hamda uyushiq bo'lakli, undalmali gaplarda vergulning ishlatilishi haqidagi qoidalar o'rgatiladi. Boshlang'ich sinflarda o'rgatiladigan tinish belgilari kam bo'lishiga qaramay, o'qituvchi har bir sinfda tinish belgilari ustida muntazam ish olib borishi zarur.

Kichik yoshdagi o'quvchilarni tinish belgilari bilan tanishtirishda o'qituvchi, avvalo, ularning yozma nutqda ishlatilishi va o'rnini ko'rsatadi. Tinish belgisi fikrni to'g'ri, boshqalarga tushunarli qilib ifodalash uchun muhim ekanini tushuntiradi. Masalan, nuqtaning roli bilan elementar tarzda tanishtirish uchun gaplarga ajratilmagan (tinish belgilari qo'yilmagan) yaxlit matn o'qitiladi; o'quvchilar bunday matnni o'qish va mazmuniga tushunish qiyin ekanligiga ishonch hosil qiladilar.

Punktuatsiya semantik, sintaktik va intonatsion qoidaga asoslanadi. Bu uch asos bir-biriga o'zaro ta'sir qiladi. Xat yozuvchi tinish belgisini qo'yishda, avvalo, bayon etadigan fikrining mazmuniga asoslanadi. Nutqning mazmun tomoni gapning qurilishiga ham ta'sir qiladi. Shuning uchun o'quvchilarga tinish belgilarining qo'llanilishini o'rgatishda biror gapda tinish belgilarini qo'llashni belgilaydigan semantik-sintaktik tamoyilga asoslaniladi.

1-sinf o'quvchilari savod o'rgatish davridayoq nuqta, so'roq va undov belgilari bilan amaliy tanishtiriladi. Bolalar „Alifbe" o'qimasalar ham, rasmga qarab gap tuzadilar.

[21] Shoabdurahmonov Sh. O'zbek tilida punktuatsiya. — Toshkent: O'zFAN, 1951.

www.ziyouz.com kutubxonasi

O‘qituvchi ularga talaffuzda bir gap boshqasidan to‘xtam (pauza) bilan ajratilishini, gapning oxirida ovoz pasayishini tushuntiradi. Bolalar, o‘qituvchi topshirig‘iga ko‘ra, 3–5 gapli kichik matnni gaplarga ajratadilar va ular o‘rtasidagi to‘xtam (pauza) qilish hikoya mazmunini yaxshi tushunishga yordam berishiga ishonch hosil qiladilar. Ular gapni to‘g‘ri talaffuz qilishni o‘rgana boshlaydilar. Bu gap oxiriga nuqta qo‘yilishi bilan tanishtirish uchun mazmuniy va intonatsion asos yaratadi. Bolalarni gapni o‘qishga oldindan tayyorlash uchun chizmadan foydalaniladi. Masalan, bolalar gap tuzadilar, undagi so‘zlarni sanaydilar va o‘qituvchi rahbarligida chiziqlar bilan belgilaydilar:

Biz ertakni sevamiz.

Ovqat pishdi.



O‘qituvchi quyidagi mazmunda tushuntiradi:

– Og‘zaki nutqda bir gapni ikkinchisidan pauza (to‘xtam) bilan ajratamiz (Har bir gapni talaffuz qilib ko‘rsatadi). Kitoblarda, gazetalarda gapning tugaganini, ovozni pasaytirish va pauza qilish kerakligini ko‘rsatish uchun alohida belgi – nuqta ishlatiladi.

Bir necha darsdan so‘ng o‘quvchilar gaplarni o‘qiy boshlaydilar. Ular nuqta pasaytirish, pauza qilishga belgi ekanini tushunadilar. Kesma harflardan gap tuzishda albatta nuqtali kartochkalardan foydalaniladi. O‘quvchilar gapni yozganda o‘qituvchi nuqta qo‘yishni eslatadi, ishni tekshiradi. Gapning oxiriga nuqta qo‘yilmasa, xato hisoblanadi. O‘quvchilar o‘qituvchi yordamida nima uchun nuqta qo‘yish lozimligini tushuntiradilar. Shunday yo‘l bilan gapning oxiriga nuqta qo‘yish ko‘nikmasi shakllantiriladi.

So‘roq va undov belgilari bilan ham savod o‘rgatish davridayoq tanishtiriladi. Bolalar so‘rash mazmunini bildirgan gaplarni o‘qiydilar. O‘quvchilar bunday gaplarni ohangga rioya qilgan holda, ya’ni gapning oxirida ovozni ko‘tarish bilan o‘qishga o‘rgatiladi. Gapning mazmuni va intonatsiyasi so‘roq belgisini qo‘yishni talab etadi. Undov belgisini qo‘yishni o‘quvchilar gapning his-hayajon ifodalashi va alohida ohangda o‘qilishi bilan bog‘laydilar.

O‘quvchilar 2-sinfda „Gap“ bo‘limi mavzularini o‘rganish jarayonida nuqta, so‘roq va undov belgisi haqida nazariy tushunchalar oladilar.

www.ziyouz.com kutubxonasi

3-sinfda esa tinish belgilari haqidagi nazariy tushunchalar chuqurlashtiriladi. Shu vaqtdan boshlab o'quvchilar gap oxiriga tinish belgilari sintaktik asosda qo'yilishini anglay boshlaydilar.

„Darak gap" mavzusini o'rganish bilan bog'liq holda nuqta qo'yilishi, „So'roq gap" mavzusi bilan bog'liq holda so'roq belgisi va „Undov gap" mavzusini o'rganish bilan bog'liq holda undov belgisining qo'yilishi o'rgatiladi.

4-sinfda o'quvchilar „Gapning uyushiq bo'laklari" mavzusi o'rganilganda sanash ohangi bilan bog'langan bo'laklarda vergulning vazifasi bilan tanishadilar.O'qituvchi ikki gapni o'qib taqqoslash bilan nuqta va vergulda ohangning qanday berilishini ko'rsatadi. Masalan, *Biz ona tilimizni sevib o'rganamiz* (Gap oxirida ovoz pasayadi, pauza qilinadi). *Men, Ra'no, Alisher boshqa tillarni ham sevib o'rganyapmiz* (Men, Ra'no, Alisher so'zlaridan so'ng ovoz bir oz pasayadi, xabarning davom etishi seziladi).

O'quvchilar uyushiq bo'lakli gap tarkibidagi uyushiq bo'laklarning *ammo, lekin, biroq* so'zlari bilan bog'langanda vergulning ishlatilishini ham amaliy o'rganadilar.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar har xil mashqlarni ishlash orqali tire va ikki nuqtaning ishlatilishi bilan amaliy tanishadilar. Savod o'rgatish davridayoq o'qituvchi o'quvchilar e'tiborini vergul, tire, ikki nuqtaning ishlatilishiga qaratadi, matnni o'qiganda bu tinish belgilariga rioya qilishni o'rgatadi. Masalan, *Olma, olcha, nok – meva. Kitob – bilim bulog'i.*

Ona tili darslarida so'zlarni guruhlash mashqlarini bajarganda, o'qituvchi I sinf o'quvchilarini tire va ikki nuqtaning qo'yilishi bilan amaliy tanishtiradi. O'qituvchi aniq misollar bilan sanab ko'rsatilgan so'zlardan oldin ikki nuqta qo'yilishini, har bir so'zning vergul bilan ajratilishini ko'rsatadi. Bunda o'quvchilar tinish belgining nomini aytadilar, o'qituvchi eslatmasa ham, ulardan asta-sekin foydalana boshlaydilar. Matnni yozishdan oldin punktuatsion xatoning ham oldi olinadi. Shunday qilib, o'qituvchi o'quvchilarda punktuatsion ziyraklikni o'stirib boradi.

O'quvchilarga tinish belgilarini ishlatish qoidalarini to'la singdirish, ularni tinish belgilarini o'z o'rnida ongli ishlatishga o'rgatish maqsadida sintaktik-punktuatsion tahlil, tinish belgilari tushirib berilgan matnning tegishli tinish belgilarini qo'yish, ta'kidiy eslatish diktanti, bayon va inshoda tinish belgilarining ishlatilishini izohlash kabi mashqlardan foydalaniladi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Ona tili darslarini o'qish darslari bilan bog'lash sintaksis va punktuatsiya elementlari ustida ishlashning metodik shartlaridan biri hisoblanadi. O'quvchilar bu darslarda sintaksis sohasidagi bilimlariga asoslangan holda ifodali o'qish, so'zni aniq ishlatish, o'z fikrlarini grammatik to'g'ri shakllantirishga o'rganadilar. Shunday qilib, boshlang'ich sinf o'quvchilarining gap haqidagi elementar bilimlari og'zaki va yozma nutqda gapdan ongli foydalanishni ta'minlaydi.

ORFOGRAFIYA O'QITISH METODIKASI

O'qituvchi imloviy malakaning psixologik tabiatidan kelib chiqib, kichik yoshdagi o'quvchilarda imloga oid malakani shakllantirish ustida ishlash metodikasini belgilaydi.

Imloviy malaka maxsus nutq malakasidir. To'g'ri yozuv – maxsus nutq faoliyati; yozuv ham murakkab harakat bo'lib, uning asosida nutq yotadi. Imloviy malaka nutq faoliyatining komponenti sifatida gapni sintaktik jihatdan to'g'ri tuzish, so'zni uslubiy aniq qo'llashni ham o'z ichiga oladi.

Imloviy malaka murakkab malaka bo'lib, uzoq davom etadigan mashqlar jarayonida yaratiladi va so'zni fonetik tomondan tahlil qilish, uning morfemik tarkibini aniqlash ko'nikmasi kabilarga asoslanadi. Psixologiya malakani avtomatik harakat, ya'ni mashqlar natijasida asta-sekin avtomatlashgan ongli harakat deb belgilaydi. Avtomatlashish o'rganilgan imlo qoidasining oson yoki qiyinligiga bog'liq. Imloviy malaka o'z tabiati bilan avtomatik hisoblanmaydi. Malaka asosiga qo'yilgan ko'nikma mustahkamlanadi, takomillashadi, yaxshilanadi (harakat tezlashadi, aniq va to'g'ri bo'la boshlaydi, ishonarli va tejamli bajariladi); shuning bilan birga, faoliyatning tuzilmasi qayta quriladi: mayda birlik bilan ishlash kengroq, butun, qo'shilgan birliklar bilan ishlashga o'tadi (masalan, so'zni harflab ko'chirish, bo'g'inlab ko'chirish bilan, keyin so'zni yaxlit ko'chirish bilan, so'ngra u gapni ko'chirish bilan almashadi). Bir imlo malakasi avtomatlashadi, imloga oid boshqa hodisa o'rganiladi va asta-sekin so'zni to'g'ri yozish malakasi hosil bo'ladi. Umuman olganda, yozuv murakkab harakat sifatida ongli jarayonligicha qoladi.

To'g'ri yozuv malakasining shakllanishi uchun o'quvchidan fikrlash faoliyati talab etiladi. Biror to'g'ri yozuv hodisasini o'zlashtirish uchun o'quv va yodda saqlashgina emas, balki analiz va sintez [illegible] tatbiq etiladi. Bunda grammatik va imloviy hodisalarning o'x[illegible]

www.ziyouz.com kutubxonasi

va farqli tomonlarini aniqlash uchun taqqoslash usulidan foydalanish hamda so'z va so'z shakllarini ma'lum grammatik yoki grafik guruhlarga ajratish, muayyan tizimga solish, tushuntirish va isbotlash mashqlaridan foydalanish muhim o'rin tutadi.

Shunday qilib, orfografiyani o'rgatishda, grammatikani o'rgatish kabi, o'quvchilarning analitik-sintetik faoliyatini asta takomillashtira borish talab etiladi.

Imlo qoidasi ustida ishlash metodikasi. O'quvchilarda to'g'ri yozuv malakasini shakllantirish grammatik nazariyani va imlo qoidasini o'zlashtirishga asoslanadi. Imlo qoidalari bir so'znigina emas, balki umumiylik mavjud bo'lgan butun so'zlar guruhining yozilishini tartibga soladi. Bu xususiyati bilan u qoida xat yozuvchini har bir so'zni yodda saqlash, xotirlashdan qutqaradi va qoidaga amal qilib, belgilangan me'yorga muvofiq butun so'zlar guruhini yozish imkonini yaratadi.

Imlo qoidasi grammatik umumiylik asosida birlashgan so'zlarning yozilishini bir xillashtiradi. Bu yozma ravishdagi aloqani yengillashtiradi va imlo qoidalarining ijtimoiy ahamiyatini ta'kidlaydi.

Imlo qoidalarini grammatik, fonetik, so'z yasalishiga oid materiallarni ma'lum darajada bilmasdan turib o'zlashtirish mumkin emas. Grammatik nazariya imlo qoidalari uchun poydevor hisoblanadi. Shuning uchun boshlang'ich sinflarda imlo qoidasi shu qoidaga asos bo'ladigan grammatik nazariyaga bog'liq holda o'rganiladi. Masalan, shakl yasovchi qo'shimchalarning yozilishi haqidagi qoidalar „Ot", „Sifat", „Son", „Kishilik olmoshlari", „Fe'l" mavzulari ichiga kiritilgan. Materialning bunday joylashtirilishi grammatika bilan orfografiyani bir-biriga bog'liq holda o'rganishni ta'minlaydi.

Imlo qoidasi bevosita grammatik nazariya elementlaridan so'ng o'rganiladi. Masalan, otlarning kelishiklar bilan turlanishi o'rganilgach, kelishik qo'shimchalarining yozilishi haqidagi ko'nikma shakllantiriladi. „Sifat" mavzusini o'rganish *-roq* qo'shimchasining va *qip-qizil, yum-yumaloq* kabi sifatlarning yozilishiga, „Fe'l" mavzusini o'rganish bo'lishsizlik *(-ma)* va o'tgan zamon *(-di)* qo'shimchalarining yozilishiga zamin yaratadi. Imlo qoidalarini o'rgatishga bunday yondashish boshlang'ich sinflarda barcha orfografik materiallarni o'rganishda tipik hisoblanadi.

Imlo qoidalari ustida ishlash – murakkab jarayon, qoidaning mohiyatini ochish, o'quvchilarning qoida ifodasini o'rganib olishlari,

www.ziyouz.com kutubxonasi

qoidani yozuv tajribasiga tatbiq etish uning asosiy komponentlari hisoblanadi.

Qoida mohiyatini ochish qoida so'zning qaysi qismini, qaysi so'z turkumi yoki grammatik shaklni yozishni boshqarishini, bunda qaysi belgilar yetakchi ekanini tushuntirish demakdir. O'quvchilarni qoida bilan tanishtirish uchun material tanlashda o'qituvchi bu yetakchi belgilarni albatta hisobga oladi.

Qoida ifodasi ustida darslik bo'yicha ishlanadi. Bunda o'quvchilarning qoida tarkibini anglab yetishlari ahamiyatlidir. Shuning uchun darslikdagi qoida qismlarga bo'linadi (Aslida o'quvchilar bu vazifani mashq jarayonidayoq bajarib qo'yadilar). O'quvchilar o'rganilgan qoidaga misol aytish va xilma-xil mashqlarni bajarish yo'li bilan uni yangi til materialiga, ya'ni yozuv tajribasiga tatbiq etadilar.

Qoida ustida ishlash metodikasi shu qoidaning xarakteriga qarab tanlanadi. Masalan, bo'lishsizlik qo'shimchasi *(-ma)* ning yozilishini deduktiv yo'l bilan o'rgatish mumkin. Jo'nalish kelishigi qo'shimchasi *(-ga)* ning oxiri *-k* bilan tugagan otlarga *-ka, -q* bilan tugagan otlarga *-qa* shaklida qo'shilishi haqidagi qoidani indukgiv yo'l bilan tushuntirish maqsadga muvofiq.

O'quvchilar qoidadagi asosiy fikrni ajratishga yordam beradigan vazifalarni bajarsalar, uni o'zlashtirish xiyla qulay bo'ladi. Chunki bolalar aniq material bilan ishlaydilar va uni tahlil qilish vaqtida qoidaning muhim qismlarini ajratadilar, qoidani ongli o'zlashtiradilar. Nimanidir, masalan, so'zlarning talaffuzi va yozilishini, so'z turkumlarini, so'z qismlarini bir-biriga taqqoslash o'quvchilarning aqliy faolligini oshiradi. Bunda yana qoidaning ajratilgan belgisini aniq yozib ko'rsatish ham ahamiyatli hisoblanadi. Qoidada aks ettirilgan muhim fikrni ajratishga o'qituvchining savollari yordam beradi. Bu savollar, o'z navbatida, qoidani shakllantirish rejasi ham hisoblanadi.

Qoida ustida jamoa bo'lib ishlash bilan birga, darslikdan foydalanib, mustaqil ishlash usulini qo'llash ham mumkin.

Yangi qoidani o'zlashtirishda o'rganilgan bilimlarga suyaniladi. Buning uchun yangi qoida ilgari o'rganilgan qoidalar bilan bog'lanadi. Bunda qarshi qo'yish yoki taqqoslash usulidan foydalaniladi va o'xshash tomonlari aniqlanadi. Masalan, tushum kelishigi qo'shimchasining yozilishini o'zlashtirishda u ilgari o'rganilgan qaratqich kelishigi qo'shimchasining yozilishi bilan taqqoslanadi va tushum kelishigi qo'shimchasi otning fe'l tomonidan boshqarilishini bildirishi aniqlanadi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Qoidani bilib olish o'quvchilarda u haqdagi aniq tasavvurning mavjudligiga bog'liq. Qoida asosida hosil bo'lgan aniq tasavvur so'zlarda ifodalanadi. Shuning uchun o'quvchilardan qoidani quruq yodlab berish talab etilmasligi, balki so'zni to'g'ri yozishdagi xususiyatlar aniq material misolida qayta tushuntirilishi lozim.

Imloga oid mashqlar. Imloviy malaka ongli nutq faoliyatining avtomatlashgan komponentidir. Faoliyat avtomatlashishi uchun uzoq vaqt davomida maqsadga qaratilgan mashqlar bajarib boriladi. Imloga oid mashqlar imloviy ziyraklik ko'nikmasini shakllantirishga, tegishli o'rinda qoidani tatbiq qilishga, mashqlarning qismlari o'rtasidagi bog'lanishni belgilash, ularni umumiy va yagona faoliyat tizimiga kiritishga, o'quvchilar uchun qoidaning mohiyatini aniqlash va uni shakllantirishga qaratiladi. Qoidani tatbiq qilish davridagina uning mazmuni chuqurroq o'zlashtiriladi. Metodikada imloga oid mashqlarga: 1) grammatik-orfografik tahlil; 2) ko'chirib yozuv: 3) diktantlar; 4) leksik-grammatik tahlil; 5) bayonlar kiradi. Grammatik-orfografik va leksik-orfografik tahlilda orfografiyaning grammatika va leksika bilan bog'lanishi, ko'chirib yozuv va diktantda o'quvchilar faoliyatini belgilaydigan omillar, xususan, ko'chirib yozuvda ko'ruv va qo'l harakati uquvi, diktantda eshituv uquvi hisobga olinadi.

Ko'chirib yozuv ko'rib idrok qilingan so'z, gap va matnni yozma shaklda ifodalashdir. Boshlang'ich sinflarda husnixat va imlo qoidalariga rioya qilib, tuzatishlarga yo'l qo'ymay va tartibli, harflarni tushirib qoldirmay, o'rnini almashtirmay, tinish belgilarini to'g'ri qo'llab ko'chirib yozuv ko'nikmasi shakllantirilishi kerak. O'quvchilarda bu ko'nikmani hosil qilish maqsadida o'qituvchi alifbe davridan boshlab ularga ko'chirib yozuvni izchillik bilan o'rgatib boradi.

O'quvchilarda ko'chirib yozuv ko'nikmasini shakllantirishga oid asosiy qoidalarga quyidagilar kiradi:

1. Ko'chirib yozishdan oldin ko'chirib yozadiganingni yaxlit o'qib chiq.
2. Har bir gapdagi so'zlarni bo'g'inlarga ajrat va ichda bo'g'inlab aytib, yoz.
3. Ko'chirib yozganingni asliga solishtir va xatolaringni to'g'rila

Ko'chirib yozuv uchun so'z, alohida gap va kichik matnlardan foydalaniladi.

O'qituvchining qo'ygan maqsadiga bog'liq holda ko'chirib yozishdan oldin unga tayyorgarlik ko'riladi; bunda imlosi qiyin so'zlarni

www.ziyouz.com kutubxonasi

izohlab o'qish, so'zning nima uchun shunday yozilishini asoslash, o'rganilgan qoida asosida yoziladigan so'zlarni aniqlash kabi mashqlardan foydalaniladi. Bu ko'nikma qay darajada shakllanganligini aniqlash maqsadida kontrol (tekshiruv) ko'chirib yozuv o'tkaziladi.

Ko'chirib yozuv mashqlari grammatik, leksik yoki so'z yasalishiga oid vazifalarni bajarish bilan birga olib boriladi. Bu imlo qoidasini tatbiq etishni yaxshi bilib olish imkonini beradi. Chunki vazifaning xarakteri imloviy malakani shakllantirishga nazariy asos bo'ladigan grammatik, fonetik bilimlarni faollashtirishni talab etadi. Bulardan tashqari, kompleks mashqlar orfografiya bilan birgalikda nutq o'stirish vazifalarini ham bajarish imkonini beradi. Kompleks mashqlarga misol qilib quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. Ko'chirish. O'zakdosh so'zlarni aniqlab, o'zakni ajratish.

2. Tushirib qoldirilgan qo'shimchalarni qo'yib ko'chirish, qanday qo'shimcha ekanini aytish; yozilishini tushuntirish.

3. Matn mazmuniga mos so'zni qavs ichida berilgan so'zlardan topib qo'yib ko'chirish. Shu so'z qaysi so'z turkumiga oid ekanini, uning yozilishini tushuntirish.

4. Aralash berilgan so'zlardan gap tuzish va yozish.

5. Tartibsiz berilgan gaplardan bog'lanishli matn tuzish.

6. Tanlab ko'chirish (Berilgan gaplardan yoki matndan muayyan bir so'z turkumini; ot va fe'ldan yoki ot va otdan, sifat va otdan tuzilgan so'z birikmalarini ko'chirish).

Diktant eshitib idrok qilingan so'z, gap, matnni yozishdir. O'quvchilarning og'zaki yozma nutqini o'stirishda, savodxonligini oshirishda diktantning ahamiyati katta. O'quvchi diktant yozish jarayonida xato qilmaslikka harakat qiladi. Xato qilmaslik ularning fonetik, leksik va grammatik bilimlarni qay darajada o'zlashtirganliklariga bog'liq bo'ladi. Imlo qoidalari grammatik hodisalar bilan bog'liq bo'ladi. Demak, savodli diktant yozish uchun o'z navbatida grammatik qoidalarni ham bilish zarur.

Boshlang'ich sinflarda diktant uchun matn tanlashda bir qancha tamoyillarga rioya qilish zarur:

1. Matnning monologik nutq shaklida bo'lishi. Unda ko'chirma gaplar, undalmali, kirish so'zli, ajratilgan bo'lakli gaplar, qo'shma gap bo'lmasligi lozim.

2. Matn hajmi 1–4-sinf o'quvchilarining o'qish sur'tiga asoslangan bo'lishi.

3. Matn mazmuni bolalar hayoti bilan bog'liq bo'lishi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

4. Diktant matni o'quvchilarga u yoki bu haqda bilim berishi.

5. Tanlangan matn g'oyaviy-badiiy jihatdan yuksak bo'lishi, bolalar hissiyotiga ta'sir qilishi.

6. Matn tarbiyalovchi xarakterda bo'lishi.

7. Matnda o'rganilayotgan hodisa kamida 5–6 marta uchrashi.

Diktantlar maqsadiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

1. ***Ta'limiy diktantlar*** – bilim berishga yo'naltirilgan diktantlar.

2. ***Tekshiruv diktantlari*** – o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishga qaratilgan diktantlar.

Ta'limiy diktantlarni o'tkazish vaqtini, o'rnini, turini o'qituvchining o'zi belgilaydi. Ta'limiy diktantlar uchun darsning ma'lum bir qismi (5–10 daqiqasi), ba'zan bir dars ajratiladi. Bu diktant o'quvchilar bilimini mustahkamlash maqsadida o'tkaziladi. Ta'limiy diktantda o'qituvchi o'quvchilarga o'rgatilayotgan hodisaning imlosini bir necha tahlil usullaridan foydalanib tushuntiradi, o'quvchilar so'zlarni to'g'ri yozishlariga ishonch hosil qilgach, uni yozishga ruxsat beradi. Har qanday yo'l bilan xatoning oldini olish chorasi ko'riladi. Masalan, 1-sinfda ***a*** va ***o*** unlilari o'rganilayotgan darsda bo'g'in-tovush, tovush-harf tahlili o'tkaziladi. Baho, bahor so'zlarining birinchi bo'g'inida ***a*** harfi yozilishini o'quvchilar bilib olgach, o'quvchilardan biri shu so'zlarni xattaxtaga yozadi. So'ng so'z o'chirib tashlanadi, shundan keyin aytib turib yozdiriladi.

Ta'limiy diktantlar tashkil etish va bajarilish usuliga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Ta'kidiy diktant.
2. O'z diktant yoki yoddan yozuv diktanti.
3. Izohli diktant.
4. Saylanma diktant.
5. Erkin diktant.
6. Rasm diktant.
7. Lug'at diktant.
8. Ijodiy diktant.

Shulardan saylanma, erkin va ijodiy diktantlarda matn ma'lum o'zgarishlar bilan yoziladi.

Tekshiruv diktantida yaqinda yoki ilgari o'rganilib, mashqlar bilan mustahkamlangan qoidalarni o'quvchilar qay darajada o'zlashtirganliklari aniqlanadi. Tekshiruv diktanti biror bo'lim o'rganilgandan so'ng yoki chorak oxirida o'tkaziladi. Tekshiruv diktanti o'quv yili davomida 5–6 marta o'tkaziladi. Diktantning bu turida yo'l qo'yilgan

www.ziyouz.com kutubxonasi

xatolar chuqur tahlil qilinadi, ularni bartaraf qilish usullari belgilanadi. Shu jihatdan tekshiruv diktantining ta'limiy ahamiyati katta. Imloviy mashq sifatida diktantning xilma-xil turlaridan foydalaniladi.

Ta'kidiy diktantdan qoidani amaliyotga tatbiq etish usullarini yaxshi bilib olish maqsadida foydalaniladi. Matnni yozishdan oldin, uni yozish jarayonida, izohli yozuvdagi kabi, o'quvchilar so'zni qanday yozishni va nima uchun shunday yozilishini tushuntiradilar.

O'z diktant yoki yoddan yozuvda o'rganilgan imloviy qoida asosida yoziladigan so'zlar bo'lgan matnni o'quvchilar o'zlari o'qib yodlaydilar (ko'rib idrok qiladilar) yoki o'qituvchi rahbarligida eshitib yodlaydilar (idrok qiladilar), keyin o'zlari mustaqil yozadilar.

Izohli diktant o'quvchilarning qobiliyatiga qarab ikki xil o'tkaziladi. O'quvchi, odatda, o'qituvchining ko'rsatmasi bilan ma'lum so'zning yozilishini diktant yozishdan oldin yoki keyin izohlaydi. So'zning yozilishini bo'g'in-tovush, tovush-harf tomondan tahlil qiladi, unga qoidani tatbiq etadi. Masalan, „Kitob – bilim manbai" – Kitob: Ki-tob. Ikki bo'g'in. Birinchi bo'g'inida **k, i;** ikkinchi bo'g'inida **t, o, b** tovushlari bor. Oxirgi **b** tovushi **p** tovushi tarzida talaffuz qilinadi. Unda **b** yoki **p** tovushini ifodalovchi harfning yozilishini tekshirib aniqlaymiz. Buning uchun so'z oxiriga **i** tovushini qo'shamiz va aytamiz: ***kitobi.*** **B** tovushi yozilar ekan" kabi izohlanadi.

Bu diktantda o'quvchilar qoidalarga oid so'zlarning tagiga chizadilar.

Saylanma diktantda o'quvchilar diktovka qilingan gaplar yoki matnning hammasini yozmaydilar. Uning o'qituvchining topshirig'iga mos qisminigina (o'rganilgan qoida asosida yoziladigan so'zlarni, so'z birikmalarini) yozadilar. Masalan, bosh harf bilan yoziladigan so'zlarnigina yozish (1-sinf), qaratqich kelishigidagi so'zni u bog'langan ot bilan yoki tushum kelishigidagi so'zni u bog'langan fe'l bilan birga yozish (4-sinf) kabi. Saylanma diktant o'quvchilarda imloviy ziyraklikni o'stiradi.

Erkin diktantda o'quvchilarga mazmunni buzmay, gap tuzilishini o'zgartirish, bir so'zni unga yaqin ma'noli so'z bilan almashtirish erkinligi beriladi. Diktant uchun 3–5 qismli matn tanlanadi. O'qituvchi avval matnni bir marta ifodali o'qib beradi, so'ngra matn mazmuni yuzasidan suhbat o'tkazadi. Ayrim qoidalarni eslatadi. Keyin matnning bir qismi qayta o'qib beriladi, o'quvchilar uning mazmunini yozadilar.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Erkin diktant imlo qoidalarini mustahkamlashga xizmat qilishi bilan birga, o'quvchilar nutqini o'stiradi, fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Rasm diktant predmet rasmini yoki o'zini ko'rsatib o'tkaziladi: predmet rasmi ko'rsatiladi, o'quvchilar uning nomini aytadilar va yozib vergul qo'yadilar, ish shunday davom etadi (Birinchi so'z bosh harf bilan, qolganlari qoidaga ko'ra yozilishi eslatiladi). Rasm diktantda o'rganilgan qoidani, ayniqsa, o'quv yili davomida o'rganiladigan imlosi qiyin so'zlarni to'g'ri yozishni puxtalash, shuningdek, ularni o'quvchilar qanday o'zlashtirganliklarini sinash maqsadi ko'zda tutiladi.

O'qituvchi mazkur maqsaddan kelib chiqib, imloviy malakani shakllantirish ustida ishlash bosqichini hisobga olgan holda, diktantning barcha turlaridan izchillik bilan foydalanadi.

Bayon o'quvchilarning lug'atini boyitish, bog'lanishli nutqini o'stirishga qaratilgan orfografik mashq turlaridan biri hisoblanadi. Bayon orfografik mavzularni o'rganishning yakunlovchi bosqichida, o'quvchilar qoidalarni bilib olib, uni tatbiq qilishga o'rganganlaridan so'ng o'tkaziladi. Bayon yozganda o'rganilgan imlo qoidalarini to'g'ri tatbiq etish ularning ongli o'zlashtirilganligini ko'rsatadi.

ONA TILI DARSLARIDA LUG'AT USTIDA ISHLASH VA NUTQ O'STIRISH

Boshlang'ich sinflar o'quv dasturida „ona tili, o'qish bolalarning lug'atini boyitish, bog'lanishli nutqni o'stirish, adabiy-estetik tafakkurini kamol toptirish, nutq madaniyatini shakllantirish, nutq ta'sirchanligini ta'minlashning muhim omilidir", deyiladi. Bu vazifalar grammatik mavzularni o'rganish, mashq matnlarini kuzatish va tahlil qilish, maxsus lug'aviy-grammatik mashqlar orqali bajariladi.

Ona tili o'qitishning bosh maqsadi ham tilning jamiyatda tutgan o'rni, vazifasi bilan belgilanadi. Til – aloqa vositasi, chunki so'zlovchi fikr-mulohazalarini til orqali bayon qiladi, tinglovchi esa til vositalari orqali ro'yobga chiqqan fikrni anglaydi.

Ona tili fani o'quvchilarni fikr bayon qilish va uni uqib olish faoliyatiga tayyorlaydi. Fikr til vositasida ro'yobga chiqadi, shu sababli har bir kishi tilni va undan foydalanishni bilishi zarur. Tilni bilish uning grammatik qonun-qoidalarini, ta'rifini o'zlashtirishgina emas, balki ona tilining boy imkoniyatlaridan amaliy foydalana bilish hamdir, ya'ni fikrni og'zaki va yozma shaklda to'g'ri, tushunarli va savodli

www.ziyouz.com kutubxonasi

ifodalay bilishdir. Bunga erishish uchun ona tili darslarida lug'at ustida ishlashga alohida e'tibor qaratish lozim.

Lug'at ishida so'zning ma'nosi, talaffuzi va imlosi e'tiborda tutiladi. Bular ustida ishlashdan asosiy maqsad ehtiyoj sezilgan paytda o'quvchilarning ulardan nutqda foydalanishlariga erishish, o'zgalar nutqini anglashlarini ta'minlashdir. Buning uchun o'qituvchi ona tili darslarida qo'llangan har bir so'zning va ta'limiy jarayonlarda: ekskursiya, o'zaro suhbat, turli tadbirlarda ishlatilgan so'zlarning ma'nosiga e'tibor bilan qarashi, ularning qaysilari maxsus ishlashni taqozo etishini belgilab olishi kerak.

Tilning lug'at boyligini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi uchun ona tili darslarida so'zlar va ularning ma'nolari quyidagicha tanishtiriladi:

1. O'quvchilarni notanish so'z va iboralar bilan tanishtirish. O'quvchilar darslikdagi so'z va iboralarga birinchi marta duch kelayotgan bo'lishi mumkin. Bu so'z yangi paydo bo'lgan so'z bo'lmasa ham, o'quvchi uning ma'nosini bilmaydi, demak, o'quvchi uchun yangi so'z hisoblanadi. Masalan, 1-sinf „Ona tili" darsligida xabib *(do'st)*, darparda *(oyna o'rniga shaffof qog'oz yopishtirilgan deraza parda)*, mag'rur *(kekkaygan, mag'rur — kamtar)*, kamol *(har tomonlama yetuk, to'kis, kamol topmoq — xazon bo'lmoq)*, xaroba *(qarovsiz qolgan vayrona)*, qardosh *(do'st, birodar, qarindosh-urug')*, safdosh *(harbiy xizmatda birga, tashkilotda birga)*, sarkarda *(qo'mondan, lashkarboshi)*, zeb *(bezak, ko'rk, husn)*, qasr *(hashamatli saroy, ko'shk)* kabi so'zlarga duch keladilar. Bunday so'zlarning ma'nosini sinonimlar keltirib kengaytirish yo'li bilan, qarama-qarshi ma'noli so'zlar bilan izoh berish yo'li bilan, gap tuzish orqali ma'nosini yechish, rasmlar orqali tushuncha hosil qilish yo'li bilan tushuntirish mumkin. Bunday ishlash o'quvchilarda so'z ma'nolariga nisbatan sezgirlikni yuzaga keltiradi.

2. O'quvchilarni so'zning yangi ma'nolari bilan tanishtirish. O'quvchilar ko'p ma'noli so'zlarning bir ma'nosini tushunsa, boshqa ma'nosini bilmasliklari mumkin. Bolalar so'zlarning hamma ma'nolarini birdaniga o'zlashtirib ololmaydilar. Ularning ma'nosini o'zlashtirish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. 1—2-sinflarda o'quvchilar ko'p ma'noli so'zning bir-ikki ma'nosi bilan tanishsa, 3—4-sinflarda yana boshqa ma'nolarini bilib oladi. Tilning barcha sathlari: fonetika, leksika, so'z tarkibi, morfologiya, sintaksis (boshlang'ich sinfda bu bo'limlar „Tovushlar va harflar", „So'z", „Gap", „Bog'lanishli nutq" deb nomlanadi)ni o'rganish jarayonida tasviriy ifodalar, iboralar, ma'nodosh,

www.ziyouz.com kutubxonasi

shakldosh, zid ma'noli so'zlarning ma'nolari turli ish turlari asosida tushuntirib boriladi. Masalan, *„niyati buzuq"* iborasini tushuntirishda quyidagicha savol va topshiriqlardan foydalaniladi:

– Bu iborani *„soat buzuq"* birikmasi bilan taqqoslang.

– Qaysi biri o'z ma'nosida qo'llanyapti? (soat buzuq)

– Qaysi birikma boshqa ma'noda qo'llanyapti? (fikri buzuq)

– *„Niyati buzuq"* birikmasi qanday ma'noni ifodalayapti? (O'quvchilar o'ylab, niyati yomon kishilarni „niyati buzuq" deyishadi, deb izoh beradilar)

Ko'rinadiki, taqqoslash usuli so'z ma'nolarini izohlashda samarali usul sanaladi. *„Quloch otib", „tanbeh yedi", „ko'zi o'ynar", „qalbi olov", „til topishdi"* kabi iboralarning ma'nosi ustida ham shu tarzda ishlanadi.

1-sinf darsligida *„Xiva ona tarix tilmochi", „urush yo'lini taqqa bekitdik", „biz ma'nosiga zeb bersak", „rediskaga akaman", „karvon bo'lib kelamiz"* („Turnalar"), *„chehrasiga tabassum yugurdi", „bahor oq bulutni yetaklab ketdi"*, 2-sinf darsligida *„dov-daraxtning soch-soqolin qirishdi", „Biz oqlagan daraxtlar oppoq paypoq kiyishdi"* kabi badiiy-tasviriy til vositalari ustida ishlash o'quvchini so'z va iboralardan nutqda to'g'ri va o'rinli foydalanishga undaydi, nuqtaning emotsionalligini oshiradi.

3. O'quvchilar tilida kam qo'llanadigan so'zlar ma'nosi ustida ishlash. Adabiy tilga oid ba'zi so'zlar o'quvchilar nutqida kam qo'llanadi. Bu so'zning ma'nosini o'quvchi yetarli darajada tushunmaydi. Uning o'rnida oddiy so'zlashuvga doir, eskirgan yoki shevaga oid so'zlarni qo'llaydi. O'qituvchi ularni kitobiy so'zlar bilan almashtirish uchun nutqda qo'llashga majbur etadigan vaziyat yaratishi, ehtiyojni yuzaga keltirishi zarur. Masalan, *jim – tinch – osuda – osoyishta, yurakdan – dildan, soat strelkasi – soat millari, garmdori – qalampir, daqiqa – daqiqa, rayon – tuman* kabi.

So'zlarning qo'llanishini faollashtirish uchun yozma ishlar o't-kazilayotganda ham o'quvchilar e'tiborni ayrim so'zlarni boshqasi bilan almashtirishlariga qaratiladi. 1-sinfda rasmlar asosida og'zaki hikoya tuzayotgan o'quvchilarning nutq birliklari bir-biridan farqli bo'lishi, biri ikkinchisining so'zini qaytarmasligi talab qilinadi. Masalan, *Shirinsuxan – shirinso'z, nasim – tonggi yel* (shamol), *tanbeh berdi – dashnom berdi, zilol suv – tiniq suv, kichik – mo'jaz, tik – adil, nafis – nozik* kabi.

Yozma bayon yozishga tayyorlanish jarayonida ham (2-sinf)

www.ziyouz.com kutubxonasi

so'zlarni boshqasi bilan almashtirishga, kitobiy so'zlar tanlashga e'tibor berish lozim.

Darsliklarda bola hissiyotiga ta'sir qiluvchi ko'chma ma'nodagi badiiy ifodalar ko'p qo'llangan, ular ustida maqsadga muvofiq ishlash o'quvchi nutqini jozibador qiladi, ularning nutqini adabiy tilga yaqinlashtiradi.

4. Yangi paydo bo'lgan so'z ma'nolari ustida ishlash. Bunday so'zlar darslikda kam qo'llanadi. Bunday so'zlarning bolalar hayoti bilan bog'liq bo'lganlarini ajratib olib „Bilib qo'ygan yaxshi" rubrikasi ostida ishlansa, o'quvchining nutqi zamon bilan baravar rivojlanib boradi.

5. Grammatik atamalar ma'nosi bilan tanishtirish. Avvalo, grammatik atamalarning to'g'ri talaffuzi, imlosi o'rgatiladi. Shundan so'ng misollar asosida uning mazmuni ochiladi, so'ngra o'qitish va mashqlar bajarish orqali o'quvchilarning atama ma'nosini to'laqonli anglashlariga erishiladi.

Lug'at ustida ishlashda quyidagi metodik usullardan foydalaniladi:

1. So'z ma'nolarini taqqoslash va ularni sharhlash. Bu usul ko'chma ma'noli so'z va iboralar, paronim so'zlar, shakldosh so'zlar ma'nosi, imlosi, talaffuzini izohlashda qo'llaniladi Masalan, *ziyrak – zirak:* odamning xususiyati (sezgirligi) – *ziyrak;* quloqqa taqiladigan taqinchoq – *zirak.* Bu so'zlarning talaffuzi ham ikki xil.

2. So'zlarni kuzatish usuli orqali ularning imlosini, ma'nosini va talaffuzini o'rgatish. Bu usul o'zakdosh so'zlarni o'rganish jarayonida, *ko'm-ko'k, oppoq, qip-qizil* kabi sifatlarning ma'no noziklikiari, imlosi, talaffuzini o'rgatishda qo'llaniladi. Masalan, o'quvchilar *guldon, gulchi, guldor, gulli, gulsiz, gulla* so'zlarining tarkibini kuzatadilar, bu so'zlar ma'nosidagi farqni izohlaydilar va tilning yangi so'zlar hisobiga boyib borishini anglay boshlaydilar. Shu o'rinda o'qituvchi so'zlarni o'z so'ziga aylantirish orqali aniq fikr yuritishga o'rganish o'quvchining burchi ekanini aytishi lozim.

Kuzatish usuli shakllari o'zgarayotgan so'zlarning imlosini o'rgatishda ham qo'llaniladi: *og'iz+im – og'zim, singil+im – singlim, u+ga – unga.*

3. So'zlarni belgilariga ko'ra guruhlash usuli. Guruhlash aqliy faoliyat usuli bo'lib, u ona tili mashg'ulotlarida o'quvchilarning so'z boyligini oshirishda muhimdir. Bu usul so'zlarning anglatayotgan ma'nosi, turkumi, yasalishi, imlosi, uyasi kabilarga ajratish imkonini beradi. Guruhlash kuzatish va taqqoslash usuli bilan bog'liq. So'zlarni

www.ziyouz.com kutubxonasi

guruhlash uchun avvalo ular kuzatiladi, so'ng taqqoslanadi. Bu jarayonda ularning o'xshash va farqli tomonlari ajratiladi: Masalan, qavm-qarindoshlik bo'yicha guruhlash quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Ota urug'i: *ota, amaki, amma, dada, buvi, buva.*
2. Ona urug'i: *ona, xola, tog'a, buvi, buva.*

Sifatlarda xususiyat bildiruvchi sifatlar *(sho'x, og'ir, bosiq, aqlli, aqlsiz, hissiz, andishali, dangasa, tanbal, ishchan, mehnatsevar va hokazo.),* ta'm bildiruvchi sifatlar (shirin, achchiq, nordon, taxir, sho'r, mazali, bemaza, chuchmal va hokazo.) va shu kabilar guruhlash musobaqasi tarzida uyushtirilishi mumkin.

Ma'lum bir guruhdagi so'zlar ro'yxatini tuzish ishini alifbo asosida yozdirish ham mumkin. Bu jarayonda guruhlash uchun quyidagi topshiriqlardan foydalanish mumkin:

1. Bolalar o'yinlari nomining lug'atini tuzing.
2. O'zingiz bilgan shoir nomlari ro'yxatini tuzing.
3. Ertak nomlari ro'yxatini tuzing.
4. Joy nomlari ro'yxatini tuzing.
5. Ma'nodosh so'zlar ro'yxatini tuzing va boshq.

Bular o'rganilayotgan mavzularga, mashq matnlariga bog'liq holda tashkil etiladi. So'zlarning izohli lug'atini sinf yoki maktab miqyosida tuzib, osib qo'yilib, umumiste'molga kiritish mumkin. Bunda *„O'quvchilar pochtasi"* tashkil etilishi ham mumkin. O'quvchilar qaysi so'zning ma'nosini bilib olishda qiynalsalar, shu so'zni yozib yashikka tashlaydilar. Hafta oxiridagi darsda shu so'zlar ma'nosi, imlosi, izohi ustida ishlanadi.

ONA TILIDAN BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARNI NAZORAT QILISH

Bilimlarni o'zlashtirishda didaktik talablardan biri bilimlarni o'quvchilar qanday o'zlashtirganini muntazam tekshirib va baholab borish hisoblanadi.

Tekshirish o'quvchilarning bilim sifatlarini, shakllantirilgan malakalardan qanchalik foydalanishini aniqlashni ta'minlaydi. Bu, o'z navbatida, o'quvchilarning yangi materialni o'rganishga tayyorligini aniqlash, shuningdek, qo'llanilgan metod va usullarning samaradorligini baholashga, ish metodlariga ayrim o'zgartirishlar kiritishga imkon beradi. Tekshirish o'quvchilar uchun, birinchidan, to'g'ri shakllan-

www.ziyouz.com kutubxonasi

tirilgan bilimlarni mustahkamlashga xizmat qiladi, ikkinchidan, ish sifatini yaxshilaydi, o'z-o'zini tekshirishni o'stiradi.

Maktab tajribasida tekshirish og'zaki va yozma shaklda amalga oshiriladi; bilimlarni kundalik mavzuga oid va yakuniy tekshirish tatbiq etiladi.

Boshlang'ich sinflarda ona tilidan bilim, ko'nikma, malakalar og'zaki va yozma shaklda tekshirilsa-da, bir umumiy baho qo'yiladi. Bunda o'quvchilarning grammatik aniqlik, imlo qoidalarini bilishlari, so'zni va gapni tahlil qila olishlari, bilimni yozma nutqqa (diktant, bayon, inshoga) tatbiq eta olishlari hisobga olinadi. O'quvchilar yozma ishlarni qanday bajarganliklari muntazam tekshirib boriladi. O'qituvchi 1-sinfda o'quvchilarning barcha yozma ishlari (uy va sinf ishlari)ni tekshiradi. Boshqa sinflarda yangi mavzu o'rganilgan davrdagi yozma ishlarni tekshiradi, boshqa vaqtda tanlab tekshiradi.

Ona tilidan yozma tekshirish uchun asosan diktant, bayon, insho, shuningdek, grammatik, so'z yasashga oid, leksik va imloga oid topshiriqlarni bajarish, tekshiruv ko'chirib yozishdan foydalaniladi. Yakunlovchi tekshirish uchun har bir chorakda bir marta tekshiruv ishi o'tkaziladi. Bulardan tashqari, o'quv yili davomida bir necha martadan diktant, grammatik topshiriqli yozma ishlar, test, bayon va insho o'tkaziladi. Tekshirish ishlarining hajmi quyidagicha bo'lishi mumkin:

	1-sinf	2-sinf	3-sinf	4-sinf
Nazorat diktant O'quv yilining I yarmida	–	25–30	40–45	55–70
O'quv yilining II yarmida	15-20	35–40	45–50	75–80
Bayon	–	45–60	70–80	100–110

Tekshiruv diktanti, grammatik topshiriq, bayon va insho uchun baho me'yori boshlang'ich sinflar ona tili dasturida aniq berilgan.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Savol va topshiriqlar

1. Kichik yoshdagi o'quvchilar uchun sintaktik bilimlarni o'zlashtirishning ahamiyatini tushuntiring. Boshlang'ich sinflarda „Gap" mavzusi materiallarini o'rganishdagi izchillikni asoslang.

2. O'quvchilarning gapning bosh bo'laklari – ega va kesim bilan qanday tanishtirasiz? Darsda qanday ko'rgazmalardan foydalanasiz?

3. Boshlang'ich sinf o'quvchilari gapda so'zlarning bog'lanishini o'zlashtirishda qanday qiyinchiliklarga duch keladilar?

4. „Boshlang'ich ta'lim" jurnalida chop etilgan gap ustida ishlashga doir maqolalardan topib, ularga taqriz yozing.

5. Imlo qoidalarining ahamiyatini izohlang. Imlo qoidasi ustida ishlash jarayonining asosiy komponentlarini aniq misollar bilan tushuntiring.

6. O'quvchilar lug'atini boyitishda ona tilining tutgan o'rnini tushuntiring.

7. O'quvchilarning ona tilidan bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish usullaridan biriga oid topshiriqlar tizimini ishlab chiqing.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Nutq va uni o‘stirish tushunchasi

Nutq – kishi faoliyatining turi, til vositalari (so‘z, so‘z birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq o‘zaro aloqa va xabar, o‘z fikrini his-hayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta’sir etish vazifasini bajaradi.

Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishi faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O‘quvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli ta’lim olish qurolidir.

Nutq o‘stirish nima? Agar o‘quvchi va uning tildan bajargan ishlari ko‘zda tutilsa, nutq o‘stirish deganda tilni har tomonlama (talaffuzi, lug‘ati, sintaktik qurilishini, bog‘lanishli nutqni) faol amaliy o‘zlashtirish tushuniladi. Agar o‘qituvchi ko‘zda tutilsa, nutq o‘stirish deganda, o‘quvchilarning tilning talaffuzi, lug‘ati, sintaktik qurilishi va bog‘lanishli nutqni faol egallashlariga yordam beradigan metod va usullarni qo‘llash tushuniladi[22]. Shuning uchun ham grammatika va imlo dasturi tovushlar va harflar, so‘z, gap, bog‘lanishli nutq kabi qismlarni o‘z ichiga olgan. Ona tili dasturining bo‘limlari ***„Xat-savod o‘rgatish va nutq o‘stirish“, „O‘qish va nutq o‘stirish“, „Grammatika, imlo va nutq o‘stirish“*** deb nomlangan.

Nutq faoliyati uchun, shuningdek o‘quvchilar nutqini o‘stirish uchun bir necha shartga rioya qilish zarur:

1. Kishi nutqining yuzaga chiqishi uchun talab bo‘lishi kerak. O‘quvchilar nutqini o‘stirishning metodik talabi o‘quvchi o‘z fikrini, nimanidir og‘zaki yoki yozma bayon qilish xohishini va zaruriyatini yuzaga keltiradigan vaziyat yaratish hisoblanadi.

2. Har qanday nutqning mazmuni, materiali bo‘lishi lozim. Bu material qanchalik to‘liq, boy, qimmatli bo‘lsa, uning bayoni shunchalik mazmunli bo‘ladi. Shunday ekan, o‘quvchilar nutqini o‘stirishning ikkinchi sharti nutqqa oid mashqlarning materiali haqida bo‘lib, o‘quvchi nutqi mazmunli bo‘lishi uchun g‘amxo‘rlik qilish hisoblanadi.

3. Fikr tinglovchi tushunadigan so‘z, so‘z birikmalari, gap, nutq birliklari yordamida ifodalansagina tushunarli bo‘ladi. Shuning uchun nutqni muvaffaqiyatli o‘stirishning uchinchi sharti – nutqni til vosi-

[22] Рождественский Н. С., Кустарева В. А. Методика начального обучени русскому зыку.– М.: „Просвещение“, 1965. с.289.

www.ziyouz.com kutubxonasi

talari bilan qurollantirish hisoblanadi. O'quvchilarga til namunalarini berish, ular uchun yaxshi nutqiy sharoit yaratish zarur. Nutqni eshitish va undan o'z tajribasida foydalanish natijasida bolalarda ta'lim metodikasi asoslanadigan ongli ravishda „tilni sezish" shakllanadi.

Nutq o'stirishning metodik sharti nutqiy faoliyatning keng tizimini yaratish, ya'ni, birinchidan, yaxshi nutq namunasini idrok etish, ikkinchidan, o'rgangan til vositalaridan foydalanib, o'z fikrini bayon etish uchun sharoit yaratish hisoblanadi.

Bola tilni nutqiy faoliyat jarayonida o'zlashtiradi. Buning o'zi yetarli emas, chunki u nutqni yuzaki o'zlashtiradi. Nutqni egallashning qator aspektlari mavjud. Bular:

1. Adabiy til me'yorlarini o'zlashtirish. Maktab o'quvchilarini adabiy tilni sodda so'zlashuv tilidan, sheva va jargondan farqlashga o'rgatadi, adabiy tilning badiiy, ilmiy, so'zlashuv variantlari bilan tanishtiradi.

2. Jamiyatimizning har bir a'zosi uchun zarur bo'lgan muhim nutq malakalarini, ya'ni o'qish va yozish malakalarini o'zlashtirish. Bu bilan o'quvchilar yozma nutqning xususiyatlarini, uning og'zaki so'zlashuv nutqidan farqini bilib oladi.

3. O'quvchilarning nutq madaniyatini takomillashtirish. Til jamiyatdagi eng muhim aloqa vositasidir. Tilning mana shu ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqib, maktabda o'quvchilarning nutq madaniyatiga alohida e'tibor beriladi.

Bu vazifalarni bajarish uchun o'qituvchi o'quvchilar bilan rejali ish olib borishi lozim. Buning uchun esa o'quvchilar nutqini o'stirish ustida ishlash tushunchasiga nimalar kirishini bilib olish muhimdir.

Nutq o'stirishda uch yo'nalish aniq ajratiladi: ***1) so'z ustida ishlash; 2) so'z birikmasi va gap ustida ishlash; 3) bog'lanishli nutq ustida ishlash.***

So'z, so'z birikmasi va gap ustida ishlash uchun lingvistik baza bo'lib leksikologiya (frazeologiya va stilistika bilan birgalikda), morfologiya, sintaksis xizmat qiladi; bog'lanishli nutq esa mantiqqa, adabiyotshunoslik va murakkab sintaktik butunlik lingvistikasiga asoslanadi.

Ko'rsatilgan uch yo'nalish parallel olib boriladi: lug'at ishi gap uchun material beradi; so'z, so'z birikmasi va gap ustida ishlash bog'lanishli nutqqa tayyorlaydi. O'z navbatida, bog'lanishli hikoya va insho lug'atni boyitish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

O'quvchilar nutqini o'stirish o'z metodik vositalariga ega, o'zining mashq turlari bor. Bulardan eng muhimlari bog'lanishli nutq mashqlari hisoblanadi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Nutq o'stirishda izchillik to'rt shartni, ya'ni mashqlarning izchilligi, istiqboli, xilma-xilligi, xilma-xil mashq turlarini umumiy maqsadga bo'ysundirish ko'nikmasini amalga oshirish bilan ta'minlanadi. Har bir yangi mashq oldingisi bilan bog'lanadi va keyingisiga o'quvchilarni tayyorlaydi, umumiy maqsadga bo'ysungan holda yana qandaydir yangilik qo'shadi.

Maktabda o'quvchilar nutqini o'stirishga ona tili o'qitishning asosiy vazifasi deb qaraladi. Nutq o'stirish faqat ona tili va o'qish darslariningginа emas, balki o'quv rejasidagi barcha fanlar (tabiatshunoslik, matematika, mehnat, tasviriy san'at, ashula darslari)ning, shuningdek, sinfdan tashqari o'tkaziladngan tadbirlarning ham vazifasidir.

Nutq turlari

Kishilar tildan fikr bayon qilish quroli sifatida foydalanadilar. Ular o'z fikrlarini ovoz bilan eshittirib bayon qilishdan oldin u haqda o'ylab oladilar. Bu **ichki nutq** hisoblanadi. Ichki nutq eshittirilmagan va yozilmagan, „o'ylangan" (fikrlangan) nutqdir, bu nutq fikrlovchi kishining o'ziga qaratiladi. **Tashqi nutq** tovushlar yordamida eshittirilib yoki grafik belgilar bilan yozilib, boshqalarga qaratilgan nutqdir. Ichki va tashqi nutqning fiziologik tabiati bir xil; farqi — tashqi nutqda nutq a'zolarining harakati natijasida tovush chiqariladi yoki yozib bayon etiladi; ichki nutqda nutq a'zolarining harakati tovushsiz yuzaga keladi.

Ichki nutq materialni tushunish va yodda saqlashga yordam beradi, tashqi nutqni o'stirishda birdan-bir zaruriy vosita hisoblanadi. O'ylash, fikr yuritish ichki nutq asosida bo'ladi. Ichki nutq o'quvchini tashqi nutqqa, javobgarlikni his qilib gapirishga o'rgatadi. Ichki nutq jarayonida o'ylash o'quvchining nutqi va tafakkurining o'sishida muhim vositadir.

Maktabda o'quvchilarning tashqi nutqigina emas, balki ichki nutqi ham o'stiriladi. Bolalar ichda o'qishga o'rganadilar va ichki nutqda materialni o'zlashtiradilar, turli vazifalarni o'zlari hal qiladilar, asosiysi — o'zlarining og'zaki va yozma fikrlarini tayyorlab oladilar.

Fikrni ifodalash usuliga ko'ra nutq **og'zaki** va **yozma** bo'ladi. Og'zaki nutq yozma nutqdan quyidagicha farqlanadi: og'zaki nutq tovush nutqi, yozma nutq esa grafik nutqdir. Og'zaki nutqda eshitish sezgisi, yozma nutqda esa ko'rish va harakat (qo'l harakati) sezgisi asosiy o'rin tutadi. Og'zaki nutq ham, yozma nutq ham kishilarning o'zaro

www.ziyouz.com kutubxonasi

aloqa quroli sifatida xizmat qiladi, ammo og'zaki nutq aniq hayotiy sharoitda, bevosita aloqa jarayonida yuzaga keladi; yozma nutqdan bevosita, aniq sharoitdan ajratilgan holda ham, kishi ishtirokisiz ham foydalaniladi.

Og'zaki nutq ko'pincha dialog tarzida, yozma nutq esa monolog tarzida bo'ladi. Yozma nutq logik izchillikka rioya qilgan holda, ayrim til shakllarini tushirib qoldirmay, ortiqcha takrorga yo'l qo'ymay bayon qilishni talab etadi. Shuning uchun yozma nutq ancha murakkab va mavhum hisoblanadi.

O'quvchilar nutqiga qo'yiladigan talablar

O'quvchilar nutqini o'stirishda aniq belgilangan bir qator talablarga rioya qilinadi:

1. O'quvchilar nutqi mazmundor bo'lsin. Hikoya yoki insho o'quvchilar uchun yaxshi ma'lum bo'lgan dalillar, ularning kuzatishlari, hayotiy tajribalari, kitoblardan, rasmlardan, radioeshittirish va teleko'rsatuvdan olgan ma'lumotlari asosida tuzilsagina mazmunli bo'ladi. Bolalar bilmagan narsa, ko'rmagan voqea-hodisalar haqida yetarli tayyorgarliksiz so'zlashga yo'l qo'yilsa, nutq mazmunsiz chiqadi.

Nutq o'stirish metodikasi hikoya, insho uchun materialni puxta tayyorlashni, ya'ni material yig'ish, uni muhokama qilish, to'ldirish, asosiy mazmunni ajratish, zaruriy izchillikda joylashtirishni talab qiladi. Albatta, bunda o'quvchilarning yosh xususiyatlari va qiziqishlari ham hisobga olinadi.

2. Nutqda mantiqiylik bo'lsin. O'quvchilar nutqi mantiqan to'g'ri bo'lishi, fikr izchil, asosli bayon etilishi, asosiy o'rinlar tushirib qoldirilmasligi va o'rinsiz takrorga, mavzuga taalluqli bo'lmagan ortiqchalikka yo'l qo'yilmasligi talab etiladi. Nutqning mantiqiyligi narsa, voqea-hodisalarni yaxshi bilish bilan belgilanadi, mantiqiy xato esa material mazmunini aniq bilmaslik, mavzuni o'ylamasdan noqulay tanlash natijasida kelib chiqadi. Bu ikki talab nutqning mazmuni va qurilishiga taalluqlidir. Nutqni til jihatidan shakllantirishga oid talablar ham mavjud.

3. Nutq aniq bo'lsin. O'quvchi dalillar, kuzatishlar, taassurotlarini haqiqatga mos ravishda oddiy bayon etibgina qolmay, shu maqsadning eng yaxshi til vositalaridan (so'z, so'z birikmasi, gaplardan) foydalangan holda, maxsus tasvirlar bilan ifodalashga o'rgansin.

www.ziyouz.com kutubxonasi

4. Nutq til vositalariga boy bo'lsin. Mazmunni aniq ifodalash uchun o'quvchi nutqi til vositalariga boy bo'lishi, u har qanday vaziyatda ham kerakli sinonimlardan, xilma-xil tuzilgan gaplardan mazmunga eng mosini tanlab foydalana olish ko'nikmasiga ega bo'lishi zarur. Albatta, boshlang'ich sinf o'quvchilariga til boyligi yuzasidan yuqori talab qo'yib bo'lmaydi, ammo o'qituvchi o'quv ishlarida ularning so'z boyligini oshirib borishni har vaqt ko'zda tutishi kerak.

5. Nutq tushunarli bo'lsin. Og'zaki nutq eshituvchiga, yozma nutq esa uni o'quvchiga tushunarli bo'lishi zarur. So'zlovchi yoki yozuvchi nutqini eshituvchining yoki o'quvchining imkoniyatini, qiziqishini hisobga olgan holda tuzsa, uni hamma birdek, hech qiyinchiliksiz tushunadi.

6. Nutq ifodali bo'lsin. Agar nutq ifodali, ya'ni jonli, ishontiradigan bo'lsa, eshituvchiga yoki o'quvchiga ta'sir etadi. Og'zaki nutq eshituvchiga intonatsiya orqali ta'sir etsa, og'zaki nutq ham, yozma nutq ham tinglovchi va o'quvchiga hikoyaning umumiy ruhi, dalillar, tanlangan so'zlar, ularning emotsionalligi, tuzilgan jumla, iboralar yordamida ta'sir etadi. Nutqning tushunarli va ifodali bo'lishi har qanday shevaga xos va ortiqcha so'zlardan xoli bo'lishini taqozo etadi.

7. Nutq to'g'ri bo'lsin. Maktab o'quvchilari uchun nutqning adabiy til me'yorlariga mos va to'g'ri bo'lishi alohida ahamiyatga ega. Yozma nutq grammatika, imlo va punktuatsiya jihatidan, og'zaki nutq esa orfoepik jihatdan to'g'ri tuzilishi talab etiladi. Nutqning to'g'ri bo'lishi uchun so'z tanlash va nutq logikasi katta ahamiyatga ega.

Yuqorida sanab o'tilgan talablar o'zaro bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, ta'lim tizimida kompleks ravishda amalga oshiriladi.

Nutq – o'quvchilar tafakkurini o'stirishdagi muhim vosita

Nutq fikrni bayon etish vositasi bo'libgina qolmay, uni shakllantirish quroli hamdir. Fikr nutqning psixologik asosi vazifasini bajaradi, uni o'stirish sharti esa fikrni boyitish hisoblanadi. Aqliy faoliyat tizimini egallash asosidagina nutqni muvaffaqiyatli o'stirish mumkin. Shuning uchun o'quvchilar nutqini o'stirishda materialni tayyorlash, takomillashtirish, mavzuga tegishlisini tanlash, joylashtirish va mantiqiy fikrlashga yo'naltiradigan ish turlariga katta ahamiyat beriladi.

Tafakkur til materiali yordamida nutqiy shakllantirilsa va bayon etilsagina, muvaffaqiyatli o'sadi. Tushuncha so'zlar yoki so'z birik-

www.ziyouz.com kutubxonasi

malari bilan ifodalanadi, shunday ekan, u til vositasi bo'lgan so'zda muhim aloqa materialiga aylanadi. Kishi tushuncha ifodalaydigan so'z (so'z birikmasi)ni bilsagina, shu tushunchaga asoslangan holda tashqi nutqda fikrlash imkoniga ega bo'ladi.

Nutqda fikr shakllantiriladi, shu bilan birga, fikr nutqni yaratadi. „Nutq tafakkur bilan chambarchas bog'langandir. Nutq bo'lmasa, tafakkur ham bo'lmaydi; til materiali bo'lmasa, fikrni ifodalab berib bo'lmaydi"[23].

Fikrni nutqiy shakllantirish uning aniq, tushunarli, sof, izchil, mantiqiy bo'lishini ta'minlaydi. Tilni egallash shu tilning fonetikasini, lug'at tarkibini, grammatik qurilishini bilib olish, fikrni takomillashtirish uchun, tafakkurni o'stirish uchun shart-sharoit hozirlaydi. Bilimlar, dalillar, har xil axborotlar tafakkurning ham, nutqning ham materialidir. Nutq tafakkur jarayonini o'rganishning muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi. Nutqdan o'quvchi fikriy rivojining asosiy o'lchovlaridan biri sifatida foydalaniladi. O'quvchining barcha o'quv predmetlaridan materialni o'zlashtirishi va umumiy aqliy rivojlanishi haqida fikr yuritganda, u yoki bu mavzuni o'quvchi o'z nutqida (yozgan inshosida, axborotida, qayta hikoyalashda, savollarga bergan javobida) qanday bayon eta olishiga qaraladi.

Shunday qilib, nutqni tafakkurdan ajratib bo'lmaydi, nutq tafakkur asosida rivojlanadi; fikr nutq yordamida pishib etiladi, yuzaga chiqadi. Ikkinchi tomondan, nutqning o'sishi fikrni shakllantirishga yordam beradi, takomillashtiradi.

O'quvchilar nutqini o'stirishning boshqa o'quv predmetlari bilan bog'liqligi

O'quvchilar nutqini o'stirish boshqa o'quv predmetlaridan o'tkaziladigan mashg'ulotlar bilan ham uzviy ravishda bog'lanadi. Ona tili darslarida o'quvchilar til yordamida tabiat va kishilar hayoti haqida bilim oladilar; ular kuzatishni, o'ylashni va ko'rganlari, eshitganlari, o'qiganlari haqida to'g'ri bayon qilishni o'rganadilar. Ona tili darslari bolalar lug'atini boyitishga samarali yordam beradi, nutqni to'g'ri tuzishni o'rgatadi.

O'qish darsi va u bilan bog'liq holda olib boriladigan kuzatish, ekskursiya o'quvchilarga tabiat hodisalari, kishilar hayoti va mehnati haqida, axloq qoidalari, boshqa kishilar bilan muomala qilish

[23] Ivanov P. I. Umumiy psixologiya. – T.: „O'qituvchi", 1967. 306-bet.

www.ziyouz.com kutubxonasi

haqida bilim beradi. Bu darslarda bolalar nutqiga, uni shakllantirish va o'stirishga keng imkoniyat mavjud. Badiiy asarlarni o'qish, o'qilganlarni qayta hikoyalash, ekskursiyada, predmet va tabiat hodisalarini kuzatish vaqtida ko'rganlarini hikoya qilish o'quvchilar og'zaki nutqini o'stirish vositasidir. Ona tili darslarida esa yozma nutqni o'stirish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Grammatikani o'rganish va o'qish darslarida o'quvchilar bajaradigan so'z birikmasi, gap tuzish, bayon, inshoga doir turli xil mashqlar nutqiy malakalarni egallashda yordam beradi.

Grammatika va to'g'ri yozuv darslarida tilni maxsus o'rganish bilan bolalar alohida tovush, bo'g'in, so'z va gaplarni eshitishga va talaffuz qilishishga o'rganadilar. Ular narsa, harakat, belgi bildirgan ko'pgina so'zlarni, shuningdek, tovush, harf, bo'g'in, so'z, o'zak, qo'shimcha, so'z turkumi, ot, sifat, fe'l, son, olmosh, bog'lovchi, gap, gap bo'lagi, darak gap, so'roq gap, undov gap singari juda ko'p yangi atamalarni bilib oladilar.

Boshlang'ich sinflardagi boshqa darslarda ham o'quvchilar nutqi xilma-xil so'zlar bilan boyitiladi. Kuzatish va turli ko'rgazmali qurollar bu darslarda ham bilim olish, tushunchalarni shakllantirish vositasi hisoblanadi.

Matematika darslarida bolalar yangi tasavvur va tushunchalar, juda ko'p so'z va atamalar bilan o'z nutqlarini boyitadilar, sodda va qo'shma gap tuzishga o'rganadilar: 5 soni 3 sonidan katta (5 > 3) yoki uch soni besh sonidan kichik (3 < 5); bitta o'nlikka ikkita o'nlik va 5 ta birlikni qo'shsak, uchta o'nlik va 5 ta birlik hosil bo'ladi (10 + 25 = 35) va hokazo.

Masala echish jarayonida esa ular shu vaqtgacha o'z nutqlarida ishlatib kelgan *bo'ladi, qoladi, hosil bo'ladi, teng* kabi so'zlarning yangi ma'nosini bilib oladilar; *...bizga ma'lum, masalada so'ralyapti* kabi so'z birikmalarini ishlatishga o'rganadilar.

Matematika darslari o'quvchilarning bog'lanishli nutqini o'stirishda muhim ahamiyatga ega. Ular masalani yechishda savolga to'liq javob berishga, atamalarni to'g'ri ishlatib, qoidalarni o'z saviyalariga mos ravishda aniq shakllantirishga o'rgatiladi. Bular, o'z navbatida, o'quvchilar nutqini boyitish va faollashtirish vositasi hisoblanadi.

Bog'lanishli nutq ko'nikmalarini egallashga masala echish bilan bog'liq holda olib boriladigan ishlar, ayniqsa, masala tuzishga o'rgatish mashqlari samarali ta'sir ko'rsatadi. Masala o'qib eshittirilgandan so'ng, o'quvchilar uning asosiy mazmunini eshitib idrok etishga,

www.ziyouz.com kutubxonasi

to'g'ri, qisqa va aniq qayta aytib berishga o'rgatiladi. Masala tuzishga o'rgatish esa mantiqiy izchil, muhokama elementlari bilan kichik hikoya tuzish imkoniyatini beradi. Bu mashq o'quvchidan faollikni va mustaqillikni talab etadi, bolaning bilish faolligi va mustaqilligini oshirish esa uning umumiy rivojlanishida juda muhimdir. Masala tuzish kichik hikoya tuzishdir. Masalaning hikoyadan farqi shundaki, unda nimadir noma'lum bo'lib, uni topish uchun ma'lum so'roqqa javob berish talab etiladi. O'quvchi rasm asosida *„Daraxtga uchta chumchuq qo'ngan edi, yana ikkita chumchuq uchib kelib qo'ndi. Daraxtda nechta chumchuq bo'ldi?"* masalasini tuzadi. Bu masalani echishda o'quvchilar daraxtga qo'ngan chumchuqlar sonini bilish uchun nima qilish kerakligini o'ylaydilar, muhokama qiladilar. Masalani echish uchun aniq izchillikda muhokama yuritish va tushuntirish bilan bolalar o'z fikrlarini matematika tilida aniq va bog'lanishli bayon etishga o'rganadilar.

Shunday qilib, matematika darslarida o'qituvchi bolalar lug'atini boyitish, turli xil gap, bog'lanishli nutq va bayon, muhokama elementi mavjud bo'lgan hikoya tuzish ustida ishlaydi. O'qituvchi matematika tili xususiyatlarini o'zlashtirishga ko'maklashish bilan bog'liq holda, o'quvchilar tafakkurini, nutqini o'stiradi. O'qituvchi matematik mazmungagina emas, balki shu mazmunni o'quvchilar nutqida to'g'ri shakllantirishga ham e'tibor bersa, bu darslarda egallanadigan bilim haqiqiy va o'quvchilar nutqining o'sishi uchun samarali vosita bo'ladi. *„Fikrni aniq shakllantirishni talab qilish, masala shartini ongli takrorlatish, mustaqil masala tuzdirish va savollar yordamida masalani echish yo'lini tushuntirish ko'nikmasi ustida ishlash o'quvchilarda qayta hikoyalash, insho va muhokama qilish madaniyatini o'stiradi"*[24].

O'quvchilar tabiatshunoslik darslarida va ekskursiya vaqtida ko'rgan narsalarini o'qituvchi yordamida guruhlaydilar, ularni o'zaro taqqoslab, o'xshash va farqli tomonlarini topib aytadilar. Bular, o'z navbatida, tabiatga oid ayrim tushunchalarni aniq bilib olishga imkon beradi va tafakkurni o'stiradi. Tabiat hodisalari va predmetlarni idrok etish bilan bolalar ongida tabiatshunoslikka oid tushunchalar hosil bo'ladi. Bu tushunchalar ta'lim jarayonida yo narsalarni (*daraxt, olma, shaftoli, o'rik, olxo'ri, gul, o't* kabi), yo ularning belgisini (*mevali, mevasiz; achchiq, nordon, shirin; qizil, oq* kabi), yo harakatini

[24] Рождественский Н. С., Кустарева В. А. Методика начального обучени русскому зыку. – М.: „Просвещение", 1965. с.297.

www.ziyouz.com kutubxonasi

(*daraxt o'sadi, qush uchadi, bulbul sayraydi* kabi) ifodalovchi so'zlar bilan bog'lanadi.

Mehnat va rasm darslari ham, jismoniy tarbiya va ashula darslari ham, shuningdek, darsdan tashqari mashg'ulotlarda ham o'quvchilar nutqi va tafakkurini o'stirishga alohida ahamiyat qaratish zarur.

O'quvchilar nutqini o'stirishda o'qituvchining nutq madaniyati katta ahamiyatga ega. O'qituvchi barcha darslarda, sinfdan va maktabdan tashqari mashg'ulotlarda faqat orfoepik talaffuz va adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holda ifodali, ta'sirli so'zlashi, shuningdek, har doim o'quvchi daftariga, barcha hujjatlarga husnixat va imlo qoidalariga rioya qilgan holda yozishi zarur. Bu bilan u bolalarni ifodali so'zlashga, xatosiz, chiroyli yozishga o'rgatadi, tilga sezgirlikni uyg'otadi.

LUG'AT USTIDA ISHLASH METODIKASI

Lug'at ustida ishlashning lingvistik asoslari

So'z tilning ma'no bildiradigan asosiy birligidir. So'z va so'z birikmasi aniq narsalarni, mavhum tushunchalarni, hissiyotni ifodalaydi. Tilda mavjud bo'lgan barcha so'z va iboralarning yig'indisi *lug'at tarkibi* yoki *leksika* deyiladi. Leksikologiya o'zbek tilining lug'at tarkibini o'rganadigan bo'limdir. Leksikologiya lug'at tarkibidagi so'zlarning nutqda ma'no ifodalash xususiyati, qo'llanish faolligi, boyib borishi, ba'zi so'zlarning eskirib, iste'moldan chiqib ketishi, ma'no ko'chish hodisasi kabilarni o'rganadi. Shu sababli leksikologiya lug'at ustida ishlash metodikasining lingvistik asosi hisoblanadi.

Har qanday nutqiy bayon grammatik jihatdan o'zaro bog'langan, mazmunga mos so'z va so'z birikmalarining ma'lum izchillikda joylashtirilishidan tuziladi. Kishining lug'ati qanchalik boy va rivojlangan bo'lsa, uning nutqi ham shunchalik boy bo'ladi; o'z fikrini aniq va ifodali bayon etishiga keng imkoniyat yaratiladi. Shuning uchun lug'atning boyligi, xilma-xilligi, harakatchanligi metodikada nutqni muvaffaqiyatli o'stirishning muhim sharti hisoblanadi.

Hozirgi o'zbek adabiy tili ulkan lug'at boyligiga ega. Besh jildlik „O'zbek tilining izohli lug'ati" da 80 000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi berilgan bo'lib, bular umumiy qo'llaniladiganlaridir. Bunga o'zbek tilida nashr etilgan turli terminologik lug'atlarda, o'zbek tili sinonimlari, antonimlari, frazeologik lug'atlarida va turli izohli lug'atlarda

www.ziyouz.com kutubxonasi

berilgan so'zlar qo'shilsa, lug'at boyligi yana ming-minglab oshadi. Bulardan tashqari, juda ko'p so'zlar ko'p ma'noni bildiradi. Masalan, shu izohli lug'atda bosh so'zining 40 dan ortiq asosiy va frazeologizm bilan bog'langan ma'noda ishlatilishi berilgan.

Maktabda nutq o'stirishning muhim vazifalaridan biri lug'at ustida ishlashni yaxshilash, tartibga solish, uning asosiy yo'nalishlarini ajratish va asoslash, o'quvchilarning lug'atini boyitish jarayonini boshqarish hisoblanadi.

Maktabda lug'at ustida ishlash metodikasi to'rt asosiy yo'nalishni ko'zda tutadi:

1. O'quvchilar lug'atini boyitish, ya'ni yangi so'zlarni, shuningdek, bolalar lug'atida bo'lgan ayrim so'zlarning yangi ma'nolarini o'zlashtirish. Ona tilining lug'at boyligini bilib olish uchun o'quvchi o'z lug'atiga har kuni 8–10 ta yangi so'zni, shu jumladan, ona tili darslarida 4–6 so'zni qo'shishi, ya'ni shu so'zlar ma'nosini o'zlashtirishi lozim.

2. O'quvchilar lug'atiga aniqlik kiritish. Bu o'z ichiga quyidagilarni oladi: 1) o'quvchi puxta o'zlashtirmagan so'zlarning ma'nosini to'liq o'zlashtirish, ya'ni shu so'zlarni matnga kiritish, ma'nosi yaqin so'zlarga qiyoslash, antonim tanlash yo'llari bilan ularning ma'nosiga aniqlik kiritish; 2) so'zning kinoyali ma'nosini, ko'p ma'noli so'zlarni o'zlashtirish; 3) so'zlarning sinonimlarini, sinonim so'zlarning ma'no qirralarini o'zlashtirish; 4) ayrim frazeologik birliklarning ma'nosini o'zlashtirish.

3. Lug'atni faollashtirish, ya'ni o'quvchilar ma'nosini tushunadigan, ammo o'z nutq faoliyatida ishlatmaydigan nofaol lug'atidagi so'zlarni faol lug'atiga o'tkazish. Buning uchun shu so'zlar ishtirokida so'z birikmasi va gaplar tuziladi, ular o'qiganlarni qayta hikoyalash, suhbat, bayon va inshoda ishlatiladi.

4. Adabiy tilda ishlatilmaydigan so'zlarni o'quvchilar faol lug'atidan nofaol lug'atiga o'tkazish. Bunday so'zlarga bolalarning nutq muhiti ta'sirida o'zlashib qolgan adabiy til me'yoriga kirmaydigan, ayrim adabiy asar va so'zlashuv tilida qo'llanadigan sodda so'z va iboralar, sheva va ijtimoiy guruhga oid so'zlar kiradi. Adabiy til me'yori degan tushunchani o'zlashtirgach, o'quvchilar yuqorida izohlangan so'zlar o'rniga adabiy tildagi so'zlardan foydalana boshlaydilar. Adabiy tilga oid malakalari mustahkamlangan sayin shevaga, jargonga oid so'zlar, so'zlashuv tilida ishlatiladigan sodda so'z va iboralar o'quvchilarning faol lug'atidan chiqib keta boshlaydi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

O'quvchilar lug'ati quyidagi manbalar asosida boyitiladi va takomillashtiriladi:

1. Atrof-muhitni: tabiatni, kishilarning hayoti va mehnat faoliyati, bolalarning o'yini va o'qish faoliyatini, kattalar bilan munosabatni kuzatish. Tabiat qo'yniga, turli joylarga, muassasalarga ekskursiya vaqtida bolalar narsa va hodisalarni kuzatish bilan ko'pgina yangi nom va iboralarni o'rganadilar. Bu ekskursiyalar yuzasidan o'tkazilgan suhbat vaqtida ularning bilimi chuqurlashtiriladi, ayrim so'zlar ma'nosiga aniqlik kiritiladi.

O'quvchilar lug'atini va nutqini boyitishda eng ishonarli manba badiiy asarlar hisoblanadi. O'qish darslarida o'quvchilar Oybek, H. Olimjon, M. Shayxzoda, G'. G'ulom, H. Hakimzoda, Zulfiya, X. To'xtaboyev, P. Mo'min, Q. Muhammadiy, Sh. Sa'dulla, Z. Diyor, N. Fozilov, T. Adashboyev, A. Obidjon kabi ko'pgina so'z ustalarining asarlarini o'qiydilar. O'zbek tilini yuksak badiiy obrazlar yordamida o'zlashtiradilar. O'qish darsida bolalar lug'ati ma'lum mavzularga oid so'zlar hisobiga ham boyiydi. Ular lug'atiga axloqiy tushunchalarni ifodalovchi *yoqimtoy, shirinso'z, mehribon, haqqoniy, botir, mard, jasur, mehnatsevar* kabi ko'pgina so'zlar qo'shiladi. Matn ustida ishlash jarayonida ko'p ma'noli so'zlar, sinonimlar, ko'chma ma'noda ishlatiladigan so'zlarni, ba'zi frazeologik birikmalarni bilib oladilar.

Bolalar mustaqil o'qishga o'rganganlaridan keyin ular lug'atiga kitob, gazeta, jurnal materiallari katta ta'sir qiladi. Shuning uchun ham sinfdan tashqari mustaqil o'qish va unga rahbarlik shakllari o'quvchilar lug'atini boyitishning, nutqini o'stirishning eng muhim manbalaridan hisoblanadi.

Maxsus mashqlar yordamida grammatika va imloni o'rganish darslari ko'pgina so'z va atamalarni o'zlashtirishga yordam beradi, o'quvchilar predmet, belgi, harakat, sanoq, tartib ifodalaydigan so'zlarni bilib oladilar. Bu darslarda o'quvchilar lug'ati tartibga solinadi, so'z turkumlarini o'rganish jarayonida guruhlanadi, so'z tarkibi, so'z yasalishi, so'zlarning o'zgarishini o'rganish bilan esa lug'atga aniqlik kiritiladi; ular o'rgangan so'zlaridan o'z nutqlarida foydalana boshlaydilar, natijada lug'atlari faollashadi. O'quvchilar lug'ati maxsus lug'aviy-mantiqiy mashqlar yordamida ham boyiydi, tartibga tushadi.

Bulardan tashqari, kinofilm va tele ko'rsatuv matnlari, o'qituvchi va boshqa maktab hamda maktabdan tashqari muassasalar xodimlarining nutqlari ham o'quvchilar lug'atini boyitish va takomillashtirish manbalari hisoblanadi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Lug'atni boyitishda turli lug'atlar juda foydali qo'llanmadir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun „Imlo lug'ati" mavjud. O'qituvchi ma'lumot uchun ham, material tanlash uchun ham turli lug'atlardan (o'zbek tilining sinonimlar, antonimlar, frazeologik lug'atlaridan, turli terminologik lug'atlardan) muvaffaqiyatli foydalanadi.

So'z ma'nosini tushuntirish

So'zlarning ma'nosini tushuntirish o'quvchilar lug'atini boyitadi, nutqini o'stiradi. Boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan fanlarning atamalari ham tushuntirilishi lozim bo'lgan so'zlar qatoriga kiritiladi. Atamalarning ma'nosini tushuntirish mazkur so'z anglatgan tushunchani yaxshi fahmlab olishga yordam beradi. Masalan, predmet atamasining ma'nosini tushuntirish bilan o'quvchilar predmet keng ma'noda qo'llanishini, tabiatdagi barcha narsa, hodisa, tushunchalar predmet deyilishini bilib oladilar. Bu ot, sifat, son, fe'l kabi atamalarni tez fahmlab olishda ularga yordam beradi.

So'zning ma'nosini tushuntirish juda kam vaqt olishi va darsning asosiy mavzusidan o'quvchilar diqqatini chalg'itmasligi kerak. Buning uchun o'qituvchi har bir darsga tayyorlanish jarayonida ma'nosi tushuntirilishi lozim bo'lgan so'zlarni, uni tushuntirishning eng qulay usullarini va darsning qaysi o'rnida tushuntirishni belgilab oladi.

O'qish kitoblaridagi matnlarda birinchi marta uchragan, bolalar ma'nosini bilmaydigan ayrim so'zlar matnni o'qishdan oldin tushuntiriladi.

Matnni o'qish jarayonida so'z ma'nosini tushuntirishga chek qo'yish kerak. Agar biror so'zni matnni o'qish vaqtida tushuntirish zaruriyati tug'ilsa, matn mazmunidan o'quvchilar diqqatini chalg'itmagan holda shu so'z ma'nosi qisqacha tushuntiriladi.

Ko'chma ma'noda ishlatilgan obrazli so'zlar va badiiy nutq birliklari matn o'qilgandan keyin tushuntiriladi, chunki ularning ma'nosi matn mazmunidan, kontekstdan yaxshi tushuniladi. Ayniqsa, masallar o'qilganda, undagi allegorik, ko'chma ma'noda ishlatilgan so'zlarni asarni o'qishdan oldin yoki o'qish jarayonida tushuntirib bo'lmaydi.

Metodikada so'zlarni tushuntirishning quyidagi usullaridan foydalaniladi:

1. So'zni kontekst asosida tushuntirish. Bunda o'quvchilar tushunmaydigan so'z ularga tushunarli so'zlar qo'llangan gap (yoki matn) yordamida tushuntiriladi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

2. So'z ma'nosini lug'atdan va o'qish kitoblarida matn ostida berilgan izohdan foydalanib tushuntirish. Bunda o'quvchilarni izohdan mustaqil foydalanib, so'z ma'nosini mustaqil tushunib olishga o'rgatish muhim ahamiyatga ega.

3. So'z ma'nosini shu so'zning ma'nodoshi yordamida tushuntirish. Masalan, *sabo — shabada, mudofaa — himoya, sozanda — musiqachi, diyor — vatan, inshoot — bino, samo — osmon* kabi. So'zni sinonim tanlash bilan tushuntirganda, shu so'zning stilistik (uslubiy) ahamiyatini ham ko'rsatish zarur.

4. Tanish bo'lmagan so'z bilan ifodalangan tushunchani tanish bo'lgan so'z bilan ifodalangan tushunchaga (uning antonimiga) taqqoslash orqali tushuntirish. Masalan, *ishchan* tushunchasini *dangasa* tushunchasiga, *rostgo'y* so'zini *yolg'onchi* so'ziga taqqoslab tushuntirish mumkin.

Ko'chma ma'noda ishlatilgan so'z va so'z birikmalari, tasviriy vositalar, maqollar ham taqqoslash usulidan foydalanib tushuntiriladi.

5. So'zni o'ziga yaqin tushuncha — boshqacha ifoda etish bilan tushuntirish. Bunda tushuntiriladigan so'zning izohi qisqa va aniq bo'lishi kerak. Masalan, *o'zboshimchalik* — o'z xohishicha ish tutish, ishni o'zi xohlaganicha bajarish; *mutaxassis* — biror hunar egasi; *shunqor* — uzoq uchadigan ko'zi o'tkir qush; *mesh* — mol terisidan tikilgan idish; *guldon* — gul solib qo'yiladigan idish va boshq.

Ba'zi so'zlar ularning vazifasini izohlash orqali tushuntiriladi. Masalan, *kombayn* — bir vaqtning o'zida donni o'radigan, yanchadigan, tozalaydigan qishloq xo'jalik mashinasi; *ekskavator* — bir vaqtning o'zida erni qazib tuproqni yuk mashinasiga ortadigan mashina; *aerodrom* — samolyotlar turadigan, uchib ketadigan yoki kelib qo'nadigan joy va hokazo.

6. So'zni predmetning asosiy belgisini izohlash orqali tushuntirish. Masalan, *yantoq* — suvsiz joyda o'sadigan ninasimon tikanli o'simlik; *akula* — okeanlarda yashaydigan juda katta yirtqich baliq.

7. Axloqiy, mavhum tushunchalarni ifoda etuvchi so'zlarning ma'nosini misollar yordamida tushuntirish. Buning uchun o'quvchilar o'rgangan badiiy asardan axloqiy fazilatga ega bo'lgan asar qahramonining qilgan ishlari tahlil qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, so'z ma'nosini tushuntirish ustida ishlash o'quvchilar lug'atini boyitadi, nutqini ravonlashtiradi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Ma'nodosh so'zlar ustida ishlash

Ma'nodosh so'zlar (sinonimlar) talaffuzi, yozilishi har xil bo'lgan bir umumiy tushuncha(ma'no) ifodalaydigan so'zlardir. Sinonimlar bir-biridan qo'shimcha ma'no qirrasi, emotsional bo'yog'i, qo'llanilishi jihatidan o'zaro farqlanadi. *Katta, ulug', buyuk, zo'r, azim, ulkan, bahaybat, haybatli, yirik, gigant* sinonimik qatorini tashkil qilgan so'zlardan *katta* so'zi keng tushunchani anglatib, aniq tushunchaga nisbatan ham, mavhum tushunchaga nisbatan ham ishlatilaveradi. *Ulug', buyuk, zo'r, azim, ulkan* so'zlari hajmi ancha katta bo'lgan narsalarga, *bahaybat, haybatli* so'zlari esa o'lchovi juda katta bo'lgan narsalarga nisbatan ishlatiladi. *Yirik* kam ishlatiladi. *Gigant* kitobiy uslubga xos bo'lib, asosan joy, qurilishga nisbatan qo'llanadi.

Sinonimlar tilni leksik tomondan boyitadi, shuning uchun bunday so'zlar bilan ishlash juda muhim. Kishi lug'atida sinonimlar qancha ko'p bo'lsa, uning til ifodaliligi shuncha ortadi.

O'zbek tili – sinonimlarga boy til. „O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati" da *katta* so'zining 11 ta, *marta* so'zining 13 ta sinonimi berilgan.

Boshlang'ich sinflarda sinonim haqida nazariy ma'lumot berilmaydi, ammo sinonimlar haqidagi tushuncha amaliy mashq yordamida shakllantiriladi. Sinonimlar bilan ishlash elementar tarzda 1-sinfdan boshlanadi: o'quvchilar berilgan so'zning sinonimini topishga, boshqacha qilib qanday aytish mumkinligini tushuntirishga, 2–3-sinflarda esa berilgan so'zning 2–3 sinonimini topib aytishga o'rgatiladi.

Boshlang'ich sinflarda ma'nodosh so'zlarga oid quyidagicha mashqlar ishlatiladi:

1. Berilgan ma'nodosh so'zlarni guruhlash. Bunda bir so'z turkumiga oid ikki sinonimik qatordagi so'zlar ichiga bir-ikkita boshqa so'z kiritib beriladi. O'quvchilar sinonimlarni ikki guruhga ajratib aytadilar. Buning uchun so'zlar quyidagi kabi berilishi mumkin: *vatan, maqsad, diyor, niyat, mamlakat, murod, yurt.*

2. Berilgan so'zga sinonim tanlash. O'qituvchi otni o'tganda *osmon*, sifatni o'tganda *mazali*, fe'lni o'tganda *ko'nikmoq* so'zlarini aytadi. O'quvchilar bu so'zlarga sinonim tanlaydilar: *osmon – ko'k, samo, falak; mazali – lazzatli, laziz, totli; ko'nikmoq – o'rganmoq, odatlanmoq, odat qilmoq.*

3. Tushirib qoldirilgan sinonim so'zlarni o'z o'rniga qo'yib, matnni ko'chirish. Bunda yozilishi kerak bo'lgan sinonim so'zlar ro'yxati

www.ziyouz.com kutubxonasi

tekshirish uchun beriladi. O'quvchilar sinonimlarni o'rniga qo'yib, ularning qo'llanilishidagi farqni tushuntiradilar.

4. Ma'nodosh so'zlardan mosini qo'yib gaplarni ko'chirish. Buning uchun sinonim so'zlar qatori qavs ichida beriladi, o'quvchi gapning mazmuniga mosini tanlab gapni ko'chiradi: *Daryo suvini (bahor, ko'klam) toshirar, odam qadrini (mehnat, ish) oshirar. Oltin (o't, olov, alanga)da, odam (ish, mehnat)da bilinadi. Birlashgan (yov, dushman) ni qaytarar.*

5. Sinonim so'zlar qatoridan foydalanib didaktik material tuzish va u bilan mashq ishlash. Buning uchun to'rtta sinonimik qatordagi so'zlar tanlanadi va 16 katakka aralash joylashtiriladi. O'qituvchi shu katakchalardagi bir so'zni aytadi. Masalan, *chiroyli.* O'quvchilar shu so'zga yaqin ma'noli so'z (sinonim)ni katakchalardan topib aytadilar: *go'zal, dilbar, sohibjamol, husndor.* Sinonim so'zlar qatori bilan so'z birikmasi tuzadilar: *chiroyli shahar, go'zal manzara, sohibjamol malika* va hokazo.

Zid ma'noli so'zlar ustida ishlash

Qarama-qarshi, zid ma'no bildiradigan so'zlar zid ma'noli so'zlar (antonimlar) deyiladi. Antonimlar belgi bildiradigan so'zlarda ko'p uchraydi. Antonimik munosabat so'z bilan frazeologik birlik (ibora) orasida ham bo'ladi (*yalqov - yuragida o'ti bor* kabi).

Boshlang'ich sinf o'quvchilari antonimlar bilan amaliy tanishtiriladi. Antonimlar ustida ishlash matndan antonimni topishdan boshlanadi, keyin maxsus mashqlar ishlatiladi:

1. Berilgan so'zlarga antonim tanlash. Otni o'tganda: *azob - ..., do'stlik - ..., oq - ..., yoshlik - . ..,* sifatni o'tganda: *dangasa - ... , anqov - ..., rostgo'y - ..., dono - ..., kasal - ...,* fe'lni o'tganda: *kasallandi - ... , yondi - ..., boshladi - ...* kabi beriladi. O'quvchilar berilgan otga *rohat, dushmanlik, qora, qarilik;* sifatga *mehnatkash, hushyor, yolg'onchi, nodon, sog';* fe'lga *sog'aydi, o'chdi, tugatdi* antonimlarini tanlab, jufti bilan yozadilar.

2. Zid ma'noli so'zlarni qatnashtirib gap tuzish. Bunda o'qituvchi antonim tanlab gap tuzish uchun so'z beradi, o'quvchilar berilgan so'zga antonim tanlaydilar va ularni qatnashtirib gaplar tuzadilar.

3. Berilgan gapga antonim topib qo'yish. O'qituvchi *„To'g'ri odam ... so'zdan or qilur. Yosh kelsa ishga, ... kelsa oshga. Yaxshi gap — moy, ... gap — loy. Gapni oz so'zla, ishni ... ko'zla"* kabi gaplar beradi,

www.ziyouz.com kutubxonasi

o'quvchilar gap mazmuniga mos antonim topib, gapni o'qiydilar (yoki yozadilar).

O'quvchilar lug'atini ma'nodosh va zid ma'noli so'zlar bilan boyitish o'z fikrini aniq, ravon va ifodali bayon etishga yordam beradi.

Ko'p ma'noli va shakldosh so'zlar ustida ishlash

O'quvchilarga ko'p ma'noli so'zlar uchrab turadi, ammo ular ko'p ma'noli so'z ekanini tushunib yetmaydilar.

O'qituvchi badiiy asar ustida ishlash jarayonida o'quvchilarni ko'chma ma'nodagi so'zlar bilan tanishtirish orqali ayrim so'zlar ko'p ma'noda ishlatilishini tushuntirib boradi. Shu bilan birga, maxsus mashqlar ham ishlatiladi:

1. So'zlarning so'z birikmasidagi ma'nosini qiyoslash: *soat yurdi, poezd yurdi, ukam yurdi; tosh yo'l, tosh yurak; kumush qoshiq, kumush osmon, kumush qish.*

2. Gaplarni o'qib, ajratib ko'rsatilgan so'zlarning ma'nosini aytish: *Bu yil* ***yoz*** *issiq bo'ldi. Sen o'rtog'ingga xat* ***yoz.***

Boshlang'ich sinflarda ko'p ma'noli va shakldosh (omonim) so'zlar yuzasidan nazariy ma'lumot berilmaydi, bunday tushunchalarni shakllantirishga tayyorgarlik ko'riladi, xolos.

O'quvchilar nutqini boyitishda maqollar katta ahamiyat kasb etadi. Maqollar o'qish uchun ham, suhbat uchun ham, hikoya tuzish uchun ham, grammatik tahlil va yozuv uchun ham juda qulay materialdir. Ular ixcham, sermazmun va ta'sirchan bo'ladi; maqollar o'quvchilarning badiiy didini o'stiradi, nutqqa e'tibor bilan qarashga, to'g'ri, mantiqiy fikrlashga o'rgatadi, estetik tarbiyasida muhim o'rin tutadi. O'qish kitoblarida mavzuga bog'liq holda, o'zbek tili darsliklarida esa mashq matnlari ichida xilma-xil mavzularda juda ko'p maqollar beriladi. O'quvchilar maqollarni o'qib, o'qilgan asarning axloqiy muammosi bilan, hayotiy sharoit bilan bog'laydilar, ularning majoziy mazmunini, ayrim so'z va iboralarning ma'nosini tushuntiradilar. Natijada o'rni bilan maqollardan foydalana boshlaydilar.

Maqollar o'qilgan asarning xulosasi sifatida ishlatilib, ko'pgina asarlarning mazmunini tushunib olishga yordam beradi. Masalan, „Davlat" (4-sinf) ertagining xulosasi sifatida „Birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar", „Ahillikda hikmat ko'p", „Birlashgan kuch yengilmas", „Do'stlar ahil bo'lsa, ish oson bo'lur" maqollari; „Odobli bo'lish osonmi?" (A. Obidjon) asaridan so'ng „Odob — kishining

www.ziyouz.com kutubxonasi

ziynati", „Odobli bola elga manzur", „Ilmning kattasi – odob", „Aql yoshdan, odob boshdan" maqollari beriladiki, bular shu asar mazmunining mag'zini ochib beradi. O'quvchilar maqollarni yoqtiradilar, shuning uchun ham maqollar bilan berilgan topshiriqlarni jon-dildan bajaradilar. O'qituvchi shularni hisobga olib, maqollar bilan xilma-xil mashqlar ishlatish orqali o'quvchilarga so'zlarning majoziy ma'nosini, ko'p ma'no ifodalashini amaliy singdirib boradi.

Mantiqiy mashqlar

Mantiqiy mashqlar bolalarning narsa va atrof-muhit haqidagi bilimlarini tartibga soladi va ularga to'g'ri fikrlash usullarini o'rgatadi. O'quvchi maktabga kelganda, ko'p lug'at boyligiga ega bo'lsa ham, odatda, tafakkurning taqqoslash, qarshi qo'yish, umumlashtirish, guruhlash usullaridan foydalanishni bilmaydi (ayniqsa, bilish faoliyatining obyekti aniq predmet emas, uni ifodalovchi so'zlar bo'lsa). Mantiqiy mashqlarning vazifasi u yoki bu narsa va hodisalar bilan tanishish asosida bolalarni predmet va hodisalardan muhimini, umumiysini ajratishga, so'z bilan aniq ifodalashga o'rgatish, bolalarga mantiqiy usullar tizimini o'rgatish bilan bilimini material tomondan boyitish va uni aqliy tomondan o'stirish hisoblanadi.

Mantiqiy mashqlar bolalarning so'z boyligi va tilining umumiy o'sishida katta ahamiyatga ega bo'lib, lug'at ishi va tilga oid boshqa ishlar bilan bog'lab olib boriladi. Logik mashqlar juda xilma-xil:

1. Narsalarning mavzuga tegishli guruhini tuzish: ust kiyimlar *(ko'ylak, kostum, ...)* va oyoq kiyimlar *(botinka, tufli, ..)*; uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlar kabi. Bunda bolalar *„Bu nima?"* so'rog'iga javob berishga o'rgatiladi: *Bu nima? – Avtobus. Avtobus nima? – Mashina.*

2. *Bir turdagi narsalarni sanab ko'rsatish va umumlashtiruvchi bir so'z bilan nomlash.* Masalan, *stol, stul, shkaf*larni bir so'z bilan qanday nomlash mumkin? *(Mebel)*

3. Berilgan narsalardan bir guruhga kirmaydiganlarini ajratish. Masalan, *qalam, chizg'ich, o'chirg'ich, stul* ko'rsatiladi, o'quvchilar o'quv qurollarini ajratadilar, *stul* o'quv quroliga kirmasligini, mebel ekanini aytadilar.

Bunday mashq o'yin tariqasida o'tkazilishi ham mumkin: ma'lum so'zlar berilib, ortiqchasini topish va nima uchun ortiqcha ekanini tushuntirish talab etiladi: *qaldirg'och, chumchuq, mushuk, musicha.*

www.ziyouz.com kutubxonasi

4. Predmet nomlari va belgi bildirgan so'zlarni guruhlarga ajratish. Bunda so'zlar *choynak, tesha, bolta, piyola, arra, tarelka* kabi aralash beriladi. O'quvchilar guruhlab, *idishlar nomi: choynak, piyola, ... ; ish qurollari nomi: tesha, bolta, ...* kabi yozadilar. Narsa belgisini bildirgan so'zlar ham aralash beriladi, bolalar to'rt guruhga (rang, maza, shakl, xususiyat) ajratadilar.

5. Qarama-qarshi qo'yish bilan umumlashtirish: *qaldirg'och, chumchuq, bulbul* – qushlar, *tovuq, xo'roz, kurkalar-chi? (Parrandalar.)*

Mantiqiy mashqlar sermazmun bo'lishi, o'quvchilarning tajribasi bilan bog'lanishi, ularni to'g'ri fikrlashga o'rgatishi, bilimlariga aniqlik kiritishi va tartibga solishga xizmat qilishi lozim. Bunday mashqlardan o'rni bilan boshqa darslarda ham, o'qish va grammatika darslarida ham foydalaniladi.

O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH TIZIMIDA SINTAKTIK ISHLAR

So'z birikmasi ustida ishlash

Tilda leksik (so'z), sintaktik (so'z birikmasi va gap) va bog'lanishli nutq saviyalari ajratiladi. Shu mazmunda so'z birikmasiga leksik saviyadan sintaktik saviyaga o'tish halqasi sifatida qaraladi.

So'z birikmasi leksik-grammatik birlik bo'lib, tugallangan fikr ifodalamaydi va bu bilan gapdan farqlanadi. So'z birikmasi nutqda gap ichida ishlatiladi. Bolalarga so'z birikmasini o'rgatish fikr elementi ustida ishlash hisoblanadi. Boshlang'ich sinflarda so'z birikmasi ustida ishlashda quyidagi mashq turlaridan foydalaniladi:

1. Bosh so'zdan ergash so'zga so'roq berish, so'zlarning o'zaro bog'lanishini aniqlash. Masalan, *Anvarjon yaxshi o'qiydi. Kim* (o'qiydi)? – *Anvarjon.* (Anvarjon) *nima qiladi? – o'qiydi. Qanday* (o'qiydi)? – *yaxshi. Yaxshi o'qiydi* – so'z birikmasi.

2. Gapda so'zlarning o'zaro bog'lanishini chizmada ko'rsatish. Bu o'quvchilarni asta-sekin murakkab qurilmalarni tuzishga o'rgatadi. Masalan:



Terimchi paxtani mashinada terdi. Gulzorda har xil gullar ochildi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

3. Matnda uchragan so'z birikmasining ma'nosini tushuntirish.

4. Matnda yoki faoliyat jarayonida uchragan yangi so'z bilan so'z birikmasi tuzish. Mashqning bu turi so'zning ma'nosini chuqur tushunishga va undan o'z nutqida foydalanishga yordam beradi.

5. So'z turkumlarini o'rganish bilan bog'liq holda so'z birikmasi tuzdirish. Ot so'z turkumi o'tilganda, ot va sifat bilan *(jonajon Vatanim)*, ot va boshqa ot bilan *(maktab bog'i)*; fe'l o'tilganda, ot va fe'l bilan *(kinoga bordi, maktabda bo'ldi, uydan keldi, kitobni o'qidi)* so'z birikmalari tuzdiriladi.

So'z birikmasi tuzishda yo'l qo'yilgan xato gap tuzishda ham xatoga olib keladi, shuning uchun uning oldini olish kerak.

Masalan:

O'quvchi nutqida uchraydi:	**To'g'risi:**
maktabga bo'ldim	*maktabda bo'ldim*
maktabni bog'i	*maktabning bog'i*

Bolalar ko'proq xatoga yo'l qo'yadigan so'z birikmalarini yig'ib borish xatoning oldini olishga qaratilgan mashqlar tuzishga imkon yaratadi. So'z birikmasi ustida ishlash grammatik, imloviy va boshqa mashqlarni to'g'ri bajarishga xizmat qiladi. Shuning uchun so'z birikmasi ustida o'rni bilan maqsadga muvofiq ishlab borish orqali gap va bog'lanishli nutq tuzishga oid nutqiy mashqlarga o'tish lozim.

Gap ustida ishlash

Gap ustida ishlash o'quvchilarning nutqini o'stirishda muhim ahamiyatga ega. Gap ustida ishlashning asosiy vazifasi o'quvchilarni sintaktik jihatdan to'g'ri va aniq gap tuzib, tugallangan fikr bildirishga o'rgatish hisoblanadi. Gap (grammatik jihatdan o'zaro bog'langan, tugallangan mazmun va tugallangan intonatsiyaga ega bo'lgan) nutq birligi bo'lib, aloqa maqsadiga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun muhimi, birinchidan, gap nutq birligi ekanligidir. Shunday ekan, nutqqa oid mashqlarga qo'yilgan talablar gap ustida ishlash mashqlariga ham taalluqlidir; ikkinchidan, gap – grammatik tomondan to'g'ri tuzilgan birlik, shunday ekan, gap ustida ishlash grammatika bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu jarayonda gap qurilishi, gapda so'zlarning bog'lanishi va gapning turlari ustida ishlash juda muhimdir; uchinchidan, gap nutq va til birligi bo'lib, tugallangan mazmunni bildiradi. Binobarin, gapning mazmuniy asosi, mazmun ottenkalari ustida ishlash va ularning gap tuzilishiga bog'liqligi ustida

www.ziyouz.com kutubxonasi

ishlash ham zarur; to'rtinchidan, gapning intonatsiyasi katta ahamiyatga ega, shuning uchun intonatsiya ustida ishlash, intonatsiyaning mazmun bilan bog'liqligini tushuntirish kerak.

Boshlang'ich sinflar dasturining „Grammatika, imlo va nutq o'stirish" bo'limida sintaksisdan beriladigan bilimlar aniq ko'rsatilgan. Bola boshlang'ich sinflarda beriladigan sintaktik materiallar hajmida faqat ona tili darslaridagina emas, balki boshqa darslarda va maktabdagi barcha mashg'ulotlar jarayonida gap tuzish, uni tahlil qilish va qayta tuzishga o'rgatib boriladi.

Gap ustida ishlashga oid mashqlar juda xilma-xil bo'lib, analiz va sintezning ustunligiga hamda o'quvchilarning mustaqillik darajasiga ko'ra tasnif qilinadi.

Analiz yoki sintezning ustunligiga nisbatan gap ustida ishlash mashqlari ikkiga bo'linadi:

1) analitik mashqlar, ya'ni tuzilgan tayyor matndan olingan gapni tahlil qilish;

2) sintetik mashqlar, ya'ni mustaqil gap tuzishga qaratilgan mashqlar.

Analitik mashqlar sintetik mashqlarga zamin hozirlaydi, ular parallel holda yoki sintetik mashqdan so'ng analitik mashq o'tkaziladi.

O'quvchilarning mustaqilligi va bilish jarayonining faollik darajasiga ko'ra gap ustida ishlash mashqlari uchga bo'linadi:

1) namuna asosidagi mashqlar;
2) konstruktiv mashqlar;
3) ijodiy mashqlar.

Namuna asosidagi mashq aniq, to'g'ri tuzilgan sintaktik qurilmalarni amaliy o'zlashtirishni, ularning ichki bog'lanishini, mazmunini tushunishni ko'zda tutadi. Bunday mashqlar ichida analitik mashqlarga, shuningdek, gapni kuzatish va eshitish, uni o'qishga muhim o'rin beriladi. Namuna asosidagi mashqlarga quyidagilar kiradi:

1. Gap ustida ishlashning eng oddiy, boshlang'ich, shu bilan birga, eng zaruriy shakli – **namuna**ni o'qish (yozish), intonatsiyasi, ifodaliligi ustida ishlash, gapning asosini va mazmunini tushuntirish, ba'zan esa gapni yodda saqlash, yodlash hisoblanadi.

Gapni o'qish va kuzatish nutq o'stirishga katta yordam beradi. Gap intonatsiyasi ustida ishlash gap mazmunini va bog'lanishini tushunishga, namunaga qarab, uni o'zlashtirish va yodda saqlashga, gap qurilishini yaxshi tushunishga yordam beradi. Bu jarayonda nutqdan

www.ziyouz.com kutubxonasi

gapni intonatsiyaga qarab ajratishga, intonatsion tugallanganlikni ifodalashga, darak, so'roq va his-hayajon gaplarning intonatsiyasiga, uyushiq bo'lakli gaplar va bog'lovchisiz qo'shma gaplardagi sanash ohanggiga, bog'langan qo'shma gap intonatsiyasiga e'tibor berish kerak.

2. Savol asosida gap tuzish. Bunda berilgan savol javob (gap tuzish) uchun asos bo'ladi va „namuna" vazifasini bajaradi. Savolda uning asosiy mazmunigina emas, balki barcha so'zlari va sintaktik qurilishining chizmasi ham beriladi. *Masalan: Bolalar bog'da nima terdilar? (Bolalar bog'da olma terdilar).*

Savollar asta-sekin murakkablashtirib boriladi: bolalar oldin so'roq so'z o'rniga bir so'z qo'shib gap tuzgan bo'lsalar, keyinroq o'z so'zlarini ko'proq qo'shishga majbur bo'ladilar: *Bolalar bog'da nima qildilar? (Bolalar bog'da olma terdilar. Bolalar bog'da olma terdilar va uni savatlarga soldilar).* Yoki *„Bolalar qayerda bo'ldilar? Ular nima qildilar?"* (Bolalar bog'da bo'ldilar. Ular olma terdilar va savatlarga soldilar*). Sen tipratikan haqida nimalarni bilasan? Nega qushlar uyasini buzish mumkin emas?* kabi.

Konstruktiv mashqlarga gap tuzish va uni qayta tuzishga qaratilgan mashqlar kiradi. Bunday mashqlar grammatik tushuncha va qoidaga asoslanadi. Konstruktiv mashqlarning turlari quyidagilar:

1. Aralash berilgan so'zlardan gap tuzish yoki tartibsiz berilgan gaplardan matn tuzish. Bunda so'zlar grammatik materialning o'rganilishiga qarab uch variantda berilishi mumkin: a) so'zlar tayyor ishlatiladigan shaklda beriladi: *meva, bog'da, bog'bonlar, terdilar (Bog'bonlar bog'da meva terdilar)*; b) o'rganilgan grammatik materialni hisobga olib, ayrim so'zlar bosh shaklda, boshqalari tayyor shaklda beriladi. Masalan, „Otlarda birlik va ko'plik" mavzusi o'tilgach, *paxta, dalada, bola, terdilar* shaklida berilishi mumkin; v) barcha so'zlar bosh shaklda beriladi: *koptok, hovli, bola, o'ynamoq.*

2. Nuqtalar qo'yilmagan, bosh harf yozilmagan matndan gaplarning chegarasini ajratish. Bu mashq bolalarni o'z nutqlarida gaplarning chegarasini ajratishga, gapni to'g'ri o'qish va yozishga o'rgatadi.

3. Berilgan sodda gapni so'roqlar yordamida bosqichli yoyish mashqi. Masalan: *Qushlar uchib keldi. Qayerdan uchib keldi? Qushlar sovuq mamlakatlardan uchib keldi. Qayerga uchib keldi? Qushlar sovuq mamlakatlardan o'z uyalariga uchib keldi.*

www.ziyouz.com kutubxonasi

4. Berilgan sintaktik chizma asosida gap tuzish.



Chaqqon bolalar olma terdilar. *Ishchan bolalar chiroyli gullarni zavqlanib terdilar.*

5. Berilgan gapga o'xshash, masalan, uyushiq egali yoki kesimli sodda yoyiq gap tuzish. Bunda o'quvchilarga *Quyosh yoritadi va isitadi* kabi gap beriladi, o'quvchi esa *„Ravshan o'qidi va ishladi"* kabi gap tuzadi.

6. Ikki-uch sodda gapdan bitta uyushiq bo'lakli sodda gap tuzish. Masalan, *„Bahorda qaldirg'ochlar issiq mamlakatlarga uchib ketadi", „Bahorda laylaklar ham uchib ketadi"* gaplaridan uyushiq bo'lakli *„Bahorda qaldirg'ochlar va laylaklar issiq mamlakatlarga uchib ketadi"* gapi tuziladi.

Ijodiy mashqlarda o'quvchilar o'zlari erkin ravishda gap tuzadilar. Boshlang'ich sinflarda ijodiy mashqlarning quyidagi turlaridan foydalaniladi:

1. Gap tuzish uchun mavzu beriladi, o'quvchilar shu mavzuga mos gap tuzadilar: *„Quyoshli kunda", „Bizning uy" yoki „Quyon va tipratikan"* kabi.

2. Narsa rasmi yoki sujetli rasm beriladi, o'quvchilar rasm asosida bir yoki bir necha gap tuzadilar.

3. Ikki-uchta „tayanch" so'z beriladi, o'quvchilar shu so'zlarni qatnashtirib gap tuzadilar. Tayanch so'z sifatida bolalarning faol lug'atiga aylantirish zarur bo'lgan so'zlar olinadi.

BOG'LANISHLI NUTQ VA UNI O'STIRISH VAZIFALARI

Fikrni bayon etish ehtiyojini amalga oshirishga qaratilgan, tugallangan mavzuni ifodalaydigan, logik va grammatik qoidalar asosida tuzilgan, mustaqil, tugallangan va o'zaro bog'langan ma'noli qismlarga bo'linadigan nutq **bog'lanishli nutq** deyiladi.

Bog'lanishli nutq birligi sifatida hikoya, maqola, roman, monografiya, doklad, hisobot kabilarni, maktab sharoitida esa o'qituvchi ber-

www.ziyouz.com kutubxonasi

gan savolga o'quvchilarning keng, mukammal og'zaki javobini, yozma bayon va inshoni olish mumkin.

Boshlang'ich sinflar metodikasida bog'lanishli nutqqa oid mashq turlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) berilgan savolga keng, mukammal javob;

2) o'qilgan asarni tahlil qilish, grammatik materialni o'rganish; o'quvchilar lug'atini faollashtirish bilan bog'liq holda har xil matnli mashqlar;

3) muntazam o'tkazilgan kuzatishlarni yozish, ob-havo kundaligini yuritish;

4) o'qilgan matnni turli variantda og'zaki qayta hikoyalash;

5) berilgan mavzu, rasm, kuzatishga oid boshlab berilgan yoki oxiri berilgan hikoya, reja yoki sujet asosida o'quvchilarning og'zaki hikoyasi;

6) badiiy matnni hikoya qilish, yod olish, o'quvchilar saviyasiga mos matnlarni yoddan yozish;

7) ertakni tayyorlanmasdan aytish, kichik she'r, hikoya tuzish;

8) namunasi berilgan badiiy, ilmiy-ommabop matn asosida bayon yozish;

9) o'qituvchi bergan matnni og'zaki va yozma qayta tuzish (tanlab qayta hikoya qilish va bayon, ijodiy qayta hikoyalash va bayon, hikoyani sahnalashtirish kabilar);

10) har xil turdagi yozma insho.

Bu mashqlarning hammasi nazariyasiz, amaliy tarzda beriladi. Bunday mashqlarni takroriy ishlatmaslik yoki asosiylarini tushirib qoldirmaslik uchun nutqiy mashqlarning aniq rejasi tuzib olinadi.

Bog'lanishli nutqdan mashqlarning turli xil bo'lishida, avvalo, material manbaiga, tematikaga, shuningdek, janriga, til xususiyatiga, mashq turiga rioya qilinadi.

Bog'lanishli nutqqa oid asosiy ko'nikmalar

O'quvchilar nutqini o'stirish ularga aniq ko'nikmalarni singdirish demakdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari mustaqil mashq sifatida bog'lanishli nutqni o'stirishdan quyidagi ko'nikmalarni bilib oladilar:

1. Mavzuni tushunish, chegarasini aniqlash va uni nisbatan to'liq yoritish ko'nikmasi. Masalan, „Biz uy ishlarida ota-onamizga qanday yordamlashamiz?" mavzusi berilsa, o'quvchilar aniq bajargan ishlari haqida hikoya qiladilar. Ular mavzuni yaxshi tushunishlari uchun

www.ziyouz.com kutubxonasi

bayon matni qayta hikoya qildiriladi, inshoda esa berilgan mavzu yuzasidan mustaqil hikoyalash mashq qilinadi.

2. Inshoni asosiy fikrga bo'ysundirish ko'nikmasi. Bolalar ishi ma'lum fikrni (tabiatning ajoyib tasvirini idrok etish, o'zlarining baxtli hayotidan g'ururlanish, mehnatga va mehnatkash insonlarga muhabbatni) ifodalaydi.

3. Hikoya, insho uchun mavzuga taalluqli, uni yoritishga zarur bo'lgan materialni yig'ish. Bu bayonga ham taalluqli bo'lib, namunaviy matn tahlil qilinadi, mazmunini to'g'ri tushunish ustida ishlanadi, asosiy mazmun ajratiladi.

4. Materialni tartibga solish, uni tegishli izchillikda joylashtirish, matn rejasini tuzish va shu reja asosida yozish ko'nikmasi.

5. Fikrni adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holda to'g'ri ifodalay olish ko'nikmasi. Buning uchun bayon va inshoni nutqiy shakllantirishdan oldin unga til tomondan tayyorgarlik ko'riladi.

6. Matnni og'zaki yoki yozma tuzish, inshoni yozish, ya'ni barcha tayyorgarlik ishlarini yakunlash ko'nikmasi.

7. Yozilgan matnni takomillashtirish ko'nikmasi. Bu ko'nikma o'z ijodiga tanqidiy munosabatda bo'lish asosida tarbiyalanadi. O'quvchilar material tanlashda va uni joylashtirishda, so'z tanlash, so'z birikmasi va gap tuzishda o'zlari yo'l qo'ygan kamchilikni, xatoni fahmlashga o'rgatib boriladi.

O'qituvchidan o'quvchini navbatdagi inshoga tayyorlashda shu mashqning pedagogik maqsadini, o'quvchilarni nimaga o'rgatishni, tafakkuri va nutqini qanday boyitishni, shuningdek, mashqlar izchilligida shu inshoning tutgan o'rnini aniq ko'z oldiga keltirish talab etiladi. Shuning uchun o'quvchilarning bog'lanishli nutqini o'stirishga oid mashq turlarining bir yillik rejasini tuzib olish tavsiya etiladi. Rejada o'quvchilar yoshiga mos bayon va inshoning barcha turlari hisobga olinishi zarur.

Metodik an'anaga ko'ra matnli mashqlar ***tasvirlash, hikoya qilish*** va ***muhokama***ga bo'linadi. Boshlang'ich sinflarda bular, asosan, ***tasvir*** yoki ***muhokama*** elementlari bo'lgan hikoya tarzida uchraydi.

Har uchala janr uchun foydalaniladigan material xarakterida ham, qurilishida ham, til vositalarini tanlashda ham o'z xususiyatlari mavjud. Insho yoki bayonga tayyorlanayotganda o'qituvchi (yoki o'quvchi) matnning janr xususiyatlarini hisobga oladi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Hikoya boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mos janr hisoblanadi, chunki u jo'shqin, jonli, ta'sirchan bo'ladi. „O'qish kitobi"da bunday hikoyalar ko'plab berilgan.

Tasvirda sujet, qatnashuvchi shaxslar bo'lmaydi; unda tabiat, ayrim predmet va hodisalar tasvirlanadi. O'quvchilar „O'qish kitobi"da berilgan ko'pgina tasviriy matnlarni o'qiydilar, ularni qayta hikoya qiladilar, bayon, ayrim narsa yoki hodisalarni tasvirlab insho ham yozadilar. Masalan, „Bizning sinfimiz", „Bahor keldi" kabi. Tasvirga xos xususiyatlar shundan iboratki, unda sifatlash, taqqoslash, metaforalar ko'p bo'ladi. Tasvir o'quvchilar uchun hikoyaga nisbatan qiyin janr hisoblanadi, shuning uchun boshlang'ich sinflarda ko'proq tasvir elementlari bo'lgan hikoya tarzidagi bayon va insho yozdiriladi.

Muhokama bog'lanishli matnning anchagina qiyin shakli hisoblanadi, shuning uchun boshlang'ich sinflar dasturida muhokama tarzida insho yozdirish tavsiya etilmaydi; o'quvchilar inshoda muhokama elementlaridangina foydalanadilar. Masalan, „Qushlar uyasini nima uchun buzish mumkin emas", „Paxta – bizning milliy boyligimiz" mavzularida og'zaki hikoya tuzdirilsa yoki insho yozdirilsa, muhokama elementi, albatta, bo'ladi.

O'qituvchi bog'lanishli nutqni rejalashtirganda, turli janrda mashq qilishni ko'zda tutadi va o'quvchilarga hikoya, tasvir va muhokama elementlarini o'rgata boradi. Bunda ko'proq hikoya tarzidagi matn tuzdirishga ahamiyat beradi. Bolalarning bog'lanishli nutqni egallash darajasiga qarab, matnga tasvir va muhokama elementlari kiritib boriladi.

BOG'LANISHLI NUTQ, OG'ZAKI QAYTA HIKOYALASH VA YOZMA BAYON

Og'zaki va yozma qayta hikoyalashga qo'yiladigan talablar

Namunaviy matn og'zaki va yozma qayta hikoya qilinadi. O'qish darslarida asosan og'zaki qayta hikoyalash mashq qilinsa, ona tili darslarida u ko'proq yozma tarzda o'tkaziladi.

Bayon o'qib berilgan namunaviy matn mazmunini ma'lum tayyorgarlikdan so'ng yozma qayta hikoyalashdir. O'qish darslarida matn ustida ishlash, o'qilgan matn yuzasidan savollarga javob berish, reja tuzish va reja asosida og'zaki qayta hikoyalash bolalarni bayon yozishga tayyorlaydi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Qayta hikoyalashning turlari xilma-xildir. Har qanday qayta hikoya qilingan matn yuzasidan bayon yozish mumkin, ammo bayon yozish og'zaki qayta hikoyalashga nisbatan qiyin va murakkab faoliyatdir. Bundan tashqari, boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozish sur'ati sekin, shunga ko'ra bayon uchun kichik hajmdagi, kompozitsiyasi sodda, til tomondan ham mos matn tanlanadi. Bayon matni asta-sekin murakkablashtira boriladi: avval hikoya tarzidagi bir lavhani ifodalovchi matn tanlansa, unga yana lavhalar, tasvir elementlari kiritila boriladi, qatnashuvchilar soni orttiriladi, muhokama elementlari ham qo'shiladi; keyinroq shaxsini o'zgartirib bayon yozishga o'tiladi. Shunday qilib, bayon asta-sekin ijodiy tus ola boradi.

Boshlang'ich sinflar ona tili dasturiga ko'ra, 2-sinfda katta bo'lmagan (30—40 so'zli) matn yuzasidan o'qituvchi yordamida so'roqlar asosida bayon yozish, 3-sinfda 40—60 so'zdan iborat matnning mazmunini jamoa bo'lib tuzilgan 3—5 ta reja asosida bayon yozish, 4- sinfda esa mustaqil tuzilgan reja asosida (70—90 so'zli) bayon yozish ko'zda tutiladi.

Mashq sifatida bayonning ahamiyati katta: bayon bolalarda adabiy nutqni to'g'ri shakllantirishga yordam beradi, nutq madaniyatini yaxshilaydi, badiiy uslubni singdiradi, tilga sezgirlikni oshiradi.

Bayon uchun kishilarning fidokorona mehnati, hayotini, ona tabiat tasvirini, fan, texnika, madaniyat borasidagi yutuqlarni aks ettiradigan yuksak g'oyali matn tanlanishi, bayon mavzusi o'quvchilarning bilish tajribasini kengaytirishi, ularning dunyoqarashini shakllantirishi zarur.

Qayta hikoyalash va bayonda bolaning tabiiy nutqi eshitilishi, ya'ni berilgan namunani tushunmasdan yodlamasligi, namuna leksikasidan, nutq birliklaridan, sintaktik qurilishidan foydalana olishi zarur.

Til vositalari matnni o'qish, suhbat, matn tahlili davomida o'zlashtiriladi; matndagi so'zlar va nutq birliklari bolalarning „o'ziniki" bo'lib qoladi. Qayta hikoyalashda namunadagi u yoki bu gapni bola esga tushirishga harakat qiladi, o'zlashtirgan mazmunni to'liqroq, aniqroq berish uchun gaplar tuzadi. Bu bilan o'quvchining mustaqillik darajasi va bilish faolligi o'sadi, ijodiy elementlar qo'shila boradi.

Qayta hikoyalashda namunadagi izchillik, bog'liqlik saqlanishi, asosiy faktlar berilishi, ayniqsa, ilmiy matnni qayta hikoyalashda barcha muhim o'rinlar to'liq bayon qilinishi zarur.

Vaqti-vaqti bilan ilgari eshitilgan, o'qituvchi o'qib bergan yoki radio, televizordan yozib olingan matnni qayta hikoyalatish, o'quvchi

www.ziyouz.com kutubxonasi

bir marta ovoz bilan yoki ichda o'qigandan so'ng qayta hikoyalatishdan foydalanishni tajribada qo'llab turish ham mumkin. Bu ishni turli xil uslublarda olib borish imkoniyatini yaratadi va uni jonlantiradi.

Ko'pincha qayta hikoyalashga maxsus tayyorgarlik ko'riladi, bunda quyidagilarga rioya qilinadi:

1. Qayta hikoyalash va uning turi haqida o'quvchilar ogohlantiriladi: to'liq, detallari bilan, tilning tasviriy vositalaridan foydalanib matnga yaqin qayta hikoyalash; tanlab (masalan, bir qatnashuvchi shaxsga tegishli o'rinlarinigina) qayta hikoyalash, qisqartib qayta hikoyalash.

2. Suhbat, matn mazmunini tahlil qilish, matn tili ustidagi xilma-xil ishlar, qayta hikoyalashda zarur bo'lgan so'z, nutq birliklari va gaplarni ajratish va aniqlash.

3. Qayta hikoyalashda ifodalilikni berish uchun ifodali o'qishni puxtalash.

4. Hikoyani mantiqiy va kompozitsion qismlarga bo'lish, har bir qismga sarlavha topish, matnni qayta hikoyalashga mo'ljallangan rejani tuzish.

5. Matn qismlarini qayta hikoyalash, uning kamchiliklarini tahlil qilish.

6. O'quvchilarning hayotiga bog'lash (o'rni bilan), ya'ni o'qilgan matn mazmuniga bog'liq holda o'quvchilarning shaxsiy tajribasida uchraydigan va uchragan analogik holatga e'tibor berish. Boshqacha qilib aytganda, har bir darsda ma'lum ta'lim maqsadi asosida qayta hikoyalashga muntazam o'rgatib borish zarur.

To'liq yoki matnga yaqinlashtirib qayta hikoyalash va bayon

Qayta hikoya qilish va bayonning bu turi boshqa turlariga nisbatan boshlang'ich sinflarda ko'p o'tkaziladi, chunki bu o'qilgan matnni butun detallari va bog'lanishlari bilan bolalar yodida mustahkamlash, namunaviy matnning mazmuni va tilini o'zlashtirish vositasi bo'lib ham xizmat qiladi. Bolalar tez yodlab oladigan kichik matnni, she'riy misralarni buzmaslik uchun she'rni, ayniqsa, butun bir poetik obrazni tasvirlovchi lirik she'rni hikoya qilish tavsiya etilmaydi.

To'liq hikoya qilish uchun dastlab aniq sujetli, hikoya uslubida yozilgan matn tanlanadi, keyin bolalar hikoyaga tasviriy (tabiat tasviri, kishilar va boshqa predmetlarning tashqi ko'rinishi tasviri) va muhokama elementlarini kiritishni o'rganadilar.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Hikoya qilishga o'rgatish vaqtida o'quvchilarni „Bu fikr yozuvchi asarida qanday ifodalangan?" savoliga javob berishga o'rgatish maqsadga muvofiqdir.

Bola hikoya qilishga qiziqsa, agar hikoyani o'qituvchigina emas, sinfdagi barcha bolalar eshitsa, bunday hikoyalash jonli va qiziqarli bo'ladi. Hikoya qilishga o'quvchilarning qo'shimchasi, ma'lum qismini qayta hikoya qildirish, hikoyachini rag'batlantirish sinfda ijodiy muhitni vujudga keltiradi.

Matnga yaqin hikoya qilishda savollar matn mazmunigagina qaratilmasligi, o'quvchilar mustaqillik darajasini pasaytiradigan matn mazmuni yuzasidan beriladigan savollarni asta-sekin kamaytira borish, bolalarni kengroq, umumiyroq savollarga javob berishga o'rgata borish zarur.

To'liq hikoya qilishda hikoyani qanday boshlashni bilmaslik, ya'ni boshlanishi berilgan matn mazmunini davom ettira olmaslik, to'liq bayon qila olmaslik yoki noto'g'ri bayon qilish, bayon tilining kambag'alligi kabi kamchiliklar uchraydi. Hikoya qilishdagi ikkinchi kamchilikni yo'qotish, uning oldini olish uchun matn butunicha puxta tahlil qilinadi, ko'pincha asosiy mazmunni ifodalaydigan qismi alohida tahlil qilinadi. Bunday kamchilikni yo'qotishga matnni qismlarga bo'lish, har bir qismga sarlavha topib, matn rejasini tuzish va reja asosida hikoya qilish ham yordam beradi. Bunda tanlab hikoya qilish (hikoya qilishning o'zaro uzviy bog'langan boshqa turlari ham) yordamchi vazifani bajaradi. Tilda kambag'allikka yo'l qo'ymaslik uchun lug'at, tasviriy vositalar va gap ustida izchil ishlab borish talab etiladi. To'liq yoki matnga yaqin bayon yozish savod o'rgatish davridanoq boshlanadi va barcha sinflarda o'tkaziladi.

Bolalarni o'z fikrini mustaqil yozishga (o'qilgan matnni hikoya qilishga) o'rgatishni, iloji boricha, erta boshlash ma'qul. Buning uchun o'quvchilar og'zaki hikoya qilayotganda qo'llagan alohida so'zni yozishdan gapni yozishga, so'ng matn qismlarini yozishga va 2-sinfdan boshlab maxsus tanlangan kichik matn asosida bayon yozishga o'rgatiladi.

Ish quyidagicha uyushtiriladi: bayon uchun tanlangan matnni o'quvchilar bir-ikki marta o'qiydilar (o'qituvchi o'qib berishi ham mumkin); bolalarning matn mazmunini to'g'ri tushunganliklarini aniqlash, o'qilgan matnni, uning g'oyaviy mazmunini, qismlari orasidagi bog'lanishni to'liq bilib olishga qaratilgan suhbat o'tkaziladi; matn rejasi tuziladi (reja suhbat vaqtida tuzilishi ham mumkin); lug'at

www.ziyouz.com kutubxonasi

ishi o'tkaziladi (so'zning ma'nosi va yozilishi tahlil qilinadi), muhimroq sintaktik tuzilmalarga va tilning tasviriy vositalariga diqqat jalb qilinadi. Ayrim gaplar, hatto matn qismlari tuzdiriladi; o'quvchilar bayon matnini mustaqil yozadilar, o'qituvchi esa ular ishini kuzatadi, sinfdagi boshqa o'quvchilarga xalaqit bermay ayrim bolalarga individual yordam beradi; bolalar yozgan bayonlarini o'zlari tekshiradilar, takomillashtiradilar va daftarni tekshirish uchun o'qituvchiga topshiradilar.

O'quvchilar yozgan bayon muhokama qilinayotganda, ular yozgan matnni bayon matniga qiyoslash maqsadga muvofiq bo'lib, bu ish mazmunda va bolalar bayoni tilida yo'l qo'yilgan kamchiliklarni aniqlashga yordam beradi.

Tanlab hikoya qilish va bayon. Tanlab hikoya qilish matndan tor mavzuga, o'qituvchining topshirig'iga oid qismini tanlab qayta hikoyalashdir. Masalan, o'qilgan matndan faqat personajning tashqi ko'rinishi tasvirlangan qismnigina qayta hikoya qilish, faqat ikki personajning uchrashish manzarasini qayta hikoyalash, faqat tabiat tasvirini hikoya qilish va boshqalar.

Tanlab qayta hikoyalashning quyidagicha turlari mavjud:

1. O'qilgan matn qismini yoki bir voqeani unga chizilgan rasm asosida hikoya qilish.

2. O'qituvchi topshirig'i yoki berilgan savol asosida alohida lavhani hikoya qilish.

3. Berilgan mavzu bo'yicha matnning turli qismlaridan olingan parchalarni hikoya qilish. Bu ish tanlab hikoya qilishning murakkabroq turi hisoblanadi.

Tanlab hikoya qilish uchun o'quvchi matnni boshidan oxirigacha qayta o'qib chiqishga yoki yodga tushirishga, kerakli materialni yig'ishga to'g'ri keladi. Buning uchun o'quvchilarga matnni ichda o'qish topshiriladi yoki ovoz bilan tanlab o'qish topshirig'i beriladi. Bunday tanlab hikoya qilish ba'zan yozma bayon sifatida ham o'tkaziladi.

Qisqartirib qayta hikoyalash va bayon. Matn mazmunini qisqartirib qayta hikoyalash va bayon yozish murakkab mantiqiy usullardan foydalanishni talab qiladi, shuning uchun ham u to'liq yoki matnga yaqin qayta hikoyalash va bayonga nisbatan qiyin. Bunda matndan ikkinchi darajali o'rinlarni tushirib qoldirib, asosiy, muhim o'rinlar tanlab olinib, hikoya qilinadi. Buning uchun o'quvchining o'zi matnning asosiy mazmunini aniqlashi, bog'lanishli, izchil qayta hikoyalashi, uning

www.ziyouz.com kutubxonasi

hikoyasi matnni qisqartish tarzida bo'lmasligi, o'zlashtirilgan matnning asosiy mazmunini o'z so'zlari bilan bera olishi zarur. Qisqartirib qayta hikoyalashga o'rgatish uchun bayon mazmunini qisqartirib tuzish oson bo'lgan hikoya tarzidagi matn tanlash tavsiya etiladi. Qisqartirib qayta hikoyalash elementlari 1-sinfdan kiritiladi. O'qilgan matnni tahlil qilish jarayonida o'quvchilardan uning bir qismini qisqa – bir gap bilan aytish so'raladi. Keyin o'quvchilarga matnning ikki qismini, nihoyat, butun matnni qisqartib qayta hikoyalash tavsiya etiladi.

O'quvchilar matnni to'liq qayta hikoya qilishga o'rganganlaridan so'nggina matnni qisqartib qayta hikoyalashga o'rgatiladi. Qisqartirib qayta hikoyalash, o'z navbatida, matn rejasini tuzish, ya'ni matn qismlariga sarlavha topish bilan bog'liq, asarning asosiy mazmunini qisqa ifodalash esa matn ustidagi analitik-sintetik ishlarning natijasidir. Ba'zan o'quvchilar asarning asosiy mazmunini (g'oyasini) qisqa, bir gap bilan ifodalashga o'rgatilgach, matn rejasini tuzishga, keyin matnni qisqartib qayta hikoyalashga, undan so'ng matn mazmunini to'liq qayta hikoya qilishga o'rgatilishi ham mumkin.

Qayta hikoyalash bog'lanishli nutqni o'stirishning zaruriy bosqichidir. Boshlang'ich sinflar ona tili dasturiga ko'ra, matn mazmunini qisqartirib bayon yozishni 3-sinfda o'rgatish ko'zda tutiladi. Qisqartirib bayon yozishga tayyorgarlik matn qismlariga sarlavha topish, matn rejasini jamoa bo'lib tuzish bilan bog'liq holda 2-sinfdan boshlanadi.

Qisqartirib bayon yozish uchun o'qituvchi yoki o'quvchilarning o'zlari matnni bir-ikki marta o'qiydilar, so'ng matn mazmuni yuzasidan suhbat o'tkaziladi va yoziladigan asosiy fikr hamda tushirib qoldiriladigan o'rinlar ajratiladi. Qisqartirib bayon yozishga og'zaki tayyorgarlik jarayonida matn rejasi tuziladi, lug'at ustida ishlanadi, gap va matnning ayrim qismlari tuzdiriladi. Og'zaki qisqa qayta hikoyalashdan matnni qisqartib bayon yozishga o'tiladi. Qisqartib bayon yozishga og'zaki tayyorgarlik mashqlari asta kamaytirilib boriladi.

Ijodiy qayta hikoyalash va bayon. Metodikada ijodiy qayta hikoyalashning bir necha turi ajratiladi. Boshlang'ich sinflarda ijodiy qayta hikoyalashning quyidagi turlaridan foydalaniladi:

1. Shaxsini o'zgartirib qayta hikoyalash va bayon. Boshlang'ich sinflarda I shaxs tilidan berilgan hikoyani III shaxs tilidan qayta hikoya qilishdan ko'proq foydalaniladi, ijodiy qayta hikoyalashning bu turida o'quvchilar hikoyadagi gaplarni qayta tuzadilar. Masalan, I shaxs tilidan berilgan matnni o'quvchilar III shaxs tilidan qayta hikoya qilishlari

www.ziyouz.com kutubxonasi

uchun o'qituvchi rahbarligida gapning kesimini o'zgartiradilar, unga mos ravishda gapning o'zini qayta tuzadilar; hikoya qiluvchi shaxsning nomini va ***u*** yoki ***ular*** so'zini ishlatadilar. Shaxsini o'zgartirib qayta hikoyalash va bayon yozish o'qish darslarida olib borilgan bunday og'zaki tayyorgarlikning davomi sifatida o'tkaziladi.

2. Hikoyada ishtirok etuvchi biror personaj tilidan qayta hikoya qilish.

3. Matnni ijodiy to'ldirib qayta hikoyalash. O'quvchilar hikoya mazmunini, sharoitini yaxshi tushunsalargina, uni ijodiy to'ldirib qayta hikoyalay oladilar. Ijodiy qayta hikoyalashning bu turi ham ko'pincha og'zaki tarzda o'tkaziladi.

4. So'z bilan tasvirlash yoki sahnalashtirish. Ijodiy qayta hikoyalashning bu turi savollar yoki quyidagi kabi topshiriqlarni bajartirish asosida o'tkaziladi: „Siz shu vaziyatda o'zingizni qanday sezasiz? Bular rasmda tasvirlangan deb o'ylang. Shu voqealar ko'z oldingizdan o'tyapti, siz ko'ryapsiz, eshityapsiz va o'zingiz tasvirlayapsiz deb o'ylang". O'quvchilarga topshiriq sifatida matndagi tabiat tasviri, qahramonlarning tashqi ko'rinishi, portretini so'z bilan tasvirlash berilishi mumkin. Bu asosan og'zaki bajariladi, ayrim hollardagina bayon shaklida yozdiriladi.

BOG'LANISHLI NUTQ, OG'ZAKI HIKOYA VA YOZMA INSHO

Insho ijodiy ishning eng yuqori shakli bo'lib, maktabda alohida o'rin tutadi; barcha nutqqa oid mashqlar ma'lum mazmunda inshoga bo'ysunadi.

Insho 1-sinfda kichik og'zaki axborot va ehtirosli hikoyadan boshlanib, o'z fikrini ifodalashga, o'quvchi shaxsining tashkil topishiga xizmat qiladigan, ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan jiddiy rejali aqliy ishga aylanadi.

Insho shaxsni shakllantirishda foydali vosita bo'lib, his-hayajon uyg'otadi, aqliy mustaqillikka, fikrlashga, ko'rgan-kechirganlari va o'zlashtirganlarini baholashga, kuzatuvchanlikka, voqea-hodisalar o'rtasidagi sabab-natija bog'lanishni topishga, ularni qiyoslashga, xulosa chiqarishga o'rgatadi. Insho fikrni tartibga soladi, o'quvchilarda o'ziga, o'z kuchi va imkoniyatiga ishonch tug'diradi.

„Insho" asli arabcha so'z bo'lib, ma'nosi *„yaratish", „bino qilish", „boshlash"* demakdir. Bu so'zning ma'nosi hozirda ancha torayib,

www.ziyouz.com kutubxonasi

asosan, o'quvchi va talabalar tomonidan yoziladigan ijodiy yozma ish ma'nosida qo'llanadi.

Insho – ijodiy ish bo'lib, u o'quvchidan faollik, qiziqish, fikr bildirishni talab qiladi. Material tayyorlash, uni tartibga solish, insho kompozitsiyasi va rejasi haqida o'ylash, mantiqiy bog'lanishni belgilash, so'z, so'z birikmasini tanlash, gap tuzish va uni o'zaro bog'lash, imloni tekshirish kabi barcha murakkab ishlar o'quvchidan aqliy kuchini to'la ishga solish bilan birga, o'z ma'naviy faoliyatini boshqarish ko'nikmasini ham talab etadi.

Inshoda til nazariyasi nutq tajribasi bilan qo'shiladi. O'quvchi inshoni mustaqil, ijodiy xarakterda bo'lgani uchun, „o'ziniki"ni yozgani uchun ham sevadi.

Maktab rivojining barcha bosqichlarida bolalarning mustaqil tuzgan hikoyasi – inshoga alohida ahamiyat berilgan. Maktablar o'quvchilar nutqini o'stirish, aqliy, ijodiy o'sishiga mo'ljallangan yangi dasturga o'tishi munosabati bilan uning ahamiyati yanada oshdi.

Og'zaki va yozma inshoga o'rgatish jarayonida o'quvchilarda mavzuni tushunish va yoritish, o'z inshosini aniq fikrga bo'ysundirish, material to'plash, uni tartibga solish va joylashtirish, reja tuzish va reja asosida yozish, mazmunga va nutq vaziyatiga mos ravishda til vositalaridan foydalanish, yozgan inshosini takomillashtirish ko'nikmalari hosil qilinadi. Bulardan tashqari, „texnik" vazifalar ham amalga oshiriladi, ya'ni matnni yozishda imlo qoidalari va husnixatga e'tibor berish, matnni xatboshidan yozish, hoshiyaga rioya qilish kabi talablarga ham amal qilinadi.

Og'zaki va yozma insho material manbaiga, mustaqillik darajasiga, tayyorlash usuli, janri va til xususiyatiga qarab tasnif qilinadi.

Insho **material manbaiga ko'ra** uchga bo'linadi:

1) o'quvchining o'zi ko'rgan-bilganlari, eshitganlari haqidagi, kuzatishlar, ekskursiyalar, o'yinlar, o'z tajribasi va boshqa jonli materiallar asosidagi insho;

2) kitob materiali, rasmlar, film, spektakl, o'qituvchi hikoyasi va boshqa manbalar asosidagi insho;

3) turli manbalar materialidan foydalaniladigan insho.

Mustaqillik darajasiga, tayyorgarlik ko'rish metodiga ko'ra insho ikki turli bo'ladi:

1) sinf o'quvchilari uchun umumiy bir mavzu asosida jamoaviy tayyorgarlikdan so'ng yoziladigan insho;

www.ziyouz.com kutubxonasi

2) alohida mavzu asosida yakka tayyorgarlikdan so'ng yoziladigan individual insho.

Janriga ko'ra hikoya, tasvir, muhokama tarzidagi insholarga bo'linadi. Boshlang'ich sinflarda tasvir va muhokama elementlari mavjud bo'lgan hikoya tarzidagi inshodan ko'proq foydalaniladi.

Inshoni tasnif qilish ta'limiy vazifalarni chuqur anglash va metodik vositalarni tanlashga, shuningdek, ish turlarini zaruriy yo'nalishda, baravar taqsimlashga yordam beradi.

Boshlang'ich sinflarda yozdiriladigan inshoning muhim turlaridan biri kichik yoshdagi o'quvchilarning shaxsiy hayotiy tajribasiga asoslangan inshodir.

Rasm asosidagi insho maktablarda tez-tez o'tkaziladi, chunki rasm bolalar nutqiy ijodini, tasavvurini boyitishga xizmat qiladi. Rasm bolalar sezgisiga ta'sir etadi, hayotning bola tajribasida hali uchramagan tomonlarini ochadi. Rasm o'quvchilarga tanish bo'lgan hodisalarni chuqur anglashga ham yordam beradi.

Rasm asosidagi inshoning uch asosiy turi bor:

1) rasmlar seriyasi yoki rasmli reja asosida yoziladigan hikoya tarzidagi insho;

2) sujetli, o'quvchilarni o'ylashga, faraz qilishga undaydigan bir rasm asosida yoziladigan hikoya tarzidagi insho;

3) rasmni tasvirlash (tasviriy insho).

O'quvchilar avval rasmlar seriyasi asosida, so'ng bir rasm asosida, undan so'ng tasviriy insho yozish (rasmni tasvirlash)ga o'rgatiladi.

Dasturga ko'ra, 1-sinf o'quvchilari o'yinlari, mehnatlari, voqea-hodisalar haqidagi taassurotlari asosida o'qituvchi rahbarligida hikoya tuzishlari va uni ma'lum tayyorgarlikdan so'ng yozishlari, 2-sinfda rasmlar seriyasi asosida kichik hikoya tuzish va uni jamoa tarzda tuzilgan reja asosida yozish, tabiatni kuzatish va mehnat jarayoni haqida, bolalarning o'yinlari, ishlari, sayillari haqida, avval o'qituvchi rahbarligida, keyin mustaqil ravishda kichik hikoya tuzish va uni yozish, shaxsiy ishlari haqida xat yoza olishlari, 3-sinfda rasmlar (bir mavzuga oid bir necha rasm, sujetli bir rasm, rasmni tasvirlash) asosida hayotiy tajribalari, kuzatishlari, ekskursiyalardan olgan taassurotlari asosida rejani, avval jamoaviy ravishda, keyin mustaqil tuzib hikoya qilish va uni yozishlari talab etiladi.

Boshlang'ich sinflarda insho ta'limiy xarakterda bo'ladi, 3-sinfdagina tekshiruv insho o'tkazish mumkin. Rag'batlantirish maqsadida

www.ziyouz.com kutubxonasi

ta'limiy insholar ham baholanadi, lekin salbiy baho qo'yish tavsiya etilmaydi.

Boshlang'ich sinflarda yozma inshoga nisbatan og'zaki insho ko'p o'tkaziladi. Og'zaki hikoya tuzish bola maktabga kelgan birinchi kunlardanoq boshlanadi, yozma insho esa 1-sinf oxiri va 2-sinfdan boshlab o'tkaziladi.

O'quvchilar tarbiyasida inshoning ahamiyati

Inshoning tarbiyaviy ahamiyati tanlanadigan mavzuga, shuningdek, insho ustida o'quvchilar qanchalik mustaqil ishlashi va qiziqishiga, insho g'oyasiga ham bog'liq.

Insho bolalarning voqea-hodisalarni chuqur his etishiga yordam beradi, izchil fikrlashga o'rgatadi, tilga va adabiy ijodga qiziqishlarini oshtiradi. Bolalar eng qiziqarli va o'zlariga yaqin voqea-hodisalar haqida hikoya qiladilar va yozadilar, ularning inshosi mustaqil ishlash malakasini o'stiradi, ommaviy faollikni oshiradi.

Tanlangan mavzuning g'oyaviy yo'nalishini ochish tarbiyaviy vazifani hal qilishga imkon beradi. Bu jihatdan mehnat, mehnat qahramonlari haqidagi, bolalarning hayoti, maktab, tug'ilib o'sgan qishlog'i yoki shahri haqidagi, urush qahramonlari haqidagi mavzular ayniqsa qulay. Bu mavzulardagi insholar mehnat kishilariga, qahramonlarga chuqur hurmatni tarbiyalaydi.

Insho jamiyat hayotini tushunishga o'rgatadi. Tabiatga, kishilarga, ularning yaxshilikka intilishlari va harakatlariga, mehnatga va mehnat mahsuliga muhabbatni tarbiyalaydi, kishilar xatti-harakatidagi chiroyli jihatlarni egallashga, hozirgi zamon axloqiy talablarini anglashda o'quvchilarga yordam beradi.

Inshoning tarbiyaviy ahamiyatini oshirish uchun quyidagilarga rioya qilish talab etiladi:

1. Osondan qiyinga tamoyiliga rioya qilgan holda og'zaki va yozma inshoni muntazam o'tkazib borish bilan o'quvchilarda mustaqillikni tarbiyalash. Mustaqil insho o'quvchilar faolligini o'stiradi.

2. Inshoni hayot bilan bog'lash. Bunda kuzatishlar asosidagi insho, kundalik yuritish, qilingan ishlar yuzasidan „hisobot" tarzidagi insho, xat, maqola, o'qilgan kitob haqida taqriz kabilarning tarbiyaviy ahamiyati juda katta.

3. Insho uchun maktab va o'qituvchining tarbiyaviy vazifalariga mos bo'lgan mavzu tanlash. Bunday mavzularga mehnat haqidagi, kishi-

www.ziyouz.com kutubxonasi

larning maqtovga loyiq ishlari haqidagi, axloqiy muammolar, Vatan haqidagi mavzular kiradi. Mavzuni o'qituvchi maktab sharoiti va o'z sinfi o'quvchilarining xususiyatlarini hisobga olgan holda tanlaydi.

4. Insho ustida ishlashda ishning hissiy darajasini – ta'sirini oshirish. Bunda tabiat obrazli va emotsional, qahramonlik yoki foydali harakatlar qiziqarli, ta'sirchan qilib tasvirlanadi.

„Vatan" so'zini aytish bilan kishining bolalikda o'sib-ulg'aygan joyi tasviri ko'z oldida paydo bo'ladi. Ishlab chiqarishga ekskursiya materiali asosida mehnat haqidagi insho yangi tarbiyaviy imkoniyatlarni ochib beradi: unda bolalar ishlab chiqarishdagi muvaffaqiyat va qiyinchiliklar, ilg'or kishilar haqidagi, kasb va mutaxassislik haqidagi, texnika haqidagi ma'lumotlardan foydalanadilar. Ishlab chiqarishga ekskursiya va mehnatni tasvirlash bilan bog'liq holda kasb haqida suhbatlashishga to'g'ri keladi va bu inshoda o'z aksini topadi. Mehnat haqidagi insho gazetaga maqola shaklida yozilishi mumkin. Mehnat yoki ishlab chiqarish haqidagi insho mavzulariga „Bizning qishloq", „Karam uzish", „Bog'da", „Bizning jamoa xo'jaligimiz", „Pochtada", „Do'konda", „Paxtakorlarga yordamimiz", „Bizning hashar", „Maktab yer uchastkasida", „Daraxt o'tqazish" kabilar kiradi.

„Men nimalarni bilaman?" mavzusidagi tanlovga bolalar juda qiziqadilar. Tanlov bolalarning mehnat ko'nikmalarini aniqlabgina qolmay, ularni uyda, polizda, bog'da ishlashga rag'batlantiradi. Maqsad kishilarga foyda keltiruvchi mehnatga hurmatni tarbiyalashdir. Qishloq maktab o'quvchilari ota-onalariga sabzavotlar ekish, hosilni yig'ish, o'tin tayyorlash kabi ishlarda qanday yordamlashganliklari haqida yozadilar. Sinfda mehnat haqidagi insho muhokama qilinadi. Bolalar foydali, zaruriy ijtimoiy faoliyat sifatida mehnatning mohiyatini tushuntiradilar. Ular har qanday mehnat e'zozlanishini aytadilar.

Kelajak haqida ***„Kim bo'lishni xohlayman?"*** mavzusida tayyorgarliksiz hikoya qilish tarzidagi insho ham katta tarbiyaviy kuchga ega.

Juda yaxshi yozilgan inshoni sinfda ifodali o'qib berish va tahlil qilish bolalarni tarbiyalaydi. Ba'zi maktablarda bolalar inshosi va hatto bolalar she'rlari to'plami tuziladi, yaxshi yozilgan hikoya uchun tanlov e'lon qilinadi.

Insho mavzusi va uni yoritish. Mavzu insho predmeti bo'lib, uning mazmunini tashkil etadi. Mavzuga qarab inshoda aks ettiriladigan materiallar, dalillar, hodisalar tanlanadi. Inshoning to'g'ri va to'liq bo'lishi o'qituvchi mavzuni qanday shakllantirishi, o'quvchilar uni qanday tushunishlariga bog'liq.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Insho ustida ishlashda mavzu tanlash, uni rejalashtirishda esa og'zaki va yozma insho mavzusini belgilab olish muhim rol o'ynaydi.

O'quvchilar mavzuni yoritishga 1-sinfdan boshlab o'rganadilar. Ular mavzuga oid gap tuzadilar. Masalan, bahor havosi haqida, ona qishlog'i (shahri) haqida, qo'rqoq quyon, ayyor tulki haqida gap tuzadilar. Keyin savollar asosida bir mavzuga oid bir necha gap tuzib, uni yozadilar. Insho uchun iloji boricha tor – aniq chegaralash mumkin bo'lgan mavzuni tavsiya qilish foydali. „Kuz" mavzusi o'quvchilar uchun juda keng mavzu bo'lib, bunda o'quvchi umuman kuz haqida, kuzda qilinadigan ishlar haqida yozishi mumkin, lekin mavzuning aniq chegarasini bilmaydi. O'quvchilarga kuzga oid „Paxta terimiga yordam", „Kuz kunlarining birida", „Bog'da olma terdik", „Pomidor terishga yordamlashdik", „Kech kuzda bog' manzarasi" kabi mavzularni tavsiya qilish mumkin.

Og'zaki va yozma insho ustida ishlashda mavzu berib, uni yoritishni talab qilishdan tashqari, avval material to'plash va shu yig'ilgan materiallar asosida mavzuni shakllantirishni tavsiya qilish ham mumkin. Masalan, kech kuzda tabiatni kuzatish va material yig'ish tavsiya qilinadi, kuzatishlar „Kech kuzda" mavzusida insho yozish bilan yakunlanadi. Bunda o'quvchilar mavzuni to'liq yoritadilar.

Insho rejasini tuzish. Reja har qanday og'zaki yoki yozma hikoya qilishning zaruriy pog'onasi, uning „loyihasi"dir. Kishi o'z nutqi haqida o'ylab, asosiy gaplarini belgilab oladi. Insho uchun reja tuzish shuning uchun ham zarur. 1-sinfda reja rolini o'qituvchi savollari, ya'ni so'roq gaplar tarzidagi reja bajaradi; 2-sinfda reja o'qituvchi rahbarligida jamoaviy tarzda tuziladi; 3–4-sinflarda esa mustaqil tuziladi. Boshlang'ich sinflarda 3–5 talik oddiy reja tavsiya qilinadi.

Bolalar avval o'qigan hikoyalariga reja tuzadilar va uni reja asosida qayta hikoya qiladilar, keyin bayon rejasini tuzadilar, so'ng bir mavzuga oid bir necha rasm (rasmlar seriyasi) asosidagi insho rejasini, ya'ni rasmli reja tuzadilar, inshoga sarlavha topadilar. Shundan so'ng tasvirlangan voqea-harakatlar aniq ajratilgan, reja tuzishga qulay bo'lgan rasm yoki kuzatishlar asosida yoziladigan insho rejasini tuzishga o'tiladi.

Reja tuzishga o'rgatishda oldin nima haqida to'xtalish, keyin uni qanday davom ettirish, undan so'ng nima haqda aytish, nihoyat, hikoyani qanday tugatish kerakligini o'quvchilarga tushuntirish foydali usul hisoblanadi. Reja avval so'roq gap tarzida, keyin darak gap, oxiri nominativ gap tarzida tuziladi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Reja ko'pincha insho yozishdan oldin unga tayyorlanish jarayonida (rasm asosida yoziladigan insho rejasi kabi) tuziladi. Ba'zan rejani ekskursiya, kuzatishdan oldin, unga tayyorgarlik jarayonida tuzish maqsadga muvofiq. Ekskursiya, kuzatish, ijtimoiy foydali mehnat rejasi shu ishlar bajarilishidan oldin yoki ular yuzasidan material to'plash, insho uchun material tanlash va uni tartibga solish jarayonida tuziladi. Bunday reja insho yozishdan oldin ko'rib chiqilib, unga ayrim aniqliklar kiritiladi.

Inshoni yozishga tayyorlash

Og'zaki yoki yozma inshoning turi va vazifasiga qarab unga tayyorgarlik ko'riladi.

Inshoga tayyorgarlikni o'qituvchi boshqaradi, bunga o'quvchilarni ishtirok ettiradi, ularning o'ta faolligi va mustaqilligiga erishadi. Tayyorgarlik deganda, birinchidan, o'quvchilarda nimanidir tasvirlashga, hikoya qilishga talab uyg'otadigan vaziyat yaratish; ikkinchidan, insho uchun yetarli bo'lgan zarur material yig'ish; uchinchidan, mavzuga oid, uni yoritishga mos bo'lgan til vositalarini tanlash tushuniladi.

Inshoga tayyorgarlik inshoni yozishdan bir necha kun ilgari boshlanadi, darsdan tashqari vaqtlarda va boshqa darslar jarayonida ham olib boriladi.

Og'zaki yoki yozma insho ustida ishlash quyidagi uch bosqichga bo'linadi:

1) material yig'ish, ya'ni kuzatish, ekskursiya, mehnat jarayoni, rasmni ko'rib chiqish, kinofilm, spektaklni ko'rish, badiiy va boshqa adabiyotlarni o'qish;

2) mavzuga va uni yoritishga mos material tanlash, uni tartibga solish, joylashtirish, ya'ni suhbat, muhokama qilish, zarur materialni ajratish, reja tuzish, lug'at ustida ishlash, imlo va leksik tomondan tayyorlash va hokazo;

3) inshoni nutqiy shakllantirish, ya'ni insho matnini tuzish, uni yozish, takomillashtirish, xatolarni to'g'rilash va uni tekshirish.

Birinchi va ikkinchi bosqichdagi ishlar, odatda, darsdan tashqari vaqtda bajariladi. Masalan, ekskursiya asosidagi insho uchun material yig'ish uni yozishdan ancha ilgari boshlanadi; tabiat hodisalarini kuzatish bir hafta, hatto undan ko'proq davom etadi; rasmlar esa insho yozishdan oldin ko'riladi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Shunday qilib, insho yozish yoki og'zaki hikoya qilish darsi ilgari bajarilgan ishlarning yakunidir. Insho darsining umumlashtiruvchilik roli bog'lanishli nutq sohasidagi ko'nikmalarni egallash me'yoriga qarab ortib boradi.

Insho darsining qurilishi tayyorlov bosqichining xarakteriga bog'liq. Tayyorlov bosqichida qancha ko'p ishlansa, insho darsida matn ustida shuncha chuqur ishlash imkoniyati yaratiladi. Insho yozishdan oldin yoki og'zaki hikoyalashda yig'ilgan materiallarni o'quvchilar yodiga tushirish, ularda qiziqish uyg'otish, yozishga yoki hikoya qilishga xohish uyg'otish zarur.

Insho yozish uchun 2-sinfda odatda bir dars, zarur bo'lib qolsa, ikkinchi darsdan 15–20 daqiqa, 3–4-sinflarda bir yoki bir yarim dars, ayrim vaqtlarda ikki darsgacha ajratiladi. Bulardan tashqari, insho tahlili va xatolar ustida ishlash uchun 20–25 daqiqa vaqt ajratiladi. Bunda eng yaxshi yozilgan insholar tahlil qilinadi, imloviy, punktuatsion, nutqiy, mantiqiy xatolar va mazmundagi yetishmovchiliklar ustida ishlanadi.

Insho yozish darsida quyidagi bosqichlarga rioya qilinadi:

1. Mavzuni, inshoning vazifasini e'lon qilish (yoki yodga tushirish), uni o'quvchilar bilan muhokama qilish.

2. Kuzatish davrida to'plangan materialni tartibga solish yoki material yig'ish (masalan, rasmga qarab insho yozish uchun rasmni ko'rish) maqsadida suhbat o'tkazish.

3. Reja tuzish yoki avval tuzilgan rejaga aniqlik kiritish.

4. Matnni nutqiy tayyorlash, ya'ni zarur so'zlarni yozish, so'z birikmasi, gap yoki bog'lanishli matnning ayrim qismini tuzish, imlosi qiyin so'zlarning yozilishini tushuntirish va boshqalar.

5. Darsning asosiy qismi bo'lgan inshoni yozish. Bu jarayonda o'quvchilar inshoni yozayotganlarida, o'qituvchi ular ishini kuzatadi, ayrim o'quvchilarga (boshqalarga xalaqit bermay, ular e'tiborini chalg'itmay) individual yordam beradi.

6. O'quvchilar yozgan insholarini tekshiradilar, kamchiliklarini to'ldirib, xatolarini to'g'rilaydilar. Boshlang'ich sinflarda bolalar inshoni oqqa ko'chirmaydilar, kerakli tuzatishlarni ehtiyotlik bilan kiritadilar, bunday tuzatishlar uchun insho bahosi pasaytirilmaydi, aksincha, matnni yaxshi to'g'rilagan o'quvchi rag'batlantiriladi.

7. O'quvchilar inshoni o'qituvchiga tekshirish uchun topshiradilar, o'qituvchi ikki kun ichida tekshiradi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Keyingi ona tili darsining ikkinchi qismidan 15–25 daqiqa vaqt ajratib, tekshirilgan insholar yuzasidan yakuniy mashg'ulot o'tkaziladi (insho tahlil qilinib, xatolar ustida ishlanadi).

O'qituvchi har bir insho turi uchun o'quv vazifasini belgilab oladi. Masalan, rasmlar seriyasi asosida birinchi marta yozdiriladigan insho uchun quyidagi vazifalar belgilab olinadi:

1. O'quvchilarni inshoning yangi turi bo'lgan rasmlar seriyasi asosidagi insho bilan tanishtirish.
2. Rasmli reja asosida matn rejasini tuzish.
3. Reja qismlariga mos ravishda matnni xatboshilarga bo'lish va har birini xatboshidan yozish.
4. Insho matnini mustaqil tekshirish va takomillashtirish.

O'quvchilarning mustaqillik darajasi o'sib borgani sayin, inshoga talab ham orta boradi.

O'quvchilar inshosini tahlil qilish

Nutq o'stirish metodikasida o'quvchilar inshosi uchun baho me'yori muhim masala hisoblanadi. Tabiiyki, bunda yuqorida bayon etilgan asosiy talablarga rioya qilinadi.

O'quvchilar inshosini baholashda quyidagilar hisobga olinadi:

1. Insho mavzusining yoritilishi (Mazmun mavzuga mosmi, ya'ni yetarli yoritilganmi, haqiqatga mos keladimi?).
2. Reja, kompozitsiya, izchillik (reja to'g'ri tuzilganmi, materialni bayon qilish tartibi rejaga mos keladimi, mazmunda takror yo'qmi, zarur o'rinlar tushib qolmaganmi, izchillik buzilmaganmi, asosiy fikr aniqmi, xulosa chiqarilganmi?).
3. Janri, uslubi (hikoya tarzidagi matnda tasviriy va muhokama elementlari bormi, uslubda xatoga yo'l qo'yilmaganmi, insho mavzusi va vaziyatni yoritish vazifasini janr va uslub oqlay oladimi, badiiylik elementlari bormi?).
4. Insho hajmi (so'z, gap soni; lakonizm yoki ko'p so'zlilik).
5. Leksika (so'zlardan to'g'ri foydalanish, sinonim, antonim, frazeologizmlardan foydalanish).
6. Sintaksis (gapning hajmi, sintaktik tuzilmalarning bir xil yoki har xilligi, murakkab tuzilmalar bormi?).
7. Imloviy va punktuatsion savodxonlik, xatolar xarakteri (qo'pol va juz'iy xatolar).

www.ziyouz.com kutubxonasi

8. Husnixat, tashqi tomondan shakllantirish (hoshiyaga, xatboshidan yozishga, sarlavhani to'g'ri joylashtirishga rioya qilish).

O'quvchilar inshosiga qo'yilgan bunday talablar uni baholashda real yondashishga imkon beradi.

NUTQIY XATOLAR VA ULARNI BARTARAF QILISH YO'LLARI

Nutqiy xatolarga noto'g'ri (noo'rin) tanlangan so'zlar, noto'g'ri tuzilgan gaplar, morfologik shakllarni noto'g'ri ishlatish kiradi.

Boshlang'ich sinflarda bunday xatolar ustida ishlash ancha qiyin, chunki ularni to'g'rilash va oldini olish uchun ona tili dasturida berilgan qisqa nazariy ma'lumot yetarli emas. Bolalar nutqini takomillashtirish ustida rejali, muntazam ish olib borish uchun asosiy nutqiy xatolar turini bilish zarur. Bunday nutqiy xatolarni o'rganish, shuningdek, ularning kelib chiqish sabablarini tekshirish xatolarni to'g'rilash va oldini olish uchun zamin hozirlaydi.

Nutqiy xatolar uch turga ajratiladi: ***lug'aviy-uslubiy, morfologik-uslubiy, sintaktik-uslubiy.***

Boshlang'ich sinflarda lug'aviy-uslubiy xatolar ko'proq uchraydi. Bunday xatolarga quyidagilar kiradi:

1. Bir so'zni qayta-qayta ishlatish. Bunday xatoning kelib chiqishiga sabab, birinchidan, o'quvchi so'zni ishlatishga kam e'tibor beradi va faol lug'atidagi so'zdan takroriy foydalanadi; ikkinchidan, o'quvchining so'z boyligi kam, sinonimlarni bilmaydi, takrorlanadigan so'zlar o'rniga olmoshlardan foydalana olmaydi.

Agar o'qituvchi bir so'zni qayta-qayta ishlatmaslik uchun uning ma'nodoshlaridan yoki shu so'z o'rniga olmoshlardan foydalanish kerakligini yaxshi tushuntirsa, kichik yoshdagi o'quvchi matnni e'tibor bilan o'qib, takrorlarini nisbatan tez tuzata oladi.

2. So'zning ma'nosini yoki ma'no qirrasini tushunmaslik natijasida uni aniq ma'nosida ishlata olmaslik. Bunday xato bolaning nutqi yaxshi rivojlanmaganligi, so'z boyligining kamligi sababli yuzaga keladi.

3. Shevaga xos so'zlardan foydalanish. O'quvchilar bunday so'zlarni ota-onalarining nutqi va nutqiy sharoit ta'sirida qo'llaydilar. Ularda adabiy tilda qo'llanadigan tushunchalarni shakllantirish asosida shevaga xos so'zlarni ishlatmaslik ko'nikmasi hosil qilinadi.

Leksik xatolar xilma-xil bo'lgani uchun uni to'g'rilash va tushuntirish usullari ham turlicha, ammo bunday xatolarning oldini olishning

www.ziyouz.com kutubxonasi

umumiy yo'li bor: bu yaxshi nutqiy sharoit yaratish, o'qilgan va qayta hikoya qilingan matnni til tomondan tahlil qilish, matndagi so'zlarning ma'no qirrasini tushuntirishdir.

Morfologik-uslubiy xatolarga so'z shaklini, so'z o'zgartuvchi va so'z yasovchi qo'shimchalarni noto'g'ri qo'llashdan kelib chiqadigan xatolar kiradi.

Sintaktik-uslubiy xatolarga so'z birikmasi va gap tuzishga oid xatolar kiradi. Bunday xatolar juda xilma-xildir.

Kompozitsion, mantiqiy va dalillarni noto'g'ri bayon qilish nutqiy xato hisoblanmaydi.

Tipik kompozitsion xatoga insho, hikoya, bayonning tuzilgan rejaga mos kelmasligi, ya'ni voqea, kuzatishlarni bayon etishda izchillikning buzilishi kiradi.

Inshoga tayyorgarlik vaqtida o'quvchilar kuzatish, material to'plash, dalillarni tanlashda tartibsiz, rejasiz ish tutsalar, hikoyani qanday boshlash, keyin nimalar haqida yozish va uni qanday tugatishni aniq ko'z oldilariga keltira olmaydilar, natijada kompozitsion xatoga yo'l qo'yadilar. Bunday xato hikoya mazmunini to'liq qamrab ololmaslik, materialni o'z o'rniga joylashtira olmaslik natijasidir. Inshoni rejali, izchil yozish ko'nikmasi murakkab ko'nikma bo'lib, u o'quvchilarda muntazam bajariladigan mashqlar yordamida asta shakllana boradi.

Mantiqiy xatolar:

1. Tasvirlanayotgan voqea-hodisa uchun zarur bo'lgan so'z, ba'zan zarur lavha, dalil tushirib qoldiriladi. Bunday xatoning sababini tushunish uchun o'quvchining insho yozish vaqtidagi ruhiy holatini kuzatish talab etiladi. U sekin yozadi, ammo ishga berilib ketib, tez fikrlaydi, ya'ni u hikoya mazmunini biladi, ammo tez fikrlash va sekin yozish natijasida ayrim o'rinlar yozuvda aks etmay qoladi.

2. Mantiqiy izchillik buziladi. Masalan, *Zavodda paxtadan ip yigiriladi. Terimchi paxtani paxta terish mashinasida teradi.* Bunday mantiqiy xatolarni o'quvchilar matnni qayta o'qish va tahlil qilish jarayonida oson to'g'rilaydilar.

Xatolarni to'g'rilash va ularning oldini olish

O'quvchilar yo'l qo'ygan xatolarni guruhlash, ularning turlarini aniqlash va har bir xatoning kelib chiqish sabablarini o'rganish asosida nutqqa oid xatolarni to'g'rilash va ularning oldini olish tizimi ishlab chiqiladi:

www.ziyouz.com kutubxonasi

1) nutqqa oid xatolarni o'quvchilar daftarida to'g'rilash;

2) sinf o'quvchilari uchun umumiy bo'lgan nutqqa oid xatolar ustida sinfda ishlash (buning uchun darsning 15—20 daqiqalik qismi ajratiladi va tekshirilgan insho va bayon tahlil qilinadi, o'quvchilarning yo'l qo'yilgan xatoni mustaqil ravishda topishiga va uni to'g'rilashiga imkon beriladi);

3) ayrim individual xatolar ustida darsdan tashqari vaqtda ishlash, xatoni topish, tushuntirish va to'g'rilash;

4) yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan nutqiy xatolarning oldini olishga qaratilgan uslubiy mashqlar tizimi (o'qish va grammatika darslarida matnni til tomonidan tahlil qilish o'quvchilar yo'l qo'ygan xato ustida ishlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi);

5) o'quvchilarni tuziladigan matn leksikasidan, ayrim sintaktik qurilmalardan foydalanishga tayyorlash maqsadida har bir hikoya, insho, bayondan oldin uni til jihatidan mashq qilish;

6) imkoni bo'lsa, grammatik mavzu o'rganilayotganda, shu mavzu xatoning oldini olish uchun asos bo'lib xizmat qilishini ko'rsatish — tushuntirish;

7) o'quvchilarni yozgan insho va bayonlarini o'zlari tekshirishiga va mustaqil takomillashtirishi („tahrir qilish")ga maxsus o'rgatish.

Ko'rsatilgan yo'nalishlarning hammasi har bir sinf o'quvchilari uchun, ayniqsa, 3- va 4-sinf o'quvchilari uchun muvofiq keladi.

Nutqiy xatolarni to'g'rilash va oldini olish til ustida ishlash bilan bog'lab, maqsadga muvofiq holda uyushtiriladi.

Nutqiy xatolarni to'g'rilash. O'quvchilar og'zaki va yozma nutqida yo'l qo'ygan nutqiy xatolarni o'z vaqtida to'g'rilab borish zarur. O'quvchi yo'l qo'ygan xatosining to'g'ri variantini o'zlashtirsin, imkoni bo'lsa, xatoning kelib chiqish sababini tushunsin. Xatoni to'g'rilashning eng foydali usuli yo'l qo'ygan xatosini o'quvchining o'zi to'g'rilashi hisoblanadi, agar o'quvchi xatosini to'g'rilay olmasa, uni o'qituvchi to'g'rilaydi. Xato turiga qarab to'g'rilanadi: gap yoki so'z birikmasi qayta tuziladi, so'z boshqasi bilan almashtiriladi, zarur so'z qo'shiladi, ortiqchasi ustidan chiziladi.

Insho yoki bayonni tahlil qilish darsida xatolar ustida ishlash maqsadi uchun darsning ikkinchi qismi — 20—25 daqiqasi ajratiladi. O'qituvchi o'quvchilar insho yoki bayonni qanday yozganlari haqida qisqa tushuncha berib, eng yaxshi yozilgan matnni o'qib beradi, mazmundagi, mavzuni yoritishdagi kamchiliklar, imloviy va nutqiy xatolar aniqlanadi. Yo'l qo'yilgan xatoni to'g'rilash yo'li tushuntiri-

www.ziyouz.com kutubxonasi

ladi. Shundan so'ng xato ustida birgalikda ishlanadi: o'qituvchi yo'l qo'yilgan xatoning bir turini to'g'rilash yuzasidan topshiriq beradi: „Noo'rin ishlatilgan so'zni boshqasi bilan almashtiring". Xatosi bor matnni o'qib yoki yozib beradi, o'quvchilar yo'l qo'yilgan xatoni topadilar, maqsadga muvofiq so'z bilan almashtirib, uni to'g'rilaydilar va tushuntiradilar.

Ayrim o'quvchilar yo'l qo'ygan individual xatolar darsdan tashqari vaqtda, qo'shimcha mashg'ulot jarayonida to'g'rilanadi. O'quvchi bilan individual suhbatda ham, sinfda jamoa bo'lib ishlash jarayonidagi kabi bolalarning aqliy faolligiga, ya'ni u xatosi nimadaligini tushunibgina qolmay, balki uni to'g'rilashi va tushuntirishiga erishish muhimdir.

Grammatikaga oid mavzuni o'rganishda o'quvchilar yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan xatoning oldini olish uchun mazkur mavzu ularga qanday imkoniyatlar yaratishi tushuntiriladi. Masalan, „Olmosh" mavzusini o'rganganda, kishilik olmoshlarining takrorlangan so'zlar o'rnida qanday ishlatilishi o'quvchilarga misollar bilan tushuntirilsa, ular ham insho yoki bayon yozishda shunga rioya qiladilar.

O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirishdagi muvaffaqiyat quyidagi **uch asosiy** omilga bog'liq:

1) so'zga e'tibor bilan munosabatda bo'lish, o'quvchilarning ko'p mutolaa qilishi, atrofidagi kishilarning to'g'ri va ifodali nutqi, ya'ni nutqiy sharoit;

2) bolalarning nutqiy tajribasi qanday tashkil etilishi;

3) nutq o'stirishda o'qituvchining til nazariyasiga, grammatikaga, leksikologiya va stilistika elementlariga asoslanish ko'nikmasi.

Savol va topshiriqlar

1. O'quvchilar nutqini o'stirish sohasida ona tili ta'limi oldiga qo'yilgan asosiy vazifalarni ayting.

2. Boshlang'ich sinf o'quvchilaridan biri nutqining asosiy xususiyatlarini tekshiring.

3. Maktabda lug'at ustida ishlashning asosiy yo'llarini tushuntiring.

4. „Lug'at ustida ishlashda o'quvchilarning bilish faolligi va mustaqilligini oshirish" mavzusida axborot tayyorlang.

5. Izohli lug'atlar, sinonimlar, antonimlar, frazeologik lug'atlardan foydalanib, 1–4-sinf uchun ikkitadan leksik mashq tuzing.

6. Boshlang'ich sinflarda sintaktik ishlar haqida gapiring.

7. Fe'llarda shaxs-son va zamonni o'rganishga bog'liq holda so'z birikmasi ustida ishlashga oid bir necha mashq tayyorlang.

www.ziyouz.com kutubxonasi

8. „Ot“ mavzusini o‘rganishga bog‘liq holda gap ustida ishlashga doir to‘rtta mashq tayyorlang.

9. Bog‘lanishli nutqni o‘stirish jarayonida o‘quvchilarda hosil qilinadigan asosiy ko‘nikmalarni ayting.

10. „O‘quvchilar bog‘lanishli nutqini o‘stirishda namunaviy matnning o‘rni“ mavzusida axborot tayyorlang.

11. Hikoya tarzidagi matnni og‘zaki qisqartirib yoki tanlab qayta hikoyalashga bag‘ishlangan dars ishlanmasini tayyorlang.

12. 3-sinf „O‘qish kitobi“dagi hikoyalarning biridan foydalanib, ijodiy qayta hikoyalash uchun matn tuzing.

13. 4-sinf o‘quvchilari yozgan bayon matnini tahlil qilish chizmasini tuzing va shu asosda bir o‘quvchi bayonini tahlil qiling.

14. Tabiatni kuzatish asosida yoziladigan inshoga tayyorlanish va uni o‘tkazish bosqichlarini tushuntiring.

15. Bir o‘quv yili davomida insho va bayon o‘tkazish rejasini ishlab chiqing.

16. O‘quvchilar daftarini tekshiring va nutqiy xatoning har biriga misol tanlang. Xatoning kelib chiqish sababini va uni bartaraf qilish yo‘llarini tushuntiring.

17. Nutqiy xatolar ustida ishlash darsining bir qismi (20–25 daqiqa) rejasini tuzing.

18. O‘zingiz ilgari yozgan matnni tahrir qilib, tuzatishlaringizni sanang va xato turlarini ayting.

19. O‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirishdagi muvaffaqiyatga erishishning uch omilini misollar bilan tushuntiring.

www.ziyouz.com kutubxonasi

I

1. Karimov I. A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. – T.: „O'zbekiston", 2000.

2. Karimov I. A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: „Sharq", 1997.

3. Karimov I. A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. – T.: 1997. 5-jild.

4. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: „Ma'naviyat", 2008.

5. O'zbekiston Respublikasining „Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: „Sharq", 1997.

6. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: „Sharq", 1997.

7. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturi // O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining axborotnomasi, 7-maxsus son. – T.: „Sharq", 1999.

8. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha Yangi tahrirdagi davlat ta'lim standarti // „Boshl. ta'l". jurnali. – Toshkent, 2005. – № 5. 5, 6, 8–9-betlar.

9. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha Yangi tahrirdagi o'quv dasturi // „Boshl. ta'l". jurnali. – Toshkent, 2005. – № 5. 21–33-betlar.

II

1. A. Zunnunov va boshq. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: „O'qituvchi", 1992.

2. A. Rafiyev. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi va imlosi. – T.: 2003.

3. A. G'ulomov. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. – T.: „O'qituvchi", 1992.

4. B. Ma'qulova, T. Adashboyev. Kitobim – oftobim (1-sinf uchun sinfdan tashqari o'qish kitobi). – T.: „O'qituvchi", 1999.

5. B. Ma'qulova, S. Sa'diyeva. Sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari (1-sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma). – T.: „O'qituvchi", 1997.

6. B. Ma'qulova, S. Matchon. Kitobim-oftobim (2-sinf uchun sinfdan tashqari o'qish kitobi). – T.: „O'qituvchi", 2000.

www.ziyouz.com kutubxonasi

7. B. Ma'qulova, D. Nasriddinova. Kitobim – oftobim (1-sinfdan tashqari o'qish kitobi). – T.: „O'qituvchi" NMIU, 2008.

8. Boshlang'ich maktab darsliklarini yaratish mezonlari / Tuzuvchilar: Q. Abdullayeva, M. Ochilov, K. Nazarov, S. Fuzailov, N. Bikboyeva. – T.: 1994.

9. J. G'. Yo'ldoshev, S. A. Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: „O'qituvchi", 2004.

10. Y. Abdullayev. Eski maktabda xat-savod o'rgatish. – T.: „O'qituvchi", 1960.

11. K. Qosimova. Boshlang'ich sinflarda imlosi qiyin so'zlarni o'rgatish. – T.: 1964.

12. K. Qosimova, S. Fuzailov, A. Ne'matova. Ona tili (2-sinf uchun darslik). – T.: Cho'lpon, 2005.

13. K. Qosimova, A. Ne'matova. 2-sinfda ona tili darslari. – T.: Cho'lpon, 2004.

14. M. Xudoyberganova, M. Muxtorova. 3-sinfda ona tili darslari. – T.: „O'qituvchi", 2005.

15. M. Umarova, Sh. Hakimova. O'qish kitobi (3-sinf uchun darslik). – T.: Cho'lpon, 2008.

16. M. Umarova, Sh. Hakimova. O'qish darslari (3-sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma). – T.: Cho'lpon, 2008.

17. M. Xudoyberganova. Bayonlar to'plami. – Toshkent: 1995.

18. M. G'ulomov. Yozuv daftari. – T: „Ma'naviyat", 2008.

19. M. G'ulomov. Chiroyli yozuv malakasini shakllantirish. – T.: „O'qituvchi", 1992.

20. R. Ikromova, X. G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva, D. Shodmonqulova. Ona tili (4-sinf uchun darslik). – T.: „O'qituvchi", 2007.

21. R. Safarova va boshq. Savod o'rgatish darslari (Alifbeni o'qitish bo'yicha metodik qo'llanma). – T.: „Ma'naviyat", 2003.

22. R. Safarova va boshq. Alifbe. – T .: „Ma'naviyat", 2008.

23. R. Safarova, M. Inoyatova. Uyg'unlik kitobi. //„Boshl. ta'l". jurnali. – Toshkent, 2004. – № 5. 18–19-betlar.

24. R. Safarova. Nutqiy ko'nikmalarni tekshirish asoslari. //„Boshl. ta'l". jurnali. – Toshkent, 1997. – № 5. 10–11-betlar.

25. S. Matchonov, A. Shojalilov, X. G'ulomova, Sh. Sariyev, Z. Dolimov. O'qish kitobi (4-sinf uchun darslik). – T.: „Yangiyul poligraph service", 2007.

26. S. Matchonov va boshq. 4-sinfda o'qish darslari. – T.: „Yangiyul poligraph service", 2007.

www.ziyouz.com kutubxonasi

27. S. Matchonov va boshq. Boshlang'ich sinf o'qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish. – T.: „Yangiyul poligraph service", 2008.

28. S. Matchonov, X. G'ulomova. Nutq madaniyati. //„Boshl. ta'l". jurnali. – Toshkent, 2000. – 1. 8–10-betlar.

29. S. Matchonov, X. G'ulomova. Hikoya qanday o'tiladi? //„Boshl. ta'l". jurnali. – Toshkent, 2004. – № 6. 26–27-betlar.

30. S. Fuzailov, M. Xudoyberganova. Ona tili (3-sinf uchun darslik). – T.: „O'qituvchi", 2008.

31. T. G'afforova, X. G'ulomova, G. Eshturdiyeva. 1-sinfda savod o'rgatish darslari. – T.: „O'qituvchi", 1996.

32. T. G'afforova, E. Shodmonov, X. G'ulomova. Ona tili (1-sinf uchun darslik). – T.: „Sharq", 2005.

33. T. G'afforova, E. Shodmonov, G. Eshturdiyeva. Alifbe (Savod). – T.: „O'qituvchi", 1999.

34. T. G'afforova va boshq. O'qish kitobi (1-sinf uchun darslik). – T.: „Sharq", 2007.

35. T. G'afforova va boshq. 1-sinfda o'qish darslari. – T.: 2003.

36. Umumiy psixologiya. – T.: „O'qituvchi", 1999.

37. X. G'ulomova, T. G'afforova. 1-sinfda ona tili darslari. – T.: „Sharq", 2003.

38. X. G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva, U. Shermatova. 4-sinfda ona tili darslari. – T.: „O'qituvchi", 2003.

39. X. G'ulomova. 1-sinf ona tili dars ishlanmalaridan namunalar. // „Boshl. ta'l". jurnali. – Toshkent, 1996. – № 6. 11–14-betlar.

40. X. G'ulomova. So'z turkumi – sonni o'rganish. //„Boshl. ta'l". jurnali. – Toshkent, 2005. – № 4. 14–15, 37-betlar.

41. Sh. Sariyev. Savod o'rgatish darslarida nutq o'stirish. //„Boshl. ta'l". jurnali. – Toshkent, 1997. – № 4. 23-bet.

42. Yu. K. Babanskiy. Hozirgi zamon umumiy ta'lim maktabida o'qitish metodlari. – T.: „O'qituvchi", 1990.

43. O'. Tolipov, M. Usmonbekova. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari. – T.: „Fan", 2006.

44. O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim strategiyasi muammolari va ta'lim mazmunining yangi modellari, ularni tatbiq etish yo'llari/ R. Safarova, U. Musayev, P. Musayev, F. Yusupova, R. Nurjanova. – T.: „Fan", 2005.

45. Q. Abdullayeva, K. Nazarov, Sh. Yo'ldosheva. Savod o'rgatish darslari. – T.: „O'qituvchi", 1996.

www.ziyouz.com kutubxonasi

46. Q. Abdullayeva va boshq. O'qish kitobi (2-sinf uchun darslik).– T.: „O'qituvchi", 2007.
47. Q. Abdullayeva va boshq. 2-sinfda o'qish darslari. – T.: 2004.
48. Q. Abdullayeva. Birinchi sinfda nutq o'stirish. – T.: 1980.
49. Q. Abdullayeva, S. Rahmonbekova. „Ona tili darslari" (1-sinf o'qituvchilari uchun qo'llanma). – T.: 1999.
50. Q. Abdullayeva va boshq. Savod o'rgatish metodikasi. – T.: „O'qituvchi", 1996.

www.ziyouz.com kutubxonasi

MUNDARIJA

BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI O'QITISH METODIKASI – PEDAGOGIK FAN

Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi fanining predmeti va vazifalari 3
Ona tili o'qitish metodikasining tamoyillari 10
Ona tili o'qitish metodikasining tekshirish metodlari 12
Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish tarixidan 14
Ona tili – boshlang'ich sinflarda o'quv predmeti sifatida 16

SAVOD O'RGATISH METODIKASI

Savod o'rgatish metodikasining ilmiy, psixologik va lingvistik asoslari 19
Savod o'rgatish metodlarining qiyosiy-tanqidiy tahlili 24
Bolalarning savod o'rgatishga tayyorgarligini o'rganish 30
Savod o'rgatish jarayoni 32
Savod o'rgatish davrida o'quvchilarni o'qishga o'rgatish 35
Savod o'rgatish mashqlarining asosiy turlari 40
Savod o'rgatish davrida o'quvchilar nutqini o'stirish 44
Savod o'rgatish davrida grammatik-orfografik bilimlarni amaliy o'zlashtirish 49
Savod o'rgatish jarayonida yozuvga o'rgatish 54
Savod o'rgatish davrida o'qish va yozuv darslari 60
„Alifbe" darsligi qurilishining ilmiy-pedagogik tamoyillari 64

SINFDA O'QISH METODIKASI

O'qish darslarining maqsad va vazifalari, ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyati 67
O'qish darslarida qo'llaniladigan metodlar 70
O'qish malakalari va ularni takomillashtirish usullari 73
O'qish turlari 79
Kichik yoshdagi o'quvchilarning badiiy asarni idrok etishdagi psixologik xususiyatlari 81
Boshlang'ich sinflarda badiiy asarni tahlil qilishning metodik shartlari 83

www.ziyouz.com kutubxonasi

Badiiy asar ustida ishlash 88
Badiiy asarni o'qishga tayyorgarlik 89
Asar bilan tanishtirish 93
Badiiy asar matni ustida ishlash 94
O'qish darslarida mustaqil ishlar 103
Badiiy asarlarni janriy xususiyatlariga ko'ra o'rganish 104
Ertakni o'qish metodikasi 105
Ertak o'tish darsi namunasi 109
Hikoyani o'qish metodikasi 112
Hikoya o'tish darsi namunasi 116
Masalni o'qish metodikasi 120
She'rni o'qish metodikasi 125
She'r o'qish darsi namunalari 130
Maqol o'rganish metodikasi 137
Maqol o'rganish darsi namunasi 141
Doston o'qish metodikasi 144
Ilmiy-ommabop asarlarni o'qish metodikasi 146
Ilmiy-ommabop asarlarni o'rganish darsi 148
Topishmoq, latifa va tez aytishlarni o'rganish metodikasi 151
Topishmoq o'tish darsi namunasi 153
O'qishdan umumlashtiruvchi darslarni tashkil etish 156
Umumlashtiruvchi dars namunasi 159
O'qish darslarida nutq o'stirish 163

SINFDAN TASHQARI O'QISH METODIKASI

Sinfdan tashqari o'qishning maqsad va vazifalari 167
Sinfdan tashqari o'qish bosqichlari 168
Sinfdan tashqari o'qish uchun kitob tanlash tamoyillari 170
Sinfdan tashqari o'qishga rahbarlik shakllari 170
Sinfdan tashqari o'qish darslarining turlari 172
Sinfdan tashqari o'qish darsi namunalari 173
Sinfdan tashqari o'qish darslarini rejalashtirish 179

BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI O'QITISH METODIKASI

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ilmiy dunyoqarash elementlarini shakllantirishda ona tilini o'rganishning o'rni 185
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tilini o'rgatishning lingvistik asoslari 189

www.ziyouz.com kutubxonasi

Boshlang'ich sinflarda ona tilini o'rgatishning mazmuni va vazifalari ... 193
Boshlang'ich sinflarda ona tili darslarining turlari va ularga qo'yiladigan talablar ... 197
Umumlashtiruvchi dars namunasi ... 204
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida qo'llaniladigan metodlar ... 205
Fonetika va grafika asoslarini o'rganish metodikasi ... 209
Tovushlar va harflar, unli va undosh tovushlarning xususiyatlari bilan tanishtirish ... 210
Jarangli va jarangsiz undosh tovushlarning yozuvda ifodalanishi ... 212
Bo'g'in ustida ishlash ... 214
Grammatika va so'z yasalishiga oid tushunchalarni shakllantirishning metodik asoslari ... 215
Grammatik tushunchalarni o'zlashtirish ... 216
Tushunchani o'zlashtirish ustida ishlash jarayoni ... 217
Grammatik tushunchalarni o'zlashtirishning metodik shartlari ... 221
Grammatik va so'z yasalishiga oid mashqlar ... 227

BOSHLANG'ICH SINFLARDA SO'ZNING MORFEMIK TARKIBINI O'RGANISH METODIKASI

So'zning morfemik tarkibi va so'z yasalishi ustida ishlashning ahamiyati va bu jarayondagi vazifalar ... 233
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida so'z tarkibi va yasalishini o'rganish metodikasi ... 235
So'z turkumlarini o'rganish metodikasi ... 245
Otni o'rganish metodikasi ... 248
Sifatni o'rganish metodikasi ... 258
Sonni o'rganish metodikasi ... 261
Fe'lni o'rganish metodikasi ... 267
Olmoshni o'rgatish metodikasi ... 272
Boshlang'ich sinflarda sintaksis elementlari ustida ishlash metodikasi ... 277
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tinish belgilarining ishlatilishi bilan tanishtirish ... 283
Orfografiya o'qitish metodikasi ... 286
Ona tili darslarida lug'at ustida ishlash va nutq o'stirish ... 293
Ona tilidan bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish ... 297

www.ziyouz.com kutubxonasi

O'QUVCHLAR NUTQINI O'STIRISH METODIKASI

Nutq va uni o'stirish tushunchasi 300
Nutq turlari 302
O'quvchilar nutqiga qo'yiladigan talablar 303
Nutq – o'quvchilar tafakkurini o'stirishdagi muhim vosita 304
O'quvchilar nutqini o'stirishning boshqa o'quv predmetlari bilan bog'liqligi 305

LUG'AT USTIDA ISHLASH METODIKASI

Lug'at ustida ishlashning lingvistik asoslari 308
So'z ma'nosini tushuntirish 311
Ma'nodosh so'zlar ustida ishlash 313
Zid ma'noli so'zlar ustida ishlash 314
Ko'p ma'noli va shakldosh so'zlar ustida ishlash 315
Mantiqiy mashqlar 316
O'quvchilar nutqini o'stirish tizimida sintaktik ishlar 317
So'z birikmasi ustida ishlash 317
Gap ustida ishlash 318
Bog'lanishli nutq va uni o'stirish vazifalari 321
Bog'lanishli nutqqa oid asosiy ko'nikmalar 322

BOG'LANISHLI NUTQ, OG'ZAKI QAYTA HIKOYALASH VA YOZMA BAYON

Og'zaki va yozma qayta hikoyalashga qo'yiladigan talablar 324
To'liq yoki matnga yaqinlashtirib qayta hikoyalash va bayon 326
Bog'lanishli nutq, og'zaki hikoya va yozma insho 330
O'quvchilar tarbiyasida inshoning ahamiyati 333
Inshoni yozishga tayyorlash 336
O'quvchilar inshosini tahlil qilish 338
Nutqiy xatolar va ularni bartaraf qilish yo'llari 339
Xatolarni to'g'rilash va ularning oldini olish 340
Adabiyotlar 344

www.ziyouz.com kutubxonasi

Karima Qosimova, Safo Matchonov,
Xolida G'ulomova, Sharofat Yo'ldosheva,
Sharofjon Sariyev

ONA TILI O'QITISH METODIKASI

Boshlang'ich ta'lim fakulteti
talabalari uchun darslik

Muharrir ***U.Shermatova***
Muqova rassomi ***A.Boyxon***
Texnik muharrir ***J.Bekiyeva***
Sahifalovchi ***A.Tillaxo'jayev***
Musahhih ***H.Boqiyeva***

Chop etishga 30.03.2009 yilda ruxsat etildi. TimesET garniturasi. Ofset bosma usulida chop etildi. Ofset qog'oz. Bichimi $60\times84^{1}/_{16}$. Shartli bosma tabog'i 22,0. Nashr b.t. 20,53. Buyurtma raqami №11. Adadi 500 nusxa. Bahosi shartnoma asosida.

«NOSHIR» MChJ nashriyoti. Toshkent shahar, Navoiy ko'chasi, pastki savdo rastalari.

«NOSHIR» MChJ bosmaxonasida chop etildi. Toshkent shahar, Navoiy ko'chasi, pastki savdo rastalari.

www.ziyouz.com kutubxonasi